

HAMROEV HALIM ROZIQOVICH

TURIZM

MAMLAKATSHUNOSLIGI

Darslik



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROEV HALIM ROZIQOVICH

TURIZM MAMLAKATSHUNOSLIGI

Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik

Bilim sohasi:	1000000	Xizmatlar sohasi
Ta'lim sohasi:	1010000	Xizmat ko`rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishi:	71010401	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2022**

UO'K 338.48(100)(075.7)

75.81(0)я8

H 35

Hamroev, Halim Roziqovich

Turizm mamlakatshunosligi [Matn] :darslik / H. R. Hamroev. - Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2021. - 492 b.

КБК 75.81(0)я8

Sizga havola qilinadigan darslik jahon turizmining muhim qirralaridan biri bo'lgan mamlakatlarda turizmni rivojlanish imkoniyatlari, ularda turizm uchun yaratilgan shart – sharoitlar, rivojlanish omillari, turizm industriyasi va infratuzilmasi holatlarini tahlil qilishga qaratilgandir. Har bir mamlakatda turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlantirishga imkon tug'diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalar, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o'zida o'ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o'z o'rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator sohalarni qamrab olgandir. Turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohalarini mujassam etganki, bu butun jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Alohida mamlakatlar xo'jaligiga ham, hududlarga ham u birday tegishli. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab-quvvatlanib turiladi. U xizmatlar bilim sohasining xizmat ko'rsatish ta'lim sohasining 71010401 – Turizm (faoliyat turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi talabalariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

N.S.Ibragimov - BuxDU, «Servis sohasi iqtisodiyoti» kafedrasida dotsenti, i.f.d.

B.F. Azimov - Buxoro muhandislik texnologiya instituti dosenti, i.f.n.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-maydagi 1066-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 106-575.

ISBN 978-9943-8284-1-4

Pochta varaqasidagi rasmga qarab yozgi kurortga baho berma!
(**xalq maqoli**)

KIRISH

Turizm sohasiga jahonning YaIMning 10 foizi, jahon eksportining 6.5 foizi, xizmatlar eksportining 30 foizi to'g'ri kelmoqda, butun dunyo soliq tushumlarining 5% to'g'ri keldi (bu ma'lumotlar pandemiyadan oldingi yil uchun xarakterli edi). Jahon miqyosida har o'nta ish bilan bandlarning biri (313 mln. kishi) turizm sohasiga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari, hozir jahonda yaratilayotgan ish joylarning 20 foizini, o'n yildan keyin esa 25 foizini turizm beradi.

Keyingi yillarda turizm tashqi kataklizmlarga (terroristik aktlar, fuqarolar urushi, virusli kasalliklar, sanksiyalar siyosati va b.) juda ham sezuvchan bo'lib qoldi. Buning oqibatida esa turizmning o'ziga xos turlari va yo'nalishlarining kelib chiqishiga hamda dam oluvchilarning nozik ehtiyojlarini qondirishga sabab bo'ldi.

Turizm mamlakatshunosligi fani jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish darajasi, istiqbollari va dinamikasini o'rganadigan fan hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarining ko'pchilik qismida turizm yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va u mamlakat byudjetiga salmoqli daromad keltiradi. Bundan tashqari, mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mavjud resurslardan oqilona foydalanish va turizm sohasini barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kerakli shart - sharoitlar yaratishda mutaxassislar, iqtisodchilar mamlakatda turizm rivojlanish qonuniyatlarini, sohaning o'ziga xosligini yaxshi tushunishi, to'g'ri xulosalar chiqara olishi zarur. Turizm mamlakatshunosligi shu kabi muammolarni oqilona hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashda xizmat qiladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda ushbu darslik xizmat qiladi, deb umid bildiramiz.

Fanning maqsadi va vazifalari. Fanni o'qitishning asosiy maqsadi – jahon mamlakatlari turizmini yanada mukammal o'rganishni nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari hamda masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedogogik,

o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalarga asoslangan holda ochib berishdan va uni usullari bilan tanishtirishdan iborat.

“Turizm mamlakatshunosligi” fanining maqsadi magistrantlarda turizmning mamlakatlarda turlicha rivojlanishi va kishini o'ziga maftun etadigan joylari, tabiatning nodir sayrgohlari, me'moriy – arxitektura yodgorliklarini va boshqa resurslari haqida ma'lumot beradi. Turizm rivojlangan va boshqa mamlakatlarda turizm rasmiyatchiligi, viza tartibi haqida ma'lumot beradi.

Fanni o'qitishning asosiy vazifalari – ushbu fan magistrantga jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish darajasi istiqbollari va dinamikasini, uning asosiy omillarini o'rgatadi. Fanning - tavsiflovchi, information-ma'lumotlar berish, turistik imidj, gnoseologik, qiyosiy, analitik va sintetik, situation, tushuntirish, prognozlash, muammoli, kompleks, integral kabi funktsiyalari mavjud.

Turizm mamlakatshunosligi fani bo'yicha tayyorlangan ushbu darslik o'z ichiga shu fan bo'yicha ma'ruza va seminar mavzularini o'tish uchun asos bo'ladigan uslubiy materiallarni, jumladan, tayanch konspekti, talabalar bilimni aniqlash uchun umumiy savollar, test topshiriqlari, glossariyni, talabalar shu fanni o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan o'quv materiallarni, adabiyotlar ro'yxatlarini o'z ichiga oladi.

Fanning ilmiy muammolari: Turizm juda ko'pgina mamlakatlarda to'lov balansiga amal qilishda, mamlakat uchun valyuta ishlashda, xalq farovonligini ko'tarishda muhim omil bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda turizm dunyoda aholi bandligining muhim generatoriga aylanib bormoqda va jahon infratuzilmasiga juda katta miqdorda sarmoyalarni jalb etmoqda. Bu esa mahalliy aholini ham, tashrif buyuruvchi turistlarning ham turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Turizm sohasida juda ko'p ish o'rinlari turistik korxonalar rivojlanayotgan hududlarda paydo bo'ladi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni muvozanatlantirish, qishloq aholisini barcha qulaylikka ega shaharlarga qarab oqishining oldini olishga yordam beradi.

Darslikni yozishda o'zbek va xorijiy tillarda nashr etilgan adabiyotlar hamda shu soha bo'yicha internet tizimidan olingan ma'lumotlar va materiallardan foydalanildi.

I MAVZU. TURIZM MAMLAKATSHUNOSLIGI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad turizm mamlakatshunoslik fanining predmetini, o'byektini, shu fanni o'zlashtirishdan talaba oldiga qo'yiladigan maqsad va vazifalrni mohiyatini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

- 1.1. “Turizm mamlakatshunosligi” kursining o'ziga xosligi, maqsadi, vazifalari va funksiyalari**
- 1.2. Jahon iqtisodiyotida turizmning o'rni**
- 1.3. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish darajasi va dinamikasi**
- 1.4. Turizm mamlakatshunosligining fanlar tizimidagi o'rni**

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm (tourism), turist (tourist), ekskursiyachi (some day tourist), xalqaro turizm (International tourism), ichki turizm, mamlakatshunoslik, turizm mamlakatshunosligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аллаберганов А. Халқаро сайёҳлик соҳасида мақсадли бозор сегментини танлаш. Бозор, пул ва кредит. 2000. 12-сон, 66 бет.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400.
3. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
4. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
5. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
6. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
7. Биржаков М.Б, Введение в Туризм: Учебник. — Издание 8-е, переработанное и дополненное. - СПб. «Издательский дом Герда», 2006. — 512 с.
8. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/759231/> Издательство: Кнорус, 2021 г.

9. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
10. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
11. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
12. Cooper, Hall. Tourism: Principles and Practice. Longman.2008.
13. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
14. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org/unwto-tourism-highlights-2019).
15. Walter Hunziker, Le Tourisme, Editions Gurten, Berne. 1972, p.1. <https://www.worldcat.org/title/tourisme-caracteristiques>
16. Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.
17. Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; №26, Istanbul, 1989, s.20.
18. www.vikipediya.ru
19. www.unwto.org.

1.1 “Turizm mamlakatshunosligi” kursining o’ziga xosligi, maqsadi, vazifalari va funktsiyalari

XIX asrga kelib fan va texnikani rivojlanishi, ilm fandagi keskin burilishlar insonlarni olam va uning tuzilishi haqidagi fikrlarini tubdan o’zgartirib yubordi. Yangi texnika va texnologik vositalarning kashf etilishi va ularning ilmiy nuqtai nazardan isbotlanishi bilan bir qatorda xizmat ko’rsatish sohalarining eng muhim tarmoqlaridan biri bo’lmish turizm, bir qancha milliy iqtisodiy strategik ahamiyatga ega bo’lgan sohalardan biriga aylandi.

«Turizm so’zining negizi hisoblangan «Tour» so’zi lotincha «Tornare» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, doiraviy shakl ma’nosini anglatadi. Bu so’z o’z ma’nosini o’zgartirmasdan boshqa g’arb tillariga ham kirib kelgan. Masalan, frantsuzchada «aylanish» ma’nosiga to’g’ri keluvchi «tourner» va «tour» so’zlari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. Inglizchada esa turizm so’zi turist so’zidan olinib, 1811 yillarda yuzaga kelgan. Nemischada esa faqatgina «auslander» (ajnabiy yoki xorijiy) so’zi ishlatilar edi. 1958 yilda nemis tilida alohida e’tiborga olinib turizmning ekivalenti bo’lmish

«fremdenverkehr» yoki «tourismus», turist soʻzining ekivalenti esa «turist» tarzida qoʻllanila boshlandi»¹. Internatsional Vebster lugʻatida tur (tour) ning maʼnosi quyidagicha ifodalangan: «Ish, zavq olish, oʻqish uchun qilinadigan sayohat va bu sayohatlar mobaynida turli xil joylarni ziyorat qilishdan va rejalashtirilgan sayohat dastlab sayohat turidan yuzaga keladigan jarayon tur deb ataladi»². Sayohatchi maʼlum muddatdan soʻng oʻz yurtiga qaytadi. Etimologik xatoga yoʻl qoʻymaslik va bu hodisaning chegaralarini belgilash maqsadida turizm soʻzini aniq taʼriflashga harakat qilingan, chunki: tadqiqot va tahlil qilishda; statistik maʼlumotlarni toʻplashda; qonuniy va maʼmuriy normativ hujjatlarni ishlab chiqishda, shuningdek, ular bilan ishlashda; turizmning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning turizm sohasiga qiziqishlari XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yuzaga keldi. F.V. Ogilviening fikricha, ilk marotaba turizm ilmi haqida 1899 yilda Italiyada chop etiladigan «**Giornale degli Economisti**» gazetasida «Sul movimento forestieri in Italia» nomli maqola chop etildi. Bundan tashqari, Kurt Kraf turizm xususidagi ilk tadqiqotni E. Guer - Feuler tomonidan 1895 yilda nashr qilingan «Beitraege zu einer Statistik des Fremdenverkehrs» bilan roʻyobga chiqarilgani va shuningdek, 1883 yili oʻsha yozuvchining Tsyurixda nashr qilingan yana «Amteichter Bericht ubez das Schweizer Hotelwesen» nomli asariga taqriz berilgani olimlarning turizmga qiziqishlarini tasdiqlaydi.

Avstriyada ham turizmga nisbatan birinchi ilmiy qarashlar Graz shahrida 1884 yil 13-14 martda boʻlib oʻtgan «Delegiertentages Zur Forderung des Fremdenverkehrs in den Osterreichischen Alpen Laendern» majlisida tilga olingan. Bu majlisga raislik qilgan yozuvchi Jozep Stadner turizmni iqtisodiy faoliyat sifatida ifodalagan³.

Hozirgi kunda isteʼmolchilar hamma sohalar boʻyicha tovar va xizmatlarni tanlash imkoniyatiga egadirlar. Buning taʼsirini turizm sohasida ham koʻrish mumkin. Chunki isteʼmolchilarning talabi doimo oʻzgarib turadi; ular yangi taassurotlarni qidirishadi, moda va

¹ Walter Hunziker, Le Tourisme, Editions Gurten, Berne. 1972, p.1.

² Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.

³ Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; №26, Istanbul, 1989, s.20.

kundalik hayotining o'zgarishi esa ularning fikrlarini osongina o'zgartiradi, shu bois iste'molchi qiziqishlarini, nimani afzal ko'rishlarini va ularning munosabatlarini bilish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi.

Mamlakatshunoslik - geografiyaning aniq hududlar (materiklar, mamlakatlar, yirik rayonlar) ni o'rganish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Mamlakatshunoslik - antik dunyoda vujudga kelgan va odamlarning turli mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilib olish amaliy ehtiyojlari orqali shakllangan. Bir necha ming yilliklar davomida, Gerodotdan boshlab Strabongacha, u mamlakatlar tabiati va xalqlarining hayotini qamrab olgan holda, universal xarakterga ega bo'lgan. Ko'pincha, bunday asarlarning mualliflari ushbu mamlakatlarda bo'lib kelgan sayohatchilarning o'zlari edilar. Mualliflarning ta'rifida ularning diqqatini tortgan barcha hodisalar joy olgan, hikoya qilish tartibini esa odatda, sayohatning yo'nalishi belgilar edi. Bu asarlarning ko'pchiligida yirik bo'linmalarga ajratish (tabiat, aholi, xo'jalik va h.k.) ning aniq tizimi bo'lmagan. Shu bilan birga mamlakatshunoslik asarlari katta ahamiyatga ega. Mamlakatshunoslikning umumta'lim fanlaridan biri sifatidagi ahamiyati o'rta va oliy maktabda kattadir.

Fanning ob'ekt-predmet mohiyatini aniqlash mas'uliyatli vazifadir, chunki tadqiqot ob'ekti va predmeti uning ilmiy bilimlar tizimidagi o'rnini aniqlash va saqlashga imkon beradi. Turistik mintaqaviy tadqiqotlar ob'ekti sifatida dunyo mamlakatlari chiqadi. Fanning predmeti - dunyo mamlakatlarining turistik sohalarini fazoviy-vaqt jihatdan tashkil etilishi hisoblanadi. Shunday qilib, turistik mintaqashunoslik - fan va amaliyotning ma'lum sohasi bo'lib, dunyo mamlakatlaridagi odamlarning turistik faoliyatini fazoviy-vaqt jihatdan tashkil etish haqidagi fandır.

Mamlakatshunoslik insoniyatning eng qadimgi fanlaridan biridir. Yer yuzida birinchi davlatlar va ular o'rtasidagi aloqalar paydo bo'lishi bilanoq, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tizimlashtirish va ko'plab amaliy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'ldi: davlat harbiy-siyosiy muammolaridan tortib sayohatchilarning shaxsiy muammolarigacha. Turizmning ommaviy ijtimoiy hodisa sifatida vujudga kelishi bilan jamiyatning turistik mamlakatshunoslikka bo'lgan ehtiyoji tabiiy ravishda dolzarb bo'lib qoldi.

Fanni o'rganish turizm va mehmondo'stlik sohalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u dunyoning professional manzarasini shakllantiradi, mamlakatlar va ularning bebaho turizm tajribasi haqida bilim beradi, ularni mustaqil bilim olish vositalari bilan qurollantiradi. Mamlakatlarning yangi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini kelajakda shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Kelajakda olingan bilimlar keng amaliy qo'llanish sohasiga ega bo'ladi: turistik faoliyatni tashkil etishda, turoperator va sayyohlik agentligi faoliyatida, turistik dizayn, turistlar xavfsizligini ta'minlashda, madaniyatlararo aloqalarda va boshqalarda asqotadi.

Umumiy holda fanning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

*tavsiflovchi, bu ma'lum bir tildan foydalangan holda mamlakatlarni bilish natijalarini aniqlashdan iborat (masalan, mamlakatga turistik oqimlarning mavsumiyligini belgilaydigan omillar);

* information-ma'lumotlar funktsiyasi - mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va taqdim etishdan iborat;

* turistik imidj, bu mamlakatlarning turistik qiyofasini shakllantirish va ta'minlashdan iborat;

* gnoseologik, bu kognitiv va tarbiyaviy kontekstga ega bo'lgan mamlakatlarni bilish orqali dunyo manzarasini shakllantirishdan iborat;

* qiyosiy (shu jumladan baholovchi), bu turizm sohasidagi ayrim hodisalarning (jarayonlar va ob'ektlarning) mamlakatlar ichidagi yoki o'rtasidagi o'xshashliklari va farqlarini aniqlashdan iborat;

* analitik va sintetik, ular mos ravishda butunni (mamlakatlarning turistik sohalarini) qismlarga bo'lishdan va ularni butunning tarkibiy qismlari sifatida bilishdan va aksincha, qismlarni birlashtirib, ularni bir butun sifatida bilishdan iborat;

* situation (vaziyatlilik), yani muayyan holatlar natijasida vujudga kelgan hozirgi vaziyat nuqtai nazaridan mamlakatlarni bilishdan iborat;

* tushuntirish, bu mamlakatlarning turistik sohasidagi bilish mumkin bo'lgan hodisalarning mohiyatini ochib berish va (yoki) berishdan iborat;

* prognozlash (bashoratlash), yani turizm sektorlarining (yoki ularning tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning) kelajakdagi holatini ehtimollik bilan aniqlashdan iborat;

* muammoli, bu aniq nazariy, uslubiy va amaliy muammolarni hal qilishdan iborat;

* kompleks, yani turistik jarayonlarni tushunush uchun boshqa fanlar bilimlaridan fanlararo foydalanish nuqtai nazaridan mamlakatlarning turistik hodisalarini maqsadli ravishda har tomonlama bilishdan iborat;

* integral, mamlakatlarning turistik faoliyatlarini yaxlit va har tomonlama bilishdan iborat.

Britaniyalik olimlar V.C. Kuper va K.M. Xoll turistik sayohatning xatti-harakati va geografiyasiga ta'sir qiluvchi omillar va shartlarning quyidagi guruhlarini ajratadi:

- ✚ Ega bo'lingan daromad, bu sayohat qilish va ehtiyojlarni qondirish uchun zarurdir, u sayohatning mavjudligiga va ularning maqsadlariga, foydalaniladigan infratuzilmaga, sayohat masofasiga va boshqalarga ta'sir qiladi.
- ✚ Ega bo'lingan bo'sh vaqt, bu sayohat muddatini, boriladigan joy masofasini va turistik yo'nalishlarni tanlashni belgilaydi.
- ✚ Fuqarolarning huquq va erkinliklari. Ayniqsa, xorijga sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun odamlar xalqaro va davlat huquqi normalarida mustahkamlangan muayyan yo'nalishlar bo'yicha sayohat qilish huquq va erkinliklariga ega bo'lishi kerak.
- ✚ Sog'liqni saqlash sharoitlari sayohat imkoniyatlarini cheklashi va davolash yoki salomatlikni tiklash kabi turizm sohalarini rivojlanishni rag'batlantirishi mumkin.
- ✚ Axborotning mavjudligi turistik ob'ektlarning mavjudligi va turistik faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlarida sifatli ta'minlanishining asosiy omillaridan biridir.
- ✚ Xavfsizlik darajasi zamonaviy sharoitdagi jinoyatchilik, siyosiy barqarorlik va inson salomatligi uchun xavf-xatarlardan kelib chiqib, turistik yo'nalish tanlashda asosiy omilga aylanib bormoqda.
- ✚ Oila a'zolarining manfaatini hisobga olish, ayniqsa g'amxo'rlikka muhtoj bo'lganlarning, xususan, bolalar, qariyalar, bemorlarning manfaatlarini hisobga olishni talab qiladi.

- ✚ Mehnatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, ajratilgan ta'tillar, shuningdek, ta'til va mehnatga munosabat madaniyati orqali ta'sir qiladi.
- ✚ Yashash joyining geografik joylashuvi (shu jumladan transportning rivojlanish darajasi) turistlarning xulq-atvorini belgilovchi (xususan, sayohat maqsadi va joyini aniqlash) hal qiluvchi omillardan biridir.
- ✚ Gender omili, sayohatni murakkablashtirishi, ma'lum bir jins vakillari uchun imkonsiz yoki xavfli bo'lishi mumkin.
- ✚ Xulq-atvor va iste'mol madaniyati odamlarning turistik faolligiga va ularning xulq-atvorining xususiyatlariga kuchli ta'sir qiladi [Cooper, Hall. Tourism: Principles and Practice. Longman.2008].

Sanab o'tilgan omillarga mamlakatlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni, sayohatchilarning yosh xususiyatlarini, iqlimni (masalan, tashqi turistik faollik deyarli har doim sovuq iqlimi bo'lgan mamlakatlardan qulay mamlakatlar foydasiga yuqori bo'ladi) va ko'plab omillarni qo'shish kerak.

Amaliyot jarayonida turistik mamlakatshunoslik quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

➤ Maorif funtsiyasi - jamiyatning eng keng qatlamlariga va qator korxonalariga reklama, marketing maqsadi uchun zarur bo'lgan mamlakatning, davlatning "obraz"ini yaratishdan iborat;

➤ Ma'lumot yig'ish funktsiyasi – tabiati, aholisi, unda yashavchi xalq va elatlari, madaniyati, mamlakatning iqtisodiyoti, uning o'ziga xos xususiyat va umumiy jihatlari to'g'risidagi turli xil ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, yetkazib berish va foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

➤ Rivojlantirish funktsiyasi – turli mamlakatlarning turistik bizneslar tomonidan territoriyalarni egallash uchun asos bo'ladigan xalqaro va mamlakat ichdagi aloqa va munosabatlarni rivojlantirish, buning uchun turli xil yo' ko'rsatmalarni yaratish va nashr qilish, turizm sohasidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini optimallashtirishdan iborat;

➤ Ta'limiy funktsiya – turizm sohasida kadrlar tayorlayotgan oliy va boshqa o'quv yurtlarning ish jarayonida foydalanishdan iborat.

Turizm mamlakatshunoslik – ma'lum bir mamlakatning u yoki – bu maydonida turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun zarur

bo'ladigan barcha komponentlarni, uning tabiatini, umuman aholisini va alohida xalq va elatlarini, tarixi va madaniyatining o'ziga xosligini, siyosati, xo'jaligi va atrof – muhitining o'ziga xos jihatlarini va boshqa muhim tomonlarini o'rganishdan iborat.

Mamlakatni o'rganishdan pirovard maqsad – turizm rivojini tashkillashtirishning yalpi shart - sharoitlari sifatida kompleks turistik xarakteristikani yaratishdan iborat. Buning uchun komponentlarni o'zaro aloqadotligini va o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat, chunki faqat ularning uzviy bog'liqligi, ma'lum maydonning kompozitsiyasini, o'ziga xosligini belgilab beradi, turizmda mamlakat obrazining xususiyatlarini aniqlab beradi.

Turistik mamlakatshunoslik geografik mamlakatshunoslikdan juda ko'p narsani olgan: mamlakatlarga ta'rif berish rejasi, tabiatni tashkil etuvchi component va hodisalarga munosobati, ma'lum bir territoriyani geografik o'ziga xosligi bilan birga beriladi.

Turistik o'rganishning bosh vazifasi mamlakatlarning obrazini yaratishdan iborat, bu esa barcha komponentlarda kompozitsiyalrni, mozaiikalarni, o'ziga xosliklarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ammo, turizmda mamlakatshunoslik geografik mamlakatshunoslikdan shunisi bilan farq qiladiki, u faqat mamlakatda turizmni rivojlantirishga imkoniyat va sharoit yaratib beradigan ob'yektlarni (komponentlarni, hodisalarni, jarayonlarni) inobatga oladi va o'rganib chiqadi.

Turizm mamlakatshunosligi kursini vazifalari - xorijiy davlatlar turizm tizimini o'rganish, chet el turizm markazlari, ularning yo'nalishlari va faoliyatlarini tahlil qilish, turistik xizmatlar va mahsulotlar tarkibiy tuzilishini aniqlash, xorijiy davlatlarda turistik tashkilotlarni tashkil etish yo'llarini o'rganish, turistik mamlakatlar tarixi va siyosati bilan tanishish, mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va qo'llash, xalqaro turizmde mehmonxona tizimlari va ularning hududiy rivojlanish holatlarini ko'rib chiqish, turizmde globallashuv jarayoni xususiyatlarini o'rganish, mintaqalar bo'yicha turizmni rivojlanish istiqbollari bashoratlash, shuningdek, turizm industriyasida axborot texnologiyalarining rivojlanish holatlarini hamda turistik mamlakatlarning mintaqalar bo'yicha geografik o'rni, joylashuvi, qilinayotgan turistik tashriflar va daromadlarni tahlil qilish, zamonaviy turizm industriyasining mamlakat va dunyo miqyosida

rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish va kerakli xulosalarni chiqarishdan iborat.

1.2. Jahon iqtisodiyotida turizmning o'рни

XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. 2020 yil boshida turizm sektorining jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan to'g'ridan-to'g'ri hissasi qariyb 2.8 trillion AQSh dollarini – YaIMning 3.3 foizini, jami – 8.9 trillion AQSh dollarini – YaIMning 10.3 foizini tashkil etdi. Turizmning jahon eksportidagi hissasi 6'6 foizni (1.7 trillion dollar) tashkil etdi. Turizmda band bo'lganlarning umumiy soni 330 million kishiga yetdi (dunyoda band bo'lganlarning 1/10 qismi).

Jadval -1.1. Turizmning YaIMga qo'shgan hissasi va aholi bandligi bo'yicha top - 10 lider mamlakatlar

O'рни	YaIMga qo'shgan hissasi		O'рни	Aholi bandligiga qo'shgan hissasi	
	Mamlakat	Mlrd.doll.		mamlakat	Mln.kishi
1.	AQSh	570.1	1.	Xitoy	29.1
2.	Xitoy	406.6	2.	Hindiston	27.1
3.	Germaniya	141.3	3.	AQSh	5.9
4.	Yaponiya	121.3	4.	Filippin	5.8
5.	Italiya	119.2	5.	Indoneziya	4.7
6.	Frantsiya	111.7	6.	Meksika	4.7
7.	Buyuk Britaniya	106.7	7.	Germaniya	3.1
8.	Hindiston	104.9	8.	Vyet Nam	2.6
9.	Meksika	100.0	9.	Braziliya	2.5
10.	Ispaniya	80.7	10.	Tailand	2.5

Manba: Саранча М. А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. — Москва: КНОРУС, 2020. 12с.

Ko'rsatkichlar dunyo bo'ylab yuqori notekis taqsimotni ko'rsatadi: 10 ta yetakchi davlat dunyo yalpi ichki mahsulotining deyarli 2/3 qismini va band aholining qariyb 70 foizini tashkil qiladi. Kichik mamlakatlar (ayniqsa, issiq kenglikdagi orol mamlakatlari) iqtisodiyotida esa turizmning yuqori hissasi ham mavjud.

Turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 1.0 trillion dollarni tashkil etdi. Yetakchilar AQSh va Xitoy bo'lib, ular birgalikda turizmga jami jahon sarmoyasining deyarli 4/10 qismini tashkil qiladi. Katta hajmdagi investitsiyalar Frantsiya, Yaponiya, Hindiston, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya, Braziliya va Turkiyaga ham xosdir. Umuman olganda, investitsiyalar geografiyasi ularning yirik iqtisodiyotlarda yuqori konsentratsiyasini ko'rsatadi. Turizm sohasida nisbatan barqaror o'sish kuzatildi, uni yanada rivojlantirish bo'yicha prognozlar berilgan. Biroq ko'pchilik mamlakatlarning COVID-19 koronavirus pandemiyasiga munosabati, bir qator omillar ta'sirida turizm sohasi uchun jiddiy oqibatlariga olib keldi. Shunday qilib, Jahon turizm va sayohat kengashining hisob-kitoblariga ko'ra, turizmda band bo'lganlar soni va uning YaIMga qo'shadigan hissasi bir yil ichida 30 foizga kamaydi. UNWTO 2020-yil may oyi oxirida xalqaro turizmning 58-78% gacha qisqarishi xavfini baholadi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida turizmga cheklovlar joriy qilingan, mamlakatlarning 72 foizi chet ellik sayyohlar uchun chegaradosh.

Jadval-1.2. Xalqaro turizmdan tushumlar va xarajatlar bo'yicha lider mamlakatlar

O'rin	Xalqaro turizmdan kirimlar		O'rin	Xalqaro turizmdan xarajatlar	
	Mamlakat	Mlrd.doll.		Mamlakat	Mlrd.doll.
1.	AQSh	210.7	1.	Xitoy	264.4
2.	Ispaniya	68.0	2.	AQSh	181.1
3.	Frantsiya	60.7	3.	Germaniya	103.6
4.	Tailand	57.5	4.	Buyuk Britaniya	88.0
5.	Buyuk Britaniya	51.2	5.	Frantsiya	56.0
6.	Italiya	44.2	6.	Avstraliya	44.1
7.	Avstraliya	41.7	7.	Rossiya	42.0
8.	Germaniya	39.8	8.	Kanada	41.1
9.	Makao	35.6	9.	Italiya	36.2
10.	Yaponiya	34.1	10.	Ispaniya	36.0

Manba: Саранча М. А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. — Москва: КНОРУС, 2020. 15с.

Jadvaldan ko'rinadiki, daromadlar bo'yicha liderlikni AQSh, Ispaniya va Frantsiyalar qilayotgan bo'lsa, xarajatlar masalasida Xitoy, AQSh va Germaniya liderlik qilmomda. Jadvaldan korinib turibdiki, hozirgi paytda kirimlar bo'yicha o'ntalikka bitta Amerika, uchta Osiyo va 5ta Yevropa qit'asidagi davlatlar va Avstraliyalilar kirishgan. Yillik o'sish esa Xitoy va Yaponiyada eng yuqori bo'gan. AQShga bu yaqin kelajagda yetadigan davlat Xitoy bo'lish ehtimoli bor (hozirning o'zida Xitoy ulishiga uning tarkibiy qismi bo'lgan, ammo statistikada alohida ko'rsatiladigan Gonkong va Makaoni qo'shsak dunyoga o'ninchi emas, balki ikkinchi o'rinni egallaydi).

Jadval-1.3. Xorijdan keluvchchi va xorijga chiquvchi turistlar bo'yicha lider mamlakatlar (2019y. bo'yicha)

O'rin	Turistlarning kelishi		O'rin	Turistlarning chetga chiqishi	
	Mamlakat	Mln.kishi		Mamlakat	Mln.kishi
1.	Frantsiya	89.3	1.	Xitoy	149.7
2.	Ispaniya	82.2	2.	Germaniya	108.5
3.	AQSh	79.7	3.	AQSh	92.6
4.	Xitoy	62.9	4.	Gonkong	92.2
5.	Italiya	61.6	5.	Buyuk Britaniya	70.4
6.	Turkiya	45.8	6.	Rossiya	42.0
7.	Meksika	41.3	7.	Italiya	33.3
8.	Germaniya	41.9	8.	Malayziya	30.8
9.	Tailand	38.9	9.	Koreya	28.7
10.	Buyuk Britaniya	36.3	10.	Ukraina	27.8

Manba: Саранча М. А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. — Москва: КНОРУС, 2020. 22с.

Xorijdan keladigan turistlar soni bo'yicha Frantsiya, Ispaniya va AQSh mamlakatlari birinchi uch o'rinni egallagan bo'lsa, mamlakatdan chetga chiquvchilar bo'yicha esa bu uchlik Xitoy, AQSh va Germaniyasiga nasib qilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hozirgi paytda turistik kelishlar bo'yicha o'ntalikka ikkita Amerika, uchta

Osiyo va 5ta Yevropa qit'asidagi davlatlar kirishgan. O'ntalikdagi davlatlar keyingi yillarda asosan barqaror ravishda rivojlanib, shu o'ntalikda turishibdi, xarajatlar bo'yicha esa o'ntalikning 6tasi Yevropadan, bittasi Amerikadan va 3tasi Osiyo qit'asidan egallashgan.

1.3. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish darajasi va dinamikasi

Butun Jahon Turizm Tashkiloti dunyodagi **5 ta** turizm manzillarini ko'rsatadi: 1.Yevropa, 2. Osiyo va Tinch Okeani, 3. Amerika, 4. Afrika, 5. Yaqin Sharq. Yevropa mamlakatlari turizm markazlari: Ispaniya, Frantsiya, Italiya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Shveysariya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Skandinaviya mamlakatlari (Finlyandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiya). Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Bolgariya) va Izroil, Malta, Kipr. Yangi mustaqil davlatlar turizm markazlari: Belorussiya, Boltiq bo'yi respublikalari (Latviya, Litva, Estoniya), Rossiya, Ukraina, Kavkaz respublikalari (Armaniston, Gruziya, Ozorbayjon), Markaziy Osiyo respublikalari (O'zbekiston, Qozog'iston respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi).

Amerika mamlakatlari turizm markazlari: Shimoliy Amerika mamlakatlari (AQSh, Kanada, Meksika, Kosta – Rika). Janubiy Amerika mamlakatlari (Argentina, Braziliya). Osiyo mamlakatlari turizm markazlari: Tailand, Malayziya, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Eron, Singapur, Indoneziya, Filippin, Maldiv Respublikasi. Afrika mamlakatlari turizm markazlari: Tunis, Marokash, Kongo. Yaqin Sharq mamlakatlari turizm markazlari: Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasi, Livan, Iordaniya.

«Dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy globollashish jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi kunda xalqaro turizm sohasi ko'pgina mamlakatlar uchun milliy daromad topishning eng samarali yo'llaridan biriga aylanib bormoqda»⁴.

⁴ Аллаберганов А. Халқаро сайёҳлик соҳасида мақсадли бозор сегментини танлаш. Бозор, пул ва кредит. 2000. 12-сон, 66 бет.

XX asr turizm sohasi uchun yangidan tug'ilish, o'sish va rivojlanish asri bo'ldi. Bu asrda insoniyat uchun misli ko'rilmagan va kutilmagan kashfiyotlar, ilmiy-texnikaviy rivojlanishning yangicha hamda istiqbolli yo'nalishlari tarkib topdi. Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning bunday natijalariga erishilishi XXI asr uchun yanada murakkabroq va ahamiyatliroq vazifalarni boshlab berdi.

XXI asrda turizm siyosati, insoniyat uchun tinchlik hamda osoyishtalik ramzi sifatida hukumatlararo do'stlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, erkin sayohat qilishga to'sqinlik qiluvchi jarayonlarni kamaytirish, sayyohlarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash, turistik markazlarning barqaror rivojlanishini rag'batlantirish kabi muhim masalalarni o'z ichiga olgan ustuvor siyosatga aylandi.

1990 yillarga kelib xalqaro turizm bozorining tendentsiyasi o'zgarib boshladi. Bu esa xalqaro turizm siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Iqtisodiy statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, bu davrga kelib iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ga birlashgan industrial davlatlar 70% ga yaqin xalqaro turizm faoliyatini amalga oshirganlar. Ko'pgina rivojlangan davlatlar uzoq davom etgan ixtisoslashuv natijasida, murakkab turizm tizimlarini barpo etishga erishganlar.

XXI asr boshida vujudga kelgan moliya bozorlaridagi institutsional o'zgarishlar va yangi vaziyat ham turizm sohasida yangicha ixtisoslashuv zaruriyatini tug'dirdi. Turizm sohasida tarkib topgan yangi yo'nalishlar va bozor tendentsiyasining o'zgarish holati, moliyaviy investorlarning investitsiya tashabbuslarini qaytadan ko'rib chiqishlarini va ko'pgina ananaviy usullardan voz kechib yangi uslublarda faoliyat olib borishlarini taqazo etadi. Chunki XXI asrda turizmning, yana ham to'g'rirog'i turistik mahsulotlarning yangicha turlariga asos solinib, jahon turizm bozorining hajmi kengayib boradi.

Globallashtirish jarayoni iqtisodiyotda o'zaro bog'liqlikni va firmalararo birlashuv jarayonini vujudga keltiradi. Nafaqat tarmoqlararo, balki mamlakatlararo jipslashuvni ta'minlaydi.

Rivojlangan davlatlar turizm orqali yalpi ichki mahsulotining bir maromda o'sib borishini ta'minlamoqdalar. Xalqaro turizm bugungi kunda Yevropada yuksak darajada rivojlangan. Buni Frantsiya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlar misolida ko'rish mumkin. Lekin turizm bugungi kunda Osiyo mamlakatlarida ham tez rivojlanish bosqichiga

o'tib bormoqda. Yangi asrda turizm rivojlanishi Osiyo mintaqasiga ko'chib o'tmoqda. Ayrim davlatlarda turizm mamlakatning ustuvor tarmoqqa aylanib bormoqda, yani u butun iqtisodiyotni rivojlantiruvchi sohaga aylanmoqda. Quyida turizm mamlakatda katta rol o'ynovchi top yigirmata davlatni keltiramiz.

Jadval. - 1.4. Yalpi ichki mahsulotda turizm yuqori bolgan jahonning top 20-talik mamlakatlari. (2018yil).

t/r	mamlakat	Aholisi, ming. kishi	Qaysi qit'ada joylashgan	Ulushi, foizda
1	Maldiv orollari	402.0	Osiyo	39.6
2	Virjin orollari	35.0	Amerika	35.4
3	Monako	38.0	Yevropa	29.3
4	Aruba	106.0	Amerika	28.1
5	Seyshel orollari	98.0	Afrika	26.4
6	Kyurasao	159.0	Amerika	23.4
7	Angil'ya	16.0	Amerika	21.1
8	Bagam orollari	389.0	Amerika	19.0
9	Vanuaty	300.0	Okeaniya	18.2
10	Koba - Verde	550.0	Afrika	17.8
11	Sent - lyusiya	183.0	Amerika	15.0
12	Beliz	388.0	Amerika	15.0
13	Fiji	890.0	Okeaniya	14.4
14	Malta	493.0	Yevropa	14.2
15	Kombodga	16 487.0	Osiyo	14.1
16	Amerika Virjin orollari	105.0	Amerika	13.5
17	Antigua va Barbuda	97.0	Amerika	13.0
18	Barbados	287.0	Amerika	13.0
19	Dominikan respublikasi	10739.0	Amerika	12.4
20	Chernogoriya	622.0	Yevropa	11.0

manba: www.vikepediya

Turizm keyingi etmish yil ichida jadal sur'atlar bilan

rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi. Ayniqsa yigirmanchi asrning 50-70 yillarda turizmning o'sish sur'ati juda yuqori bo'ldi. Yangi asr boshiga kelib sur'atlar pasygan bo'lishidan qat'iy nazar soha dinamikligi bilan ajralib turadi.

Dunyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro turizm ommaviylashib va turistlar kelishi oshib bormoqda, uning keyingi yetmish yildagi dinamikasini quyidagi jadval ko'rsatadi (1.5.-jadval).

Jadval. - 1.5. Xalqaro turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi (1950-2018 yillar)

Yillar	Tashrif buyurgan turistlar soni (mln. kishi)	O'rtacha yillik o'zgarishi %	Daromad mlrd.dollar	O'rtacha yillik o'zgarish %
1950	25,282	-	2,1	-
1960	69,296	10,6	6,867	12,6
1970	159,690	8,7	17,9	10,0
1980	284,841	6,0	102,372	19,1
1985	329,558	3,29	117,63	4,59
1990	459,233	6,56	264,708	21,22
1995	566,082	3,63	393,23	13,43
2000	687,300	10,8	473,414	6,2
2005	806,300	5,5	680,000	7,3
2010	952.000	3.4	975,200	8.6
2015	1186.000	5.1	1060.0	2.4
2018	1401,000	5,0	1700.0	4.0

Manba: www.unwto.org.

BTT ma'lumotlariga ko'ra eng ko'p miqdordagi turistlarning kelishi Yevropa mamlakatlarida kuzatilmoqda (2018 yilda, 710 mln. kishidan ortiq). Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 348 mln. kishi, Shimoliy va Janubiy Amerikada 216 mln. kishi, Afrikada (67 mln.kishi) va Yaqin Sharq mintaqalarida har biri (60 mln.kishi) kuzatildi. Umumay, so'ngi yillar natijalari shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'yicha turizmning umumiy o'sish darajasi 5, 0 % dan yuqori bolmoqda, jumladan, 2018 yilda ham bu soha 5 foizli sur'at bilan o'sgan va 1.4 milliard kishiga yetgan. 2018 yilda turizmning dunyo bo'yicha mintaqalarda eng yuqori o'sish darajasi Afrika hamda Osiyo

va Tinch ocean havzasidagi (+7%) mamlakatlarida kuzatilmoqda. Yevropa hamda Yaqin Sharq +5%li o'sish kuzatildi. Eng kam Shimoliy va Janubiy Amerika (+2%) mintaqasida bo'lgan. Shu borada, Yaqin Sharqda turistlarning o'rtacha yillik kelishi keyingi 5 yil ichida, eng yuqori ko'rsatkichga erishildi.

Quyidagi jadval esa mamlakatlar bo'yicha XXI asrning ikki o'n yilligidagi dinamikasini ko'rsatadi.

Jadval. – 1.6. Xalqro turizmga eng ko'p xarajat qilgan davlatlar

O'rin	2000 yilda			2018 yilda		
	mamlakat	Qilingan xarajat, (mlrd. AQSh dollari)	Dunyo umumiy ko'lamidagi salmog'i, %	mamlakat	Qilingan xarajat, (mlrd. AQSh dollari)	Dunyo umumiy ko'lamidagi salmog'i, %
1	AQSh	67,3	14,1	Xitoy	277.0	19.1
2	Germaniya	47,1	9,9	AQSh	144.0	9.9
3	Buyuk Britaniya	38,0	8,0	Germaniya	94.0	6.5
4	Yaponiya	31,9	6,7	Buyuk Britaniya	76.0	5.2
5	Frantsiya	17,9	3,6	Frantsiya	48.0	3.3
6	Italiya	15,4	3,2	Avstraliya	37.0	2.5
7	Xitoy	13,1	2,8	Rossiya	35.0	2.4
8	Gonkong	12,5	2,6	Kanada	33.0	2.3
9	Niderlandiya	12,2	2,5	Janubiy Koreya	32.0	2.3
10	Kanada	12,1	2,5	Italiya	30	2.1
	Jami 10 davlat bo'yicha	267,5	55,9	Jami 10 davlat bo'yicha	806.0	55.5

Manba: UNWTO, Iyul, 2019.

2019 yilda Osiyo va Tinch Okeani mintaqasida jahon bo'yicha umumiy daromadlarning 30,0% ni tashkil etgan va 435,3 mlrd. AQSh

dollarida daromad qilgan. 2018 yilga nisbatan 7,0% ga o'sish kuzatilgan. Turistlar oqimi esa Eronda – 49.9%, Nepalda – 24.3 % Janubiy Koreyada - 15.1%, Mongoliyada – 12.8%, Kombodjoda – 10.7 %, Laos – 15.8 %, Vyet Nam – 19.9 %li o'sish kuzatilgan.

Afrika mintaqasiga jahon bo'yicha umumiy daromadlarning 2.6% to'g'ri kelib, 38,4 mlrd. AQSh dollarida daromad qilgan. Yaqin sharq mintaqasida jahon bo'yicha umumiy daromadlarning 5,0 foizi to'g'ri kelib, 73,0 mlrd. AQSh dollarida daromad qilingan.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, insonlar iqtisodiy tinchlik va inqiroz davrida ham sayohatga va dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini yo'qotmaydilar. Yigirma birinchi asr boshida dunyo bo'yicha yiliga bir milliondan ortiq turistlarni qabul qila oladigan 50 ta mamlakat mavjud bo'lgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 122 taga yetdi, shu jumladan, Yevropa hududida 46 ta, Osiyo va Tinch okean hududida 24ta, Amerikada 23 ta, Afrikada 15ta va Yaqin Sharqda 11ta. Asr boshiada shulardan 23 tasiga yiliga 5 mln.dan ortiq turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2018 yilda bunday davlatlar soni 55taga yetdi. 10 milliondan ortiq turistlarni qabul qilgan davlatlar asr boshida 10 ta bo'lgan bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 38taga yetdi.

Jadval. – 1.7. Jahon turizmning asosiy mamlakatlari (keyingi 70 yil).

O'rin	1950y.	foiz	1970y.	foiz	1990y.	foiz	2010y.
1.	AQSh	71%	Italiya	43%	Frantsiya	38%	Frantsiya
2.	Kanada		Kanada		AQSh		AQSh
3.	Italiya		Frantsiya		Ispaniya		Xitoy
4.	Frantsiya		Ispaniya		Italiya		Ispaniya
5.	Shveytsariya		AQSh		Vengriya		Italiya
6.	Irlandiya	17%	Avstriya	22%	Avstriya	19%	Turkiya
7.	Avstriya		Germaniya		Buyuk Britaniya		Buyuk Britaniya
8.	Ispaniya		Shveytsariya		Meksika		Germaniya
9.	Germaniya		Yugoslaviya		Germaniya		Malayziya
10.	Buyuk Britaniya		Buyuk Britaniya		Kanada		Meksika
11.	Norvegiya	9%	Vengriya	10%	Shveytsariya	10%	Rossiya
12.	Argentina		Chexoslovakiya		Gretsiya		Avstriya
13.	Meksika		Belgiya		Portugaliya		Gretsiya
14.	Gollandiya		Bolgariya		Malayziya		Gonkong
15.	Daniya		Ruminiya		Xorvatiya		Kanada
	Qolganlar	3%	Qolganlar	25%	Qolganlar	33%	Qolganlar
Jami	25mln.		166mln.		441mln.		951.5 mln

Manba: Butunjahon turistik tashkilot ma'lumotlari

1.4. Turizm mamlakatshunosligining fanlar tizimidagi o`rni

Keyingi yillarda jamiyat hayotida turizmning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunga aholi daromadlarining o'sishi, bo'sh vaqt miqdorining ko'payishi, davlatlar va hududlarning ochiqlik darajasining ortishi va boshqa omillar yordam bermoqda.

Turizm dam olish faoliyati sifatida ko'p asrlar davomida mavjud bo'lgan. Qadim-qadimdan oddiy insoniy qiziquvchanlik odamlarni hech qanday aniq maqsadsiz sayohatga jalb qilgan. Bugungi kunda turizm faol rivojlanmoqda, odamlar ta'lim olish, diniy, dam olish va boshqa maqsadlarida mazmunli sayohat qila boshladilar.

Turistik mamlakatshunoslik nisbatan yangi tushuncha bo'lib, uning paydo bo'lishi turistik biznes xodimlarining amaliy ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Turli mamlakatlarga sayohatlarni amalga oshiruvchi turizm menejeri, gid va boshqa xodimlar o'zlari ishlayotgan mamlakatlar va mintaqalarning geografik nomenklaturasini, xususiyatlarini bilishi kerak. Ularning tijorat faoliyatining muvaffaqiyati bevosita ushbu bilimga bog'liq.

An'anaga ko'ra, mamlakatshunoslik geografiya fanlarining ajralmas qismi hisoblangan. Geografiya fanlari tizimi eng umumiy ko'rinishida fizik va iqtisodiy geografiyaga bo'linadi. Fizik geografiya geografik konvertning tarkibiy qismlarini: gidrosfera, atmosfera, rel'ef, tuproq taqsimoti va boshqalarni o'rganadi. Iqtisodiy geografiya ishlab chiqaruvchi kuchlarning (tabiiy resurslar, aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqalar) taqsimlanish qonuniyatlari va tamoyillari haqidagi fandir. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot tushunchasi ham mavjud. Regionalizm asoschilaridan biri A.E. Probst shunday yozgan: "Mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiyaning chegaralanishi, birinchi navbatda, ularni o'rganish ob'ektlarining chegaralarini belgilash asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy geografiyaning ob'ekti mintaqaviy iqtisodiyot ob'ektiga nisbatan ancha kengdir; birinchisi nafaqat mintaqalarni, balki mamlakatlarni ham o'rganadi... Mintaqaviy iqtisodiyot ob'ekti iqtisodiy geografiya ob'ektining faqat bir qismini ifodalaydi".

Shunday qilib, turizm mamlakatshunosligi mamlakatni turizm uchun jozibadorligi nuqtai nazaridan o'rganadigan fanlar tizimining bir qismi sifatida belgilanishi mumkin.

Mamlakatshunoslikning nazariy asoslarini N.N. Baranskiy, I.M. Mayergois, I.A. Vitver va boshqalar yaratishgan. N.S. Mironenko esa rekreatsion geografiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Shu bilan birga turistik mamlakatshunoslikka oid asarlar juda kam. Ko'pincha ular kerakli ma'lumotlarni aniq tizimlashtirmasdan reklama broshyuralari va mamlakatlar tavsiflaridan iborat. Shunga qaramay, xalqaro turizmning rivojlanishi sharoitida sayohat qilish maqsadida mamlakatlarni tavsiflash kabi masalalar zamonaviy mualliflar tomonidan e'tibordan chetda qolgan emas. Shu kabi asarlarning sirasiga E.A. Okladnikovaning "Xalqaro turizm. Jahon turistik resurslari geografiyasi" kitobini keltirish mumkin, unda muallif tadqiqot ob'ekti sifatida "turistik resurs" tushunchasini ajratib ko'rsatadi, ya'ni geografik ma'lumotlar (rel'ef, iqlim va boshqalar) va infratuzilma (jamiyat, xizmatlar, savdo, diqqatga sazovor joylar) eng mashhur turistik mamlakatlar misolida tavsiflanadi.

Turistik talab nuqtai nazaridan mamlakatni tavsiflash chizmasining bo'limlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Mamlakatning nomi, poytaxti, tarkibiy hududlari, aholisini ajratib ko'rsatish.

2. Mamlakatning iqtisodiy-geografik holatining xarakteristikalarini. IGH - bu mamlakatning rivojlanishiga ta'sir qiladigan, ammo mamlakatdan tashqarida joylashgan tabiiy, tarixiy va iqtisodiy ob'ektlarga munosabati hisoblanadi. Masalan, Ispaniyaning qirg'oq bo'yi mavqei, uning jahon savdo yo'llariga yaqinligi, ular orqali mustamlakalar bilan savdo amalga oshirilishi, mamlakat iqtisodiyotining hududiy tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Barselona kabi Ispaniyaning yirik iqtisodiy markazlarining aksariyati sohilda joylashgan. Bu holat ularning yirik xalqaro kurortlarga aylanishiga imkon bergan.

3. Tabiiy sharoit va resurslarning xarakteristikalarini. Ushbu bo'limni mamlakatning tabiiy-iqlim xususiyatlarining tavsifi, haroratning o'zgarishi, landshaft turlarini ko'rsatish bilan boshlash tavsiya etiladi. Foydali qazilma konlari to'g'risidagi ma'lumotlar foydali qazilmalar savdosi va qazib olish bilan shug'ullanadigan ishbiarmonlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Turistlarni jalb qilishi mumkin bo'lgan qo'riqxonalar, milliy bog'lar, hududning geografik xususiyatlari haqida ma'lumot berish ham ma'lum darajada muhimdir. Masalan, Ispaniyada qirg'oqlarida joylashgan Kosta Bravo, Kosta del

Sol, Kosta Dourada kabilar mamlakatning rekreatsion salohiyatini tashkil etadi.

4. Aholining o'ziga xos xususiyatlari. Bunda mamlakat aholisining joylashuv tarixi, mamlakat xalqiga xos bo'lgan madaniyat turlari haqida ma'lumot muhim ahamiyatga ega. Turistik markazlarning geografiyasi va xususiyatlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish muhim ahamiyatga egadir.

5. Qisqacha tarixiy ocherk. Mamlakatning asosiy tarixiy bosqichlari, davlat tuzilishining xususiyatlari va ma'muriy-hududiy bo'linishi haqida ma'lumot berish muhimdir.

6. Mamlakat iqtisodiyotining umumiy tavsifi. Alohida bo'limni mamlakat iqtisodiyotining umumiy xususiyatlari, xalqaro ixtisoslashuvi va tashqi iqtisodiy aloqalariga bag'ishlash mumkin.

7. Mintaqaviy farqlar. Dam olish maskanlari haqidagi ma'lumotlar turist uchun ham, menejer uchun ham muhimdir. Mintaqalar mamlakatdan mamlakatga juda xilma-xil bo'lib, unga mamlakat territoriyalarining rang-barangligi nuqtai nazaridan qarash kerak.

8. Turistik rasmiyatchiliklarning xususiyatlari. Bularga quyidagilar kiradi: mamlakatdagi xulq-atvor qoidalari, valyuta va bojxona tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, mehmonxona turlari, xarid qilishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar.

Vaziyatga qarab, ushbu rejaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin yoki uning o'ziga xos mintaqaviy qiyofasini yaratib, mamlakat haqidagi asosiy ma'lumotlarning jamlangan taqdimoti bilan almashtirilishi mumkin.

Qisqacha xulosalar. Ushbu mavzuda mamlakatshunoslik fani, turistik mamlakatshunoslikning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqdik, mamlakatshunoslik insoniyatning eng qadimgi fanlaridan biri ekanligini bilib oldik. Kishilar bir joyga borishdan oldin u mamlakat to'g'risida ma'lum ma'lumotlarni yig'ishadi, bu ma'lumotlar esa safar vaqtida tekshiriladi, boyitiladi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Turizm mamlakatshunosligi fanining mohiyati?
2. Turizm mamlakatshunosligi fanining maqsadi va vazifalari?
3. Turizm mamlakatshunoslik fani qanday funktsiyalarni bajaradi?

4. Turizm mamlakatshunosligining fanlar tizimidagi o`rni haqida gapiring.
5. Tomas Kuk ilk marotaba qanday marshrutlarni tashkil qilgan va amalga oshirgan?
6. Jahon turizm industriyasidagi ixtisoslashuv va diversifikatsiya talablarini chuqurlashib borayotganini izohlab bering?
7. Jahon iqtisodiyotida turizmning o`rni haqida gapiring.
8. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish xususiyatlari qanday?
9. XXI asrning birinchi o`n yilliklarida dunyo mamlakatlarida turizm dinamikasi haqida gapiring.
10. Turistik talab nuqtai nazaridan mamlakatni tavsiflash chizmasining bo`limlari nimadan iborat?

Glossariy

Turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil maddatga jo'nab ketishi.

Ichki turizm - bir mamlakat fuqorolarining o'z hududlari chegarasida amalga oshiradigan turizmi, yani o'z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqorolarni vaqtinchalik tashrif buyuruvchi joyda turistik maqsadlarda sayohat qilishi.

Xalqaro turizm - vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilishi. Yetib keluvchi turizm va jo'natiluvchi turizmdan iborat. Yetib keluvchi turizm - mamlakatga norezidentlar tomonidan tashrif buyurishdir. Jo'natiluvchi turizm - boshqa mamlakatga tashrif buyurishdir.

Kiruvchi turizm - faoliyati to'lanmaydigan turistik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o'zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati.

Chiquvchi turizm - bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to'lanmaydigan sayohati, tashrifi.

Tur - muayyan yo'nalish bo'yicha turizm xizmatlari majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat. Tur – turistlarni aniq yo'nalish

bo'yicha, xizmatlar majmuasi va muddati aniq bo'lgan tashishni uyushtirish.

Turist - o'z qiziqishlarini qondirish maqsadida 24 soatdan kam va 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga o'zi yashayotgan joydan chiqib ketgan kishi.

Turizm siyosati – mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari yig'indisidan iboratdir.

Tanishuv (ekskursion) turizm - Turizmni bu turi o'z ichiga tanishuv (bilish, ko'rish va eshitish) maqsadlari bilan bog'liq tashrif va sayohatlarni o'z ichiga oladi.

Butundunyo turistik tashkiloti (BTT) – hukumatlararo tashkilot (1975 yilda tashkil topgan) bo'lib, turizmning rivojlanishiga ko'maklashadi, 170 dan ortiq a'zosi bor.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Tomas Kuk, birinchi marotaba temir yo'l transportidan tijorat maqsadida foydalanuvchi turoperatorlik sohasiga qaysi yilda asos slogan?

- a) 1845;
- b) 1960;
- c) 1880;
- d) 1898.

Nechanchi yilda aylanma sayohat chiptalarining amal qilish doirasi butun Yevropa kontingent chegaralarigacha kengaytiriladi?

- a) 1845;
- b) 1855;
- c) 1880;
- d) 1888.

Turizm XX asrning 50-yillarida qaysi mintaqada ommaviy tus oldi?

- a) G'arbiy Yevropada;
- b) Janubiy Amerikada;
- c) Avstraliyada;
- d) Rossiyada.

Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi ommaviy turizmga qanday tasir etdi?

- a) hordiq chiqarish maskanlari, mehmonxonalar, motellarni ommaviy tarzda qurish boshlandi;
- b) ishlab chikarish, sanoat, fermerlar;
- c) turizm rivojlanmay qo'ydi;
- d) kazinolar qurildi.

Qaysi model Yevropa aholisining psixologiyasida shakllandi?

- a) Yaxshi dam mehnatga hamdam;
- b) ish tashlash;

- c) ish vaqti 7 soat qilib belgilangan;
- d) siyosiy namoyishlar qilish.

Yevropa mamlakatlarida turizmning shakllanishi va kishilarning ommaviy sayohati nechanchi asrlarda ziyorat qilish va migratsiya harakatlari davomida rivojlandi?

- a) XVIII-XIX asrlarda;
- b) XIX asrlarda;
- c) XX asrda;
- d) XVI-XVII asrlarda.

Yevropa mamlakatlari turizm industriyasi rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu -

- a) turizm sohasiga infarmatsion texnologiyalarning kirib kelishidir;
- b) reklama;
- c) televideniya;
- d) Radio.

Onlayn (online) turizm bozori -

- a) internet va boshqa global axborot uzatish tarmoqlari orqali vujudga kelgan turizm bozori;
- b) reklama va pablik releysin;
- c) televideniya va radio;
- d) mamlakatlar o'rtasida chegaralarning ochila borishi.

Turizmning asosiy markazlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Ispaniya, AQSH, Xitoy, Rossiya;
- b) AQSH, Rossiya, Italiya, O'zbekiston;
- c) Frantsiya, Italiya, AQSH, Ispaniya, Xitoy;
- d) Italiya, AQSH, Afrika, Ispaniya.

BTT malumotlarga ko'ra eng ko'p turislar qaysi mintaqaga tashrif buyurmoqda?

- a. Osiyo;
- b. Yevropa;
- c. Amerika;
- d. Afrika.

Dunyo bo'yicha 1mln.dan ortiq turistlarni qabul qiladigan davlat nechta?

- a. 30 ta;
- b. 40 ta;
- c. 50 ta;
- d. 60 ta.

BTT jahonni qaysi yirik makroregionlarga ajratadi?

- a) Yevropa, Amerika, Osiyo-Tinch okeani havzasi, Afrika, Yaqin Sharq;
- b) Yevropa, Amerika, Osiyo-Tinch okeani havzasi, Meksika;
- c) Afrika, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Rossiya;
- d) Afrika, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq.

Quyidagilardan qaysi bir to'g'ri?

- a) Mamlakatshunoslik hali alohida fan bo'lib shaklanmagan;
- b) Mamlakatshunoslik insoniyatning eng qadimgi fanlaridan biridir;
- c) Mamlakatshunoslik insoniyatning eng yosh fanlaridan biridir;
- d) Mamlakatshunoslik eng muhim iqtisodiy fanlardan biridir.

Turizm mamlakatshunoslik fanining funktsiyalari qaysi bandda noto'g'ri ko'rsatilgan?

- a) tavsiflovchi, gnoseologik, information-ma'lumotlar;
- b) qiyosiy, situation, turistik imidj;
- c) prognozlash, kompleks, integral;
- d) tushuntirish, aytish, korrelatsion.

Kognitiv va tarbiyaviy kontekstga ega bo'lgan mamlakatlarni bilish orqali dunyo manzarasini shakllantirishdan iborat, bu fanning qaysi funktsiyasini ochib beradi?

- a) gnoseologik;
- b) integral;
- c) situation;
- d) tavsiflovchi.

Qaysi zamonga kelib turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi?

- a) XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida;
- b) XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida;
- c) XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida;
- d) XX asrning birinchi yarmida.

Turistik sayohatning xatti-harakati va geografiyasiga ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilardan qay bir guruhi kirmaydi?

- a) Mamlakat faravonligi, qo'shnilarning tinchligi, millatlararo totuvlik;
- b) Ega bo'lingan daromad, ega bolingan bo'sh vaqt, fuqarolarning huquq va erkinliklari;
- c) Sog'liqni saqlash sharoitlari, axborotning mavjudligi, xavfsizlik darajasi, gender omili;
- d) Oila a'zolarining manfaatini hisobga olish, mehnatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari;

Quyidagilardan qaysi fikr to'g'ri hisoblanadi?

- a) Turizm keyingi etmish yil ichida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.

- b) Turizm keyingi o'n yil ichida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.
- c) Turizm keyingi yuz yil ichida sekin sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.
- d) Turizm keyingi o'ttiz yil ichida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.

Turizm sektorlarining (yoki ularning tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning) kelajakdagi holatini ehtimollik bilan aniqlashdan iborat, bu fikr fanning qaysi funktsiyasini ochib beradi?

- a) prognozlash;
- b) muammoli;
- c) kompleks;
- d) integral.

II MAVZU. YEVIROPA MINTAQASI MAMLAKATLARI TURIZMI. SHIMOLIY YEVIROPA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad Yevropada turizm mamlakatshunosligining o'ziga xosligi hamda Shimoliy Yevropa mamlakatlarining turizmining o'ziga xosligini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

- 2.1. Yevropa mamlakatlari turizmi**
- 2.2. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi**
- 2.3. Shvetsiya mamlakatining turizm iqtisodiyoti**
- 2.4. Finlandiya mamlakatida turizmning rivojlanish holati tahlili**
- 2.5. Norvegiya mamlakati turizmini tahlil**
- 2.6. Daniya va Islandiya mamlakatlarining turizm holati tahlili**

Tayanch so'z va iboralar:

Xalqaro turizm, ichki turizm, mamlakatshunoslik, turizm mamlakatshunosligi, Yevrozona, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Yevropa, Skandinaviya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
3. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. — С. 93.
4. Квартальнов, В. А. Туризм : учебное пособие / В. А. Квартальнов. — 2-е изд. — Москва : Финансы и статистика, 2014. — 336 с. — ISBN 5-279-03119
5. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
6. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
7. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
8. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
9. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
10. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org/en/tourism-highlights-2019).
11. [https://www.World's most popular destination revealed](https://www.world's-most-popular-destination-revealed) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
12. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
13. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
14. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
15. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-danii/>.
16. www.Leitfaden zum DRV-Existenzgruenderpaket.
17. [https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism in London](https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_London).
18. <https://travelask.ru/netherlands>.
19. www.wikipediya.ru
20. <https://knoema.ru/atlas/>
21. Annals of Tourism Research 68 (2018) Tourism in iceland: Persistence and seasonality Luis A. Gil-Alanaa, Edvard H. Huijbensb.
22. <https://www.tourister.ru/world/evrope-island>.
23. www.World Tourism Organization (UNWTO)
24. [www.Fakta om svensk turism](http://www.fakta-om-svensk-turism).

2.1. Yevropa mamlakatlari turizmi

Yevropa sharqiy yarim sharda joylashgan bo`lib, uning umumiy maydoni 10.5 mln. kv.km. tashkil qiladi. Mintaqa turistik resurslarga juda boy bo`lib yer shari bo`yicha alohida ajralib to`radi. Yevropa qirg'oqlari, Atlantika va Shimoliy muz okeani va uning 10 dan ortiq dengizlari bilan yuvilib turadi. Mintaqa hududida 20 ta dan ortiq daryolar, 15 ta katta-kichik ko`llari, 25 tadan ko`p orollari, 10 dan ziyod tog' tizmalari, takrorlanmas vulkanlari, xilma-xil (arktik, subarktik, mo`tadil, subtropik) iqlim poyaslari, rang-barang tabiat zonalari azal-azaldan sayyohlarni o`ziga jalb qilib kelgan.

Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtda uning siyosiy xaritasida 40 tadan ortiq davlatlar mavjud bo`lib, ulardan 27 tasi Yevropa Ittifoqi tashkilotiga birlashgan. Yevropada dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qudratli davlatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya va Rossiya Federatsiyasi) joylashgan.

Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalari, sport inshootlari, ko`ngil ochar o`yingohlari, san`at markazlari (teatrlar, muzeylar, san`at galareyalari), dam olish maskanlari, kurortlar, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz plyajlari, mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari (aeroportlar, dengiz, daryo portlari, temir yo`l, avtomobil vokzallari, yuqori sifatli avtomobil yo`llari, tez yurar poyezdlari va havo kemalari, yuqori klassli dengiz va okean passajir kemalari), rivojlangan bank-moliya tashkilotlari, xilma-xil servis xizmati ko`rsatuvchi korxonalar barchasi turizmning rivojlanishiga juda katta imkoniyatlar tug`diradi.

Yevropa geografik jihatdan G`arbiy Yevropa, Markaziy va Sharqiy Yevropa, SHimoliy Yevropa va Janubiy (O`rta yer dengizi bo`yi) Yevropa qismlariga bo`linadi. Yevropaning barcha hududlarida turistlar oqimi anchaginani tashkil etadi. Buning asosiy sabablaridan biri mintaqada xilma-xil rekreatsion (tabiiy, madaniy-tarixiy) resurslarning mavjudligi, ikkinchidan turizmning rivojlanishi uchun qo`lay ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmalar omillari (yuqori darajadagi turmush tarkibi, shahar aholisi salmog`ining yuqoriligi, transport tarmoqlarining ser qatnovligi) dir. Yana mintaqaning geografik joylashish omili, ya`ni ko`pgina dunyo mamlakatlariga quruqlik, suv

yo'llari bilan tig'is imkoniyatlarining mavjudligidir. Ushbu mintaqaning eng muhim xususiyatlaridan biri ichki mintaqaviy turistik oqimning ustunligidir. Yevropa bo'ylab sayohat qilayotgan turistlarning qariyb 9/10 qismi yevropalik aholidir.

Turizm hozirgi kunda Yevropa mamlakatlarining asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib ulgurdi. Turizm Yevropa aholisining turmush tarzini yaxshilashga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Yevropa mamlakatlari dunyoning siyosiy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, xalqaro tashkilotlarning ko'pgina seminar, simpozium, konferenstiyalarni har yili muntazam ravishda o'tkazib kelmoqda. Bu kabi tadbirlar ularning shaharlarini dunyo miqyosida tanilishi uchun sharoit yaratib, bu turizmning hozirgi davrdagi rivojlanishiga xos bo'lgan xususiyatlaridan biri hisoblanmoqda. Bundan tashqari, hozirda eng ommoviylashgan futbol, xokkey, tennis, basketbol va sportning boshqa turlari bo'yicha musobaqalar, jahon chempionatlari insonlarni yakka va jamoa holda xalqaro sayohatlarga chiqishlariga sabab bo'lmoqda.

Yevropaning rivojlangan mamlakatlari turizmi rivojlanishida asosiy ahamiyat kasb etadigan narsalar ham borki, bularni xalqaro tashkilotlar misolida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Yevropa Ittifoqining tashkil bo'lishi bilan birga bir qator muammolar, shu jumladan turizm sohasidagi ba'zi bir to'siqlar oz yechimini topdi. Bulardan hozir boshqa regionlarda turizm rivojlanishiga katta to'skinlik qilayotgan viza va bojxona tizimi Yevropada bartaraf etildi. Turistlar Ittifoqqa a'zo mamlakatlarda vizasiz bemalol harakatlanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yevropa mamlakatlari turizm industriyasi rivojlanishining asosiy omillaridan biri, bu - turizm sohasiga infarmatsion texnologiyalarning kirib kelishidir. Turizm sohasidagi infarmatsion texnologiyalar, shu soha ichidagi va tashqarisida, tijorat maqsadida qo'llaniladigan barcha kommunikatsiya hamda infarmatsion texnologiyalar majmuidir. Internet va global axborot tarqatish texnologiyalari turizm industriyasining asosiy axborot texnologiyalari hisoblanadi.

Turizm rivojlanishi uchun asosiy turtkildan biri biznes hisoblanadi. Yevropaning ba'zi mamlakatlari Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Frantsiya arzon narxdagi sifatli kiyim-kechak va texnika mollari markazi qilib o'zlarini dunyoga tanishtirmoqdalar va

“bagaj” deb nomlangan turizm rivojlanishiga katta hissa qo’shib kelmoqdalar. Yo’l xarajatlarining bahosi juda qimmat bo’lishiga qaramasdan insonlar o’ta chidamli va sifatli mollarga mahliyo bo’lib, bu kabi sayohatlarga qatnashib kelmoqdalar. Arzon va sifatli tovarlarga bo’lgan talablarni o’rgangan turoperatorlar “o’z narxida sotiladigan fabrika joylariga” yoki “chegirmali” sotish joylariga juda ko’p sayohatlar uyushtirishmoqda.

Dunyoning turli o’lkalaridan tashrif buyurayotgan sayyohlarni savdo orqali Yevropa davlatlari valyuta tushumiga qo’shgan hissasi salmoqli bo’lib yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, Ispaniyada bir yillik valyuta tushumining 45 foizi sayyohlik savdosi xizmatidan kelib tushsa, bu raqam Frantsiyada 48%ni tashkil etadi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, chet el turistlarining yashash, aylanish va sayohatga ketgan xarajatlarini 100% deb olsak, uning 30%i yashashga, 40%i ovqatlanishga, 8-10%i transportga, 10-12% boshqa qo’shimcha xizmatlarga sarf qilinishi aniqlangan.

Jadval. – 2.1.Yevropa regionlarida 2010-2018 yillarda xalqaro turizmga turistlar oqimi (mln.kishi)

regionlar		2010	2017	2018	2018 yilda hissasi (%)	O’sish (%) da		
						2017/16 nisbatan	2018/17 nisbatan	O’rtacha (2010 - 2018yy.)
Jahon		952.0	1329.0	1401.0	100	7.0	5.4.	5.0
Yevropa		486.4	673.3	710.0	50.7	8.6	5.5	4.8
Shu jumladan	Shimoliy Yevropa	57.0	78.4	78.9	5.6	6.0	0.5	4.1
	G’arbiy Yevropa	154.4	192.7	200.4	14.3	6.1	4.0	3.3
	Markaziy /Sharqiy Yevropa	98.1	134.6	141.4	10.1	5.6	5.0	4.7
	Janubiy Yevropa/O’rta yer dengizi	176.9	267.5	289.4	20.7	12.9	8.2	6.3

Manba: World Tourism Organization (UNWTO)

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, Yevropaning o’zi hali ham dunyodagi xalqaro turistlar oqimining yarmini bermoqda, uning ichida

esa Janubiy Yevropa peshqadam (dunyoning 20.7 %), undan keyin esa G'arbiy Yevropa egallaydi. Ammo, Markaziy/Sharqiy Yevropa davlatlari ham jadal sur'atlar bilan turizm borasida rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadval. – 2.2. Yevropa regionlarida 2010-2018 yillarda xalqaro turizmga ko'rilgan daromad (mlrd. doll.)

regionlar		2010	2017	2018	2018 yilda hissasi (%)	O'sish (%) da	
						2017/16 nisbatan	2018/17 nisbatan
Jahon		975	1346	1451	100	5.2	4.4
Yevropa		422.8	519.5	570.5	39.3	7.5	4.9
Shu jumladan	Shimoliy Yevropa	60.6	88.6	93.9	6.5	5.7	1.1
	G'arbiy Yevropa	152.4	170.9	187.5	12.9	4.7	3.3
	Markaziy/Sharqiy Yevropa	48.3	60.7	68.7	4.7	7.0	8.8
	Janubiy Yevropa/O'rta yer dengizi	161.5	199.3	220.4	15.2	11.2	6.9

Manba: World Tourism Organization (UNWTO)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yevropaning o'zi dunyoda xalqaro turizmdan daromad ko'rishda ham hali salmoqli o'ringa ega (dunyoning qariyb 40 foizi), uning ichida esa Janubiy Yevropa peshqadam (dunyoning 15.2 %), undan keyin esa G'arbiy Yevropa (dunyoning 12.9%) egallaydi.

Jadval. – 2.3. Yevropa davlatlarida (eng yiriklari, 2018 yilda, mln.kishi) xalqaro turizmga turistlar oqimi.

O'rin	Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sish (2017 yilga nisbatan)	Ulushi (2018 yilda, %)
	Yevropa	486,368	673,265	709,990	5.5	100
1	Frantsiya	77,648	86,918	89,400	2.9	12.6
2	Ispaniya	52,677	81,869	82,773	1.1	11.7
3	Italiya	43,626	58,253	62,146	6.7	8.8
4	Buyuk	28,296	37,651	36,316	-3.5	5.1

	Britaniya					
5	Germaniya	26,875	37,452	38,881	3.8	5.5
6	Avstryia	22,004	29,460	30,816	4.6	4.3
7	Gretsiya	15,007	27,194	30,123	10.8	4.2
8	Rossiya	22,281	24,390	24,551	0.7	3.5
9	Portugaliya	6,832	21,200	22,800	7.5	3.2
10	Polsha	12,470	18,400	19,623	6.6	2.8
11	Niderlandiya	10,883	17,924	19,014	6.1	2.7
12	Vengriya	9,510	15,785	17,152	8.7	2.4
13	Xorvatiya	8,966	15,593	16,645	6.7	2.3
14	Ukraina	21,203	14,421	14,207	-1.5	2.0
15	Chexiya	8,629	13,665
16	Sheytsariya	8,628	11,133	11,715	5.2	1.7
17	Daniya	8,744	11,743
18	Irlandiya	7,134	10,338
19	Bolgariya	6,047	8,883	9,273	4.4	1.3

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yevropa mamlakatlari turizm borasida juda katta yutuqlarga erishishgan, ularni ichida deyarli yigirmatasida har yil kamida 10 mln. Turist tashrif buyuradi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yigirmatalikka kirgan davlatlar ichida xalqaro turizm shu tahlil davomida eng yaxshi natijaga erishganlar – Portugaliya (3martadan ko'p), Gretsiya (2 marta) va Xarvatiya (qariyb 2 marta). Natijasi yaxsi bo'lmaganlar esa - Ukraina (1.5 marta kamaygan), Rossiyada (10 foizga oshgan).

Jadval. – 2.4. Yevropa davlatlarida xalqaro turizmdan ko'rgan daromad (eng yiriklari, 2018y, mln.dol.)

t/r	Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	Ulushi (2018yilda, %)
	Yevropa	442,801	519,464	570,463	100
1	Ispaniya	54,641	68,114	73,765	12.9
2	Frantsiya	57,059	60,681	67,370	11.8
3	Buyuk	33,978	49,049	51,882	9.1

	Britaniya				
4	Italiya	38,786	44,233	49,262	8.6
5	Germaniya	34,679	39,823	42,977	7.5
6	Avstryia	18,596	20,460	22,979	4.0
7	Portugaliya	10,077	17,119	19,621	3.4
8	Gretsiya	12,742	16,528	19,029	3.3
9	Niderlandiya	11,732	16,643	18,641	3.3
10	Sheytsariya	14,724	16,274	17,042	3.0
11	Shvetsiya	8,344	14,142	14,977	2.6
12	Polsha	9,576	12,772	14,042	2.5
13	Belgiya	11,425	12,485	13,474	2.4
14	Xorvatiya	8,075	10,924	11,831	2.1
15	Rossiya	8,830	8,945	11,802	2.1
16	Daniya	5,853	7,960	8,420	1.6
17	Chexiya	7,172	6,933	7,451	1.3
18	Vengriya	5,628	6,170	6,930	1.2

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Xulosa qilib aytganda, Yevropa mintaqasi turizmini o'rganib chiqqanimizda mamlakatdagi mavjud resurslarning turizm rivojlanishiga ta'sirini Avstriya misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakat turizm sohasi eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Uning yalpi ichki mahsulotini yaratishda turizmning salmog'i 60%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Avstriya nafaqat Yevropa mamlakatlarini, balki yer yuzidagi boshqa mamlakatlarni ham ancha orqada qoldirib ketdi. Frantsiyada bu sohaning hissasi 2,2%ni, Italiyada 5,6%ni, Gretsiyada 4,9%ni, Shveytsariyada 4,4%ni, Ispaniyada 7,5%ni tashkil etadi.

Yevropaning rivojlangan davlatlarida turizmdan olinayotgan daromadlarini ko'rib chiqqanimizda quyidagi natijaga kelamiz. Rivojlangan davlatlarning turizm sohasidan oladigan daromadlarini davlatlar orasida xalqaro turizm bozorida yetakchi deb Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniyani olishimiz mumkin. Yevropa mamlakatlarida raqobat juda kuchaygan bo'lib, kelajakda asosan Ispaniya va Frantsiyalar yetakchilik qilishi olimlar tomonidan bashorat qilinmoqda.

2.2. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi

Shimoliy Yevropaga odatda quyidagi 5 mamlakatni kiritishadi: Svetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya va Islandiya. Shimoliy Yevropa mamlakatlari turizmni rivojlantirishda ko'p jihatdan o'rnak bo'lsa arziydi. Bu mamlakatlar o'z xalqiga faravon hayot, xotirjam turmush kechirish va dam olish uchun hamma sharoitni yaratib bera olishgan, mamlakat boyliklarini, jumladan tabiat boyliklarini ham oqilona ishlatib kelishmoqda.

Shimoliy Yevropa mamlakatlarini Skandinaviya mamlakatlari: Finlyandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiyada hamda Islandiya deb ham ajratishadi. Ular biznes turizm, ekoturizm, tarixiy turizm, madaniy turizmlar rivojlangan. Istirohat bog'lari, o'rmonlarining ko'pligi, muzeylari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu hududning aholi soni uncha ko'p emas, ammo uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar turizmi yaxshi rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Fuqarolarning ta'til kunlari, besh va undan ko'proq haftani tashkil qiladi. Potensial turistlarning aksariyati qishloq joylari va qirg'oq zonalarida joylashgan "2-uy"da dam olishni xush ko'radilar.

Shimoliy Yevropada turistlar oqimi 2017 yilda 5.5 foizga o'sdi, bu o'sish asosan Islandiya (+24%) va Finlyandiya (+14%) hisobidan sodir bo'ldi.

Chetga chiqish turizmi bozoriga kelsak, bu yerda faol dam olishga ko'proq e'tibor beriladi. Masalan, sayohat qiluvchi shvedlarning 70%i turli xil sport tadbirlariga, suzish, baydarkalarda suzish, baliq ovlash, alpinizm va hokazolarga qatnashadilar. Yana shuncha sayohatchi chang'i sport turiga qatnashadi.

Yigirmanchi asrning 80-yillardan boshlab Skandinaviyada ishbiarmonlar turizmi juda tez rivojlana boshladi. Chet davlatlardan kelgan mehmonlarning 1/3 qismini Skandinaviyaga tegishli boshqa mamlakat fuqarolari tashkil qiladi. Bu esa o'z shaxsiy turistik mahsulotini oldinga surayotgan mahalliy turistik tashkilotlarning faol ishi natijasidir. Bu yerda shubhasiz mamlakatlar orasidagi madaniy tafovutlar va mahalliy qonunlar muhim rol o'ynaydi.

Skandinaviya mamlakatlarini turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar Shimoliy Amerika mamlakatlari hisoblanadi. XIX asrda

Skandinaviyadan Shimoliy Amerikaga katta emigratsiya uyushtirilganligi natijasida ushbu ikki hudud orasida madaniy aloqalar mustahkam o'rnatilgan.

Skandinaviya mamlakatlari aholisi uchun G'arbiy Yevropa mamlakatlari, asosan: Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, shuningdek, Polsha ommabop hisoblanadi. Ulardan keyin O'rta Yer dengizi mamlakatlari turadi. Skandinaviyalik turistlarning ancha qismi Ispaniya, Italiya, Gretsiya, shuningdek, Kipr va Turkiyaning qirg'oq bo'yi kurortlarida dam oldilar. Kipr va Turkiyaga sayohatchilar soni so'nggi paytlarda tez ko'paymoqda.

2.3. Shvetsiya mamlakatining turizm iqtisodiyoti

Dunyo xaritasini kuzatsangiz, Yevropa qit'asining shimoliy qismida o'ljasiga tashlanayotgan yo'lbarsga o'xshab ketadigan quruqlikni ko'rasiz - bu Shvetsiyadir. Bu quruqlik qadimdan Skandinaviya deb yuritilib kelingan. Yarim orolning bir qismida dunyoning eng rivojlangan davlatlarning biri - Shvetsiya joylashgan. Bu iqtisodiy jihatdan baquvvat, aholisi farovon yurtning hududi yarim orolning 60%ni egallaydi. Shvetsiya Yevropa shimolidagi davlat bo'ib, aholisi 2020 yilga kelib 10.2 mln. kishini tashkil etadi, asosiy xalqi shvedlar, dini katolitsizm, aholining 5 foizi musulmonlar. Hududi - 450 ming kv.km. Mamlakat hududining 54% o'rmonlar, 16% tog'lar, 9% ko'llardan iborat.

Mamlakatning keyingi vaqtdagi erishgan iqtisodiy muvaffaqiyati butun dunyoga "Shvetsiya modeli" nomi bilan mashhurdir. Shved modeli shunga asoslanadiki, davlat firmalarning ishlab chiqarish faoliyatiga aralashmaydi, ammo mehnat bozorida faol siyosat yurgizadi, bozor ijtimoiy-iqtisodiy chiqimlarini iloji boricha kam miqdorda sarflaydi. Modelning yana bir muhim tomoni shundaki, xususiy tarmoq ishlab chiqarishini yuksak o'stirish, xalqning turmush darajasini yaxshilash, soliqlar tizimi orqali davlat tomonidan olingan foydaning iloji boricha ko'proq qismini aholiga bo'lib berishni nazorat qiladi. Bunda asosan jamoa pul fondlari va infratuzilma unsurlariga ko'proq yon bosiladi. O'z navbatida soliqlar va davlat xarajatlari orqali milliy daromadning taqsimoti iste'mol qilinishi va qayta bo'lib berilishida davlat roli tobora oshib bordi.

Shvetsiya mamlakatining turistik markazlari butun o'lka bo'ylab

tarqalgan. Bu mamlakatda xalqaro va ichki turizmning asosiy markazi bo'lib, poytaxti Stokgolm va shahar chekkalari hisoblanadi. Hudud o'z tarkibiga ikki mingdan ortiq bo'lgan orollardan tashkil topgan arxipelagni qamrab oladi. Ushbu orollarning ko'pchiligiga katerlar yordamida boriladi. Mamlakatning boshqa ommabop turistik hududi plyajlarga ega bo'lgan 400 km. masofalik oltin qirg'oq hisoblanadi. Unga ichki va xalqaro turizmning 14%i to'g'ri keladi. Ulardan keyin shved ko'llari hududi, Glass mamlakati hamda tungi qirg'oq turadi. Ularning har biriga turizm ichki bozorining 10%i to'g'ri keladi.

Shvetsiyaning asosiy diqqatga sazovor joylari quyidagilar: Vaza muzeyi, Millesgorden va YUNESKOning ro'yxatidagi – Drotningxolm qasri, Skugschyurkogorden qabristoni, Gammelstad shaharchasi, Gotland orolidagi Vibsbu shahari va boshqalar. Ko'pgina turistlar mamlakatga yoz faslida kelishadi – Skonye va mamlakatning janubiy qirg'oqlaridagi qumli plyajlarda cho'milish imkoni paydo bo'lganda. Keladigan turistlar mamlakatni janubidan shimoligacha poyezdda tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklarni yo'l boyi tomasha qilishni yoqtirishadi.

Jadval. - 2.4. Svetsiyaning eng ko'p tashrif buyuriladigan top – 10 talik joylari.

t/r	Diqqatga sazovor joy	qayerda	Tashrif qilganlar soni, mln.kishi.
1	“Kuturhuset” madaniyat markazi	Stokgolm	3.0
2	“Liseberg” ko'ngil ochish parki	Go'teborg	2.9
3	“Salyon” tog' - chang'i kurorti	Selen	1.8
4	“Fyurishov” sport majmuasi	Uppsala	1.7
5	“Folkets” dam olish va ko'ngil ochish parki	Mal'myo'	1.7
6	“Globen-Arena” sport - kontsert majmuasi	Stokgolm	1.5
7	“Gryo'na Lund” attraksionlar parki	Stokgolm	1.4
8	“Skanen” etnografik muzey	Stokgolm	1.4
9	“Vasa” kema-muzey	Stokgolm	1.2
10	“Stockholmsmassan” xalqaro kongres markazi	Stokgolm	1.2

manba: [Fakta om svensk turism](#).

Shvetsiyaga xalqaro tuzimda keluvchilar soni 2018 yilda 7.4 mln. kishini tashkil etgan va ular tufayli xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 2018 yilda 14.9 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatga keldiganlarning 25 foizi Norvegiyadan, 20 foizi Finlyandiyaning 18 foizi Daniyadan keladi, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Niderlandiya, Italiya, Estoniya, Ispaniya, Shveytsariya va Latviyadan kelishadi.

Mamlakatdan chet elga chiqqan turistlarning soni 2018 yilda 21.2 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 18.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

2.4. Finlandiya mamlakatida turizmning rivojlanish holati tahlili

Finlandiya Yevropaning Shimolida, Skandinaviya yarim orlida joylashgan. Bu davlat iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi. Hududi 338.2 ming kv.km, bo'lib, bu jihatdan qit'ada beshinchi o'rinda turadi. Mamlakat aholisi 5.6 million kishini (2020 yil) tashkil etadi, uning 93%i finlardan iborat. Eng yirik shaharlari: Xelsinki, Tamperya, Turku. Finlandiyani mahalliy aholi «Suomi» deb ataydi. Yevropa Ittifoqi a'zosi. Hududining 61%i o'rmonlar, asosan igna bargli daraxtlar, 8%igina qishloq xo'jaligi uchun yaroqlidir, chunki qolgan qismi botqoqlik va ko'llardan iborat, ana shunday ko'llar soni 180 mingdan ortiq bo'lib, o'rtacha chuqurligi 7 metr atrofida, shu sababli Finlandiyani «Ko'llar mamlakati» deb ham yuritiladi. Ko'llari mamlakat hududining 8%ini tashkil etadi, eng yirik ko'li - Sayma. Botqoqliklar ko'p.

Iqlimi mo'tadil, shimolda continental iqlim. Boltiq dengizi va Golfstrim oqimining yaqinligi iqlimga yumshatuvchi ta'sir qiladi. O'rtacha temperatura fevralda -3 dan -14 gacha, iyulda +14 dan +17 gacha. Yillik yog'in 600-700 mm. Daryolar ko'p, ularning aksariyati qisqa, sersuv, serostonali. Yiriklari - Kemi-Yoki, Kuyumi-Yoki, Kokemyaen-Yoki, Tornio-Yoki.

Mamlakat territoriya jihatdan katta bo'lsa ham, aholi soni bo'yicha uncha katta emas. «Minglab ko'llar mamlakati» deb nom chiqargan Finlandiya o'zining go'zal shimol tabiati, ayniqsa shimol yog'dusi, muzli mehmonxonalari, qaynoq saunasi, boy «tog'-

chani”si, Santa-Klaus bilan yangi yilni kutib olish, Boltiq dengizi bo’ylab kruizlari va mazali baliqli gastronomiyasi bilan ko’plab turistlarni o’ziga magnit kabi tortadi. Mamlakatda o’ziga xos, ko’rishga arziydigan arxitektura yodgorliklari Xelsinki, Tartu va qator shahrlarda ko’plab uchraydi.

Finlandiyaning go’zalligi, sayyohat uchun boy mamlakatligini bilib, juda ko’chilik u yoqqa sayyohatga boradi. Mamlakatda tog’ chang’isi kurortlari ham juda ko’p. Yangi yilni qutb mintaqasida kutib olish ko’pchilikning bolalik orzusidir. Sayyohatchilar Finlandiyaga juda ko’p sabablariga ko’ra ko’proq qishda borishadilar, masalan: yangi yilni qiziqarliroq, tasirchanroq qilib butun oilasi, do’stlari davrasida yovvoyi hayvonot, jumladan, bug’ular va takrorlanmas qorbobo ishtirokida kutib olish uchun yoki o’ziga ohangrabodek tortadigan qishgi o’rmonga olib chiqadigan hujrachada yashash uchun, muzlab yotgan ko’lda konki va chanalarda uchish uchun, kamida 5 xil bir – biriga o’xshamaydigan holda shimol yog’dusini ko’rish uchun, mazza qilib issiq Fin saunasida bug’lanish uchun va juda qiziqarli, o’tkir taassurotlar uchun ko’plab sayyohatchilar Finlandiyaga boradilar.

Finlandiya mamlakatiga kelgan chet el mehmonlarining asosiy qismi mamlakat poytaxti Xelsinki tashrif buyuradi. Chet el mehmonlarining turistik kunlarini 38%i mamlakat poytaxti Xelsinki to’g’ri keladi. Mamlakat aholisining atigi 7,3% gina o’z ta’tillarini Xelsinki o’tkazadilar. Xelsinki 60 dan ortiq Sherkovlar bor, ularni ham ko’rish uchun ko’p kishi keladi. Sayyohatchilar orasida eng mashhuri bu Uspenskiy kafedral sobori va Tempelinaukio (u qorli, ‘tog’ cho’qqisida sherkov”) bo’lib, granitli cho’qqida uyib yasalgan. Bundan tashqari, sayyohatchilar poytaxtdagi 3 ta ajoyib muzeyni ham ko’rsalar yaxshi bo’lardilar. Fin milliy galeriyasi majmuasiga asoslangan bu uchta muzey poytaxtning eng sara arxitektura yodgorligi hisoblanadi. Bular – A) Sinebpyuxov muzeyi – tasviriy san’at muzeyi, unda juda katta jamlanma – g’arb rassomchilik, chinnisozlik, kumush va mebellar mavjud. B) “Ateneum” muzeyda XVII – XX asrlarga taalluqli fin va chet davlatlarga tekishli tasviriy san’at kolleksiyasining juda katta jamlanmasi joylashgan. C) Kyasma san’at muzeyida o’tgan asrning 60 – yillariga tegishli fin rassomlarining kolleksiyasi o’rin olgan.

Aholining katta qismi o’z dam olish kunlarini Finlandiya

ko'llarida o'tkazadilar. Aholining yana bir qismi Shimoliy hududlar, ya'ni Laplandiyada va Finlandiya tungi qirg'og'ida dam olishni xush ko'radilar.

Mamlakatda 39ta milliy park va 18ta qo'riqxonalar bor, ularda ekologik turizm yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yirik milliy bog'lari - Lemmenmyoki, Pallas-Ounastunturi, Oulanka va boshqalar.

Chang'ida uchish ham Finlandiyaning eng mashhur sport turi hisoblanadi. Alp tog'laridan farqli ravishda Yevropaning shimoli chang'i sporti ob-havo inijligiga bog'liq emas (odatda yomg'ir qor qatlamini buzib yuborishi mumkin). Bu yerlarda noyabrdan to maygacha qor yog'adi va qor ancha toza turadi. Bu holat Finlyandiyaning janubida qish 135 kun, shimolida esa 200 kungacha davom etadi. Alp tog'laridan farqli ravishda bu yerlarda kislorod yetishmaslik muammosi yo'q, chunki chang'i markazlari tog'da emas, balki tekisliklarda joylashgan. Infrastrukturaning yaxshi rivojlanganligi Finlyandiyaning oilaviy dam oluvchilarga juda mos keladi. Bu yerlarda bolalarga mo'ljallangan maxsus maydonchalar va trassalar juda ko'p, turistlarni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish uchun akvaparklar, suv orqali davolash markazlari, qorli joylarda piyoda sayr qilish, it, ohularda sayr qilish, motochang'alarda uchish uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Finlandiya asosiy kurortlari:

1. Qorli – tog' chang'i - **Shimoliy Finlandiya:** Vuokatti, Levi, Kuusamo – Ruka, Rovaniemi, Palyakka, Ukkoxala, Iso – Syuyete, Salla, Pyuxya, Yullyas, Olos va Pallas, Saariselkya. **Markaziy Finlandiya:** – Koli, Taxko, Kosurila, Maarianbaara, Ximos. **Janubiy Finlandiya:** – Ellivuori, Kalpalinna, Messilya.

2. Ko'lli kurortlar – bu yerda asosiy dam olish joyi baliq ovi.- Aland ko'llari.

Korkeasaari orolida joylashgan Xelsinki zooparki Yevropaning eng zo'r zooparklardan hisoblanadi. Oilali sayyohatchilar albatta Mumi – Trolley vodiysiga tashrif vuyurishga harakat qilishadi. U yerda bolalar uchun dunyodagi eng yaxshi matematik parklardan biri hisoblanadi.

Mamlakatning shimoliy o'lkasi bo'lgan Laplandiya - Finlandiyaning eng go'zal, chiroyli, o'ziga maftun etadigan va qiziqarli region hisoblanadi. Ulkan tepaliklar qishda ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq qor bilan qoplanadi. Cheksiz o'rmon

kengliklar, tez oqar daryolar bor. Finlandiyadagi eng tez oqar daryo va eng ulkan daryo Kemijoki shu yerdadir. Laplandiyada qishki sport (tog'-chang'i, snoubord, snegoxodlarda sayohat, it va bug'ularda uchish) turizmi juda yaxshi rivojlangan Kurortlari: Salla, Pyuxa, Ruka, Suoma, Saariselkya, Levi, Yullyas.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 3.2 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat 2018 yilda 5.7 mlrd. dollar daromad ko'rgan. Mamlakatga eng ko'p Rossiya, Shetsiya va Germaniyadan turistlar kelishadi.

Mamlakatdan chet elga ketgan turistlar soni 2018 yilda 9.5 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 7.3 mlrd. dollarni tashkil etgan. Finlandiyada aholi farovonligi yuqori bo'lganligi sababli mamlakatda chet elga chiqish turizmi yaxshi rivojlangan. Mamlakat fuqarolari asosan AQSh, Kanada, Meksika, Frantsiya, Avstriya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Shveysariya mamlakatlariga sayohatlar uyushtiradilar.

2.5. Norvegiya mamlakati turizmini tahlil

Norvegiya Yevropaning shimolida joylashgan davlat, Skandinaviya yarim orolining shimoliy qismini egallagan. Shpistbergen arxipelagi, Yan-Mayin va boshqa bir qancha orollar Norvegiyaga tegishli. Yirik shaharlari: Oslo, Bergen, Tronxeym, Stavanger.

Norvegiyaning territoriyasi juda katta (0.5 mln.kv.km.), aholisi esa 5.5 mln. kishini (2020y.) tashkil etadi. Norvegiya yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Iqtisodiyotda neft va gaz sanoati yetakchi bo'lib, YaMMning 14%ni, umumiy eksportning 30%ni tashkil etadi. Norvegiya jon boshiga yetishtiriladigan YaIM bo'yicha jahonda eng yuqori o'rinlardan birini egallaydi.

Norvegiyaning diqqatga sazavor joylari birinchi navbatda Norveg fyurdllari sanaladi. U Antlantika okeaninng chuqur suvli qo'ltiqlari bo'lib, u cho'qqisi qor bilan qoplangan tog' cho'qqilariga borib taqaluvchi tik tushgan qoyalar bilan o'ralgan o'ziga xos hududdir. Tog'cho'qqilaridagi muzliklardan esa suv sharsharalar orqali shiddat bilan oqib tushadi. Ikkinchdan esa qutb doirasidagi rangba-rang va go'zal landshaftlar sanaladi. Mamlakat o'zining tog' - chang'i kurortlari, ko'llari va o'rmonlari bilan mashhurdir. Asosiy

turistik shaharlar esa quyidagilar: Oslo, Bergen, Tronxeym, Tromsyo'. Norvegiya tabiatining anchagina qismi odam qadami tegmagan joylar hisoblanadi, bu joylar kishilarni, ayniqsa chang'ichilarni jalb qiladi. Mamlakat ko'l va daryolari butun dunyodan baliq ovlashni xush ko'ruvchilarni o'ziga chorlaydi. Norvegiyada ichki va xalqaro turizmning asosiy markazlari - muzeylariga boy bo'lgan Oslo shahri hamda poytaxt joylashgan vodiyni o'rmonli rayoni sanaladi. Bu yerda Norvegiyaning yotoqxonalar biznesining 30% ga yaqin nomer fondi joylashgan. Nomer fondining yana 10%i boshqa ommabop turistik hudud Bergan shahriga to'g'ri keladi.

Norvegiyaning eng diqqatga sazovor joylari: Trolya tili, Kyo'ragbolten toshi, Byoringsfoss sharsharasi, Bergendagi Funikulyori, Xolmenkollenedagi chang'i tramplini va chang'i muzeyi, Kristiandagi zoopark, Tusenfruddagi ko'ngilochar park, Fredrikstadagi qasr, viking kemalari muzeyi.

Norvegiyaga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 5.7 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro tirizmdan ko'rilgan daromad esa 7.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan chetga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 5.8 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajatlari esa 18.6 mlrd. dollarni tashkil etgan. Skandinaviya mamlakatlaridan Shimoliy Amerikaga emigratsiya uyushtirilganligi sababli Norvegiya aholisining ko'pchiligi Shimoliy Amerikaga turistik safarlarga chiqadilar.

2.6. Daniya va Islandiya mamlakatlarining turizm holati tahlili

Daniya Yevropa shimolidagi davlat. Unga Far'er va Grenlandiya orollari ham kiradi. Hududi - 43.1 ming kv.km (Grenladiyasiz), aholisi 2020 yilda 5.8 mln. kishi. Poytaxti Kopengagen, aholisining asosiy qismi daniyaliklar, dini xristianlik, 5 foiz aholi musulmon. Daniya tarixiy yodgorliklar va muzeylarga boy mamlakat. Uning asosiy turistik markazi mamlakat poytaxti Kopengagen hisoblanadi.

Turizmning mamlakat YaIMga qo'shgan hissasi 2018 yilda 28.3 mlrd.dollarni tashkil etgan. Daniyada Turizm asosan yaqin qo'shnilar – Germaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Niderlandiya hisobidan yashaydi. Nemislarni plyajlar, shved va norvegiyaliklarni qaynagan Kopengagen

hayoti, umuman yosh skandinaviyaliklarni nisbatan arzon pivo va boshqa spirtli ichimliklar qiziqtiradi. Hans Xristian Anderson tufayli mamlakat “ertaklar mamlakati” nomini olgan. Mamlakat, ayniqsa uning poytaxti kartina galeriyalariga, haykaltaroshlar ekspozitsiyalariga va muzeylarga juda boydir. Mamlakatda 600dan ortiq qasr va qal’alar bor. Mamlakatning dengiz qirg’g’i 7400 km.ni tashkil etadi, u plyaj turizmi, suzish, so’rfing, yaxtalarda suzish uchun qulay sharoitga egadir. Mamlakat shunday joylashganki har qayerdan dengiz eng uzog’i bilan 50 km. yo’l bosib borsa bo’ladi. Mamlakat ko’plab orol va yarim oroldan iborat va ularda esa kurortlar juda ko’p. Daniyaning eng mashhur diqqatga sazavor joylari: Kopengagendagi Amaliyborg saroyi, Odense saroyi, Frederiksborg saroyi, Xristianborg saroyi, Rozenborg saroyi, Kopengagen ratushasi, Daniya qirollik kutubxonasi, Kopengagen milliy galeriyasi va b. (manba: <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-danii/>). Kopengagenning diqqatga sazavor joylari: Tivoli ko’ngilochar parki, Xristianiya erkin shahri, suv parisi haykali va b.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 12.7 mln.kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan tushgan daromad 2018 yilda 9.1 mlrd. dollarni tashkil etgan. Daniya Germaniyaga yaqin bo’lganligi sababli o’z mamlakatiga kirish turizm bozorini birinchi navbatda ushbu mamlakat hisobiga to’ldiradi. Germaniya Daniya turistik kunlarining 37% ni tashkil qiladi. Daniya tarixiy yodgorliklar va muzeylarga boy mamlakat. Uning asosiy turistik markazi mamlakat poytaxti Kopengagen hisoblanadi. Kopengagen mamlakatga keladigan xorijiy turistlarni 28%ni qabul qiladi. Shahar o’zining tarixiy yodgorliklaridan tashqari, har yili 4 millionga yaqin xorijiy mehmonlarni qabul qila oladigan Tivoli Garden parki bilan mashhur. Mamlakatning yana bir mashhur parki Legoland har yili bir millionga yaqin xorijiy mehmonlarni qabul qila oladi va u Buyuk Britaniyaliklar orasida o’z mavqeiga ega.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 7.5 mln. kishini tashkil etgan. Ularning qilgan xarajati esa 10.5 mlrd. dollarni tashkil etgan. Daniya aholisi uchun Yevropa mamlakatlari, asosan: Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Polsha ommabop turistik markaz bo’lib hisoblanadi. Ulardan keyin esa O’rta yer dengizi mamlakatlari turadi. Mamlakatlarining 18% sayyohlari Ispaniya, Italiya, Gretsiya, shuningdek, Kipr va Turkiyaning qirg’oq bo’yi

kurortlarida dam oladilar. Keyingi yillarda Kipr va Turkiyaga turistik safarlar soni ko'paymoqda.

Islandiya Yevropaning shimolida joylashgan orol davlat bolib, Maydoni 103 ming kv.kv. Mamlakatda 358 ming kishi yashaydi, asosiy aholisi islndiyaliklar, keyingi yillarda muhojirlar hisobidan aholi oshib bormoqda. 2019 yilda YaIM 23 mlrd.dollarni tashil etgan, jon boshiga hisoblaganda 70 ming dollarni tashkil etgan. Reykyavik Islandiyaning nafaqat poytaxti, balki asosiy shahri (mamlakat aholisining qariyb 60 foizi shu shaharda), turistik darvozasi hamdir. U yerda mamlakat tarixi haqida muzey bor.

Dindorlarning 93 foizi protestanrlar, Aholisining 91 foizi shaharlarda yashaydi. Poytaxtdan tashqari yirik shaharlari: Koupavogur, Akureyri.

Islandiya hududining 6 foizi lava hududlardan iborat. Iqlimi subartika, dengiz iqlimi. Mamlakatning markaziy qismida qor 5 oy erimaydi. Islandiya maydonining 11.8 ming kv.km. qismi muzliklardan tashkil topgan (eng katta muzlik Vatnajokul, maydoni 8 ming kv.km.). Mamlakat mineral suvlar mamlakatidir, bu suvlar yo sovuq yoki qaynab turgan holda oqadi, fantan bo'lib otiladi. Bu yurt vulkanlar yurti hamdir (ularning eng mashhurlari – Hekla, Laki, Grimsvetn). Mamlakatda milliy parklar juda ko'p. Go'zal landshaftlar ham juda ko'p, bular oxirgi muz davri natijalari bo'lib, ko'plab orollarni, vodiylarni, shar-sharalarni keltirib chiqargan. Qushlar bozori ham ko'p, ularning uchtasi Yevropadagi eng kattasi hisoblanadi. Mamlakatning shimolida "Eyya-fyord" nomli mashhur tog'- chang'i sporti maskani bor.Yevropa qit'asining eng katta muzligi Vatnayyokiyudl ham shu yerda joylashgan. Mamlakat janubida esa geotermal manbalar juda ko'p (geyzer termini ham shu yerdagi termal suv manbasi nomidan kelib chiqqan). Tingvedlir – islandlarning 930 – 1798 yillarda ishlagan parlamenti hisoblanadi, u 1930 yilda milliy park, 2004 yilda esa YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kirgan. Bundan tashqari, Mivatloch-Lax-sau, Skaftafedl, Yekyul-Saurgl-Yurvyur milliy bog'lari bor. Orola 200dan ortiq vulqonlar qayd etilgan, ularning ko'plari harakatdagi vulqonlardir.

Islandiya rivojlangan industrial davlatdir. Baliqchilik, energetika, tsement, alyumin ishlab chiqarish rivojlangan. Sanoatda baliq ovlash va uni qayta ishlash yetakchi o'rinda. Ijtimoiy progress ko'rsatgichlari bo'yicha Islandiya 2017 yilda Daniya, Finlandiya va Norvegiya bilan

birgalikda dunyoning eng xavfsiz mamlakatlar sarasiga kiradi. Global Peace Index uni dunyodagi eng tinch manzil deb baholagan.

Bu mamlakatning hayratlanarli jihatlari: Bu yerning tabiati juda go'zal, kitoblar ishlab chiqarish bo'yicha rekordchi (buning sabablaridan biri tili 12 asrdan beri saqlanib kelayapti), eng demokratik mamlakatlardan biri, xususiy tibbiyot yo'q, bepul isitish tizimi, bepul genealogik daraxt, politsiyaning quroli yo'q, u yerda deyarli spirtli ichimlik ichishmaydi va chekishmaydi.

Sayyohlar Islandiyaga tabiat bilan uyg'unlikda tinch va qulay dam olish uchun sayohat qilishadi: milliy bog'larga, vulqonlarga, muzliklar atrofida sayr qilish, qushlar va kitlarni tamosha qilish, ulkan tekisliklarda ot minish maqsadida.

Islandiyaning eng mashhur ko'ngilochar joylari: Moviy Laguna, Jokulsaron lagunasi, Gullfoss sharsharasi, Vilk qora qum sohili, Thingvellir milliy bog'i, Fjadrargljufur kanyoni va shimoliy yog'dular.

Islandiyaga 2018 yilda xalqaro turizmga kelganlar soni 2.3 mln. kishini tashkil etgan, bu mamlakat aholisidan qariyb yetti marta ko'p. Bu xorijiy turistlardan mamlakatga tushgan tushum 3.1 mlrd. dollarni tashil qilgan.

Islandiyadan xorijga turist sifatida ketganlar soni 2018 yilda 668 ming kishini tashkil etgan, har bir fuqaroga 2dan ortiqroq to'g'ri keladi. Sovuq mahalliy iqlim tufayli islandiyaliklar O'rta yer dengizi kurortlarida dam olishni afzal ko'rishadi. Ularning qilgan xarajati esa 1.8 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Qisqacha xulosalar. Yevropa mintaqasida joylashgan mamlakatlar turizmni rivojlantirishda juda katta yutuqlarga erishishgan, bu mamlakatlar amaliyotidan ko'p narsani bilib olsa va keyingi amalariyotda tadbiiq qilsa bo'ladi. Shimoliy Yevropaga kelsak, bu region mamlakatlari turizmni rivojlantirishda ko'p jihatdan o'rnak bo'lsa arziydi. Bu mamlakatlar o'z xalqiga faravon hayot, xotirjam turmush kechirish va dam olish uchun hamma sharoitni yaratib bera olishgan, mamlakat boyliklarini, jumladan tabiat boyliklarini oqilona ishlatib kelishmoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

2. Yevropada xalqaro turizmni rivojlanish asoslarini qanday ifodalash mumkin?

3. Yevropada uzluksiz turizmdan differensial turizmga o'tish modeli qanday mezonda amalga oshirildi?

4. Yevropa mintaqasida turizm kon'yunkturasining ijobiy tomonga o'zgarish sabablari nimalarda?

5. Yevropa mintaqasi bo'yicha eng ko'p xorijiy tashriflar qaysi mamlakatlarga to'g'ri keladi?

6. Jahon turizm daromadlarining necha foizi Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi?

7. Yevropa mintaqasida turizm industriyasi rivojlanishining asosiy omillari nimalardan iborat?

8. Shimoliy Yevropa mamlakatlarining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?

9. Shvetsiyaning xorijiy turistlarni o'ziga jalb qiladigan jihatlari nimada?

10. Turistlar uzoq va sovuq Islandiyaga nimani ko'rishga borishadi?

11. Yevropaning qaysi mamlakati «Ko'llar mamlakati» deb yuritiladi?

Glossariy

Skandinaviya - Yevropaning shimolida joylashgan va ayrim jihatlardan qolgan Yevropa mamlakatlaridan ajralib turadigan huduni shu nom bilan ham atashadi, unga: Finlyandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiya davlatlari kiradi.

Shved modeli - Shvetsiyaning keyingi vaqtdagi erishgan iqtisodiy muvaffaqiyati butun dunyoga "Shved modeli" nomi bilan mashhur. Shved modeli shunga asoslanadiki, davlat firmalarning ishlab chiqarish faoliyatiga aralashmaydi, mehnat bozorida faol siyosat yurgizadi, bozor ijtimoiy-iqtisodiy chiqimlarini iloji boricha kam miqdorda sarflaydi.

"Ming ko'llar mamlakati" – Finlandiyani shu nom bilan atashadi, chunki muz davridan beri qolgan ko'llar mamlakatda juda ko'p.

Norveg fyurdari – Atlantika okeanining chuqur suvli qo'ltiqlari bo'lib, u cho'qqisi qor bilan qoplangan tog' cho'qqilariga borib taqaluvchi tik tushgan qoyalar bilan o'ralgan o'ziga xos hududdir. Tog'cho'qqilaridagi muzliklardan esa suv sharsharalar orqali shiddat bilan oqib tushadi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Qaysi davlat hududi - 450 ming kv.km. Mamlakat hududining 54% o'rmonlar, 16% tog'lar, 9% ko'llardan iborat. Aholisi 10 mln. kishiga yaqin bo'lib, uning bir millionini muhojirlar tashkil etadi. Yevropa Ittifoqi a'zosi.

- a) Shvetsiya davlatining;
- b) Chexiya, Slovakiya;
- c) Meksika, Frantsiya;
- d) Portugaliya.

Shved modeli nima?

- a) institutlashtirilganligi, ya'ni qonunlashtirilganligi davlatning inqirozlarga qarshi siyosatining faolligidadir;
- b) siyosiy faoliyat tugrisida;
- c) iqtisodiy va siyosiy tarqqiyot;
- d) antropologiya nuqtai nazaridan baho berish sanaladi.

Qaysi davlat hududi 338.2 ming kv.km., bo'lib, bu jihatdan qit'ada beshinchi o'rinda turadi. Mamlakat aholisi 5.1 million kishini tashkil etib, 93%i mahalliy aholidan iborat. Eng yirik shaharlari: Xelsinki, Tamperya, Turku, mahalliy aholi «Suomi» deb ataydi. Yevropa Ittifoqi a'zosi.

- a) Finlandiya davlati;
- b) Kanada;

- c) Frantsiya;
- d) Daniya davlati.

Shimoliy Yevropa mamlakati fuqarolari asosan qaysi mamlakatlarga sayohatlar uyushtiradilar?

- a) AQSh, Kanada, Meksika, Frantsiya, Avstriya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Shveysariya;
- b) Meksika, Frantsiya, Avstriya, Xitoy. Yaponiya, AQSh;
- c) Avstriya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Daniya, Rossiya;
- d) Rossiya, AQSh, Xitoy, Frantsiya, Avstriya, Ispaniya, Italiya.

Finlandiya mustaqil O'zbekiston bilan qachon diplomatik munosabatlar o'rnatdi

- a) 1991 yilning 30 dekabrda tan oldi va 1992 yilning 26 fevralida;
- b) 1992 yilning 30 mayida tan oldi va 1993 yilning 6 aprelida;
- c) 1993 yilning 30 martida tan oldi va 1994 yilning 13 fevralida;
- d) 1992 yilning 30 dekabrda tan oldi va 1993 yilning 21 martida.

Qaysi davlat hududi 234.2 ming kv.km., aholisi 5.5 mln. kishi. Yirik shaharlari: Oslo, Bergen, Tronxeym, Stavanger.

- a) Norvegiya davlati;

- b) Italiya;
- c) Germaniya;
- d) Daniya.

Norvegiya iqtisodiyotining asosini nima tashkil etadi?

- a) neft va gaz sanoati yetakchi bo'lib, YaMMning 14%ni, umumiy eksportning 30%ni beradi;
- b) turizm va xizmat ko'rsatish;
- c) qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi, YaMMning 25%ni, umumiy eksportning 43%ni;
- d) baliqchilik hamda turizm.

Yevropaning shimoliy g'arbidagi davlat. Unga Far'er va Grenlandiya orollari kiradi. Hududi - 43 ming kv.km. aholisi 5 mln. 200 ming kishi. NATO va Yevropa Ittifoqi a'zosi. Quyidagilardan qaysi davlatligini ko'rsating.

- a) Daniya davlati;
- b) Shveysariya;
- c) Frantsiya;
- d) Chexiya.

Daniya davlati tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish uchun har yili qancha xorijiy mehmonlarni qabul qila oladi?

- a) 4 million;
- b) 6 million;
- c) 5 million;
- d) 1 million kishi.

O'zbekiston va Daniya o'rtasida qachon diplomatik munosabatlar o'rnatilgan?

- a) 1992 yil yanvarda;
- b) 1992 yilning 26 fevralida;
- c) 1992 yil 10 iyunda;
- d) 1993 yil 11 aprelda.

Yevropa ittifoqi davlatlarida turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyati qanday tashkil etilgan?

- a) erkinlik mavjud, ya'ni turagentlik yoki turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalashtirish jarayoni yoki ruxsatnomalarni chegaralash kabi hollar kuzatilmaydi;
- b) mamlakatlar o'rtasida chegaralar mavjud emas;
- c) davlat tomonidan nazoratga olingan;
- d) har bir davlat o'z bilganicha faoliyat olib boradi.

Yevropaning qaysi mamlakati "Ko'llar mamlakati" deb yuritiladi?

- a) Finlandiyani;
- b) Frantsiyani;
- c) Belgiyani;
- d) Gollandiyani.

Xalqaro turistik xarajatlar umumiy hajmida qaysi mamlakatlar ulushi uncha katta emas?

- a) Sharqiy Osiyo va Markaziy Yevropa;
- b) Markaziy va Sharqiy Yevropa;
- c) Amerika va Frantsiya;
- d) Ispaniya va Italiya.

"Kongress turizmi mamlakati" degan nom qaysi davlatga tegishli?

- a) Finlandiya;
- b) Italiya;
- c) Shveysariya;
- d) AQSh.

Turizm Yevropa davlatlari iqtisodiyotida eng asosiy tarmoqlardan biri hisoblanib, ayrim davlatlarda milliy daromadning qanchasini beradi?

- a) 30-40 foizini beradi;
- b) 10-20 foizini beradi;
- c) 40-50 foizini beradi;
- d) 20-30 foizini beradi;

Qaysi mamlakatda bir yillik valyuta tushumining 45 foizi sayyohlik savdosi xizmatidan kelib tushadi?

- a) Islandiyada;
- b) Germaniyada;
- c) Buyuk Britaniyada;
- d) Polshada.

Skandinaviya mamlakatlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Finlyandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiya;
- b) Finlandiya, Gretsiya, Daniya va Shvetsiya;
- c) Finlandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniya;
- d) Shvetsiya, Norvegiya, Germaniya va Polsha.

Quyidagilardan qay biri to'g'ri?

- a) Shvetsiya mamlakatining turistik markazlari butun o'lka bo'ylab tarqalgan;
- b) Shvetsiya mamlakatining turistik markazlari faqat mamlakatning janubida yig'ilgan;
- c) Shvetsiya mamlakatining turistik markazlari faqat poytaxt va uning atrofida to'plangan;
- d) Shvetsiya mamlakatining turistik markazlari dengizga yaqin 50 kilometrli radiusda tarqalgan.

Vuokatti, Levi, Kuusamo – Ruka, Rovaniemiya, Palyakka, Ukkoxala, Iso – Syuyete, Salla, Pyuxya, Yullyas, Olos va Pallas, Saariselkya – bu kurortlar qaysi o'lkaga tegishli?

- a) Shimoliy Finlandiyaga;
- b) Markaziy Finlandiyaga;
- c) Janubiy Norvegiyaga;
- d) Sharqiy Norvegiyaga.

- Qaysi mamlakat Hans Xristian Anderson tufayli “ertaklar mamlakati” nomini olgan?**
- a) Daniya;
 - b) Germaniya;
 - c) Norvegiya;
 - d) Shvetsiya.

III MAVZU. MARKAZIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O’quv maqsadi: Markaziy Yevropa mamlakatlarida turizmning oziga xosligini o’zlashtirishdan hamda bu regiondagi davlatlarda turizmni rivojlantirish borasida davlatlarning say-harakatlarini mohiyatini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma’lumotlar

Reja:

- 3.1. Markaziy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi**
- 3.2. Chexiya va Slovakiya mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti**
- 3.3. Vengriya mamlakati turizmi holatini tahlili**
- 3.4. Polsha mamlakatining turistik imkoniyatlari**
- 3.5. Ruminiya mamlakatining turistik imkoniyatlari**
- 3.6. Bolgariya mamlakatining turistik imkoniyatlari**

Tayanch so’z va iboralar:

Turizm, turist, ekskursiyachi, xalqaro turizm, ichki turizm, Sovet tizimi, sotsialistik lager, Karpat, Markaziy Yevropa, Dunay, qasrlar mamlakati, issiq buloqlar, kurort, turk hammomi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристическое страноведение. Учеб. пособие. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
3. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
4. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
5. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.

6. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФИС, 2009. 368 с.
7. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
8. www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization.
9. <https://www.World's most popular destination revealed> (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
10. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
11. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
12. www.wikipediya.ru
13. <https://knoema.ru/atlas/>
14. <https://ru.unesco.org/>

3.1. Markaziy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi

Markaziy Yevropa mamlakatlari: Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Bolgariyada o'ziga xoslikning asosiy sababi, ularning hammasi bir necha asrlar davomida uch yirik Yevropa impeiyalari – Rossiya, Avstriya- Vengriya va Usmoniylar imperiyalaridan juda katta asorat ko'rgan, 20 asrning 40 yili davomida SSSRga qaramlik holatida bo'lganligi ularning taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilgan. Agar sanoat revolutsiyasini boshidan kechirgan G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'z tabiatiga juda katta zarar keltirgan bo'lsa, Markaziy Yevropa esa nisbatan tabiiy resurslarni va tabiiy landshaftlarni saqlab qolib bilgan. Bu esa hozirgi paytda turizmni rivojlantirishga ularga ustunlik bermoqda. Markaziy Yevropa o'rmonlarga, tog'larga boy region sanaladi. Uning flora va faunasi ham nisbatan yaxshi saqlanib qolgan.

Markaziy Yevropaning iqlimi asosan mo'tadil. Bu iqlimda esa yil – o'n ikki oy tabiat qo'ynida dam olish imkonini ham beradi. Vengriyadagi Balaton ko'li atrofida balneologik kurortlar va shifobaxsh hammomlar juda ko'p. Xevizda ham issiq suv chiqaruvchi ko'l juda mashhur. U saunalari, balchiqli vannalari bilan obro' qozongan. Regionda tarixiy sharlar va bu shaharlarda muzeylar va me'moriy obidalar ham juda ko'p. Biznes turizm, pokedj tur (plyajda dam oluvchilar uchun)larning o'ziga xosligi ham bor. Region Sovet Ittifoqi asoratidan qutulgach 20 asrning 90 – yillaridan boshlab sekin – asta turizmni rivojlantirib kelmoqda. Toza tabiati, narxlarning arzonligi

va G'arbiy Yevropaga geografik jihatdan yaqinligi tufayli turistlar oqimi yildan yil oshib bormoqda.

3.2. Chexiya va Slovakiya mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti

Chexoslovakiya respublikasi 1993 yil 1 yanvardan ikki respublikaga bo'lindi, g'arbiy qismi Chexiya respublikasiga, sharqiy qismi Slavakiya respublikasiga. 1993 yilgacha Chexoslovakiya sharqiy Yevropaning turizm sanoati va iqtisodi yaxshi tashkil etilgan va rivojlangan eng katta turistik mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanar edi.

1980-yilga qadar G'arbiy Yevropaning sotsialistik lager mamlakatlari orasida Chexoslovakiyaga chet el mehmonlari ko'proq kelar edilar. Ularning aksariyati sotsialistik davlatlardan edi. Sotsialistik bo'lmagan davlatlardan kelgan mehmonlarning tashrif maqsadi, sotsialistik davlatlardan kelgan mehmonlarning maqsadidan keskin farq qilardi. Mehmonlarning faqatgina 18%ini ekskursantlar, aksariyati esa o'z xohishiga ko'ra keladiganlar va 17%i ishbiarmonlar edi. Chexoslovakiyada chet elga chiqish turizmi aksariyat hollarda qo'shni sotsialistik mamlakatlarga yo'naltirilgan, sayohatlarning 1/3 qismi bir kunlik sayohatni tashkil qilardi. Chexoslovakiya fuqarolari uchun Vengriya, Sharqiy Germaniya, GFR, Avstriya ommabop turistik markaz bo'lib hisoblangan.

1989-1991 yillarda Chexoslovakiyada iqtisodiy reformalar boshlanishi bilan mamlakatning turizm sektori jadal rivojlana boshladi. Masalan: xorijiy mamlakatlarga chiqish turizmi 1999 yilda 8.5 mln. sayohatlarni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilda 20.6 mln. sayohatchilarni, 2001 yilda esa, 39.6 mln. sayohatchilarni tashkil etgan. Aholining ko'pchiligi bir kunlik safarlarga chiqar va chet mamlakatlarda oz mablag' sarflar edilar.

2000-2001 yillarda chet el safariga chiquvchilar soni keskin o'sishiga qaramasdan sarflangan mablag' 636 mln. AQSh dollaridan 393 mln. AQSh dollariga kamaydi. Bu holat iqtisodiy o'zgarishlar bilan yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yaqqol namoyon qiladi.

Chexoslovakiya aholisi tomonidan uyushtirilgan sayohatlarning 2/3 qismi G'arbiy Yrvropa mamlakatlariga to'g'ri kelar edi. Ushbu davrda qo'shni Polsha mamlakatiga boruvchilar soni keskin oshib bordi. 1990 yilda 1.3 mln. kishi safar qilgan bo'lsa, 2001 yilga kelib

ularning soni 6.1 million kishiga yetdi. Shu yillari mamlakatga kirish, ya'ni qabul qilish turizmida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chexoslovakiyaga sayohat qiluvchi turistlarning aksariyati Germaniyadan tashrif buyuradigan sayohatchilardir, ular umumiy sayyohlarning 21% ni tashkil etardi. Shuningdek, Polsha hamda Avstriyadan tashrif buyuruvchi sayohatchilar soni ham ortib borishi kuzatiladi.

Chexiya Yevropaning yuragida joylashgan bo'lib, maydoni 78.9 ming kv.km, aholisi 2020 yilda 10.6 mln kishini tashkil etgan. Aholining 75 foizi dinsiz (dunyoda eng yuqori ko'rsatgich), 25 foizi katolik. Mamlakat dunyo turizm bozorida mineral va shifobaxsh suvlarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Chexiya an'anaviy Yevropa sayyohlik yo'lidan tashqariga chiqadigan ko'p sayyohlar uchun sevimli sayyohlik maskani bo'lib qoldi. Qadimgi, ammo dengizga chiqish yo'li bo'lmagan bu mamlakat, ikki ming yil davomida turli me'moriy yo'nalishlarga taaluqli bo'lgan va ko'plab millatlarga tegishli bo'lgan eski me'morchilikni yaxshi ko'radiganlar uchun sevimli joy.

Sobiq sotsialistik davlatlarda demokratlashtirish jarayonlari turistik talablar geografiasiga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. Ular bir tomondan G'arbiy Yevropa, ikkinchi tomondan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlar o'rtasida ichki hududiy almashinuv ulushining ortishiga imkon yaratdi. Totalitar tizimning qulashi va «Temir pardalar» ning olib tashlanishi sobiq sotsialistik mamlakatlar fuqarolariga g'arb qadriyatlarini bilan yaqinroq tanishishga sharoit yaratdi. Shuningdek, shopping maqsadlar bilan sayohat qilishga imkon berdi. Chexiya aholisining turistik faolligi keskin oshdi, chiqish turizmi hajmi bo'yicha Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya va boshqa Yevropa mamlakatlarini quvib o'tdi. Chexiya Respublikasi statistik xizmat mahkamasining ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yili chex fuqarolari xorijga 40 mln. ga yaqin turistik safar uyushtirishgan. Turistik bozor Polsha, Vengriya, Ruminiya, Slovakiya va boshqa davlatlarda taraqqiy etdi. Yigirma birinchi asrning birinchi o'n yilligida bu jarayon pasayib normal darajaga tushdi.

Eng katta va mashhur chex salomatlik maskani Karlova Vari hisoblanadi. Chexiya milliy turistik ma'muriyati ma'lumotlariga ko'ra, har yili jahonning 70 mamlakatidan 100 ming. dan ko'proq kishi davolansh uchun, 2 mln. ekskursiyachilar tashrif buyurishadi.

Chexiya hududida Karlova Varidan tashqari Yevropada eng qadimiy kurortlardan biri Tepliste, dunyoda birinchi radonli sanatoriy – kurort Yaximov, Marian-Lazni va Frantishkavi – Lazni, Lugachoviste, shuningdek Yevropada birinchi ochilgan Yanske – Lazni bolalar falajini davolashga ixtisoslashgan kurortlari bor.

Mamlakatda keyingi yillarda Yevropa davolash – sog'lomlashtirish turizmi bozorida chex sog'lomlashtirish maskanlarining mavqieni oshirish uchun faol chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Kurortlarda kamer teatri sahnalari, galereya va ko'rgazma zallari, raqs kafelari, o'yin muassasalari, tungi klublar ochilmoqda. Ular faol dam olish uchun golf va tennis o'ynash, suzish, yaxtada sayr, otda yurish, karate, piyoda va velosipeda sayr singari sharoitlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Davolash – sog'lomlashtirish dasturi madaniy ko'ngilochar va bilimni boyitish tadbirlari bilan qo'shib olib borilayapti. Chexiya kurortlarida musiqiy festivallar, qo'shiq tanlovlari, kurort ballari, aerobik marafonlar, savdo ko'rgazmalari, folklor festivallari o'tkaziladi. Karlova Varida an'anaga aylangan xalqaro to'liq metrajli filmlar festivali bo'lib o'tadi. Bu tadbirlar turistlarni jalb etish va ular sonini ko'paytirishga, chex salomatlik maskanlari shuhratini tiklash va yoyishga qaratilgan.

Sanatoriya – kurort davolanishiga turistik kelishlar bo'yicha Yevropa mamlakatlari o'rtasida yetakchilikni Chexiya egallab kelayapti. Davolash – sog'lomlashtirish dasturi madaniy ko'ngilochar va bilimni boyitish tadbirlari bilan qo'shib olib borilayapti.

Xorij mamlakatlarida Chexiyani 5 mavzuda tilga olishadi: shaharlar va qasrlaning maftunkorligi, sog'lom va faol dam olish, Zlata Praga (3 ma'noda: tarixiy, madaniy va yoshlar uchun), kurortlar: dam olish va ko'ngil ochar joylar, Cherkov yodgorliklari.

Chexiya dunyoning shunday mamlakatlar toifasiga kiradiki, unda yil – o'n ikki oy dam olish mumkin. Bu mamlakatga har qanday mavsumga ham turistlar jon deb kelishadi. Bunda o'rta asr shahrining tor ko'chalaridan sargardon bo'lib yurish mumkin, mamlakat bo'yicha yoyilib ketgan ikki mingdan ortiq qasrlar bo'yicha tomosha qilib yurish mumkin. Mashhur chex pivosini bo'kib ichish yoki chexlarning qovurilgan kolbasalaridan iste'mol qilish mumkin. Gatranomik sho'xliklardan qutulgandan keyin jigarni va boshqa organlarni tiklash uchun Karlova Varening shifobax suvlaridan iste'mol qilish mumkin.

Chexlar odatda jon boshiga eng ko'p pivo ichishlari bilan maqtanishadi. Haqiqatdan ham chex pivosi o'ziga xosdir. Chexiya va umuman har bir chex o'z tabiati bilan g'ururlanadi, uni avaylashga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida ekologik muhitni yaxshi bo'lishiga imkon tug'diradi, chexlarni o'z tabiatini asrashga ham ko'maklashadi. Bu esa turistlar oqimini oshishiga qo'shimcha imkon beradi.

Praga – Katsov trassasida qadimiy paravozga o'tirib o'ziga xos ekspeditsiyaning shohidi bo'lasiz. Kostelets qasri, Tinets qasri, Sazav manastiri, Emnishte qasri kabilarning har biri o'ziga xos jozibaga ega. Katsov yaqinidagi «Hubertus» pivo zovodiga ekskursiya ham o'ziga xosdir.

Chexiyaning qoq markazida joylashgan Krjivoklatsko va Rakovnitisko viloyatlarini mashhur qiladigan narsa – Berounka daryosi bo'lib, u quyuq o'rmonlarni, mahobatli cho'qqilarni, sirli qasrlarni yonidan oqib o'qtadi, ularni tomosha qilish kishiga huzur bag'ishlashishini kelib, ko'rib keyin bilasiz.

Yevropaning yashil durdonasi sanaladigan, davlat tomonidan qo'riqlanadigan Krjivoklatsko tabiat qo'riqxonasiga borishni hamma maslahat beradi. Gotik usulda qurilgan binolari bilan mashhur Krjivoklat shahriga borish kerak. Bu region yana o'zining mashhur va eng zich velotraktlari bilan ham, piyoda yuriladigan marshrutlari bilan ham mashhurdir. Pivo ishlab chiqarishga asos bo'ladigan dunyoga eng mashhur va eng sifatli xom ashyo beradigan xmel ekiladigan yerlar ham bor.

Chexiya xalqaro turizmida chetdan keluvchilar soni 2018 yilda 10.6 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 2018 yilda 8.3 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Chexiyadan chet elga chiqib ketgan turistlar soni 2018 yilda 7.4 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 6.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Slovakiya Chexoslovakiya bo'lingandan keyin paydo bo'lgan davlat, maydoni 49 ming kv.km. Aholisi 5.5 mln. kishidan iborat. Slovakiya turizmi turistlarga o'zining tabiiy landshaftlarini, tog'lari, g'orlari, o'rta asr qasr va shaharchalarini, xalqning arxitektura yodgorliklarini, mineralli suvlarini va tog'-chang'i kurortlarini taklif etadi. Mamlakat territoriyasining 40 foizi o'rmonlar bilan qoplangan, 60 foiz maydon tog'li rayonlardan iborat. Mamlakatda o'nlab chang'i

kurortlari, ularda esa 10 ming km.dan ziyod turistik trassalar bor. Yayov yorishga mo'ljallangah 14 ming km. turistik trassalar mavjud. Mamlakat maydonining 22 foizini tashkil etuvchi 11ta milliy parklar va 14ta regional landshaft parklar ham mashhur turistik ob'ektlar qatoriga kiradi. Slovakiyada 6 mingdan ortiq g'orlar bo'lib, ulardan 18tasi turistlarga ochiq. 1200 dan ortiq mineral suvli manbalar va ular bilan bog'liq 25 kurort shahar sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Mamlakatda YUNESKOning ro'yxatida bo'lgan 7 ta ob'ekt ham bor va davlat tominidan qo'riqlanadigan 9 ming milliy madaniy yodgorliklarga ham ega.

Mamlakatga asosan Chexiya, Polsha va Germaniyadan ko'p turistlar kelishadi. Eng ko'p turist keladigan joylar poytaxt Bratislava hamda Yuqori Tatra. Jon boshiga to'g'ri keladigan qasrlar soni bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinni egallaydi: Zvolenskiy, Sveti Anton, Krasna Gorka, Bratislavskiy Grad. Mamlakatda milliy parklar ham ko'p, eng mashhurlari: Slovatskiy ray, Tatri, Muranska Planina, Slavatskiy Krast.

Tez oqar daryolarning ko'pligi rafting uchun a'lo darajadagi sharoitni beradi. Splav, kanoe, so'rfingga hamda tog' changisiga ham sharoit bor. Mamlakatda sog'lomlashtirish kurortlari ham ko'p: Dudintsa, Raetske-teplitse, Bardeyevkie Kupeli.

Slovakiyada kurort ishlari qayta shakllanyapti va asta – sekin mamlakat tog' chang'isi turizmi shuhratini tiklayapti va rivojlantiryapti. Termal sog'lomlashtirish maskanlarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, jihozlar bilan ta'minlash, davolashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga joriy etish yaqin kelajakda turistik oqimlarni shu kurortlarga eng avvalo qo'shni Chexiyaga yo'nalishini ko'paytiradi va davolanish - sog'lomlashtirish turizmi bozorida munosib o'rin olmoqda.

Slovakiyaga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 2.3 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakatga tushgan tushum 2018 yil bo'yicha 3.3 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni esa 2018 yilda 3.9 mln. kishini tashkil etgan. Ularning xorijda qilgan xarajatlari 2.8 mlrd. dollarni tashkil etgan.

3.3. Vengriya mamlakati turizmi holatini tahlili

Vengriya davlati Yevropaning qoq markazida joylashgan. Maydoni 93.0 ming kv.km, aholisi 9.7 mln.kishi. Vengriya Markaziy Yevropada iqtisodiy va siyosiy barqaror mamlakat hisoblanadi. Hukumat iqtisodiy reforma dasturini mamlakatda 1969 yildan o'tkaza boshladi va bu yo'nalishda qo'shni sotsialistik mamlakatlarga nisbatan oldinga siljishlar ancha bo'ldi.

1989 yilda Vengriya turizm sanoati yaxshi yo'lga qo'yilgan va Markaziy Yevropada Chexoslovakiyadan keyin 2-o'rinda turar edi. Mamlakat turistik markaz sifatida chexlar, polyaklar va sharqiy germaniyaliklar oldida katta mavqega ega edi. Vengriya G'arbiy Yevropa turistlarni, ayniqsa, Avstriya va G'arbiy germaniyaliklarni o'ziga jalb qilardi.

Yigirmanchi asrning 80-yillarning o'rtalarida ularning turistlat soni 1 yilda 2 mln. ga yetdi. 1988 yilda Vengriyaga 17,9 mln mehmon kelgan bo'lsa, shulardan 30%ini sotsialistik bo'lmagan mamlakat turistlari tashkil qilar edi. 1989 yildagi revolyutsiyadan keyin chet el mehmonlarining soni 2 barobar o'sdi va 1990 yilda 37,6 mln kishiga etdi. Mehmonlarning aksariyati Avstriya, Germaniya va Ruminiya fuqarolaridir.

80-yillarda vengerlarning g'arbga chiqishi ko'paydi. 1985-88 yillarda Vengriyaning dunyoni barcha turistik markazlariga chiqishining hajmi 2 barobar ko'paydi. Ammo keyingi yillarda bu ko'rsatkich pasaya boshladi. Bu holat Chexoslovakiya va Polshadan sezilarli tarzda farq qilar edi. Bu hol nafaqat 1989 yilgacha vengerlarning o'arbga chiqishining yaxshi tashkil qilinganligidan, balki 1990 yildan boshlab venger hukumati tomonidan o'tkazilgan valyuta nazorati siyosatining kuchayganidan ham dalolat beradi. Ushbu davrda chet el turistlarining bu yurtga sayohatlari taxminan 2 marta kamaydi. 1989 yilda bo'lib o'tgan siyosiy o'zgarishlar Vengriya turizmiga o'z ta'sirini o'tkazmadi.

Kichkina bo'lishidan qat'iy nazar mamlakat juda ham rang-barang turistik patentsialga ega. Vengriya (Pannoniya) dunyoga mashhur bo'lgan madaniy, tarixiy, tabiiy yodgorliklarga ega bo'lgan, xohlagan shaklda dam olish imkoniyatiga ega bo'lgan, rangba-rang ko'ngilochar joylarga juda boy yurtdir. Uning eng mashhur regionlari: Budapesht (Buda qasri, Budapesht tarixi muzeyi, Avliyo Matish

monastiri, Vengriya hukumati binosi, Voroshliget parki), Debretsen, Kestxey, Pech, Sentendre, Eger. Mashhur joylari esa: Grashshalkovichey qasri, Pechvard abbatligi, Brunsbik, Balatondagi Feshteich.

Butun mamlakat ochiq osmon ostidagi muzey – bunda Rim imperiyasining qoldiqlari, Usmoniylar davri, Roman davri ibodatxonalari, o’rta asr qasrlari ko’p. Umuman, mamlakatda 3500 dan ortiq qasrlar bor. Budapesht 1934 yilda dunyo ahamiyatidagi kurort-shahar maqomini olgan. Mamlakatda 1300ta mineral suvli manba bor, birgina Budapeshtda 118ta mineral suvli manba bor. Balneologik va terminal kurortlar – Sharvar, Balatonfyured butun dunyoga mashhur. Balaton ko’li qirg’oqlari balneologik kurortlardan to’lib ketgan. Poytaxt joylashgan joyda 200dan ortiq g’or bor, ularning ayrimlari turistlar uchun ochiq.

Yevropa davolash – sog’lomlashtirish turizmi bozorida Chexiyaning bosh raqobatchisi Vengriya hisoblanadi. Uni haqli ravishda termal hammomlar (yer osti issiq suvi) yurti deb atashadi. Bir sutkada quduqlar va tabiiy issiq suv manbalaridan yarim million-kub metrgacha termal suvlar otilib oqadi. Ularning bir qismi tibbiyotda foydalaniladi. XXI asr boshiga kelib Vengriya Yevropada cho’milish va suv bilan davolanishning muhim markaziga aylanadi. Bugungi kunda 22 ta Vengriya shahri va 62 posyolkasi davolanish maskanlari sifatida rasman tan olingan.

Balneologik kurortlarga tashrif buyurish Vengriyaga sayohatlar kelishining bosh motivatsiyalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatga kelgan turistlarning har uchinchi ma’danli suvlarga borgan. Vengriya kurortlarida dam olish va davolanish ayniqsa Germaniya, AQSh, Avstriya, shuningdek Vengriyaning o’zini aholisi o’rtasida juda mashhur. Turistik oqimlar ikki yo’nalish bo’yicha Budapesht va Balaton ko’liga qarab intiladi. XIX asrdayoq Vengriyaning poytaxti Budapesht shifobaxsh suvlar shahri maqomini olgan edi. Uning diqqatga sazovar joylaridan biri sharq hammomlari hisoblanadi. U XVI-XVII asrlar – Turk hukmronligi davridan buyon saqlanib kelmoqda va ishlab kelayapti. Davolanishni suvda dam olish bilan qo’shib olib borishni istovchi turistlar Yevropadagi issiq eng katta ko’llardan biri Balaton ko’liga qarab yo’l oladilar. Bu joy baliq ovlash, suzish, yelkanli sport, eshkakli qayiqda suzish, suv chang’isi

bilan shug'allanish uchun eng qulay hisoblanadi. Har yili ko'lga turli mamlakatlardan 100 minggacha turistlar kelishadi.

Mamlakatga xorijdan kelayotgan turistlar soni 2018 yilda 17.6 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakatga eng ko'p Avstriya, Germaniya, Slovakiyadan turistlar kelishadi. Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 9.6 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Vengriyadan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 8.6 mln. kishini tashkil etgan, ularning qilgan xarajati esa 3.3 mlrd. dollarni tashkil etgan.

3.4. Polsha mamlakatining turistik imkoniyatlari

Polsha ushbu Markaziy Yevropada eng ko'p aholiga ega. Uning aholisi 2020 yilda 38.7 mln kishini tashkil qilgan. Maydoni esa 312.7 ming kv.km. Mamlakatda yuqori texnologiyali iqtisod mavjud, ammo infratuzilmasi qoloq. Sotsialistik lagerning tarqalishiga qadar Polsha boshqa mamlakatlar turizm bozorini to'ldiruvchi asosiy hudud hisoblangan. Chunki yigirmanchi asrning 70-yillarda ham polyaklar erkin sayohat qila olganlar.

1989 yildan boshlab mamlakatga kirish va mamlakatdan chiqish turizmi keng rivojlana boshladi. Ammo mamlakatning iqtisodiy muammolari turizmning o'sishiga halal berardi. Sayohatchilar miqdori 1990 yillarda 22 mln. kishi, 1991 yillarda 20.8 mln. kishiga tushdi. Shuni ham inobatga olish kerakki, mamlakatdan chiquvchilarning aksariyati savdo-sotiq yoki chet davlatlarda ishlash maqsadida chiqishar edi. Ikkinchi tomondan 1991 yilda 80%ni tashkil qilgan inflyatsiyaning yuqori pog'onasi mamlakatni xalqaro turizm uchun nisbatan arzon bo'lishiga olib keldi. Shu sababli chet el turistlari soni sustlik bilan bo'lsada, orta bordi. 1990 yilda ularning soni 3.4 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda 3.8 mln. kishini, 1992 yilda esa 4.0 mln. kishini tashkil qildi. Sayohatchilarning aksariyati bir kunlik sayohatga kelar edi. Ushbu bir kunlik sayohatlar soni 1989 yilda 8 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1992 yilda 30 mln. dan oshdi. Ushbu davrda Polshaning mamlakatga kirish va chiqish tarkibida katta o'zgarishlar bo'ldi.

XX asrning oxirgi o'n yilligida Chexoslovakiya, Germaniya, MDH mamlakatlari va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan

keluvchi turistlar soni 2 barobar o'sdi. Polyaklar esa Germaniya va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlariga sayohat qila boshladilar. Shu bilan MDH mamlakatlari va Chexiya Polsha bozorida o'z mavqeini yo'qotdilar. Aksariyat mamlakatdan chiquvchi va mamlakatga keluvchi turistlar savdo, biznes, qarindosh va do'stlarinikiga tashrif buyurish maqsadida kelardilar.

Polsha tabiiy madaniy resurslarga boy mamlakat hisoblanadi. Ulardan kelgusida dam olishni rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin. Ammo, G'arbiy Yevropa turistlarining talabiga javob beruvchi otellarning kamligi hamda chet el mehmonlarining aksariyat hollarda o'z qarindoshlari va do'stlarinikida joylashishi mamlakat turizm sanoatining kam rivojlanganligidan dalolat beradi.

Polsha – davolanish - sog'lomlashtirish turizmi bozorida balneologik va balchiq bilan davolash kurortlari – Svinouystse, Kamen-Pomorski, Kolobjeg Boltiq dengizi qirg'oqlarida joylashgan. Ular chex va venger kurortlariga nisbatan kam tanilgan va hozircha ular bilan raqobatalasha olmaydi, albatta. Zarur reklama yo'qligi, tibbiy xizmat darajasining uncha yuqori emasligi, shuningdek sovuq dengiz polyak kurortlari imkoniyatlarini cheklab qo'yayapti. Polshada davolanish – sog'lomlashtirishning dengiz bo'yi turizmini rivojlantirishga xuddi uch Boltiq bo'yi davlatlari Estoniya, Latviya, Litva singari hududdagi noqulay ekologik vaziyat ham salbiy ta'sir qilayapti. Dengiz qirg'oq bo'yi rayonlari sanoat chiqindilari va oqovalar bilan ifloslanmoqda. Ko'pchilik korxonalar texnik jihatdan eskirgan va tevarak – atrof muhofazasi talablariga ko'ra yangi texnologiyalar bilan jihozlanishga muhtoj. Asosiy zararli moddalar dengiz akvatoriyasining sharqiy va janubi-sharqiy qirg'oqlari bo'ylab joylashgan shaharlar va sanoat ob'ektlaridan tushayapti. Bakterial ifloslanish darajasining oshishi munosabati bilan ayrim Boltiq bo'yi plyajlari yopilayapti, cho'milish taqiqlanmoqda. Shuning uchun Polshaning dengiz bo'yi rayonlariga turistlar kelishi keskin qisqarib ketayapti.

Nisbatan umidbaxsh uyg'otuvchi vaziyat tog'li joylarda joylashgan iqlimiy kurortlarda hukm surmoqda. Ko'p sonli tog' iqlimi turizmi Polshani davolanish - sog'lomlashtirish turizmiga ixtisolashishida keng istiqbollari ochadi. Mamlakat tog' iqlim kurortlari Sudet va Karpat tog'larida to'plangan. Sondetskix Beskid sharqiy tog' yon bag'irlarida polyak kurortlari marvaridi Krinitza

shahri joylashgan. Yuz yillar davomida u o'zining shifobaxsh mineral suvlari va balchiqlari bilan mashhur bo'lib kelayapti. So'nggi davrlarda esa tog' iqlim kurorti va sport markazi sifatida dong taratgan.

Hozirgi paytda (2018 yil ma'lumoti) Polshaga eng ko'p Germaniyadan kelishadi, undan keyin, Buyuk Britaniyadan, Rossiya, Ukraina, Belarus, Litva, Italiya, Frantsiya, AQSh, Niderlandiyadan kelishadi. Mamlakatning qayerida eng ko'p borishadi: Vrotslavdagi Tumskiy oroli, Krakov bosh bozor maydoni, Aushvits-Birkenau muzeyi, Ksyonj qasri, Poznan bosh maydoni, Gdanskdagi Dlugi Targ, Malborgdagi qasr, Gdanskdagi Jurav. Eng mashhur shaharlari: Varshava, Gdansk, Vrotslav, Jeshuv, Krakov, Katovitse. Dam olish uchun esa eng mashhur joylar: Mazur ko'llar o'lkasi, Boltiq bo'yi qirg'oqlari, Karpat tog'laridagi Tatra, Sudet, Belovejskaya pusha.

Polshaga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 19.6 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 2018 yilda 15.7 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Chet elga ketgan turistlar soni esa 2018 yilda 12.8 mln. kishini tashkil etgan. Ular qilgan xarajatlar 10.6 mlrd. dollarni tashkil etgan.

3.5. Ruminiya mamlakatining turistik imkoniyatlari

Ruminiya Janubi-sharqiy Yevrupada joylashgan mamlakat. Ruminiya go'zal tabiati va ajoyib obidalarga ega bo'lgan go'zal mamlakatdir. Mamlakat maydoni 238.4 ming kv.km, aholisi esa 19.8 mln. (2020y.) kishidan iborat. Poytaxti: Buxarest shahri. Tuzumi: parlamentar respublika. Davlat boshlig'i: prezident. Ma'muriy tuzilishi: 41 ta judes va Buxarest munitsipiyiga bo'linadi. Sharqda Prut daryosi bo'ylab Moldaviya bilan, shimolda Dunay daryosi bo'ylab Ukraina bilan, g'arbda Vengriya va Serbiya, janubda esa Bolgariya bilan chegaradosh. Janubi-sharqiy sohillarini Qora dengiz suvlari yuvib turadi.

Davlat tili – rumin tili. U 90 foiz aholining ona tilisi sanaladi. Tarqalish bo'yicha venger tili ikkinchi o'rinda, u 6.8 foiz aholining ona tilisidir. Dini: Ruminiyada rasmiy din yo'q. Aholining ko'pchilik qismi nasroniylikning pravoslaviye yo'nalishida. Hozir mamlakat aholisining 0.3 foizi – 68 ming kishi musulmon. Ular orasida rumin turklari va dunay tatarlari ko'pchilikni tashkil etadi. Islom dini

mamlakatda rasman tan olingan. Bu tuproqlarda Islom dini yoyila boshlaganiga yetti asrdan oshdi.

Iqlimi mo'tadil. Qora dengiz sohillarida qish mo'tadil va namchil, yoz uzoq va issiq bo'ladi. Buxarestda yozgi yuqori harorat +28 °C ni, qishki eng past harorat esa – 16°Cni tashkil etadi. Yirik shaharlari: Buxarest, Yassi, Timishoara, Konstansa, Kluj Napoka, Brashov, Galats, Krayova, Ployeshti.

Mamlakat hududining ko'p qismini tog'lar va tepaliklar egallaydi. Asosiy tog' tizmasi – Karpat mamlakat hududida katta yoy shaklini hosil qiladi. Eng baland nuqtasi Moldavanu tog'ida – 2544 metr. Eng katta daryosi – Dunay. Uning asosiy irmoqlari: Prut, Siret, Olt, Yalomisa. Mamlakat hududining o'n uch foizi o'rmonlardan iborat. Ruminiya o'rmonlarning tabiiy holatiga zarar yetkazmaslik bo'yicha Yevropada yetakchilardan. Hayvonot dunyosi xilma-xil.

Transporti. Ruminiyaning Markaziy Yevropa mamlakatlaridan Qora dengiz va Dunayga o'tiladigan tranzit yo'llaridagi ahamiyati katta. Temir yo'llar uzunligi 11.4 ming km, avtomobil yo'llari 153 ming km. Asosiy dengiz porti — Konstansa, daryo portlari - Breila, Jurju va Galats. Buxarest (Otopen) va Konstansada xalqaro aeroportlar bor.

Bu yurtning Karpat tog'lari, Qora dengizi, Dunay daryosi atrofi (ayniqsa YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Dunay deltasi) hammasi sof havosi va buloqlari bilan o'ziga jalb qiladi. Bu Drakula yurti hamdir, mahalliy xalqlarning, shu jumladan lo'lilarning urf-odatleri, folklori, ajoyib mehmondo'stlik yurti hamdir. Uning poytaxti, "Kichik Parij" nomini olgan Buxarest shahrida zamonaviylik o'rta asr bilan qo'shilib ketgan. Parlament saroyi, Jorj Enesku muzeyi, Botanik bog' turistlar ko'p jalb qiladigan joylar sanaladi. Uning ayrim mahalasiga kirgan turist o'zini O'rta asr Yevropasida deb his qiladi. Transilvaniyaning yuragi bo'lgan Brashov shahri Markaziy Yevropaning turist eng ko'p keladigan shaharlaridan biri sanaladi. Bran shaharchasi o'zining Drakula qasri bilan mashhur. Dobrudjada Qora dengiz bo'yi kurortlarining eng mashhurlari joylashgan (Mamaya, Yupiter, Venus kabi). Mamlakat kurortlari sof dengiz havosi, oppoq va toza qumli plyajlari, daraxtlarning ko'pligi bilan ajralib turadi (ularning ko'pi "Ko'k bayrog" maqomini olgan). Tog'- changi kurortlari esa Valaxiyada joylashgan.

Revolyutsiyaga qadar mamlakatga hammasi bo'lib, 4.5 mln kishi

tashrif buyurgan. Ulardan 1 millioni bir kunga tashrif buyurar edi. Bu mamlakatdagi siyosiy holatga bog'liq edi. Ruminiya Markaziy Yevropada Qora dengiz bo'yida dam olish uchun pekij-turlariga ega bo'lgan yagona mamlakat edi. 1990 yilda mamlakatga 6.5 mln. chet ellik mehmon tashrif buyurdi. Ularning aksariyati Sharqiy Yevropa – sobiq SSSR (2.1 mln kishi) va Vengriya (900 ming kishi) fuqarolaridir. Keluvchilarning 13%igina Yevropaning boshqa mamlakatlariga to'g'ri kelardi.

Sayyohlik sohasi sekin-asta rivojlanyapti. Mamlakatdagi eng yirik dam olish hududi – Qora dengiz sohillari hisoblanadi. Ruminiyaga 2018 yilda chet eldan kelgan turistlar soni 11.7 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 2018 yilda 3.3 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatdan chet elga ketgan turistlar soni 2018 yilda 21.0 mln. kishini tashkil etgan, ular qilgan xarajat esa 5.1 mlrd.dollarni tashkil etgan. Ruminiya qirg'oq bo'yi va tog' resurslariga boy mamlakat. Keyingi yillarda Ruminiyada chet elga chiqish turizmi o'sib bormoqda. Ammo uning xarajatlari kam. Ruminiyaliklar Vengriya, Bolgariya va Turkiyaga ko'proq tashrif buyuradilar.

3.6. Bolgariya mamlakatining turistik imkoniyatlari

Bolgariya Bolqon yarim orolidagi kichik slovyan davlati, maydoni 111.0 ming kv.km, aholisi 2020 yilda 6.9 mln. kishini tashkil etgan, xalqining asosiy qismi provoslav, ammo 14 foiz aholi musulmon. Bolgariya 1989 yilga qadar uncha katta bo'lmagan, mamlakat uchun iqtisodiy zarur hisoblangan xalqaro turizm sektoriga ega edi. Chet el turistlarining kelib-ketish soniga ko'ra u Ruminiyadan keyin turar edi. Ammo G'arbiy Yevropama mlakatlardan keluvchi turistlarning miqdori nisbatan katta (9—12%) va ular zarur bo'lgan chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishiga imkon berardi. 1991 yilda 1.5 mln. lik turizm bozori mehmonlarining 60%ini Markaziy Yevropa, asosan, Ruminiya, Polsha va MDH mamlakatlari fuqarolari tashkil qilar edi. 1990-92 yillarda Bolgariyada giperinflyatsiya bo'lib o'tdi. Bu esa barcha bolgarlar ham chet elga chiqa olmasligidan va siyosiy erkinlikni iqtisodiy chegaralash bilan qoplanayotganligidan dalolat edi. Tabiiyki, bolgar turistlarining chet davlatlardagi xarajatlari katta bo'lmadi. Bolgariyada ichki hamda chet elga chiqish turizmini

rivojlantirish uchun barcha turistik resurslar, ya'ni tarixiy yodgorliklar, Qora dengiz bo'yi plyajlarida dam olish uchun imkoniyatlar, go'zal landshaftlar mavjud.

Bolgariya iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri turizm hisoblanadi. Bu yerda rekreatsion, sport, madaniy turizm, plaj, tog', speleoturizm yaxshi rivojlangan. Mehmondo'st Bolgariya yil davomida turistlarni qabul qila oladi, ser quyosh o'lka, ko'plab tarixiy obidalar, oltin rang plajlar, davolanish kurortlari hamda mehmonxona servisining yaxshi yolg'a qo'yilganligi turistlar oqimini oshirib kelmoqda.

Mamlakatning diqqatga sazovor joylari: Varnadagi Aladja ibodatxonasi, Atirgullar vodiysi (bir necha kv.km.da turli xil gullarning, shu jumladan, yuz minglab atirgullarning hidi dimoqqa uradi), Antik dunyo yodgorliklari (Spartak, Orfeylarga borib taqaluvchi inshootlar), diniy arxitektura yodgorliklari. 500 dan ziyod provaslav monastirlari va o'nlab masjidlar mavjud (jumladan 16 asrda Sofiyada qurilgan Banya Bashi masjidi). Uch milliy park (masalan, birgina Rila milliy parkida 30dan ortiq ko'l bor), 11ta tabiiy park, 80dan ortiq qo'riqxonalar bor.

Bolgariyaning sharqi 394 km. Qora dengiz orqali o'tadi, bu dengizning sho'rliigi 18 foiz, jahon okeani esa 35 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga qirg'oqqa yaqin joyda mineral manbalarning ko'pligi hamda quyoshning taffoti va suvning iliqligi bu yurtni ko'plab kasalliklarga davo bo'lib hisoblanadi. Varna, Burgas, Shable mashhur kurort shaharlar hisoblanadi.

Golden Sands, Sunny Beach, Albena - eng mashhur va eng katta Qora dengiz bo'yi kurortlaridir. O'tgan 5 yil davomida eng mashhur joylar deyarli butunlay o'z qiyofasini o'zgartirdi. Har yili shart-sharoitlar yaxshilandi.

Sankt Konstantin va Elena kurort - oilalar uchun ajoyib tanlov, va sog'liqni saqlash uchun ham. Kurort hashamatli issiqlik mineral buloqlar ega. Suv kaltsiy, yod, brom, sulfat bilan to'yingan. 50 darajaga qadar haroratli suv manbalari. Kechasi barlar, shou, Disko, kazino, turli o'yin-kulgi shoular taklif etiladi.

Bolgariyaga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 9.3 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad esa 2018 yilda 5.1 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2018 yilda Bolgariyaga kelgan xorijiy turistlardan birinchi navbatda quyidagi davlatlardan kelishgan:

Ruminiya, Polsha, Turkiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Serbiya, Germaniya, Rossiya.

Bolgariyadan xorijga ketgan turistlar soni 2018 yilda 6.7 mln. kishini tashkil etgan. Ular qilgan xarajat esa 2.2 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Qisqacha xulosalar. Bu region mamlakatlari keyingi 4-5 asr davomida ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirganligiga qaramay, hozirgi paytga kelib o'zining tabiiy va boshqa boyliklarini avaylab bilgan hamda ularni turizm sohasini rivojlantirish uchun oqilona ishlatishni sekin-asta yo'lga qo'ymoqda. Geografik jihatdan boy G'arbiy Yevropaga yaqinlikdan kelib chiqadigan imkoniyatlardan oqilona foydalanmoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Markaziy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xos jihatlari nimada?
2. Markaziy Yevropa mamlakatlari turizm jihatdan nisbatan orqaga qolishining sabablari nima deb o'ylaysiz?
3. Chexiya mamlakati turizmining ustun jihatlari nimada?
4. Praga shahrining jozibadorliklarini gapirib bering.
5. Slovakiya nima sababdan borgan sari ko'plab turistlarni o'ziga jalb qilmoqda?
6. Vengriyaning sog'lomlashtirish turizmini ustunliklari nimada?
7. Polshaning turistik imkoniyatlari to'g'risida gapiring.
8. Ruminiya katta turistik potentsialga ega bo'la turib nega qo'shnilaridan orqada qolmoqda?
9. Bolgariyaning turistik jozibadorligi nimalarda ko'rinadi?

Glossariy

Tur - muayyan yo'nalish bo'yicha turizm xizmatlari majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat. Tur – turistlarni aniq yo'nalish bo'yicha, xizmatlar majmuasi va muddati aniq bo'lgan tashishni uyushtirish.

Turistik talab - to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan aholining turmahsulotga bo'lgan talabi tushiniladi. Turistik talab amaldagi narx-navolarda aholi tomonidan aniq bir turistik-ekskursiya xizmatlarini sotib olishi bilan belgilanadi.

Karlova Vari - eng katta va mashhur chex salomatlik maskani, har yili jahonning 70 mamlakatidan 100 ming. dan ko'proq kishi davolansh uchun, 2 mln. ekskursiyachilar tashrif buyurishadi.

Pannoniya - dunyoga mashhur bo'lgan madaniy, tarixiy, tabiiy yodgorliklarga ega bo'lgan, xohlagan shaklda dam olish imkoniyatiga ega bo'lgan, rangba-rang ko'ngilochar joylarga juda boy yurt sifatida qarab Vengriyaga berilgan nomdir.

Balaton – Vengriyaning mashhur ko'li bolib, bu ko'l atrofida juda ko'p so'g'lomlashtirish va davolash maskanlari joylashgan, mamlakatning xorijiy turist eng ko'p keladigan go'shasidir.

Karpat – ko'p jihatdan mashhur Alp tog'laridan qolishmaydigan, tog'lari o'zining go'zal tog' landshaftlari va mineral suvlari bilan boy tog' tizimi. U tog' – chang'i, yayov yurish va davolanish turizmga katta imkoniyat beradigan o'lkadir.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Markaziy Yevropa mamlakatlari tarkibiga quyidagilardan qaysi davlatlar kiradi?

- a) Chexiya, Slovakiya;
- b) Shvetsiya, Daniya;
- c) Avstriya va Lixteynshteyn;
- d) Monako va Albaniya.

Markaziy Yevropaning turizm sanoati va iqtisodi yaxshi tashkil etilgan va rivojlangan eng katta turistik mamlakatlardan biri bu -

- a) Chexiya davlati;
- b) Bolgariya;
- c) Serbiya;
- d) Slovakiya davlati.

Jon boshiga to'g'ri keladigan qasrlar soni bo'yicha qaysi

mamlakat dunyoda birinchi o'rinni egallaydi?

- a) Slovakiya;
- b) Germaniya;
- c) Polsha;
- d) Frantsiya.

Quyidagilardan qay biri Vengriyaga sayohatga kelishining bosh motivatsiyasi hisoblanadi?

- a) Balneologik kurortlarga tashrif buyurish;
- b) Poytaxt muzeylariga tashrif buyurish;
- c) Tog'- chag'i sporti bilan shug'ullanish;
- d) Plajlarida dam olish uchun.

Turk hammomlari Vengriyaga qachon paydo bo'lgan?

- a) XVI-XVII asrlar – Turk hukmronligi davridan buyon saqlanib kelmoqda va ishlab kelayapti;
- b) XVIII asrdan buyon saqlanib kelmoqda va ishlab kelayapti;
- c) XIX asrda usmoniylik davridan beri mavjud;
- d) Turk hammomlari Vengriya uchun yangi narsa va u XXI asr boshidan ishlab kelmoqda.

Hozirgi paytda (2018 yil ma'lumoti) Polshaga eng ko'p qaysi mamlakatdan kelishadi?

- a) Germaniyadan kelishadi;
- b) Rossiya va Ukrainadan keladi;
- c) Belarus va Litvadan keladi;
- d) Frantsiya va Niderlandiyadan kelishadi.

Mazur ko'llar o'lkasi, Boltiq bo'yi qirg'oqlari, Karpat tog'laridagi Tatra, Sudet, Belovejskaya pusha – qaysi mamlakatning dam olish uchun eng mashhur joylar sanaladi?

- a) Polsha;
- b) Germaniya;
- c) Finlandiya;
- d) Litva.

Kurortda davolanishda turistlar kelishi bo'yicha Yevropada yetakchi turadigan davlatni aniqlang?

- a) Germaniya;

- b) Italiya;
- c) Shveytsariya;
- d) Chexiya.

Chexiyadagi end katta va eng mashhur salomatlik markazini toping?

- a) Karlova Vari;
- b) Trento;
- c) Vertino;
- d) Teplise.

Yevropadagi qaysi kurort birinchi bo'lib bolalar falajiga ixtisoslashgan bo'ligan?

- A) Lugachovitse;
- (B) Yanske – Lazni;
- C) Frantishkavi – Lazvi;
- D) Yaximov.

Sanatoriya – kurort davolanishiga turistik kelishlar bo'yicha Yevropa mamlakatlari o'rtasida qaysi mamlakat yetakchilikni egallab kelayapti?

- a) Chexiya;
- b) Polsha;
- c) Frantsiya;
- d) Avstriya.

Slovakiya turizmi turistlarga quyidagilardan nimani taklif eta olmaydi?

- a) o'zining tabiiy landshaftlarini, tog'lari va g'orlari;

b) o'рта asr qasr, shaharchalarini va xalqning arxitektura yodgorliklarini;

c) mineralli va tog'-chang'i kurortlarini;

d) so'rfing va dengiz plyajlarida miriqib cho'milishni.

Qaysi davlatni "Yer osti issiq suvi" deb atashadi?

a) Chexiya;

b) Frantsiya;

c) Vengriya;

d) Turkiya.

Yevropada davolanish va sog'lomlashtirish turizmi bo'yicha ilg'or uchlikni qaysi davlatlar egallaydi?

a) Chexiya, Vengriya, Polsha;

b) Turkiya, Italiya, Germaniya;

c) Ruminiya, Qazog'iston, Angliya;

d) Bulgariya, Gretsiya, Irlandiya.

Shifobaxsh mineral suvlarga boy davlatlarni ko'rsating.

a) Rossiya, O'zbekiston, Chexiya, Ukraina;

b) Ukraina, Gruziya, Slovakiya, Vengriya;

c) Rossiya, Gruziya, Vengriya, Malayziya;

d) Rossiya, Gruziya, Vengriya, Slovakiya, Chexiya, Ukraina.

Quyidagilardan qay biri Ruminiyaning turistik maskanlariga kirmaydi?

a) Karpat tog'lari,

b) Qora dengizi qirg'oqlari;

c) Dunay daryosi atrofi;

d) Balaton ko'li.

Ruminiyag eng yirik dam olish hududi quyidagilardan qay biri?

a) Qora dengiz sohillari hisoblanadi;

b) Buxarest shahri atrofi;

c) Dunay daryosi etaklari;

d) Visla daryosi qirg'oqlari.

Bolgariyaning Qora dengiz bo'yida joylashgan mashhur va eng katta kurortlar ro'yxatiga kirmagan kurortni toping.

a) Burgaz;

b) Golden Sands;

c) Sunny Beach;

d) Albena.

Bolgariyada oilaviy dam olish uchun eng ajoyib joy deb tan olingan kurortlarni ko'rsating.

a) Varna va Golden Sands kurortlari;

b) Burgas va Sunny Beach kurortlari;

c) Albena va Shable kurortlari;

d) Sankt Konstantin va Elena kurortlari.

Dunyo turizm bozorida mineral va shifobaxsh suvlarga boy mamlakatlar qatoriga kirmaydigan mamlakatni ko'rsating.

a) Chexiya;

b) Polsha;

c) Vengriya

d) Buyuk Britaniya.

IY MAVZU. SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad Sharqiy Yevropa mamlakatlarida turistik imkoniyatlarni o'ziga xosligini o'zlashtirish hamda bu mamlakatlarning turizmini rivojlantirishdagi potentsialini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

4.1. Belarus mamlakatining turistik imkoniyatlari tahlili

4.2. Boltiq bo'yi respublikalarining turistik imkoniyatlari tahlili

4.3. Rossiya mamlakatining turistik imkoniyatlarini tahlili

4.4. Ukraina mamlakatining turistik salohiyati

4.5. Kavkaz orti mamlakatlarning turizmi tahlili

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, turist, ekskursiyachi, xalqaro turizm, ichki turizm, Sovet tizimi, Karpat, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Boltiq Bo'yi region.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристическое обслуживание. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристическое обслуживание. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. «География туризма». Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
4. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. - <https://www.labirint.ru/books/228973/> Учебник. - М., КноРус, 2016.
5. Арбузов А.Ф. География туризма. Учебник для студ. сред. проф. образования/А.Ф. Арбузов – М. Издательский центр «Академия», 2009. - 160с.
6. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
7. География международного туризма: Страны СНГ и Балтики. Учебное пособие Гайдукевич Л.М., Хомич С.А., Аношко Я.И. 2004.
8. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФИС, 2009. 368 с.
9. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/759231/> Издательство: КноРус, 2021 г.

10. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
11. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие./ А.А.Самойленко. - Ростов н/ Д: “Феникс”, 2006.-368 с.
12. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
13. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
14. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
15. <http://www.armeniya2020.org>
16. [www.UNWTO](http://www.UNWTO.org) Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
17. [www.UNWTO](http://www.unwto.org) [Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org).
18. [https://www.](https://www.cnn.com)[World’s most popular destination revealed](https://www.cnn.com) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
19. [www.Travel & Tourism Economic Impact 2017](http://www.travel-tourism.org).
20. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
21. <https://knoema.ru/atlas/>

4.1. Belarus mamlakatining turistik imkoniyatlari tahlili

Sharqiy Yevropa mamlakatlari deganda odatda sobiq SSSR 1991 yil parchalangandan keyin uni o’rnida paydo bolgan mamlakatlar: Rossiya, Ukraina, Belarus, Latviya, Litva, Estoniya, Moldava Armaniston, Ozorbayjon va Gruziyani tushunishadi. Bu mamlakatlar juda katta turistik imkoniyatga ega edi, ammo parchalangandan keyingi o’n – yigirma yil ichida turizm sohasi ancha izdan chiqib ketdi. Sharqiy Yevropa, birinchi navbatda Rossiya va Ukraina sobiq SSSRdan qolgan kuchli turizm, jumladan, sog’lomlashtirish - davolash tizimiga ega edi, ammo u ancha xarob bo’lib qolgan va ko’proq ichki turizmga xizmat qiladigan bo’ldi. Ulardan Boltiq bo’yi mamlakatlari va Gruziya eski potentsialni tiklab, uni yanada rivojlantira oldi, qolganlari esa uncha uddalay olishmadi.

Belaruss. Poytaxti Minsk shahri. Iqlimi - kontinental, dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 207.6 ming kv. km., aholisi – 9.5 mln. kishi (2020 - yil), tili - belorus va rus, dini - xristian.

Yirik shaharlari: Minsk, Gomel, Vitebsk, Mogilyov, Grodno, Bobruysk, Brest. Milliy bayrami - Mustaqillik kuni (3 iyul).

Turizmi: asosan, tarixiy turizm rivojlangan. Polotskdagi Sofiya bosh cherkovi, Spas - Efrosinevsk va Blagoveshchensk ibodatxonalari, Kamenets minorasi, Kreva, Lida, Turov, Novogudok qal'alari. Grodno, Mir, Nesbijadagi qo'rg'onlar. Mehmonxonalar anchagina va xalqaro aeroportlar bor.

Mamlakatda agroturizm katta imkohiyatlar bor: go'zal yam-yashil rayonlar, o'tloqlar, quyuq o'rmonlar, toza ko'llar, daryolar va botqoqlar. Mamlakatda sport turizmiga yaxshi sharoit mavjud. Mamlakat maydonining qariyb 9 foizi 26 qoriqlanadigan tabiiy maydonlarga ega, ularda 1287ta ekologik ob'yekt bor, shularga asoslanib ekoturizm ancha rivojlangan. Avtoturizm va gastronomik turizm ham rivojlanmoqda. Mamlakatning boy flora va faunasi ov turizmini rivojlantirishga imkon bermoqda (50 xil hayvonga ov qilish ruxsat berilgan), 196ta ov qilish uylari mavjud. Harbiy, tarixiy va diniy turizm ham rivoj topgan. Mamlakatda 2018 yilda turistlarni joylashtiruvchi 587 (20590 nomer) tashkilot, shu jumladan, 385 mehmonxona bo'lgan. Turistlar eng ko'p boradigan shaharlar: Brest, Vitebsk, Gomel, Grodno, Minsk, Polotsk.

Belarussga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 366 ming kishini tashkil etgan, shularning 213 mingi Hamdo'stlik mamlakatlaridan kelishgan. Mamlakatga birinchi navbatda Rossiyadan (207 ming), Litva (60 ming), Polsha (46 ming) dan kelishgan.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 850 ming kishini tashkil etgan, shu jumladan hamdo'stlik mamlakatlariga 170 ming kishini tashkil etgan. Chiqish turizmida eng mashhurlari Misr (212 ming), Turkiya (151 ming), Ukraina (122 ming), Bolgariya (50 ming) va Rossiya (47 ming) hisoblanadi.

4.2. Boltiq bo'yi respublikalarining turistik imkoniyatlari tahlili

Boltiq bo'yi deganda, odatda uch mamlakat – Estoniya, Latviya va Litvani tushunishadi. Boltiq bo'yi respublikalari iqlimi - dengiz iqlimi bilan kontinental iqlim o'rtasidaligi bilan ajralib turadi.

Latviya. Poytaxti Riga shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 64.6 ming kv. km., aholisi – 1.9 mln. kishi (2020 - yil), tili - latish, dini - xristian, pul birligi – lat edi, hozir esa yevro. Yirik shaharlari:

Riga, Daugavpils, Liepaya, Elgava, Yurmala. Milliy bayrami - 18 noyabr Latviya respublikasi e'lon qilingan kun (1918 - yil).

Latviyada SSSR davridan beri turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib kelmoqda. Turizm mamlakat YAIMining 4 foizini, ish kuchining 8.9 foizini beradi (2018 y). 2000 yilda mamlakatga 5mln.dan ortiq turist kelgan. An'anaviy turistik yo'nalishlar Riga va Yurmala bo'ib hisoblanadi. Keyingi paytlarda ekologik turizm tez rivojlanmoqda.

Mamlakatning poytaxti Riga shahri to'liq holda eng muhim turistik durdona hisoblanadi. Tarix muzeyi, metropoliteni, turistlar uchun ertaknamo tor ko'chalari bu - uning eski qismidagi Qirollar qasri, Muqaddas Pyotr cherkovi, Mushuklar uyi, Riga qasri, Elgavadagi parkli saroy ansambli, "Uch aka - uka" ansambli doimo odamlar bilan gavjum. Mamlakatda o'rta asr qo'rg'onlari ko'p. Sigulda Milliy parki. Sigulda, Liepaya, Kemeri, Baldone kurortlari. Plyaj turizm, tennis kortlari, Rundal saroyi.

Riga shahri muzeylarga juda boy hisoblanadi, ularning ichida eng mashhuri Riga va dengizchilik tarixi muzeydir (u Yvropadagi eng qadimiy muzeylardan biri hisoblanadi). Tibbiyot muzeyi esa shu sohada dunyoning eng yirik muzeyi hisoblanadi. Boltiq regionida yagona Qandil muzeyi esa 6000dan ortiq eksponatga ega.

Poytaxtdan 26 km. uzoqlikda joylashgan go'zal kurort Yurmala ham juda mashhurdir. Issiq va yoqimli dengiz havosi hamda xilma-xil ko'ngilocharliklar ko'plab kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. "Liva" akvaparki, "Akvalandiya" suv attraksionlar parki, "O'rmon mushugi" sarguzashtlar parki ham ko'plab kishilarni jalb qiladi. latviya Gollivudi nomini olgan "Sinevilla" kino shaharchasi ham juda mashhurdir.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 1.9 mln. tashkil etgan (bu ko'rsatgich sobiq Sovet davridan bir necha bor kam). Xalqaro turizmdan mamlakatga kelgan tushum 2018 yilda 1.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan xorijga ketgan turistlar soni 2018 yilda 1.4 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajatlari 778 mln. dollarni tashkil etgan.

Litva. Poytaxti Vilnyus shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 65.3 ming kv. km., aholisi – 2.7 mln. kishi (2020- yil), tili - litva, dini - xristian, pul birligi – lit edi, hozir yevro. Mamlakatning yirik

shaharlari: Vilnyus, Kaunas, Klaypeda, Panevejis, Shyaulay, Kedaynyay. Milliy bayrami - 16 fevral - Litva davlati qayta tiklangan kun (1918 - yil).

Litvaga go'zal Vilnyusni tarixiy obidalari va arxitektura yodgorliklarini ko'rish, Neringe qoriqxonasida bo'lish, Palangadagi yantar muzeyini ko'rish, Kaunasdagi shaytonlar muzeyini ko'rish, Mosidesedagi toshlar muzeyini ko'rish, dengizdagi shinam qirg'oqlarda dam olish, sof va muzdak ko'llarda bo'lish uchun kelishadi.

Vilnyus - Neris va Vilniya daryolarining tutashgan yerida joylashgan va YUNESKO tarkibiga kiritilgan tarixiy shahar. Minoralari, o'rta asrga oid yo'l va kichik ko'chalari bilan mashhur. Avliyo Anna cherkovi. Trakan etnografik va tarix muzeyi, Kaunas rim-katolik cherkovi, muzeylari, Klaypeda porti, muzeylari, Shaulyaydagi avliyo Pyotr va Pavel cherkovlari. Litva o'zining yengil dengiz iqlimi, yaxshi oshxonasi, uncha qimmat bo'lmagan, ammo ancha sifatli servis xizmati bilan mashhurdir.

Mamlakatning milliy parklari: Aukshataytiy, Jeymaytiy, Dzuki, Trakay. YUNESKO ob'yektlari: Kernavedagi litva Troyasi, Krush chizig'i, Eski shahar Vilnyus.

Kurortlari: Palanga, Nida, Yudkrante. Kurort shaharlari: Birshonas va Druskininkay (Sahrqiy Yevropadagi eng katta akvaparkka ega).

2018 yilda mamlakatga 2.8 mln. kishi xorijdan kelishgan, eng ko'p nemislar, keyin ruslar, polyaklar, beloruslar, latviyaliklar, ukrainlar, inglizlar kelishgan. Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 1.4 mlrd. dollarni tashkil etgan. Litvadan xorijga chiqqan turistlar miqdori 2018 yilda 2.2 mln. kishini tashkil etgan. Ularning qilgan xarajati esa 1.2 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Estoniya. Poytaxti Tallin shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 45.2 ming kv. km., aholisi -1.3 mln, tili - eston, dini - xristian. Turizm Estoniya iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Boltiq bo'yi respublikalariga xos tarixiy, diniy, madaniy, plyaj, sog'lomlashtirish turizmlari yaxsi rivojlangan, mehmonxonalari juda ko'p, xalqaro aeroportlari ham. Kichik qal'a va cherkovlari juda ko'p. Tarixiy "Tall Herman" minorasi juda mashhur.

Estoniya dengiz qirg'og'iga joylashgan sanatoriyalari, plyajlari, spa-markazlari hamda shaharlaridagi tarixiy yodgorliklari va o'rta asr

qasrlari bilan mashhurdir. Mamlakatda yayov yurish turizmi uchun juda qulay sharoitlar yaratilgan. Tallin mamlakatning nafaqat poytaxti, balki turistlar oqimining asosiy yo'nalaishi hamdir. Shaharga yaqin joylashgan Aegna, Nayssaar, Pringliga yayov yurishadi. Kurortlari: Pyarni, Xaapsaape, Narva-Yiesuu, Saaramaalar hisoblanadi.

Boltiq bo'yi mamlakatlaridan bo'lmish Estoniyada inson qo'li deyarli tegmagan tabiat burchaklari mavjud bo'lib, u asosan qo'riqxonalarda uchraydi. Ekolog olimlarning e'tirof etishlaricha, Kingisepp rayonida keyingi paytlarda ekologik turizmning rivojlanishi mahalliy aholi tomonidan rivojlantirib kelinmoqda. Davlat tomonidan esa, afsuski, hech qanday qo'llashlar bo'lmayapti. Hozirda turistik sohaning ekologik sektori rivojlanish tendentsiyasi o'sib bormoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina ekologik turizm xalqaro ilmiy dasturlarining yoyilishigina emas, balki hukumatning bunday afzal turizm turini tushunib yetishidadir. Chunki ekoturizm rayonning ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini hal qilishda, tabiatini muhofaza qilish va milliy madaniyatni rivojlantirishga ko'mak beradi.

Estoniyadagi mintaqalarni ekoturizm orqali barqaror rivojlantirishda Fin qo'ltig'i, Luga hamda Narva daryolari eng qulay joylar hisoblanib, ularda ajoyib manzarali landshaftlar ko'p. Bu yerda «yashil» sayyohlarni eng qiziqtirgan narsa bu Fin qo'ltig'i akvatoriyasida joylashgan orollar - Gogland, Katta va Kichik Tyuterlar, Moshniy, Seskar va boshqalar. Orollar foydalanuvchisining huquqiy maqomi aniq qilib o'rnatilmaganligi tufayli hanuzgacha ulardan ekoturistik maqsadlarda foydalanish imkoniyati cheklangan. Faqatgina Kingisepp rayonining ma'muriyati o'ziga tegishli oroldan turistik va rekreatsion maqsadda foydalanish dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Mamlakatga xorijdan 2018 yilda 3.2 mln. turist kelgan. Mamlakatga keladiganlarning eng ko'p qo'shni Finlandiya, Rossiya va latviyaliklar tashkil etadi. Keyingi paytda Germaniya va Xitoydan turistlar oqimi ko'paymoqda.

Xalqaro turizmdan 2018 yilda tushgan tushum 2.3 mlrd. Dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan chetga chiqan turistlar soni 2018 yilda 2.1 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 1.7 mlrd. dollarni tashkil etgan.

4.3. Rossiya mamlakatining turistik imkoniyatlarini tahlili

Rossiya. Poytaxti Moskva shahri. Iqlimi - asosan mo'tadil iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 17.1 mln. kv.km, dunyodagi eng katta mamlakat. Quruqlikdagi chegarasi – 22125.3 km, dengiz chegarasi - 38807,5 km, aholisi – 146.6 mln. kishi (2020 - yil), tili - rus , dini - xristian, musulmonlar aholining 10 foizini tashkil etadi, pul birligi - rubl. Yirik shaharlari: Moskva, Sankt - Peterburg, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Samara, Yekaterinburg. Milliy bayramlari: 12 iyun - Suverenitet haqida deklaratsiya qabul qilingan kun (1990 - yil), 7 noyabr - kelishuv va inoqlik kuni (1996 - yil), 12 - dekabr - Rossiya Konstitutsiyasi kuni (1993 - yil).

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Moskva Kremli, Kolomenskdagi Voznesenskiy cherkovi, Vasiliy Blajenniy ibodatxonasi, Orujeynaya palata, tosh ibodatxonalar, musulmon masjidlari, Moskva metropoliteni, Moskva daryosi ko'priklari, muzeylari, Pyotr saroyi, Tretyakov galareyasi, cherkovlari, monastirlari. Quyi Novgorod, Tula, Kolomna, Zagorsk, Smolensk, Serpuxov kremlari. Sankt - Peterburg dunyodagi go'zal shaharlardan biri hisoblanishi. Petropavlovsk qal'asi majmuyi, Davlat Ermitaji. Umuman, Rossiyada tarixiy, diniy, madaniy va dam olish turizmi uchun qulay sharoitlar juda ko'p. Rojdestvo (Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami, milodning boshlanishi), paxsa bayramlari bilan bog'liq sayr - sayohat, ta'lim, sport - sog'lomlashtirish va yoshlar turizmi, dengiz, daryo turizmi, shop tur, biznes tur, avtomobil turizmi. Xalqaro aeroportlar, zamonaviy mehmonxonalar juda ko'p.

Turizm Rossiyada dinamik tarmoqlardan biri, bu sohada 0.5 mln. kishi band. 2017 yilda mamlakat ga 24.4 mln. kishi kelgan va 8.9 mlrd. dollar daromad ko'rgan, yoki YAIMning 3.4 foizi. Mamlakatda YUNESKO ro'yxatida bo'lgan 29 ob'yekt bor, 26 kurort, 143.7 ming davlat ro'yxatidagi diqqatga sazovor ob'yektlari bor. Mamlakatda 100dan ortiq xalq yashaganligi uchun ular bilan bog'liq turli madaniy, ma'naviy va moddiy qadriyatlar bor. Mamlakatning ikki poytaxti – Moskva va Peterburg yuz minglab turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Muzeylar, badiiy galeriyalar, qasrlar, cherkovlar, parlar, bog'lar, teatr va kontsert zallari, akvaparklar – bularning hammasi ikkala poytaxtda ham tiqilib yotibdi. Bu shaharlarda yarmarkalar,

vistavkalar, sport musobaqalari va hokazolar juda ko'p o'tkaziladi. Moskvaning eng mashhur ob'yektlari: Kreml. Qizil maydon, Olmos fondi, Vasiliy Blajeniy sabori, Lenin mavzoleyi. Peterburgda esa: Qasrlar maydoni, Qishki saroy, Petergoflar juda mashhur.

Mamlakatda 500dan ortiq "tarixiy shahar" maqomini olgan shaharlar bor. Milliy respublikalarning poytaxtlari (Qazon, Grozniy, Vladikavkaz, Ufa, Elista kabilar) o'ziga xos turistik jozibaga ega.

Rossiyaning turistlar oqimi eng katta bo'lgan joylaridan biri Sochi hisoblanadi. U, nafaqat Rossiya, balki Yevropaniing eng uzun shahridir. Dam olish uchun qulay bo'lgan dengiz bo'yi uzunligi 145 kilometrni tashkil etadi, u Gobi cho'liga va mashhur frantsuz Rivierasi bilan bir xil kenglik ustida joylashgan.

G'arbiy Kavkaz tog' oldi hududining cheksiz bargli o'rmonlar bilan qoplangan tog'lar Sochi hududining 90 foizini tashkil etadi, uzoqdan qor yaltiratib turadigan qudratli tog' cho'qqilari, sovuq shimoliy va sharqiy shamollar, sohilda esa dengizning iliq nam havosi, 300 quyoshli kun.

Sochi bugun - eng zamonaviy tibbiy va tashxis inshootlari, mehmonxonalar va dam olish bilan jihozlangan sanatoriy-profilaktoriy, g'orlar, qoyalar, tog' yo'llar, shiddatli daryolarda rafting, tog'lardagi ko'pgina labirintlar, ixlosmandlar uchun 20 dan ortiq ekskursiya marshrutlari ishlab chiqilgan.

Rossiyaning ulkan Sibir, Ural tog'lari va Uzoq Sharq hududlarida hali o'rganilmagan, inson qadimi yetmagan juda katta turistik resurslar mavjud.

4.4. Ukraina mamlakatining turisnik salohiyati

Ukraina. Poytaxti Kiyev shahri. Iqlimi - mo'tadil, kontinental iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 576.3 ming kv. km., aholisi – 41.9 mln. mln. kishi (2020 - yil), tili - ukrain, dini - xristian, pul birligi - grivna. Ukraina turizm ancha rivojlangan davlat edi. Ammo, Qrim konflikti mamlakat turizmini ancha izdan chiqardi. 2017 yilda 14.2 mln. turist kelgan (2013 yilda esa 24.6 mln kishi kelgan edi). Yirik shaharlari: Kiev, Xarkov, Odessa, Dnepropetrovsk, Donetsk, Zaporozje, Krivoy Rog, Lvov.

Mamlakatning turizm sohalari – sport turizmi (tog'- chang'i, alpinizm), arxeologik, ziyorat, madaniy. Boy tarixiy, arxeologik

manbalar, uning madaniyati va go'zal tabiati (go'zal Karpat tog'lari, Qora dengiz qirg'oqlari, Dnepr) madaniy turizmga katta imkoniyatlar beradi. YUNESKO ro'yxatidagi ob'yektlar: Kiyev-Pechora lavrasi, Sofiya bosh cherkovi, Lvov shahri markazi.

Turistik shaharlari: Kiyev, Kamenets – Podolsk, Lvov, Mukachevo, Odessa, Chernigov, Chernovtsi, Xarkiv, Zaporozhye.

Karpat tog'lari o'zining go'zal tog' landshaftlari va mineral suvlari bilan tog' – chang'i, yayov va davolanish turizmga katta imkoniyat beradi. Qora hamda Azov dengizlari esa o'zining plyajlari bilan undagi kurortlari bilan mashhur. Dnepr daryosi esa kruizlari, baliq ovi, so'rfing, plyajlarda dam olish bilan mashhur. Mamlakatdagi Vir, Gupkalo, Jurin, Shipot sharsharalari ham go'zal.

Ukrainaga 2018 yilda xorijdan 14.1 mln. turist kelgan. Ukrainaga birinchi navbatda qo'shnilardan – Rossiya, Moldavoya, Belarus, boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan, AQSh, Izroildan kelishadi. Xalqaro turozmdan 2018 yilda ko'rilgan daromad 2.3 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Chet elga ketgan turistlar soni 2018 yilda mamlakat bo'ylab 27.8 mln. kishini tashkil etgan, ammo ularning asosiy qismi mehnat migrantlari bo'lgan. Xorijiy turizm xarajatlari esa 8.3 mlrd. dollarni tashkil etgan. Chetga chiqadigan turistlar birinchi navbatda Misrga, keyin Turkiya, Bolgariya, Chernogoriya, Italiya, Kipr, Gruziya, Tunisga to'g'ri keladi.

4.5. Kavkaz orti mamlakatlarining turizmi tahlili

Armaniston. Poytaxti Yerevan shahri. Davlat tuzumi - demokratik respublika. Maydoni – 29.7 ming kv. km., aholisi – 3.1 mln. kishi (2020 - yil), tili - arman, dini - xristian - monofisiy, pul birligi - dram. Yirik shaharlari: Yerevan, Gyumri, Vanadzor. Milliy bayrami - 24 sentyabr - Mustaqillik kuni (1991- yil).

Mamlakat ko'p asrli tarixga va boy madaniyatga ega. Davlat 4 ming noyob yodgorlikka ega, ular miloddan oldingi, ellinlik, o'rta asr va zamonaviy davrlarga xos.

Bloomberg ma'lumotlari bo'yicha Armaniston Yevropaning eng dinamik turistik top - o'ntalikka kirgan (2017 y). Tigranet shahrining Garni qal'asi, Ripsime, Avan, Evartnost Axtamar qasrlari, monastirlari va cherkovlari juda mashhurdir.

Mamlakatning eng zo'r turistik joylari Yerevan (AQShning SNN telekanali 2019 yilda Yerevanni Yevropaning eng go'zal 20ta shaharlar ro'yxatiga kiritgan.), Jemruka, Tsaxkadzore, Dilijane tog' kurortlari.

Ekstremal turizm o'tgan asrning o'rtalaridan jadal rivojlanib kelmoqda. Mashhur yodgorliklar: Karaunjdagi dunyoning eng qadimiy observatoriyasi (u eramizdan 5500 yil oldin qurilgan) Zarats-Karer, Urartu davri qasrlari - Erebuni, Teyshebaini, Argishtixinili, Ellin davridagi Garni ehromi, u Kollizeyga zamondosh, Mixra xudosiga atab qurilgan. Ellin davridan qolgan arman shaharlari: Armavir, Yervandasht, Zareavan, Zarishat, Bageran, Arshamashat, Artashat, Vagarsha. O'rta asrdan qolganlari: Tatev, Amaras monistrlari, arman katolikos rezidentsiyasi Echmiadzin bosh cherkovi, Zvartnots ehromi, Amberd qasri, Noravank monastiri, Kakavaberd monastiri va h. Usmoniyalar va sovet davrlaridan ham ancha yodgorliklar qolgan. Tabiatning diqqatga sazavor joylardan - Dilijan milliy parki, Stepanavana dendroparki, Kasaxa va Shakin sharsharalari, Yerevan botanika bog'i, Toshlar simfoniyasi, go'zal Sevan ko'lidagi milliy park.

Turizmning tez o'sayotganligi mamlakatda o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar – har yil Yerevanda o'tkaziladigan “Oltin o'rik” kinofestivali, 4 yilda bir marta o'tkaziladigan Pan-Armaniston o'yinlari, “Uyga qayt” dasturi va boshqalarning ham o'rni bor.

O'rmonlar mamlakat maydonining 12 foizini tashkil etadi. Qo'riqxonalar 26ta bo'lib mamlakat maydonining 3.5 foizini tashkil etadi. Ular orasida eng mashhuri Xosrovskiy o'rmon qo'riqxonasidir, u Yevropada leopard yashaydigan yagona qo'riqxonadir. Lori viloyatida mamlakatdagi eng katta botanika bog'i bor, maydoni 35 gektarni tashkil etadi. Poytaxtda ham botanika bog'i mavjud. Mamlakat maydonining 86 fjizi tog'li hudud sanaladi. Tog'larda go'zal daralar, sharsharalar mavjud. Mamlakatdagi eng katta suv havzasi Sevan ko'li hisoblanadi. U sayoradagi eng toza suv havzalardan biri sanaladi.

Mamlakatda yaxshigaina sharoitga ega bo'lgan aktiv dam olishning turlari: paraplanerizm, havo sharlarida uchish (Enokavan va Lastiver hududlari mashhur), beysjamping, vindsyo'rfing (Sevan ko'lida), dayving, rafting (Dzoret, Kasax, Debed, Tatar daryolarida),

snoubord (xususan, Tsagkadzor va Jermukda kurortlarida). Armaniston alpinistlar uchun ham mashhur joy sanaladi.

Mamlakatda 2019 yilda mehmonxonalar soni 600ga yaqinlashgan, shularning teng yarmi 2013-2019 yillarda ochilgan.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 1.7 mln. tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 2018 yilda 1.2 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Armanistondan chetga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 1.6 mln. kishini tashkil etdi va ularning xarajatlari 1.5 mlrd. dollarga yetdi.

Gruziya. Poytaxti Tbilisi shahri. Maydoni – 69.7 ming kv. km., aholisi – 3.8 mln. kishi (2020 - yil), tili - gruzin, dinlari - pravoslav, katolik, protestant. Aholining 11 foizi musulmon. Muhim shaharlari: Tbilisi, Kutaisi, Suxumi, Batumi. Milliy bayrami - 26 may - Mustaqillik kuni (1991 - yil).

Gruziya iqtisodiyotining muhim tarmog'laridan biri turizm hisoblanadi. Turizm sektori mamlakat YAIMining 7.3 foizini va xizmatlar exportining 62 foizini (2016y.) beradi. Xorijiy sayyohlar mamlakatga o'rtacha 5.1 kunga kelishadi. Mamlakatdagi Jvari, Promi, Oshki ehromlari, ibodatxonalar, Muxeti sobori, Gelat monastiri, David Gareja g'or – monastirlari hamda Suxumi va Batumidagi balneologik kurortlar juda mashhurdir.

Tbilisining diqqatga sazavor joylari: Narikala qal'asi, Metexi va Sioni ehromlari, Botanika bog'i, Lurdji monastiri, Davlat va san'at muzeylari.

Adjariya: Batumi botanik bog'i, Mtirila milliy parki, Kabuleti va Sarpi plyajlari, Goderdzidagi tog' – chang'i kurorti.

Guriya: O'lkashunoslik muzeyi, Ureki va Shekvetili plyajlari.

Imeretiya: Kutaisidagi Bagrat, Gelet va Motsamati monastirlari, Chiatura kurorti. Kaxetiya: Telavi, Kvareli, Signaxi Sagaredjo shaharlaridagi tarixiy obidalar, Tsinandelivinosi, Tushetiya va Vashlovani milliy parklari.

Mtsxeta-Mtianeti: Mtsexetidagi qator monastirlar (ularning uchtasi YUNESKO ro'yxatida - Svettsxboli, Djavari Aragvi), Kazbek tog'i, Davdarak muzligi, Gvaliti sharsharasi, Gudauri tog' – chang'i kurorti.

Shida-Kartki: Goridagi qasr va Stalin muzeyi, Bateti ko'li, Samtsxve-Javaxeti: Borjomi, qator monastirlar, Xaragal milliy parki.

Samegrelo – yuqori Svanetiya: Tetnuldi tog’ – chang’i kurorti, Zugdidiidagi Dadiani qasri.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 4.8 mln.kishini tashkil etdi. Gruzziyaga eng ko’p Ozarboyjondan kelishadi (2018y), keyin Rossiya, Armaniston, Turkiya, Eron, Ukraina, Izroil, Polsha, Germaniya va Belarus. 2018 yilda xalqaro turizmdan tushum esa 3.5 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 3.7 mln. kishini tashkil etdi, ularning qilgan xarajati 960.0 mln. dollarni tashkil etgan.

Ozorbayjon. Poytaxti Boku shahri. Davlat tuzumi - respublika. Iqlimi - keskin kontinental, qurg’oqchil iqlim. Maydoni – 86.6 ming kv. km., aholisi – 10.4 mln. kishi (2020 - yil), tili - ozorbayjon, dini - islom, pul birligi - manat. Yirik shaharlari: Boku, Sumgait, Mingechaur, Ganja, Lenkoran, Naxichevan. Mamlakatdagi Chirog’ qal’a, Mingechaur ibodatxonasi, Shirvonshohlar saroyi, Tabrizdagi Zangori masjid juda mashhurdir.

Go’zal Baku va Apsheron, Hisor va Shamaxin sport royonlari, Naxichevanning mineral suvlari, neft bilan davolovchi Naftalan. Qisqasi, bu yerning tabiati juda go’zal, son-sanoqsiz tarixiy obidalar makoni, mamlakatda eramizdan oldingi davrlar madaniyati, Skif davri madaniyati, Alban davri madaniyati, xristianlik va islom davri madaniyati yodgorliklariga ega, o’ziga xos etnografik ranba-ranglik, kulinarlarning ustomonligi – bularning hammasi – Ozorbayjon.

Mamlakat juda katta neft zahiralariga ega, undan kelayotgan daromad keyingi yillarda turizmni rivijlantirishga katta sharoitlarni yaratib bermoqda. Bundan tashqari, bu yerda dunyoda mavjud tabiat hududlarning 11 tasidan 9 tasiga ega va ular mamlakatning flora va faunasini juda boy qilgan. Bakudan tashqari 10 dan ko’proq kurort hududlari bor. O’z tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan holda dam olish uchun qulay shaharlari – Ganja (o’z arxitekturasi, jumladan, Karvon-saroylari, savdo markazlari), Naxichevan (shahar 3500 yillik tarixga ega va ko’plab mavzoley, qasrlar, masjidlar bor, Tuz tog’i,) Gabala, Lenkoran (X asrda qurilgan, davolash turizmi yaxshi rivojlangan), Sheki (1763 yil qurilgan Sheki xonlari saroyi, mavzoley, qasrlari, karvon - saroy), Naftalan (davolash turizmi markaizi). Mamlakat yana quyidagilar bilan mashhur: Ayollar masjidi, Azix g’ori, Bakudagi “Ichki-shahar”, Saroy masjidi, Qizlar minorasi, Gobustan qo’riqxonasi, Nizomiy Ganjaviy mavzoleyi va muzeyi, Gilam muzeyi.

Keyingi paytlarda mamlakatda gastronomik, sport, ekologik, ov, tadbirkorlik turizmlari jadal rivojlanmoqda.

Ozorbayjonga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 2.6 mln. kishini tashkil etgan. Ulardan ko'rilgan daromad esa 2.8 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamalkatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 3.9 mln. kishini tashkil etgan. Ularning qilgan xarajati 2.5 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Qisqacha xulosalar. Bu region sobiq totalitar davlat Sovet Ittifoqi tarqalishi natijasida paydo bo'lganligi sababli undagi davlatlarda o'ziga xos umumiylik hali ham saqlanib qolgan. Ammo, bu regiondagi mamlakatlar siyosiy va boshqa qiyinchiliklarni bartaraf eta borib, o'z hududlarida turizmni rivojlantirishga harakat qilib kelishmoqda. Bu mamlakatlarda, ayniqsa Rossiyada turizmni rivojlantirishga juda katta potentsialga ega.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Sharqiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi nimada?
2. Belarus mamlakati turizmining o'ziga xosligi nimada?
3. Boltiq bo'yi mamlakatlari turistik imkoniyatlarini tahlil qilib bering.
4. Estoniya turizmini ustun tomonlari nimada?
5. Latviya mamlakatini nima sababdan sayohat qilishga arziydi deb hisoblaysiz?
6. Turistik Litvaning jozibasini ko'rsatib bering.
7. Nega Rossiya dunyoning eng katta mamlakati bo'la turib turizmi uncha rivojlanmagan?
8. Turistik Moskvaga xarakteristika bering.
9. Ukraina turizmining jozibasi nimada?
10. Gruziya mamlakatining turistik salohiyatini ayting.
11. Xorijliklar Ozorbayjonga avvalom-bor nimalarni ko'rishga borishadi?

Glossariy

Boltiq bo'yi mamlakatlari – Boltiq dengizi bo'yida on'ga yqin davlat joylashgan bo'lishidan qat'iy nazar, odatda Latviya, Estoniya va Litvani shu nom bilan umumlashtirib atashadi.

“Uyga qayt” - Armanistonning xorijaga ketib qolgan ko’plab vatandoshlarni o’z mamlakatiga chorlashga mo’ljallangan maxsus dastur.

Kreml - Rossiya territoriyasidagi ayrim shaharlarda hukumat organlari joylashgan maxsus joy, masalan, Moskva, Qozon, Smolensk, Zagorsk shaharlarida.

Pechora lavrasi - Ukraina poytaxti Kiyev shahri markazida joylashgan xrestian dini obidalarini o’zida mujassamlashtirgan joy.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

Sofiya bosh cherkovi, Spas - Efrosinevsk va Blagoveshchensk ibodatxonalari, Kamenets minorasi, Kreva, Lida, Turov, Novogudok qal’alari – bular qaysi mamlakatning eng mashhur turistik maskanlari sanaladi) a?

- a) Belarus;
- b) Rossiya;
- c) Bolgariya;
- d) Ukraina.

Belorus mamlakatida agroturizm rivojiga katta imkohiyatlar bera olmaydiganini ajrating.

- a) Bepayon dashtlar va cheki ko’rinmaydigan uzumzorlar;
- b) go’zal yam-yashil rayonlar va o’tloqlar;
- c) quyuq o’rmonlar va toza ko’llar;
- d) daryolar va botqoqlar.

Belorus turizmiga taaluqli jumlani toping.

- a) Mamlakatning boy flora va faunasi ov turizmini rivojlantirishga imkon bermoqda (50 xil hayvonga ov qilish ruxsat berilgan), 196ta ov qilish uylari mavjud.
- b) Mamlakatning boy flora va faunasi ov turizmini rivojlantirishga qisman imkon bermoqda (10 xil hayvonga ov qilish ruxsat berilgan), 12ta ov qilish uylari mavjud.
- c) Mamlakatning flora va faunasi ov turizmini rivojlantirishga imkon bermaydi.
- d) Mamlakatning boy flora va faunasi ov turizmini rivojlantirishga imkon bermoqda, ammo hukumat ov qilishni qat’iy taqiqlagan.

Quyidagilardan to’g’ri jumlani toping.

- a) Latviyada SSSR davridan beri turizm iqtisodiyotning muhim tarmog’i bo’lib kelmoqda.

b) Latviyada SSSR davrida turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'i emas edi.

c) Latviya o'z mustaqilligini qo'lga keritgach turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylandi.

d) Latviya 2004 yil Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgach turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylandi.

Neringe qoriqxonasini, Palangadagi yantar muzeyini, Shaytonlar muzeyini, Mosidesedagi toshlar muzeyini qaysi shaharda ko'rish mumkin?

- a) Litvaning go'zal Vilnyusnda;
- b) Latviya poytaxti Rigada;
- c) Estoniyaning poytaxit Tallinda;
- d) Finlandiya poytaxti Xelsinki.

Druskininkay nomli Sahrqiy Yevropadagi eng katta akvapark qaysi mamlakatda joylashgan?

- a) Rossiyada;
- b) Ukrainada;
- c) Latviyada;
- d) Litvada.

Estoniyaning turistik resurslari ichida nimasi bilan mashhur deb bo'lmaydi?

- a) Go'zal tog'laridagi sport inshootlari bilan;

b) dengiz qirg'og'iga joylashgan sanatoriyalari bilan;

c) plyajlari, spa-markazlari bilan;

d) shaharlaridagi tarixiy yodgorliklari va o'rta asr qasrlari bilan mashhurdir.

Ermitaj muzeyi qaysi shaharda joylashgan?

- a) Sankt-Petrburgda;
- b) Moskvada;
- c) Novosibirskda;
- d) Minskda.

Sankt-Peterburgda nechta tarixiy obida mavjud?

- a) 3900 dan ortiq;
- b) 5000 ga yaqin;
- c) 3845 ta;
- d) 4500 lar atrofida.

Karpat va Odessa kurortlari qaysi davlatda joylashgan?

- a) Ukrainada;
- b) Gruziyada;
- c) Armanistonda;
- d) Rossiyada.

Yalta porti qaysi dengiz qirg'og'ida joylashgan?

- a) Qora dengiz;
- b) O'rta yer dengizi;
- c) Qizil dengiz;
- d) Kaspiy dengizi.

Voznesenskiy cherkovi, Vasiliy Blajenniy ibodatxonasi, Orujeynaya palatasi, tosh

ibodatxonalar, musulmon masjidlari, metropoliteni, daryo ko'priklari, muzeylari bilan qaysi shahar turistlarni o'ziga chorlaydi?

- a) Moskva;
- b) Kiyev;
- c) Minsk;
- d) Sankt - Peterburg.

Mamlakatda YUNESKO ro'yxatida bo'lgan 29 ob'yekt bor, 26 kurort, 143.7 ming davlat ro'yxatidagi diqqatga sazovor ob'yektlari bor. Bu qaysi mamlakat haqida gap bormoqda?

- a) Rossiya;
- b) Ukraina;
- c) Polsha;
- d) Xitoy.

Mamlakatda 500dan ortiq "tarixiy shahar" maqomini olgan shaharlar bor. Bu qaysi mamlakat haqida gap bormoqda?

- a) Rossiya;
- b) Tailand;
- c) Yaponiya;
- d) Xitoy.

Quyidagi shaharlardan qaysilari Rossiyaning turistlar oqimi eng katta bo'lgan joylaridan biri hisoblanadi.

- a) Sochi;
- b) Tomsk va Chelyabinsk;

- c) Vladikavkaz va Yekatrinqburg;
- d) Ufa va Elista.

Kamenets – Podolsk, Mukachevo, Chernigov, Chernovtzi kabi shaharlar qaysi mamlakatning turistik shaharlari sanaladi?

- a) Ukrainaning;
- b) Belarusning;
- c) Rossiyaning;
- d) Polshaning.

O'zining go'zal tog' landshaftlari va mineral suvlari bilan tog' – chang'i, yayov va davolanish turizmga katta imkoniyat beradigan Karpat tog'lari qaysi mamlakatga aloqasi yo'q?

- a) Belarus;
- b) Ukraina;
- c) Polsha;
- d) Slavakiya.

Bloomberg ma'lumotlari bo'yicha 2017 yilda quyidagilardan qaysi mamlakat Yevropaning eng dinamik turistik top - o'ntalikka kirgan?

- a) Armaniston;
- b) Ozorbaylon;
- c) Gruziya;
- d) Rossiya.

AQShning SNN telekanali 2019 yilda quyidagilardan qay birini

Yevropaning eng go'zal 20ta shaharlar ro'yxatiga kiritgan?

- a) Yerevan;
- b) Tbilisi;
- c) Boku;
- d) Moskva.

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'laridan biri turizm hisoblanadi. Turizm

sektori mamlakat YAIMining 7.3 foizini va xizmatlar exportining 62 foizini (2016y.) beradi. Bu quyidagi davlatlardan qaysisiga taaluqli deb hisoblaysiz?

- a) Gruziya;
- b) Armaniston;
- c) Ozorbayjon;
- d) Eron.

Y MAVZU. G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad turizm mamlakatshunosligining G'arbiy Yevropada shakllanishi tarixini bilib olish hamda bu mamlakatlarda turizm sohasida erishilgan yutuqlarning sabablarini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

- 5.1. G'arbiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi**
- 5.2. Germaniya davlatining turizm holati**
- 5.3. Avstriya mamlakatining turizm iqtisodiyoti**
- 5.4. Frantsiya mamlakatining turizm rivojlanish holatini tahlili**
- 5.5. Buyuk Britaniya turizmining o'ziga xosligi**
- 5.6. Shveysariya mamlakati turizmining rivojlanish omillari**
- 5.7. Benilyuks mamlakatlarida turizmning o'ziga xosligi**

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, turist, xalqaro turizm, ichki turizm, G'arbiy Yevropa, Benilyuks, turizm mamlakatshunosligi, rivyera, alpinizm, milliy park.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1. Алиева М.Т. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.

2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
4. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. - Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
5. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
8. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
9. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры.вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
10. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
11. Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.
12. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
13. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.UNWTO.org/tourism-highlights-2019).
14. https://www.CNN.com/travel/2018/09/07/worlds-most-popular-destination-revealed (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
15. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
16. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
17. www.wikipediya.ru
18. <https://knoema.ru/atlas/>
19. <https://ru.unesco.org/>
20. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
21. [https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism in London](https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_London).
22. <https://travelask.ru/netherlands>.
23. www.Leitfaden zum DRV-Existenzgruenderpaket.

5.1. G'arbiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

G'arbiy Yevropa Atlantika okeani va undagi golfistrim oqimi tufayli juda qulay ob-havoga ega region sanaladi. Bu regionda

o'rmonlar, tog'lar ham regionni yanada go'zal bo'lishiga xizmat qilmoqda.

G'arbiy Yevropaga avvallam-bor nafaqat turizm, balki iqtisodiyotning barcha sohalarida dunyoning eng ilg'or davlatlaridan bo'lgan Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya kabilar kiradi, bundan tashqari, nisbatan kichik bo'lsa ham turizm juda yaxshi rivojlangan Benilyuks mamlakatlari, Avstriya, Shveytsariya, Irlandiya mamlakatlari kiradi. Umuman olganda hozirgi zamon turizmi shu regionda paydo bo'ldi va rivojlandi, hozir ham dunyoning turizm bo'yicha eng jozibador regionni bo'lib qolmoqda.

Turizm G'arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotida eng asosiy tarmoqlardan biri hisoblanib, ayrim davlatlarda milliy daromadning 30-40 foizini beradi. Turizm rentabelligi jihatidan dunyoda ikkinchi o'rinda turadi, uning rentabellik darajasi 500 dan 1000 foizgacha tashkil etishi iqtisodchilar tomonidan asoslab berilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadida, unga alohida e'tibor berib, turistik resurslardan maqsadli foydalanish asosiy yo'nalish hisoblangan. Buni o'z vaqtida tushungan tadbirkorlar oz pul ishlatib ko'proq foyda olishni aynan shu turizm sohasida ko'rganlar. Shuning uchun hozirgi kunda G'arbiy Yevropa mamlakatlari daromadlarida turizm salmoqli hissani tashkil qiladi.

G'arbiy Yevropa regionni keyingi o'n yilliklarda eng mashhur va turistlar eng ko'p keladigan hududlardan biri bo'lib qolmoqda. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'z hududlarini, uning yodgorliklarini, madaniy - tarixiy obidalarini, an'analarini popularizatsiya qilish uchun, jozibali infrastrukturani yaratish uchun katta ishlar olib borishadi. Turizm sohasini rivojlantirish borasida katta dasturlarni hayotga tadbiq etishadi, bu albatta o'z mevasini bermoqda.

Pandemiyadan oldingi yilda turistlar oqimining o'sishi G'arbiy Yevropada (+6,1%) yaxshigina bo'ldi, jumladan, Niderlandiyada (+13,2%), Belgiyada (+11,7%), Shveytsariyada (+7,0%), Monakoda (+5,7%), Germaniyada (+5,2%), Frantsiyada (+5,1%) o'sdi. Ammo, pandemiya turizmga ancha salbiy ta'sir qildi. Lekin 2021 yildan ichki turizmni tezda tiklab olishga harakat qilinmoqda.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari keyingi ming yil ichida jahon tarixining markazlaridan biri sifatida ko'plab tarixiy obidalarni yaratgan, asrab qolib bilgan, uning shaharlarida ko'rishga arziydigan

narsalarning son-sanog'i yo'q, bundan tashqari tabiat g'zalliklarini ham asrab –avaylab kelmoqda.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari kurortlari uzoq an'analari bilan ajralib turadi. Bu yerda dunyo ahamiyatiga molik kurortlar joylashgan: Baden-Baden va Visbaden - Germaniyada, Frantsiyada Vishi, Belgiyada Spa va boshqalar. Ular ayniqsa XIX asr ikkinchi yarmida – nafaqat dam olish, balki shifobaxsh joy sifatida rivojlana boshlagandan keyin mashhur bo'lib ketdi. Ranglar va me'yoriy qiyofa uyg'unligi, ohangrabo musiqa taralib turgan pavilonlar, kontsertlar, spektakllar va ballar, yangi modadagi kiyimlar va birinchi avtomobil namoyishi, o'yin biznesi, quvnoq sayr va boshqa ko'plab betakror tadbirlar turistlarga maroqli dam olish va salomatliklarini tiklashga yordam beradi. G'arbiy Yevropada kurort ishlarini tashkil etish muhim tamoyillarga XIX asrda asos solingandi va hozirgacha deyarli o'zgarmay kelyapti.

G'arbiy Yevropa kurortlarining ko'pchilik qismi Germaniya, Avstriya va Shveytsariyada to'plangan. Ular ikki tipda: balneologik va iqlimiy tipda joylashgan. Germaniyada yuqorida eslatilgan Baden-Baden va Visbadendan tashqari, yaxshi ma'lum balneologik kurortlar Badenveylar, Vildbad va Bayersbronn hisoblanadi. Ular Shvarstvald, Bad-Xomburg va Bad – Nauxaym tog' yonbag'irilarida joylashgan va Frankfurt – na Mayne, Axen va mamlakat g'arbidagi boshqa shaharlardan uzoq emas. Iqlimiy kurortlar orasida o'rmon va tog' (Kvedlin-burg, Oberxof, Fyussen), shuningdek dengiz bo'yi (Vangeroge, Dame, Travemyunde, Xayligenxafen, Flensburg) kurortlari ustunlik qiladi.

5.2. Germaniya davlatining turizm holati

Germaniya Yevropaning eng yirik davlati sanaladi. Poytaxti Berlin shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 357 ming kv. km., aholisi – 81.5 mln. kishi (2020 -yil), tili - nemis, dini - protestant va katolik, musulmonlar 6 foizni tashkil etadi, pul birligi - Germaniya markasi edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Berlin, Gamburg, Kyoln, Frankfurt - Mayn, Dortmund, Gannover, Nyurnberg, Leypstig, Drezden, Dyusseldorf, Shtutgart, Myunxen, Baden - Baden. Milliy bayrami - 3 oktyabr - Germaniya birlashgan kun (1990 - yil).

Germaniya respublikasi yuqori darajada rivojlangan industrial davlat. Germaniya aholisini joylashuvi, mehnatda bandlik strukturasi va sinfiy tarkibiy jihatdan nafaqat Yevropada, hatto dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Germaniya Yevropaning markazida joylashgan, uni Sharq tomondan Polsha va Chexiya, Janubdan Shveysariya va Avstriya, Janubi-G'arbdan Frantsiya, G'arbdan Belgiya va Gollandiya, Shimolda esa Daniya davlati, Shimoliy Sharqda Boltiq dengizi va Shimoliy G'arbdan Shimoliy dengiz o'rab turadi.

Tabiiy qo'riqxonalar, go'zal va maftunkor landshaftlar, bog'lar va maydonlar, sayyohlik marshrutlarining ko'pligi, tog'lar, o'rmonlar, daryolar, ko'llar, me'moriy yodgorliklar, ko'plab tarixiy joylar - bularning barchasi manfaatdor sayyohning foydasiga xizmat qiladi. Germaniyaga sayyohlik oqimining ko'payishiga yordam beradigan qo'shimcha afzallik bergan omillar: soddalashtirilgan viza tartibi, diqqatga sazovor joylarning ko'pligi, mahalliy aholining yuqori darajadagi mehmondo'stligi haqida bilish insonlarni o'ziga jalb qiladi. Germaniyada ob-havo yil davomida o'zgarib turadi, qish oylarida mamlakat iliq, masalan, Berlinda yilning shu davrida o'rtacha harorat +4 darajani tashkil qiladi va deyarli qor yo'q. Yozda bu yerda sayyohlarni charchatadigan issiqlik yo'q, shuning uchun bu yerda sayohat qilishga hech narsa xalaqit bera olmaydi.

Germaniya Yevropaning eng ko'p tashrif buyuradigan mamlakatlaridan biridir. Germaniyadagi turizm sohasi YaIMning 8 foizini tashkil qiladi. Darhaqiqat, turizmda bir necha million kishi ishlaydi. Germaniyaga har yili dunyoning turli burchaklaridan 20 milliondan ortiq sayyohlar tashrif buyurishadi.

Germaniyada turizm iqtisodiyot uchun katta daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib hisoblanadi (o'rtacha yiliga 17.5 mlrd. dollar). Turistlar xush ko'radigan asosiy maskanlari Boltiq dengizi qirg'oqlari, Saksoniya Shveysariyasi, Boden ko'li atroflari, Alp tog' yonbag'irlari va boshqalar.

Kyoln sobori - Germaniyada eng ko'p tashrif buyuriladigan diqqatga sazovor joy sanaladi. Germaniya sayyohlik assotsiatsiyasi (Deutscher Tourismusverband) ma'lumoti bo'yicha soborga har yili o'rtacha 6 millionga yaqin ziyoratchi kelsa, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Berlindagi Reyxstag va Myunxendagi Xofbrayxaus egallaydi.

Germaniya har tomonlama rivojlanishi bilan butun dunyoga mashhur, shuning uchun har yili bu yerda 10 mingga yaqin turli xil tadbirlar va bayramlar, festivallar, musobaqalar bo'lib o'tadi. Bonn, Berlin, Myunxen va boshqa joylarda o'tkaziladigan yirik tematik festivallar, pivo tadbirlari o'tkaziladi. Germaniyada ikki yuzga yaqin ko'ngilochar bog'lari, oilaviy dam olish joylari, ellikdan ziyod bolalar o'yin parklari mavjud. Germaniyaning har bir shahrida, shaharchasida, qishloqlarida deyarli har yili yozgi mavsumda sharob, pivo, hosilni yig'ishga bag'ishlangan va kamondan o'q otish, otashinlar, ritsarlar ishtirokida tadbir o'tkaziladigan maskanlari mavjud. Shunday qilib, bu mamlakatga tashrif buyuradigan dam oluvchi zerikmasligi aniq.

Millionlab sayyohlarga turistik xizmat ko'rsatish, bir tomondan juda katta tadbirkorlik imkoniyatlarini ochib bersa, ikkinchi tomondan, keyingi yillarda vujudga kelgan raqobat muhitini kuchaytirib yubormoqda. Ayni paytda tobora ko'payib borayotgan ishlab chiqaruvchilar (bevosita xizmat ko'rsatuvchilar, turoperatorlar) va vositachilar (turagentlar) sekin rivojlanayotgan turizm bozorini o'zaro taqsimlashi kerak. Yangi ochilgan turagentliklarning qarayib yarimi 5 yildan so'ng o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. Chunki keyingi yillarda bankrotga uchragan kompaniyalar soni keskin ko'paydi. Har yili 200 ga yaqin firmalar yopilishi kuzatilmoqda. Shu tufayli, tarmoqqa xos bo'lgan tajribalar va shaxsiy tadbirkorlik qobiliyati bilan birga, tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar xo'jaligi bo'yicha «nou-xau»lardan xabardor bo'lishni taqozo etmoqda.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Shop turizm uchun asosan Polshadan, shuningdek, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shvestariya va Yaponiyadan tashrif buyurishadi. Germaniya Alp tog'i, Frantsiya va O'rta yer dengiz sohillari yo'nalishida joylashganligi sabab, tranzit turizmning rivojlangan. Savdo ko'rgazmalari, konferentsiyalarning yaxshi yo'lga qo'yilgan. Kurortlari, shifobaxsh tabiati, go'zal manzilgohlari, qadimiy tarixi va madaniyati obidalari juda ko'p.

Germaniya fuqarolarining katta bir qismi uchun sayohat odatdagi yashash standartiga kirgan. Yevropaning eng muhim turizm markazlaridan biri hisoblangan Germaniya milliy turizm industriyasini to'liq shakllantirgan mamlakat hisoblanadi.

Germaniyaning mahalliy aholisi o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qiladi. Shuning uchun bu yerda sport hamda sevimli mashg'ulotlarni

bajarish ommalashgan. Shulardan biri Velosiped va piyoda sayohat qilishdir. Germaniyada maxsus turistik ma'lumot belgilariga ega 75 ming kilometr ga yaqin velosiped yo'llari mavjud. Germaniyada velosiped yo'llari qatnov qismidan ixtisoslashgan yo'lak bilan ajratilib qo'yilgan va shuning uchun ular juda xavfsiz hisoblanadi. Germaniyaning umumiy velosiped klubi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda velosipedchilar uchun maxsus mo'ljallangan 5 mingga yaqin mehmonxona, yoshlar turistik markazlari, pansionatlar, lagerlar mavjud. Madaniyat, tabiiy xilma-xillik, atrof muhitga g'amxo'rlik va sog'liqni saqlash Germaniyani yanada yaxshiroq his etishga yordam beradi.

Nemislar uzoq vaqtdan beri qishloqning xilma-xilligi, diqqatga sazovor joylar, sport va dam olish imkoniyatlari bilan qiziqishgan. Mana necha yildirki, Alp tog'lari, dengiz qirg'oqlari, Shimoliy Germaniya ko'llari, qo'riqxonalar va daryo vodiylari yo'nalishlar ro'yxatida yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Xalqaro kongress markazlari reytingida Germaniya AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Germaniyadagi ko'rgazmalarga 253000 ga yaqin xalqaro ekspertlar tashrif buyurishadi va dunyoning o'nta yirik ko'rgazma kompaniyalaridan beshtasi shu yerda joylashgan. Noyshvanshteyn qal'asi va Ko'ln sobori, Potsdamdagi Sanssouisi saroyi va Klassik Veymar singari ko'plab YuNESKOning Jahon merosi ob'ektlari ham sayyohlar orasida mashhur. U Emser Therme termal majmuasidagi daryo saunasi, shuningdek Bad Vorishofen va Bad Oeynhausien kabi kurortlardagi ko'p sonli qulayliklar kabi o'zgacha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Germaniyada 200 dan ortiq kurortlar mavjud bo'lib, ularni Germaniya kurortlari assotsiatsiyasi tan olgan. Tibbiy davolanish va qo'llab-quvvatlash sifati Germaniyaga ko'plab mehmonlarni jalb qiladi.

Ko'pincha sayohatchilar nafaqat o'zlarining farovonliklari haqida, balki atrof-muhitga ham e'tibor berishadi. Ekologik toza sayohat ko'plab Yevropalik sayyohlar orasida juda mashhurdir.

Chet mamlakatlarga sayohat qiluvchilar soni oshganligi sababli ichki turizmning o'sishi keyingi paytlarda susaydi. Germaniyaliklar otel yoki boshqa mehmonxona tipidagi binolarda to'xtashni xush ko'radilar. Shu paytgacha o'z -o'zini boshqaruv sektorida joylashish ham o'z mavqeiga ega edi. Ularning ko'p qismi Bovariyada joylashgan. 1990 yillarda Sharqiy Germaniyada xalqaro turizm

sohasining dunyo standartlariga yaxshi javob bera olmasligi aniqlandi. Shu sababli u yerlarda turizm yaxshi rivojlana olmadi. G'arbiy Germaniya GDR bilan birlashuviga qadar esa ko'p mamlakatlardan turistlar bu yerlarga turli maqsadlar bilan kelar edi. Dam oluvchilar qismi katta emas, bu esa (sayohatning qimmatga tushishi) milliy valyuta – marka kursining balandligi va turmush tarzining yuqoriligidan dalolat edi. Mamlakat hududida NATO qo'shinlari joylashganligi sababli qarindosh va do'stlarning qatnovi ko'pchilikni tashkil qilardi. Ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shveysariya va Yaponiya kabi mamlakatlardan ish yuzasi bo'yicha qatnovchilar ko'p edi. Bunga Gannover, Gamburg, Dyusseldorf, Shtutgart, Myunxen va boshqa shaharlarda o'tkaziladigan ko'plab xalqaro savdo ko'rgazmalari va konferentsiyalari ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Germaniyaga Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan, ayniqsa qo'shni Polshadan bir kunlik mehmonlar ko'plab tashrif buyuradi. Germaniyaliklar amerikaliklardan so'ng ta'til davrida ko'p pul sarflash bo'yicha 2-o'rinda turadi. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarining turistik sohalari Germaniya bozorlari bilan chambarchas bog'liq. Germaniyaliklarning ta'tilini o'tkazadigan asosiy joyi O'rta yer dengizi bo'lib qolmoqda. Italiyaning ekologik holatining yomonlashganligi tufayli turizm sohasida o'z mavqeini ancha yo'qotdi. Shu sababli 80-yillarning oxirida germaniyaliklar Ispaniyada dam olishga ko'proq e'tibor bera boshladilar (1985-1989 yillarda Italiyaga germaniyaliklarning kelishi 20%ga qisqardi). Germaniyaliklarning boshqa Alp mamlakatlari - Shveysariya va Avstriyaga sayohati 18.4%ni, Skandinaviya mamlakatlariga sayohati esa 5.1%ni tashkil qiladi. Germaniyaning birlashishi sobiq Yugoslaviyaning parchalanishi, "Cho'ldagi bo'ron urushi" va boshqa siyosiy voqealar, shuningdek, iqtisodiy inqiroz mamlakatdan chetga chiqish turizmi modeliga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ispaniya, Portugaliya, Turkiya va Kipr davlatlariga chiqish, shuningdek, uzoq sayohatlar miqdori ham oshdi. Bunday sayohatlarning aksariyati (milliy valyuta kursining doimiy ravishda o'zgarib turishiga qaramasdan) AQShga to'g'ri kelardi. Germaniya bozori uchun 2-o'rinda Uzoq Sharq turadi. Germaniyaliklarning ayniqsa, Yaponiya, Singapur, Gonkong kabi mamlakatlarga qiziqishi katta. Anchagina germaniyalik turistlar Tailandda dam oladilar. Shri-lanka, Keniya ham germaniyaliklar

uchun turistik markaz hisoblanadi. 1990 yillarga qadar Germaniyaning Sharqiy va G'arbiy qismlari alohida turistik zona sifatida faoliyat ko'rsatar edi. Sharqiy Germaniya ham boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridek yaxshi tashkil qilingan ichki turistik bozorga ega edi. Ammo, uning xalqaro turizmi chegaralangan edi. Bu chegaralashdan faqat sotsialistik lager mamlakatlarigina mustasno edi. Agar 1990 yilda Sharqiy germaniyaliklarning faqat 25%igina chet davlatlarga chiqqan bo'lsa, 1991 yilda ularning soni 45%ga yetdi. G'arbiy Germaniya urush davridan keyin G'arbiy Yevropa turistik oqimlariga kiritilgan edi. Ammo 90-yillarning boshida G'arbiy Germaniyaning chet davlatlarga chiqish turizmi iqtisodning yomonlashuvi tufayli qisqardi. Ammo Germaniya birlashgandan keyin bu ko'rsatkich mamlakatning Sharqiy qismi bilan kompensatsiya qilindi. G'arb bilan Sharqning birlashuvi Germaniyada Yevropa mamlakatlari uchun turizmning yangi modelini tashkil qilishga imkoniyat yaratdi. Ichki turizmning yangi modeli kelajakda xalqaro turizm modeliga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Germaniyaga 2018 yilda xorijiy turistlar oqimi 38.9 mln kishini tashkil etgan, chet elga ketganlar soni esa 108.5 mln. tashkil etgan, xalqaro turizmga qilingan xarajatlari 104.2 mlrd. dollarni, mamlakatni xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi esa 60.3 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu mamlakatni xalqaro turizmga gigant davlatlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Germaniyaga keladiganlarning 75 foizi Yevropa mamlakatlaridan kelgan, eng ko'p Niderlandiya, Sheytsariya, Buyuk Britaniya va Italiyadan kelishadi. AQShning hissasi 7.5 foizni tashkil etgan. Osiyo va Afrikadan keladiganlar ham borgan sari o'sib bormoqda.

Jadval - 5.1. Germaniyada ta'til sayohatlarining tashkil etilishi

Yillar	Turoperator sayohatlari salmog'i	Individual sayohatlar salmog'i
1970	17%	83%
1980	26%	74%
1990	38%	62%
2000	50%	50%

MANBA: Leitfaden zum DRV-Existenzgruenderpaket 2000.

Jadvaldagi ma'lumotlar nafaqat Germaniya, balki jahon tendentsiyalari ko'rsatib beradi, yani brogan sari individual sayohatlar

jamoaviylarni siqib bormoqda.

Germaniya dunyo bo'ylab turizm yo'nalishini barqaror rivojlanish tamoyiliga tobora ko'proq yetakchilik qilmoqda. Germaniyaning barqaror turizm sohasidagi qadamlari avvalo urf-odatlarini, madaniy o'ziga xosliklarni saqlash va targ'ib qilish hamda madaniy meros va diqqatga sazovor joylardan mas'uliyat bilan foydalanishga qaratilgan. Umuman olganda, barqaror turizmni amalga oshirishda shoshilinch harakat qilish zarur deb hisoblanmoqda. Turizmda majburiy ekologik va ijtimoiy standartlarni joriy etish, ushbu standartlarga ixtiyoriy ravishda rioya qilish muhimroq hisoblanadi. Iqlimni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish, xabardorlikni oshirish va monitoring qilish ham barqaror turizmni amalga oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. 2000-2009 yillarda turizm sohasi barqaror sayohatga yo'naltirilgan jami 38 ta yangi kompaniyalarga mavjud bo'lgan bo'lsa, 2010 yildan 2019 yilgacha bu ko'rsatkich 175 tani tashkil etdi.

Germaniyada aholining 70 foizi ta'tillarini o'rganish uchun internetga kirishadi. Internetda o'zlarining ta'tillarini bron qilayotganlar soni ham ko'paymoqda. Rezervasyonlar ulushiga asoslanib, Germaniyaning yetakchi onlayn sayohat agentliklari - booking.com va expedia.de deb topildi. Iste'molchilar o'rtasida turli xil onlayn sayohat veb-saytlaridan, tadqiqot uchun ham, bron qilish uchun ham tobora ko'payib borayotgani an'anaviy sayyohlik agentliklari uchun yo'qotishlarga olib keldi. Zamonaviy sayohatchilar ko'pincha agentlikni butunlay chetlab o'tishlari va butun sayohatni mustaqil ravishda rejalashtirishlari mumkin, chunki deyarli har qanday sayohat faoliyati, chiptalar va turar joylarni internet orqali bron qilish mumkin.

Germaniyada turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyati uchun erkinlik mavjud, ya'ni turagentlik yoki turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalashtirish jarayoni yoki ruxsatnomalarni chegaralash kabi hollar kuzatilmaydi. Buning uchun avvalo tadbirkorlik faoliyati qo'mitasida ro'yxatdan o'tish lozim. Shu bilan birga kasb-hunar jamiyati, tadbirkorlikni nazorat qilish qo'mitasi, sanoat va savdo nazorati organlarining ro'yxatlaridan o'tiladi. Shuningdek, Moliya vazirligining joylardagi tegishli idoralari ro'yxatidan o'tib, soliq to'lov raqami olish kerak. Korxonaning soliqqa tortilish tartibi quyidagicha:

- daromadga bog'liq bo'lgan soliq (daromad korporatsiya,

tadbirkorlik faoliyati solig'i);

- mulkka bog'liq bo'lgan soliq (mulk, tadbirkorlik faoliyati er solig'i);

- aylanma oborot solig'i;

- korporatsiya solig'i (kapital jamiyatlarida).

Germaniya turizm industriyasining eng muhim tashkilotlaridan biri Germaniya Turizm Markazi - Deutsche Zentrale fuer Tourismus (keyinchalik GTM) - Germaniya federal hukumati tomonidan turizmni boshqarish va nazorat qilish uchun mas'ul milliy tashkilot hisoblanadi. Uning bosh idorasi Frankfurt Maynda joylashgan. GTM milliy turizm tashkiloti sifatida xorijda Germaniyaga sayohat transportini jalb qilish, bunda keng qamrovli milliy va xalqaro korxonalar bilan hamkorlik qilish hamda o'z malakasi va soha bo'yicha olgan tajribalarini Federal Hukumat va boshqa turizm masalalari bo'yicha mas'ul idoralar ixtiyoriga taqdim etish va taklif kiritish bilan shug'ullanadi. Mazkur faoliyati bilan GTM xalqlarning o'zaro bir-birini anglashlariga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. GTMning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu tashkilot 1948 yilda tashkil topgan. Undan avval ish yuritgan tashkilot esa 1920 yili vujudga kelib, "Reichszentrale fuer Deutsche Verkehrsvermittlung", ya'ni «Germaniya Transport Reklamasi Davlat Markazi» deb atalgan. 1939 yilda bu tashkilotning dunyo bo'ylab 40-ta axborot agentligi bo'lgan.

GTM malakali, professional ravishda Germaniya turizmi uchun marketing tadbirlarini o'tkazuvchi organ hisoblanadi. Uning faoliyatini mablag' bilan ta'minlashning 80 foizi FITV tomonidan amalga oshiriladi. GTM 50 yildan ortiq vaqtdan beri xorijda barcha marketing tadbirlarini rejalashtirish, kordinatsiya qilish va amalga oshirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Ichki hududlararo marketing faoliyatini 1999 yil 1 yanvardan beri yuritib kelayotgan bu tashkilotning strategik poydevorini Germaniyaning turli hududlariga ta'til sayohatlarini talabga yo'naltirilgan ravishda amalga oshirish faoliyatlarini tashkil etmoqda. GTM milliy turistik tashkilotlarni va xizmatlarni xalqaro turizm bozorida sotishning muhim funktsiyalarini o'z zimmasiga olgan. Bular tarkibiga barcha marketing tadbirlari hamda sotishni rivojlantiruvchi faoliyatlar kiradi. GTM yaqin kelajakka mo'ljallangan strategiyalarini amalga oshirishda Germaniya turizmi bilan hamda iqtisodiyot sohasi va birlashmalardagi tadbirkorlar bilan mustahkam aloqalarni vujudga keltirgan. Bu esa

maqsadlarga erishishida muhim tayanch nuqtasi hisoblanadi.

GTM o'z faoliyati davomida quyidagi maqsad va strategiyalarni ko'zlaydi:

- sayohatdan keladigan umumiy tushumni oshirish;
- Germaniyani iqtisodiy hudud sifatida kuchaytirish;
- Germaniyani har tomonlama ko'rkam sayohat mamlakati sifatida namoyish etish.

Butun dunyo bo'ylab GTMning 28 ta xorijiy vakolatxonalari va savdo shaxobchalari mavjud. Ular turistik mahsulotlarni o'tkazishda asos bo'lib hisoblanadilar va Germaniyani sayohat mamlakati sifatida imkon qadar butun dunyoga tanitish uchun harakat qiladilar. Mazkur vakolatxonalarining 12 tasi GTMning o'z vakolatxonalari, 16 tasi esa "Deutsche Lufthansa AG" hamda "Deutscher Industrie-und Handelstag" kabi hamkorlar tarkibidagi sotish agentliklaridan iborat. Ularning rejasi buyudjet imkoniyatlariga qarab, rivojlanib borayotgan bozorlarga sotish strukturasi tobora kengaytirish.

Hozirgi kunda GTMning 41 ta a'zosi bo'lib, shulardan eng muhimlari quyidagi korxonalar va tashkilotlardir: Accor Hotellerie Deutschland GmbH, Arbeitsgemeinschaft Deutscher Verkehrsflughafen, ASR-o'rta toifadagi turistik korxonalar uyushmasi, Autobahn Tank & Rast GmbH, Germaniya Turizm holati uyushmasi, Germaniya mehmonxonalar uyushmasi, Germaniya turizm uyushmasi, Germaniya Turoperatorlari va Turagentlari uyushmasi, Yevropa Turizm sug'urta tashkiloti, RDA - Xalqaro Avtobus Turizmi uyushmasi, Deutsche Bahn AG, Deutsche Lufthansa AG, Deutscher Industrie-und Handelstag, Magic Cites Germany. Steigenberger Hotels AG, TUI.

Germaniya bir necha yillar mobaynida tavakkalchilik va puxta ishlab chiqilgan rejalar asosida kuchli turizm industriyasini barpo etishga erishdi. Yevropa mintaqasidagi umumiy turizm balansini saqlab turuvchi yirik turistik firmalar ham, shuningdek, eng ko'p sayohat qiluvchi insonlar ham bu mamlakatda faol ish yuritishadi.

Chiqish turizmining yirik bozorlaridan biri Germaniyada shakllanadi. So'nggi yillarda nemislar 105 mln.ga yaqin xorijiy safarni amalga oshirishmoqda. 90 % dan ortiq safarlar Yevropa hududi doirasida amalga oshiriladi. BTT ma'lumotlarga ko'ra, eng yirik o'nta turistik oqimlarning beshtasi Germaniyada tashkil qilinadi.

Nemislar o'z ta'tillarini G'arbiy va Janubiy Yevropada: Ispaniya, Italiya, Avstriya, Frantsiya, Gretsiya, Niderlandiya, Shveytsariyada o'tkazishni ma'qul ko'rishadi. Keyingi vaqtlarda turistlar uchun Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Polsha, Chexiya, Vengriya ommaviy turizmda mashhur bo'lib bormoqda. Turistik yo'nalish sifatida bu mamlakatlar bosh ustunliklaridan biri ularning nisbatan arzonligidir. Misol uchun, chegara rayonlarida yashovchi ko'pchilik nemislar tushlik paytida ovqatlanish uchun Chexiyaga borishadi.

5.3. Avstriya mamlakatining turizm iqtisodiyoti

Avstriya Markaziy Yevropadagi kichik mamlakat. Poytaxti Vena shahri. Iqlimi - mo'tadil iqlim. Ushbu mamlakat Shimoliy Yevropani Janub bilan, G'arbiy Yevropani sharq bilan bog'lovchi trassalarning kesishuv yo'lida joylashgan. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni – 83.8 ming kv. km., aholisi 8.9 mln. (2020y.) kishi, tili - nemis, dini - katolik, mamlakat aholisining 6 foizi musulmon, pul birligi 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Vena, Grats, Zaltsburg. Milliy bayrami - 26 oktyabr - betaraflik kuni (1955 - yil). Avstriya Yevropa va umuman jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Turizm mamlakat iqtisodiyotida eng serdaromad sohaga aylangan. Faqat shu soha faoliyati tufayli davlat xazinasiga deyarli 15 mlrd. AQSh dollari miqdorida foyda keltiradi, bu yalpi milliy mahsulotning 11% ga to'g'ri keladi. Bu kichik bir davlat iqtisodiyoti uchun nihoyatda katta daromad manbai hisoblanadi. Albatta, bunday yutuqqa erishish osonlik bilan ro'y bermaydi. Avvalo mamlakatda tinchlik-osoyishtalik ta'minlangan, turistlarning turli-tuman talablarini qondiradigan infratuzilma yaratilgan bo'lishi lozim. Bu avvalo qulay transport, mehmonxonalar va ulardagi bekamu-ko'st servis, aloqa xizmatlari, tarixiy yodgorliklar, yaxshi muomala va boshqalar yuqori saviyada amalga oshirilishi natijasidir.

Avstriyaning qulay geografik joylashuvi, iqlimining mo'tadilligi, jahonga mashhur Alp o'tloqlari, tog'lari, qishki chang'i uchun kerakli imkoniyatlar yaratilganligi bunga qulaylik yaratadi. Demak, mamlakatning geografik holati, shuningdek, uning qulay avtomobil trassalarini katta miqdorda tranzit va bir kunga keluvchi turistlar

tashkil qiladi.

Xullas, Avstriyada turizm rivojlanoishiga muhim hissa qo'shgan omillar:

- Boy rekreatsion resurslarning mavjudligi;
- Rivojlangan infrastrukturaning mavjudligi;
- Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligi;
- Qulay geografik holat.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Mamlakat qishki sport o'yinlari bo'yicha jahon ahamiyatidagi turizm markazi sanalanadi. Har yili mamlakat sayyohlarining 70 foizi va mehmonlarning asosiy qismi o'z ta'tillarini poytaxtdan olis, chekka provinsiyalarda - Vorarlberg, Tirol va Zaltsburgda o'tkazishadi. Xorijiy turistlar asosan Germaniya, Niderlandiya va Buyuk Britaniyadan tashrif buyurishadi. Turizmning qizg'in (pik) davri yozda - avgustda va qishda - fevralda bo'ladi. Bu yurtda juda ko'p zamonaviy otellar va turizm uchun zarur boshqa ob'yektlar bor.

Avstriyada Shveytsariyadagidek chegaraga keluvchi turistlar haqida ma'lumot to'planmaydi va turizm holati haqidagi ma'lumotga turli hududlarga joylashgan va o'tkazilgan turistik kunlar uchun miqdor ko'rsatkichlariga qarab baho beriladi. Ushbu mamlakat Shimoliy Yevropani janub bilan, G'arbiy Yevropani sharq bilan bog'lovchi trassalarning kesishuv yo'lida joylashganligi mamlakat uchun turist oqimini oshishiga xizmat qiladi. Demak, mamlakatning geografik holati, shuningdek uning qulay avtomobil trassalarini katta miqdorda tranzit va 1 kunga keluvchi turistlar tashkil qiladi (tranzit turistlarning asosiy qismi Shimoliy Yevropa mamlakatlaridan O'rta Yer dengizi qirg'oqlariga yo'l oladilar). Yigirmanchi asrning 80-yillarning oxirlarida sotsializm lageri bilan G'arb o'rtasidagi temir parda olib tashlangandan keyin 1 kunga keluvchi turistlar miqdori yanada oshdi. 90-yillarning boshida mamlakatga qo'shni bo'lgan Vengriya, Chexiya va Slovakiya, shuningdek Polsha turistlari faol qatnay boshladilar.

Hozirgi paytda Avstriya qishki sport o'yinlari bo'yicha dunyoda yetakchi turistik markazlardan biri hisoblanadi. Xalqaro turizm asosan mamlakatning G'arbiy qismida rivojlangan. Avstriyaning bu maskanlari uchun asosiy ta'minlovchi mamlakatlar Germaniya, Niderlandiya va Buyuk Britaniya hisoblanadi. Bu 3 davlat fuqarolarining Avstriyada o'tkazgan turistik kunlari 80% ni tashkil

qiladi. Keluvchilarning yarmi Germaniyaga to'g'ri keladi. Undan keyin Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Shveytsariya, Frantsiya, AQSh, Belgiya, Shvetsiya, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va boshqalar. Avstriya Shveytsariyaga nisbatan Germaniya bozoriga ko'proq muhtojlik sezadi.

Hozirgi paytda Avstriya an'anaviy faol, madaniy va "yashil" turizm mamlakati hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholining beshdan bir qismi turizmga band. Avstriyaga sayohat odatda Venaga tashrif, pivaxonalarga borish, Vena vals musiqasidan bahramand bolishni o'z ichiga oladi. Motsart vatani Zaltsburg, Alp tog'lari bilan o'ralgan, Tirolyaning poytaxti Insburg ham mashhurdir. Turistlarni tog'-chang'i sporti va yayov yurish hamda mashhur muzey va teatrlar ham o'ziga jalb qiladi. Mamlakat kichik bo'lishidan qat'iy nazar dunyo miqyosidagi turistik davlat sanaladi. Buning sabablari ko'p: Viqor Alp tog'lari, go'zal dunay daryosi-yu, shunday olib ichish mumkin bo'lgan daryolaru - ko'llari, qadimiylik bilan zamjnaviylikni uyg'unlashtirib bilgan shaharlar, Avstriyaning boy va hangba-rang madaniyati, Yevropaning qoq markazida joylashganligi hamda xalqining kulinari san'ati.

Avstriyada 56 ming mehmonxona, mingdan ortiq kanat va osma yo'llar, 24 ming gektar tog' - chag'i trassalari, 6 milliy qo'riqxonalar, 75 ming km.li yayov yurish yo'llari, 14 ming velotrassalar turistlar xizmatidadir. YUNESKO ro'yxatida bo'gan moddiy va ma'naviy meros ob'ektlari 9ta. Har yil 2500dan oshiq festivallar o'tkaziladi, 40 mingdan ortiq qo'riqlanadigan tarixiy obidalar, 700dan ortiq muzeylar ham turistlarga xizmat qiladi. Avstriyaga bir teatrlarni ko'rish uchun 6 mln. turist keladi.

Avstriya haqli ravishda o'zining ko'p sonli kurortlari bilan faxrlanadi. Ulardan eng mashhuri Gastayn daryosi vodiysidagi janubiy Zaltsbur provinsiyasida joylashgan Badastayn balneologik kurortidir. U issiq radon buloqlari bazasida barpo etilgan. Avstriya balneologik va iqlim kurortlaridan tashqari, ko'l bo'yi davolash - soqlomlashtirish turizmi safarlarini ham rag'batlantirilmoqda. Har yili Atterze, Mondze, Ossiixer-Ze va Toplistze ko'llari 1 mln. turistni jalb etadi. Kelayotgan butun turistlarning 20 % ini davolanish maqsadida kelayotganlar tashkil etadi.

2018 yilda xalqaro turizmdagi keluvchilar soni 30.8 mln. kishini tashkil etdi va ular tufayli mamlakat 25.4 mlrd. dollar daromad ko'rgan.

2018 yilda chet elda bo'lgan avstriyalik turistlar soni 11.9 mln. ni tashkil etgan va ularning xarajati o'sha yilda 14.3 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Tranzit turistlarning asosiy qismi Shimoliy Yevropa mamlakatlaridan O'rta yer dengizi qirg'oqlariga yo'l oladilar.

Avstriyada gavyum mavsum avgust oyiga to'g'ri keladi. Avstriyada qishki turizm mavqeining o'sishi bilan birgalikda ushbu mamlakat va boshqa Alp davlatlari, ya'ni Shveysariya, Italiya, Frantsiya, Germaniya va Sloveniya oldida qishki sport o'yinlarining ekosistemaga ta'sir qilish muammosini hal qilish turibdi. Shu bilan birgalikda ushbu mamlakatlarda yozgi turizm mavqeining pasayishi sezilmoqda.

5.4. Frantsiya mamlakatining turizm rivojlanish holatini tahlili

Frantsiya Yevropaning G'arbiy qismida joylashgan mamlakat. Poytaxti Parij shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 551.6 ming kv. km., aholisi - 65,808 mln. kishi (2020 - yil), shulardan 98 % frantsuzlar, tili - frantsuz, dini - xristian (80 %) va islom (7.5 %), pul birligi - frantsuz franki edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaxarlari: Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nitsta, Nant, Strasburg, Bordo va boshqalar. Milliy bayrami - 14 iyul - Bastiliya ishg'ol qilingan kun (1789 - yil). Frantsiya eng boy va qadimiy madaniyat o'chog'ilaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning poytaxti Parij dunyoning eng mashhur shahri desak, adashmaymiz, 2013 yilda shaharga 29.3 mln. kishi kelgan, o'sha yil Frantsiyaning poytaxt regioniga esa 32 mil. kishi kelgan, 2019 yilga kelib esa kelganlar soni 50 mln. kishiga yaqinlashgan, (bu juhatdan dunyoda birinchi). Parijda dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan joylar juda ko'p, eng ko'p sayohatchi keladigan turistik ob'ekt "Luvr" muzeyi ham shu shahardadir.

Turizm Frantsiya iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Qimmatli kurort va ajoyib otellar mamlakatning Lazur qirg'og'ida joylashgan va bu yerda xorijiy ishbilarmonlar o'z sarmoyalarini sarflaydilar. Shu bilan birga ancha

arzon keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari ham anchagina. O'rta yer dengizi sohilidagi bu oromgohlardan tashqari, turizm Atlantik okeanining janubi-g'arbiy qirg'og'ida hamda shimoliy dengiz atrofida rivojlangan. Frantsuz Alp tog'lari turistlarni yil bo'yi jalb etadi. Mehmonlarga ko'rsatiladigan xizmat (servis) nihoyatda yuqori darajada va yiliga katta daromad keltiradi.

Frantsiya, juda katta madaniy merosga ega mamlakat. Frantsiya hozirgi zamon tsivilizatsiyasiga buyuk matematiklar, faylasuflar, yozuvchilar, rassomlar bergan, bunda diplomatik tilga asos solingan, u insonlarga muayyan universal tushuncha bergan, ta'lim va madaniyatni shakllantirish o'z hissasini qo'shgan. Asrlar davomida frantsuz tili yirik xalqaro tillardan biri bo'lib, va asosan, hozirgi kunda ham o'z mavqegini saqlab qolgan. Uning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi, Frantsiya, butun dunyo bo'ylab o'z yutuqlarini yoygan yirik madaniy markaz hisoblanadi. U moda yoki film kabi ko'plab sohalarda hali ham dunyoda yetakchilik mavqegini saqlab qola olgan.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Parij: Luvr, Versal muzeylari. Eyfel minorasi. Do'rse vokzali zallari. Pompidu markazi. Yevrodisneylend. Kurortlar: Arkashon, Biarist, Lukana, Moliest, Sarnov, Palava, Kamarg, La - Grand - Mot, Set, Meze, Marsel. Tu ko'lidagi suv sporti yaxshi rivojlangan. Mamlakat bo'ylab avtomobil yo'llari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Kurortlar, otel va turistik lagerlar: Riveri (yiliga 35 mln. tur. kun), Parij (yiliga 1.5 mln. tur. kun), Akvitaniya, Langedsk, Russilon (har biri yiliga 6 mln. tur. kun). Shaharda ikki - besh yulduzli otellar juda ko'p. Masalan, Leonard de Vincy**, Panarama***.

Frantsiyaning mashhur tog' chang'i kurortlariga quyidagilar kiradi:

Uch vodiy (3 Vallees); Meribel (Meribel); Mottare (Mottaret); Val-Torans (Val Thorens); Le-Menyuir (Les Menuires); Kurshevel (Courchevel); La-Taniya (La Tania); Brid-le-Ben (Brides-les-Bains); Espas Killi (Espace Killy); Val-d'Izer (Val d'Iser); Tin (Tignes); Paradiski (Paradiski); Lez-Ark (Les Arcs); La-Plan (La Plagne).

Frantsiya ichki turizm bozori boshqa G'arbiy Yevropa davlatlari ichki turizmi bozoridan qisman farq qiladi. Birinchidan, frantsuzlarning juda oz miqdorigina o'z ta'tillarini chet davlatlarda o'tkazadi (1 yilda 18%). Ikkinchidan, bu yerda ta'til davrining "pik" vaqtlari mavjud: iyul va avgust oylarida o'quvchilar ta'tillari, qishda

rojdestvo ta'tillari, fevral oyidagi ta'tillar va pasxa davridagi ta'tillar. Uchinchidan, frantsuzlar avtomobillarda sayohat qilishni xush ko'radilar (bu ko'rsatkich 81%ni tashkil qiladi). To'rtinchidan, sayohatchilarning aksariyati shahar aholisi. Ular ta'til davrida mehmonxonalarga emas, boshqa joylarga joylashishni yoqtiradilar. Otellar qishda dam oluvchilar uchun qulay hisoblanadi.

Frantsuzlarning 50%ga yaqini o'z ta'tillarini yozda dengiz bo'yida, 25%i qishloq joylarida, 17%i tog' kurortlarida o'tkazadilar. Qishda esa qirg'oq bo'yida faqat 17% frantsuz dam oladi. Yozgi davrda qo'shni Ispaniya va Italiya mamlakatlari mavqei oshadi (ularning ikkalasi yozgi sayohatlarning 40%ini tashkil qiladi). Yaqin yillarda ichki turizm modelini o'zgartirish, yoz mavsumida yashash joylariga bo'lgan talabni oshirish uchun Frantsiyada imkoniyatlar ko'p.

Frantsiyaga asosan Yevropa mamlakatlaridan, birinchi navbatda Buyuk Britaniya va Germaniyadan turistlar keladi, AQShdan ham ancha keladi. Frantsiya uchun eng asosiy katta bozor - bu Germaniya hisoblanadi. U yerdan umumiy keladigan turistlarning 25 foizi tashrif buyuradi, ya'ni yiliga 18.5-19.0 mln. mehmon kelishi kuzatiladi. Germaniyadan keyin Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Shveytsariya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlar turadi. Osiyo mamlakatlaridan, ayniqsa Xitoydan Yevropa mamlakatlariga kelish bo'yicha ham Frantsiya birinchi o'rinni egallaydi. Frantsiyaga turistlar o'rtacha 7 kunga kelishadi, bu ancha yaxshi ko'rsatkichdir. Frantsiyaga keluvchi turistlar ko'proq Frantsiya Riverasida, Parij, Alp, Akvitaniya, Langedok-Russillonlarda dam olishni xush ko'radilar.

Frantsiyada 20 ming mehmonxona, 85 ming restoran, 40 ming qishloq mehmonxonalari va 11500 kemping bor (2018 yilda).

Keyingi paytlarda frantsuzlar AQShga, Osiyoning sharqiy va janubiy – sharqiy qismiga sayohat qilishni ma'qul ko'rmoqdalar. Ish yuzasidan bo'ladigan sayohatlarning aksariyati Germaniya va Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ulardan keyin, Belgiya, Italiya, Shveytsariya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarga to'g'ri keladi. Frantsiyaga keluvchi turistlar ko'proq Frantsuz riverasida dam olishni xush ko'radilar. Undan keyin Parij, Alp, Akvitaniya, Langedok-Russilon kabi joylar turadi. 2018 yilda O'rta yer dingizi qirg'oqlariga 200 mln. shahar rayonlariga esa 115 mln. turist kelgan.

Frantsiya iqtisodiyoti mamlakatda muvozanatini saqlagan holda

hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mehmonlarni qabul qilish uchun muntazam ravishda qishloq joylarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Avvallari bu hollarni Akvitaniya, Markaziy massiv va Langedok-Russilon hududlarida ko'rish mumkin edi. Ammo, bu loyiha birinchi navbatda chet el turizmini emas, balki ichki turizmni rivojlantirishga xizmat qilar edi. 1967 yilda Frantsiya rahbariyati tomonidan Akvitaniyada turizm va qishloq joylarni birgalikda rivojlantirish rejasini qabul qilindi. Rejani moliyalashtirish ishi xususiy sektorga, rivojlantirishni koordinatsiyasi esa hukumat komissiyasi tomonidan amalga oshirilar edi. Bu rejaga ko'ra qirg'oqdagi tuman 16 sektorga bo'linar, ulardan 9 tasi turizmni rivojlantirish uchun ajratilgan edi. Ya'ni, plyajlar, dam olish hududlari, suv sportlari uchun joylar qurilishi lozim edi. Qolgan 7 ta sektor yashil zona deb nomlanib, u yerdagi landshaft va yovvoyi tabiatni saqlab qolish ko'zda tutilgan edi. Bu rejaga ko'ra, amaldagi Arkashon va Biarist kabi faoliyat ko'rsatayotgan kurortlarni saqlab qolish, yashash joylarini kengaytirish va nihoyat Moliest kabi yangi kurortlarni qurish lozim edi. Yangi ob'ektlarni qurish, rejalashtirish mamlakatni ichki turizm talablarini qondirish maqsadida amalga oshirilar edi. 1982 yilgacha tunash uchun joylarning 28%i dam olish lagerlarida joylashgan edi. Mehmonxonalar qismi esa faqatgina 13%ni tashkil qilar edi. Shu bilan birgalikda "2-uylar" 46% ga yetgan edi. Ushbu loyiha amalga oshishi bilan turizmga katta rivojlanish sezildi. Bu holatga hattoki 80-yillardagi inqiroz ham ta'sir ko'rsata olmadi. Langedok-Russilon qirg'og'i 60-yillargacha turizm va dam olish uchun rivojlangan emas edi. Qirg'oqning qumli tepaliklari asosiy yerlarda botqoqliklar bilan ajratilgan edi. 1964 yilda hududda turizm sektorini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida frantsuz hokimiyati rejaning rivojlantirish dasturini ishlab chiqdi. Bu dasturga asosan 5 ta turistik yashash joylari, ularni bog'lovchi yo'llar va avtomobil trassalari qurilishi ko'zda tutilgan edi. Shimoliy kurortlar guruhi Ajua-Morte nomli qadimiy shahardan 20 km. janub va g'arbda dengizning qumli qirg'og'ida joylashgan. 1990 yilda uni amalga oshirish uchun rayonga turizmni rivojlantirish uchun belgilangan mablag'ning 24%i ajratildi. Oldingi qurilgan kurortlardan Sarnon va Palava turistlar orasida yuqori mavqega ega. La-Grand-Mot o'zining mashhur yaxta-klubli ulkan kurortiga ega. Kurortlarning 2 -guruhi umumiy Tu nomi bilan atalib, qumlik qirg'oqlarda uzunligi 30 km.

masofada joylashgan. Shuningdek, bu kurort o'z ichiga qadimiy kurortlar bo'lmish Set, Meze va Marsel hamda yosh kurort Kap de Adglarni oladi. Bulardan keyin Valras-Grussan, Lyuka-Barkares, Kane-Arjeles guruhlari turadi. Dasturni ishlab chiqqanlar fikricha, avtomobil yo'llarini yaxshilash turizm o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dasturga muntazam ravishda o'zgartirishlar kiritildi (1969-1972 yillar). Uni amalga oshirish hududda o'tkazilayotgan turistik kunlarning ortishiga olib keldi. Ya'ni, 1968 yilda ular soni 16 mln. ni tashkil qilgan bo'lsa, 1979 yilda 39 mln. gacha o'sdi. 1960 yilda bu yerlarga 30 ming kishi kelgan bo'lsa, 1990 yilda 5 mln. kishiga yetdi.

Turizmning rivojlanishi hudud iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatayotganligini tan olib, Frantsiya hukumati avtomobil yo'llarini kengaytirish va ekologiyasini yaxshilash ishlariga tavakkalchilik qilib katta mablag' ajratdi. Ammo, ushbu reja har doim ham ijobiy natija bermaydi. Masalan: Italiya janubida turizmni rivojlantirish uchun shu kabi avtomobil yo'llarini yaxshilashga ketgan Italiya hukumatining barcha urinishlari befoyda bo'ldi. Langedok-Russilon hududi aksariyat hollarda ichki turistlarga xizmat qiladi. Masalan: 1986 yilda mehmonxonalarining 88%ini frantsuzlar tashkil qilgan. 1992 yil 54.1 mln turistik kunlar aynan shu hududga to'g'ri kelgan. Chet davlatdan kelgan turistlarning aksariyati Belgiya, Germaniya va Niderlandiya orqali kelar edilar. 1988 yilda joylashgan o'rinlarning 63%ini "2-uylar", 26%ini esa lager shaharchalar tashkil etdi. La-Manshdagi tonnelning ochilishi Buyuk Britaniyalik turistlar oqimining ko'payishiga va chet el turizmi modelini o'zgartirishga olib keldi.

5.5. Buyuk Britaniya turizmining o'ziga xosligi

Buyuk Britaniya - G'arbiy Yevropadagi Britan orollarida joylashgan mamlakat. Buyuk Britaniya yuqori darajada rivojlangan industrial davlatdir. Jahon iqtisodiy ishlab chiqarishida YaIM bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Poytaxti London shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - parlamentli monarxiya (qirollik). Maydoni – 244.1 ming kv. km, aholisi - 66.6 mln. kishi (2020 yil), tili - ingliz, dini - xristian, pul birligi - funt sterling. Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har - xil bo'lgan 4 ma'muriy - siyosiy qism (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar hamda Shimoliy Irlandiya) dan iborat. Yirik shaharlari: London, Birmingem, Glazgo,

Liverpul, Manchester, Sheffield, Lids. Milliy bayrami - Qirolicha tug'ilgan kun (iyun oyining ikkinchi yoki uchinchi shanbasi). Buyuk Britaniya Yevropa mintaqasidagi turizm sanoati rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: London. Eng mashhur tarixiy yodgorliklar: Westminster saroyi – dunyodagi eng g'aroyib obidalaridan biri hisoblanadi. Bu saroy 1042 - yilda qirol Eduard taxtga o'tirishi munosabati bilan qurilgan. Hozirda bu saroy – Parlament saroyi bo'lib hisoblanadi. London Tauer (qasri) – bu qasr XI asrda Vilgelm tomonidan shahar qo'rg'oni sifatida qurilgan. Avliyo Pavl sobori. XVII asrda buyuk arxitektor Kristofer Rena loyahasiga ko'ra qurilgan. Bukingem saroyi – Londondagi rasmiy qirollik rezidenti hisoblanadi. Georg IV tomonidan 1834 – yilda arxitektor Jorj Nesh loyahasiga ko'ra qurilgan. Ushbu saroyga 700 000 funt sterling (o'sha davr narxi bilan) xarajat qilingan. Milliy dengiz muzeyi. Britan dengiz sohili kurortlari. Biznes turizm va madaniy turizm juda yaxshi rivojlangan. Xorijiy turizmning asosan ta'tillarga, biznes turizmga, qarindoshlar va do'stlar tashrifiga (turizmning 50 %, shulardan 40 % ta'tillar uchun, 26 % biznes turistlar uchun) tegishli ekanligi bilan farqlanadi. Xorijiy turizm juda yaxshi rivojlangan. Ikki - besh yulduzli otellari juda ko'p.

Buyuk Britaniyada turizm sohasining rivojlanish sabablaridan biri bu - turizm sohasida informatsion texnologiyalardan unumli foydalanishidir. Turizm sohasida informatsion texnologiyalar, shu soha ichida va tashqarisida, tijorat maqsadida qo'llaniladigan barcha kommunikatsiya hamda informatsion texnologiyalar majmuidir. Internet va global axborot tarqatish texnologiyalari turizm industriyasining asosiy axborot texnologiyalari hisoblanadi. Ma'lumki, Yevropa bozorida turizm sohasi bo'yicha asosan ikkita mamlakat muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan biri Buyuk Britaniya bo'lsa, Ikkinchisi Germaniyadir.

Buyuk Britaniyaning poytaxti London jahon ahamiyatiga ega bo'lgan turistik shahar hisoblanadi. 2018 yilda shaharga 20.42 mln. xorijiy turistlar kelgan. London mehmonlari 2018 yilda shaharga 9,4 mlrd. yevro xarajat qilishgan, va u shaharning yalpi ichki mahsulotining 12 foizini tashkil etadi, turizm sektorida 700 ming kishi ish bilan band.

London. Buyuk Britaniya poytaxti London shahri butun ingliz madaniyati va Viktoriya davri tarixini bugungi kunda ham ko'rsatib beruvchi "dunyo poytaxt"laridan biridir. Garchi poytaxt xizmat va mehmonxonalarining narxi juda yuqori darajada bo'lsa ham sayyohlar doimo Londonga qiladigan sayrlarini kamaytirishmaydi. London shahri infratuzilmasi zamonaviy ko'rinishda bo'lib, u har qanday muammolardan xolidir. Ayniqasa 2012-yilda bo'lib o'tgan Yozgi Olimpiada o'yinlari natijasida shahar yanada rivojlangan. Londonni har qanday begona kishi ham telefon budkalari, ikki qavatli avtobuslari va ingliz choylari bilan ko'z oldiga keltiradi. Har kungi Big Benning qo'ng'iroq ovozi bilan shahar uyg'onib shahar jonlanadi va doimiy harakatda bo'ladi. Londonning e'tiborga sazovor joylarini sanab o'tsa bu ro'yxat uzoq davom etishi mumkin, lekin Tauer Bridj, Bukingem saroyi, Big ben, Avliyo Pavl cherkovi, Trafalgar maydoni va Vestminster abbatligi bulardan eng asosiylaridir. Gayd Parkda sayr qilish ham oddiy londonlikdan tortib turistlarlar uchun ham maroqlidir.

2017 yilda shaharning 10ta eng zo'r turistik ob'yektlariga kelgan kishilar quyidagicha bo'lgan:

1. Britaniya muzeyiga - 5.9 mln. kishi;
2. Tate Modernga - 5.7 mln. kishi;
3. Milliy galeriyaga – 5.2 mln. kishi;
4. Tabiiy tarix muzeyiga – 4.4 mln. kishi;
5. Viktoriya va Albert muzeyiga - 3.7 mln. kishi;
6. Fan muzeyiga – 3.3 mln. kishi;
7. "Soutbank Center"ga – 3.2 mln. kishi;
8. "Somerset Houze"ga – 3.2 mln. kishi;
9. "London Tauer"ga – 2.8 mln. kishi;
10. Grivinchu qirollik muzeyiga – 2.6 mln. kishi.

(Manba: [https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_London.](https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_London))

Buyuk Britaniya turizm sanoatining o'sishi iqtisodiy rivojlanish davrida aholi strukturasi o'zgarishiga va uning dam olish darajasiga bog'liq bo'lgan. Ammo, aholi soniga buning ta'siri sezilmagan. Britaniyaliklar Ikkinchi Jahon urushidan keyin faol sayohat qila boshladilar. Yigirmanchi asrning 70-yillar o'rtasidagi neft inqirozi, shuningdek, 80-yillardagi iqtisodiyot pasayishi turizm rivojini susaytirdi. 80-yillar o'rtalariga kelibgina sayohatlarning umumiy miqdorida biroz o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davr ichida ichki

turizm va chet davlatlarga sayohat qilishdagi o'zaro tafovut jadal o'zgardi. Ichki turizm inqirozga uchradi. Shu davr ichida turistlarning Britaniya dengiz kurortlariga sayohatlari 14%ga qisqardi. Biroq, o'z-o'ziga xizmat yuzasidan tashkil qilinadigan turizm o'sish sezildi. Turistlar soni 1978 yil 17 mln. kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, 1980 yilda 20 mln. ga yetdi. Bu davrda esa ichki turizm qiyin ahvolda edi. Bozor strukturasi bu kabi o'zgarishlar turizm sanoatiga oid mablag'larni taqsimlashga ta'sir qildi. Masalan: kurort zonalaridagi otellarga talab kamayayotganligi sababli otel egalari mehmonxonalarni turizmning boshqa sohalari uchun, jumladan, qariyalar uyi sifatida foydalanishga majbur qildi. 70-yillardan boshlab to hozirgacha chet davlatga chiquvchi britaniyaliklar soni Buyuk Britaniyaga keluvchi mehmonlarga nisbatan juda ko'pdir. Chunki britaniyaliklar o'z ta'tillarini Ispaniya, Frantsiya, Gretsiya, Kipr, Portugaliya va Turkiyaning eng yaxshi kurortlarida o'tkazishni xush ko'radilar. Ikkinchi asosiy omillardan biri - bu milliy valyutaning kuchliligi.

Buyuk Britaniyaning chet elga chiqish turizmida asosiy o'rinni Shimoliy Amerika sayohatlari egallab turibdi. Britaniyaliklar uchun yozgi davrda Amerikaning Mayami kurorti katta mavqega ega. Bu sayohatlar dollar va funt sterling kurslari nomutanosibligiga bog'liq. Boshqa vaqtda esa bu yerga faqat qarindoshlar, do'stlar bilan uchrashish uchun sayohat qiladilar.

Buyuk Britaniyaga turistlar turli maqsadlarda kelishadi. Ta'tilni o'tkazish uchun keluvchilar 43% ni, ish yuzasi bilan keluvchilar esa 21%ni tashkil qiladi. Kelayotgan chet ellik mehmonlarning 50%ga yaqini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari fuqarolaridir. Ulardan 40% i ta'til o'tkazuvchilar va 26%i biznes turistlaridir. Buyuk Britaniyaga tashrif buyuruvchi chet el mehmonlarining asosiy qismini biznes sayohatchilar tashkil qiladi. Ular madaniy turizm mavjud bo'lgan katta shaharlarga, masalan, Londonga sayohat qilishni xush ko'radilar.

Buyuk Britaniya mamlakati xalqaro turizm harakatlarining iqtisodiy tahlil natijalarining ko'rsatishicha, Jahon bo'yicha turistik tashriflarning 3.4% Buyuk Britaniya mamlakatiga to'g'ri keladi. Daromadlar bo'yicha jahon turizm daromadlarining 3.7% bu mamlakatga to'g'ri kelgan. Yevropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning 6.0% ni, daromadlar miqdori bo'yicha 7.3%ni tashkil qilgan.

5.6. Shveysariya mamlakati turizmining rivojlanish omillari

Dunyoning eng go'zal mamlakatlaridan biri Shveysariya Yevropaning qoq markazida joylashgan. Poytaxti Bern shahri. Davlat tuzumi - federal parlamentli respublika. Markaziy Yevropadagi davlat. Iqlimi - nam iqlim. Maydoni – 41.3 ming kv. km., aholisi – 8.8 mln. kishi (2020 - yil), tili - nemis, frantsuz va italyan, dini - protestant va katolik, mamlakatda 0.5 mln. musulmonlar ham bor, pul birligi - Shveysariya franki. Muhim shaharlari: Tsyurix, Bazel, Jeneva, Bern, Lozanna va Fribur. Milliy bayrami - 1 avgust - Konfederatsiya tashkil etilgan kun (1291 - yil) bo'lib, 1899 - yildan beri nishonlanishi. Turizm mamlakat YalMning 9 foizini bermoqda.

Shveysariya yuqori darajada rivojlangan samarali qishloq xo'jaligi mavjud industrial davlat. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri mamlakatda tinchlik ta'minlanganidir. Tashqi siyosiy munosabatlarda, «Abadiy betaraflik» asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli bu davlat ko'pgina tashkilotlarga a'zo emas, hatto BMTga ham kirmagan. Bu mamlakatdagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlari - bank tizimi va turizm hisoblanadi. Temir yo'llari, avtomobil yo'llari, ichki daryo yo'llari rivojlangan. Shuning uchun ham bu go'zal maskanga yiliga bir necha million turistlar tashrif buyuradilar.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Tsermatt, Sankt - Morist tog'li kurortlaridagi sog'lomlashtirish, alpinizm, tog' chang'i turizmi. manzarali daryolari.

Shveysariya XIX asrdan boshlab chet el aristokratlari, ayniqsa, Buyuk Britaniyaliklar Shveysariyaning ko'p sonli manzarali ko'llarning qirg'oqlarida dam olganlar. Jeneva ko'liga bo'lgan 1-turistik guruhni 1863 yilda Tomas Kuk kompaniyasi tashkil qilgan. Bu yerda ilk bor inglizlar alpinizm, shuningdek, tog'li kurortlarda dam olishni tashviq qilganlar.

1870 yilda Alp tog'lariga temir yo'l o'tkazilishi munosabati bilan turizm yanada rivojlandi. Birinchi navbatda, Shveysariyada Sankt-Morist va Avstriyada Bad Ishl deb nomlangan mashhur sog'lomlashtirish kurortlari qurildi. Alp tog'lariida yozgi turizm XX asrning 20-yillaridan jadal rivojlandi, 1924 yil Shamonida (Frantsiya) dastlabki qishki olimpiada o'yinlarini o'tkazishga yetakchilik qildi. Ushbu davrda Shveysariya (tog' chang'isi) sport uchun trassani faol ravishda o'tkaza boshladi. Ikkinchi Jahon urushigacha aksariyat

turistlar Britaniya orollaridan kelar edi. Iqtisodiy inqiroz hamda Ikkinchi jahon urushi Shveytsariyaning turistik biznesiga juda katta zarar yetkazdi. Ammo, shunga qaramay Shveytsariya yana yangi turizm markazlarini qura boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatda xalqaro turizm jadal rivojlana boshladi. Faqat, yigirmanchi asrning 80-yillarida Shveytsariyada turizm sohasi u qadar rivojlanmadi, chunki bu soha mehmonxona va boshqa yashash joylaridagi o'z normasini modernizatsiya qilishdi, ya'ni zamonaviylashtirdi. Ammo, modernizatsiyaning sust o'tkazilishi oqibatida mijozlarning hozirgi zamon talablarini bajarishga ulgurolmay qoldi. Bundan tashqari, qishning isishi haqidagi xabar qorning kech va kam yog'ishi, qor qatlamining qalinligi, havoning namligi kabi bir qator yangi muammolarni yaratdi. Shunga qaramasdan, qishki sport turlarida o'sish bo'ldi. Bu esa, mehmonxonalar sektoriga mehmonlarni yil davomida joylashtirish va bir oyga 3 millionga yaqin kishini qabul qilish yo'li bilan biznesni saqlash imkonini berdi. Ammo, o'z-o'ziga xizmat qilish sektorida faqat gavyum mavsumlardagina ish ko'payardi. 90-yillarning boshlarida Shveytsariyada yozgi turizm o'z mavqeini yo'qotishiga qaramasdan, asosan ishning ko'p bo'lishi ushbu davrga to'g'ri keldi. Mamlakatda 57% turistlarning dam olishi yozgi oylarga to'g'ri keladi. Mehmonxona sektoriga 60% ga yaqin chet el mehmonlari to'g'ri keladi. Shu paytda ichki turizmning 62%i esa o'z-o'zini boshqarish sektorida joylashadi. Mehmonxona sektori mehmonlarni joylashtirishda katta ahamiyatga ega, ammo turistik sayohat kunlari miqdori turistik zonalarda bir xil taqsimlanmagan. Masalan, tog' kurortlarining mavqei baland, undan keyingi o'rinni ko'llar, so'ng esa katta shaharlar va hokazolar turadi. O'zining geografik holati va o'ziga xos bo'lgan turistik resurslarga ko'ra, Shveytsariya shimol hamda janubiy mamlakatlardan ham mehmonlar qabul qiladi.

Mamlakat uchun Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Avstriya, AQSh va Yaponiya ulkan turistik bozor hisoblanadi. Shveytsariya bir kunlik va tranzit mehmonlar bozoriga ham ega. Ularning taxminan 1/3 qismiga yaqini Germaniya, 1/3 qismiga yaqini Italiya, 1/5 qismini Frantsiya mehmonlari tashkil qiladi.

Shveytsariya xalqaro turizmining pasayishiga O'rta yer dengizi

mamlakatlari bilan raqobati ham ta'sir qildi. Xalqaro turizm Shveysariya iqtisodida juda katta ahamiyatga ega. Shveysariya xalqi ham sayohatni yoqtiradi. Sayohatlarning 60%i O'rta yer dengizi mamlakatida o'tkaziladi.

Bundan tashqari, turizm rivojlanishi mamlakatning davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, chunki u tog'lik rayonlarda qishloq xo'jaligiga yagona iqtisodiy muqobil kuch hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm davlat rahbariyati uchun muammo ham tug'diradi, chunki sayyohlarning yurtga ko'plab tashrifi Alpning go'zal tabiatiga salbiy ta'sir qilib, mahalliy aholiga noqulaylik tug'diradi.

Sheytsariya an'anaviy turistik davlat, juda bir kichik maydonda tabiat va inson qo'li yaratgan juda ko'p mo'jizalarga boy davlat, mana 150 yildan beri u Yevropada o'z mavqeini saqlab kelmoqda. Rivojlangan turistik infrastrukturaning mavjudligi, temir yo'llar va avtomobil yo'llarining (mamlakatda Alp tog'larini kesib o'tishga yordam beradigan 600 dan ortiq tunel bor) go'zal tabiat maskanlari bilan uyg'un bog'langanligi, mamlakat hududining boy qo'shnilar bilan o'rab olinganligi turistlar oqimini ta'minlab turibdi. Mamlakat maydoning 61 foizini Alp tog'lari egalasa, 25 foizini o'rmonlar qoplagan. Sheytsariya tabiatini go'zallashtiruvchi yana bir omil - mamlakatning yana bir imiji – "daryo va ko'llar mamlakati", chunki bu yerda 1500 ko'l (Yirik ko'llari 10 ta: Jeneva ko'li (582.4 km²), Boden ko'li (539 km²), Lago Madjore (212.3 km²), Firvalshtetsk ko'li (113.8 km²), Syuriks ko'li (88.4 km²), Lugano (48.8 km²), Tun ko'li (48.4 km²), Bilsk ko'li (40 km²), Sugs ko'li (38 km²) va yuzlab daryolar ham bor, kichik territoriyada shuncha suv manbai esa bu rekorddir. Hozirgi paytda mamlakatga eng ko'p nemislar, AQShliklar, yaponlar, keyingi paytlarda esa ruslar, hindlar, xitoyliklar kelishadi.

Alp tog'lari mamlakat territoriyasining uchdan ikki qismini egallaydi va u mamlakat turizmi uchun juda katta ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotning turizm muhim tarmog'i sifatida Alp tog'larining rekreatsion resurslarini ishlatadi. Mamlakatning eng mashhur kurortlari Tsyurix, Bern, Lyutsern, Bazel, Jeneva sanaladi. Tog' - chana kurortlariga esa quyidagilar kiradi: Sankt-Moris, Davos, Tseremat, Interlaken, Leykerbad.

Mamlakatda arxitektura yodagorliklari ham talaygina, 100 lab qasrlar, monastirlar, saroylar, muzeylar butun mamlakat bo'ylab

tarqalgan. Ularning 10 tasi hatto YUNESKOning ro'yxatiga ham kiritilgan (Masalan, Karolinglar qasri, Sasso Korbaro qasri, San-Gallen monastiri, soat sanoati markazi La-Sho-de-fon va Le-Lokl).

Sheytsariyada xalqaro turizmni inglizlar boshlab bergan edilar, ular Alp tog'larining yuqori cho'qqilarini va go'zal panoramalarini butun dunyoga mashhur qilishgan.

Sheytsariya nafaqat alp tog'lari mamlakati, balki u tog' chang'si bilan, Jeneva ko'li bilan, eng ishonchli banklari bilan hamda o'z soatlari bilan ham mashhurdir.

Sheytsariya oshxonasi ko'plab narsalarni qo'shnilarini nemis, frantsuz va italyanlardan olgan, ammo uning o'ziga xos ovqatlari ham bor. U birinchi navbatda sut mahsulotlari, yog', sir, tuxum va shokolad mahsulotlari bilan mashhurdir.

Shveytsariya kurortlari soni bo'yicha Avstriya va Germaniyadan biroz orqada bo'lsada, ammo davolash – sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishi bo'yicha mashhurlikda ulardan qolishmaydi. To'g'ri, bu mamlakatda kurort xizmatlari faqat badavlat kishilargagina nasib etadi, ularning narxi juda qimmat.

Shveytsariyaliklar va xorijiy mehmonlarda balneologik salomatlik maskanlari (Baden, Bad-Ragats) va ayniqsa tog' iqlimi kurortlari (Aroza, Davos, Sankt-Morist, Tsermatt va boshq.) shuhrat qozongan. Shveytsariya birinchilar qatorida o't-o'lanlar bilan davolashni tajriba qilib ko'rgan. O't-o'lanlar qaynatmalari va damlamalari organizm himoya qobiliyatini mustahkamlaydi. Ortiqcha vazndan xolos bo'lishga, keksayishni sekinlashtirishga yordam beradi. Markazlarda dermatoz, modda almashinuvi buzilishi, diabet, bo'g'in kasalliklari, asab buzilishlari muvaffaqiyatli davolanadi.

2018 yilda mamlakatga xalqaro turizm bo'yicha 10.4 mln. kishi tashrif buyurgan. Mamlakatga kelgan turistlardan xorijda turist sifatida bo'lib qaytganlar soni ancha ko'p, ular 2018 yilda 15.3 mln kishini taskil etgan. Yana bir narsaga e'tibor berish mumkin, xorijda bo'lganlar (20.3 mlrd.doll) bilan mamlakatga kelgan xorijiy turistlar deyarli bir xil xarajat qilishgan (20.7 mlrd.doll.).

5.7. Benilyuks mamlakatlarida turizmning o'ziga xosligi

1958 yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg mamlakatlari Benilyuks iqtisodiy ittifoqi shartnomasini tuzadilar. Bu Yevropa

ittifoqining boshlanishi edi. Bu o'z navbatida mamlakatlarning keyingi taraqqiyotiga ta'sir qildi. Hozirgi paytda Yevropaning bu 3 ta mamlakati – Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg ommabop turistik markazlar deb hisoblanadi.

Belgiya. Poytaxti Bryussel shahri. Iqlimi - dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni – 30.5 ming kv. km., aholisi – 11.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - frantsuz, dini - asosan katolik, ozgina qismi protestant va 6 foizini musulmonlar tashkil etadi, pul birligi - Belgiya franki edi, 2002 - yil 1- yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Bryussel, Gent, Lej. Milliy bayramlari: 21 iyul - Qirol Leopold I ning Konstitutsiyaga sodiqligi haqida qasamyod qilgan kuni (1831 - yil) va 15 noyabr - Qirol sulolasi kuni (1866 - yil). Yevropa Ittifoqining va boshqa yurtlarni ko'plab transmilliy kompaniyalarning bosh ofislari Bryussel shahrida joylashgan. Mamlakatga asosan yuqori martabali amaldorlar, ishbilarmonlarning tashrifi bilan ajralib turadi.

Turizm sohasi Belgiyaga YaIMning 3.4 foizini olib keladi, bu taxminan 12 milliard dollarni tashkil etadi. Turizm sohasida Belgiya aholisining 4% ishlaydi, bu 175000 kishini tashkil etadi.

Tarix va madaniyatni yaxshi ko'radigan sayyohlar, yuqorida aytib o'tilganidek, sayohat uchun Bryussel, Bryugge, Gent va Antverpeni tanlaydilar. Belgiyaning jahon turizmidagi mavqei birinchi o'ntalikdan uzoqroq. Ammo uzoq vaqt davomida o'z o'rnini o'rnatdi. Ushbu qirollikka tashrif buyuradigan sayohatchilar soni deyarli o'zgarmaydi, garchi turizmdan olinadigan foyda yil sayin o'sib bormoqda. Belgiyaning passiv turizm balansi mamlakatga sayohatchilarning kelishi va belgiyaliklarning o'zlarining chiqish turizmiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Mamlakatda turizm foydasiga bir qator sabablarni keltirish mumkin.

✚ Birinchidan, mintaqada xalqaro turizmni rivojlantirishga tabiiy omillar: boy va xilma-xil tabiiy va rekreatsion resurslar, o'ta chuqur qirg'oq chizig'i va ko'plab qoylar, ichki dengizlar, minglab kilometr dengiz plyajlari, zich daryo tarmog'i, mozaik landshaftlari, qirg'oq va tog'li landshaftlarning qo'shni hududlari kombinatsiyasi.

✚ Ikkinchidan, madaniy va tarixiy omillar ushbu mamlakat uchun juda qulaydir: turli xil tarixiy va me'moriy yodgorliklarga boqlik, yuqori darajadagi ma'naviy va moddiy madaniyat, aholining milliy va

diniy tarkibidagi mozaika, yuqori darajadagi bilim, uzoq yillik an'analar mintaqadagi va dunyoning boshqa yirik mintaqalari bilan madaniy va boshqa aloqalar.

✚Uchinchidan, Belgiyada turizmning rivojlanishiga umumiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi, aholi daromadlarining o'sishi, yuqori urbanizatsiya, zarur transport va ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy-geografik omillar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropa mintaqasi aksariyat davlatlarining yaqinligi, shuningdek, ularning qarindoshligi ("transport inqilobi" sharoitida) dunyoning boshqa sayyohlik mintaqalariga yaqinligi. Bu yerda turizm sanoatining yuqori darajasi, uni tashkil etishning katta tajribasi.

✚To'rtinchidan, siyosiy omillarni ham hisobga olish kerak. Bularga, avvalambor: mamlakatning uzoq muddatli tinch yo'l bilan rivojlanishi, nafaqat iqtisodiy, balki ma'lum darajada siyosiy integratsiya, chegara pasporti tartibini soddalashtirish, umumiyevropa tuzilmalari mavjudligi, "ustqurilish" shakllanishi jarayonlarini chuqurlashtirish kiradi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: tarixiy - madaniy yodgorliklar bo'ylab sayohat. Muzeylarga boy Antverpen, shuningdek, u olmos biznesi bilan ham mashhur. Umuman, mamlakatda asosan tarixiy va biznes turizmning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Belgiyaga tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismini ishbiarmon sayohatchilar va chinovniklar tashkil qiladi. Bryussel nafaqat Belgiyaning poytaxti, balki Yevropa Ittifoqi, NATO va ko'pgina transmilliy kompaniyalarning bosh ofislari joylashgan shahardir. Ushbu tashkilotlarga qarashli mehmonlar qimmatbaho otellarda juda kam muddat yashaydilar.

Turistlarning keyingi toifasini shaharning tarixiy-madaniy obidalari bilan tanishmoqchi bo'lgan sayohatchilar tashkil qiladi. Belgiyada O'rta asr mahallalari yaxshi saqlangan 9 ta shahar bor. Chet el turistlarini ko'proq qiziqtiradigan shaharlar – bu, Bryusseldan tashqari, Antverpen, Bryugge va Gent shaharlari hisoblanadi. Turistik kunlarning 85%i ushbu shaharlarga to'g'ri keladi.

Bryugge - go'zal, o'tgan asrlardan darak beruvchi shahar. O'zining tor ko'chalari, eski ko'priklari, binolari bilan Venetsiyani eslatadi. Bryuggeda 1248 yil qurilgan Belfi end Kloz Xoll, 1336 yil qurilgan Toun Xoll va boshqa ko'plab XII—XIY asr ibodatxonalari

mavjud. Shaharda muzeylar juda ko'p. Dunyo san'ati namunalariga boy bo'lgan Groening muzeyi, shu jumladan, o'rta asrning yana bir shahri hisoblanmish – Gent o'zining gullar ko'rgazmasi bilan tanilgan. Uning markazida 1180 yilda qurilgan Cherkov, 1300 yilda qurilgan qasr va XV asrda barpo etilgan Sant Bravo Kafedral sabori joylashgan. Antverpen shahri nafaqat o'zining qadimiy binolari bilan tanilgan, balki u yerda olmos bo'yicha ishbilarmonlar turizmi ham rivojlangan. Bryussel shahri ham o'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlar hisobiga kirib, ishbilarmonlar turizmidan tashqari katta tarixiy madaniy turizm markazi ham hisoblanadi.

So'nggi yillarda 1696 yilda qayta qurilgan Bryussel shahrining asosiy maydoni – Grand Palas e'tiborni jalb qila boshladi. Bu yerda yunon uslubida qurilgan shahar saroyi, Mezon de Roy va Gald Xausez binolari joylashgan. Chet davlatlardan kelgan mehmonlarning deyarli uchdan bir qismi Belgiyaning qirg'oq zonalarida dam olishni ma'qul ko'radilar. Mehmonlar asosan qo'shni bo'lgan Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya va Frantsiya mamlakatlaridan tashrif buyuradilar. Mamlakatga, shuningdek, bir kunlik mehmonlar ham ko'p miqdorda keladi. Masalan, 1985 yilda ularning soni 15 mln. kishini tashkil qilgan edi. Belgiya (asosiy strategik) Yevropa yo'llarining chorrahasida joylashgan. U Parij va Shimoliy Germaniya, Buyuk Britaniya va Yevropa orollariga chegaradosh. Shu sababli mamlakat chegarasini juda ko'p miqdorda tranzit turistlar kesib o'tadi. Masalan, 1985 yilda ular soni 7 mln. kishini tashkil qilgan. Belgiyaliklarning o'zlari Frantsiya, Italiya va Ispaniyaning O'rta Yer dengizi kurortlarida hamda Alp mamlakatlarida dam olishni yoqtiradilar.

Belgiyada turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanagi, xalqaro turizmdan daromad 2018 yilda 10.3 mlrd.dollarni tashkil etgan, mehnatga layoqatli aholining 3.3 foizini ish bilan ta'minlaydi. Mamlakatga 2018 yilda xalqaro turizmga keluvchilar soni 9.1 mln. kishini tashkil etgan. Ularning uchdan ikki qismi qo'shni mamlakatlar - Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya va Buyuk Britaniyadan kelgan. Keladiganlarning asosiy qismi turizm infrastrukturasi yaxshi rivojlangan dengiz qirg'oqlariga, Bryussel, Bryuge, Gent va Antverpen shaharlari madaniyatini, tarixiy obidalarini ko'rishga kelishadi.

Belgiyada yuqori turistik mavsum ko'pincha martdan noyabrgacha davom etadi. Shuning uchun, qishki mavsumda, yangi yil ta'tilidan tashqari, sayohatlar uchun narxlar pasaytiriladi. Avgust oyida ular Belgiyaga Bryusseldagi asosiy maydonda mashhur "gul gilamchasini" ko'rish uchun borishadi.

Yozda sayyohlar Shimoliy dengizda ta'til bilan sayohatlarni afzal ko'rishadi. Kuzda ekskursiya safari, shuningdek ish safari tez-tez bo'lib boradi - odamlar Belgiyaga turli seminarlar, kongresslar, ko'rgazmalar uchun ham kelishadi.

Qishda sayyohlar asosan Rojdestvo yarmarkalariga, Yangi yil savdolariga tashrif buyurishadi, bu yerda siz nafaqat sovg'alar sotib olishingiz, balki ertak qahramonlari liboslarida kiyingan rang-barang milliy esdalik sovg'alari va sotuvchilarning tomoshalaridan bahramand bo'lishingiz mumkin.

Noyabr oyida Belgiya 50 kunlik muz haykaltaroshlik festivalini (Bryugge) boshlaydi, bu yerda sayyohlar taniqli va dunyodagi diqqatga sazovor joylarning muz haykallarini tomosha qilishlari mumkin.

Bahorda ko'plab gul festivallari ochilishi bilan yuqori turistik mavsum boshlanadi. Belgiya kulinariyasi qo'shni davlatlar bilan o'zining o'rta asrlarda shaklangan milliy kulinariyasi bilan qo'shilib ketgan. Mamlakat o'z shokoladlari, vafli, kartofelli frilari bilan mashhur. Mamlakatda 115 pivo zavodi 500 xil pivo sortlarini chiqaradi. Bryussel ko'plab xalqaro tashkilotlarning bosh ofisi joylashganligi bilan ham ko'plab kishilarni o'ziga jalb qiladi. Poytaxt okrugida 80ta muzey bor, shu jumladan poytaxtda uning yarmi joylashgan.

Belgiyada chiqish turizmi juda yaxshi rivojlanga. 2018 yilda xalqaro turizmdagi chet elga chiquvchi turistlar soni 13.1 mln kishini tashkul etgan va ular 20.8 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

Jadval - 5.2. Belgiyaga xorijdan kelayotgan turistlar sarfi, mln. dollar hisobida.

yil	Qiymat(mln.dollar hisobida)	O'zgarish
2015	19142	2.53
2016	20482	8.96

2017	20123	-2.38
2018	20895	8.41

Belgiyaliklarning xorijga qilgan xarajatlari ham barqaror o'sib bormoqda. Tour Stat ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda tashqi sayyohlik sayohatlari soni 4.6 foizga o'sgan.

Jadval – 5.3. Belgiyaliklarning xorijga qilayotgan xarajatlarning dinamikasi

Yil	Qiymat(mln.dollar hisobida)	O'zgarish,%
2019	28 312	6,50
2018	26 413	7,14
2017	23 855	-1,81
2016	24 311	14,85
2015	21 753	-7,15

Bugungi kunda Belgiyada turizm biznesi ikki asosiy lingvistik-kommunal mintaqalar - Flandriya va Valoniyaning xususiyatlariga ko'ra bo'linishi mumkin, ularning Belgiya tarixi davomida madaniy va ijtimoiy aloqalari bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, qirollikning geografiyasi turistik yo'nalishlarning xilma-xilligiga hissa qo'shadi.

Birinchi qadimiy tarixiy shaharlarni namoyish etishga qaratilgan (Flandriyada - Antwerpen, Gent, Bryugge, Luvain; Valoniyada - Namur, Lyej, Monet va Bryussel).

Ikkinchi tabiiy resurslar bilan tanishishga qaratilgan (shimolda - dengiz qirg'og'i, uning bo'ylab yagona xalqaro tramvay liniyasi frantsuzlardan Gollandiya chegarasigacha; janubda - Ardennes tog 'tizmasi).

Niderlandiya. Poytaxti Amsterdam shahri. Iqlimi - dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni – 41.5 ming kv. km., aholisi – 17.2 mln. kishi (2020 - yil), tili - golland, dini – asosan protestant va katoliklar, musulmonlar 6 foizni tashkil etadi, pul birligi - gulden edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Amsterdam, Rotterdam, Gaaga, Utrext. Milliy bayrami - 30 aprel (Qirolicha kuni).

Niderlandiya iqtisodiyatining muhim sektorlaridan biri turizm hisoblanadi. Niderlandiya xalqaro turizmining asosiy markazi bo'lib,

uning poytaxti Amsterdam hisoblanadi. Xorijiy turistlarni birinchi navbatda Amsterdamning boy madaniyati va tarixiy obidalari (Van Gog muzeyi, Rembrand muzeyi, Anna Frank uyi kabilar), “Qizil chiriqlar” (narkotik va boshqa masalalardagi “erkinlik”i kishilarni o’ziga jalb qiladi) mahalasi o’ziga chorlaydi. Bu shaharda qadimiy va go’zal binolar ko’p. Gaaga manarlar, hukumat rezidentsiyalari shahri, shahar markazining arxitektura yodgorliklari bilan, minyaturali Madurum shahri bilan o’ziga chorlaydi.

Rotterdam esa dunyoning bosh gavani sifatida, do’konlari va modern panaramasi bilan jalb qiladi. Shahar aeroportini ulkan transport tarmog’i bilan bog’lovchi Rotterdam Yevropaning eng katta dengiz porti hisoblanadi. Shuning uchun, mamlakat chegarasini 5 mln. tranzit yo’lovchining kesib o’tishi hech kimni hayron qoldirmaydigan holat.

Bundan tashqari 17 asr hayoti bilan mashhur Delf va Utrix, qadimgi Rim davri shahri Maastrix ham mashhurdir. Mamlakat o’z lolalari bilan ham mashhurdir.

Hukumat mamlakatga kelayotgan turistlar oqimini poytaxt – Amsterdamdan mamlakatning boshqa yurtlariga ko’proq borsin deb, shahar uchun maxsus turistik soliq (har bir turistdan 5-10 yevro) olishadi. (Manba: <https://travelask.ru/netherlands>).

Mamlakatda o’z-o’zini boshqarishning yangi kontseptsiyasi ommabop bo’lib bormoqda. "Parks markazi" kompaniyasi o’rmon massivlari va suv havzalarida joylashgan. Ularning har birining umumiy maydoni 120 - 160 gektar bo’lib, sog’lomlashtirish sport komplekslariga ega. Mamlakatda shunday 7 ta kompleks mavjud. Ulardan har biri 1 yilda 1.5 mln. mehmonni qabul qila oladi. Shuningdek, 2 ta qo’shimcha kompleks qo’shni Belgiya mamlakatida joylashgan. Ushbu komplekslar tarkibiga yaxshi ta’minlangan bungalolar, restoranlar, magazinlar, basseynlar, sport bilan shug’ullanish uchun boshqa vositalar kiradi. Boshqa Yevropa mamlakatlari aholisiga qaraganda, niderlandiyaliklar o’z ta’tillarini nisbatan ko’prog’i mamlakat tashqarisida o’tkazadilar. Masalan, Shimol va Janub qirg’oq zonalarida dam olish qismiga faqatgina 15.5% niderlandiyalik to’g’ri keladi. Bu esa 2 ta sabab bilan asoslanadi. Birinchidan, qirg’oq bo’yi zona aholisi yashayotgan hududga 1 kunlik sayohatlar uyushtiriladi. Niderlandiya aholisi ko’proq Germaniyada dam olishni xush ko’radi. Ammo, yakka holda

sayohat qiluvchilar Frantsiya, asosan uning markaziy massivi, Alplar, shuningdek Avstriya va Shveytsariya (ularga mamlakatdan chiqish bozorining 16%i to'g'ri keladi) ni ma'qul ko'radilar. Niderlandiyalik turistlarning aynan shu mamlakatga sayohat qilishlarining asosiy sabablaridan biri – bu, o'zlarida mavjud bo'lgandan tamoman farq qiluvchi landshaft va sportning qishki turlari bilan shug'ullanish imkoniyatining mavjudligidir. O'rta Yer dengizi mamlakatlari bozorida Niderlandiya faqat 26%ni tashkil qiladi (Chunki ushbu mamlakatlarga borib kelish juda qimmatga tushadi). Niderlandiyaning hududi kichkina bo'lganligi sababli unga asosan bir kunlik mehmonlar tashrif buyurishadi. Turistik kunlarning yarmidan ko'pini mehmonxona fondida ishbilarmon sayohatchilar tashkil qiladi.

Mamlakatga 2018 yilda 18.8 mln. xorijiy sayyohlar kelgan. Mamlakatning xorijiy turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 25.8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga asosan Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Belgiya va Shengen kelushiviga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlardan kelishgan.

Mamlakat chet elga turistlar yuborish bo'yicha ham ancha oldinda, 2018 yilda xalqaro turizm bo'yicha chet elga chiqqanlar soni 22.1 mln. kishini taskil etgan va ular bir yilda qariyb 26 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

Lyuksemburg. Mamlakat Yevropa markazida joylashgan gersoglik bo'lib, 2586 kv.km. maydonga ega. Poytaxti Lyuksemburg shahri. Iqlimi - mo'tadil iqlim. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (buyuk gertsoglik). Aholisi – 631 ming kishi (2020 - yil), rasmiy tili - nemis va frantsuz tillari bo'lsada, aholining aksariyat qismi Lyuksemburg tilida so'zlashadi, dini - katolik, protestant, yahudiy. Pul birligi - Lyuksemburg franki edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Lyuksemburg, Esh. Milliy bayrami - 23 iyun - Buyuk Gertsog tug'ilgan kun (1921 - yil). Poytaxt Yevropa Ittifoqining ko'plab tashkilotlarining uchrasuv joyi hamda jahonning muhim moliyaviy markazi hisoblanadi.

Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim taqmog'i hisoblanadi. Turizm asosan ish bilan bo'g'liq. Luksemburg Yevropa miqyosidagi katta bank va biznes markazi ham hisoblanadi.

Turizmi turlari: Lyuksemburg Belgiya va Niderlandiya singari turistlarni qabul qila olmasada, mamlakat iqtisodiy salohiyatida turizm uchinchi o'rinda turadi. Biznes turizmning rivojlanganligi bilan ajralib

turadi. Yevropa Ittifoqi banki shtab - kvartirasi va qator xorijiy banklarning joylashgan.

Mamlakatda keladigan turistlarning yarmi, poytaxtga keladiganlarning 60 foizi biznes bilan bog'liq. Mamlakatdagi turistlarning keladigan asosiy joylari – Luksemburg shahri, Viandendagi o'rta asr qasri, Esternax abbatligi, Mozel vodiysining vino ishlab chiqarish joylariga, mamlakat sharqida joylashgan “Luksemburg Shveytsariyasi” nomini olgan Myullertal, faol tog' sporti turizmi ixlosmandlari uchun Arden hududidagi Esling tog'li hududi hisoblanadi. Mamlakat qolgan Yevropa bilan temir yo'l, avto yo'l va havo yo'llari bilan juda yaxshi bog'langan, shuning uchun xalqaro uchrashuvlar uchun juda qulay joy hisoblanadi. Mamlakatga keladiganlarning yarmi qo'shni davlatlar – Niderlandiya, Belgiya va Germaniyadan kelishadi, anchagina Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQShdan ham kelishadi.

Luksemburg madaniyati roman va german madaniyatining qorishmasidan iborat va bu hamma narsaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakatda o'z tilidan tashqari frantsuz va ingliz tililari keng tarqalgan. Kulinariyada ham frantsuz ovqatlari, nemis va Belgiya taomlari bilan qo'shilib ketgan, o'z milliy ovqatlari ham mashhur.

Mamlakatga 2018 yilda 1.0 mln.dan ortiq xorijiy turist kelgan. Xorijiy turistlardan tushgan tushum 5.5 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu kor'satgich bo'yicha dunyoda birinchi orinni egallaydi (kishi boshiga 5.5 ming doll.).

Mamlakatdan chet elga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 2.0 mln. dollarni tashlik etgan, bu bir kishiga 3.2 chiqish to'g'ri keladi, dunyodagi eng yuqori ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Chet elga chiqqanlar esa o'z navbatida 3.3 mlrd. dollarni, har bir kishiga 5 ming dollardan ortiq xarajat qilishgan, bu ko'rsatgich bo'yicha ham dunyoda eng yuqori ko'rsatgichlardandir.

Qisqacha xulosalar. Bu region hozirgi zamon turizmini shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan region hisoblanadi. Bu regiondagi barcha, hatto mitti davlatlarda ham turizm juda yaxshi rivojlangan. Bu region boy, farovon hayot darajasiga chiqqanligi uchun ham turizmni rivojlantirishda juda katta ishlarni amalga oshirgan va uni takomillashtirish uchun katta investitsilarni realizatsiya qilib kelmoqda. Ayniqsa, Germaniya, Frantsiya, Avstria,

Shveytsariya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlardan ancha narsani o'rganish mumkin.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Germaniya turizmini mamlakat ichida rivojlantirish uchun GTM qanday marketing tadbirlarini amalga oshiradi?
2. GTM milliy turizm tashkiloti faoliyati nimalardan iborat?
3. Avstriya mamlakati turizmini jozibasi namada deb o'ylaysiz?
4. Frantsiya ichki turizm bozorining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. Turistik Parijga xarakteristika bering.
6. Buyuk Britaniya mamlakati turizmi tahlilini qilib bering.
7. Turistik Londonga xarakteristika bering.
8. Benilyuks iqtisodiy ittifoqi qaysi davlat tashabbusi bilan bunyod etilgan va ular turizmining o'ziga xosligi nimada?
9. Shveytsariya mamlakatida turizmni rivojlanish omillari nimalardan iborat?
10. Nega kichkinagina Lyuksemburg mamlakatiga turist ko'p keladi va yaxshigina xarajat qilishadi?
11. Turistik Niderlandiyaning jozibadorligi nimada?

Glossariy

Turizmning passiv turi - turistik sayyohlikning tinchroq va kam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zo'riqishga xos bo'lmagan turi kiradi.

Aktiv turizmga har-xil sarguzashtli sayohatlarni kiritish mumkin: sarguzashtli turizm (adventure tour), ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytiladi.

ITFV - Iqtisodiyot va texnologiya Federal vazirligi. Germaniyaning turizmga mablag'topishga ko'maklashuvchi maxsus vazirligi.

Deutsche Zentrale fuer Tourismus - Germaniya turizm markazi. Mamlakat bo'ylab turizm rivojlanishiga ko'maklashadigan va turistik o'byektlarni tartibga soluvchi maxsus tashkilot hisoblanadi.

GTM - Germaniya federal hukumati tomonidan turizmni boshqarish va nazorat qilish uchun mas'ul milliy tashkilot.

RDA - xalqaro avtobus turizmi uyushmasi. Yevropa ittifoqining o'ziga xos turistik tashkiloti bo'lib, Yevropa bo'ylab avtobuslarda turlarni tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Lazur qirg'og'i – Frantsiyaning O'rta yer dingiziga chiqqan qismi

odatda shu nom bilan ataladi. Bu o'lkada qimmatli kurort va ajoyib otellar joylashgan va bu yerda xorijiy ishbilarmonlar o'z sarmoyalarini sarflaydilar.

Westminster saroyi – Buyuk Britaniyada joylashgan dunyodagi eng g'aroyib obidalaridan biri hisoblanadi. Bu saroy 1042 - yilda qirol Eduard taxtga o'tirishi munosabati bilan qurilgan. Hozirda bu saroy – Parlament saroyi bo'lib hisoblanadi.

Sankt-Morist – Shveysariyaning eng mashhur kurortlar joylashtirilgan sog'lomlashtirish go'shasi sanaladi. Sankt - Morist tog'li kurortlarida sog'lomlashtirish obyektlari juda ko'p, bu go'sha alpinizm va tog' chang'i turizmi uchun juda qulay joy sanaladi. Atrofidagi manzarali rel'yeflar va go'zal daryolar kishini o'ziga maftun qiladi.

Parks markazi – Niderlandiya davlatiga xos sog'lomlashtirish va sport kompleksi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarkibiga kiradigan davlatlarni to'g'ri ko'rsating.

- a) Avstriya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya;
- b) Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Rossiya;
- c) Buyuk Britaniya, Ispaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya;
- d) Ispaniya, Germaniya, Frantsiya, Belgiya, Niderlandiya.

Qaysi davlat aholisini joylashuvi, mehnatda bandlik strukturasi va sinfiy tarkibiy jihatdan nafaqat Yevropada, hatto dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi?

- a) Germaniya;
- b) Shveysariya;
- c) Frantsiya;

d) Italiya.

Germaniya fuqarolari kamida necha kunlik ta'til sayohatlariga chiqadilar?

- a) 30 kun davom etadigan 70 milliondan ortiq;
- b) bir hafta davom etadigan 60 milliondan ortiq;
- c) bir oylik 50 milliondan ortiq;
- d) 12 kun davom etadigan 40 milliondan ortiq.

Germaniya turizm industriyasiga mas'ul milliy tashkilot nomi nima?

- a) Deutsche Zentrale fuer Tourismus (keyinchalik GTM) - Germaniya federal hukumati tomonidan turizmni boshqarish

va nazorat qilish uchun mac'ul milliy tashkilot hisoblanadi;

- b) Arbeitsgemeinschaft Deutscher Verkehrsflughafen;
- c) Deutsche Bahn AG;
- d) Deutsche tourism.

GTM bosh idorasi qayerda joylashgan?

- a) Frankfurt Maynda;
- b) Berlinda;
- c) Myunxenda;
- d) Gamburgda.

Butun dunyo bo'ylab GTMning nechta xorijiy vakolatxonalari va savdo shaxobchalari mavjud?

- a) 28 ta;
- b) 25ta;
- c) 36ta;
- d) 12ta.

Germaniya turizmi rivojlanishi uchun GTM qanday faoliyat turi bilan shugullanuvchi organ hisoblanadi?

- a) Marketing tadbirlarini o'tkazuvchi;
- b) iqtisodchilar;
- c) menejment;
- d) nazorat ishlari.

Hududlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xaridorlarga yo'naltirilgan takliflarni professional darajada rivojlantirish va shu

orqali davomli ravishda tashkilot imijini yaxshilashdan iboratdir, bu

- a) GTM marketing strategiyasi;
- b) biznes reja;
- c) tadqiqot usuli;
- d) futurologik ish.

Qaysi davlat hududi 83,849 kv.km., aholisi 8,0 mln. Yirik shaharlari Vena, Grats, Lind, Zaltsburg. Rasmiy tili - nemis tili. Yevropa Ittifoqi a'zosi.

- a) Avstriya;
- b) Frantsiya;
- c) Germaniya;
- d) Portugaliya.

Hozirgi paytda Avstriya qaysi sport o'yinlari bo'yicha yetakchi turistik markaz hisoblanadi?

- a) qishki;
- b) yozgi;
- c) kuzgi;
- d) bahorgi.

Qaysi davlat hududi 551 ming kv.km. aholisi 65,8 mln. kishini tashkil etadi. Yirik shaharlari Lion, Marsel, Tuluza, Bordo.

- a) Frantsiya davlati;
- b) Buyuk Britaniya;
- c) Germaniya;
- d) Italiya davlati.

Frantsiya yuksak darajada rivojlangan qanday davlatdir?

- a) Agrar davlat;
- b) Sanoatlashgan;
- c) Postindustrial davlat;
- d) industrial.

Hududi 244.1 kv.km. aholisi 66.6 mln. kishini tashkil etadi. Yevropa mintaqasidagi turizm sanoati rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

- a) Buyuk Britaniya;
- b) Frantsiya;
- c) Avstriya;
- d) Sheytsariya.

Buyuk Britaniyada turizm sohasining rivojlanish sabablaridan biri bu-

- a) turizm sohasida informatsion texnologiyalardan unumli foydalanishidir;
- b) reklama va pablik releysin;
- c) televideniya;
- d) o'rmonlarga boy o'lka bo'lganligi uchun.

Yevropa bozorida turizm sohasi bo'yicha asosan qaysi ikkita mamlakat muhim ahamiyat kasb etadi?

- a) Germaniya va Buyuk Britaniya;
- b) Frantsiya va Germaniya;
- c) Avstriya va Vengriya;
- d) Germaniya va Sveytsariya.

Britaniyaliklar o'z ta'tillarini qaysi mamlakatlarning

kurortlarida o'tkazishni xush ko'radilar?

- a) Ispaniya, Frantsiya, Gretsiya, Kipr, Portugaliya va Turkiyada;
- b) Portugaliya, Germaniyada va Turkiyada;
- c) Frantsiya, Gretsiya, Irlandiyada, Kiprda, Xitoyda;
- d) Italiyada, Bolgariyada, Rossiyada.

Hududi 41.3 kv.km., aholisi 8.8 mln. kishi. Yirik shaharlari Bern, Bazel, Syurix, Jeneva, Lozanna va Frayburg.

- a) Shveytsariya;
- b) Gretsiya;
- c) Portugaliya;
- d) Bolgariya.

Shveytsariya mamlakatdagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bu-

- a) Bank tizimi va turizm;
- b) sanoat va savdo;
- c) agrar va savdo sohalari;
- d) qurilish va savdo.

G'arbiy Yevropa kurortlarining ko'pchilik qismi qaysi davlatlarda joylashgan?

- A) Germaniya, Frantsiya, Italiya;
- B) Italiya, Turkiya, Yaponiya;
- C) Germaniya, Avstriya, Shveytsariya;
- D) Rossiya, Ispaniya, Ruminiya.

Dunuodagi qaysi davlat YAIM salmog'ining 30 % ini turizm sohasidan olib dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi?

- A) Chexiya;
- B) Argentina;
- C) Hindiston;
- D) Avstriya.

Frantsiya nechanchi yili turistlar qabul qilish bo'yicha lider davlat darajasiga chiqqan edi?

- a) 2004 yil;
- b) 2006 yil;
- c) 2008 yil;
- d) 2009 yil.

Frantsiyaning qaysi shahri "Turistik Makka" - deb nom olgan?

- a) Parij;
- b) Lyon;
- c) Marsell;
- d) Toulouse.

Luvr, Versal muzeylari, Eyfel minorasi, Dorse vokzali zallari qayerda joylashgan?

- a) Frantsiyada;
- b) Buyuk Britaniyada;
- c) Italiyada;
- d) AQShda.

Parijning "Yevro disneylend" parki nechanchi yilda qurilgan?

- A) 1993 yil;
- B) 1990 yil;
- C) 1994 yil;
- D) 1989 yil.

YI MAVZU. JANUBIY YEVIROPA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: O'rta Yer dengizi bo'yida joylashgan Janubiy Yevropa mamlakatlarning turizmni rivojlantirish omillari va sabablarini bilib olish hamda bu region mamlakatlarining turizmini o'ziga xosligini o'zlashtirish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

- 6.1. Janubiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi**
- 6.2. Italiya mamlakatining turizm holati**
- 6.3. Portugaliya mamlakatining turizm holati tahlili**
- 6.4. Ispaniya davlatining turizm holatini tahlili**
- 6.5. Gretsiya va Shimoliy Makedoniya turizmini rivojlanish**

holati tahlili

6.6. Bosniya va Gertsegovina, Sloveniya, Xorvatiya, Albaniya, Monako, Kipr va Malta mamlakatlari turizmi

Tayanch soʻz va iboralar:

Turizm, turist, xalqaro turizm, ichki turizm, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, plyaj turizmi, madaniy turizm, Oʻrta yer dengizi, Adriatika qirgʻoqlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г. - 458с.
4. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
5. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
8. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
9. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
10. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
11. Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.
12. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
13. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.UNWTO.org/).
14. [https://www.CNN.com/World's most popular destination revealed](https://www.CNN.com/) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
15. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
16. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
17. www.wikipedia.ru

18. <https://knoema.ru/atlas/>
19. <https://ru.unesco.org/>
20. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.

6.1. Janubiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

Bu regionga geografik jihatdan Yevropaning janubida hamda O'rta yer deb ataluvchi turizm uchun juda katta resursga ega bo'lgan dengiz bo'yida joylashgan mamlakatlar: Portugaliya, Ispaniya, Italiya, Gretsiya, Kipr, Malta va Adriatika dengizi bo'yidagi Albaniya, Bosniya va Gertsogovina, Xorvatiya va Sloveniya mamlakatlari kiradi. Bu region nafaqat yuqorida qayd qilingan dengizlar tufayli juda katta tabiiy resurslarga ega, balki Rim imperiyasi, hatto undan oldingi davrlardan beri tsivilizatsiyaning muhim qismi sifatida rivojlanib, tarixiy obidalarini yaratib kelmoqda. Janubiy Yevropa va umuman, O'rta yer dengizi bo'yidagi mamlakatlar keyingi o'n yilliklarda turizmni rivojlantirishga juda katta muvofaqiyatlarga erishganlar. Oldin Italiya, keyin esa Gretsiya, Ispaniya, Portugaliyalar jahon turizmining muhim markazlariga aylanishgan, hozir esa Adriatika dengizi bo'yidagi davlatlarda turizm jadal rivojlanib bormoqda. Bu regiondagi ko'plab mamlakatlarda turizm iqtisodiyotning ustuvor tarmog'iga aylanib, xalqni farovon qilishga xizmat qilib kelmoqda.

Janubiy Yevropa 2019 yilda yaxshi o'sishga erisha oldi (+12.8%), bu asosan quyidagi davlatlar hisobidan bo'ldi: Portugaliya (+16,5%), Kipr (+14,6%), Italiya (+11,2%).

6.2. Italiya mamlakatining turizm holati

Italiya ([ital.](#) *Italia*), rasman Italiya Respublikasi, Yevropaning janubida Apennin yarim oroli va O'rta yer dengiz havzasida joylashgan eng yirik orollar, [Sitsiliya](#) va [Sardiniya](#) orollarini o'z ichiga oladi. Italiya o'zining shimoliy chegaralarini Alp tog'lari orqali Frantsiya, Shveysariya, Avstriya, Sloveniya bilan bo'lishadi. Undan tashqari Italiya hududida San-Marino va Vatikan mustaqil davlatlari joylashgan.

Poytaxti Rim shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 301.2 ming kv. km., aholisi – 60.0 mln. kishi (2020 - yil), tili - italyan, dini - katolik, pul birligi - Italiya

lirasi edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Rim, Milan, Neapol, Turin, Genuya, Palermo. Milliy bayrami - 2 iyun - Respublika e'lon qilingan kun (1946 - yil).

Italiya yuqori darajada taraqqiy etgan industrial mamlakat. Italiyaning «Umumiy bozor»ga kirishi G'arbiy Yevropa integratsiyasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga imkoniyat yaratdi. Italiya iqtisodiyotida turizm sohasi katta o'rinni egallaydi. O'rta yer dengizidagi qulay dam olish va sayr qilish imkoniyatlari katta daromad manbai bo'lib hisoblanadi. Rim, Venetsiya, Florentsiyadagi tarixiy va me'moriy yodgorliklar turistlarni jalb etadi.

Italiyaning asosiy turistik resurslari: ko'llar va madaniy boyliklari, tog'lar. Rojdestvo bayrami, plyajlar, tog' chang'isiga mo'ljallangan kurortlar, an'anaviy oshxonalar, Rim va boshqa shaharlardagi me'moriy obidalar. Italiyaning turistik resurslari asosan mahalliy turistlarni emas, balki chet ellik turistlarni ko'proq jalb etadi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari. Klassik turizm - Rim, Vatikan, Neapol, Pompey, Florentsiya, Piza, Venetsiya, Milan kabi go'zal tarixiy shaharlarni tomosha qilishga kelishadi. Har yili xorijdan 60 mln. atrofida turistlar tashrif buyuradi. Xalqaro turizm markazlarining asosiy qismi shimoliy hududlarda joylashgan va unda Venetsiya shahri birinchi o'rinda turadi (har yili turistlarning 20 % shu shaharga albatta tashrif buyuradi). Keyingi o'rinlarda Toskano va Alto - Adidje (har biriga 13 %) hududlari egallaydi. Shop tur juda rivojlangan. Venetsiya shahridagi San - Marko bosh cherkovi, Florentsiyadagi Santa Mariya del Fore bosh cherkovi va boshqa ko'plab cherkovlar doimo turistlar bilan gavjum. Turistlarning asosan qo'shni davlatlar - Germaniya, Frantsiya, Avstriya, Shvestariyadan tashrifi va ularning bir kunlik yoki tranzit passajirlar ekanligi bilan xarakterlanadi. Rim, Florentsiya va Venetsiya kabi shaharlarga asosan AQSh va Yaponiyadan tashrif buyurishilar ko'p. Mavjud mehmonxonalar 1 - 5 yulduzli otellardir.

Italiyada turizm sanoatining rivojlanish hozirgi tarixi 100 yildan oshgan. Ushbu davr ichida mamlakat dunyoning asosiy turistik markazlaridan biriga aylandi. 1991 yilda O'rta Yer dengiziga keluvchi turistlar miqdorining uchdan biri Italiyaga to'g'ri kelar edi. 1983 yilda turizm sohasi va mehmonxona sanoatini rivojlantirish maqsadida turizmni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha asosiy qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda hududlarda turizmni boshqarish

organlari va ularning ish tartibi ko'rsatilgan. Mehmonxona xo'jaliklari klassifikatsiyasida transport va turistik byuroga turizm faoliyati bilan shug'ullanishga asos bo'luvchi shartlar, davlat tomonidan turizm sohasini qo'llab-quvvatlash choralari, turistik sohada professionallar faoliyatining nazorati ko'rsatib o'tilgan.

Chet ellik mehmonlarning ushbu mamlakatga kelish sabablarining 45%i mamlakatning tarixiy yodgorliklarini ko'rish, 43%i iqlimi, 27%i tabiati, 30%ga yaqini esa yuqoridagilarning barchasidan bahramand bo'lish tashkil etadi. Italiyada xalqaro turizm asosan shimolda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Masalan: 1990 yilda umumiy hisobga nisbatan chet elliklarning ushbu mamlakatda o'tkazgan turistik kunlarining 57%i shimolga to'g'ri keladi. Mahalliy turistlar dam olish kunlarini o'z viloyatlari kurortlarida o'tkazishga harakat qiladi. Buning sabablaridan biri quyoshli Frantsiyadagidek, bu yerda avtomobil yo'llarining rivojlanmaganligidir. Shuningdek, yozgi mavsumning yaxshi va mo'tadil kelishi shimoliy viloyatlar aholisini dengizga yaqin joylarda dam olishga undaydi.

Italiyaning Emiliya-Romanya, Venetsiya va Toskana viloyatlari aholisining dengizga chiqish imkoniyatlari bor. Lombardiya viloyatida esa qishki sport turlari rivojlangan. Shu sababli ushbu viloyatlarning har qaysisi ichki turistlarning 10%ini qabul qilish imkoniga ega. Turistlarning ko'plab kelishi asosan yozning iyul va avgust oylariga to'g'ri keladi. Bu holat dengiz bo'yi kurortlari uchun anchagina muammo tug'diradi. Chunki, mehmonxonalar fondi keladigan oqimni sarishta qilishga qiynaladi. Mehmonxonalarning asosiy qismi shimol va sharq tomonda joylashgan. Bu hududda esa mehmonxonalarning 46.1%igina joylashgan xolos. Mehmonxonalarning aksariyati Trentino-Alto-Adidje viloyatlarida joylashgan. Ular 18.5 % ni tashkil qiladi. Italiyaning markaziy qismida, ya'ni qirg'oq bo'yi tumanlarida asosan lager shaharchalar tarqalgan. Mamlakat janubida esa mehmonxona o'rinlarining yetishmasligi sababli turar joylar ijaraga beriladi. Ammo, turistlarning rejasiz va nazoratsiz joylashuvining ko'payib borishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1980 yillarda Yevropa hamjamiyati Italiyaning janubiy hududi – Medzodjornoda turizm infratizimini rivojlantirish bo'yicha umumiy miqdori 34.9 million EKYu bo'lgan qimmatbaho loyihani amalga oshira boshladi. Ushbu loyihaning maqsadi turizm sanoatini

rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, immigratsiyani to'xtatish hamda qoloq bo'lgan mahalliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish. Ushbu loyihani amalga oshirish natijasida yana qo'shimcha 65 ming nomerli mehmonxonada fondni tashkil qilindi.

Italiyada mehmonxonada yashash va ovqatlanish narxi geografik zona, fasl, mehmonxonada toifasi va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan birga ushbu narx tur mahsulotning umumiy hisobidan 60-65%ini tashkil qiladi. Italiyaga keluvchi turistlarning anchagina qismi Shveysariyadan keladilar. Germaniya, Frantsiya, Avstriyadan keladiganlarning ham hissasi katta. Ammo, ularning yarmidan ko'pini bir kunlik mehmonlar yoki tranzit passajirlar tashkil qiladi. Germaniyalik turistlar nafaqat soni bo'yicha ko'pchilikni tashkil qiladi, balki, ular hatto ushbu mamlakatda dam olishi davomiyligi bo'yicha ham yetakchilik qiladilar. Ammo, shuni ham inobatga olish kerakki, boshqa mamlakat turistlari, ya'ni AQShlik va yaponiyaliklar ushbu davlatda umumiy hisobda 1 hafta turadilar. Lekin mana shu qisqa fursat ichida, ular 3 ta madaniy markaz – Rim, Florentsiya va Venetsiyani ziyorat qilishga ulguradilar. Bu esa ularning aniq sayohat kunlarini hisoblashga qiyinchilik tug'diradi. Avstriyalik turistlarning yarmidan ko'pi dam olish soatlarini Adriatika qirg'oqlarida, chorak qismi shahar va 10%i esa tog'larda o'tkazadilar. Frantsuzlar ko'proq shahar kezadilar, 25%i esa dengiz yonida dam olishni xush ko'radilar.

Italiyaning turist eng ko'p keladigan provintsiyalari: Venetsiya (Venetsiya, Verona), Lombardiya (Milan shahri, Garda, Lago Maggiore, Komo va Iseo ko'llari), Lazio (Rim, Vatikan), Toskana (Florensiya va Piza shaharlari), Trentino -Alto Adige (Garda ko'li, Madonna di Kampiglio chang'i kurorti), Emiliya-Romagna (Bolonya, Rimini shaharlari), Kompaniya (Neapol, Pompey, Herculanium), Sitsiliya, Liguriya (Italiya Riviera, Genuya shahri). Shu bilan birga, eng uzoq vaqt (5 kundan ortiq) chet ellik sayyohlar Sardiniya, Kalabriya, Abruzzo, Marche viloyatlarida qolishdi.

Yevropadan kelgan sayyohlar va boshqa qit'alardan kelgan sayyohlarning qiziqishlari keskin farq qiladi. Chet ellik sayyohlar dengizda, Italiyadagi ko'llar va chang'i kurortlarida dam olishni deyarli qiziqitirmaydi. Uzoq mamlakatlardan kelgan sayyohlarning 80% dan ortig'i Italiyada madaniyat, san'at va tarixga qiziqadi. Yevropa mamlakatlaridan kelgan sayyohlarning deyarli yarmi Italiyaning kurort shaharlariga tashrif buyuradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayyohlarning qariyb 32 foizi faqat bitta shaharga - Rimga tashrif buyurgan. Taxminan 33% Italiyaga safari davomida 2 yoki 3 ta sayyohlik shaharlariga tashrif buyurgan, 35% i uchdan ortiq shaharlarga tashrif buyurgan. Sayyohlar Italiya shaharlari orasida eng go'zallari - Rim, Venetsiya va Florensiya deb hisoblanadi.

Mamlakatda xalqaro turizmni rivojlantirishda turizm bo'yicha milliy boshqarma (ENIT) katta ahamiyatga ega. Bu boshqarma chet mamlakatlarda ham o'z vakolatxonalariga ega. Ayrim mamlakatlarda u o'z faoliyatini "Alitaliya" davlat aviakompaniyasi va boshqa firmalar orqali amalga oshiradi. ENITning vazifasiga xalqaro turistik bozor konyunkturasi o'rganish, reklama tadbirlarini o'tkazish va chet mamlakatlarda o'z davlatiga nisbatan turistlar oqimini ko'paytirish kiradi.

Italiya keluvchilar soni bo'yicha jahonda beshinchi va turizmdan ko'riladigan daromad bo'yicha to'rtinchi o'rinni egallaydi (2019 yil). Uning turizmdan ko'radigan daromadi mamlakat YAIMning 12 foizini tashkil etadi. Italiya Qadimgi Rim tsivilizatsiyasining merosxo'ri va Yevropa tsivilizatsiyasining beshigi sifatida juda ko'p narsani asrab qolib bilgan hamda ularni restavratsiya qilishga ham juda katta mablag' ajratib kelayotgan davlatdir, ular mamlakatga turistlar oqimini ta'minlab beruvchi muhim omil sanaladi. Masalan, Rim kolizeyi 91.0 mlrd dollar, Vatikan muzeyi 90 mlrd. dollar deb baholanadi.

2013 yilda chet eldan Italiyaga eng ko'p kelgan davlatlar quyidagicha bo'lgan: Germaniya (10.3 mln), AQSh (4.5 mln), Frantsiya (3.9 mln), Buyuk Britaniya (2.9 mln), Sheytsariya (2.3 mln), Avstriya (2.1 mln), Rossiya (1.9 mln), Niderlandiya (1.9 mln), Xitoy (1.8 mln), Ispaniya (1.6mln.).

Italiyaning turli xil turistik resurslari ularga yurt ichida o'z ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi, ammo shunga qaramasdan iqtisodiyotning o'sishi hamda valyuta nazoratining soddalashtirilishi so'nggi yillarda chet ellarga chiqishni rivojlantirishga turtki berdi. Keyingi yillarda chetga chiqish turizmining o'sishi Italiya kurortlari ishini osonlashtirdi. Shu bilan birgalikda, Italiyaning tarixiy, madaniy yodgorliklari hali juda ko'p vaqtlar chet ellik mehmonlarni o'ziga jalb qilishi shubhasiz. Shuning uchun ularni asrash va turistlar oqimini turizm markazlariga yo'naltirishni boshqarish muhim vazifalardan

biridir.

Italiya ekoturizmining o'ziga xos xususiyati, uning agroturizm bilan birgalikda olib borilishidadir. Chunki agroturizmning davlat iqtisodiyotidagi o'rnini haqida alohida qonun 1985-yil 5-dekabrda qabul qilingan va shu kun agroturizm tug'ilgan kun hisoblanadi. Italiyaning Kampanya, Pule, Trentino-Alto-Adije, Marke va Kalabriya kabi provinsiyalarida agroturizm bilan ekoturizm birgalikda olib borilmoqda. Yigirmanchi asrning oxirgi 15 yil davomida mamlakatda qishloqda dam olishning mavqeyi ancha ko'tarildi. Agar 1985-yilda Italiya 550 ming agro-ekoturistlarni qabul qilgan bo'lsa, 1999-yilda bu ko'rsatkich 1,7 mln ga yetdi. Ular ichida chet mamlakatlardan kelganlar soni 10 foizdan 18 foizga oshdi. XX asrning 80-yillariga qaraganda bu sohada moliyaviy aylanma 7 marotabaga oshdi, ya'ni 85 milliarddan 615 milliard Italiya lirasini tashkil qildi. Bu o'rinda hukumatning asosiy diqqati agrar rayonlardan va aholi bandligi muammo bo'lgan janubiy rayonlar - Bazilikate, Pule, Kalabriya, Sitsiliya va Sardiniya kabi provinsiyalarga qaratilgan.

Italiya davlat statistika institutining (ISTAT) bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1998 yilda Italiyada agro-ekoturizm bilan shug'ullannuvchi 9718 ta agroxo'jalik ro'yxatdan o'tgan. Mazkur xo'jaliklarning 45 foizi Italiyaning shimoli – sharqiy qismida joylashgan bo'lib, ularning aksariyati Bolsano (27.6%) provinsiyasida joylashgan. Bugungi kunda Italiyada agro-ekosayyohlarni qabul qilish uchun jihozlangan dehqon uylarining soni 9 mingta bo'lib, ular bir paytning o'zida 125 ming sayyohni qabul qila oladi. Provinsiyalar orasida Toskana (34%), Umbriya (14%), Sitsiliya (7%) yetakchilik qilmoqda.

Agroxo'jaliklar turistik xizmat ko'rsatish bo'yicha 3 turga bo'linadi - tabiat va sog'liq, an'anaviy agrolandshaft, agrosport. Ularning birinchi kategoriyasi qishloq xo'jaligi va ekoturizmni birlashtirgan holda olib boradilar. Ular Kyanti, Umbriya, Sitsiliya provinsiyalari hamda mineral suvlar manbayi, qo'riqxonalar va milliy bog'lar atrofidagi hududlarda joylashgan.

Alp tog'i mintaqasidagi mamlakatlardagi kabi, Italiya dehqonlari xonadonlarida sayyohlarni qabul qilishda yagona tarif tizimi amal qiladi va ularda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatga qarab «gul» belgisi uy oldiga ilib qo'yiladi. Mamlakatdagi ko'pgina agroekoxizmatlar (85% atrofida) 2-3 «gulli» xizmat darajasidagi

xonadonlardir. Ularda yashash narxi o'rtacha \$32 - \$75. Besh «gulli» xonadonlarda xizmat haqi o'rtacha 60 dollardan boshlanadi. Italiyaning janubida vaziyat birmuncha boshqacharoq, Yashash uchun boshlang'ich narxlar Shimoliy Italiyaga nisbatan 7—10% arzonroq bo'lib, Kalabriya, Bazilikate, Pule, Sitsiliya va Sardiniyada faqat ikki davrga ajratiladi.

Italiya poytaxti Rim shahri ichida joylashgan **Vatikan**, davlat-shahar (lat. Status Civitatis Vatican, ital. Stato della Citte del Vaticano), dunyodagi eng kichik davlat, Rim shahri hududida joylashgan bo'lib, Italiyadan to'la mustaqildir. Ushbu davlatning nomi balandlik nomidan olingan. Mons Vaticanus, lotin tilidan vaticinia - "fol ochish joyi" ma'nosini bildiradi. Vatikan Rimning shimoli - g'arbidagi Vatikan tepaligida, Tiberdan bir necha yuz metr narida joylashgan. Faqat Italiya orqali o'tadigan davlat chegarasining umumiy uzunligi 3.2 kilometrni tashkil qiladi. Chegara asosan noqonuniy o'tishni oldini olish uchun qurilgan mudofaa devoriga to'g'ri keladi. Aziz Butrus Bazilikasi oldida chegara-tasvirlar shaklidagi kvadratning chekkasi (maydon qoplamasida oq toshlar bilan belgilangan).

Xalqaro huquqda Vatikan - Muqaddas Prestolning yordamchi suveren hudud maqomiga ega bo'lib, Rim-katolik cherkovi yuqori diniy rahbarlarining qarorgohidir. Vatikan suvereniteti o'z-o'zidan kelib chiqqan holat bo'lmasdan, Muqaddas Prestolning suverenitetidan kelib chiqqan. Vatikan davlatidan Muqaddas Prestol, Rim Papasi qarorgohi va unga xizmat ko'rsatadiganlar joylashgan maskan sifatida foydalaniladi.



Rasm-6.1. Vatikan xaritasi

Vatikan notijorat rejalashtiriladigan iqtisodiyotga ega. Daromad manbasi - birinchi navbatda, dunyo katoliklarining hadyalari bo`lib hisoblanadi. 2003 yilda davlat daromadlari 252 million dollarni tashkil qilgan bo`lsa, xarajatlar - 264 mln.ni tashkil qilgan. Bundan tashqari, turizm sohasi ham katta daromad keltiradi (pochta markalari savdosi, Vatikan yevro tangalarini sotish, suvenirlar, muzeylarga tashrif buyurishga qilinadigan xarajatlar). Vatikan byudjeti 310 mln. dollarni tashkil etadi.

Aholisiga kelsak, 2005 yil 31 dekabrda 557 nafar fuqaro mavjud bo`lgan, shu jumladan 58 nafar kardinal, 293 nafar kishi dindor mavqeiga ega bo`lib, Papa hukumati a`zolari bo`lib hisoblanadilar. 62 nafar kishi - boshqa din vakillari, 101 nafar shveytsar gvardiyasi vakillari va qolgan 43 kishi oddiy insonlar. 246 fuqaro o`zining birinchi fuqaroligini saqlab qolgan.

Vatikanda jahonga mashhur me`moriy durdonalar joylashgan. Ular - Avliyo Pyotr Bosh cherkovi va maydoni, Vatikan muzeylari, Sikstin kapellasi va boshqalar, shuningdek mashhur Vatikan kutubxonalari. Avliyo Pyotr Bosh cherkovi (ital. Basilica di San Pietro; Bazilika Svyatogo Petra) - katoliklarning bosh cherkovi (sobor), Vatikanning eng yirik me`moriy obidasi bo`lib, ayni kungacha duyoning eng katta xristianlik sobori bo`lib hisoblanadi. Rim-katolik cherkovining marosimlar markazi bo`lib hisoblanadi. Soborning umumiy balandligi 125 m. Bu tarixiy obidalarni ko`rish uchun turistlarning keti uzilmaydi.

San-Marino. San-Marino har tomondan Italiya bilan o`ralgan kichik davlatdir. Uning maydoni 60 kv.km. Aholisi esa 34590 ming kishi (2020y.). Bu Yevropadagi eng qadimiy davlat va dunyodagi eng kichik davlatlardan biridir.

Uning hududida qadimiy yodgorchilikning ko`plab namunalari saqlanib qolgan. Poytaxtining nomi mamlakat nomidek bo`lib, Titano to`g`ining yon bag`rida joylashgan. San-Marino to`qqiz qadimiy qal`adan iborat bo`lib, ular ham shahar – kommunalardir: Akvaviva, Bordo, Maggiore, Domagnano, Chiesanuova, Montegiardino, Serravalle, Faentano, Fiorentino va shu nomdagi poytaxt - San-Marino.

Mamalaktning diqqatga sazavor joylari ushbu tog`ning uchta cho`qqisida joylashgan – uchta minoradir (Gaita, Chesta va Montale).

Ularning tarixi XI asrdan boshlanadi. Ular qadimiy respublikaning ramzi sanaladi.

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari: bank, turizm, elektronika va vinochilikdir. Davlat daromadining muhim qismi pochta markalari (YaIMning 10 foizini beradi) va esdalik savg'otilari sotishdan keladi.

Bu mitti davlatda bayramlar juda bisyor. Ulardan eng mahhuri "O'rta asr kunlari" sanaladi. O'sha kunlar mamlakat har jihatdan (kiyimlar, musiqalar, bozorlar, ovqatlar...) o'rta asrlar qiyofasini oladi. Bu yerda Italiyadan narxlar 20 foizga arzon, chunki boj olinmaydi. Shahar markazi kichik do'konlar, brend butiklar va yodgorlik do'konlari bilan to'lib toshgan. Bu yerda sifatli narsalarni ancha arzon olish imkoni bor, jumladan, sifatli zargarlik buyumlarini o'z narxida sotib olishingiz mumkin. San - Marinoda muzeylar kam – Zamonaviy san'at galeriyasi, San-Marino Milliy muzeyi, Qiynoq qurollari muzeyi, Vampir muzeyi, Aviatsiya muzeyi, San-Marino tarixiy markazi, ammo ular juda original eksponatlar bilan jihozlangan. Shuning uchun ham xorijliklarni o'ziga jalb qiladi.

6.3. Portugaliya mamlakatining turizm holati tahlili

Portugaliya Yevropaning janubi-g'arbida, Pireney yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan mamlakat. Unga Atlantika okeanidagi Azor va Madeyra orollari ham kiradi, u boy tarixiy va arxitektura yodgorliklariga hamda qiziq an'analarga ega. Mamlakatning maydoni uncha katta emas (hududi 91.985 kv.km.), aholisi ham 10.3 mln kishini (2020yil) tashkil etadi. Ammo, nisbatan kichkina territoriyada YUNESKONing jahon madaniyati va tabiati merosi xalqaro ro'yxatiga kiritilgan 15ta ob'yekti joylashgan. 2018 yilda bu mamlakat turizm sohasiga taaluqli 16 ta, shu jumladan "World Travel Awards" ning mukofotlarini olgan. Portugaliyaga tinch, sokin hayot, o'ziga xos mahalliy vino va gostronomiyasi hamda Atlantika okeaninng suv osti olamini tadqiq etishdagi taasurotlar uchun borishadi.

Portugaliya industrial-agrar mamlakat. Yevropa Ittifoqi a'zosi. Yirik shaharlari Lissabon, Portu, Braga, Setubal va Evora. Portugaliya davlati qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi.

Portugaliya Ispaniya turizm sanoatidan hajmiga nisbatan ancha farq qiladi. Ammo, ularning umumiy tomonlari ham ko'p. Masalan:

ikkala mamlakatda ham turistik sektor katta bo'lmagan hududlarda: mamlakat ichkarisida va Janubiy qirg'oqlarda joylashgan. Shimoliy Atlantik qirg'oqlarida esa turistlar kam. Portugaliya Ispaniya kabi Atlantika okeanida hamda Afrikaning g'arbiy qirg'oqlaridagi o'z hududiga ega. Bu Modeyra orolidir. Bu yerdagi iqlimning yumshoqligi kishilarni dam olishga jalb qiladi.

Portugaliyaga xalqaro turizm keluvchilar soni 2018 yilda 20.6 mln. kishini tashkil etgan. Portugaliya bir yilda 20 millionga yaqin turistlarni qabul qilinsada ularning asosiy qismini quyoshli Ispaniya mamlakatining bir kunlik turistlari tashkil etadi. Portugaliyada xalqaro turizm asosan yigirmanchi asrning 80 va 90 yillarida jadal rivojlandi.

Kelganlar ichida Buyuk Britaniyaliklar birinchi o'rinni egallaydi (2 mln.kishi), undan keyin Frantsiya va Ispaniya turadi. To'rtinchi o'rinni Germaniyadan kelganlar egallaydi. Undan keyingi o'rinlarni Braziliya va Italiya turadi. Portugaliyaning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 24.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Portugaliyada xalqaro turizm chetga chiquvchi turistlar soni 2018 yilda 2.5 mln. kishini tashkil etgan. Portugaliyaning poytaxti Lissabon shahrida 2018 yilda ijaraga berilgan uylarning 34 foizi turistlarga berilgan.

6.4. Ispaniya davlatining turizm holatini tahlili

Ispaniya davlati Yevropaning janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Pireney yarim orolining deyarli 80%ni, O'rta yer dengizidagi Balear va Atlantika okeanidagi Kanar orollarini o'z ichiga oladi. Poytaxti Madrid shahri. Iqlimi - quruq subtropik iqlim. Davlat tuzumi - qirollik. Maydoni – 504.75 ming kv. km., aholisi – 46.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peseta edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Jahonni yirik turizm markazlaridan biri. Yirik shaharlari: Madrid, Barselona, Valensiya, Sevilya, Saragosa, Bilbao, Malaga. Milliy bayrami - 12 oktyabr - Ispan Milliy Kuni (1492 - yil). Bu mamlakat sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Turizm Ispaniya iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ispaniya asosan ommaviy plyaj turizmiga ixtisoslashtirilgan va u bu borada dunyoning asosiy turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Turistlarga 6 mln. kishi xizmat

qilishadi. Turistik regionlari: Kataloniya, Barselona, Lerida, Kosta Brava, Valensiya, Mursiya, Andalusiya, Rioxa, Kastilya - La - Mancha, Estremadura, Madrid. "Ispaniya madaniyati" mavzusidagi ekskursiya: Malaga, Granada, Sevilya, Madrid, Toledo, Kordorado, Kosta - del - Sol. O'rta yer dengizi sohilidagi Benidorm, Salou, Torremolinos kurortlari, Balear orollari, plyajlari, milliy istirohat bog'lari, chang'i stantsiyalari, golf o'yinlari, ovchilik, ot sporti.

Ispaniyaning eng asosiy turizm turlari: yozgi dam olish va plaj. Turizmning bu turi Ispaniyada yaxshi rivojlangan va bugungi kunda Ispaniya iqtisodiyotining katta qismini tashkil qiladi. Ispaniyada 2000dan ko'proq plajlar bor, ularning eng mashhurlari: Kosta-Brava, Kosta-Dorada, Kosta – Blanka, Kosta-del - Sol.

Madaniy turizm Ispaniyaning 2 ta katta metropolislarida: Barselona va Madridda rivojlangan. Madrid Ispaniyaning eng katta turistik shahri hisoblanib, u Yevropada 4-o'rinni egallaydi. Shuningdek, Madridda biznes turizm rivojlangan, bu yerda BTTning shtab kvartirasi joylashganligi uchun bir yilda bir necha marta konferensiya va majlislar o'tkaziladi.

Ispaniya tog' turizmi bo'yicha Yevropada 2-o'rinni egallaydi, yuksak tog'lari va yaxshigina chang'i uchadigan maydonlari "Pyrenees", "Sistema Central", "Sistema Ibérico" va "Sierra Nevada"da joylashgan. Eng sevimli va eng ommabop sport bu futboldir. U mamlakatga ko'plab turistlarni olb keladi. Formula-1 ham juda mashhur. Andaluziya ot sporti va otda sayr qilishda juda nom qozongan. Mamlakatda golf ham mashhur, bu yerda 165dan ortiq golf o'ynash maydonlari mavjud.

Tarixiga nazar solsak, Birinchi va Ikkinchi Jahon urushi oralig'idagi Ispaniya (undan oldingi davrlarda ham) turistlarni o'ziga jalb qilmas edi. Chunki 1936-39 yillarda bo'lib o'tgan fuqarolar urushi natijasida mamlakat iqtisodiyotini tang ahvolda qolganligi sababli mamlakat juda faqirlashgan edi. Bu davrda Italiya, Frantsiyaning Lazur qirg'og'i, shuningdek Alp tog'lari doimiy turistik markaz hisoblangan. Ushbu davrda ispan hukumati turizm tarmog'ining milliy iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rnini tan oldi va turli yo'llar bilan (Masalan: otel qurish uchun ssuda berish va h. k.) uni rag'batlantirish siyosatini o'tkaza boshladi. 1959 yilda bir yo'la chet el investitsiyalari uchun mamlakat iqtisodiyoti ochildi va milliy valyuta (peseta) devolvatsiya qilindi. Buning natijasida Ispaniya o'z qirg'oqlariga

Italiya va Frantsiyaga nisbatan turistlarni ko'proq jalb qila boshladi. Buning natijasida mamlakat turistik markazga aylana bordi. Ispan hukumati mamlakat iqtisodiyotining xususiy tarmog'i turizm bilan jiddiy shug'ullana boshladi va 60-yillarning boshlarida O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida yangi otellar, apartamentlar (hashamatli binolar) va villalar hech bir qanday reja va koordinatsion siyosatsiz qurildi. Buning natijasida 10 yil ichida turistlar soni qariyb 4 baravar oshdi va 1970 yilda 24 mln. kishiga yetdi. Keyinchalik havo transportining ekspansiya qilinishi va Shimoliy Yevropa bozori uchun Ispaniyaga o'tish imkoniyati yaratildi, bu esa o'sishni ortirdi.

Turizmning jadal ravishda o'sishi Ikkinchi Jahon urushidan keyin sezildi. Turistlar soni 1950 yilda 3 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, 1990 yilda 34,3 mln kishiga yetdi. Turizm rivojlanishi mamlakatning O'rta Yer qirg'og'i va Balear orollaridagi turizm rivojiga bog'liq. Ispaniyaning Atlantika qirg'oqlarida turizm nisbatan kam rivojlangan. Ispaniyaga tegishli Kanar orollari ancha janubda joylashgan. Shu sababli ko'p turistlar bu yerga asosan qishki ta'tillarini plyajlarda o'tkazish uchun keladilar.

Turizm Ispaniya iqtisodiyotida juda muhim o'rin egallay bordi. 60-yillarning o'rtalarida 500 ming kishi uchun, 1975 yilda 1 mln. kishi uchun yangi ish joylari tashkil qilindi va mamlakatga chet el valyutasi kiritildi (1975 yilda turizm ispan eksportining 1/4 qismini tashkil qilar edi). Shu sababli ispan hukumatining keyinchalik ham mamlakatning turistik sektorini qo'llab-quvvatlashi ajablanarli hol emas. Ammo, turizmda nazoratning yo'qligi va jadal o'sish atrof-muhitning vayron bo'lishiga sabab bo'ldi hamda o'rta Yer dengizida turizmning jadal sur'atlarda rivojlanishi mamlakat demografiyasiga ham ta'sir etdi. Chunki ushbu hududda aholining o'sishi ham ko'paydi.

Yigirmanchi asrning 70 -yilning o'rtalariga kelib turizm mamlakatda yanada rivojlandi, ommaviy turizm talablarini to'laroq qondirish uchun katta zamonaviy yotoqxonalar qurilishi ishlari boshlab yuborildi. Shu davrda Ispaniyada ommaviy turizmning talablarini qondirish uchun katta zamonaviy mehmonxonalarning qurilish ishlari boshlandi. 80-yillarda turizm Ispaniya iqtisodiyotida muhim rol o'ynashda davom etdi va mamlakat potentsial ishchi kuchining 11%i ish joylari bilan ta'minlandi hamda Ispan eksporti 33.4% ni tashkil qildi. O'tgan besh yil oralig'ida (1988-1992 yillar) chet el turistlarining umumiy soni bir me'yorda saqlanib keldi, ya'ni 1

yilda turistlar soni 34-35 mln. kishini tashkil qildi. Ispaniya bozorini asosan Frantsiya, Germaniya, Niderlandiya va Italiya ta'minlaydi. Mazkur mamlakatlardan keluvchi turistlar 1988-1992 yillarda keskin tarzda qisqardi. Ushbu negativ holatlarga javoban aksariyat kurort rayonlarda atrof-muhitni yaxshilashga e'tibor berila boshlandi. Shu maqsadda avtomobil transporti harakati qisqartirildi, yam-yashil parklar tashkil qilinib, daraxtlar ekildi, ko'cha va plyajlar tozalandi. Shuningdek, yangi dam olish zonalari qurildi. Bundan tashqari, turistlarni joylashtirish uchun yangi joylar, ko'ngil ochar tadbirlar uchun mablag'lar ajratildi. Masalan: Benidorm, Salou, Torremolinos va Balear orollaridagi turizm sanoati qayta jihozlandi. 1992 yilda Barselona shahrida olimpiya o'yinlari o'tkazildi. Sevileda esa "Ekspo-92" butun dunyo ko'rgazmasi tashkil qilindi. Bundan tashqari, Madrid Yevropaning madaniy shahri deb nomlandi. Bularning barchasi Ispaniyaning ulkan turistik mamlakat sifatida nom qozonishiga sabab bo'ldi. Ushbu davrda turizmning ispan agentligi o'z turistik markazlarini Buyuk Britaniyaga kiritish maqsadida 1.9 mln. ingliz funt sterlingini ajratdi. Bu tadbir turistlar ko'payishiga olib keldi. 70-80-yillarda Ispaniyaning ichki turizmi ham faol rivojlana boshladi. Shu bilan birga mamlakat fuqarolari ko'proq qirg'oq kurortlariga qatnay boshladilar. Dam oluvchilar aholining 41%idan 53.4%igacha ko'tarildi. Shunday qilib, O'rta Yer dengizi kurortlari mahalliy va chet el turistlarini qabul qilishda yetakchilik qila boshladi. Ammo, bu yerda Frantsiya yoki Italiya kabi tig'izlik yo'q. Bu esa Ispaniyaning ichki turizmi G'arbiy Yevropa o'lchamlariga nisbatan katta emasligidandir. Ichki turizmning o'sishi Buyuk Britaniya turistlarining Kosta-Brava, Kosta-Blanka, Kosta-del-Sol kurortlariga kelishining qisqarishini qopladi. Ammo, XXI asrning birinchi ikki o'n yilligida ham Ispaniyaga keladigan turistlarning soni oshib bordi.

Ispaniyaga qariyb 84 mln. xorijiy turist kelgan (2019y). Bu ko'rsatgich bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda. Buyuk Britaniyadan 18 mln. kishi, Germdniyadan 11.2 mln kishi, Frantsiyadan 11.1 mln kishi kelgan, AQShdan 3.0 mln kishi va Rossiyadan 1.3 mln kishi kelgan. Eng ko'p Kataloniyaga (19.4 mln.), Balear orollari (13.7 mln.) va Kanar orollariga (13.1mln.) kelishgan. Ispaniyaga turistlar o'rtacha 7.4 kunga kelishadi (oldingi yillardan kamayib bormoqda). Transport kommunikatsiyalari diqqatga sazovor. Temir yo'llar, avtomobil yo'llari, dengiz transporti, aeroportlar xizmat ko'rsatish jihatidan

nihoyatda rivojlangan.

Xorijiy turistlarning 2019 yilda qilgan xarajati 92.3 mlrd. yevroni tashkil etgan (bu ko'rsatgich bo'yicha ham u AQShdan keyin jahonda ikkinchi o'rin). Har bir turistga 1098 yevrodan to'g'ri keladi, Ispaniyaning birinchi raqibi Turkiyada har bir kishi 617 dollar xarajat qilishgan, shuning oqibatida Ispaniya umumiy holda Turkiyadan turizmdan uch marta ko'p daromad ko'rgan (Turkiyada 29.5 mlrd doll). Yana shuni aytish kerakki, Ispaniyaga kelib, kechasi yotmasdan ketadigan turistlar (asosan Frantsiya va Portugaliyadan) 2019 yilda 34 mln. kishini tashkil etgan.

Ispaniyadan xorijga chiqish turizmi sust rivojlangan. Ammo, o'sish darajasi sezilarli. Birinchidan, mamlakatdan chiquvchi turistlarning umumiy soni nisbatan kam, biroq ularning quyoshli davlatlarga chiqishi tez-tez uchramoqda. Masalan: Portugaliyaga chiquvchi turistlarning soni 1986 yilda 2.5 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1991 yilda 4.1 mln. kishiga ortdi. Ushbu davr ichida Frantsiyaga chiqish 1mln. kishidan 2.8 mln. kishiga yetdi. Yevropaning uzoq hududlariga turistlarning chiqishi juda sust holda edi. Ikkinchidan, nisbatan arzon bo'lgan turistik markazlar hisoblanmish Gretsiya, Marokash, Portugaliya, Tunis va Turkiyaga chiquvchilar soni jadal o'sdi va ular 30-60%ni tashkil qildi. Qimmat hisoblanmish Frantsiya, Italiya va Buyuk Britaniya mamlakatlariga chiqish holatlari kamaydi. Uchinchidan, havo transporti bilan sayohatga chiquvchi ispanlar chet elga chiquvchi turistlarning 7.5%ini tashkil qiladi. Mamlakatlarga chiquvchi turistlarning 90%i quyoshli mamlakatlarga avtomobillarda boradilar. Uzoq masofaga chiquvchi turistlarga asosan biznes bilan shug'ullanuvchi turistlar kiradi.

6.5. Gretsiya va Shimoliy Makedoniya turizmini rivojlanish holati tahlili

Gretsiya Yevropaning janubi-sharqiy va Bolqon yarim orolining janubiy qismida O'rta yer va Egey dengizlari qirg'og'ida joylashgan qadimiy davlat. Poytaxti Afina shahri. Iqlimi - subtropik iqlim. Davlat tuzumi - parlamentli respublika. Maydoni – 131.9 ming kv. km., aholisi – 10.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - grek, dini - pravoslav, pul birligi - draxma edi, 2002 -yil 1 - yanvardan boshlab yevro. Yirik shaharlari: Afina, Saloniki, Patri. Milliy bayrami - 25 mart -

Mustaqillik kuni (1821 - yil).

Gretsiya industrial-agrar davlat bo'lib, o'rtacha iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha, Yevropa mamlakatlari ichida eng oxirgi o'rinlardan birini egallaydi. 1980 yillarda tarkibiy qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy inqiroz ro'y beradi. Bu jarayon asosiy iqtisodiy tarmoqlarda kuzatiladi. Faqat 1990 yillar boshlaridan iqtisodiy yuksalish boshlanadi, jumladan, qishloq xo'jaligida o'sish 1%, sanoatda 0,4%, xizmat sohaslarida 2,2% ga o'sish kuzatildi.

Gretsiya jahon madaniyatining muhim o'chog'idir. Elladaning jahonga mashhur arxeologik va me'morchilik yodgorliklari Afinadagi Akropol, Korinf, Miken, Olimp ma'budalari va boshqalar dunyo aholisini o'ziga jalb etib kelgan. Qadimgi yunon olimlari va donishmandlarining asarlari hozirgi zamon ilm-fani uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu yerdan Yevropa poeziyasi, dramaturgiyasi boshlanadi. Qadimgi Elladada demokratiya asoslari yaratilgan, Afinada demokratiya asoslari yaratilishining 2500 yilligi tantanali ravishda bayram qilindi.

Gretsiyaning 1400 dan ortiq orollari mavjud, shulardan 169 ta orollari dam olish, turizm uchun mo'ljallangan. Gretsiyada 404 ta plyajlari "Ko'k bayroq" bilan mukofotlangan, 51 ta port, 752 ta issiq suv buloqlari mavjud. Ular davolanish uchun mo'ljallangan kurort zonalar va sanatoriyalari hisoblanadi.

Gretsiyada turizm iqtisodiyotning ustuvor taqmog'i hisoblanadi. Antik davrdan beri hozirgi kungacha Gretsiya Yevropaliklar uchun eng asosiy turistik yo'nalish bo'lib kelmoqda.

Gretsiya azaldan o'zining tarixiy obidalari bilan o'ziga ko'plab turistlarni jalb qilib kelmoqda, shu bilan birga keyingi yillarda bu mamlakatda plyaj turizmi ham rivojlanmoqda. Gretsiya davlatining milliy turistik tashkilotining logotipi 9ta aylanadan ibotat, buning ma'nosi turizmning 9 yo'nalishini rivojlantirishga harakat qilamiz, deganidir. Gretsiya hukumati mamlakat agrar, Yevropa miqyosida nisbatan kambag'al davlat, ammo sog'lomlashtirish, qishki turizm, ziyorat turizmlarini rivojlantirishga katta mablag' ajratmoqda.

Qadimiy grek afsonalari, antik faylasuflar, teatrlar, me'moriy va haykaltaroshlik yodgorliklari - bularning barchasi mamlakatga turistlarni o'ziga jalb qiladi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: tarixiy ahamiyatga ega joylar - Afina (Attika), Peloponnes, Fessaliya, Epir, Makedoniya, Frakiya. Shaffov suv bilan o'ralgan ko'plab orollar, ularda esa toza plyajlar bor. Afinaning qadimiy madaniyati va tarixiy yodgorliklari juda mashhur. Afinadagi Parfenon me'morchiligi, Akropol va Likabet tarixiy tepaliklari. Perikl davri yodgorliklari, avliyo Georgiy cherkovi, Birinchi grek shohi Ottoning sobiq saroyi. Krit oroli - Zevs xudosi vatani. Tarixiy - madaniy turizm maqsadida - ispanlar va amerikaliklar ko'p kelishadi, orollarga esa nemislar, inglizlar, shvedlar va gollandlarning tashrifi ko'p.

Gretsiyaning turistik shaharlari: Afina - poytaxt va Yevropaning eng qadimgi shaharlaridan biri. Gretsiyaning asosiy tarixiy obidalari poytaxti Afinada joylashgan. Bulardan biri Gretsiya tsivilizatsiyasining ramzi hisoblanmish - Akropol, bu toshli tepalikning balandligi 156m. Tepalik o'rtasida mabuda Perfonon ibodatxonasi joylashgan. Ushbu ibodatxona milloddan avvalgi 448-438 yillarda qurilgan; Iya (Santorini, Kikladi) - juda qiziqarli shaharcha, u Santorini oroli qirg'og'ida joylashgan; Xora (Mikonos, Kikladi) - klub va diskotekalar oroli; Rodos (Rodos, Dolekanes) - bu yerda 7 mo'jizalardan biri Kolos Rodoskiy joylashgan; Iraklion (Krit) — Kritning eng qadimgi shaharlaridan biri, Saloniki - Gretsiyada kattaligi bo'yicha 2chi o'rinda turadigan shahar.

Gretsiya turizmi tarixiga kelsak, ko'p yillar davomida turizmning bir yo'nalishi - tarixiy, madaniy yo'nalishida rivojlanganligi sababli, ommaviy turizm uning uchun yosh yo'nalish hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushudan oldin asosan AQSh turistlarini jalb qilgan tarixiy-madaniy turizm urushdan keyingi yillarda jadal rivojlandi. Bu 1967 yilgacha, ya'ni mamlakatda harbiy to'ntarish sodir bo'lishi, harbiy hukumatning hokimiyat tepasiga kelishiga qadar davom etdi. Ya'ni, bu voqealar turizmning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1974 yilda Gretsiya qayta demokratik rivojlanish yo'liga o'tgandan keyin mamlakatda Frantsiya, Ispaniya kabi O'rta Yer dengizi mamlakatlari taniqli kurortlarga raqobat bo'lgan plyaj turizmi juda tez rivojlana boshladi. 70-yillarda Gretsiyaga asosan Buyuk Britaniya va Germaniyadan turistlar kelar edi. 80-yillarda Yevropaning turli mamlakatlari Gretsiyada ommaviy turizmning boshqa turlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdi. Bunga uning qulay geografik

joylashuvi va barqaror iqtisodiy, siyosiy holati turtki bo'ldi. Ammo, Gretsiyaning turizm sanoati hali ham uncha katta emas edi. 1992 yilda bu yerga tashrif buyuruvchi turistlar soni faqat 9.7 mln. ni tashkil qildi. XXI asrning birinchi ikki o'n yilligida turizm mamlakatda jadal rivojlanib ketdi, xorijdan keladiganlar soni 30.0 mln.dan oshib ketdi.

2018 yilda bu mamlakatga kelgan turistlar soni 33 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakat YAIMning choragini turizm bermoqda. Ish bilan bandlarning 16 foizi shu tarmoqda ishlaydi. Gretsiyaga keladigan turistlar ichida birinchi o'rinni Buyuk Britaniya (3.3 mln.) egallaydi.Undan keyin Germaniya (2.9 mln.), Italiya (1.6 mln), Frantsiya (1.1 mln.), Rossiya 0.82 mln.), Niderlandiya (0.75 mln.), Polsha (0.73 mln.), Kipr (0.73 mln.), Sheytsariya (0.64 mln.), Shvetsiya (0.57 mln.) egallaydi. Britaniyaliklar Gretsiyaga asosan dam olish uchun keladilar. Ularning 3%igina madaniy-tarixiy yodgorliklar bilan qiziqishadi. Ispanlar, yaponlar va italiyaliklar esa aksincha madaniy-tarixiy turizmni xush ko'radilar. Ispaniyaliklar va meksikaliklar asosan tarixiy yodgorliklarga boy bo'lgan mamlakat poytaxtida, germaniyaliklar, britaniyaliklar, shvedlar va gollandiyaliklar orollarda dam olishni ma'qul ko'radilar

Gretsiyadan xorijga ketganlar soni 2018 yilda qariyb 8.0 mln.ni tashkil etdi, yani mamlakatga keladiganlardan 4 marta kam, bu mamlakatni hali nisbatan kambag'alligidan dalolat beradi.

Shimoliy Makedoniyada turizm milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Mamlakatda tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarning ko'pligi uni sayyohlik uchun moslashtiradi. 2019 yilda Shimoliy Makedoniyaga 1 million 184 963 sayyoh keldi, ulardan 757 593 nafari chet eldan kelgan.

Skopye, poytaxt va eng katta shahar, mamlakatning shimoliy qismida Vardar daryosida joylashgan. Skopye uzoq tarixga ega, buni Skupi va Skopye suv o'tkazgichi kabi ko'plab arxeologik joylar, shuningdek, Usmoniylarning ko'plab binolari va yodgorliklari, xususan Mustafo Posho masjidi kabilar mavjud. Bugun 500 mingdan ortiq aholisi bo'lgan Skopye muzeylari va ko'plab madaniy va sport tadbirlari bo'lgan zamonaviy shaharga aylanmoqda.

100 mingga yaqin aholisi bo'lgan ikkinchi yirik shahri bo'lgan Bitola mamlakatning janubiy qismida joylashgan. Mamlakatning ko'plab shaharlari singari Bitola ham boy tarixga ega.

Ohrid, YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatidagi shaharlardan biridir. Shahar, mamlakatdagi eng mashhur sayyohlik joyidir, chunki mamlakatning ko'p plyajlari shu yerda joylashgan. Ohridda Samyuel qal'asi va Antiqa teatri, Avliyo Pantelemon cherkovi, Avliyo Sofiya cherkovi kabi ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Kaneo shahridagi Seynt Jon cherkovi, Sankt-Naum monastiri, Robevi va Plaosniklar oilasi uyi. Sohil bo'yida Trpeitsa, Pestani, Elsani va Lubanista kabi bir nechta chiroyli baliq ovi va tog' qishloqlari mavjud.

Shimoliy Makedoniyaning eng yirik arxeologik joylaridan biri bo'lgan Heraclea Linkestida Bitolada joylashgan. Bitolaning uzoq tarixini ko'plab neoklassik binolar, Usmoniy binolari va Jome masjidi kabi yodgorliklar va eski cherkovlar ham tasdiqlaydi. Shahar shuningdek, mahalliy aholining va yaqin qo'shnilar uchun shopping turizm, arzon tovarlar xarid qilish joyidir, Magnoliya maydoniga olib boruvchi cheksiz do'konlar va restoranlar bilan to'ldirilgan piyodalar ko'chasi Shirok Sokak bu uchun xizmat qiladi. Shahar markazidan 12 km uzoqlikda Baba tog'ida joylashgan kichik tog' 'chang'i kurorti joylashgan bo'lib, u may oyidan sentyabrgacha turistlarni qabul qiladigan ajoyib sayyohlik manzili hisoblanadi.

Vardar daryosining sharqidagi eng katta shahar Shtip mamlakatning sharqiy qismida joylashgan. Stip kamida 2000 yil davomida mavjud bo'lib, buni Astibo, Bargala va Estipeon kabi ko'plab arxeologik joylar tasdiqlaydi. Shahar shuningdek, Kezhovitsa mineral buloqlarining shifobaxsh suvlari joylashgan. Bugungi kunda Stip - Shimoliy Makedoniyaning sharqiy qismidagi asosiy madaniy va iqtisodiy markaz sanaladi.

Kratovo - mamlakatning sharqiy qismida joylashgan kichik shaharcha. U Osogovo tog'ining g'arbiy yon bag'irlarida dengiz sathidan 600 metr balandlikda joylashgan. Yumshoq va yoqimli iqlimi bilan mashhur, u so'ngan vulqon kraterida joylashgan. U ko'priklari va minoralari bilan Krusevo Shimoliy Makedoniyaning eng baland shahri bo'lib, dengiz sathidan 1350 metr balandlikda joylashgan. Shu yerda 1903 yilgi qo'zg'olon maydoniga aylangan tarixiy belgi bo'lgan Mechkin Kamen joylashgan. Har yili 2 avgust kuni bu yerda Makedoniya mustaqilligi kunining an'anaviy tantanalari bo'lib o'tadi, unda prezident ishtirok etadi. Krusevoda Ilinden qo'zg'oloni va Krusevo Respublikasiga bag'ishlangan Makedoniya yodgorligi, shuningdek Ilinden qo'zg'olonining ko'plab muzeylari mavjud.

Balandlikda joylashgan Krusevo - Shimoliy Makedoniyada qishki sport turlari uchun joylardan biri hamdir.

Shahzoda Marko Markovi Kuli minoralariga yaqinligi sababli "Marko minoralari ostidagi shahar" sifatida tanilgan. O'rta asr shahzodasi Marko Mrnavceovichning minoralari kichik granit toshlar bilan o'ralgan tik yon bag'irlari bilan o'ralgan 120-180 metr balandlikdagi tepalikda joylashgan. Treskavets monastiri, XII asrda Zlatovrva cho'qqisi ostida, Prilepdan 10 km. shimolda tog'larda, dengiz sathidan 1100 metr balandlikda kichik baland tekislikning chekkasida qurilgan. Prilep 14-15 asrlarga oid freskalar bilan bezatilgan va qadimgi Rim imperiyasi davri shahri Kolobez joylashgan.

Shimoliy Makedoniyada uchta milliy bog' va 33 ta qo'riqxonalar mavjud: Mavrovo mamlakatning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uchta milliy bog'ning eng kattasidir. Bir nechta daryo vodiylari, daralar, sharsharalar, g'orlar va boshqa morfologik shakllanishlar mavjud. Mamlakatning janubiy qismida Bitola yaqinida joylashgan Pelister uchta milliy bog'ning eng kichigi hisoblanadi. Bog' Baba tog'ini o'rab turgan yerlardan iborat. Tog'ning tepasida Gorski Ochi yoki tog' ko'zlari deb nomlangan ikkita muzli ko'l bor. Ohrid ko'li va Prespa ko'li o'rtasida joylashgan Galitsika mamlakatdagi ikkinchi yirik milliy bog'dir. Park turli xil o'simlik va hayvonot dunyosining uyi bo'lib, Ohrid ko'lining ajoyib manzaralarini taqdim etadi.

Prespa ko'lining shimoliy qirg'og'ida joylashgan Ezereni qushlar qo'riqxonasi qat'iy qo'riqxonadir. Bu yerda 120 dan ortiq turli xil qush turlari yashaydi. Kavadarichdan 30 km janubi-sharqda joylashgan Tikvesh qat'iy qo'riqxonasi, taxminan 100 kvadrat kilometr maydonga ega bo'lgan qo'riqxonalar. Qo'riqxonada 23 turdagi yirtqich qushlar yashaydi, ularning 17 tasi shu hududda joylashgan. Tikvesh Yevropadagi qushlar hayotining eng muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Krusevo yaqinida joylashgan Lokvi-Golemo Konyari qat'iy qo'riqxonasi - bu bir vaqtlar ulkan botqoqning so'nggi qoldig'i bo'lgan qo'riqxonalar. Kumanovodan 30 km. uzoqlikda joylashgan Kokino - Stonehengega o'xshash megalitik rasadxona. Ushbu rasadxonaning yoshi 3800 yildan oshdi va dunyodagi eng qadimiy to'rtinchi rasadxona hisoblanadi.

Prilep yaqinida joylashgan Marko minorasi - bir nechta chiroyli haykallardan tashkil topgan toshli massiv. YUNESKOning Jahon merosi ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan. Kratovodan tashqarida joylashgan tosh Kuklitsa shaharchasi 120 dan ortiq tabiiy tosh ustunlardan iborat maydon.

Shimoliy Makedoniyaga kelgan mehmonlarning aksariyati quyidagi fuqarolik mamlakatlardan: (6.1.-jadval).

Jadval -6.1. Shimoliy Makedoniyaga turli mamlakatlardan kelgan sayyohlar dinamikasi

№	Mamlakat	2019	2018	2017	2016	2015
1.	Turkiya	112,472	111,667	129,708	105,738	90,857
2.	Serbiya	59,568	57,460	53,121	50,145	43,613
3.	Gretsiya	57,578	40,947	44,931	40,504	38,829
4.	Bolgariya	55,862	52,659	45,958	36,982	29,314
5.	Polsha	35,681	34,575	22,281	12,268	17,054
6.	Germaniya	34,342	30,173	23,544	17067	17,939
7.	Niderlandiya	31,481	27,918	26,889	23,960	32,217
8.	Albaniya	27,311	27,311	21,194	20,862	18,493
9.	Xorvatiya	25,533	23,829	15,860	13,918	17,054
10.	Kosovo	25079	24,014	17,494	17070	13,950
11.	Ruminya	18,984	16,727	15,044	9,256	8,071
12.	AQSh	18,285	17,916	15,163	11,495	10,186
13.	Sloveniya	17,953	16,890	12,815	9,971	11,463
14.	Italiya	13,757	13,403	11,124	11,515	12,444
15.	Xitoy	13,635	13,724	9,435	6,565	7,256
16.	Izroil	12,436	10,767	7,967	8,983	4,754
17.	Buyuk Britaniya	12,215	13,296	11,396	8,856	8,465
18.	Shveytsariya	11,188	11,530	8,557	6,495	5,617
19.	Avstriya	10,481	9,014	8,367	7,387	8,602
20.	Ispaniya	10,184	6,303	6,012	3,659	3,151
21.	Bosnya va Gersogovinya	9,728	8,508	7,199	6,922	5,686
22.	Belgiya	9,698	9,966	7,499	5,501	5,509
23.	Avstralya	9,511	9,701	8,228	5,557	6,625
24.	Frantsiya	9,445	9,030	8 , 008	6,231	7,603

25.	Shveytsariya	8,622	8,098	6,437	6,437	4,815
26.	Barcha xorijiy sayyohlar (ming kishi)	757,593	707,345	630,594	510,484	485,530

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Shimoliy Makedoniyaga tashrif buyuruvchilarning doimiy o'sishi kuzatilmoqda. Eng ko'p sayyohlarni qabul qilgan mintaqa Janubi-g'arb mintaqasidir, undan keyin Skopye va Janubi-Sharqiy mintaqalar. Chet ellik sayyohlar orasida Turkiya, undan keyin Gretsiya va Serbiya turadi.

6.6. Bosniya va Gertsegovina, Sloveniya, Xorvatiya, Albaniya, Monako, Kipr va Malta mamlakatlari turizmi

Bosniya va Gertsegovina - Janubi-Sharqiy Yevropada, Bolqon yarim orolining markaziy qismida joylashgan mamlakat. Poytaxti Sarayevo, maydoni 51.2 ming kv.km. Aholisi 3.6 mln.kishi. Yirik shaharlari: Sarayevo, Baniya-Luka, Tuzla, Zenitsa, Mostar.

Murakkab va qiziqarli tarixi, ko'plab diqqatga sazovor joylari va dam olish imkoniyatlari, yozi iliq va qishi sovuq bo'lgan, qishi yoqimli iqlimi, muhtasham Bolqon manzaralari bilan ajralib turadigan ushbu mamlakat bugungi kunda sayyohlarni tobora ko'proq jalb qilmoqda.

Turizmning tarmoqlari: Sog'lomlashtirish, ekoturizm, sport turizmi, tog' turizmi, chang'ida uchish, madaniy, gastronomik turizm, diniy va dengiz turizm turlari.

Bosniya va Gertsegovina hududining 90% ga yaqini tog'li. Sayohatchilar tog'larning cho'qqilariga chiqib, hayratda qolishlari mumkin, u yerda yozda ham qorlar erimaydi. Eng baland joy Maglik tog'idir, u dengiz sathidan 2386 metr balandlikda ko'tarilib, mamlakatdagi eng qadimgi milliy park Sutjeska bog'i hududida joylashgan.

Bosniya va Gertsegovina xalqaro darajadagi chang'i sportining markazi bo'lishiga munosib relyef, iqlim va rivojlanayotgan infratuzilma yordam bermoqda.

Qishki sport ixlosmandlari bu yerda ko'plab lagerlar, sport bazalari, turli xil qiyinlik va uzunlikdagi tosh bag'irlari, professional o'qituvchilar bilan chang'i maktablarini topadilar.

Bosniya va Gertsegovina shaharlari oxirgi urushlardan aziyat chekishgan bo`lsada, o`zlarining jozibalarini saqlab qolishgan.

Har doim salqin Neretva daryosi bo`yida joylashgan janubiy Gersegovinaning norasmiy poytaxti Mostar shahri juda go`zal. Shaharning chiroyli eski qismi 2005 yilda YuNESKOning Butunjahon merosi ro`yxatiga kiritilgan. Eng chiroyli Eski ko`prik nafaqat madaniy yodgorlik, balki bir necha asrlar davomida u mahalliy ekstremal sevuvchilarni jalb qilgan - ular 25 metr balandlikdagi ko`prikning qisqichlarini daryoga sevimli o`yin-kulgiga va pul ishlash uslubiga aylantirishgan va iyul oyi oxirida ular hatto xalqaro musobaqalarni tashkil qilishadi.

Sovet Ittifoqi davridan boshlab Bosniya va Gersegovina sharqiy lagerning asosiy kurorti sifatida obro`ga ega bo`ldi. Shubhasiz, mamlakat katta sayyohlik salohiyatiga ega. Unda hashamatli tabiat, boy tarix, rang-barang an`analar - qiziquvchan sayohatchini qiziqtirishi mumkin bo`lgan barcha narsalar mavjud. Bolqon mojarosi natijasida Bosniya va Gersegovinaning ba`zi diqqatga sazovor joylari vayron bo`ldi va endi mamlakat kuldan qayta tug`ilishni boshdan kechirmoqda.

Davlatning turizm sohasi (shuningdek, iqtisodiyotning boshqa sohalari) uzoq vaqtdan beri unutilib kelingan. Bosniya va Gertsegovinaning asosiy shaharlarida hali ham jangovar harakatlar izlari mavjud. Ammo har yili vaziyat tobora yaxshilanmoqda, sayyohlar oqimi tobora ko`paymoqda va mamlakat dam olish maskanlari malikasi sifatida avvalgi shon-shuhratini qaytarishga jiddiy tayyorgarlik ko`rilmogda.

Bosniya va Gertsegovinaning poytaxti - Sarayevo shahri bo`lib, 1263 yilda g`arbdan sharqqa savdo yo`llari chorrahasida tashkil etilgan. Ushbu shaharda turli madaniyat va davrlarning birlashishi natijasida vujudga kelgan obidalar va madaniyat tarix va arxitektura ixlosmandlarini kutmoqda. Shaharning sharqiy qismida, musulmonlar turar joylarida, tor ko`chalar va xiyobonlarda yurib, do`konlarga va hunarmandchilik ustaxonalariga kirib bu qadriyatlar qorishmasidan bahra olish mumkin.

Buyuk Ipak yo`li davridan beri saqlanib kelinayotgan masjidlar, pravoslav va katolik cherkovlari, mashhur ko`priklar, muzeylar, serhasham bog`lar, qadimiy bozorlar va savdo maydonchalari - madaniy va tarixiy boyliklar, shuningdek shaharning o`ziga xos atmosferasi sayyohlarni befarq qoldirmaydi.

Bosniya va Gertsegovinaning yirik shaharlari buyuk madaniy merosni saqlab qolishgan - bu davlatning boy tarixining natijasidir. U qisman shu kungacha asl qiyofasida saqlanib kelingan nafis me'moriy yodgorliklarda va qisman muzeylar va san'at galereyalarida ifodalangan. Masalan, Sarayevo mukammal saqlanib qolgan tarixiy qiyofasi tufayli Yevropaning eng rang-barang shahri deb nomlanadi. Bu yerda qadimiy Usmonli va Vizantiya binolari bilan bir qatorda Sovet musulmonlari me'morchiligining eng mashhur yodgorligi - Moricha Xon karvon saroyini topish mumkin. Sarayevodagi harbiy tunnel Bosniyada yuz bergan so'nggi jangovar harakatlarning eng qorong'i eslatmalaridan biridir. Ushbu yer osti yo'lagining ikkinchi nomi "Hayot tunnelidir". Tunnel qurshab olingan aholisi tomonidan qurilgan.

Sarayevodagi islom me'morchiligining eng diqqatga sazovor yodgorliklaridan biri bu Bog'oz bo'yidagi Usmonli me'morchiligining eng yaxshi namunalarini eslatib turuvchi, oq toshli bino bo'lib, ingichka minora bilan qurilgan muhtasham Gazi-Xosrevbey masjididir.

Bosniya va Gertsegovinaning Milliy muzeyi - bu mamlakat tarixi, madaniyati va an'alariga oid eng to'liq eksponatlar to'plami, nafaqat uning kolleksiyalari, balki muzey binosining o'zi ham qadimgi davrlarning neoklassik me'morchilik uslubining ajoyib namunasi.

Respublikadagi eng qadimgi milliy park Sutjeska 1962 yilda Foka shahri yaqinida tashkil etilgan. Bog' unchalik katta emas: uning maydoni atigi 17 ming gektarni tashkil qiladi. Ammo, bu yerda Yevropadagi tarixdan oldingi to'rtta o'rmondan biri joylashgan.

Bosniya va Gertsegovinada Bolqonning eng yirik nasroniy ziyoratgohlaridan biri - Medugorje qishlog'i bor, u yerda afsonalarga ko'ra Bokira qiz paydo bo'lishining mo'jizasi sodir bo'lgan. Mamlakatning boshqa diniy diqqatga sazovor joylari qatorida Bosniya va Gersegovinadagi eng katta katolik cherkovi - Iso Muqaddas Yurak savori ta'kidlangan. Bu savor me'mori I. Vantsas - Parijning Notre Dame yaratuvchisi tomonidan ishlab chiqilgan.

Diagrammadan ko'rinmoqdaki, bu mamlakatda turizm keyingi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. To'rt yil ichida turistlar soni 90 foizga oshgan.




Diagramma -6.1. Bosniya va Gersegovinaga 2015-2019 yillarda tashrif buyurgan sayyohlar soni (ming kishi).

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Sloveniya. Sloveniya 1991 yil Yugoslaviyadan mustaqil bo'lib ajralib chiqqan davlat. Poytaxti Lyublyana. Maydoni 20.3 ming kv.km. Aholisi 2.1 mln. kishi. Asosiy xalqi slovenlar. Yirik shaharlari: Lyublyana, Maribor, Selje, Kranj.

Turizmning asosiy turlari - tog'larda dam olish, biznes turlar, sog'lomlashtirish, gastronomik turizm, madaniy turizm, sport turizm, plyaj turizmi.

Mamlakatga har yil 5-5.5 mln. kishi tashrif buyuradi va ular 3.7 – 4 mlrd. dollar sarf qilishadi, 16-18 mln. yotib qolishlar bo'ladi, turistlar odatda o'rtacha 3-4 kunga kelishadi. Turizm sektorida 12 ming kishi ish bilan band.

Xorvatiya. 1991 yil Yugoslaviyadan ajralib chiqqan suveren davlat. Poytaxti Zagreb. Maydoni 56.6 ming kv.km. Aholisi 4.1 mln. Kishi (2020y.). Yirik shaharlari: Zagreb, Split, Rijekka, Osijek.

Mamlakat juda kichik bo'lishidan qat'iy nazar Xorvatiya YUNESKOning jahon madaniy merosining ro'yxatida bo'lgan 10 ta ob'yektga ega. Xorvatiya g'o'zal tog'larga ega yurt ham sanaladi.

Mamlakatning asosiy jozibador tadbirlari: Rijekka karnovali, vino festivali, Zagreb'dagi dokumental filmlar festivali, Sant Blats'dagi festival, restoranlar hisoboti, Split'dagi sevgi karnovali.

Turizm Xorvatiya uchun muhim tarmoq sanaladi, mamlakat YaIMning 10 foizdan ko'prog'ini beradi, ish bilan bandlardagi ulushi ham 10 foizga yaqinni tashkil etadi.

Xorvatiyaga 2018 yilda xorijdan 16.6 mln. turist kelgan va ularning qilgan xarajati 11.8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu to'rt

millionli mamlakat uchun juda yaxshi ko'rsatgich, yani aholiga nisbatan to'rt marta ko'p mehmon kelgan.

Albaniya kichik mamlakat bo'lishi mumkin, ammo hayajonli ko'rishga arzigulik bo'lgan makonlari ko'p. Makedoniya, Gretsiya, Kosovo va Chernogoriya bilan chegaradosh bo'lgan Albaniyaning uzoq qirg'og'i dunyodagi eng go'zal joylardan biri hisoblanadi.

Albaniya Rivierasi, bu mamlakatda sayyohlar tashrif buyuradigan eng mashhur joy. Riviera muhim musiqiy joy sifatida tobora ortib borayotgan obro'ga ega bo'lib, bu yerda ko'plab xalqaro musiqa festivallari, shu jumladan Turtle Fest va Soundwave Albaniya ham bo'lib o'tgan. Jale plyajidagi Folie Marine va Dhermi yaqinidagi Havana Beach Club kabi tungi klublar Yevropa bo'ylab yoshlarni Albaniya Rivierasiga olib boradi.

Dengiz bo'yidagi Himara shahri - bu Riveraning eng yaxshi tashrif buyuradigan joylaridan biri, Porto Palermo plyaji, Llamani plyaji va Filikuri plyaji bu hududning eng yaxshi qumli joylari, Drymades plyaji bu yerda eng jonli joylardan biridir.

Albaniyaning poytaxti Tirana ko'p odamlar uchun Albaniyaning eng yaxshi joylaridan biri. Shaharda sayyohlarning tashrif buyurishi kerak bo'lgan joylari kam, ammo 18-asrda qurilgan Ethem Bey masjidi tashrif buyurishga arziydigan joylardan. Tirana aholisi, Albaniya aholisining aksariyat qismi singari, nihoyatda do'stona va shahar juda arzon, ajablanarli darajada ajoyib oziq-ovqat va ichimliklarga ega. Skanderbeg maydoni Tirananing eng muhim joylaridan biridir va bu yerda Milliy tarixiy muzeyni ham topish mumkin. Skanderbeg maydonining markazida tarixiy alban milliy qahramoni Skanderbegning haykali qad rostlagan (shuning uchun u Tirananing yuragi sanaladi).

Llogara dovoni Albaniyaning eng taniqli joylaridan biri bo'lib, yo'l butun dunyodagi eng ajoyib sayohatlardan birini taqdim etadi. Llogara milliy bog'ining o'rtasida joylashgan yo'l dengiz sathidan 1000 metrdan yuqori masofani bosib o'tadi. Dovonning yuqori qismida Albaniyaning eng ajoyib diqqatga sazovor joylaridan bahramand bo'lish uchun ideal joy bo'lgan juda yaxshi restoranlar mavjud. Llogara milliy bog'ining o'zida oltin burgut, yevropalik yovvoyi mushuk va bug' - kiyiklari kabi hayvonlar yashaydi.

Berat Albaniyaning qoq o'rtasida joylashgan, va u mamlakatning eng qadimgi shaharlaridan biridir. Berat Usmonli va Albaniya me'morchiligi aralashganligi sababli tez-tez o'z taxallusi bilan - Ming

dereza shahri bilan tanilgan. Beratning asosiy sayyohlik joyi 14-asr qal'asi Kalaja bo'lib, unda hali ham yuzlab odamlar yashaydi. Ilgari Usmonli imperiyasining eng muhim Albaniya shaharlari qatorida bo'lgan Berat 2008 yilda YUNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Saranda Albaniyaning eng issiq sayyohlik joylaridan biri bo'lib, shahar so'nggi 20 yil ichida sezilarli rivojlangan. Saranda Albaniyadagi eng unutilmas plyajlarning vatani, Butrintdagi YUNESCO Jahon merosi ob'ekti Sarandaning tashqarisida joylashgan, va u ham tashrif buyurishga arziydi. Lekursi qal'asi - Sarandaga borish uchun eng yaxshi joylardan biri, odamlar ajoyib quyosh botishidan zavqlanish uchun bu yerga kelishadi. Saranda Ion dengizi bo'ylab mashhur yunon Korfu orolidan qisqa masofada joylashgan.


Gjirokastra, shubhasiz, Albaniyada sayohat qilish uchun eng yaxshi joylardan biridir. Usmonlilar davridagi noyob me'morchilik - kichik qal'alar singari qurilgan uylar bilan - Gjirokastraning barcha joylarida joylashgan bo'lib, u yerda ajoyib muzey va badiiy galereya osmono'par joyda joylashgan.

Jirokastra qal'asida har besh yilda bir folklor festivali bo'lib o'tadi. Jirokastradagi eski Usmoniy bozoriga tashrif buyurish mamlakatning ushbu qismiga tashrif buyurganlarning kun tartibida bo'lishi kerak. Gjirokastra dunyoga taniqli yozuvchi Ismoil Kadare va Albaniyaning sobiq diktatori Enver Xojaning tug'ilgan joyi sifatida mashhurdir - bugungi kunda ularning eski uylari muzeylar bo'lib qolgan.

Albaniyaning eng yirik shaharlaridan uzoqda, mamlakat shimolida, Theth. Albaniya Alplarida baland joylashgan Theth - bu ajoyib tabiiy go'zallikning belgilangan hududi va buning sababini anglash juda oson. Theth milliy park, ehtimol, Albaniyaning eng go'zal joyidir, Grunas palapartishligi va Lock-in minorasi bilan juda mashhur. Teti, Boga, Razma va Vermoshi tog' cho'qqilari Albaniyaning eng tabiatidan unutilmas taasurotlarni taqdim etadi.

Moviy ko'z bulog'iga tashrif buyurish, albanlar uchun muhimdir. Albaniyaning shimolidagi eng katta shahar Shkodra ko'pincha mamlakatning madaniy poytaxti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, u yerda Karnaval, Leyk kuni, Bolalar festivali va Shkodra Jazz Festivali kabi tadbirlar o'tkaziladi, shu bilan birga Birinchi Bolqon urushi paytida muhim roli bilan taniqli tarixiy qal'a joylashgan.

Shkodrada ajoyib ko'l bor, O'rta asr Drishtit qal'asi esa atigi bir necha chaqirim narida joylashgan. Mashhur Migjeni teatri ham mavjud.



Chizma -6.2. Albaniya turizmi haqida ayrim ma'lumotlar.

To'g'ridan-to'g'ri turizm bilan bog'liq faoliyat 2018 yilda 45 milliard lek miqdorida qo'shilgan qiymatni yaratdi, bu yalpi ichki mahsulotga 2,8 foiz qo'shdi. Ushbu xarajatlarning boshqa faoliyatdagi bilvosita ta'sirini hisobga olgan holda, ushbu hissa ko'proq bo'ladi.

2014-2018 yillarda havo yo'llari orqali taxminan 2.5 million xorijiy fuqarolar kelgan, bu 2018 yil davomida 19.7 foizga o'sgan demakdir. Mamlakatga havo liniyalari orqali kiradigan chet el fuqarolari jami kelganlarning o'rtacha 10.5 foizini egallaydi.

2014-2018 yillar davomida Albaniyaga dengiz liniyalari bilan kelgan xorijiy fuqarolar soni taxminan 1.5 million kishini tashkil etdi va 2018 yil davomida 11.8 foizga o'sdi. Mamlakatga dengiz liniyalari orqali kelgan xorijiy fuqarolar umumiy kelganlarning o'rtacha 6.4 foizini egallaydi. 2014-2018 yillarda mamlakatga quruqlik orqali kelgan xorijiy fuqarolar soni taxminan 19.6 million kishini tashkil etdi va 2018 yil davomida 15,6 foizga o'sdi. Chet el fuqarolarining mamlakatimizga quruqlik orqali kelishi umumiy tushumning 83.1% bilan eng katta ulushni egallaydi.

2014-2018 yillarda arxeologik joylar, muzeylar, qal'alar va boshqa yodgorliklarga tashrif buyuruvchilar soni 2018 yilga nisbatan 49.4 foizga o'sish bilan taxminan 3 million kishini tashkil yetdi. 2018 yil davomida qal'alar va boshqa joylarga tashrif buyuruvchilar soni va

yodgorliklar 53.4% ga o'sdi, muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa o'tgan yilga nisbatan 51.2% ga oshdi.

2018 yilda 2017 yilga nisbatan xorijiy sayyohlar soni 15.8 foizga o'sdi. Xorijiyning xarajatlari esa 12.5 foizga o'sdi. 2018 yilda Albaniya fuqarolarining ketishi nisbatan 4,4 foizga oshdi. 2017 yil, Albaniya fuqarolarining (rezidenti) chet elda xarajatlari o'tgan yilga nisbatan 17.3% ga oshdi.

2018 yil ichida, Yevropa mintaqasidan kelganlar 13.2 foizga o'sib, 89.5 foiz ko'rsatkich bilan xorijiy sayyohlarning kelishining eng katta qismini tashkil etdi.




Diagramma – 6.2. Albaniyaga tashrif buyurganlarning dinamikasi. Manba: <https://ru.unesco.org/>

UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, Albaniyaga shaxsiy maqsadlar uchun kelgan sayyohlar soni yillar o'tgan sayin oshib borgan. 2019 yilda Albaniyaga uch millionga yaqin kishi ta'tilda yoki boshqa ko'ngil ochish maqsadida tashrif buyurgan. Boshqa shaxsiy maqsadlar uchun tashrif buyurgan qo'shimcha 3. million kishini tashkil etgan.

Monako. Monako 1297 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan eng qadimiy davlat sanaladi. Mamlakat maydoni 2.02 kv.km. (maydoni

bo'yicha dunyoda 193 o'rin) Aholisi 37.6 ming kishi. YaIM 6308 mln. dollar. Jon boshiga to'g'ri keladigani esa 169694 dollar (2019 y). Yani dunyoning eng boy mamlakati sanaladi. Rasmiy tili frantsuz tili, poytaxti Monako. Yirik shaharlari: Monako, Monte-Karlo, La-Kondanim, Fonvey.

Monakoda hech qanday individual, mulk, hashamat, ortirilgan boylikdan soliq yo'q. Bu esa mamlakatga boyvachalarni yashashga jalb qiladi.

Madaniy yodgaolliklari: Monte-Karlo kazinosi, Knyazlik saroyi, Yapon bog'i, Avliyo Nikolay sobori, La-Condamin porti, Fonvey dam olish maskani. Eng mashur marosimlar: Formula-1 aftopoygasi va Kann kino festivali hisoblanadi.

Mamlakatda 7ta eskalator bo'lib, u quyi ko'chalarni yuqorisi bilan bog'laydi.

Turizmning YaIMdagi ulushi 2018 yilda qariyb 30 foizni tashkil etgan. Mamlakatga 2018 yil 350 ming xorijiy turist kelgan, bu mamlakat aholisidan 9 marta ko'p hisoblanadi. Xorijit turistlar birinchi navbatda kazinoga kelishadi va mamlakatga qancha pul tashab ketishi to'g'risida ma'lumot yo'q.

Kipr. Poytaxti Nikosiya shahri. Iqlimi - subtropik O'rta Yer dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Kipr orolida joylashgan davlat. Kipr oroli kattaligi jihatidan O'rta Yer dengizi orollari ichida Sitsiliya va Sardiniyadan keyin 3-o'rinni egallaydi. Maydoni - 9251 kv. km., aholisi - 1.23 mln kishi (2020 - yil), tili - grek va turk tili, dini - pravoslav va musulmon. Milliy bayrami - 1 oktyabr - Mustaqillik kuni (1960 - yil).

Turizm tarmog'i iqtisodiyotning muhim tarmog'laridan biri hisoblanadi. Bu tarmoqqa mamlakatda Kipr turistik tashkiloti javobgardir. Bu sohada mamlakatda bandlarning asosiy qismi band va respublika budjeti tushumiga uning o'rni katta. Mamlakatning asosiy kurortlari Larnaka, Pafos, Limasol, Aya-Napa, Protaras, Famagusta va Kireniya. Mehmonxona xizmati, biznes turizmi, plyaj va tog' hududlarida dam olish, madaniy - ma'rifiy turizm tadbirlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

YUNESKOning xalqaro yodgorliklari ro'yxatidan kichkina Kiprning 3ta obyektlari o'rin egallagan.

Ekologik jihatdan tozaligi va infrastukturaning yaxshi rivojlanganligi uchun Kiprning ko'p plajlari Yevropa ittifoqining

“ko’k bayrog’i”ni olgan. Kiprning tarixiy obidalari turli davrlarning qorishmasidan iborat (Rim va Elin madaniyati obidalari, Venetsiya qasrlari, Vizantiya davri qasrlari, Britaniya mustamlakachilik davri obidalari, usmoniylar davri obidalari). Misr, Izroil, Rodos oroli, Iordaniyalarning yaqinligi tufayli kruiz turizmi ham juda rivojlangan.

Turizm sanoati rivojlanishi tarixiga kelsak, u yigirmanchi asrning 60-yillarida boshlangan. Ammo, 1974 yilda orolga turklar kirishi munosabati bilan va uning Janubiy Kipr Respublikasi hamda Shimoliy Kiprga bo’linishi sababli turizm sanoati qisman vayron qilindi. Ushbu siyosiy voqealardan keyin turizm sanoati mutaxassisleri o’z tashkilotlarini tashlab Kiprning janubiy qismiga shimoldan ko’chib o’tishdi. 1983 yildan keyin Kiprdagi holat bir muncha yaxshilandi va poytaxt – Nikosiyada mehmonxonalar xo’jaligi rivojlana boshladi.

Kipr hukumati mamlakat iqtisodiyotida turizm muhim o’rin egallashini tan oldi va yangi otellar hamda ular uchun infratuzilmasining boshqa ob’ektlari qurilishiga e’tibor bera boshladi. "Kipr aviakompaniya" aviakompaniyasi turizmni qo’llab-quvvatlab, turizm sanoati uchun kadrlar tayyorlashni rag’batlantirdi. Yangi qurilishlar, asosan, Janubiy qirg’oqlardagi Limasol, Larnaka va Pafos shaharlari yaqinida olib borildi (Ushbu shaharlarda turizm 70-yillarda rivojlanishi kerak edi, ammo u faqat 1984 yilda Larnakda aeroport ochilgandan keyin boshlandi). Keyingi yillarda ikkita dengiz bo’yi zonolari - Korall qirg’og’i va Ayia Napa tumani juda tez rivojlana boshladi.

Limasol shahri uzoq vaqt davomida Kiprning eng katta kurortlaridan bo’lib kelgan. Kiprda turizmning rivojlanish ishlarida uni to’ldiruvchi bozor Buyuk Britaniya bo’lib hisoblanar edi. Kiprning Britaniya bozoriga muteligining sababi 1968 yilgacha mamlakat Britaniya mustamlakasi bo’lib kelganligidir. Kipr uchun ikkinchi ulkan bozor bu — Skandinaviya davlatlaridir. Ammo, 1987 yilda ushbu mamlakatlar turistlari 21%ni tashkil qilgan bo’lsa, 1992 yilda bu ko’rsatkich 10%ningina tashkil qildi. Buyuk Britaniya va Skandinaviyadan keyin Germaniya, Irlandiya, Avstriya va Shveytsariya mamlakatlari turibdi. Aksariyat turistlar Kiprga madaniy va siyosiy sohaga bog’liq bo’lib, ular Gretsiyadan keladi. Shimoliy Kiprda turizm sanoati kam rivojlangan va uning uchun asosiy bozor bo’lib Turkiya hisoblanadi. Ammo, bu yerda ham Buyuk Britaniya va

Germaniyadan tashrif buyurgan turistlar ko'p bo'ladi.

2018 yilda Kiprga xorijdan 3.9 mln. turist kelgan. Bu esa ozining aholisidan uch marta ko'p. 2019 yilda esa xorijdan turistlar oqimi 14.6 foizga o'sgan, bu esa Yevropadagi eng yaxshi ko'rsatgichlardan biridir.

O'sha yil turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 3.352 mln. dollarni tashkil etgan.

Malta orollarda joylashgan go'zal mamlakat, jannat makon O'rta yer dengizida joylashgan kichik davlat. Poytaxti Valletta shahri. Iqlimi - O'rta yer dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya. Sitsiliyadan 93 km, Tunisdan esa 300 km. uzoqlikda uch orolda joylashgan. Mamlakat aholisi 2020 yilda 425 ming kishini tashkil etdi. Uning maydoni 316 kv.km. va Yevropaning daryo va doimiy suv havzasi bo'lmagan yagona davlatidir. Malta 2004 yildan beri EI a'zosi hisoblanadi, tili - malta, ingliz, dini - katolik, pul birligi - Malta funti. Yirik shaharlari: Valletta, Birkirkara, Xamrun, Rabot, Viktoriya. Milliy bayramlari: 31 mart - Ozodlik kuni (1979 - yil), 21 sentyabr - Mustaqillik kuni (1964 - yil) va 13 dekabr - Respublika kuni (1974 - yil).

Turizmi: tarixiy va madaniy yodgorliklari, mo'jizaviy plyajlari, akvalangi, yaxta turizmi.

Turizm Maltada yigirmanchi asrning 60 - yillaridan rivojlana boshladi. 70- yillarda u jadal sur'atlar bilan rivojlandi, turistlar oqimi 1970 yilda 170 mingdan 1981 yilga 706 mingga yetdi. Maltada turizm 70-yillarda juda tez o'sa boshladi, o'sish bir yilda 20—30%ni tashkil qilar edi. Ammo, shu bilan birgalikda bu sohada bir necha muammolar paydo bo'ldi. Bu muammolar, masalan, suv ta'minotining yomonligi yoki qurilishning sifatsizligi bilan bog'liq edi. Shu sababli Malta hukumati turizmning mamlakat iqtisodi uchun ahamiyatini hisobga olgan holda infratuzilmani yaxshilash uchun katta mablag' ajratdi. Malta narxi uncha baland bo'lmagan turistik markaz sifatida obro' ola boshladi. Keyingi yillarda muhtasham binolar, dam olish uylari, oliy toifali otellar qurilishlarining hajmi oshdi. Bu esa yuqori martabali boy mehmonlarni jalb qilish maqsadida tashkil qilindi. Saksoninchi yillarda, aksincha, turistlar sonu ancha kamaydi, ammo Malta yigirmanchi asrning 90-yillarning boshlaridan yan o'sish boslandi, bu davrda 1.0 mln.dan ortiq mehmonlar qabul qilinardi (mehmonlarning 60%idan oshig'i britaniyaliklar, 15%ini

germaniyaliklar tashkil qilar edi). Malta ham Kipr singari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lib kelgan.

Hozirgi paytda Malta turistlar uchun, ayniqsa yevropaliklar uchun mashhur hisoblanadi. Sayohatchilarni Maltaning ajoyib plajlari, rangba-rang festivallari va ko'plab arxitektura yodgorliklari o'ziga jalb qiladi. Arxipelagning ko'p asrlik tarixida juda ko'p voqealarning shohidi bo'lganligini uning arxitektura yodgorliklarida ko'rish mumkin – Megalitli ibodatxonalarining xarobalari, o'rta asr qasrlari, qadimiy saroylar. Eng ko'p turist keladigan joyi uning poytaxti Valleta shahridir. Bu yerga kimlardir kazinoda o'ynashga, kimdir tabiiy g'orlarga, kimdir plajlarga, kimdir mashhur dengiz parki – Mediterraneoga kelishga harakat qiladi.

2010 yildan boshlab Malta hukumati tibbiy turizmni rivojlantirishga qattiq yopishdi, chunki turizmninig bu tarmog'i mamlakatda quyidagi imkoniyatlari bor edi – tibbiy xodimlar Britaniya malakasi va madaniyatini olgan edi, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy muhiti juda barqarorligi bilan obro' qozongan, tabiiy iqlim sharoiti ham davolanish jarayonini tezlashtirar edi, bu xizmatlar Britaniya va AQShdan ancha arzon taklif etila boshlandi. Bundan tashqari, nafaqar Yevropa va AQSh, balki boyiyotgan Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq bozoriga ham ishlash mumkin edi.

Turizm mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i hisoblanib, u mamlakatning YAIMning 15 foizini beradi. Xalqaro turizmdan keladigan daromad 2018 yilda 1845 mln. dollarni tashkil etdi.

Maltaga 2018 yilda xorijdan keladigan turistlar soni 2598.7 ming kishini tashkil etgan (aholi soniga nisbatan 6 marta ko'p turist kelgan). Bu ko'rsatgich bo'yicha Buyuk Britaniya (640.6 ming kishi) liderlik qiladi, undan keyin Italiya (390.6 ming), Germaniya (227.0 ming), Frantsiya (213.3 ming), Ispaniya (99.1 ming), Polsha (96.4 ming), Niderlandiya (57.4 ming), AQSh (47.2 ming), Shveytsariya (45.6 ming) turadi.

2018 yilda mamlakatdan chet elga ketgan turistlar soni 667 ming kishini tashkil etdi va ularning xarajati 518.0 ming dollarni tashkil etdi.

Qisqacha xulosalar. Janubiy Yevropa va umuman, O'rta yer dengizi bo'yidagi mamlakatlar keyingi o'n yilliklarda turizmni rivojlantirishga juda katta muvofaqqiyatlarga erishganlar. Oldin

Italiya, keyin esa Gretsiya, Ispaniya, Portugaliyalar jahon turizmining muhim markazlariga aylanishgan, hozir esa Adriatika dengizi bo'ydagi davlatlarda turizm jadal rivojlanib bormoqda. Bu regiondagi ko'plab mamlakatlarda turizm iqtisodiyotning ustuvor tarmog'iga aylanib, xalqni farovon qilishga xizmat qilib kelmoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Italiya mamlakatining asosiy turistik resurslari nimalardan iborat?
2. Turistik Rim, Florentsiya va Genuya shaharlariga xarakteristika bering.
3. Turizm Ispaniya mamlakati iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?
4. Turistik Ispaniyaning eng jozibador jihatlari nimada?
5. Nega shuncha ko'p sayyoh Portugaliyaga boradi?
6. Turizmning qaysi yo'nalishlari Gretsiyada keng rivojlangan?
7. Kipr turizmiga ta'rif bering.
8. Malta mamlakati nimasi bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi?
9. Bosniya va Gertsegovina mamlakatining turizm iqtisodiyotini tahlil qilib bering.
10. Albaniya turizmini tahlil qilib bering.

Glossariy

Ko'ngil ochar turlar - (entertainment) turizm dasturlarida ma'lum ma'noda turistlar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan. "Turistning yaxshi ko'ngil ochishi" uchun xizmatlarning barcha qirralarini ochishga yordam beradi. Bu faol o'yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilmoq, attraksionlarga borish (tematik bog'lar, masalan, Disneylend, Delfi kari, zooparklar), restoranlar, dengsinglar, disko klublar, magazinlar, kazino va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Sarguzashtli turizm - o'ziga xos tarzda dam olishni bir turi bo'lib, turistlarni nafaqat ular uchun jalb qiluvchi joylar bilan ta'minlash, balki g'alati, g'ayri tabiiy faoliyat turi bilan shug'ullanishga jalb qiladi.

Muqaddas Prestol – alohida huquqqa ega bo'lgan Vatikan davlatiga nisbatan ishlatiladi. Xalqaro huquqda Vatikanning yordamchi suveren hudud maqomiga ega ekanligini bildiradi. Rim-katolik cherkovi yuqori diniy rahbarlarining qarorgohi sanaladi.

Ellada - Gretsiyaning tarixiy nomi bo'lib, tarixiy, madaniy turizmga va boy bir paytlar buyuk ilm - san'at, arxitektura va afsonalar markazi bo'lgan diyor sifatida qarash sanaladi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Janubiy Yevropa mintaqasiga kiruvchi mamlakatlar qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Ispaniya, Italiya, San-Marino ;
- b) Frantsiya, Avstriya, Polsha;
- c) Portugaliya, Xorvatiya, Chexiya;
- d) Finlyandiya, Ispaniya, Italiya, Irlandiya.

Qaysi davlat hududi 301.2 kv.km, aholisi 60.3 mln. kishi, o'rta asr arxitekturasiga boy shaharlarga ega?

- a) Italiya;
- b) Ispaniya;
- c) Frantsiya;
- d) Portugaliya.

Internet orqali Yevropa mintaqasida sotilgan turistik mahsulotlarning necha foizi Italiyaga to'g'ri keladi?

- a) 8 foizi;
- b) 10 foizi;
- c) 15 foizi;
- d) 25 foizi.

Italiyaning asosiy turistik resurslari nimalar?

- a) madaniy boyliklari, tog'lar va ko'llar;

- b) muzeylar va tungi klublar;
- c) turistik arxitektura;
- d) zamonaviy shaharlari va keng dalalari.

Qaysi davlat hududi 91.985 kv.km. aholisi 10.3 mln. ga yaqin kishini tashkil etadi?

- a) Portugaliya davlati;
- b) Albaniya davlati;
- c) Turkiya davlati
- d) Avstriya davlati.

Portugaliya davlatining yirik shaharlari qaysi qatorda to'g'ri korsatilgan?

- a) Lissabon, Portu, Braga, Setubal va Evora;
- b) Rim, Neopol, Portu, Lissabon va Setubal;
- c) Strasburg, Tsurix, Drezden va Evora;
- d) London, Edinburg, Lissabon va Braga.

Portugaliya bir yilda qancha turistlarni qabul qiladi?

- a) 20 millionga yaqin;
- b) 29 millionga yaqin;
- c) 32 millionga yaqin;
- d) 9 millionga yaqin.

Qaysi davlat hududi 504,748 kv.km. aholisi 46.9 mln. kishi. Yirik shaharlari Barselona, Bilbao, Valensiya, Sevilya, Saragosa hisoblanadi?

- a) Ispaniya davlati;
- b) Italiya davlati;
- c) Gretsiya davlati;
- d) Frantsiya davlati.

Ispaniya davlati Yevropa mintaqasi bo'yicha xalqaro turistik tashriflarning necha %ni, daromadlar miqdori bo'yicha necha %ni tashkil qilgan?

- a) 12,1%ni tashrif buyuruvchi, 14,0% ni daromad;
- b) 22,5%ni tashrif buyuruvchi, 12,0% ni daromad;
- c) 32,1%ni tashrif buyuruvchi, 40,0% ni daromad;
- d) 12, 8%ni tashrif buyuruvchi, 24,0% ni daromad.

Frantsiya va Ispaniyada cho'milish va plyaj dam olishga kelishlar ro'yxatga olinmoqda, ushbu davlatlarda har yili o'rtacha nechta sayyoh shunday qayd qilinmoqda?

- A) 25 mln;
- B) 50 mln;
- C) 40 mln;
- D) 80 mln.

Turistlar tamosha qilishi mumkin bo'lgan eng ko'p g'orli davlat qaysi?

- a) Gretsiya;
- b) Yamayka;
- c) Qirg'iziston;
- d) Avstraliya.

Ispaniya xorijiy turist qabul qilishda nechanchi o'rinda bormoqda?

- a) 2;
- b) 4;
- c) 3;
- d) 5.

Pisa minorasi, Kolizey joylashgan davlat qaysi?

- a) Italiya;
- b) Frantsiya;
- c) Uels;
- d) Polsha.

Davlat tuzumi qirollik bo'lgan, Kataloniya, Valensiya, Mursiyaday yirik provintsilari bor davlat qaysi?

- a) Ispaniya;
- b) Gretsiya;
- c) Italiya;
- d) Irlandiya.

Kanar orollari o'z aholisidan necha barobar ko'p turistni qabul qiladi?

- a) 10 barobar;
- b) 8 barobar;
- c) 9 barobar;

d) 11 barobar.

Andorrada har yil necha milliondan ortiq turistni qabul qiladi?

- a) 12 mln;
- b) 13 mln;
- b) 14 mln;
- c) 15 mln.

Gretsiya industrial - agrar davlati iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha, Yevropa mamlakatlari ichida nechanchi o'rinda?

- a) 15-chi;
- b) 10-chi;
- c) 11-chi;
- d) 23-chi.

Qaysi davlat hududi 131.957 kv.km. aholisi 10.7 mln. kishini tashkil etadi. Yirik shaharlari Afina, Soloniki, Patri, Rados va Ircalion. Yevropa Ittifoqi a'zosi.

- a) Gretsiya;
- b) Buyuk Britaniya;
- c) Germaniya;
- d) Daniya.

Gretsiyaga asosan qaysi davlatlardan turistlar tashrif buyuradilar?

- a) Buyuk Britaniya va Germaniyadan;
- b) Meksika, Frantsiya;
- c) Italiya, Germaniya;
- d) Rossiya va Turkiya.

Maltaga sayyorlar nimadan bahra olay deb borishmaydi?

- a) Mamlakatga tog' sporti bilan shullanish uchun kelishadi;
- b) kimlardir kazinoda o'ynashga;
- c) kimdir tabiiy g'orlarga va plajlarga;
- d) kimdir mashhur dengiz parki – Mediterraneoga kelishga harakat qiladi.

Kiprning turizm sanoati rivojlanishi tarixiga kelsak, u

- a) Yigirmanchi asrning 60-yillarda boshlangan;
- b) Yigirmanchi asrning 80-yillarda boshlangan;
- c) Yigirmanchi asrning oxirgi yillarida boshlangan;
- d) Yigirma birinchi asrning boshida boshlangan.

VII MAVZU. OSIYO MAMLAKATLARI TURIZMI. SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI TURIZMI

O'quv maqsadi: Osiyo mamlakatlarida turizmning o'ziga xosligini o'zlashtirishdan iborat. Sharqiy Osiyo regiondagi davlatlarda turizmni rivojlantirish borasida say-harakatlarning mohiyatini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

7.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi

7.2. Sharqiy Osiyo mintaqasi turizmining o'ziga xosligi

7.3. Xitoy Xalq Respublikasi turizmini tahlili

7.4. Yaponiya mamlakati turizmini tahlili

7.5. Koreya mamlakati turizmining o'ziga xosligi

7.6 Tayvan mamlakatida turizm rivojlanish holati

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Osiyo mintaqasi, Tinch Okean mintaqasi, "Osiyo yo'lbarlari", "Sirli mamlakat", Buyuk Xitoy devori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристическое обслуживание. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Александрова А.Ю. «География туризма». Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
3. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
4. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
5. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - С. 96.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
7. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
8. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма. - М., 2010.
9. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М., 2010. 231с.

10. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
11. *Prior, Randall* [Gospel and Culture in Vanuatu – An Experiment in Pacific Theology](#). Australian National University (2006). — A Paper presented to the 2nd ANU Missionary History Conference Asia-Pacific Missionaries: At Home and Abroad.
12. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
13. www.[UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](#).
14. <https://www.World's most popular destination revealed> (АНГЛ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
15. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
16. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
17. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
18. www.wikipediya.ru
19. <https://knoema.ru/atlas/>
20. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-yuzhnoj-korei/>
21. <https://www.toyota-gib.com/eng/vehicle-sales/lhd-rhd-guide.htm>

7.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi

Osiyo tabiati nihoyatda xilma-xilligi bilangina emas, balki keskin tafovutlari bilan ham ajralib turadi. Yer sharidagi eng baland tog' cho'qqisi - Jomolungma (8848 m) va quruqlikdagi eng chuqur botig' O'lik dengizi (-395 m) shimoliy yarim sharning sovuqlik qutbi (Oymakonda) va Mesopotamiyaning jazirama issiq o'lkalari shu yerdadir. Osiyoda yer yuzasining 3/4 qismi yassi tog'liklardan va tog' tizmalaridan iborat bo'lib, tez-tez zilzilalar takrorlanib turadi.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasi o'zining takrorlanmas rekratsion resurslari va tabiat manzaralari bilangina emas, balki yuqori darajadagi servis xizmati bilan ham alohida ajralib turadi. Mintaqada turizmga sarflanadigan xarajatlar miqdori Yevropa va Amerikaga nisbatan kamligi bilan xarakterlanadi.

Yevropa va Amerika mintaqasidagi mamlakatlardan farqli ravishda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, turizm sohasida o'zining yuqori darajada tez rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Osiyo-Tinch Okeani hududidagi mamlakatlar

iqtisodiyoti uchun o'ziga xos "sakrash" yillari bo'ldi. Ko'p yillar mobaynida o'rtacha va qoloq bo'lib kelgan davlatlar tarixan qisqa vaqt ichida ulkan yutuqlarga erishdilar. Yigirmanchi asrning 70-yillari oxiriga kelib, Singapur va Gonkong sharqiy Osiyodagi eng yirik moliya markaziga aylanishdi. 1980 yillar o'rtasiga kelib Gonkongning chet ellardagi to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalari 2 mlrd. dollarni, Singapurda esa – 1 mlrd. dollarni tashkil qildi. Mintaqaning ayrim mamlakatlarida keyingi yillarda aniqrog'i 1990 yildan boshlab turizm industriyasi nihoyatda tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Ayniqsa Xitoy va uning boshqa hududlari hisoblangan Gonkong, Makao va Tayvan shuningdek, Malayziya, Tailand, Singapur, Koreya respublikasi, Avstraliya, Yaponiya, Indoneziya, Yangi Zelandiya, Filippin mamlakatlari turizm sohasida juda katta natijalarga erishib kelmoqda.

Keyingi 50 yil mobaynida Janubiy - Sharqiy (birinchi navbatda ASEAN uyushmasi, unga Osiyodagi to'rtta «Ajdarho»dan biri – Singapur, shuningdek, «Yangi to'lqin», yangi industrial mamlakatlar – Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin mamlakatlari kiradi.) va Sharqiy Osiy mamlakatlari (oldin Yaponiya, keyin Janubiy Koreya, va undan keyin esa Xitoy) muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu guruh doirasida o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarini amalga oshirib hamma sohalar bo'yicha iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishmoqdalar.

Osiyo hududida 42 ta va Okeaniyada 20dan ortiq davlat joylashgan. Ikkinchi jahon urushi davrigacha ularning ko'p qismi mustamlaka davlat bo'lgan bo'lsa, hozirda deyarli hammasi mustaqil davlatdir. Territoriyaning katta bo'lishi turistlar harakatining cheklanmaganligi turizm uchun qulayliklar yaratadi. Osiyo qit'asi turizmi yaqin kelajakda dunyoda yetakchi regionga aylanadi. Buning asosiy sababi Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti tezlikda juda tez rivojlanayotgan hudud hisoblanadi.

Ayrim mamlakatlarning rivojlanishi va ixtisoslashish darajasidagi farqi Yevropadagiga nisbatan Osiyoda yaqqolroq aks etgan. Ko'p mamlakatlar feodal munosabatlardan kapitalizmga o'tish bosqichini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa quyidagi yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiyoti juda tez rivojlanmoqda: Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Malayziya, Tayland hamda Xitoy va Hindiston. Fors ko'rfazi neft chiqaruvchi mamlakatlarida ham iqtisodiyot juda yuqori sur'atda rivojlanmoqda. Ularning ko'pida

rivojlangan mamlakatlar transnastional korporatsiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan yirik milliy burjuaziya shakllangan.

Bugungi kunda bu mamlakatlar (hududlar) eng avvalo o'zining ekzotik tabiati, cho'milish – plyajda dam olish imkoniyatlari bilan turistlarni jalb etmoqda. Bundan tashqari, BAA, Gonkong va Sigapur a'lo shopping taklif qilmoqda. Tayland eng gavjum turistik yo'nalish bo'lib qoldi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tailand va Tayvanda ko'ngilochar turizm ham yaxshi rivojlangan. Butunjahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jahon bo'yicha keyingi yigirma yilda turistik oqimning o'rtacha yillik o'sishi Yevropa mintaqasida 3,1%, Yaqin Sharqda 6,9%, Janubiy Osiyoda 6,4%, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 7,7%ni tashkil etdi.

Jadval. - 7.1. Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmدا turistlar oqimi, mln.

t/r	davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sish 2017yilga nisbatan, foiz da	2018 yilda ulushi, foizda
	Osiyo va Tinch okean	208,174	324,041	347,731	7.3	100
1	Xitoy	55,665	60,740	62,900	3.6	18.1
2	Tailand	15,936	35,483	38,277	7.9	11.0
3	Yapaniya	8,611	28,691	31,192	8.7	9.0
4	Gonkong (Xitoy)	20,085	27,885	29,263	4.9	8.4
5	Malayziya	24,577	25,948	25,832	-0.4	7.4
6	Makao (Xitoy)	11,926	17,255	18,493	7.2	5.3
7	Hindiston	5,776	15,543	17,427	12.1	5.0
8	Vyet Nam	5,050	12,922	15,498	19.9	4.5
9	Janubiy Koreya	8,798	13,336	15,347	15.1	4.4
10	Singapur	9,161	13,909	14,673	5.5	4.2
11	Indoneziya	7,003	12,948	13,396	3.5	3.9
12	Tayvan (Xitoy)	5,567	10,740	11,067	3.0	3.2
13	Avstraliya	5,872	8,815	9,246	4.9	2.7
14	Eron	2,938	4,867	7,295	49.9	2.1
15	Filippin	3,520	6,621	7,129	7.7	2.1

16	Kambodja	2,508	5,602	6,201	10.7	1.8
17	Yangi Zelandiya	2,435	3,555	3,686	3.7	1.1
18	Laos	1,670	3,257	3,770	15.8	1.1
19	Myanma	792	3,443	3,551	3.1	1.0
20	Shri Lanka	654	2,116	2,334	10.3	0.7

Manba: www.vikipediya.ru

Tashrif buyuruvchilar bo'yicha Yaponiya hududning o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi. U turli maqsadlarda kelayotgan turistlar oqimini dam olish va ko'ngilxushliklar uchun keluvchilarni ham oshirmoqda. Yaponiya ko'ngil ochish industriyasi dunyoda AQShdan keyin ikkinchi deb tan olingan. Shuni ta'kidlash kerakki, hududda turistik biznes industriyasi rivojlangan va yaxshi yo'lga qo'yilgan hamda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayapti. Keyingi yillarda Vetnam va Kambodja ham turizmni rivojlantirishda katta muvoffaqiyatlarga erishmoqda, ammo Laos va Mug'iliston barcha urinishlariga qaramay juda kam bozor ulushiga ega.

Dunyoning ayrim mamlakatlardagi ba'zi to'xtalishlar bilan yetakchilar ro'yxatidan o'z o'rnini boy bergan mamlakatlar hisobidan Osiyo – Tinch okeani mintaqasida turizmning chiqish va kirish bozori shakllanmoqda. Turistlar jo'nab ketishi soni bo'yicha birinchi o'rinni uzoq vaqtdan buyon Yaponiya egallab kelmoqda edi, ammo Xitoy unung o'rniga chiqib oldi. Osiyo – Tinch okeani mintaqasidan chiqishlarning yarmi ularning ulushiga to'g'ri keladi. Har yili yaponlar xorijga 30 mln. safar uyushtirishayapti, xitoylklar esa undan ham oshib ketdi. Bu mamlakatlardan turli baholashlar bo'yicha, 60 % dan 80 % gacha ko'ngilxushlik – xarid, tabiat qo'ynida dam olish, tarixiy – madaniy, diqqatga sazovar joylar bilan tanishish, madaniy – tomosha tadbirlari, sport bilan shug'ullanish uchun safarga chiqilayapti.

2019 yilda Osiyo – Tinch okeani regionida o'sish (+6%) asosan ichki oqimlar, ayniqsa Xitoy, Koreya va Avstraliya hisobidan sodir bo'lgan. Janubi-Sharqiy Osiyoda turistlar oqimi bir yilda 8.6 foizga oshgan, jumladan, Indoneziyada (+16,9%), Kambodjada (+11,8%), Filippinda (+11,0%), Tailandda (+8,6%), Singapurda (+7,7%) o'sgan. Sharqiy Osiyoda eng ko'p quyidagi davlatlarda o'sish sodir bo'lgan: Yaponiyada (+19,4%), Mongoliyada (+16,1%) va Makaoda

(+9,9%). Okeaniyada ham 6.0 foizli o'sish sodir bo'lgan. Eng yuqori o'sish quyidagi davlatlarda sodir bo'lgan: Avstraliya (+6,6%), Samoa (+8,8%), Fiji (+6,4%), Yangi Kaledoniya (+4,3%) va Yangi Zelandiya (+5,5%).

Jadval.- 7.2. Osiyo va Tinch Okeani mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi

Yillar	Turistik tashriflar mln. kishi	O'rtacha yillik o'zgarish %	Jahon tu-rizm tash-riflari ichidagi ulushi %	Turistik tashriflar-dan tushgan tushum mlrd. AQSh dollari	O'rtacha yillik o'zgarish %	Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi %
1970	5,331	-	3,22	1,1	-	6,15
1975	8,657	62,39	3,89	2,164	96,73	5,32
1980	20,961	142,13	7,28	8,469	291,36	8,19
1985	30,389	44,98	9,22	12,849	51,72	11,06
1990	52,263	14,7	11,41	38,617	12,8	14,98
1995	83,187	9,21	14,69	72,759	17,44	18,24
2000	115,300	27,9	16,77	86,357	4,75	18,24

MANBA: Butun Jahon Turizm Tashkiloti.

Turizm sohasida mintaqa bo'yicha Xitoy, Gonkong, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand dunyo turizm markazlari ichida eng sevimli va yuqori darajadagi talabga sazovor bo'lmoqdalar. Ushbu davlatlarga 1970-80 yillarni oladigan bo'lsak, 1970 yilda 5.3 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 1980 yilga kelib 20.9 mln. turistlar tashrif buyurgan. O'n yil ichida o'sish sur'ati 194.4% ni tashkil etgan. 1980-90 yillar xorijiy turistlar tashrifi 2.5 marttaga oshgan, 1980 yilda 20.9 mln. turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 1990 yilda esa 52.3 mln. turistlar tashrif buyurgan. 1990-2000 yillarda ushbu mamlakatlarda xorijiy turistlar tashrifi 4 marttaga ko'paygan. 1990 yilda 52.3 mln. turistik tashriflar qayd qilingan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 115,3 mln. kishini tashkil etgan. O'sish sur'atlari esa 149.3% ni tashkil etgan.

2018 yilga kelib turizm bo'yicha, aniqrog'i xalqaro turistlar oqimi bo'yicha Osiyoning lider davlatlari Xitoy, Tailand, Yaponiya,

Gonkong va Malayziyalar egalashdi. Eng dinamikligi esa – Eron, Vyet Nam, Laos bo’lishdi.

Jadval. - 7.3. Osiyo mamlakatlarida (top 20 talik) xalqaro turizmida ko’rilgan daromad, mln.doll.

t/r	davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yildagi ulishi
	Osiyo va Tinch okean havzasi	254,367	395,996	435,460	100
1	Tailand	20,104	56,938	63,042	14.5
2	Avstraliya	32,584	41,732	45,035	10.3
3	Yapaniya	13,199	34,054	41,115	9.4
4	Xitoy	45,814	38,559	40,386	9.3
5	Makao (Xitoy)	22,276	35,575	40,187	9.2
6	Gonkong (Xitoy)	22,200	33,339	36,703	8.4
7	Hindiston	14,490	27,365	28,568	6.6
8	Singapur	14,178	19,738	20,528	4.7
9	Malayziya	18,115	18,323	19,143	4.4
10	Janubiy Koreya	10,328	13,368	15,319	3.5
11	Indoneziya	6,958	13,139	14,110	3.2
12	Tayvan (Xitoy)	8,721	12,315	13,704	3.1
13	Yangi Zelandiya	6,522	10,593	11,004	2.5
14	Vyet Nam	4,450	8,890	10,080	2.3
15	Filippin	2,645	6,988	7,461	1.7
16	Eron	2,438	4,402
17	Shri Lanka	576	3,925	4,381	1.0
18	Kambodja	1,519	3,636	4,352	1.0
19	Maldiv orollari	1,713	2,744	3,028	0.7
20	Fiji	634	926	956	0.2

Manba: www.vikipediya.ru

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, bu o’ntalikka asosan Sharqiy Osiyo (5ta) va Janubiy - Sharqiy Osiyo (3ta) davlatlari egallab turibdi. Bundan tashqari, bu o’ntalikka jadal sur’atlar bilan qit’aning janubidagi gigant davlat Hindiston kirib keldi va jadal ravishda oldinga qarab o’smoqda.

Xalqaro turizmdan daromad ko'rish bo'yisha esa lider davlatlar – Tailand, Avstraliya, Yaponiya va uch Xitoy davlati egalladi.

Osiyaodagi o'ntalik ichida faqat Malayziyada turistlar oqimi kamaygan, qolganlarida esa o'sish kuzatilgan, eng dinamigi esa Vyet Nam, Janubiy Koreya va Hindiston bo'lgan.

7.2. Sharqiy Osiyo mintaqasi turizmining o'ziga xosligi

Sharqiy Osiyoning mamlakatlari - Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Gonkong, Makao va Tayvan xalqaro va milliy turizm sohasida juda katta natijalarga erishib kelmoqda. 1990 yilda Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 28 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib ularning soni 44.1 mln. kishiga etadi. Besh yil ichida o'sish sur'atlari 46.8% o'sganligi kuzatilgan. 2000 yil bu mamlakatlar turistik markazlariga 62.5 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Buning asosiy sababi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida turizm sanoatining yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. 1990-2000 yillar oralig'ida xalqaro turistik tashriflar 162.8% ga o'sganligi kuzatilgan.

Bu hududning turizm sohasida yuqori natijalarga erishishida, dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan «Buyuk sirli mamlakat» Xitoyning ulushi benihoya katta. Xitoyning Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichidagi ulushi 50% ni, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari ichidagi ulushi 5.2% ni tashkil qilgan. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmdan kelib tushgan tushumlar miqdori 47.9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari ichida ulushi 50.6% ni, jahon turizm tushumlari ichidagi ulushi 10.1% ni tashkil qilgan.

Dam olish va ko'ngil ochish maqsadidagi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmda nisbatan yoshroq hodisa – yigirmanchi asrning 80 yillarida shakllana boshlagan. O'tgan vaqt ichida hududga qiziqish o'z dolzarbligini saqlab qolgan kirish turizmi vujudga keldi. Bu hududida turistik kelishlar tarkibi keng miqyosi va sezilarli me'yorlari Xitoyning xalqaro turizm bozori ahvoliga bog'liq. Hududda barcha kelishlarning uchdan bir qismi uning ulushiga to'g'ri keladi, agar Gonkong va Tayvan hududini qo'shsak – 50 % dan ziyodrog'i to'g'ri keladi.

7.3. Xitoy Xalq Respublikasi turizmini tahlili

Xitoy doimo sayohat qilish uchun dunyoda eng jozibali mamlakat hisoblangan. Qadimiy tsivilizatsiya rivojlanishiga ko'ra, Xitoy 7 ming yillik ichida Qadimiy Misr, Babil va Hindiston bilan bir qatorda turadi. Ba'zi bir narsalar esa, Xitoyda boshqa qadimiy tsivilizatsiyadan ko'ra avvalroq paydo bo'lgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Xitoyda 5 mingdan ortiq tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud, ularning ko'plari chet elliklarda hayrat va ajablanish uyg'otadi. Eng mashhur yodgorliklardan biri esa, bu qariyb 8000 km.lik Buyuk Xitoy Devoridir.

Mamlakat poytaxti Pekin shahri. Pekin, xitoyliklar o'z poytaxtlarini Beytszin deb atashadi, mazkur nom xitoy tilidan Shimoliy poytaxt deb tarjima qilinadi. Xitoy o'zining rejalashtirilishining qat'iy geometriyasi va ko'chalarining dunyoning tomonlariga ko'ra mo'ljallanishi bilan o'ziga e'tiborni tortadi. Shaharning yuragi dunyodagi eng katta hisoblangan Tyananmen maydonidir, u osmon sokinligi Darvozasidir.

Mamlakat iqlimi - vli iqlim. Xitoyning katta qismi mo'tadil va subtropik mintaqalar chegaralarida, janubiy qismi esa tropik mintaqasida joylashgan.

Dunyodagi eng qadimiy millatlardan va davlatlardan biri. Davlat tuzumi - Xalq respublikasi. Davlat hokimiyatining oliy organi - Butun Xitoy xalq vakillari Kengashi. Maydoni – 9.6 mln. kv. km., aholisi - 1420 mln.kishi (2020 - yil), tili - xitoy, dini - buddizm, daosizm, konfutsiylik, 30 mln. musulmon bor, pul birligi - yuan. Yirik shaharlari: Pekin, Shanxay, Tyan - tszin, Lyuyda, Uxan, Chuntsin. XXR 1949 yil 1 oktyabrda tashkil topgan. Shuning uchun 1 Oktyabr milliy bayram sifatida bayram qilinadi.

XXRning iqtisodi keyingi 40 - yilda doim o'sib kelmoqda va 2010 - yilda faqat AQSh dan keyinda qolib, nominal YaIM miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turar edi. Xitoyning iqtisodiy xo'jalik yuritish tajribasi, bozor muammolari, moliya uslublari katta bir maktab, aholisi miqdoriga nisbatan kichik hududda beqiyos ko'p xalqni ish, moddiy ne'matlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash, ishlab chiqarish, ta'minot, iste'mol jarayonini boshqarish, madaniyatni ko'tarish, xalqaro bozor raqobatlariga dosh berish bu hazilakam ish emas. Bu o'ta uddaburonlik, epchillik, ishbilarmonlik,

tadbirkorlik, ma'suliyat, idora qilish va mustahkam intizomni taqozo etadi. Bu borada xitoyliklardan o'rgansa va ibrat olsa arziydi.

Xitoyda turizm so'ngi o'n yillikda juda ham tez rivojlanayotgan sohadir. Chet ellik turistlar tashrifi bo'yicha Xitoy dunoda 3-o'rinda turadi. Undan keladigan daromad bo'yicha esa 4-o'rinda turadi (pandemiyadan oldingi holat).

Xitoyning sayohatgohlarini 3 guruhga bo'lsak bo'ladi: tabiat obyektlari, tarixiy obidalar va milliy an'analar obyektlari.

Buddizm va Daosizmda Xitoy Muqaddas Tog'lar maqomini quyidagi besh cho'qqi kiritiladi: sharqda Tayshan, janubda Xenshan, g'arbda Xuanshan, shimolda Xen va markazda Sunshan. Szyuchjaygou milliy bog'i, Sichuan provinsiyasidagi Xuangoushu sharsharasi, Guansi-Chjuan avtonom rayonidagi Guylin shahar okrugi manzaralari ham diqqatga sarovor joylardir. Yantszi daryosi ham shular jumlasidandir.

Xitoyning uzoq yillik tarixi ko'plab yodgorliklar va shaharlarni qoldirdi. Xitoydagi eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan shaharlar 54tani tashkil etadi. Buyuk Xitoy Devori esa eng mashhur turistik maskan va Xitoyning milliy ramzi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari Buyuk Ipak Yo'li ham ko'plab sayohalrning diqqatini o'ziga qaratadi. Xenan provinsiyasida Shaolin monastiri joylashgan. Bu monastir dzen-buddizmning va shaolin ushuni jang san'atining vatanidir.

Xitoy sayohat va turizm bozorini rivojlanishini yuksaltirgan bir necha omillar mavjud: nufuzga, obro' - e'tiborga erishish yaxshigina qonuniy qolibga qo'yilgan, viza jarayonlari osonlashtirilgan va valyuta kurslari qulaylashtirilgan. Xitoy – juda ko'p tarixiy yodgorliklarga boy mamlakat. Jahon ahamiyatiga ega, ulardan 240 tasi davlat himoyasidadir. Tarixiy va inqilobiy an'analariga boy bo'lgan 24 shahar daxlsiz deb e'lon qilingan.

YUNESKONing xalqaro yodgorliklari ro'yxatidan Xitoyning 41ta obyektlari o'rin egallagan. Bulardan 29tasi madaniy, 8tasi tabiiy va 4tasi aralash kriteriyalarga bo'lingan. Bu obyektlar quyidagilar: Yopiq Shahar, Mukden saroyi, Terrakota armiyasi, Mogao ibodatxonasi, Tayshabn tog'i, Pekin odami qoldig'ari, Buyuk Xitoy Devori, Uzun Devor, Xuanshan tog'lari qo'riqxonasi, Xuanlun viloyati, Tszyuchjaygou vodiysi, Ulinyuan viloyati, Udanshan tog'aridagi qadimiy qurollar, Potala saroyi tarixiy ansambli va boshqalar.

Xitoyning eng mashhur diqqatga sazovor joylari: Shanxay hududida eng mashhur me'moriy-peyzajli ansambl YuyYuan parki (Shodlik bog'i) hisoblanadi. Bu mumtoz xitoy uslubidagi bog' janubcha hislati bilan ajratib, 400 - yildan ortiq tarixga ega. Nefrit Budda ibodatxonasi, Lunxuasi monastiri, Shanxay teleminorasi, "Syuyji" va "Minyue" maydonlari, Shanxay muzeyi, Shanxay katta teatri, Shanxay tsirki.

Butun jahon merosining bir qismi hisoblangan noyob yodgorliklari va tabiiy hududlarining soni bo'yicha Xitoy dunyoda Ispaniya va Italiyadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Xitoyning diqqatga sazovor joylariga quyidagilar kiradi:

- Qadimgi Kogure qirolligi poytaxti xarobalari va uning hukmdorlari qabrlari (shimoli-sharqiy Szilin provintsiyasi);

- Sin dinastiyasi imperatorlari va ular ajdodlarining 3 ta qabri (shimoli-sharqiy Lyaonin viloyati);

- Sin dinastiyasining birinchi va ikkinchi imperatorlarining saroyi majmualari (Lyaonin viloyati).

Pekin dunyodagi qadimiy shaharlardan biri va XXR ning poytaxti, butun dunyoga mashhur madaniy va tarixiy markaz. Xitoy poytaxtining markazida juda chiroyli diqqatga sazovor joy bor – "Qirmizi ta'qiqlangan shahar", hozirda bu Gugun muzeyi va o'timshda bu bino Xitoy imperatorlarining qarorgohi bo'lgan. Ba'zilar, qadimgi Xitoyning eng noyob durdonalaridan biri bu – Samo Ibodatxonasi deb biladilar. Mazkur ibodatxona Samo uchun qurbonlik qilishga xizmat qilgan. U 500 yillar avval qurilgan. Xitoyda imperatorlarni "Samo O'g'li" deb ataganlar. Samo Ibodatxonasida yana bitta diqqatga sazovor joy bor, u - Aks – sado beruvchi devor.

Pekinning diqqatga sazovor joylari: Buyuk Xitoy devori, Yozgi saroy, Xitoyning ajralmas mo'jiza – Pekin operasi hisoblanadi. Min va Sin sulolalarining imperator saroylari va Shenyan (Mukden saroyi, Syanshan (Xushbo'y balandliklar), Lama ibodatxonasi, Osmon ibodatxonasi, Imperator bog'i, Tyananmen maydoni.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Xitoy insoniyat tsivilizatsiyasining qadimiy madaniyat beshiklaridan biri bo'lganligi sabab, turistlarning asosiy qismi shu maqsadda tashrif buyurishadi. Xitoyning arxeologiyasi va me'morchiligi juda boy va rang-barang. U Xetao, Yanshao, Lunshan – kabi ibtidoiy madaniyat manzilgohlari

bilan mashhur. "Buyuk ipak yo'li" ob'ektlari, dinlari, davlatchiligi, san'ati, hunarmandchilik markazlari, chinni idishlari, ipak matolar ham juda mahshurdir. Pekinda Imperatorlar saroylari, Gugun muzeyi, Tyan Tan ibodatxonasi, Buyuk Xitoy devori, Yozgi Imperator saroyi, Min sulolasi davri yer osti qabrlari, zooparki, parklari, akvaparklar. Shanxay: dengiz porti, Yuyfoslar ibodatxonasi, "Sharq marvaridi" teleminorasi, Yuyyuan parki, muzeyi, akvanarium, dengiz qirg'oqlari, pionerlar saroyi kabi qator ob'yektlari bilan mashhur. Loyan: tosh g'ori, Denfen shahridagi Shaolin monastiriga ekskursiyasi, Gunfu ta'limoti. Urumchi: "Xun Shan" parki, "Nan Shan" yaylovi. Gonkong: yirik port, savdo, moliyaviy va turizm markazi, shop tur, madaniy (opera, teatr) turlati, istirohat bog'lari, ot sporti, festivallar va okeanarium bilan mashhur. Gonkong hududida zoologiya va botanika bog'lari, Repalz Bey, Dip Uoter Bey va Stenli plyajlari joylashgan. Tsim Sha Tsui (Kaulun yarimoroli) – bu yerda Gonkongning madaniy markazi – Kosmonavtika muzeyi, Tarix muzeyi, mashhur Peninsula mehmonxonasi va "Devor bilan o'ralgan shahar" joylashgan.

Makao esa kazinolar markazi. Turistlarning Gonkong orqali katerlarda tashrifi mavjud.

Shanxay – nafaqat Xitoyning, balki jahonning eng yirik yirik shaharlardan biri, Yantszi daryosi deltasida joylashgan. XXRning markaziy bo'ysunishdagi to'rta shahridan biri, mamlakatning muhim moliyaviy va madaniy markazi, shuningdek dunyodagi eng yirik dengiz porti. Shanxayning eng mashhur ko'ngilochar markazi Paramount Hall ("Yuzlab ajoyibliklar darvozasi") bo'lgan Nefrit Budda qasri bilan mashhurdir. Shanxay shahrida Xitoyning yangi reformasi yangi cho'qqilarga chiqmoqda. Mazkur ko'tarilishning ramzi bo'lib Xuanpu daryosi ko'prigi, Shanxay teleminorasi, "Sharq durdonalari"nomlariga ega bo'lgan, metropoliten, yomg'irdan keyin bodrab chiqqan qo'ziqorinlarga o'xshaydigan osmono'par binolar va ofislar ham o'tadi. Shanxay o'zining xalqaro ahamiyatga ega megapolisi atmosferasi bilan jalb etadi.

Nankinda juda ko'p o'rta asr inshootlari, shu jumladan Min davri shahar devori, qasrlar va budda ibodatxonalari, shuningdek Xitoy Respublikasining birinchi prezidenti Sun Yatsenning mavzoleyi saqlanib qolgan. Guanchjouning ziyoratgoh va diqqatga sazovor joylari: Chjenxaylou uyi (Dengizni tinchlantirish uyi), Yuesyu parki,

Sun Yatsenning memorial saroyi, Bayyun tog'i, Guansyaosi ibodatxonasi, Yuntay bog' - qo'rg'oni, Guanchjou Okeanariumi.

Qadimgi Xitoy qurilmalaridan biri esa, bu "Muallaq Ibodatxona"dir (Shansi provintsiyasi). Uning qurilishini 1500 yil avval boshlaganlar. Mazkur 3 qavatli ibodatxona haqiqatan ham toqqa yopishgan holda muallaq tarzda osilib turadi. Pastda u uzun ustunlarga tayanib turadi, uning tepa qismi esa, yerdan 50 metrdan ortiqroq uzoqlikda joylashgan.

Leshan shahridagi Buddaning tosh haykali (Sichuan) – Buddaning dunyodagi eng katta tasviri bo'lib hisoblanadi. U to'g'ridan-to'g'ri qoyaga osilgan, 71 metr uzunlikda va 28 metr kenglikda turibdi. Uning qurilishiga 90 yil ketgan.

Tyantzin esa o'zining baliqchilik sanoati bilan mashhur bo'lib, mazkur shahar XIII asrda baliqchilar qishloqchasida joylashgan. U Xyanxe daryosining quyilish joyida joylashgan. Zamonaviy Tyantszin – Xitoyning uchinchi o'rindagi sanoat markazidir.

Qadimgi Sian shahrida imperator Sinshixuanning maqbarasidan askarlar va otlarning terrakotadan yasalgan figuralaridan iborat noyob muzey bor. Chjoukoudyan yaqinida esa YUNYESKONing madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilgan noyob arxeologik uchastkalar – odamning eng qadimgi shakllari qoldiqlari topilgan joy joylashgan. Suchjouda imperator dinastiyasining ko'pgina avlodlari tomonidan barpo etilgan va yaxshi holatda saqlanib qolgan 100 dan ortiq park ansambllari mavjud. Pekinning janubi-sharqida mashhur Tyanshan tog'i – daosizmning izzat-hurmat qilinadigan muqaddas joy, Konfutsiy ibodatxonasi va Yanshengun rezidentsiyasining me'moriy bog' majmui bor.

Pinyao shahri YUNYESKONing jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va qadimgi shahar devori (1370 y.), Vanfosi (X asr) ning yog'och paviloni bo'lgan Chjengosi ibodatxonasi, Shuolinsi (571 y.) va Sinsyuyguan (657 y.) ibodatxonalari hamda juda ko'p monastirlari bilan mashhur. Litszyan shahrining YuNYeSKONing jahon merosi ro'yxatidan o'rin olgan diqqatga sazovor joyi rangbarang tosh plitalar yotqizilgan ko'cha – Sifan maydoni – qadimdagi Ipak va Choy savdo yo'llarining markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Ipak yo'li bo'yicha sayohat Chan'an (Sian) shahridan boshlanadi va O'rta Osiyodan o'tib, O'rta yer dengizining sharqiy qirg'og'igacha o'tadi. Sayyohlar Sintszyanning uchta mashhur doralarda, Yantszi daryosida,

Sansyadagi Emey tog'ida va Szyuchjaygou davlat qo'riqxonasida borib kelishlari mumkin. Mogao va Binlini g'ordagi ibodatxonalar, Maytszishan tog'laridagi g'orlar; Szyayuyguan zastavasi – Buyuk Xitoy devorining oxirgi nuqtasi, lamaistlarning Taersi ibodatxonasi, Gaochan shaharchasining xarobalari bilan tanishishingiz mumkin bo'ladi.

Shenchjen – Guanchjou provintsiyasining janubiy qismidagi qirgoqdagi shahar, qirg'oq chizig'i uzunligi 230 km. Shenchjen erkin iqtisodiy hudud deb e'lon qilingandan so'ng shahar Xitoyning e'tirof etilgan sayohatchilarning “Makka” siga aylandi. Bu yerda Xitoydagi turmush darajasi eng yuqorisiga erishildi. Shenchjenda hayot tunda boshlanadi – shahardagi madaniy hayotni xususiy kompaniyalar boshqaradi, xilma-xillik ana shu bilan izohlanadi: raqs zallari, diskotekalar, karaoke, choyxonalar, barlar mavjud. Tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligi bo'sh vaqtlarini Shenchjen shahrida Renminnanlu (Renmin Nanlu) va Szyanshelu (Jianshe Lu) ko'chalaridagi do'konlarda va restoranlarda o'tkazadi. Szinsyuchjunxua, Xitoy milliy madaniyati qishlog'i, Okeanariy, “Minsk” avianosetsi.

Xaynan – Xitoyning janubida joylashgan katta tropik oroldir. Orol hududi 33.920 kv.km ni tashkil etadi. Xaynan Gavaya orollari bilan bir xil kenglikda joylashgan va shu sababli “Sharqiy Gavaya” deb ham ataladi. Xaynan Xitoyning janubidagi provintsiyasi hisoblanadi. Uning poytaxti va eng yirik shahri – Xaykou. Qirg'oq chizig'ining uzunligi 209 km, qumli plyajlar, kokosli o'rmonlar, gavanlar va ko'rfazchalar, g'orlar – bularning hammasi shaharga o'ziga xos jozibadorlikni baxsh etadi.

Xaynan – kattaligi bo'yicha ikkinchi (Tayvandan keyin) va Xitoyda tropik iqlimiga ega bo'lgan oroldir. Xaynan orolining havosi sof va shifobaxshdir. Xaynan orolining iqlimi yumshoq, tropik, orolda yil bo'yi yoz bo'ladi. Turistik diqqatga sazovor joylari: Oroldagi qo'ltiq ko'rfazlar: Dadongxay ko'rfazi va *Sanyavan* ko'rfazi, “*Nanshan*” madaniy-sayyohlik hududi, “Luxueytou” parki, Okeanarium, timsohlar pitomnigi, dengiz zooparki, Chig'anoqlar muzeyi, Kapalaklar darasi, “Dunyoning oxiri”.

Xitoyning buddizm va daoizmda muqaddas sanaladigan besh tog'- g'arbda Tyan-Shan, janubda Xenshan, sharqda Xuansahan,

shimolda Xen, markazda Shandun tog'i. Suchuandagi Tszuyuchjaygou milliy parki, Guychjoyudagi Xuangoushu sharsharasi, Tyanchi ko'li, yantsizi daryosidagi, Uch dovon (Tsyutan, Silin, U). Tarix va madaniyat yodgorliklari: Buyuk Xitoy devori (8ming km.dan uzun), Mogao g'ori (bu g'orda 2100dan ortiq haykallar bor), Shaolin monastiri (495 yil qurilgan), Udanshandagi daoizm monastir va ehromlari, Lushan madaniyati (5-6 ming yoshli arxeologik yodgorliklar). Xullas, Xitoyda tarixiy obida va kpo'rishga arziydigan joylarning son-sanog'i yo'q.

Xitoyning 2018 yilda diqqatga sazavor joylarining top o'ntaligi: 1. Biyuk Xitoy devori (dunyoning yetti mo'jizasidan biri deb tan olingan ob'yaekt); 2. Siandagi askarlar haykali (terrakt armiya, 2000 ming yil yer ostida yotgan, 1974 yil qazib olingan); 3. Pekindagi "Taqiqlangan shahar" (560 yil davomida 24 imperatorga rezidentsiya bo'lgan); 4. Shanxaydagi Vaytan dengiz bo'yi (18-19 asrlarda shaharning rivojlangan rayoni bo'lgan); 5. Guylindagi Li daryosi (daryo bo'ylab karst landshaftlari); 6. Chendudagi Katta pandalar markazi (noyob va mamlakat simvoliga aylangan hayvon asraladigan joy); 7. Xuanshan (milliy parkning sariq tog'lari, Xitoyning eng go'zal tog'lari hisoblanadi); 8. Tibet poytaxti Lxasadagi Potala qasri (Dalaylamalar muziyi bilan mashhur); 9. Gonkongdagi Viktoriya gavani (eski shaharning yuragi, 1888 yildagi tramvayi bilan mashhur); 10. Xanchjoudagi Sixu ko'li.

Xitoyda turizmi tarixiga nazar solsak, u to'liq parvozlar va qulashlardan iborat. 1923 yil tijoriy banklaridan birida turizm bo'limi ochiladi. Keyinchalik u mustaqil korxonalar – Xitoy turistik byurosi sifatida ajralib chiqadi. U Xitoyning yirik shaharlarida 20 dan ortiq bo'limlar ochadi. Shuningdek, ayrim Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda uning filallari mavjud edi. Ammo, iqtisodiy jihatdan ancha qoloq bo'lgan mamlakat, buning ustiga fuqarolar urushi holatida bo'lgan Xitoy turistik yo'nalishlarda jalb etuvchi davlat bo'lolmasdi.

Xitoy Xalq Respublikasi e'lon qilinganidan (1949 yil) so'ng Xitoy turizmi tarixida yangi davr boshlandi. Xitoyliklarning xorijdan qaytish oqimi jadal o'sdi, ular asosan Gonkong va Makaodan qaytib kela boshlashdi. Ular XXRga qarindoshlari bilan uchrashish, ekskursiyaga va mamlakatdagi vaziyat bilan tanishish maqsadida kelishardi. Bundan tashqari, sobiq SSSR va Sharqiy Yevropa

mamlakatlari bilan turizm sohasida hamkorlik kengaydi. Ayrim G'arbiy Yevropa mamlakatlar bilan, jumladan, Frantsiya turistik tashkiloti ishchanlik aloqalari o'rnatildi. 1956-1958 yillarda XXRga 10 mingdan ortiq turistlar tashrif buyurdilar. 60-yillar Xitoy uchun siyosat va iqtisodiyotda o'sish, xalqaro maydonda ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi. 1964 yil XXR davlat kengashi boshlig'i Chjou Enlay Yevropa, Osiyo, Afrika bo'ylab 14 mamlakatga safar uyushtirdi. Xitoy va Frantsiya mamlakatlari o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Xitoyni Pokiston bilan bog'lovchi avialiniya ochildi. Bularning barchasi turistik kelishlar o'sishiga imkon berdi. 1965 yil Xitoyda bo'lgan xorijiy turistlar soni rekord darajasiga – 13 ming kishiga yetdi.

Xitoydagi «Madaniy inqilob» (1966 yil) turistik almashinuvlarning qisqarishiga olib keldi. Faqat 1971 yilda Xitoy Ruminiya va Yugoslaviya bilan turizm sohasidagi hamkorlikni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. Xuddi o'sha yili Xitoyga birinchi Amerika turistlari – bor – yo'g'i 30 kishi tashrif buyurdi.

Xitoy turizmining haqiqiy uyg'onish davri 70-yillar bo'ldi. Xitoy ochiqlik va islohotlar sari qadam qo'ydi. Mamlakat jahon turistik bozoriga chiqdi. Avval boshda Milliy turistik ma'muriyat keng reklama kompanisi olib borgani yo'q. Shunga qarmasdan, Xitoyga tashrif buyurishni xohlovchilar juda ko'p bo'lib chiqdi.

Xitoyda boshqa sohalar singari turizm sohasi ham jadal tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Xitoy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi asosiy turistik mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Xitoy dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan mamlakat. Xitoy barcha chet elliklar uchun qadimiy madaniyatga ega bo'lgan «Buyuk Sirli» mamlakatga aylanib bormoqda. 1978 yildan boshlab Xitoy o'z iqtisodiyotini zamonaviylashtirishga harakat qilgan holda turistlar uchun «Ochiq eshiklar» siyosatini yurgaza boshladi. Xitoy Xalq Respublikasining bunday siyosat yurgazishining asosiy sababi – mamlakatga chet el valyutasini oqib kirishi kerak edi. Xitoyda 1978 yildan boshlab misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa mamlakatda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilganligi butun dunyo e'tiborini o'ziga tortdi.

1983-1989 yillargacha turizm Xitoy uchun chet el valyutalari tushumining eng asosiy manbai bo'lib hisoblanar edi. Bu muddat ichida Xitoy Xalq Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan

o'zaro aloqalari o'zgarib boshladi. 1987 yildan boshlab esa Tayvan aholisi Gonkong orqali Xitoy Xalq Respublikasiga sayohatlar qila boshladi. 1990 yilda XXRga 27 mln. chet el turistlari tashrif buyurgan bo'lsa, ularning 25 mln. nafarini Tayvan, Gonkong, Makaodan kelgan turistlar tashkil etgan edi. 1980 yillarning oxirlariga kelib XXRga chet el turistlari tashrifi sonining o'sishi pasaya boshladi. Buning asosiy sababi – mamlakatda turizm sanoati yaxshi rivojlanmaganligi edi. Turizm menejmenti umuman yo'lga qo'yilmagan edi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy talablarga javob beruvchi o'rta va oliy darajadagi yangi mehmonxonalar qurilishiga sabab bo'ldi. Bunga chet el kapitali ham jalb qilindi. Turizmni yanada rivojlantirish uchun aeroportlar, temir yo'l, transport qurilishlariga ko'proq e'tibor qaratildi.

1979-1988 y.y. Xitoyga yo'naltirilgan asosiy turistik oqim AQSh va Yaponiyada shakllanadi. Tashrif buyuruvchilarning har uchinchi yapon, har beshinchisi amerikalik edi. Xitoyga turistik kelishlarning yarimini ularning ulushi tashkil qilardi. Keyinchalik ular qatoridan G'arbiy Yevropa mamlakatlari – Frantsiya, Buyuk Britaniya, GFR va Janubi-Sharqiy Osiyodan – Tailand, Singapur va Filippin joy oldi. Ulardan keyin Avstraliya va kanadaliklar kela boshlahdi. 1989 yildagi «qayta qurish» tufayli sobiq Sovet Ittifoqi va XXR o'rtasidagi chegaralar ochildi hamda mamlakatga ko'plab sovet fuqarolari ham tashrif buyura boshlashdi. Ularning tashriflaridan asosiy maqsad «Shop tur» edi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish maqsadida turistlar uchun maxsus turistik hududlar tashkil qilina boshlandi. 1982 yilda bunday turistik hududlar soni 122 tani tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda ularning soni 500 taga yetkazildi. Xitoyning shimoli-sharqida ham markazidagi turistik hududlarda asosiy tarixiy va madaniy yodgorliklar joylashgan bo'lsa, janubiy turistik hududlarda dam olish, hordiq chiqarish maskani sifatida so'lim va go'zal oromgohlar bunyod etilgan.

Bir vaqtning o'zida turistlarning kirish oqimi tarkibida o'zagarishlar ko'zga tashlandi. Xitoyga turistik oqimlarni ta'minlab turgan mamlakatlar qatoriga Malayziya, Koreya Respublikasi, Mug'iliston va MDH mamlakatlari qo'shildi.

Xitoy asta-sekin ichki hududiy turizm ustunligiga erishishni mo'ljallab bordi. Bu tendentsiya ayniqsa 90-yillar oxirida yaqqol

ko'zga tashlanadi. O'shanda mamlakatga tevarak-atrofdan kirish turistik oqim 60 % ni tashkil etdi.

1997 yilda Gonkong Xitoy tarkibiga qayta qo'shildi. Unga Xitoy ichida o'z tuzumini 50 yilgacha saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lgan avtonomiya berildi. Hozirgi kunda turizm Gonkong avtonomiyasida chet el valyuta tushumi manbai sifatida 3-o'rinni egallaydi. Gonkongga xorijiy turistlar asosan shoptur, madaniy hordiq, sport asosan ot sporti hamda har yili o'tkaziladigan turli xil festivallarda ishtirok etish uchun kelishadi. Shuningdek Gonkongda «Sun» imperatorligi davridan saqlanib qolgan madaniy yodgorliklarni ziyorat qilish uchun ham ko'plab xorijiy turistlar tashrif buyuradi. Hozirgi kunda Xitoy turistik markazlariga asosan Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Olmoniya, Koreya, Tailand, Avstraliya, Yangi Zelandiya fuqarolari tashrif buyurmoqda. Xitoyliklar esa, asosan Tailand, Filippin, Indoneziya, Singapur va Yaponiya mamlakatlariga turistik sayohatlarga chiqadilar.

Xitoyda turizmni rivojlantirishga qaratilgan siyosatning o'ziga xos tomoni unda «arzon narxlar» siyosati qo'llanilayapti. Jahon bo'yicha har bir turist o'z sayohati davomida o'rtacha 675 AQSh dollari sarflasa, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida har bir turist o'rtacha 720 AQSh dollar sarflaydi, Xitoyda esa har bir turist 2002 yil ma'lumotlari bo'yicha 552 AQSh dollar miqdorida mablag' sarfladi.

Keyingi paytda o'zgarishlar nafaqat XXPdagi turizm geografiyasida, balki xorijiy turistlar talablarida ham ro'y berdi. Agar ilgari amerikaliklar va yevropaliklar Pekin - Shanxay – Sian – Gumlin yo'nalishida sayohat qilishgan bo'lsalar, XXR sarhadlarini tark etgan ba'zilar Gonkong orqali yana Guanjouga ham tashrif buyurdilar. Ammo, Xitoy yovvoyi tabiatdan bahra olish, mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlar bilan tanishish, xitoyliklar turmush tarzi bilan tanishishni istovchilar safarlari ko'paydi. Xitoyning mashhurligi, turizm industriyasini har qanday tashrif buyuruvchining xilma-xil istak – xohishlarini qondira olishi tufayli keluvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Xitoy hukumati 20 asrning oxirgi o'n yili mobaynida xalqaro turizmni rivojlantirishga katta e'tibor bergan. Agar Xitoy 1990 yil turistik kelishlari bo'yicha dunyoda 12-o'rinni egallagan bo'lsa, 1995 yilda 8-o'ringa chiqdi, 1999 yilda esa birinchi beshlikka kirdi. BTT

ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda 1999 yili 14 mln. kelish qayd etildi. Gonkong qo'shib hisoblanganda esa – 21 mln. kishini tashkil qildi.

21 asrning ikki o'n yilligida esa jahonda to'rtinchi o'ringa o'rnashib oldi. Hozirgi paytda Xitoy bu ko'rsatkichlar bo'yicha Osiyo mamlakatlari ro'yxati boshida turibdi. Uchinchi ming yillik boshida nafaqat Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, balki butun dunyoda yetakchilik qilish sari qadam tashlayapti. BTT prognozlariga bo'yicha, 21 asrning 20 yillari o'rtalariga borib Xitoyda kirish oqimi (Gonkongni qo'shib hisoblanganda) 200 mln. dan oshib ketadi, bu AQShga, Frantsiyaga va Ispaniyaga nisbatan qaraganda 2-2.5 marta, Italiya va Buyuk Britaniyaga nisbatan 4 marta ko'pdir.

Bugungi kunda Xitoyda 1364 xalqaro turistik agentlik bor, ulardan 249tasi Pekin, Shanxay, Tyantszin va Chuntsin shaharlarida joylashgan. Ular Xitoy Turistik Xizmatiga hisobot topshirishadi. Butun Xitoy hududi bo'ylab xalqaro standartlarga javob beradigan ko'plab mehmonxona va restoranlar qurilgan. Bugungi kunda Xitoydagi 9751ta mehmonxonalar "yulduzli" reytingga ega.

Xitoyga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 62.9 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmga ko'rilgan daromad o'sha yili 40.4 mlrd. dollarni tashkil etgan (ikkala ko'rsatkich bo'yicha ham dunyoda birinchi o'rinda). Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 149.7 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat bir yilda 277.4 mlrd.dollarni tashkil etgan, bu dunyuda eng katta xarajat hisoblanadi.

7.4. Yaponiya mamlakati turizmini tahlili

Yaponiya (yaponcha Nippon, Nihon, yaponiyaliklar o'z yurtlarini «Nixon» deb ataydilar, bu so'z ikki ieroglifdan tashkil topgan bo'lib, «Ni» quyosh va «Xon» ildiz, tomir so'zlari birikmasining ma'nosi «quyosh tomiri» demakdir. Odatda bu davlatni «Kun chiqar mamlakat» deb ham ataydilar.) - Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat. Eng yirik orollari: Hokkaydo, Honshu, Sekoku va Kyushu. Shimoldan Oxota dengizi, sharq va janubiy - sharqdan Tinch okean, g'arbdan Yapon va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Poytaxti - Tokio shahri, Yaponiya ma'muriy jihatdan 47 prefekturaga bo'linadi. Yaponiya hududida 6.8 mingga yaqin orol

bo'lib, shimoliy sharqdan janubiy g'arbga qariyb 3,5 ming km ga cho'zilgan.

Yaponiya mo'tadil subtropik va tropik iqlim mintqalarida joylashgan, hududining 3/4 qismi qir va tog'lardan iborat. Yaponiyaning go'zal tabiat manzaralari va u yerda joylashgan turistik maskanlar har qanday xorijiy sayohatchilarni o'ziga jalb etadi.

Maydoni – 377.9 ming kv. km., aholisi - 125,9 mln. kishi (2020 - yil), tili - yapon, dini - sintoizm va buddizm, konfutsiylik va daosizm, pul birligi - iena. Mamlakatning asosiy orollari ulkan muhandislik inshootlari ya'ni suv osti tunellar va ko'priklar orqali o'zaro bog'langan. Yirik shaharlari: Tokio, Osaka, Iyokogama, Nagoya, Kobe, Kioto, Sapporo, Fukuoka. Milliy bayrami - 23 dekabr - imperator tug'ilgan kun (1933 - yil).

Tarixda bu mamlakat uzoq vaqt izolyatsiyada bo'lgan – 1641 yildan 1853 yilgacha xorijliklar uchun yopiq bo'lgan. Hozirgi Yaponiya esa birinchi navbatda – super zamonaviy Tokio, go'zal provinsiyalar, Fudzi tog'ining qorli tepasi, Sakura gullari, Okenavaning plyajlari, Sintoizmning tarixiy yodgorliklaridir.

Ikkinchi jahon urushidan qattiq siyosiy va iqtisodiy talofat ko'rgan, hatto taslim bo'lishdek og'ir musibatni boshidan kechirgan Yaponiya bir avlod umri davomida sanoat hamda ilmiy-texnika rivojida dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakat darajasiga ko'tarila oldiki, «Yaponiya mo'jizasi» jahondagi barcha olimlar, iqtisodchilar, sotsiologlarni hayratga soldi. Ayniqsa sanoatning va xizmat ko'rsatish sohalarining nihoyatda tez o'sish sur'atlari, jahonda bo'layotgan o'zgarishlarga tezlik bilan moslashuvchanlik, horijdagi ilg'or tajribalarni nihoyatda ustalik bilan ijodiy qabul qilish va yanada rivojlantirish borasidagi nodir qobilyat yaponiyaliklarga xos xususiyatdir. Aynan shu bois u qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan jahonda AQShdan keyin ikkinchi davlatga aylandi. Hozirgi paytda Yaponiyada yuqori texnologiyalar (elektronika, robototexnika) kuchli rivojlangan. Bundan tashqari, avtomobilsozlik va kemasozlik ham yaxshi rivojlangan.

Uzoq vaqt davomida Yaponiya turizmida ancha orqada edi. Ammo, yigirmanchi asrning 40-80 yillardagi yapon mo'jizasi tufayli u iqtisodiy jihatdan dunyoning ikkinchi davlatiga aylandi, xalq faravon bo'lib ketdi. Oldin xorijga chiqish turizmiga katta etibor berildi, chunki kuchli sanoat tufayli eksport saldosi juda katta plyus bilan

chiqar edi.1965-2000 yillarda jahon turizmi 6 marta o'sgan bo'lsa bu mamlakatda 100 marta o'sgan. Asr oxiriga kelib chet elda turistik xarajat bo'yicha dunyoda Germaniyadan keyin ikkinchi o'ringa chiqdi (eng ko'p 1996 yilda bo'ldi: 38.4 mlrd dollarga chiqib ketdi). 2003 yildan boshlab hukumat Yaponiyaga keladigan xorijiy turistlarni oshirish ustida ishni boshlab yubordi. Shu yildan boshlab hukumat turizmga alohida etibor bera boshladi. "Xush kelibsiz"(Yokoso) dasturi bo'yicha 2010 yilga borib 10.0 mln. (2003 yilda esa 5.0 mln. bolgan) turist kelishi kerak edi, bu muvoffaqiyatli amalga oshdi. 2014 yilning iyunida Abe kabineti Yaponiyani qayta tiklash ("Japan is back") strategiyasini e'lon qildi, uning bo'yica 15 yil ichida turistlar oqimini 3 marta oshirish, 2030 yilga borib esa turistlar sonini 30 mln.ga yetkazish maqsadini qo'ydi. Bu dastur asosan 2019 yilga kelib ortig'i bilan bajarildi. Mamlakatga keladiganlar soni 40.0 mlnga yaqinlashdi. 2013 yilda bu ko'rsatgich bo'yicha mamlakat 27 o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 11 o'ringa chiqib oldi.

Yaponiyada quriqlikdagi transport ham, dengiz transporti ham birday rivojlangan. Bu, turizm industriyasini rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Temir yo'llarning uzunligi 27.327 km., avtomobil yo'llarining uzunligi esa 1.111.974 km., ichki daryo portlari 1.770 km. atrofida, ularning sifati esa dunyoda eng zo'rlardan sanaladi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari. Osiyo, AQSh va Yevropadan keluvchilar uchun biznes turizm rivojlangan, mamlakatning ko'plab shaharlarda go'zal va zamonaviy aeroportlar, mehmonxonalar va boshqa binolari bor. Mamlakat Dzyomon madaniyati, budda ibodatxonalari, masalan, Nara shahridagi Yakusidan monastiri, Xoryudzi ibodatxonasi. Nikko shahrining tabiiy go'zalligi, madaniy - tarixiy obidalari. Nantay tog'idagi qadimiy vulqon qoldiqlari. Rinno - dzi budda ibodatxonasi, avliyo Futara-san ziyoratgohi. Shaharning "Muqaddas shahar", - deb e'lon qilinganligi. Mamlakatning o'ziga xos hayvonot dunyosi. Shinam va qulay otellarning ko'pligi. Oshxonalaridagi ajoyib taomlari. Baliq ovlash. Kegen sharsharasi, tog' gullari. Kiotodagi Ryoandzi tosh bog'i, ibodatxonalari. Kasima shahridagi tabiiy go'zallik, plyajlar. Okinava orolidagi "Busana Terras Bich" kurorti, a'lo baholi otellari, aeroporti, eko turizm (Iriomote orolida), baliq ovlash, hunarmandchilik, muzeylar. Asuka qishlog'idagi qadimiy budda ibodatxonalari, maqbaralar, tosh haykallar, haykaltaroshlik, juda rivojlangan velosiped turizmi bilan

mashhurdir. Yaponiyada YONESKOning xalqaro merosi ro'yxatiga kirgan 21ta ob'yekt bor, jumladan, Ximedzi qasri, Kioto va Narining tarixiy yodgorliklari.

2017 yilda Yaponiya 141 mamlakat ichida turizm va sayohat uchun mamlakatning raqobatbardoshligi bo'yicha Osiyoda birinchi, jahonda 4-o'rinni egalalagan.

Kunchiqar mamlakati an'analarni zamonaviylik bilan juda ustamonlarcha uyg'unlashtira olgan mamlakatdir. Qadimiy bino va inshootlar zamonaviy oynali osmono'par binolar bilan qo'shni bo'lib turibdi, u g'arb bilan sharqning afsonaviy qorishmasi hamdir. Bu yerdagi ajoyib atmosferada o'ziga xos va juda qiziq yapon arxitekturasi ko'rish mumkin: Kiotodagi "Oltin pavilion", Imperatorlar saroyi, juda ko'p qadimiy ehromlar. Bolalar uchun hordiq chiqarish ob'yektlari – Disneylend, "Yuniversal studio" "Disney-si" va h.

Har yili o'tkaziladigan choy marosimlari betakrorligi bilan ajralib turadi, ushbu marosimni ko'rgan har bir chet ellik sayyoh ushbu marosimga qatnashgisi, marosimda tayyorlangan har bir choyni iste'mol qilib ko'rishni xohlaydi.

Yaponiyaning tabiati shu darajada betakrorki xuddi musavvir chizgan sur'atga o'xshaydi. Ushbu sur'atda siz o'zingizni xuddi jonli ertakka tushib qolgandek his qilasiz. Nafis gullagan sakura daraxtlari insonni o'ziga shu darajada maftun etadiki, ularga mahliyo bo'lgan har bir inson hayotidagi barcha g'am tashvishlarini unutadi. Yosh oilalarga sakura daraxti gullari taqdim etilib ularning oilalariga, baxt-saodat, quvonch va shu bilan birgalikda ularga farzand tilashishar ekan.

Yaponiya poytaxti – Tokio dunyodagi eng yirik shaharlardan biri, eng muhim sanoat, transport, turizm, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. Shaharning tashqi qiyofasida Yevropa va Yaponiya arxitekturasining qo'shilib ketgan shakli aks etadi. Tokio – dunyoning eng katta megapolisi, xuddi o'tmishdan eng yaxshi narsalarni olib kelajakka kirib borgan shahar, futuristik Odayba va moliyaviy markazning osmono'par binolari bilan Sindzyuku, xuddi bir dekoratsiyaga o'xshaydigan Fudzi tog'ining korinishi-yu, u bilan qo'shni bog'lar, imperator qasrlari va Kabuki-dza teatri. Tokio dengiz qo'ltig'idan chiqaverishda hamma sohalar bo'yicha sanoati rivojlangan hududning ikkinchi eng yirik markazi– Iokagama shahri

joylashgan bo'lib, u dengiz kanali orqali poytaxt bilan qo'shilgan. Bu shaharda mamlakatning eng yirik mehmonxonalari va turizm markazlari joylashgan.

Kioto mamlakatning eski poytaxti, madaniy qadriyatlar yuragi, buddizm va sintoizm ehromlari (shaharda 1600 buddizm ehromlari bor) va bog'lari hamda hordiq chiqarish uchun rang - barang mahsulot va xizmatlar bilan mashhur. Sapporo o'zining shahar yaqinida bo'lgan issiq suv manbalari bilan turistlarni jalb qilsa, Osaka hashamatli tematik park – “Universal studios Japan” bilan, Nagoya esa milliy hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan haddan tashqari katta savdo mahallasi bilan, Okinava bir necha o'n orollarda joylashgan o'zining plyajlari bilan turistlarni o'ziga rom qiladi. Ryukkyu esa o'rta asr qasrlari bilan (ularning anchasi YUNESKO ro'yxatiga kirgan) toshib ketgan qasrlari bilan, Xirosimo esa insoniyat boshiga tushgan eng katta musibati bilan, Kamakuru dunyoda eng katta sintoistik ehromi va budda haykali bilan mashhur.

Yaponiyada milliy an'analar juda ezozlanadi, bu ularning bayramlarida ham seziladi – Sakura bayrami, guruch ekish bayrami, buddaning tug'ilgan kuni festivali, qor festivali, choy marosimlari, Kabuki teatri, Sumo kurashi.

Xullas, Yoponiyada ko'rishga arziydigan joylar ko'p, biz faqat eng zo'r o'ntasini beramiz. 2018yilda Yopniyaning top-o'n diqqatga

memorial parki; 4) Tarixiy Kioto; 5) Itsukusima orolidagi ehrom; 6) Qadimiy Naradagi tarixiy yodgorliklar; 7) Osaka qasri; 8) yapon geyschalari; 9) Nagoyadagi Atsuta ehromi; 10) Fukuoka qasri.

Yaponiyada 10 mln. gektar yerda qo'riqxonalar tashkil etilgan, bu mamlakat hududining 1/4 qismiga to'g'ri keladi, tabiat qo'riqxonalari davlat tomonidan qo'riqlanadi. Shuning yarmini 23 ta milliy bog' va davlatga qarashli qo'riqxonalar tashkil etadi. 1970 yilda 40 ta dengiz suv osti milliy bog'lari bunyod etilgan. Bunday bog'lar Yaponiyada xalqaro turizmni rivojlantirishga va xorijiy turistlarni qiziqishlariga sabab bo'ladi.

Yaponiyaga 2018 yilda kelgan xorijiy tiristlar soni 31.2 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan daromad esa 45.3 mlrd.dollarni tashkil etgan. Quyidagi jadvalda Yaponiyaga xorijiy turistlar eng ko'p keladigan mamlakatlar ro'yxati berilgan.

Jadval.-7.4. Yaponiyaga xorijiy davlatlardan kelgan turistlar top o'ntaligi.

O'rin	mamlakat	2017 yildagi turistlar	2017 yilda oldingi yilga nisbatan o'sish	2016 yildagi turistlar
1	 Xitoy	7 355 800	15,4 %	6 373 000
2	 Koreya respublikasi	7 140 200	40,3 %	5 090 300
3	 Tayvan	4 564 100	9,5 %	4 167 400
4	 Gonkong	2 231 500	21,3 %	1 839 200
5	 AQSh	1 375 000	10,6 %	1 242 700
6	 Tailand	987 100	9,5 %	901 400
7	 Avstraliya	496 100	11,2 %	445 200
8	 Malayziya	439 500	11,5 %	394 200
9	 Filippin	424 200	21,9 %	347 800
10	 Singapur	404 100	11,7%	361 800
	Hammasi	28 690 900	19,3 %	24 039 053

Manba: <https://knoema.ru/atlas/>

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatga eng ko'p qo'shnilari – Xitoy, Koreya, Tayvan, Gongkong hamda AQSh va ASEAN mamlakatlaridan kelishgan. 2018 yilda eng ko'p xorijiy mehmonlar Tokioda bo'lishgan (21.8 mln. kishi/kecha), undan keyin Osaka (13.9 mln.), Xokaydo (8.2 mln.), Kioto (5.7 mln.). Yaponiyada boshqa sohalar kabi xalqaro va milliy turizmni rivojlanishiga katta ahamiyat qaratilgan. Yaponiyada ko'ngil ochar turizm yaxshi rivojlangan.

Mamlakatdan xorijga safar qilganlar soni 2018 yilda 19.0 mln. kishini tashkil etgan. Ular o'sha yil 29.1 mlrd. dollarni sarflashgan (har bir kishiga 1532 dollardan). Yaponiyaning chetga chiqish turizmi asosan AQSh, Kanada, Meksika, Argentina, Braziliya, Xitoy,

Malayziya, Gonkong, Tailand, Koreya, Singapur, Avstraliya hamda Janubi-Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Odatda dam olish va ko'ngil ochish ehtiyojlarini qondirishni yaponlar mamlakatni tark etmasdan amalga oshirishayapti, yoki yaqin masofaga Xitoy, Syangan, Koreya respublikasi, Singapurga sayohat bilan o'tkazishapti. Bir vaqtning o'zida Yaponiyaning hududlararo turistik aloqalari mustahkamlanayapti. Yaponiyadan AQShga qit'alararo turistik oqim eng intensiv hisoblanadi. Ammo, umumiy olganda uzoq safar, ayniqsa Yaqin Sharq mamlakatlari, Afrika yoki Janubiy Osiyoga borish aholi o'rtasida unchalik mashhur emas.

Aholi o'rtasida muntazam o'tkazilayotgan so'rovlar Yaponiyada uzoq turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash imkonini beradi. Amerikaliklar singari kunchiqar mamlakat aholisi uzoqqa safar qilishga pul mablag'lari yetarli emasligi, shaxsiy xavfsizligiga tahdid mavjudligini sabab qilib ko'rsatadilar. Ammo, yaponlarda sayohat yo'nalishini tanlashda milliy pazandalikdagi farq va mavjud til to'siqlari ko'proq tashvish uyg'otadi. So'rovlar chog'ida 37% va 36% so'raluvchilar ana shuni bosh to'siq sifatida vaj qilib ko'rsatishgan.

Yaponiya turizmni yanada rivojlantirish uchun keyingi yillarda quyidagi sohalarida ish olib bormoqda: ichki turizmni kuchaytirish, viza tizimlarini osonlashtirish, jahonning eng yuqori talablariga javob beradigan turistik regionlarni rivojlantirish, turistlarga nisbatan do'stona munosabatlarni rivojlantirish, ishbilarmonlik turizmi uchun Yaponiyani ideal joy sifatida reklama ishlarini kuchaytirish.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan mamlakatimiz uchun Yaponiyadek rivojlangan mamlakatning boy tajribalaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7.5. Koreya mamlakati turizmining o'ziga xosligi

Koreya Respublikasi Koreya yarim oroli Osiyo qit'asining Sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimoldan janubga tomon uzunligi 800 km, g'arbdan sharqqa esa 360 km. dan 122 km. gacha cho'zilgan. Shimoliy tomondan KXDR bilan chegaradosh sharqiy tomoni Yapon dengizi esib turadi. Davlat landshafti xilma-xildir, ammo uning 70% maydoni tog'li hududlardir. Sohil tomonlarida 3 mingga yaqin

orolchalarga ega. Iqlimi - mussonli iqlim, asosan bahor va kuzda ochiq havoli va bulutsizdir.

Poytaxti Seul shahri. Maydoni – 99.7 ming kv. km., aholisi – 51.5 mln. kishi (2020 - yil), tili - koreys, dini - buddizm, konfutsiylik, qisman xristianlik, pul birligi - von. Yirik shaharlari - Seul, Pusan, Techjon, Inchxon, Kvanju, Ulsan. Milliy bayramlari: 15 avgust - Koreya ozodligi kuni (1945 - yil) va 3 oktyabr - Davlatga asos solingan kun.

Transporti dunyoda eng rivojlangan transportlardan bo'lib jamoat transportlari mutloqo xavsiz va qulay. Janubiy Koreada jami 6 ta yirik aeroport bor. Dengiz transporti ham rivojlangan. Mokpxo va Xondo Pusan va Chedjudo Pxoxan va Ulindo shaharlarda paromlar ishlaydi. Milliy transportlarning eng arzon turi poezd hisoblanadi. Poezdlarning 3 turi bor: superexpress eng maqul va qulay, tez yurar poezdlar va yo'lovchi poezdlar. Koreya Respublikasining temir yo'llari uzunligi 6.763 km, avtomobil yo'llari 63200 km, ichki suv yo'llari 1.609 km. Mamlakatda jami 97 ming km yo'l bor. Asosiy portlari: Pusan, Mokpxo. Shahar transporti juda rivojlangan tarmoqda ega. Koreya davlatini bugungi kunda «To'rt ajdarho» yoki «Osiyo yo'lbarisi» deb atashadi. Koreya yangi industrial mamlakatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Janubiy Koreyaning uyushmalari kundan-kunga rivojlanib, g'arbning yetakchi kompaniyalari bilan raqobatlashmoqda. Samsung, LJ, DEU kompaniyalari jahonning yirik 100 ta korporatsiyalari qatoridan o'rin olgan.

Koreya Respublikasida boshqa sohalar qatorida turizm sohasiga ham katta ahamiyat berilgan. Turistik potentsiali juda katta. Mamlakatda turistik imkoniyatlarni mahsulot sifatida ishlab chiqarishning o'ziga xos usul va uslublari o'zlashtirilib olingan. Xalqaro turizm mamlakat iqtisodiyotining eng serdaromad sohasiga aylangan.

Ko'rishga arziydigan eng mashhur joylar: Seuldagi Xyonmyotxal ibodatxonasi, 8 darvozali shahar devori qoldiqlari, Kyonbokkun saroyi majmuyi, Vongak ibodatxonasi pagodasi, muzeylari, Olimpiada o'yinlari qishlog'i, biznes turizm, akvarium, ta'tillarda Yaponiyadan do'stlar va qarindoshlar tashrifi. Xalqaro aeroporti va otellari.

Koreyaga nimaga borishadi – shifobaxsh mineral suvlar, toza qumli plyajlar, qadimiy dinastiyalarning ulug'vor yodgarliklari, a'lo darajadagi tog' chang'i kurortlari, zamonaviy Seul, kaloritli Inchxon

va Chedjudoning kurortli orollari uchun. Bu yana oltin bilan tonirovkalangan osmon o'par binolar, ikki boshli toshboqalar, mast buqalarning jangi, mandarinning 50 sorti, hamma joydagi Wi-Fi, pult bilan boshqariladigan unitazlar, qahrabo uchun dengizga sho'ng'iydigan sho'ng'uvchi – kampirlardir.

Janubiy Korea asosan tog'li hududlar bo'lib bu hududlarda tabiatning turli manzaralari shakllangan ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari keng bo'lib, tog'li hududlarning bazilarida turistik infratuzilma shakllangan. Turistik hududlari asosan Seul va umuman shahar zonalarini bo'lib hisoblanadi. Hunarmandchiligi yaxshi va ko'hna turlari saqlangan bo'lib hozirgacha davom etib kelmoqda, asosan qo'l ishanmalari ularning tub aholisini eslatadi. Qo'lda to'qilgan ipak tolali kiyimlari va h.

Seul – yirik megapolis, bu prezident rezidentsiyasi, Choson dinastiyasining qirollik qasrlari, juda ko'p madaniy tashkilotlar. Seul sayyohlar uchun qiziqarli va o'ziga tortuvchi joydir. Albatta nurga to'la baxt saroyini ko'rib chiqish kerak. Bu poytaxtdagi 5 ta saroydan biri va Choson sulolasi boshqargan paytlarda asosiy bo'lgan. U shu sulolani asoschisi tomonidan poytaxt Kenjudan Seulko'chirilgan vaqtlarda qurilgan edi. Saroy Koreyaning qadimgi madaniyati bilan tanishtiradi. Yana bir diqqatga sazovor joyi Chixandokkun saroyidir. U manzarali Bivon bog'idan va qirol qarorgohidan tashkil topgan. Pusan esa o'z plyajlari bilan mashhur, Xeunde kurorti, Pomosa ehromlar kompleksi, shopping markaz Pusandjiny, Tonnegu davolash kompleksi. Chedjudo orollari go'zal peyzajlarga boy kurort. Inchxon gastronomik jannat, osmon o'par binolar, parklar. Yonpxyo'n esa tog'-chang'i kurorti, 5600 metrli (dunyoda eng uzun chang'i trassasi, 2018 olimpiadada ishlatilgan).

Mamlakatning 2018 yilda diqqatga sazovor joylarning top o'ntaligi:

1. Seuldagi Kyo'nbokkun qasrlar kompleksi;
2. Kamalak favora ko'prigi;
3. Seulning markaziy savdo ko'chasi – Myo'ndon;
4. Koreya respublikasining harbiy memoriali;
5. Seulning teleminorasi;
6. Seuldagi Chxandoxun qasri;
7. Xvason qasri;
8. Seulning Toksugun qasrlar kompleksi;
9. Chonmyo' qasri va qirollar qabristoni;
10. Qadimgi buddizm ehromi Pomos.

(manba: <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-yuzhnoj-korei/>).

Janubiy Koreyada xorijdan 2018 yilda 15.4 mln. turist kelgan. Xalqaro turizm 2018 yilda mamlakat 19.9 mlrd. dollar daromad ko'rgan. Koreya turizm bozorini asosan Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Tailand, Avstraliya, Yangi Zelandiya mamlakatlari ta'minlaydi.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 28.7 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 34.8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Koreya aholisi Singapur, Indoneziya, Xitoy, Tayvan, Tailand, Avstraliya, Yaponiya, Filippin mamlakatlariga sayohatlar uyushtiradilar.

7.6. Tayvan mamlakatida turizmning rivojlanish holati

Tayvan Xitoy Xalq Respublikasi viloyati, ammo alohida davlat sifatida faoliyat yuritadi. Tayvan asosiy bir orol va o'z atrofidagi bir qancha mayda orollardan iborat. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustaqil taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Hududi 36.180 kv. km., aholisi 21,6 mln. kishiga yaqin. Poytaxti Taybey – 2.5 mln. ga yaqin aholi yashaydi. Jahondagi bir qancha davlatlar bu mamlakatning tan olishiga qaramay to'la mustaqillika ega emas.

XX asrning birinchi yarmida Xitoydagi siyosiy rivojlanish beqarorlikka yuz tutdi va natijada bu mamlakatda fuqarolar urushi kelib chiqadi. 1949 yilda bu urush kommunistlar g'alabasi bilan tugaydi. Mag'lub bo'lgan Xitoy zodagonlari Tayvanda o'z davlatlarini tuzishadi. Bu davlatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u yuqori taraqqiyot sur'atlariga ega va yangi industrial mamlakatlar guruhiga kiradi. Kichik bir mamlakatning eksport qudrati nihoyatda yuqori bo'lib, jahonda oldingi o'rinlardan birini egallagan. Valyuta zahiralari 80 mlrd. AQSh dollardan ortiq, iqtisodiy rivojlanishda besh yillik rejalaridan foydalanadi. Temir yo'llari uzunligi 4600 km. atrofida, avtomobil yo'llarining uzunligi esa 20.1 ming km. Asosiy dengiz portlari: Gaosyun, Tszilun, Xualyan. Asosiy savdo sheriklari: AQSh, Yaponiya, Gonkong va XXR bilan ham bevosita savdo munosabatlarini olib boradi.

Tayvanga turistlar asosan Shou Tur, Teatr, madaniy hordiq, ot sporti hamda har yili o'tkaziladigan turli xil festivallarda ishtirok etish uchun kelishadi. Shuningdek Syanganda «Sun» imperatorligi davridan qolgan yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularni ham ko'plab turistlar

ziyosat qiladilar. Tayvan turizm bozorini: Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Tailand, Avstraliya, Koreya, Yangi Zelandiya mamlakatlari ta'minlaydi. Tayvan aholisi asosan: Singapur, Indoneziya, Xitoy, Tailand, Avstraliya, Filippin mamlakatlariga sayohatga chiqadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanish tajribasini o'rganish boshqa mamlakatlar uchun xususan O'zbekiston uchun foydalidir.

Qisqacha xulosalar. Keyingi o'n yillikda Osiyo makroregioni turizm rivoji bo'yicha Amerikadan o'zib, ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Bu o'sishda ayniqsa Sharqiy Osiyo mamlakatlarning hissasi katta. Ularni ichida Xitoy iqtisodiyotning barcha sohalarida, jumladan turizm ham juda katta muvoffaqiyatlarni qo'lga kirita oldi. "Sirli mamlakat" deb tan olingan Xitoy nafaqat butun dunyodan turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda, balki xitoyliklar faravon hayot darajasi bo'ylab ko'tarila borib o'z mamlakatlari va xorijga safarlarni oshirib bormishoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya ham jahonning obro'li turistik mamlakatlari qatoriga chiqib olishdi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Osiyodagi «to'rt ajdaho» nomi bilan mashhur bo'lgan mamlakatning turizm industriyasini tushuntirib bering?
2. Osiyoning qaysi mamlakatlarida turizm jadal sur'atlar bilan o'smoqda?
3. Osiyoning qaysi mamlakatlarida turizm sohasining o'sish sur'atlari keyingi yillarda o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan?
4. Buyuk sirli mamlakat «Xitoy turistik model»i mohiyatini tushuntirib bering.
5. Xitoyda turizmni rivojlanishiga qaratilgan siyosatning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
6. Yaponiya turizmining jozibadorligini ta'minlovchi omillar nimadan iborat?
7. Yaponiyada eng yirik mehmonxonalar va turizm markazlari qaysi shaharlarda joylagan?
8. Yaponiya turizm bozorini ta'minlovchi mamlakatlarni izohlab bering.
9. «Osiyo yo'lbarisi» deb ataladigan Koreya respublikasini turizm faoliyatini tushuntirib bering.
10. Tayvan mamlakati sayyohlarni nimasi bilan o'ziga jalb qiladi?

Glossariy

Turistik agentlik - xorij yoki mamlakat ichida turistik safarlarga tayyorgarlik ko'rishda ma'lum ishlarini bajaradigan tashkilot.

Turizm sug'urtasi - turistlarning hayotini majburiy sug'urtalash.

Butundunyo turistik tashkiloti (BTT) – hukumatlararo tashkilot (1975 yilda tashkil topgan) bo'lib, turizmning rivojlanishiga ko'maklashadi, 159 davlat va 500 dan ortiq boshqa a'zosi bor.

Xaynan – Xitoyning janubida joylashgan katta tropik oroldir. Orol hududi 33 920 kv.km ni tashkil etadi. Xaynan Gavaya orollari bilan bir xil kenglikda joylashgan va shu sababli “Sharqiy Gavaya” deb ham ataladi.

Iokogama – Yaponiyaning eng yirik turizm markazlari joylashgan shahar.

“Yokoso” va “Japan is back” – Yaponiyaning 21 asrning ikki o'n yilligida mamlakatda turizmni rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlari bo'lib, keyingi yillarda turizmni jadal rivojlantirish va xalqaro turistlar oqimini oshirishga qaratilgan.

Choy marosimlari - Yaponiyada har yili o'tkaziladigan bu marosimlar o'zining betakrorkigi bilan ajralib turadi. Ushbu marosimni ko'rgan har bir chet ellik sayyoh ushbu marosimga qatnashgisi, marosimda tayyorlangan har bir choyni iste'mol qilib ko'rishni xohlaydi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Turizmning asosiy markazlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Ispaniya, AQSh, Xitoy, Rossiya;
- b) AQSh, Rossiya, Italiya, O'zbekiston;
- c) Frantsiya, Italiya, AQSh, Ispaniya, Xitoy;
- d) Italiya, AQSh, Afrika, Ispaniya.

Keyingi ikki o'n yillikda eng yuqori turistik faollik qayerda qayd etilmoqda?

- a) Yevropa mamlakatlarida;
- b) O'rta Osiyo mamlakatlarida;
- c) Osiyo mamlakatlarida;
- d) Yaqin Shaq mamlakatlarida;

Qaysi mintaqada har 15 ishchidan biri turizm biznesi bilan band?

- a) Yevropada;

- b) Osiyoda;
- c) Amerikada;
- d) Afrikada.

Keyingi o'n yillikda Osiyoning qaysi mamlakatlarida o'sish sur'atlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan?

- a) Gonkong, Makao, Xitoy;
- b) Yaponiya, Avstraliya, Tayvan;
- c) Singapur, Yaponiya, Malayziya, Avstraliya;
- d) Yaponiya, Malayziya, Avstraliya.

Keyingi o'n yillikda Osiyoning qaysi mamlakatlarida o'sish sur'atlari o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan?

- a) Indoneziya Hindiston Avstraliya;
- b) Singapur, Yaponiya, Malayziya;
- c) Koreya, Tayvan, Gonkong;
- d) Makao, Xitoy, Yaponiya.

Xitoy nechanchi yili turistik kelishlar bo'yicha 12- o'rinda bo'lgan?

- a) 2000-yil;
- b) 2010-yil;
- c) 1980-yil;
- d) 1990-yil.

Butun jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan

qilingan taxminga ko'ra 2030 yilga kelib qaysi davlat turist qabul qilishda yetakchi bo'ladi?

- a) Xitoy;
- b) Ispaniya;
- c) AQSh;
- d) Hindiston.

Yaponiyada eng yirik mehmonxonalar va turizm markazlari qaysi shaharida joylagan?

- a) Tokio;
- b) Iokagama;
- c) Kioto;
- d) Xirosima.

Yaponiya ko'ngil ochish industriyasi bo'yicha dunyoda nechinchi o'rinni egallaydi?

- A) birinchi;
- B) Amerikadan keyin ikkinchi;
- C) Yuqoridagi o'nlikdan keyingi o'rinlarda;
- D) Amerika va Rossiyadan keyin uchinchi o'rinda.

Mamlakat hududining 1/4 qismi qo'riqxonalaridan iborat, tabiat qo'riqxonalari davlat tomonidan qattiq qo'riqlanadi. Ulardda 23 ta milliy bog' va davlatga qarashli qo'riqxonalar tashkil etadi. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Yaponiya;

- b) Xitoy;
- c) Ispaniya;
- d) Frantsiya.

Yaponiya turizm bozorini asosan qaysi mamlakatlar ta'minlaydi?

- a) Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Koreya, Tailand, Avstraliya, Yangi Zelandiya;
- b) AQSh, Frantsiya, Italiya, Rossiya, Singapur;
- c) Gongkong, Makao, Filippin, Indoneziya, Vyet – Nam;
- d) Braziliya, Xitoy, Rossiya, Frantsiya va Germaniya.

Xitoy 2010 - yilda qancha turist oqimini qabul qilishni rejalashtirgan edi?

- a) 130 millionga yaqin;
- b) 150 million;
- c) 230 millionga yaqin;
- d) 130 milliondan ortiq.

Xitoyda birinchi Amerika turistlari bor yog'i necha kishini tashkil qilgan?

- A) 50 kishi;
- B) 30 kishi;
- C) 160 kishi;
- D) 180 kishi.

Xitoy 1990 yil turistik kelishlar bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda?

- A) 10;
- B) 15;

- C) 12;
- D) 19.

1999 yili Xitoyda turistlar kelishi qanchaga yetdi?

- A) 10 ming;
- B) 14 mln;
- C) 23 kishi;
- D) 29 ming.

YUNESKOning xalqaro yodgorliklari ro'yxatidan Xitoyning obyektlari nechta o'rin egallagan?

- a) 41ta;
- b) 121ta;
- c) 3570ta;
- d) 21ta.

Xitoy turizmni rivojlantirish uchun o'zida nechta maxsus turistik hudud tashkil etgan?

- a) 100ta;
- b) 25 ta;
- c) 12ta;
- d) 1200ta.

Qaysi mamlakatning transporti dunyoda eng rivojlangan transportlardan bo'lib jamoat transportlari mutloqo xafvsiz va qulay sanaladi?

- a) Janubiy Koreya;
- b) AQSH;
- c) Germaniya;
- d) Rossiya.

Xyonmyotxal ibodatxona, 8 darvozali shahar devori

qoldiqlari, Kyonbokkun saroyi majmuyi, Vongak ibodatxonasi pagodasi, muzeylari, Olimpiada o'yinlari qishlog'i – bular qaysi mamlakatning ko'rishga arziydigan eng mashhur joylar sanaladi?

- a) Janubiy Koreya;
- b) Yaponiya;
- c) Xitoy;
- d) Tayvan.

Janubiy Koreyaga nima maqsadda deyarli borishmaydi?

- a) shifobaxsh mineral suvlar, toza qumli plyajlar;
- b) qadimiy dinastiyalarning ulug'vor yodgarliklari, a'lo

darajadagi tog' chang'i kurortlari;

- c) mamlakatning ekzotik flora va faunasini ko'rish uchun;
- d) zamonaviy Seul, kaloritli Inchxon va Chedjudoning kurortli orollari uchun.

Tayvanga turistlar qanday maqsadni ko'zlab deyarli borishmaydi?

- a) Issiq plyajlarda cho'milish, so'rfing bilan shug'ullanish uchun;
- b) Shou Tur va Teatr;
- c) madaniy hordiq chiqarish uchun;
- d) ot sporti hamda har yili o'tkaziladigan turli xil festivallarda ishtirok etish uchun.

VIII MAVZU. MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI TURIZMI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad Osiyo qit'asining ikki yirik regionni Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyoda turizm rivojining o'ziga xosligi va bu region mamlakatlari turizm salohiyatini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

- 8.1. Markaziy Osiyo respublikalari turizm markazlari**
- 8.2. Hindiston davlatining turizm iqtisodiyoti**
- 8.3. Maldiv Respublikasining turistik salohiyati**
- 8.4. Eron va Afg'oniston mamlakatlarining turizmini tahlili**
- 8.5. Shri-Lanka, Nepal va Butan mamlakatlarining turistik salohiyati**

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Osiyo mintaqasi, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Buddizm, Everest, Himolay, Shia mahzabi markazi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400.
4. Александрова А.Ю. «География туризма». Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
5. Квартальнов, В. А. Туризм : учебное пособие / В. А. Квартальнов. — 2-е изд. - Москва : Финансы и статистика, 2014. - 336 с. - ISBN 5-279-03119
6. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
7. Косолапов А. Б. - Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
8. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. -96 с.
9. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
10. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
11. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма. - М., 2010.
12. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
13. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М., 2010. 231с.
14. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 240 с.
15. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
16. Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник. -2 изд., перераб. и доп. –М.; ФиС, 2009.- 400 с.
17. [Prior, Randall Gospel and Culture in Vanuatu – An Experiment in Pacific Theology](#). Australian National University (2006). — A Paper presented to the 2nd ANU Missionary History Conference Asia-Pacific Missionaries: At Home and Abroad.

18. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
19. www.[UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org).
20. [https://www.World's most popular destination revealed](https://www.world's-most-popular-destination-revealed) (АНГЛ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
21. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
22. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
23. www.wikipediya.ru.
24. <https://knoema.ru/atlas/>
25. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-irana/>
26. <http://www.watpho.com>
27. www.VNAT.2020.

8.1. Markaziy Osiyo respublikalari turizm markazlari

Tojikiston respublikasi. Poytaxti Dushanbe shahri. Maydoni – 142.6 ming kv. km., aholisi – 9.4 mln. kishi (2020 - yil), tili - tojik, dini - islom, pul birligi - somoniy. Yirik shaharlari: Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontepa, Ko'lob, Xorug', Norak, Qayroqqum, Panjakent shahristoni. Milliy bayrami - 9 sentyabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil). Davlat tuzumi - respublika. Iqlimi - keskin kontinental, qurg'oqchil iqlim.

Mamlakat territoriyasining 93 foizi 300 metrdan 7495 metrgacha (Samoniy cho'qqisi) bo'lgan tog'lardan iborat. Bu tog'lar orasida esa go'zal vodiylar joylashgan.

Tojikiston dunyoning eng qadimiy davlatlaridan biri, bu zardo'shtiylikning qadimiy yodgorliklari, Buyuk ipak yo'li, "jahon tomi" nomini olgan Pomir tog'lari va undagi ulug'vor tog' peyzajlari, yuqorida joylashgan Badaxshon o'lkasi, Qorako'l va Sarez ko'llari, Fan vodiysining ko'l va daryolari, Obigarm va boshqa joylardagi mineral suv manbalaridir. Mamlakat ko'plab tarixiy, madaniy va tabiiy diqqatga sazovor joylarini taklif qiladi. Dushanbeda anchagina muzeylar bor. Xo'jand o'zining eramizdan oldingi 5 asrda qurilgan qorg'oni, 16 asrda qurilgan Jome masjidi va qator masjidlar hamda alpinistlarning Ak-suvga chiqadigan boshlang'ich nuqtaligi bilan mashhur. Shahar bilan qo'shib ketgan Qayraqum suv omborida dam olishga qulay sharoitlar yaratilgan. 5 ming yillik tarixga ega bolgan Panjikent o'z vaqtida Buyuk ipak yo'lining gullagan shahri

bo'lganligi, zardushtiylik yodgorliklari, tosh asri qoldiqlari bilan mashhur. 2500 yoshdagi Istaravshan shahrining qator masjid va qo'rg'onlari, Qah-qaha qal'asi, Mug'tepa qoldiqlari bilan mashhur. Boy flora va faunaga ega bo'lgan 1996 yil tashkil qilingan Tojik milliy parki, Pomir botanika bog'i va 13ta tabiiy qo'riqxonalar bor.

Turizmning rivojlangan turlari: alpinizm, tog'- sport va ekologik turizm, rafting, parapanerizm, tog'- chang'i sporti, trekning, rekreatsion turizm (200dan ortiq mineral suv manbalari, shu jumladan, Garm chashma, Xosguni, Chursh, Zund suv manbalari), madaniy-tarixiy (Kushon, Sug'diyona, Ahmaniylar, Baqtriya va boshqa davrlar bilan bog'liq), etnografik turizm.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 1.0 mln. kishidan oshgan. Ulardan tushgan tushum esa 171 mln.dollarni tashkil etgan. Tojikistondan chet elga ketgan turistlar soni 2018 yilda 31 ming kishini tashkil etgan. Bu mamlakatda chiqish turizmining yaxshi rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Turkmaniston respublikasi. Poytaxti Ashxobod shahri. Maydoni – 488.1 ming kv. km., aholisi – 5.9 mln. kishi (2020 - yil), tili - turkman, dini - islom, pul birligi - manat. Muhim shaharlari: Ashxobod, Turkmanobod, Toshhovuz, Mari, Turkmenboshi. Milliy bayrami - 27 oktyabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil).

Madaniy turizm yodgorliklari: Qadim arxeologik yodgorliklari, Sulton Sanjar, Fahriddin Roziy, Sulton Takash maqbaralari. Keyingi paytlarda Kasbiy dengizi qirg'oqlarini obod qilish ustida katta ishlar qilinmoqda, jumladan, Avaza turistik hududida.

Turkmaniston arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklarga boy o'rganilmagan diyor hisoblanadi. Bu yurt Axaltin otlari, go'zal gilamlari bilan ham mashhur. Dunyoning eng issiq joylaridan biri Qoraqum va Kaspiy dengizi, afsonaviy va sirli dinazavrlar platosi. Mamlakat maydoninig 80 foizi cho'l va dunyo ahamiyatidagi gaz konlariga ega.

Turkmanistonning diqqatga sazavor joylari: Ashxabat ("Oq marmar shahri" nomini olgan, bir necha bor Gines kitobiga kirgan shahar, shaxsga sig'nish nimaligini ko'rsatuvchi qator ob'yektlar shahri), Avaza, Turkmenboshi, Ko'neurgench, Xazar, Mollakara.

YUNESKOning johon merosi ro'yxatidagi ob'yektlar: Neytralitet Arkasi, Turkmanistonning bosh bayrog'i, Darvoza gaz krateri, "Oguzxon" saroy kompleksi, Turkmaniston mustaqilligi monumenti,

Marv, Turkmanboshi ruhi masjidi, Gilamlar muzeyi, Turkmanistonning milliy madaniy markazi, Turkmanistinning tirik tabiat milliy muzeyi, Nisa (Parfiya davlati davridagi shahar), “Oguzxon va o’g’illari” favvora kompleksi.

Badxiz qo’riqxonasi mashhur. Avaza kurorti Kasbiy dengizi bo’yida joylashgan. Uni 2020 yilda biritishlari kerak edi. Milliy kaloritga ega bo’lgan, toza plyajlar, issiq oftob va iliq dengiz shahriga aylanishi kerak.

Turkman kulinariyasining o’ziga xosligi: suyuq ovqatlar ranbarang, baliq mahsulotlari qo’shnilarga nisbatan ancha ishlatiladi, tuya sutidan ancha foydalaniladi.

Turkmanistonga 2007 yilda xorijdan 8200 turist kelgan, chetga chiqqan turistlar soni esa o’sha yil 38 ming kishini tashkil etgan. Bu mamlakatning ancha yopiqligidan dalolat beradi.

Qirg’iziston respublikasi. Poytaxti Bishkek shahri. Davlat tuzumi - suveren, unitar davlat, demokratik respublika. Maydoni – 200.0 ming kv. km., aholisi – 6523 ming kishi (2020 - yil), tili - qirg’iz, dini - islom, pul birligi - som. Muhim shaharlari: Bishkek, O’sh, Jalolobod, To’qmoq, O’zgan. Milliy bayrami - 31 avgust - Davlat mustaqilligi kuni (1991 - yil). Jalolobod balneologik kurorti, O’sh, Arslonbob. Ayniqsa Issiqko’lda kuchli turbazalari mavjud. Ularga qo’shni davlatlardan va Yevropa davlatlardan turistlar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda.

Qirg’ziston turistlar uchun kam o’rganilgan va ekzotik mamlakat sifatida Pomir va Tyan-Shan tog’lari, Issiq-Ko’lning ko’m-ko’k kengliklari, Arslonbobning yong’oqzorlari, mineral suv manbalari, ajoyib tabiati, qadimiy shaharlari, yurtalar, qumis, an’anaviy ot musoboqalari, alpinizm, treking uchun mashhur go’shadir.

Bishkek: milliy tarix muzeyi, “Erkinlik” galeriyasi, Parlament binosi, Qadimiy bozor, San’at muzeyi. Mamlakat yana - Baytik milliy parki, “Chon-Arik” botanik qoriqxonasi, Kamishanovka kurorti bilan ham mashhur. O’sh shahrida islom madaniyatining qator yodgorliklari – mashjid va madrasalar, o’rta asr hammomi bor. Bundan tashqari, O’sh Pomir va Tyan-Shan tog’ choqqilariga chiqish uchun “tog’ darvozasi” hisoblanadi. Issiq-Ko’l kattaligi jihatidan dunyoda ikkinchi chuchuk suvli ko’l, unga 80 daryo quyiladi, uning atrofi mineral suvli manbalarga va davolash uchun ishlatiladigan

balchiqlarga boy. Tog' yaylovlaridagi qirg'izlarning yurtalarida toza havo va foydali qimiz ichib, yurtalarda hordiq chiqarish mumkin.

Qirg'izistonda turizm, jumladan ekoturizm davlat dasturi qabul qilingandan so'ng jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. Bunga birinchidan, tog'li hududlarda yovvoyi tarzda saqlanib qolgan juda katta maydondagi tabiat komplekslari va uning komponentlari, ikkinchidan xususiy turizm va unga xizmat ko'rsatish sohasining xususiylashtirilishi sabab bo'ldi.

Qirg'izistonda ekspertlar ekoturistlarni quyidagi guruhlariga bo'ladilar:

- Mamlakatga ekoturistik guruhlar sifatida kelayotganlar;
- Qushlarni kuzatish maqsadida kelayotgan turistlar;
- Tabiati bilan mushtarak bo'lgan milliy madaniyat va an'analar muxlislari;
- Tog'larda yayov yurib tabiatni ko'rish yoki otlarda sayr qiluvchi ekoturistlar;
- Ekzotik tabiatda baliq ovchiligi ishqibozlari.

Umuman olganda milliy va mahalliy miqyosda ekoturizmni rivojlantirish uchun ijobiy tajribasini o'rganish, ularni tahlil qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatga 2018 yilda xalqaro turizmga keluvchilar soni 423 ming kishini tashkil etgan. Bundan ko'rilgan daromad 487 mln. dollarni tashkil etgan. Chetdan keladiganlar ichida birinchi o'rinni qozoqlar egallaydi, ikkinchi o'zbeklar va uchinchi rossiyaliklar.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 6.8 mln. kishini tashkil etgan va ularning xarajati 453 mln. dollarni tashkil etgan.

Qozog'iston respublikasi. Poytaxti - Nursulton shahri. Davlat tuzumi - boshqaruvning prezidentlik shaklidagi unitar davlat. Maydoni – 2724.9 ming kv. km., aholisi – 19.0 mln. kishi (2020 - yil), tili - qozoq, dini - islom, pul birligi - tenge. Shaharlari va tarixiy yodgorliklari: Olma ota, Turkiston, Chimkent, Jambul, Qarag'anda, Sayram, O'tror, Ahmad Yassaviy. Milliy bayrami - 16 dekabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil). Go'zal tabiat go'shalariga ko'plab xorijiy turistlarni jalb qilishga harakat qilinmoqda.

Hozirgi kunda markaziy Osiyo mamlakatlari ichida YaIM bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichga ega. Asosiy eksport mahsulotlari - neft va

qora rangli metallar, moslamalar, kimyo mahsulotlari, don, jun, go`sht, ko`mir.

Qozog`iston bu cheksiz janubiy dashtlar, tog`lar, kol`ar yurtidir. U yana ko`chmanchilar uyi – yurta, qimiz, beshbarmaq, qum barxanlari, tog` peyzajlari, davoli havosi bilan ham mashhurdir. U shaxdam qadamlar bilan taraqqiy qilayotgan davlatdir, buni his qilish ushun modern shahar, mamlakatning yangi poytaxtni Nursultonni tamosha qilish yetarli. Mamlakatda Altin –Yemel, Ile-Alatau, Katin-Karagay, Burabay, Kar – karali kabi milliy parklari bor.

Qozog`istonda 2020 yilda YUNESKOning xalqaro merosiga kirgan 5 ta ob`yekt bor: Xo`ja Ahmad Yassaviy movzaleyi, Tamg`ali arxeologik landshaft, Sariak, dashtlar va Shimoliy ko`llar.

Mamlakat janubining turistik markazlari: Almata, Jambul, Qizil - O`rda. (Qoraxon, Aysha – Bibi, Tarazdagi Babajan-Xotin, Turkistondagi Yassaviy mavzoleylari, Yetti-suvdagi skiflarning qabristoni hamda Boyqo`ng`ir kosmodromi). G`arbiy hududning turistik maskanlari: Aktyuba va Atirau shaharlari, Volga va Ural daryolari, Kasbiy dengizi, Mang`ishloq va Ustyurtdagi qo`riqxonalar va qadimiy yodgorliklar. Shimoliy Qozog`istonning turistik maskanlari: Kustanay va Pavlador shaharlari, Ural tog`lari, undagi Kokshetau, Bayan-Aul, Muyaldi kurortlari. Markaziy Qozog`istonning turistik maskanlari: Bu Qarag`anda shahri, go`zal kurortlar hududi Balxash ko`li, tog`li va o`rmonli massivlar. Sharqiy Qozog`istonning turistik maskanlari: Oltoy tog`lari va undagi boy flora va fauna, Irtish daryosi, Zaysan, Markakol, Saukah kabi g`ozal ko`llar, Abay va Muxtar Avezov vatani. Go`zal va takrorlanmas tabiatga ega bo`gan Alako`l. Mamlakat turistlarga madaniy, sport, etnik, ekotur, davolanish, ov, baliq ovi, alpinizmni taklif etadi.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan 8.8 mln. turist kelgan. Xalqaro turizmdan ko`rilgan daromad esa 2651 mln.dollarni tashkil etgan. Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni esa 2018 yilda 10.2 mln. kishini tashkil etgan va ular 2.9 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

8.2. Hindiston mamlakatining turizm potentsiali

Hindiston (hindcha Bharat), Hindiston Respublikasi - Janubiy Osiyolagi davlat. Hududi shim.dan jan.ga 3214 km, garbdan sharqqa 2933 km ga cho`zilgan. Shim.da Himolay tog`lari, garbda Arabiston

dengizi, sharqda Bengaliya qo'ltig'i bilan o'ralgan. Hindiston tarkibiga Arabiston dengizidagi Lakkadivva Amindiv orollari, Bengaliya qo'ltig'idagi Andaman va Nikobar orollari ham kiradi. Poytaxti - Dehli shahri. Ma'muriy jihatdan 28 shtat va 7 ittifoq hududga bo'linadi. Davlat tuzumi - federativ respublika. Iqlimi - mussonli iqlim. Maydoni – 3287.3 ming kv. km., aholisi - 1334 mln. kishi (2020 - yil), tili - hindi va ingliz, dini - hinduizm, 15 foizi musulmon, shu bilan birga Sinx, Xristianlik, Jaynizm, Buddizm va boshqa dindorlar ham bor. Pul birligi - rupiya. Yirik shaharlari: Dehli, Kalkutta, Mumbai, Madras, Bangalor, Haydarobod, Ahmadobod, Chennai, Bangalor, Puna, Kanpur, Nagpur, Jaypur, Lakhnau.

Dunyoning eng qadimiy davlatlaridan biri. XYIII-asrning o'rtalaridan to 1947 yilgacha Buyuk Britaniyani mustamlakasi bo'lgan. 1947 yil 15 avgustda mamlakat siyosiy mustaqillikka erishdi, 1950 yil 26 yanvarda respublika deb e'lon qilindi. Milliy bayrami - 26 yanvar - Respublika kuni (1950 - yil), 15 avgust - Mustaqillik kuni (1947 - yil).

Hindistonning shunisi diqqatga sazovorki, iqtisodiy qoloqlik bilan birga ishlab chiqarishda jahon fani va texnikasining so'ngi yutuqlari ham keng qo'llaniladi. Masalan, yer atrofida sun'iy yo'ldoshlari harakat qilmoqda, yadro quroliga ega. Hind olimlarining informatsion texnologiyalar bo'yicha dasturlari yiliga milliardlab AQSh dollarida daromad keltirmoqda.

Keyingi yillarda hukumat iqtisodiyotni boshqarishda liberal qonunlarni keng joriy etmoqda, ma'muriy choralardan moliya iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tilmoqda. Bu esa xususiy tarmoq faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratib berish demakdir. Sarmoya qo'yish siyosatida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa hind sanoatini moderinizatsiyalash uchun chet eldan keltirilgan yordam uchun ko'pgina imtiyozlar joriy etilgan.

Hindiston dunyoning eng qadimiy va madaniyati yuksak mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham xorijiy turistlarni bu mamlakatga qiziqishlari katta. Hindistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hindistonning tarixiy-me'moriy yodgorliklari, tarixiy joylari, muqaddas ziyoratgohlari, xorijiy turistlar hordiq chiqarishi uchun qulay bo'lgan milliy ruhdagi dam olish maskanlari, tabiati an'anaviy hunarmandchilik, xalq ommaviy san'ati dunyo aholisini doimiy ravishda jalb qilib kelgan.

Mashhur sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Dehli Shohjahonobod me'moriy obidasi namunalari, Lal - Qila majmuyidagi Boburiylardan qolgan marmar saroylar, Marvarid masjid, Juma masjid, Humoyun maqbarasi, muzeylari, amfiteatri, bayramlari, kinosi, raqsi, musiqasi, Palam xalqaro aeroporti, Agra Tojmahali, Goa taomlari, plyajlari, besh yulduzli otellari, Gang daryosidagi Varanasi (Banoras) shahri diniy an'analari, Jaypur Jal Mahal ko'l saroyi, shahar saroyi, muzeyi, fillar festivali, biznes turizm, Madras plyajlari, ibodatxonalari, muzeylari, Bxubaneshvar ibodatxonasi. Shuningdek, mamlakatdagi Himolay tog'iga piyoda tur, alpinizm tur, dengiz turizmi. Tog'li shahar - kurortlar: Kulu, Manali, Simla, Nainital, Masuri. Kashmir, Panjob, Jamma shtatlari muqaddas qadamjolari, tabiiy - ekzotik turizm, tog' turizmi, rafting tur, chang'i turizmi, tuyalar bilan sayohat. Kalkutta muzeylari, golf klublari, Mumbay qal'asi, bog'lari, muzeylari, shuningdek, boshqa shtatlardagi g'orlar, ibodatxonalar, plyajlar, mazali taomlar, fillar.

Turizm mamlakat uchun juda kelajagi porloq bo'lgan tarmoqdir, Hindiston turizmni rivojlantirish uchun mamlakatning yuragi bo'lgan uchta hamda chekka, ammo turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan eng qulay jami oltita (keyin esa yettinchisi Sekkimni) shtati tanlab olindi. Bu shtatlar mamlakatning alohida imtiyozlarga ega bo'lgan turistik erkin iqtisodiy hududlari deb e'lon qilindi. Davlatda muammolar ko'p bo'lganligi uchun hamda byudjetda katta mablag' va imkoniyatlar bo'lmaganligi uchun bor kuch va resurslarni shu yettita hududga kontsentratsiya qilishga harakat qilindi. Bu shtatlar quyidagilar edi: Kerala, Radjaxiston, Goa, Madhiya Pradesh, Kashmir va Uttar Pradesh shtatlari (oxirgisi Sekkim) edi. Bu shtatlar mamlakatning eng go'zal tabiatga ega bo'lgan, terretoriya jihatidan uncha katta bo'lmagan hamda aholisi nisbatan siyrakroq (Uttar Pradesh bundan mustasno) bo'lgan shtatlar edi. Bularning ayrimlarida ichki turizm anchagina rivojlangan edi. Jumladan, Goa shtati shunday shtatlardan biri edi. Himolay tog'larida joylashgan va iqlim jihatdan mamlakatning qolgan qismidan ancha farq qiladigan Kashmir shtati ham mahalliy aholining sevimli dam oladigan joylaridan biri edi. Mamlakat ichkarisida xizmat qiladigan 90 ta aeroport mavjud.

Hindistonda turizmning rivojlanishining ayrim ko'rsatgichlari: Hindiston o'zining tabiiy manbalari jihatidan 14 - o'rinda va dunyo yodgorliklari ro'yxatiga olingan madaniy yodgorliklari, boy

hayvonot va o`simlik dunyosiga egaligi jihatidan 24 - o`rinni egallaydi, xorijiy turizmdan keladigan daromad 2018 yilda 2017 yildagiga nisbatan 10.9 foiz miqdoriga o`sgan.

Mamlakatning investitsiya imkoniyatlari turizmning quyidagi tarmoqlariga oshib bormoqda: Mehmonxona industriyasiga; Davolanish turizmiga; Milliy turizm markazlariga; Hayvonot dunyosi turizmiga; Ko`ngilochar parklar tizimiga.

Hindistonda eng tez rivojlanayotgan turizm turlariga quyidagilar kiradi: qishloq turizmi; sog`liqni saqlash turizmi; dengiz bo`ylab sayohat turizmi; sarguzasht turizmi; sog`lomlashtirish turizmi; madaniy turizm; ziyorat turizmi; sport turizmi.

2019 yilda Hindistonning eng asosiy diqqatga sazavor joylar: Toj-Mahal, Varanasi shahri, Gang daryosi, Dehlidagi Nilufar ehromi, Mumbaydagi Chxatrapati Shivadji vokzali, Adjantidagi g`orlardagi budda ehromlar kompleksi, Vidjayanagar imperiyasining poytaxti Xampi shahridagi 18ta qadimiy yodgorliklar, Dehlidagi 72 metrli "Qutb-minor", Dehlidagi 40 metrli Hindiston darvozasi, Mumbaydagi Hindistonga darvoza, Jaypurdagi Xava-mahal qasri, Agradagi Qizil fort, Djodxpur shahri yaqinidagi tog`da qurilgan Mehrangarx qasri, Pikola ko`lidagi qasr, Dudxsagar sharsharasi (Goa shtatidagi, mamlakatning eng katta sharsharasi), 100 km. cho`zilib ketgan Goa plyajlari, Holi - bahor bayrami ranglar festivali.

Mamlakatda 75 milliy bog` va 420 dam ortiq qo`riqxonalar mavjud. Yirik milliy bog`lari: Kaziranga, Manas, Dachigan, Dadva, "Gullar vodiysi" (Uttar Pradesh), Sariska va boshqa.

Asosiy kurort maskanlari: Gujarot shtatidagi Titxal, Ubxrat, Diu, Daman, Maharashtra shtatidagi Madha, Marv, Karnatakadagi Ullal, Udili, Mangamuru va boshqa.

Mamlakatda 460 dan ortiq muzey faoliyat yuritadi. Yiriklari: Chennaydagi davlat muzeyi (1851 yil tashkil etilgan), Dehlidagi hozirgi zamon san`ati milliy galereyasi (1954), Yangi Dehli(Nyu-Deli)dagi Milliy muzey, Varanasi shahridagi San`at muzeyi, Kalkuttadagi Hindiston muzeyi (1814), Birla Texnologiya muzeyi, Bombaydagi G`arbiy Hindiston muzeyi, Dehlidagi J.Neru (1964), M.Gandi (1948) memorial muzeylari.

Hindistonga 2018 yil xorijdan kelgan turistlar soni 17.4 mln.kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan korilgan daromad 2018 yilda 29.1 mlrd.dollarni tashkil etgan.


Jadval. - 8.1. Xorijiy turistlar eng ko'p keladigan hind shtatlar top o'ntaligi (2011 y).

t/r	shtat	Turistlar soni	Ulushi foizda
1	Maxarashtra	4,815,421	24.7
2	Tamilnad	3,373,870	17.3
3	Dehli	2,159,925	11.1
4	Uttar - Pradesh	1,887,095	9.7
5	Radjaxstan	1,351,974	6.9
6	G'arbiy Bengaliya	1,213,270	6.2
7	Bixar	972,487	5.0
8	Kerala	732,985	3.8
9	Karnataka	574,005	2.9
10	Ximachal - Pradesh	484,518	2.5
jami	O'n shtat bo'yicha	17,565,550	90.1
	qolganlari	1,929,329	9.9
	hammasi	19,494,879	100

Manba: <https://knoema.ru/atlas/>

Mamlakatdan xorijga 2018 yilda chiqqan turistlar soni 26.3 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 25.8 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatning eng mashhur turistik hududlaridan biri bo'lgan Goani ko'rib chiqamiz. Goa Hindistonning g'arbiy qirg'og'ida, G'arbiy Gats etagida joylashgan va uning maydoni 3702 kv. km. Goa shimolda Maharashtra shtati bilan, sharqda va janubda Karnataka shtati bilan chegaradosh, g'arbda Arab dengizi suvlari bilan yuviladi. Shtatning ma'muriy poytaxti Panaji shahri. 1961 yilda Goa Portugaliyaning 450 yillik hukmronligidan ozod qilindi va 1987 yilda Hindistonning 25 - shtati bo'ldi. Goadagi ta'tillar juda mashhur - yil bo'yi Goaga sayohatlar uyushtiriladi. Goa qirg'og'i shimoldan janubga 110 km. ga cho'zilgan. Iqlimi: sohilni keskin haroratdan himoya qiluvchi G'arbiy Gatlar tufayli qirg'oqdagi iqlim subtropikdir. Havoning o'rtacha yillik harorati + 27C, suv harorati + 25C.



Chizma -8.1.Goaning turistik xaritasi.

Geografik jihatdan Goa uch qismga bo'lingan: Shimoliy, Markaziy va Janubiy.

Shimoliy GOA: Goaning bu qismi 60-yillarning o'rtalaridan buyon trans-ziyofat joyi sifatida tanilgan va bu joyni tanlagan hippilar jamoasi uchun.

Eng shimoliy plyaj - Arambol. Bu go'zal qoyalar va chuchuk suvli ko'l tufayli ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi. Bu yerga paraplaning muxlislari keladi. Eng mashhur joylardan biri - Anjunadagi burga bozori, u ham 60 - yillarda paydo bo'lgan. Bozor haftada bir marta chorshanba kuni ochiq. Hindistonning barcha shtatlaridan kelgan hunarmandlar o'z mahsulotlarini bu yerga olib kelishadi. Paxta, bronza, kumush va har xil turdagi yog'ochdan yasalgan buyumlarni - bularning barchasini Anjunadagi bozorda sotib olish mumkin.

Fort Aguada juda go'zal joy - Goadagi eng mashhur qal'alardan biri. 17 - asrning boshlarida qurilgan. To'plar yordamida bosqinchilardan o'zlarini himoya qilganlar, bizning zamongacha mukammal holatda saqlangan.

Markaziy Goa. Panaji - Goaning zamonaviy poytaxti va Hindistonning eng kichik poytaxti, Mandovi daryosining janubiy qirg'og'ida joylashgan. Fontainesning eski kvartali eng go'zal va eng qadimiydir; birinchi portugallarning avlodlari hali ham shu yerda yashaydilar. Yangi va qimmat uylar, aksincha, Oltinchoch tepaligida joylashgan. Agar siz tepalikka chiqsangiz, butun shaharning ajoyib manzarasini ko'rasiz. Panajida, kemachilar suzib ketishdan oldin ibodat qilish uchun kelgan beg'ubor Kontseptsiya cherkoviga tashrif buyurishadi.

Avliyo Frensis Xaver cherkovi Old Goadagi eng qiziqarli binolardan biridir. U 1520 yilda qurilgan va 1663 yilda arxiyepiskop saroyi sifatida qayta qurilgan. Cherkovning ichki qismi ayniqsa go'zal, chunki mahalliy hunarmandlarga o'z mahoratiga boshqa joylarga qaraganda ko'proq erkinlik berilgan. Cherkov Tseylon, Yaponiya, Xitoy va hokazolarda xristianlikning asoschisi bo'lgan Sankt - Frensis Xaverning o'lmas jasadini o'z ichiga olganligi bilan mashhur, har 10 yilda bir marta, 54 kun davomida, Sankt - Frensisning jasadi Xaver hamma ko'rishi uchun ko'rgazmaga qo'yilgan va millionlab odamlarga uni ko'rish imkoniyati berilgan.

Ponda - Goaning sharqiy qismidagi eng katta shahar. Katta magistral yo'llar kesishmasida joylashgani uni so'nggi yillarda Goaning eng ko'p aholi va tashrif buyuriladigan shaharlaridan biriga aylantirdi. Birinchidan, Ponda atrofi hind ibodatxonalarining ko'pligi tufayli tashrif buyurishga arziydi.

Mangesh ibodatxonasi, Mahalsa ibodatxonasi, Shantadurga ibodatxonasi, Shantadurga ma'budasi, Savoy plantatsiyasi, Dudsagar sharsharasi, qo'riqxonalar.

Janubiy Goa. Goaning janubiy qismi shimoldan sezilarli darajada farq qiladi. Janubiy qirg'oq ancha xilma - xil va manzarali. Butun qirg'oq bo'ylab uzun va keng plyajlar, oppoq qum va palma bog'lari bor. Bu yerda shtatning eng qimmat mehmonxonolari qurilgan. Va shu bilan birga, Janubiy Goa infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda - mehmonxonalar qimmatlashishda davom etmoqda, yangi do'konlar, klublar va diskotekalar ochilmoqda. Endi janubda, butun qirg'oq bo'ylab, dengiz mahsulotlarini taklif qiladigan ko'plab plyaj kafelari mavjud.

Margao Panajidan keyin ikkinchi eng muhim shahar. Margao Janubiy Goaning markazi hisoblanadi. Bu ajoyib uylar shahri,

mustamlakachilik me'moriy xususiyatlari bilan keng teraslar, ekzotik gullar ko'p bo'lgan bog'lar, daraxtlar va bolalar bog'lari. Yarmarkalar Margaoda juda mashhur. Oddiy bozorlardan tashqari, har juma kuni 2 ta katta bozor ochiladi, u yerda siz savg'otilardan tortib kiyimgacha sotib olishingiz mumkin. Janubning quyidagi joylari ham mashhur: Colva, Cavelossim, Palolem, Dengiz va daryo bo'ylab yurish.

GOA atrofida yana quyidagi joylarni ko'rish mumkin: Hampi bozori, Qirollik markazi, Anegondi.

8.3. Maldiv Respublikasining turistik salohiyati

Maldiv Respublikasi Hind okeanida joylashgan suvener davlat. Poytaxti Male shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 298 kv. km., aholisi – 396.0 ming kishi (2020 - yil), tili - maldiv, dini - islom, pul birligi - Maldiv rupiyasi. 2000 ta kichik marjon orollardan iborat. Milliy bayrami - 26 iyul - Mustaqillik kuni (1965 - yil).

Maldiv orollari noyob geografiyasi va topografiyasi jihatdan tengsiz. U ikki orol va ular orasidagi 26 ta atolldan iborat. Maldiv orollarning 2000 dan ortig'i xususiy orolchalar tashkil etadi. Orol davlati Hind okeanidagi asosiy xalqaro dengiz yo'nalishlariga ega bo'lgan strategik hududda joylashgan.

Diqqatga sazavor joylari: Xukur-Misky masjidi, 1658 yilda Sulton Iskandar tomonidan qurdirilgan; Masjidul-sulton Muhammad Tukurufon al-Auzam, mamlakatning eng yirik masjidi, 6 qavatli kutubxona, konferens zal va Islom ishlari vazirligi binosi; Maldivlar milliy muzeyi, Sultonning eski rezidentsiyasida joylashgan; Sulton bog'i, Sulton qarorgohi bo'lgan hozir esa muzey; Maradu orollari, bu yerda inglizlarning dengiz bazasi va qamoqxonasi qoldiqlari bor; Tilafushi oroli, chiqindilardan 1992 yil qurilgan sun'iy orol; Hulul oroli, uning katta qismini aeroport egallaydi; Muhammad Takurufanning qabri, Majidi-Magdu hududidagi masjid yaqinida joylashgan, Takurufana 1573 yilda portugaliyaliklardan orolni ozod qilgan milliy qahramon.

Maldiv orollari iqtisodiyotining eng asosiy tarmog'i turizm hisoblanadi (valuta tushumida ham, aholini ish bilan ta'minlashda ham). Arxipelag butun dunyodan o'ziga turistlarni jalb qiladi. Quyidagi jadval boni isbotlaydi.

Jadval. - 8.2. Maldivga kelayotgan turistlar soni dinamikasi (ming kishi.)

Qaysi hudud-dan keladi	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	Turistlar taqsi-moti
Jami	655,852	791,917	931,333	958,025	1125,202	1204,857	1234,248	100%
Yevropa	462,192	505,421	537,757	517,807	527,274	529,291	535,962	43.42%
Germa-niya	69,085	77,108	90,517	98,351	93,598	98,328	105,132	8.52%
Buyuk Britaniya	105,950	114,158	104,508	91,776	85,869	88,347	92,775	7.52%
Italiya	89,292	89,596	83,088	62,782	57,854	57,862	65,616	5.32%
Rossiya	40,014	49,111	63,936	66,378	76,479	66,308	44,323	3.59%
Frantsiya	50,373	54,789	59,694	56,775	54,328	50,656	42,024	3.40%
Osiyo	155,538	239,882	334,692	367,680	505,753	568,031	578,322	46.86%
Xitoy	60,666	118,961	198,655	229,551	331,719	363,626	359,514	29.13%
Hindiston	15,850	25,756	30,978	31,721	38,014	45,587	52,368	4.24%
Afrika	5,034	5,628	6,465	7,095	8,271	8,149	9,276	0.75%
JAR	2,975	3,157	3,684	3,967	4,503	3,699	4,170	0.34%
Amerika	15,159	18,601	23,654	26,774	32,970	41,044	46,602	3.78%
AQSh	9,438	11,482	14,490	16,049	20,034	25,641	29,308	2.37%
Okeaniya	8,404	10,756	14,195	16,826	18,761	20,814	21,777	1.76%
Avstra-liya	7,392	9,622	12,778	15,208	16,915	18,872	19,733	1.60%
Yaqin Sharq	9,525	11,629	14,570	21,843	32,050	37,201	41,976	3.40%
Saudiya Arabiston i	3,036	4,040	5,005	7,263	10,477	12,405	15,749	1.28%

Manba: <https://knoema.ru/atlas/>

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, orolga Xitoy va Amerikadan kelayotganlar eng tez o'smoqda, yevropadan kelayotganlar esa nisbatan sekin o'smoqda, hatto ayrimlaridan keladiganlar ancha kamaygan, jumladan Buyuk Britaniya, Italiyadan.

Turizm tarixiga kelsak, 1960 yilda BMT missiyasi mamlakatga kelib turizmni rivojlantirib bo'lmaydi, deb xulosa bergan, ammo 1972 yilda 1-chi kurort ochilishi bilan (Bandos orolidagi Kurumba kurorti) turizm rivojlanib ketdi. Hozir esa 105 ta kurort bor. Maldivda Hind okeanining issiq moviy suvlarida 2000 dan ortiq orollar bo'lsa, faqat 200 tasiga odam yashay oladi, 100tasi esa turistik kurort hisonlanadi, ular asosan kokos va banan daraxtlari bilan qoplangan hamda oppoq koral qumlari bilan o'ralgan. Har bir orol odatda lyuks xonalar, restoran, kafiteriy, magazinlar (ko'proq oziq-ovqat va suvinir do'konlari), salonlar, barlar, diskotekalar, personal uchun yordamchi joylardan iborat.

Maldiv orollari o'zining tabiati go'zalligi bilan, oq plyajlari, cheksiz okean ufqlari, toza havosi, yil davomida juda qulay ob-havosi bilan kishilarni o'ziga rom qiladi. Tabiat va iqlim suv sportlari - suzish, baliq ovlash, dayving, snorkeling, suvda chang'ida suzish, syorfig kabilar bilan shug'ullanish uchun ideal sharoitdir. Dengiz ostining boyligi va suvning tozaligi uchun Maldiv dunyoda rekreatsion dayving uchun eng qulay joy hisoblanadi.

Maldivga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 1.5 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'riladigan daromad 2018 yilda 3.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Xorijga chiqqan turistlar esa 2018 yilda 123.0 ming kishini tashkil etga. Va ularning xarajati 433 mln. dollarni tashkil etgan.

8.4. Eron va Afg'oniston mamlakatlarining turizmini tahlili

Eron Janubi-G'arbiy Osiyodagi davlat bo'lib, o'rta sharq mamlakatlari guruhiga kiradi. Hududi 1648.2 ming kv.km. Aholisi 84.1 mln kishi. Yirik shaharlari: Tehron, Mashhad, Isfaxon, Tabriz, Sheroz. Shimolda Kaspiy dengizi, janubda Fors, Ormuz va Ummon qo'ltiqlari bilan o'ralgan, bu qo'ltiqlardagi Keshm, Xo'rmuz, Xark va boshqa orollar ham Eron mamlakatiga tegishli. Aholisining etnik tarkibi: forslar 55%, ozariylar 28%, kurdlar 5%, lurlar, arablar,

turkman va blujlar, umuman 30 dan ortiq xalqlar yashaydi. Rasmiy tili fors tili hisoblanadi. Islomning shia yo'nalishiga aholining 90%i e'tiqod qiladi.

Mamlakat yer yuzasining yarmidan ko'prog'ini tog'lar tashkil etadi. Eron jahondagi eng qadimiy davlatlardan biri bo'lib, tarixi va madaniyati nihoyatda boy. Eronda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hozirgi kunda olib borilayotgan tayyorgarlik ishlari, siyosatning demokratlashtirilganligi tufayli turizm ancha jonlandi.

Eron o'zining tabiiy sharoitlari va tarixiy obidalari bilan dunyoning birinchi o'nta davlatlar qatoriga kiradi. Uning tabiiy sharoiti dam olishning ranba-rang turlarini rivojlantirish uchun imkon bergan, tog'lari (Tehron yaqinidagi Dizun kurorti) – chang'gi, Fors qo'ltig'i va Kaspiy dengizi qirg'oqlari plyaj turizmiga imkoniyati bor. Mamlakatda ekoturizm, davolanish turizmi, madaniy va diniy turizm, sport turizmi tez rivojlanmoqda.

Hozirgi paytda 2 foiz ish o'rinlari turizm sohasida yaratilmoqda. Bu sohani rivojlantirish uchun hukumat turistik korxonalariga 50 - foizli soliqdan chigirma kiritgan. Juda ko'p mehmonxonalar qurilmoqda, ularning qariyb 70 foizi Tehron, G'ilyon, Mozandaron, Xuroson - Rezavi va Isfaxon shaharlarida qurilmoqda. YUNESKOning butunjahon merosi ro'yxatida Eronning 23ta ob'yekri bor: bular qadimiy shaharlar - Soga-zanbil, Persepol, Pasargadi, Taxta - Sulaymon, Bam qasri, Shahri So'xta, Meymand, Suza. Isfaxonning imom Ali maydoni, Soltaniya mavzaleyi, 3ta arman monastirlari kompleksi, Shushtariydagi irigatsiya kompleksi, Ardebildagi shayx Sai-al-dinn xonaqohi va qabri, Tabriz tarixiy bozori, Isfaxonning juma namoz masjidi, butun Eron bo'ylab tarqalgan fors bog'lari, Tehrondagi Goliston kompleksi, butun Eron bo'ylab tarqalgan kiyarzi gidrotexnik kompleksi, Tarixiy shahar Yeizd, Fors provinsiyasidagi Sosoniylarning arxeologik kompleksi.

Hukumat rekreatsion resurslarni qayta ishlash uchun katta ishlar qilmoqda, ayniqsa, Kasbiyda, Mozondaron provinsiyasidagi kurortlarda – Ramsar, Amol, Babol, Babolsarda hamda Fors qo'ltig'ida Kish, Keshm va Ormuz orollarida hamda Bushirda. Eron islomning shiit mahzabi markazi sifatida ko'plab ziyoratchilarni o'ziga lalb qiladi – birinchi navbatda Mahshad va Qum shahrlariga. Madaniy turizmning shaharlari Isfaxon (“Jahonning yarmi” nomini

olgan, bir necha bor mamlakat poytaxti bolgan, 11-19 asrlarga taaluqli juda ko'p arxitektura yodgorliklari bor) va Sheroz (uning o'zida ancha obidalar bor, unga yaqin esa qator tarixiy shahar qoldiqlari bor (Persepol, Naqshi-Rustam, Naqshi - Rajab va Pasargard) sanaladi. Eron gasrtonomiyasi ham o'ziga xos hisoblanadi, jumladan kaboblari, paxlavasi, pashmaki, halvalari, muzqaymoqlari.

2017 yildagi mamlakatning diqqatga sazavor joylari o'ntaligi: Isfaxondagi Imom maydoni (17 asr), Tehrondagi Guliston saroyi (16 asrda qurilgan), Behiston tog'ining cho'qqisidagi yozuvlar (eramizdan oldin Doro I davrida chizilgan), Pasargadi shahri (Kir II davrida mamlakat poytaxti bo'lgan) vayronalari, Naqshi-Rustam (Perepolis yaqinida ahmaniylardan Doro I, Doro II, Kserks, Artakserks qabrlari joylashgan mozor), Tehrondagi mamlakatning 2500 yilligiga atab qurilgan Ozodlik minorasi (1972y), Isfaxondagi ko'prik (17 asrda Abbas II davrida qurilgan), Eronning milliy muzeyi (mamlakatning eng yirik muzeyi, 1937 yil qurilgan), Shoh Cherax mavzaleyi (14 asrda qurilgan), Jamkaran masjidi (shialarning ilmiy markazi). (Manba: <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-irana/>).

Eronga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 7.3 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakatga 2018 yilda tushum 4.6 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 7.2 mln. kishini tashkil etgan. Ularning qilgan xarajati esa 11.9 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Afg'oniston. Joylashgan joyi: Osiyo markazi, Poytaxti: Qobul, hududi: 647.500 kv. km. Xitoy, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bilan chegaradosh. Aholisi 32.2 mln. kishi, dini islom, asosiy xalqlari – pushtunlar, tojiklar, o'zbeklar, hazariylar.

Afg'oniston Islom Respublikasi - Markaziy Osiyoning baland tog'larida joylashgan dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakat. Besh ming yillik tarixi va chuqur madaniy an'analariga ega Afg'oniston haqli ravishda qadimiy mamlakat deb hisoblanadi. Afg'onistonning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 7495 metr balandlikda joylashgan Badaxshondagi Noshak cho'qqisi va eng past joy Juzjon viloyatidagi Mingajak mintaqasi bo'lib, u dengiz sathidan 245 metr balandlikda joylashgan.

Afg'onistonda turizmni rivojlantirishga ko'maklashish uchun hukumat xususiy sektorni va uning turizm sohasiga investitsiyalarini

har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro turizmni rivojlanishi bilan Afg'oniston iqtisodiyotining ushbu sohasi rivojlanish uchun ulkan salohiyat yaratadi va mustahkam daromad manbai bo'lishga va'da beradi.

Yigirmanchi asrning 70-yillari boshlarida hukumat ko'magi bilan rivojlangan Afg'onistonning sayyohlik sanoati 1979 yildan beri ichki siyosiy beqarorlik tufayli dabdala bo'ldi. Afg'onistonga kirish uchun pasport va viza talab qilinadi. 1999 yilda BMT Qobulda qolish kunlik xarajatlarini 70 dollarga baholagan. Ushbu xarajatlarning taxminan 61% mehmon uyidagi xona narxi sifatida baholandi. Bundan tashqari, mehmonxonalar uchun yuqori tarif mavjud. AQSh boshchiligidagi Tolibon va Al-Qoidaga qarshi kompaniya tufayli mamlakatda sayohat juda cheklangan. Afg'oniston elchixonalari har yili 15-20 ming turistik viza beradi.

Afg'oniston hukumatining turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi:

- ✓ Madaniy turizmni institutsionalizatsiya qilish va mahalliy turizmni rivojlantirish;
 - ✓ Xususiy sektorni turli yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash;
 - ✓ Afg'onistonni mintaqa mamlakatlari bilan aloqalarni davom ettirgan eng boy, eng qadimiy va eng nufuzli madaniyat va tsivilizatsiya sifatida namoyish etish;
 - ✓ Bozorni o'rganish va tahlil qilish asosida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha turizm strategiyasi;
 - ✓ Turistik resurslarni ajratish, turistik dasturlarni xalqaro turistlarni jalb qilish texnologiyalariga muvofiq sozlash;
 - ✓ Turli yo'nalishlarda salohiyatni oshirish;
 - ✓ Turizmni barqaror rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar, mahalliy sayyohlik agentliklari bilan aloqalarni o'rnatish.
- Mamlakatdagi hozirgi vaziyat turizmni rivojlantirishga inkon beradi deb bo'lmaydi.

8.5. Shri-Lanka, Nepal va Butan mamlakatlarining turistik salohiyati

Shri Lanka o'zining diqqatga sazovor joylari bilan qiziq: ko'plab me'moriy yodgorliklar, shu jumladan qadimiy shaharlar, qadimiy

monastirlar, qirollik saroylari, bog'lar, sug'orish tizimlari, shuningdek rasm va haykallar orolning qadimgi tsivilizatsiyalarining ulkan madaniy va texnologik yutuqlaridan dalolat beradi. Shri Lankaning diqqatga sazovor joylari butun dunyodagi sayyohlik doiralarda juda mashhur. Tarixni sevuvchilar bu yerda qadimiy shaharlar, qal'alar, qadimiy monastirlar, qirol saroylari, qadimiy me'morchilik yodgorliklarini topadilar. Tabiatni sevuvchilar tropik jungli, tog' sharsharalari, milliy bog'lar dunyosiga hayratlanarli faunasi bilan kira oladilar.

Shri Lanka hukumati o'zining boy madaniy merosini saqlash zarurligini anglab, 1978 yilda YuNESKOga mamlakatni qadimiy yodgorliklarni tiklash va konservatsiya qilish bo'yicha jahon yordam dasturiga kiritish talabi bilan murojaat qildi. O'sha yilning oktyabr oyida YuNESKO Bosh assambleyasida loyiha tasdiqlandi va Shri Lankaning me'moriy yodgorliklari jahon madaniy merosi sifatida tan olindi. Uchburchakning uchta diqqat markaziga 2000 yil oldingi yodgorliklar kiradi: Anuradhapura - orol shimolida Shri Lankaning birinchi qadimiy poytaxti, Polonnaruva - mamlakat sharqidagi o'rta asrlar poytaxti Kandi. - orolning markaziy qismidagi mustaqil Sinhaliya davlati hukmdorlarining oxirgi istehkomi.



Anuradhapura. 1820 yilda ingliz ovchisi Shri Lanka o'rmonlarida ulkan Anuradhapura shahri xarobalarini topdi, ularning mavjudligi buddaviy rohiblarning qadimiy kitoblarida aytilgan. 20 - asrning boshlaridan bugungi kungacha davom etayotgan birinchi jiddiy arxeologik qazishmalar boshlandi.

Arxeologlarning tasdiqlashicha, Anuradhapura hududida birinchi odam yashaydigan joylar miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi. O'zining gullab -yashnagan davrida shahar 52 kvadrat kilometr maydonni egallagan, aholisi bir necha o'n minglab kishilar bo'lgan. Yaxshi rejalashtirilgan shaharda 2 qavatli binolar, shuningdek, oqar suv (mil. I asr), yo'llar va ko'priklar, saroylar, monastirlar, ibodatxonalar, kasalxonalar va qabriston odatiy hol edi. Anuradhapura 1400 yil Sinhal davlatining poytaxti bo'lib qoldi. Ammo Hindiston janubidagi davlatning doimiy aralashuvi

natijasida shahar 993 yilda vayron qilingan, yondirilgan va poytaxt Polonnaruvaga ko'chirilgan.

Anuradhapura nafaqat qadimiy poytaxt, balki muqaddas shahar hamdir. 247 yilda. Miloddan avvalgi Buddizm Shri Lankaning rasmiy diniga aylandi va Shimoliy Hindistondan kelgan rohiblar orolga falsafiy ma'noga to'lgan maxsus dinning ramzlarini olib kelishdi. Har yili minglab imonlilar muqaddas joylarni ziyorat qilishadi. Anuradhapura buddizmning poytaxti bo'lgan va hozirgacha ham shunday. Bo daraxti dunyodagi millionlab buddistlar uchun eng muqaddas ibodat joylaridan biridir. Shahar markazida yettita stupadan biri - II asrda oltin shag'al poydevoriga qurilgan Dagoba Ruvanovelli yoki Mahatupa (Buyuk Stupa) joylashgan. Jetavana stupa (120 m), inson tomonidan qurilgan eng baland g'ishtli inshoot, (mil. IV asr) dunyodagi uchinchi yirik yodgorlik bo'lib sanaladi. Anuradhapura arxeologik muzeyida katta tarixiy qiziqish uyg'otadigan Shri -Lanka madaniyati durdonalari namoyish etilmoqda.

Shri-Lanka ekoturizmi ham mashhur, uning o'ziga xosligi uning mavsumiyligidadir. Fevral, mart, avgust oylari G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ekoturistlarning ekvatorga yaqin turuvchi orollariga oqimi ko'payadi. Milliy turistik bozorda sotuvlar oktyabrdan boshlanib, maksimal hajmi yangi yil bayramlariga to'g'ri keladi va may oylariga borib pasayib ketadi. Dekabrning oxiri, yanvar oyining birinchi yarmida Shimoliy Yevropadan ekoturistlar soni **30%** gacha ortadi. Unda Hind okeani qirg'oqlaridagi go'zal tabiat va kuchli to'lqinlardan yuzaga keladigan ekstremal holat ham turistlarni o'ziga jalb qiladi.

Shri Lankada «yashil turizm» nomini olgan ekvatorial o'rmonlarga borish, qo'riqxonalarni tomosha qilish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mazkur davlatda tabiatni himoya qilishning o'ziga xos milliy an'analari mavjud. Uning tarixida «yovvoyi tabiatni himoya qilish» ga qaratilgan birinchi huquqiy norma miloddan avvalgi III asrda qabul qilingan. Hozirda Shri-Lankaning 12 foizi alohida muhofaza etiladigan hududlarda yashashadi. Uning tarkibida 3 ta qo'riqxonalar va 12ta milliy bog'lar faoliyat yuritmoqda. Undagi yovvoyi qo'toslar, fillar, timsohlar, echkiemlarlar, kiyiklar ekotur obyekti bo'lib xizmat qilmoqda.

Nepal qirolligi Janubiy Osiyoda, Himolay tog'ining markaziy qismida joylashgan davlat. Maydoni 140.8 ming kv.km. Aholisi 26

mln. kishi. Poytaxti Katmandu. Mamlakat ma'muriy jihatdan 14 zonaga, zonalar tumanlarga bo'linadi. Nepal dunyodagi ikki eng yirik davlatlar o'rtasida joylashgan. Nepal osmono'par Himolay tog'larini tomosha qilish uchun butun dunyodan turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Nepal dunyodagi eng baland 10 ta tog'dan 8 tasiga ega. Everest tog'i - dunyodagi eng baland tog' cho'qqisi ham shu yerda joylashgan. Nepalning 40 foizdan ortiq maydoni 3000 metrdan ortiq balandlikda joylashgan.

Turizm – Nepalning eng ko'p daromad keltiradigan sohasi hisoblanadi va davlat uchun asosiy valyuta manbai hamdir. Nepalda trekking, alpinism, sarguzasht uchun sayyohlik va ekoturizm muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatda diniy va ziyorat turizmi ham keng tarqalgan. Birgina 1980-1991 yillar mobaynida trekking turlarga qatnashgan turistlar soni 255% ga ortdi. Yigirmanchi asrning oxirgi o'n yilligida ham turizm jadal rivojlandi, masalan, 2000-yil bahorida Everest hududi atrofida 50 ta xalqaro ekspeditsiyalar o'tkazilgan. Mamlakat turizmdan yiliga qariyb 500 mln. dollar daromad ko'rmoqda, shu jumladan, ekoturizmdan 200 mln. AQSh dollari foyda ko'radi.

Mamlakatning diqqatga sazavor joylari – Sagarmatha milliy bog'i, Katmandu yaqinida, uning shimoli-sharqiy qismida joylashgan, milliy bog' maqomini 1976 yil olgan, maydoni 1148 kv.km.ni tashkil etadi. Everest shu bog'da joylashgan; Annapurna milliy bog'i, Nepalning markaziy qismida joylashgan, bog'da eng baland cho'qqilar – Annapurna va Dhaulagiri hamda sayoramizdagi eng chuqur vodiy Kali-Ganaki bor; Qirol Chitvan milliy bog'i, 1970 yilgacha qirolning ov qiladigan maydoni bo'lgan, shu sababli faunasi yaxshi saqlangan hududdir; Bhimsen minorasi, 1832 yilda qurilgan, balandligi 76 metr. Katmanduning eng baland binosi, 1998 yilgacha xarob holda bo'lgan, hozir ta'mirlangan; Katmandu, Patan va Bhaktapurdagi Durbar (Durbar Nepal tilida "saroylar joyi" degan ma'noni bildiradi) maydonlari, uchalasi ham YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Buddaning tug'ilgan joyi deb sanaladigan mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan Lumbini shaharchasi buddizm dini ziyoratchilarining muqaddas joyi sanaladi va ularning katta oqimni beradi, masalan 2017 yil mamlakatga kelgan turistlarning 70 foizi ziyorat uchun va buddizm obidalarini ko'rish uchun kelgan.

Ekzotikani sevuvchi va katta moliyaviy imkoniyatga ega bo'lganlar Tibet, ayniqsa Himolay tog'larida treking bilan shug'ullanishni maqul ko'rishadi. Trekingning eng mashhur hududlaridan biri Himolay tog'larining Nepal hududida joylashgan qismi bo'lib bormoqda.

Mamlakatga 2017 yil qarib 940 ming kishi tashrif buyurgan, eng ko'p Hindiston, Xitoy, AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Shri Lanka, Tailand, Myanma, Avstraliya va Janubiy Koreyadan sayyohlar kelishgan. Ko'rilgan daromad o'tgan yilga nisbatan 40 foizga oshgan va 574 mln. dollarni tashkil etgan. 2018 yilda esa 969 ming kishi havo orqali va 204 ming sayyoh esa quruqlik orqali kelishgan.

Butan Janubiy Osiyoda joylashgan bo'lib, Hindiston va Xitoy davlatlari orasida joylashgan. Mamlakatning poytaxti Tximpxu shahridir.


Mamlakatda turizmning roli oshishi 1974-yilga to'g'ri keladi. Shu yildan boshlab Butan hukumati aholi daromadi oshishi, mamlakatning madaniyati va an'alarini turistlarga namoyish qilish maqsadini oldiga qo'yadi. Bu davrgacha mamlakatga faqat qirol yoki qirolichaning taklifi bilangina tashrif buyurish mumkin edi.

1974-yilda Butanga 287 turist tashrif buyuradi. O'sha davrdan beri turistlar soni har doim oshib bormoqda. 1992-yilda 2850, 1999-yilda 7158 kishi. Yigirmanchi asr oxiriga kelib turizm mamlakat iqtisodiyotiga yiliga 2 million AQSh dollari miqdorda foyda keltira boshladi.

Butan turistlar sonini mamlakatning o'zgacha tabiiy manzaralariga zarar yetkazmaslik uchun kam miqdorda bo'lishini ushlab turadi. Ya'ni, yuqori sifat, kam miqdor siyosati qo'llaniladi. Turistlar mamlakatda bo'lgan har kunlari uchun 250 dollargacha to'lov to'lashlari kerak bo'ladi.

Turistik eng muhim shaharlar mamlakat poytaxti Tximpxu va Hindistonga yaqin bo'lgan Paro shahri bo'lib hisoblanadi. Eng ko'p turist tashrif buyuradigan go'sha esa Taksang monastiridir. Mamlakatdagi asosiy turistik marshrutlarning ko'p qismi monastirlardan o'tadi.


Butanda 2019-yil holatida: 3020 ta turoperatorlar, 160 ta mehmonxonalar, 149 ta qishloq hostellar, 4600 ta gidlar mavjud. Mamlakatdagi o'rtacha turist qolish davri esa 7 kunni tashkil etadi.



(Source: TCB & DOI)

Diagramma-8.1. Butan mamlakatiga 2012-2019-yillardagi tashriflar dinamikasi.

Butanga asosan ichki turizm ham, tashqi turizm ham dam olish maqsadida sayr qilish foizi yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi.



(Source: TCB)

Diagramma – 8.2. Butanga tashrif buyuruvchi sayyohlarning davlatlar bo'yicha dinamikasi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki mamlakatga eng ko'p AQSh va Xitoydan turistlar kelmoqda. Singapur, Vyet Nam, Malayziya kabi qo'shni davlatlardan keluvchilar o'sib bormoqda.

Qisqacha xulosalar. Yaqin paytlargacha Janubiy Osiyo mamlakatlari juda kambag'allar regionni sifatida e'tirof etilar edi, ammo 21 asr boshidan bu region ham, ayniqsa uning giganti Hindiston, barcha sohalarda, jumladan, turizmni rivojlantirishda muvofaqqiyatlarni qo'lga kiritib boshlashdi. Boy madaniyati, ekzotik tabiati va narxlarning hozircha juda pastligi xorijiy turistlarni oqib kelishini boshlab berdi. Maldiv esa elitar turistik mamlakatga aylana oldi. Markaziy Osiyoga kelsak, u regiondagi mamlakatlar Sobiq Ittifoq asoratlaridan qutula borib (ayniqsa, Qozog'iston), mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan turizmni jadal rivojlantirish yo'liga kirib bormoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Janubiy Osiyo mamlakatlari turizmining o'ziga xosligini tushuntirib bering.
2. Qozog'istonning turistik salohiyatini ochib bering.
3. Qirg'iziston xorijlik sayyohlarni nimasi bilan o'ziga jalb qiladi?
4. Tojikiston respublikasi turizmini rivojlantirish imkoniyatlari nimada?
5. Turkmanistonga borib nimalarni ko'rish arziydi?
6. Hindiston mamlakati turizmini tahlil qilib bering.
7. Hindistonning eng turistik shtatlari qaysilar va ular nimasi bilan ajralib turadi?
8. Maldiv respublikasining turistik salohiyati nimada?
9. Eron turizmni rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlarga ega?
10. Shri Lankaning turistik ucburchagiga ta'rif bering.
11. Nepal mamlakatining asosiy turistik yo'nalishlari nimalardan iborat?

Glossariy

Turizm xartiyasi – xalqaro turizmning rivojlanishi haqidagi qonun, BTT Bosh assambleyasi tomonidan 1985 yili 6 - sessiyasida qabul qilingan.

Turizm strategiyasi - turizmni rivojlantirish va qayta tashkillashtirish sohasidagi davlat faoliyatini belgilaydi. Bu faoliyat avvalo amalga

oshirish uchun vaqt va kattagina moliyaviy resurslarni talab etuvchi maqsadli dasturlar va rivojlanishning umumiy kontsepsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Shri Lanka uchburchagi - mamlakatning uchta eng zo'r diqqat markazi kiradi: Anuradhapura - orol shimolida Shri Lankaning birinchi qadimiy poytaxti, Polonnaruva - mamlakat sharqidagi o'rta asrlar poytaxti, Kandi - orolning markaziy qismidagi mustaqil Sinhaliya davlati hukmdorlarining oxirgi istehkomi.

Everest tog'i - dunyodagi eng baland tog' cho'qqisi Nepal mamlakatida joylashgan. Bu tog' nafaqat juda baland (8848 metr), balki unga chiqish ham juda mushkul, toqqa chiqaman deb o'lib ketayotganlar ham oz emas.

TRACECA – Transport Corridor Europe – Caucasus – Asia – «Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport koridori.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Tojikistonda quyidagi punktlarda ko'rsatilgan qaysi turizm turlari yaxshi rivojlanmagan?

- a) alpinizm, tog'- sport va ekologik turizm;
- b) rafting, paraplanerizm va tog'-chang'i sporti;
- c) trekning hamda rekreatsion turizm;
- d) plyaj turizmi, safari va gastranomik.

Quyidagilardan qay biri Tojikistonning mashhur turistik resurslariga kirmaydi?

- a) Islom va xritian dinining yodgorliklari;
- b) Zardo'shtiylikning qadimiy yodgorliklari va Buyuk ipak yo'li;

- c) yuqorida joylashgan Badaxshon o'lkasi, Qorako'l va Sarez ko'llari;
- d) Fan vodiysining ko'l va daryolari.

Sulton Sanjar, Fahridin Roziy, Sulton Takash maqbaralari qaysi mamlakatning mashhur madaniy turizm yodgorliklari sanaladi?

- a) Turkmanistonning;
- b) Tojikistonning;
- c) Qirg'izistonning;
- d) O'zbekistonning.

Qaysi mamlakat o'zining Axaltin otlari, go'zal gilamlari hamda g'alati va go'zal peyzajlarga burkangan qum

barxahlari bilan ham mashhur?

- a) Turkmaniston;
- b) Saudiya Arabistoni;
- c) Qozog'iston;
- d) Barlashgan Arab Amirliklari.

Qirg'iziston davlati asosan turizmning qaysi turi bilan shug'ullanadi?

- a) Sog'lomlashtirish turizmi;
- b) Tarixiy turizm;
- c) Ziyorat turizmi;
- d) Ishqiy turizm.

Qaysi mamlakat Baytik milliy parki, "Chon-Arik" botanik qoriqxonasi, Kamishanovka kurorti bilan ham mashhur?

- a) Qirg'iziston;
- b) Tojikiston;
- c) Qozog'iston;
- d) Turkmaniston.

Qirg'iziston xorijiy turistlar uchun nimasi bilan mashhur?

- a) Turistlar uchun kam o'rganilgan va ekzotik mamlakat sifatida mashhur;
- b) O'zining gastronomik afzalliklari bilan mashhur;
- c) Turistlar uchun go'zal poytaxitdagi tarixiy obidalari bilan mashhur;
- d) Shopping tur maskani sifatida mashhur.

Qozog'istonda 2020 yilda YUNESKOning xalqaro merosiga kirgan nechta ob'yekt bor?

- a) 5 ta ob'yekt bor;
- b) 11 ta ob'yekt bor;
- c) Bitta ham ob'yekt yo'q;
- d) 16 ta ob'yekt bor.

Qoraxon, Aysha – Bibi, Babajan-Xotin, Yassaviy mavzoleylari, skiflarning qabristoni – bular qaysi mamlakatning madaniy meroslari sanaladi?

- a) Qozog'istonning;
- b) Qirg'izistonning;
- c) Tojikistonning;
- d) Turkmanistonning.

Hozirgi zamonda dunyoning yetti mo'jizasidan bir hisoblanadigan "Tojmahal" Hindistonning qaysi shahrida joylashgan?

- a) Agra;
- b) Mumbay;
- c) Dehli;
- d) Haydarobod.

Xorijiy turistlarning avvalombor nima sababdan Hindistonga qiziqishlari katta?

- a) U dunyoning eng qadimiy va madaniyati yuksak mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi;
- b) Narxlar jihatdan ancha qulay mamlakat sanaladi;

c) Issiq va qumli plajlari o'ziga rom qiladi;

d) Shopping uchun juda qulay davlatdir.

Nilufar ehromi, Adjantidagi g'orlardagi budda ehromlar kompleksi, Xampi shahridagi 18ta qadimiy yodgorliklar, 72 metrli "Qutb-minor", Mamlakat darvozasi, Xavamahal qasri, Qizil fort, tog'da qurilgan Mehrangarx qasri - bular qaysi mamlakatning eng diqqatga sazavor joylari sanaladi?

a) Hindiston;

b) Eron;

c) Shri Lanka;

d) Afg'oniston.

Quyidagilardan qay biri to'g'riligini toping.

a) Hindistonda 75 milliy bog' va 420 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud. Yirik milliy bog'lari: Kaziranga, Manas, Dachigan, Dadva, "Gullarvodiysi" (Uttar Pradesh), Sariska va boshqa.

b) Shri Lankada 25 milliy bog' va 110 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud. Yirik milliy bog'lari: Gujarot shtatidagi Titxal, Ubxrat, Diu, Daman, va boshqa.

c) Hindistonda 45 milliy bog' va 220 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud. Yirik milliy bog'lari:

Madha, Marv, Ullal, Udili, Mangamuru va boshqa.

d) Shri Lankada 15 milliy bog' va 1420 dam ortiq qo'riqxonalar mavjud. Yirik milliy bog'lari: Kaziranga, Manas, Dachigan, Maharashtra shtatidagi Madha, Marv, Karnatakadagi Ullal, Udili, Mangamuru), Sariska va boshqa.

Avliyo Frensis Xaver cherkovi shtatdagi eng qiziqarli binolardan biridir. U 1520 yilda qurilgan va 1663 yilda arxiyepiskop saroyi sifatida qayta qurilgan. Gap Hindistonning qaysi shtati haqida boryapti?

a) Goa;

b) Maharashtra;

c) Karnataka;

d) Kerala.

Okeanning issiq moviy suvlarida mamlakatning 2000 dan ortiq orollari bor, shulardan 200 tasiga odam yashaydi, 100tasi esa turistik kurort hisonlanadi. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

a) Maldiv orollari;

b) Bagam orollari;

c) Kipr;

d) Seyshel orollari.

Soga-zanbil, Persepol, Pasargadi, Taxta - Sulaymon, Shahri So'xta, Meymand, Suza

qaysi mamlakatning qadimiy shaharlari sifatida YUNESKOning butunjahon merosi ro'yxatiga Kirgan?

- a) Eron;
- b) Iroq;
- c) Misr;
- d) Hindiston.

Ramsar, Amol, Babol, Babolsarda, Kish, Keshm va Ormuz orollari – qaysi mamlakatning mashhur kurortlari sanalad?

- a) Eron;
- b) BAA;
- c) Hindiston;
- d) Ummon.

Imom maydoni, Guliston saroyi, Pasargadi shahri vayronalari, Naqshi-Rustam kabilar qaysi mamlakatning eng diqqatga sazavor joylari sanaladi?

- a) Eron;
- b) Afg'oniston;
- c) Hindiston;
- d) Iroq.

Mazkur davlatda tabiatni himoya qilishning o'ziga xos milliy an'analari mavjud. Uning tarixida «yovvoyi tabiatni himoya qilish» ga qaratilgan birinchi huquqiy norma miloddan avvalgi III asrda qabul qilingan. Gap

qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Eron;
- b) Iroq;
- c) Hindiston;
- d) Shri Lanka.

Quyidagilardan qay birlar Nepal mamlakatining ahamiyatli turizm tarmoqi emas?

- a) trekking va alpinizm;
- b) sarguzasht uchun sayyohlik va ekoturizm;
- c) diniy va ziyorat turizmi;
- d) tog'-changi va shopping.

Qaysi mamlakat Buddaning tug'ilgan joyi deb sanaladi va shu yol bilan ko'plab buudizmga etiqot qiladiganlarni o'ziga chorlaydi?

- a) Nepal;
- b) Hindiston;
- c) Shri Lanka;
- d) Xitoy.

Nepaldagi Sagarmatha milliy bog'i quyidagilardan nimasi bilan mashhur va ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi?

- a) Dunyoning eng baland tog' cho'qqisi Everest shu bog'da joylashgan;
- b) Oq sherlar shu yerda yashaydi;

c) Buddizmning eng qadimiy ibodatxonalaridan biri shu yerda joylashgan;

d) Dunyoning hech qayerida uchramaydigan oq pavlinlari bilan mashhur.

IX MAVZU. JANUBIY - SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI TURIZMI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad Janubiy – Sharqiy regionini turizm rivojining o'ziga xosligi va bu region mamlakatlari turizm salohiyatini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

9.1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti

9.2. Singapur mamlakatida turizmning rivojlanish holati

9.3. Malayziya, Bruney va Indoneziya mamlakatlarida turizmning rivojlanish holati

9.4. Tailand va Filippin mamlakatalarida turizmning rivojlanish holati

9.5. Vyet Nam, Laos, Kombodjo mamlakatlari turizmning rivojlanish holati

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Osiyo mintaqasi, Janubiy – Sharqiy Osiyo, ASEAN mamlakatlari, Islom dini ziyoratgohlari, Buddizm, Osiyo yo'lbarisi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400.
4. Александрова А.Ю. «География туризма». Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
5. Арбузов А.Ф. География туризма. Учебник для студ. сред. проф. образования/А.Ф. Арбузов – М. Издательский центр «Академия», 2009. - 160с.

6. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.
7. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
8. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
9. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
10. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
11. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
12. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма. - М., 2010.
13. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры.вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
14. Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник. -2 изд., перераб. и доп. –М.; ФиС, 2009.- 400 с.
15. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М., 2010. 231с.
16. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 240 с.
17. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
18. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
19. [www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition](http://www.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018) [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
20. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2019).
21. [https://www.World's most popular destination revealed](https://www.cnn.com/2018/09/07/travel/worlds-most-popular-destination-revealed/index.html) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
22. [www.Travel & Tourism Economic Impact 2017](http://www.unwto.org/publication/unwto-tourism-economic-impact-2017).
23. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
24. www.wikipediya.ru.
25. <https://knoema.ru/atlas/>
26. <http://www.watpho.com>
27. [www.VNAT.2020](http://www.vnat.2020).
28. [www.Indoneziya statistika qo'mitasi](http://www.indoneziya-statistika-qo-mitasi).
29. <http://www.watpho.com>
30. [www.VNAT.2020](http://www.vnat.2020).[www.World Tourism Organization \(UNWTO\)](http://www.unwto.org)

9.1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti

Janubi-Sharqiy Osiyoning mamlakatlari - Singapur, Malayziya, Indoneziya, Tailand, Filippin, Vyet Nam, Kambodjada turizm industriyasi tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu hudud tarkibidagi turli mamlakatlar turizmning turli xil moddellari bilah, turli davrlarda rivojlanishni boshlashdi va hozir rivojlanmoqda. Bu regionda dastlab Singapur, so'ngra esa Tailand va Malayziya, undan keyin Indoneziya va Filippin taraqqiyotga yuz tutdi, yangi asr boshiga kelib uning orqasidan regionning qolgan mamlakatlari ham turizmga katta etibor berib sohani jadal rivojlantirish yo'liga o'tib olishdi.

Bu region qishni bilmaydigan region sifatida hordiq chiqarish, dam olish, dengizda cho'milish bo'yicha, islom va buddizm madaniyatining muhim o'chog'i sifatida butun dunyodan turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

1990 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatalariga 21.5 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa, 1995 yilga kelib ularning soni 29.2 mln. kishiga etadi. Besh yil ichida o'sish sur'atlari 37.2% ga o'sganligi kuzatilgan. 2000 yil ushbu mamlakatlar turizm markazlariga 37 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan, 1990-2002 yillar oralig'ida ushbu mamlakatlarda xalqaro turistik tashriflar 96.3%ga ko'payganligi kuzatilgan. 2002 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatalariga 42.2 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining Osiyo va Tinch okeani mintaqasiga qilingan tashriflarning 32.1%i bu hudud mamlakatlariga to'g'ri kelgan. Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi esa 6.0% ni tashkil etgan. Bu hududning turizm sohasida yuqori natijalarga erishishida Tailand va Malayziya mamlakatlarining ulushi benihoya katta. X asr oxirida Malayziya va Tailandning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatalari ichidagi ulushi 57.3% ni, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari ichidagi ulushi 18.4%, jahon turizm harakatlari ichidagi ulushi 3.4% ni tashkil qilgan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasiga yigirmanchi asr oxiridagi iqtisodiy inqiroz o'zining katta ta'sirini o'tkazdi. Ushbu mintaqada ichki mintaqaviy turizmda shu bilan birga osiyolik turistlar oqimiga bog'liqligi yuqori darajada bo'lgani sababli turistik yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlar ham tushib ketdi. Yaponiyadan turistlar oqimi - 2,8% ga kamaydi, ushbu ko'rsatkich tegishli tarzda Indoneziyada -

3,1%, Filippinda – 2.5%, Gonkongda - 7.1%, Singapurda esa - 14% ga kamaydi. Ammo, turistlarning uzoq masofadagi davlatlarga qilinadigan safarlar narxi yuqoriligi va uning o'rniga yaqin hududlarga sayohat qilishni afzal ko'rganligidan ushbu mintaqaning ayrim mamlakatlari ustalik bilan foydalandilar.

9.2. Singapur mamlakatida turizmning rivojlanish holati

Singapur Janubi-Sharqiy Osiyodagi mamlakat, u jahonga «To'rt ajdah» nomi bilan mashhur bo'lgan yangi industrial mamlakatlar (J.Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur) qatoriga kiradi. Mamlakat sanskrit tilida «Arslon shahri» degan ma'noni beradi. Bu mamlakat oxirgi 50 yil davomida juda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, yetakchi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shila oldi. Poytaxti Singapur shahri. Iqlimi - tropik mussonli iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 640 kv. km., aholisi – 6.2 mln. kishi (2020 - yil), tili - malayya (davlat tili), xitoy, tamil, ingliz (rasmiy til), aholisining 76% dan ortig'i xitoylar, 15% malayyalar, 7% Hindiston, Bangladesh, Pokistondan kelganlar tashkil etadi. Shu bois, malayyalar islom diniga (15%), xitoylar buddizmga (34%), konfutsiylikka (18%) e'tiqod qiladilar, pul birligi - Singapur dollari. Yirik shaharlari: Singapur, Jurong. Bir yarim asr davomida Angliya mustamlakasi bo'lgan Singapur, 1965 yilning 9-avgustida o'z mustaqilligiga erishdi. 9-avgust milliy bayram kuni hisoblanadi.

Mustaqillik va to'g'ri tanlangan yo'l tufayli, Singapur Respublikasi Janubi-Sharqiy Osiyoda savdo, marketing, turizm va yangi texnologiyalar ishlab chiqish bo'yicha hududiy va xalqaro markazlardan biriga aylandi. Undan tashqari transport va kommunikatsiya sohalari nihoyatda rivojlangan, chunki bu yerda uch mingdan ortiq transmilliy korporatsiyalar joylashgan. 17ta Singapur kompaniyalarining jami kapitali 51.5 mlrd. AQSh dollarni tashkil etadi.

Mamlakatda asosiy e'tibor yuqori texnologiyali ilm talab sohalari, ayniqsa, kompyuter va uning qismlarini ishlab chiqarishga qaratilgan, shu bilan birga elektronli telekommunikatsiya asbob-anjomlari, biotexnologiya, lazer optikasi sohalari tez rivojlanmoqda. Singapurning dengiz porti jahondagi eng katta portlardan biri bo'lib

hisoblanadi. Yirik Chang'i aeroporti yiliga 24 mln. avia yo'lovchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatadi.

Singapur Yevropa mamlakatlari uchun juda qiziqarli turizm markazi hisoblanadi, ayniqsa etnik, madaniy va biznes turizmida. Singapur kelesajak shahri sifatida ko'plab zamonaviy binolari, bog'lari, turli parklari bilan mashhur.

Singapur hozirgi zamon kommunikativ vositalari bilan ta'minlangan ko'p sonli biznes markazlariga ega bo'lgan ultra zamonaviy mamlakat, shu sababli, mamlakat xorijiy turistlarga nafaqat dam olishni, balki ishbilarmon turizmni ham taklif etadi.

Singapur mustaqillikka erishgandan keyin xalqaro turizm 1965-1982 yillarda juda tez sur'atlarda rivojlana boshladi va sayohatga keluvchilar soni 3 mln. kishidan oshib ketdi. 1990 yillarga kelib yillik o'sish 14-15% ni tashkil etdi, 2000 yilga kelib chet ellik sayohatchilar soni 6.9 mln. kishini tashkil etdi. Sayohatga keluvchilarning 60-65%i Osiyo mamlakatlariga, 12-14%i Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlariga, 6-8%i AQSh ga to'g'ri kelardi. So'ngi yillarda Xitoy, Tayvan, Janubiy Koreya mamlakatlarida ham bu mamlakatga nisbatan qiziqish kuchayib bormoqda. Singapur o'z mamlakatini dunyoning eng yaxshi dam olish markazlaridan biri deb tashviqot qilishi natijasida Yaponiya va germaniyalik tursitlar ham dam olish uchun tashrif buyurishmoqda. Ishbilarmonlik turizmi bo'yicha esa Gonkong va AQShdan ko'plab turistlar tashrif buyurishmoqda.

Turizm Singapur iqtisodiyotining yirik tarmog'i sanaladi. Turizmga e'tibor 1980 yildan boshlangan, hukumat Singapur daryosini tozalash va shaharning tarixiy qismlari (Chaynataun va Kichik Hindiston) ni saqlash borasida ishni boshlagan. Yillar davomida hukumat turizm rivojiga katta mablag' ajratib kelgan. Masalan, 2017 yilda 905 mln. dollar ajratgan. Hozirgi Singapur ekologik jihatdan tozaligi bilan, tarixiy va madaniy yodgoliklarni asrash dasturlari bilan, jinoyatning eng pastligi bilan, transportning (uning "Changi" nomli aeropoti 25 yildan beri dunyoning eng sifatli aeroporti naminatsiyasini olib kelmoqda, elektromobillarning ko'pligi yoki 6 mln. kishilik megapolis ko'chalarida tirbandlik deyarli uchramaydi) qulayligi bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Singapur Janubiy – Sharqiy Osiyoning moliyaviy poytaxti bo'lishga harakat qilmoqda, bu ham ko'plab turistlarni o'ziga tortadi.

Singapurning diqqatga sazavor joylari: Singapur botanika bog'i (150 yil bo'lgan), Klark Ki dengiz qirg'og'i, "Kichkina Hindiston" (hindlar yshaydigan tarixiy mahalla), katta kemaga o'xshovchi "Marina bey sands" binosi, Sentoz okeanariumi, Merliona parki, Sentos orolidagi "Universal studios" ko'ngilochar parki, tabiiy yashash muhitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan Zoopark, Kampong – Glam royonidagi Sulton masjidi atrofidagi arab rayoni, MegaZip arqonli park, Sentosdagi kapalaklar parki va hashorotlar podsholigi tematik parki, 165 metrli kuzatuv g'ildiragi (Mashhur Londonnikidan 30 metr baland), Jurong Qushlar (shu jumladan, minglab flamingolar) parki .

Mahalliy oshxonasi multimadaniyatligi bilan ajralib turadi. Singapur madaniyati kabi uning gastronomiyasi to'rt asosiy unurning qorishmasidir: hind (birinchi navbatda tamil), xitoy, mahalliy (malaya yoki islom) hamda Yevropa. Multimadaniyatlikni uning bayram va festivallaridan ham bilsa bo'ladi: Xitoy yangi yili, rojdestvo, Pongal va Taypus, Buddaning tug'ilgan kuni, Navarattri bayrami, Divali bayrami, Ajdarholar kemasi bayrami.

Singapurga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 14.7 mln. kishini tashkil etgan (mamlakat aholisidan ikki marta ko'p). Xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 20.4 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 9.9 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 25.4 mlrd. dollarni tashkil etgan. Singapurda aholi turmush darajasi yuqori bo'ganligi sababali, aholining ko'pchilik qismi chet el sayohatlarida faol ishtirok etadi. Mamlakatning o'zi esa boshqa davlatlar uchun ulkan turizm bozori hisoblanadi. Singapur aholisi uchun esa Malayziya, Indoneziya, Tailand va Gonkong katta turistik markaz hisoblanadi.

Bu mamlakatning o'ziga xos yana bir xususiyati mamlakatda ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. Ishlab chiqilgan o'quv dasturlari jahon standartlari, ya'ni andozalari ichida yetakchi hisoblanadi va ko'p mamlakatlar tomonidan o'rganilib, boshqa mamlakatlarda ham qo'llanilmoqda. Professor va o'qituvchilarning mehnati nihoyatda yuqori darajada qadirlanadi, chunki bilim, amaliyot, mamlakat rivoji ular bilan bevosita bog'liq deb hisoblanadi va bu amalda o'z natijasini bermoqda. Singapurda qonunlarga amal qilish qattiq nazorat qilinadi.

Yo'l qoidalari va tozalik masalalariga amal qilishda o'rnak olsa arziydigan tomonlar juda ko'p.

9.3. Malayziya, Bruney va Indoneziya mamlakatlarida turizmning rivojlanish holati

Malayziya XX asr oxirlarida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari jihatidan Osiyo-Tinch okeani hududidagi davlatlar ichida yuqori pog'onaga ko'tarilgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Poytaxti Kuala - Lumpur shahri. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya. Maydoni – 329.7 ming kv. km., aholisi – 32.7 mln. kishi (2020 - yil). Ma'muriy-hududiy jihatidan 13 shtat va 2 federal okrugga (Kuala Lumpur va Labuan orollari) bo'linadi. Tili - malayya, dini - islom, pul birligi - ringgit. Yirik shaharlari: Kuala - Lumpur, Jorjtaun, Ipox, Joxor - Baru. Milliy bayrami - 31 avgust (1957 - yil).

Malayziya Janubiy – Sharqiy Osiyoning markazida joylashgan. Katta orollari - langkavi, Penang. Iqlimi ekvotrial, issiq va yog'ingarchilik ko'p – bir yilda 1500 2000 mm. Rel'yefi asosan tog'li, eng baland joyi 4101 metr, flora va faunaga juda boy.

Malayziya XVI asrdan boshlab Portugaliyaning, 1641 yildan Niderlandiyaning, 1824 yildan Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan. 1941-1945 yillari esa uni Yaponiya bosib oladi.

Malayziya mustaqillikni 1957 yilning 31-avgustda e'lon qilgan, va qaramlikdan ozod bo'lgan. 1963 yilning 16 sentyabrida mamlakat Singapur, Sarovan va Sabax orollari bilan birlashib, Malayziya federatsiyasi nomini oladi. 1967 yildan buyon Malayziya ASEAN tashkilotiga a'zo bo'lib, unga Bruney, Indoneziya, Filippin, Singapur, Tailand, Malayziya va Vet Nam mamlakatalari kiradi.

XX asrning 1980-90 yillari mamlakatda yuksalish davri bo'ldi. Iqtisodiyot yiliga o'rtacha 7.5-11% ga o'sib borishi kuzatildi. Savdo va xizmatlar ko'rsatish tovar aylanmasi esa bundan ham tezroq rivojlana boshladi. Mamlakat iqtisodiyotning bu taraqqiyot sirlari nimada? Ular bir nechta bo'lib, ayrimlarini sanab o'tamiz.

Davlat iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish va sof bozor munosabatlari o'zaro qo'shilib ketgan. Iqtisodiyot uzoq davrga rejalashtiriladi: erkin bozor va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan rag'batlantiriladi, davlat tomonidan investitsiyalash keng yo'lga qo'yilgan. Turli millat

vakillari va dinlar o'rtasida ixtilof va kelishmovchilik deyarli bo'lmagan.

Malayziyaning iqtisodiy rivoji asosan uch omilga: kauchuk, palma yog'i, qalay ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan. Mamlakat shu uch mahsulotni eksport qilish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Malayziyaning yetakchi mutaxasislari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish omillarini quyidagicha ifodalamoqdalar: xususiy va davlat tarmoqlari o'rtasidagi hamkorlik, nazorat va intizomning mavjudligi, bilimli, ahloqli ishchi kuchi, ijobiy o'zgarishlarni istovchi va yangi sharoitlarga tezlikda moslasha oluvchi hukumat borligi. Demak erkin bozor munosabatlari mavjudligi bilan birga, davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga faol ishtiroki muvaffaqiyat garovidir va undan tashqari, rivojlanishning yana bir muhim omili, xalq xo'jaligiga chet el kapitali, ya'ni sarmoyalar qo'yilishining o'sib borishidir.

Mamlakatga turistlarni oppoq plyajlar, yuqori sifatli kurortlar, o'tib bo'lmas junglilar, go'zal tog'lardagi kurortlar, milliy park va qoriqxonalar, har xil parklar – akvaparklar, qushlar parki, gullar parki (masalan, Orxideyalar parki), boy suv osti dunyosi o'ziga jalb qiladi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'lga kiritgan mamlakatda osmon o'par binolar ham bor, mustamlakachilik davri atmosferasi hukmron bo'lgan joylar (Jorjtaun singari), shu bilan birga inson oyog'i tegmagan joylar ham bor (Sabax va Saravak shtatlarida).

Malayziya dunyo tsivilizatsiyasi va dinining barchasini o'zida mujassam eta olgan mamlakat sifatida dong taratgan. Bu yurtda sharq ekzotikasi, plyajlar, tropik changalzorlar, sharsharalar, sifatli otellar ko'p. Kuala - Lumpurdagi hinduizm ibodatxonasi, islomiy masjidlar. Shoh saroyidagi milliy bayramlar. Dikson portida dam olish. Penang orolidagi ekzotika, qushlar bog'i. "Sanvey Lagun" suv parki, "Templera" parki, Pinang orolidagi "Kek Lok Si" budda ibodatxonasi, Lankavi oroli.

Go'zal poytaxtning diqqatga sazavor joylari: Mustaqillik maydoni, 100 metrli flagshtok, 1885 yilda qurilgan temir yo' vokzali, sobiq Sulton Abdullo Samada qasri, Chaynataun, "San'at bozori", "Batu Keyvs" hind ehromi, Petronas binosi va shu kabi qator osmon o'par binolar. Langvi oroli: afsonalar g'ori, timsoh fermasi, "Suv osti dunyosi" akvaparki, ilonlar ehromi, kapalaklar parki.

2019 yilda mamlakatning top - o'n diqqatga sazavor joylari quyidagilar: 1. Penang kurorti; 2. Kameron Xaylend mamlakat

ichidagi choy plantatsiyalarga boy tog'li rayon; 3. "Taman Negara" - mamlakatning birinchi milliy parki; 4. Dayving uchun qulay bo'gan Pulau Redang, Perhentia, Kapas qirg'oqlari; 5. Saravak va Sabax; 6. Juda katta arxitektura boyligiga ega bo'lgan Melaka tarixiy shahari; 7. Langkavi oroli; 8. Kuala - lumpur, poytaxt; 9. Putrajaya, yangi hukumat - ma'muriy rayoni; 10. Ajoyib kurort Geyting Xaylandz (2000 metr baland tog'da joylashgan).

Mamlakatda tibbiy turizm ham yaxshi rivojlangan, turistlar asosan qo'shni Indoneziyadan kelishadi, birinchi navbatda narxlar arzon bo'lganligi uchun.

Malayziyaga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 25.8 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 21.8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Malayziya turizm bozorini 9.3-9.5%i Tailand mamlakatiga, 7.0-7.5%i Yaponiyaga, 7% dan oshig'rog'i Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda Xitoy Xalq respublikasi va Tayvan mamlakatidan kelayotgan xorijiy turistlar soni jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Bundan tashqari, Malayziya turizm bozoriga AQSh, Koreya, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlari turistlarining qiziqishlari ortib bormoqda.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 30.8 mln. kishini tashkil etgan va ular 13.3 mlrd. dollarni sarflashgan. Malayziya mamlakatining iqtisodiy rivojlanish darajasi ancha yuqori bo'lganligi sababli, mamlakat aholisi juda ko'p chet el sayohatlariga chiqadilar. Sayohatchilarning katta qismi Singapur mamlakatiga to'g'ri keladi, yiliga savdo va ko'ngil ochar sayohatlar uchun bu mamlakatga 9,5 mln.ga yaqin Malayziya aholisi sayohatlar uyushtiradi. Bundan tashqari Tailand va Indoneziya turizm bozorlarini ta'minlovchi asosiy mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bruney mamlakati. Rasmiy nomi - Bruney Dorussalom. Poytaxti - Bandar Seri Begavan. Hududi - 5.8 ming km.kv. Aholisi - 0.5 mln kishi (2019). Davlat tili - malay, ingliz. Dini - islom. Pul birligi - bruney dollari.

Janubiy - Sarqiy Osiyodagi Kalimantan orolining shimolida joylashgan davlat. Shimoliy sohillari Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashgan. Mamlakatni ikkiga bo'lib turadigan Saravak (Malayziya) shtati bilan chegaradosh. Mamlakat hududi shimol va janubda tepaliklar bilan o'ralgan sohil bo'yi pastliklaridan iborat. Davlat

tuzilishi - mustaqil sultonlik. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik a'zosi. Davlat boshlig'i - sulton. Islom - Bruneydagi rasmiy din. Musulmon: 67%; Buddist: 13%; Xristian: 10%; Boshqalar: 10%.

Iqlimi - musson ekvatorial. Qazilma boyliklardan neft va tabiiy gaz konlari mavjud. Mamlakat hududining 75% ini tropik o'rmonlar egallagan. Hayvonot dunyosida maymun, kiyik, to'ng'iz, tropik kapalaklarni uchratish mumkin.

Mamlakat iqtisodiyoti nisbatan rivojlangan bo'lib, uning asosini neft qazib olish, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish va neftni qayta ishlash tashkil etadi. Sholi, saga palmasi kabi madaniy o'simliklar o'stiriladi. Chorvachilik rivojlangan. Daryolarda kema qatnovlari yo'lga qo'yilgan. Savdo hamkorlari: Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, AQSH, Malayziya, Tailand.

Sultonlikka XV asrda asos solingan va o'z tarkibiga butun Borneo orolini hamda uning atrofidagi mayda orollarni egallagan edi. 1888-yilda Bruney ingliz protektarati bolib qoldi. 1959-yilning yangi konstitutsiyasi Buyuk Britaniyani Bruney mudofaasi va tashqi aloqalar uchun javobgar bo'lishga majbur qilardi. 1984-yili mustaqillik e'lon qilindi. 1991-yilda Bruney qo'shilmaslik harakati a'zosi bo'ldi.



Rasm- 9.1. Bruney mamlakatining joylashuv xaritasi.

Bruneyga sayohat qilish. Juda chiroyli qirg'oqqa ega bo'lishiga qaramay, Bruneyda sayohatchilarning aksariyati poytaxti Bandar Seri Begawanga (aholisi 50 ming atrofida) tashrif buyuradi. Bruneyda yo'llar va infratuzilma yaxshi. Neft miqdori va yonilg'i narxining pastligi tufayli, mahalliy avtobuslar va taksilar eng arzon xarajatli vositalardir.

Brunej, odatda, Malayziya Borneodagi Sarawak va Sabah shtatlari o'rtasida avtobusda o'tadigan yo'lovchilar uchun qisqa oromgohdir. Yaqinda Labuan oroli - Sabahning bir qismi - Brunejdagi va tashqarisidagi muqobil yo'l. Saroydagi Sirun Borneoning eng yirik shahri bo'lib, Brunejga o'tadi.

Brunejga kirishdan oldin 90 kun yoki undan ko'proq sayohat vizasi talab qilinadi. Chegarada 72 soatlik tranzit vizalari mavjud.

Brunejdagi turizmni Turizm vazirligi boshqaradi, Brunej turizm asosini sarguzasht turizmi, ekoturizm va islomiy ziyorat turizmi qamrab oladi.

Brunej dollari Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar (ASEAN) mintaqasidagi eng qimmat valyuta sanaladi. Ba'zi sayyohlik agentliklarining fikriga ko'ra, Brunejning qimmat valyutasi turistik paketlari mintaqadagi boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda qimmat; mahalliy sayyohlar boshqa ASEAN mamlakatlarga borishni afzal ko'rishadi, Lekin ASEAN tashqarisidan kelgan sayyohlar Brunejni afzal ko'rishadi. 2018 yilda Brunejga chet ellik sayyohlarning 95 foizi quruqlik bilan kelgan; to'rt foiz havo yo'li bilan, va bir foiz dengiz orqali kelgan.

Ulu Temburong milliy bog'i - Brunejda 1991 yildan beri muhofaza qilinadigan birinchi milliy bog'dir. Bu park sharqiy Brunejdagi Temburong tumanida joylashgan va janubdagi tumanning taxminan 40 foizini 550 kvadrat kilometrni egallagan. U Batu Apoi o'rmon qo'riqxonasida joylashgan.

Bog' buzilmagan o'rmonlarni o'z ichiga oladi va "Brunejning yashil marvaridi" nomi bilan mashhur sultonlikning o'rmonlarni muhofaza qilish siyosatining eng yaxshi namunasi sifatida tavsiflanadi. Asosiy daryolari Temburong va Belalong daryolari. Brunejdagi muhim ekoturizm markaz Ulu Ulu kurorti. Uning Brunejning sharqiy qismining yuqori qismida joylashgan. Janubiy qismi tog'lar 1800 metr balandlikka ko'tarilgan tepalikli mintaqadan iborat va pasttekisliklar shimoliy yon bag'irlarda joylashgan. Relyefi tor vodiylarni tashkil etuvchi bir qator daryolar orqali o'tib, qirg'oq mintaqasini ham o'z ichiga oladi.

U faqat daryo orqali yetib boradigan bog'dir. Qayiq bilan birinchi boradigan joy Bangar shahri bo'lib, u yerda Limbang daryosi Saravakdan chiqib, Brunej ko'rfaziga quyiladi va daryodagi mangrov loyli deltalari bor. Bangar shahridan Batang Duriga sayohat

yo'l va bu Temburong daryosi bo'ylab parkga uzoq qayiqlarda sayohat qilish uchun boshlang'ich manzil. Qayiqdarni tajribali boshqaruvchilar qum panjalari, daraxtlar va toshlar atrofida aylanib yurishlarini taminlaydi. Uzunligi 7 kilometr bo'lgan keng yo'lakchalar, ko'priklar va zinapoyalar tarmog'i mavjud. Bog'ning barcha hududlariga tashrif buyurish uchun qurilgan. Dor yo'lini qo'llab-quvvatlovchi temir minoralar bilan qurilgan ushbu yo'lak eng baland daraxt soyaboniga qaragan holda, o'rmon tubidan 50 metr balandlikda ko'tariladi va o'rmonlarning ko'rinishini ta'minlaydi.

Milliy bog 'ichidagi yagona turar joy Ulu Ulu Resort 2008 yilda ochilgan. Bu Bruney turizmida tarixiy voqea sifatida qaraladi, chunki bu xususiy turistik kompaniya (Sunshine Borneo Tours and Travel Sdn Bhd) va Bruney-Darussalom hukumati o'rtasidagi birinchi davlat-xususiy sherikligi sanaladi. Dam olish maskanida bo'lish uchun tashrif buyuruvchilar Ulu Temburong milliy bog'i turistik to'plamini Bandar-Seri Begavanga borishi va qaytishi uchun oldindan bron qilishlari shart.

2018 yilning birinchi choragida xalqaro sayyohlarning umumiy soni Bruney xalqaro aeroporti orqali Bruney Darussalomga yetib kelganlar 70729 turistga yetdi.

Xalqaro turizmdan tushumlar 2018 yilda 190 mln. AQSh dollarini tashkil yetdi. Bu avvalgi 2017 yildagi 177 mln. AQSh dollaridan oshganligini qayd etmoqda. Bu yalpi ichki mahsulotning 1.4 % ni tashkil etadi.

2009 yilda tarixdagi eng yuqori ko'rsatkichga – 254 mln. AQSh dollariga, 2014 yilda – 79 million-dollariga yetdi.




Diagramma - 9.1. Mamlakatga kelgan turistlarning keyingi 15 yilda o'zgarishi.

Bruney 2019 yilda jami 333 ming sayohlarni qabul qildi va bu dunyoda 165-o'rinni egalladi. Kichik mamlakatlar mehmonlarning sonini taqqoslashda muntazam ravishda pastroq ko'rsatkichlarga ega bo'lishi aniq. Bruney aholisiga nisbatan sayyohlar sonini qo'ygan holda natijani taqqoslash mumkin, har bir aholiga 0.77 turist to'g'ri kelib Bruney dunyoda 81-o'rinni egaladi, Janubi-Sharqiy Osiyoda u 3-o'rinni egalladi.

Indoneziya Janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. Poytaxti Jakarta shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - unitar respublika. Maydoni – 1904.6 ming kv. km., aholisi – 274.1 mln. kishi (2020 - yil), tili - indoneziya, dini - islom, pul birligi - Indoneziya rupiyasi. Yirik shaharlari: Jakarta, Surabayya, Bandung, Semarang, Medan. Milliy bayrami - 17 avgust - Mustaqillik kuni (1945 - yil).

Dengiz qirg'oqlarining uzunligi bo'yicha (54716 km.) dunyoda Kanadadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Indoneziyaning 17 ming orollaridan 6 mingiga odamlar yashaydi, qolgan orollarining ekotizimi inson yashamaganligi sababli yaxshi saqlangan. Mamlakatning 57 foizi o'rmon, nafaqat undagi, balki mamlakat atrofini o'rab turgan dengizlarda ham flora va fauna juda boy va rangba – rangdir, bu esa dayving uchun juda qulaydir. Dunyodagi Koral riflarning 20%i shu dengizlarda, ularning turi 600 dan ziyod, baliqlarning turi 3000 dan ziyod. Shuning uchun mamlakatga keladigan turistlarning 82 % dengiz qirg'oqlari va boshqa tabiat go'shalarida dam oluvchilar tashkil etadi.

6000 aholi yashaydigan orollarda 300 etnik guruhdagi xalqlar yashshadi va ular 719 xil tilda gaplashadilar, bu madaniy an'analarning ham rangba – rang qilib yuborgan. Bogor botanik bog'i dunyoning eng eski (1817 yil tashkil etilgan) va eng katta bog'lardan biridir, unda 15 mingga yaqin o'simlik turlari bor. Indoneziyada 50 ta milliy park bor, ulardan oltitasi YUNESKOning ro'yxatidagilardir.

Indoneziya katta turistik salohiyatga ega. Ushbu mamlakatda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha puxta siyosat olib borilmoqda. Xalqaro turizmni rivojlantirish siyosatining o'tkazishdan asosiy ko'zlangan maqsad, aholini ish joylari bilan ta'minlash va chet el valyutasini mamlakatga jalb qilish. Mamlakatda neft, gaz, o'rmon xo'jaligi va tekstil sanoatlaridan keyin xalqaro turizm chet el valyutalarini mamlakatga jalb qilishda 5-generator hisoblanadi. Chet





el mehmonlarining mamlakatga qiziqishlari 1987 yildan boshlab ko'paya boshladi. 1987-1990 yillarda yillik o'sish 20-34% ni tashkil qildi. Bunday o'sish sur'atlari janubiy va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisining qiziqishlari asosida amalga oshdi. 1992 yilga kelib chet el mehmonlarining soni 3 mln kishidan oshib ketdi. 2000 yilda bu mamlakatlardan Indoneziyaga 5.1 mln. mehmonlar tashrif buyurgan.







Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim taqmog'i hisoblanaadi. 2017 yilda Indoneziya turizmi industriyasi jahonda 20 o'rinni, uning raqobatbardoshligi bo'yicha 42 o'rinni egallagan. O'sish sur'ati jihatidan esa jahonda 9-o'rinni, Osiyoda esa 3- o'rinni egallagan. Bali plyajlari va hinduizm bayramlari, Bunaken, Bromodagi dayving, Toba ko'li, Sumatradagi qator milliy parklar, qadimiy Bromo, Jok'yakarta, Minangkabu, Prambanan, Borobodur kabi madaniy turizmning mashhur joylari mamlakatning diqqatga sazavor joylarini tashkil etadi. Mamlakat syorfig uchun juda qulay sharoitga ega, birgina Balida syorfig uchun 33ta joy bor.

Indoneziyaning eng mashhur turistik yo'nalishlari: Bali, G'arbiy Yava, Markaziy Yava, Sharqiy Yava, Jakarta, Shimoliy Sumatra, Lampung, Janubiy Sulavesi, Janubiy Sumatra, Banten va G'arbiy Sumatra.

Indoneziyaga kelgan xorijiy turistlar soni 2018 yilda 15.8 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad esa 2018 yilda 15.6 mlrd.dollarni tashkil etgan. Indoneziyaga, xorijiy turistlar birinchi navbatda, qo'shni davlatlardan – Singapur, Malayziya, Astraliyadan, keyin esa Xitoy, Yaponiya hamda Yevropaning Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya davlatlaridan kelishadi. Ular ko'proq dam olish hamda tijorat bo'yicha kelishadi.

Jadval. - 9.1. Indoneziyaga xorijiy turistlarning kelishi (2000-2018)

Mamlakat	2000	2005	2010	2015	2018
 Xitoy	16266	128681	511188	1249091	2137511
 Singapur	1301570	1066461	1206360	1594102	1768633
 Malayziya	408562	564321	1171737	1431728	2501641
 Avstraliya	438473	356287	769585	1090025	1301287

 Yaponiya	710769	511007	416151	528606	530212
 Hindiston	80525	58359	159373	306960	595192
 Janubiy Koreya	181032	263356	296060	375586	358547
 Buyuk Britaniya	193303	214515	192335	286806	391804
 AQSh	211033	169232	177677	269062	387333
 Frantsiya	106166	120122	160913	250921	268989

Manba: Indoneziya statistika qo'mitasi.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 9.5 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 11.6 mlrd.dollarni tashkil etgan. Indoneziya aholisi qo'shni mamlakatlarga nisbatan chet el sayohatlariga kamroq chiqishadi.

9.4. Tailand va Filippin mamlakatalarida turizmning rivojlanish holati

Tailand. Tailand Janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. U Janubi-Sharqiy Osiyoda turizm industriyasi nihoyatda rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Katta turistik salohiyatga ega mamlakat. Poytaxti Bangkok shahri. Iqlimi - sub ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni – 513.1 ming kv. km, aholisi – 69.2 mln. kishi (2020 - yil), tili - tai, asosiy dini - buddizm, mamlakat aholisining 6 foizi musulmon, pul birligi - bat. Yirik shaharlari - Bangkok, Pattaya, Chiangmay, Chonburi. Milliy bayrami - 5 dekabr - qirol tug'ilgan kun (1927 - yil).

Tailandda sayyohlarga pul evaziga qilish mumkin bo'lgan hamma narsa o'sha yerda amalga oshiriladi va ko'rsatiladi. Bir tomondan, bu juda zo'r: mamlakatda mahalliy barlar va diskotekalarda tunu-kun "jinnilik" dan tortib orollarga sho'ng'ish va ma'rifatni qidirishgacha bo'lgan foyda va zavq bilan dam olish uchun turli xil variantlar mavjud.

Tailandning diqqatga sazavor joylari juda katta miqdordagi turistlarni kelishga chorlaydi. Gozal park va bog'lar, buddaning ajoyib haykallari, noyob arxitektura yodgorliklari, qiziqarli muzeylar, qasrlar, qadimiy shaharlar kishilarni o'ziga rom qiladi. Ekzotik Tailandda

ekzotik diqqatga sazavor joylar ham ko'p: Suzib yuruvchi bozor, fillar shahri, Ilonlar fermasi, Tay qishlog'i.

Turizmi: tarixiy, madaniy, etnik va plyaj turizmlari yo'lga qo'yilgan. Bangkokdagi Shoh saroyi va budda ibodatxonasi, zargarlik fabrikasi, Safari parki. Pattayadagi "Kobra ferma" - davolash - sayyohlik markazi, akvalang bilan suzish, milliy bog'i, me'moriy yodgorliklari, fillar bilan changalzor (jungli) ga sayohat, Ko - Sameg orolidagi milliy qo'riqxonasi, maymunlar bilan shou.

Qo'shni mamlakatlarga nisbatan siyosiy barqarorligi va mustaqilligi tufayli Yevropaliklar orasida yuqori mavqega ega. Turizm chet el valyutasini jalb qilishning eng muhim generatori bo'lib sanalanadi. Tailandga ziyorat qilish maqsadida asosan qo'shni buddizm dini hukmron mamlakatlar hamda Malayziya, Indoneziya kabi davlatlardan buddizm diniga e'tiqod qiluvchilar keladi. Ularning tashriflari qisqa (o'rtacha hisobda 4 kuni tashkil qiladi) va ular pulni kam sarf qilishadi. Bu mamlakatlardan keyin Yaponiya va Tayvan turadi. 1990 yildan keyin Tailandda Osiyo va Avstraliya bozori qisqardi, Yevropa bozori esa aksincha o'sa boshladi. Yevropalik turistlar 9-14 kun mobaynida bo'lishsada, nisbatan kam mablag' xarajat qilishadi.

Mamlakatning turizm tarixiga kelsak, Tailandda turizm boshqarmasi 1960 yilda tuzilgan va dunyoda birinchilardan bo'lib butun mamlakatni jahon turizm bozorida olg'a sura boshlagan va uning natijasi tezda namoyon bo'lgan. Tailandning Turizm idorasi (TAT) 1960 yildan beri faoliyat yuritadi. TAT Tailandni jahon sayyohlik bozorlariga faol targ'ib qilgan birinchi tashkilot edi. Hozirgi vaqtda Tailandda dunyoning 29 ga yaqin mahalliy turizm idoralari va 21 dan ortiq dilerlik shoxobchalari mavjud.

Tailandda ommaviy sayyohlikning boshlanishi 1960 - yillarga borib taqaladi, o'sha paytda Vyet Namda jang qilgan amerikalik askarlar uchun mamlakat fronti rolini o'ynagan. Bu yerda yirik harbiy bazalar, shuningdek, ta'tilda bo'lgan AQSh harbiy xizmatchilari uchun dam olish joylari joylashgan edi.

1960 - yillarning oxiridan boshlab Tailand janubida mehmonxonalar, barlar, massaj zallari va tegishli turizm infratuzilmasining ulkan qurilishi boshlandi. Shu bilan birga, eng muhim diqqatga sazavor joylarga ekskursiyalar uyushtiradigan ko'plab sayyohlik agentliklari ochila boshladi. Urushdan keyin uyga

qaytgan askarlar oilalari bilan Tailandga qaytib, ta'tillarini shu yerda o'tkazdilar.

Sayyohlik sanoatining tez rivojlanishining boshlanishi 1970 - yillarga to'g'ri keladi, bu yerda birinchi bungalovlar paydo bo'la boshladi, biroq 1990 - yillarda haqiqiy bum boshlandi, bu esa bu sohada sanoatning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Bugungi kunda ommaviy sayyohlikka ixtisoslashgan asosiy kurortlar oq qumli plyajlari, lagunlari, palapartishliklari, marjon qoyalari va kokos kaftlari bilan mashhur bo'lgan pxuket va koh samui orollaridir. eng mashhuri - chaweng, lamai, nathon, bophut, taling ngam, menam, big buddha, xua thanon, bang po, choeng mon, bang kao va lipa noi. bangkokga nisbatan yaqin joylashgan xua xin tobora ommalashib bormoqda.

Hozirgi paytda Tailand janubiy – Sharqiy Osiyoning asosiy turistik markazi hisoblanadi. Agar 1967 yilda 400 ming turist kelgan bolsa, 2016 yilda 32.5 mln. turist kelgan. Keladiganlar ichida liderlikni Xitoy egallaydi, undan keyin -Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Laos, Hindiston, Rossiya, Buyuk Britaniya, Singapur va AQSh turadi. Xorijlik mehmonlar o'rtacha 9.5 kun mamlakatda bo'lishadi. Tailand turizmining bir xususiyati shundan iboratki, keyingi paytlarda shimoliy yurtlardan mamlakatga noyabrdan-aprelgacha “qishlash” uchun kelishadi va qolishadi.

Tailandda 2018 yilda eng zo'r diqqatga sazovor joylar o'ntaligini quyidagi ob'yektlar egalladi: 1. Ayuttaya tarixiy shahri; 2. Bongkokdagi Qirollik qasri; 3. Chiangmaydagi issiq suv manbalari; 4. Siam ko'rfazidagi Samui oroli; 5. Chiang raydagi Oq ehrom; 6. Sukotai tarixiy shahri; 7. Doy Intxanon milliy parki; 8. Pattayadagi Katta Budda; 9. Bongkokdagi yotgan Budda ehromi, 10. Pxuketdagi Jems Bond oroli (manba: <http://www.watpho.com>).

Tailandning go'zal ibodatxonalari o'zining kattaligi bilan, chiroyliligi bilan kishini hayratga qoldiradi. U buddizmga etiqod qiluvchi tay uchun hayotning bosh mazmunidar. Uning ichida nafaqat sig'inish uchun joy, balki, kutubxona, maktab, kasalxona ham bo'ladi. Bunday joylar mamlakatda 30 mingdan ko'p.Ularning eng muqaddaslari: Buddaning zumrad ehromi, Pxra Keo, Vat Arun, Vat Pxo.

Mamlakatda milliy parklar va tabiiy qo'riqxonalar juda ko'p. Birgina davlat ahamiyatiga ega bo'lganlari 50 tadan oshadi. Mayda-

chuydalar bilan hisoblaganda ularning soni bir necha borga oshadi. Eng mashhurlari: Kxao Yay, Doi Intxanon, Chiangmay, Eravan, Kxu Kxut, Tarutao va b.

Mamlakatda budda haykallari juda ko'p. Monastirlarda, muzeylarda, parklarda hamma joyda bu haykallarni ko'rish mumkin. Mamlakatda qasrlar ham juda ko'p. Keyingi bir necha asr mamlakatni qirollik boshqargani uchun bu qirollik bilan bog'liq qasrlar anchagina. Yana bir qiziq fakt – Tailand tibbiy turizm bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Narxlar arzon bo'lganligi uchun shu davlatga kelib davolanishadi.

So'nggi bir necha yil ichida Tailand sog'lig'ini yaxshilash uchun bu ajoyib yerga kelgan chet elliklar uchun ideal sharoit va maqbul narx/sifat nisbati taklif etiladigan mamlakat maqomiga ega bo'ldi.

Janubiy Tailand. Mintaqa mamlakat janubidagi Malakka yarim orolida joylashgan. Sharqda qirg'oqlarni Janubiy Xitoy dengizi va Tailand ko'rfazi, g'arbda Andaman dengizi yuvadi. Yarim orolning bir qismini tog 'tizmalari egallaydi, kichik vodiylar tomonidan ajratilgan, qirg'oq bo'yi tekis relyefga ega. Janubning katta qismi o'rmonli tepaliklar bilan qoplangan, ular tropik mevalar va rezina daraxtlar plantatsiyalari bilan qoplangan.

Markaziy Tailand. Bu mintaqa Chao Phrai daryosi vodiysida, shuningdek, Malakka yarim orolining bir qismi bilan ulashgan tog' kamarida joylashgan. Tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylarning aksariyati shu yerda to'plangan. Viloyat markazi - Bangkok shahri - Tailand qirolligining poytaxti. Shahar har tomondan kanallar, minoralar va devorlar bilan o'ralgan. Bu yerda qirol va noibi saroyi, shuningdek, ko'plab monastirlar joylashgan: Vat Pho (Uxlab yotgan Buddha ibodatxonasi), bu lavozimdagi eng katta tasviri - nirvanaga yetib kelishidan oldin Buddha obrazi bilan mashhur (uzunligi 46 m va balandligi 15 m ga etadi); uning yaqinida Tailandning eng muqaddas joyi hisoblangan Wat Phra Kaew (Zumraddan Buddha ibodatxonasi) joylashgan; Wat Ratchanadda ibodatxonasida Bangkokdagi budda me'morchiligining yagona temir binosi joylashgan. Bangkokning sayyohlik infratuzilmasi har xil qiziqish va boylikka ega bo'lgan ko'p sonli sayyohlar uchun mo'ljallangan. Tailandning eng muhim kurortlaridan biri - Pattaya. Bu kichik shaharchaga har yili Yevropa va Sharqiy Osiyodan 6,0 milliongacha sayyoh tashrif buyuradi. Sohil bo'yining deyarli butun qismini ko'plab mehmonxona majmualari

qurilgan, son-sanoqsiz plyajlar egallaydi. Shahardan unchalik uzoq bo'lmagan joyda bir nechta timsoh, yo'lbars, fil fermalari bor, ularda doimiy ravishda hayvonlar ishtirokida har xil spektakllar o'tkaziladi. Janubi - Sharqiy Osiyodagi eng go'zal bog'laridan biri bo'lgan Madam Nong Nooch botanika bog'i ham bor. To'g'ridan - to'g'ri shaharda Mini Siamning diqqatga sazovor joylarining miniatyura nusxalari bog'i mavjud.

Shimoliy Tailand. Mamlakatning shimoli va shimoli - sharqiy qismi o'rmonlar bilan qoplangan va sayoz ko'llar bilan qoplangan tog'lardir. Katta hududlar ko'plab milliy bog'lar va qo'riqxonalariga berilgan. Mintaqa birinchi navbatda Tailandga faol sayyohlik uchun kelganlar uchun qiziqarli: trekking, rafting, alpinizm va boshqalar.

Tailandning shimoli - sharqiy qismi. Mamlakatning bu qismi Korat tog' platosi bo'lib, dengiz sathidan 300 m balandlikda joylashgan bo'lib, asosan etnik laolar yashaydi. Iqtisodiy jihatdan Tailandning shimoli - sharqiy provinsiyalari juda kambag'al va ommaviy turizm sohasida deyarli qatnashmaydi. Bu yerda dam oluvchilar va sayohatchilarni jalb qiladigan yagona dam olish manbalari - bu mahalliy aholining tabiiy diqqatga sazovor joylari va madaniyati, ularning bayramlari, festivallari va xalq hunarmandchiligi.

Tailandga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 38.2 mln. kishini tashkil etgan. Xorijiy turistlardan ko'rilgan daromad 2018 yilga 65.2 mlrd. dollarni tashkil etgan. Tailand turizm bozorining ta'minlovchi asosiy mamlakatlar Yaponiya, Avstraliya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Koreya, Malayziya mamlakatlari hisoblanadi.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda qariyb 10.0 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 14.7 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Filippin. Filippin Janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. Uzoq davom etgan ichki siyosatlarining ta'siri natijasida Filippin davlati yigirmanchi asrning 90-yillar o'rtasiga kelib, «Osiyo kasali»dan, «Yangi Osiyo yulduzi»ga aylangan davlat. Poytaxti Manila shahri. Davlat tuzumi - respublika. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Maydoni - 300 ming kv. km., aholisi – 108.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - tagal (pilipino) va ingliz, dini - xristian (90 %), islom (10 %), pul

birliги - peso. Yirik shaharlari: Manila, Keson - Siti, Sebu, Davao, San - Fernando. Milliy bayrami - 12 iyun - Mustaqillik kuni (1898 - yil).

Sanoat ishlab chiqarishi va yalpi ichki mahsulotda o'sish sur'atlari salbiy yoki nol bo'lib turgan bir necha yillardan so'ng, 1994 yili hamma sohalar bo'yicha, shu jumladan turizm sohasi bo'yicha iqtisodiy o'sishning ko'tarilishi kuzatila boshlandi. Ispan mustamlakachilaridan qolgan madaniy meros madaniy turizmni rivojlantrish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Tabiiy turistik resurslar ushbu kunda muhim rivojlangan ekologik turizmni rivojlantrish uchun keng yo'l ochib berdi.

Filippin 7000ta orolda joylashgan Janubiy – Sharqiy Osiyodagi davlat. U o'zining plyajlari, boy flora va faunasi, go'zal tog'lari, rekreatsion resurslari bilan kishilarni o'ziga jalb qiladi. Madaniyati o'zining Osiyo asosi bilan birga ispan va Amerika madaniyati bilan qorishib ketgan. Masalan, Vigan shahri ispan uslubidagi arxitekturaga ega bo'lgan shahar. Filippin ispan kolonizatorlaridan qolgan madaniy merosga tayanib madaniy turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi. Mamlakat xalqining katolikligi va ingliz tilini yaxshi bilishi turistlar oqimiga ta'sir qilgan. Plyaj turizmining eng mashhur joylari: Borakay oroli, La-Union qirg'oqlari, Sebu, Maktan, Boxol va Pangalao orollari. Mamlakatda ekoturizm ham yaxshi rivojlangan, milliy park va qo'riqxonalar ko'p. Mashhur joylari Palavan oroli va Puerto – Prinsesa yer osti daryosi. Tibbiy turizm ham yaxshi rivojlangan, narxlar ancha past, biroq vrachlarning malakasi ancha yuqori. Bunga bir tomondan milliy tibbiyot, ikkinchi tomondan, AQShning tibbiy maktabi kuchli ta'sir etgan. Mamlakat jahon darajasidagi rekreatsion turizm markazi hisoblanadai. Dayving uchun qulay joylar ko'p: Sulu dengizida Tubbatata, Koron, Susik-Bey hisoblanadi.

2019 yildagi mamlakatning eng diqqatga sazavor joylari: Barakay orolidagi oq plyajlar, Maniladagi Intramuros ispan qasri, Bagio kurort shahri, Banauedagi gurunch terrasalari, Boxol orolidagi shokolad tepaliklari, Sebudagi Magellan qabri, Vigananing tarixiy markazi, Taaal vulqoni, Mayon vulqoni, Purto-Prinsesa yer osti daryosi.

Turizm mamlakat YAIMning 12.2 foizini bermoqda. Filippinga 2018 yilda xorijdan 7.2 mln. turist kelgan. Xalqaro turizmdan tushum esa 9.7 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bu yerga asosan AQSh va Yaponiyadan turistlar ko'p keladi.

Mamlakatdan chet elga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 5.7 mln. kishini tashkil etgan va ular 12.5 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

9.5. Vyet Nam, Laos, Kombodjo mamlakatlari turzmining rivojlanish holati

Vyet Nam. Turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda sayyohlar sonining eng yuqori o'sishini qayd etilgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida joylashgan (UNWTO, 2020), Vyet Nam rivojlanayotgan sayyohlik sanoati uchun zarur bo'lgan ba'zi afzalliklarga ega.

Birinchisi, madaniyatning uzoq tarixi, Vyet Nam to'rt ming yil davomida ko'plab sulolalar bilan uzoq tarixga ega bo'lib kelgan.

Ikkinchisi - ijtimoiy xilma-xillik, bu mamlakatda ko'plab etnik jamoalarda yuz millionga yaqin aholi istiqomat qiladi, shu jumladan, turli xil joylarda ko'plab boy va xilma-xil madaniy meroslar mavjud.

Uchinchisi - yaxshi geografiya, Vyet Namdagi iqlim odatdagi tropik ob-havo va asosan ko'plab chiroyli plyajlar va tabiiati rang-barang orollarga ega uzun qirg'oq bo'yida cho'zilib ketgan.

To'rtinchisi - globallasuv, Vyet Nam turizmida taniqli tabiiy materiallar, nomoddiy madaniy meros va taniqli xalqaro tashkilotlar (masalan, YuNESKO) ro'yxatiga kiritilgan meros obyektlari mavjud.

Bunday qulay sharoitda, so'nggi yillarda Vyet Namning turizm sohasi jadal rivojlanib, dunyodagi eng tez o'sishga ega bo'lgan mamlakatlar guruhiga kirdi. 2018 yildan Vyet Namning sayyohlik raqobatbardoshligi yangi rekordlar bilan yaxshilandi: xalqaro sayyohlarning kelishi bo'yicha 26-o'rin (15,5 million) va daromad bo'yicha 35-o'rin (10,9 milliard AQSh dollari). 2017 yilda turizm sohasining to'g'ridan-to'g'ri hissasi YaIMning sakkiz foiziga yetganida turizm haqiqatan ham Vyet Namning muhim iqtisodiy sohasiga aylandi.

Hukumat strategiyasining maqsadi sayyohlik uchun Xanoydan boshqa viloyatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qilib belgilangan.

Turizm hukumat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanmoqda, chunki ushbu xizmat ko'rsatish sohasi odamlar uchun ko'plab ish joylarini ochib beradi, shu bilan jamiyat uchun daromad keltiradi va respublika byudjetining muhim moliyaviy manbaiga aylanadi.

Shunday qilib, Vyet Nam hukumati turizmni iqtisodiyotning yetakchi xizmat ko'rsatish sohasiga kiritish uchun ko'plab yechimlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Ko'p o'lchovli sa'y-harakatlardan so'ng, 2019 yilda Vyet Nam sayyohlik sanoati dunyo bo'ylab 63/140 mamlakatlar qatoriga kirdi va 2011 yilga nisbatan o'n yetti pog'onaga o'sdi (WEF, 2019). Bundan tashqari, Vyet Nam doimiy ravishda o'nta turizm eng yaxshi rivojlangan mamlakatlar ro'yxatiga kiritilgan (UNWTO, 2019).

Turizmni rivojlantirish, shuningdek, Vyet Nam obro'sini xalqaro hamjamiyatga kuchli targ'ib qilish uchun yaxshi imkoniyatdir. Chet ellik sayyohlar sonining tez o'sishi Vyet Nam sayyohlik xaritasida tobora keng tarqalib borayotganligini va Vyet Namning tovar yo'nalishlari sifatini tobora ko'proq tasdiqlayotganligini ko'rsatishga yordam beradi. Vyet Nam va dunyoning boshqa sayyohlik bozorlari o'rtasida ko'plab turizmni targ'ib qilish dasturlari va almashinuv faoliyati Vyet Nam sayyohlik sanoatining obrazlarini yaxshilashga katta hissa qo'shadi. Tarixiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sayyohlik sohasi kelajakda Vyet Namda xizmat ko'rsatish sohasi sifatida o'z o'rnini va mavqeini tasdiqladi.




Diagramma –9.2. Vyet Namda keyingi 20 yilda turizmning dinamikasi

Turizmning o'sishi ancha yuqori bo'lsa-da, Vyet Namda tashqi bozor ulushining nomutanosibliigi mavjud. Aholi jon boshiga tushadigan daromadning o'sishi ichki turistik talabni kengaytirishga yordam beradi, Vyet Namning turizm sohasining o'sishi asosan Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya singari qo'shni davlatlarning xalqaro sayyohlariga va AQSh, Rossiya, Avstraliya va G'arbiy Yevropaga bog'liq. 2019 yilda Vyet Nam turizmining eng yirik ikkita bozori Xitoy va Janubiy Koreya bo'ldi, bu chet ellik mehmonlarning 55 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, Osiyo hali ham Vyet Namga

tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar sonining deyarli sakson foizini tashkil etgan holda bozorning eng yuqori ulushini egallagan (VNAT, 2020).

Laos. Laos Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. Vyet Namning g'arbida, Tailandning shimoliy - sharqidagi davlat. Maydoni 236.8 ming kv.km. Aholisi 7.1 mln. kishi (2020 y.). Poytaxti Vientiane (aholisi 640 ming kishi). Mamlakatning uchta alohida hududi bor: shimoli muhtasham tog'lardan iborat, o'rta qismi platolardan iborat va pastki qismi alyuminiyli tekisliklardan iborat. Iqlimi tropikli musson, may oyidan noyabrgacha yomg'irli mavsum, noyabrdan aprelgacha quruq mavsum. Etnik guruhlar: Lao-Loum (tog'li) 68 foizni, Lao Theung (tog'li) 22 foizni va Lao Song (tepalik) 9 foiz tashkil etadi. Asosiy din buddizm. Mamlakat tig'iz o'rmonlarga boy.

Turistik diqqatga sazavor o'byektlari - arxitektura yodgorliklari ichida asosan frantsuzlar qoldirib ketgan binolar mashhurdir; Hin Tangdagi arxiologiya parki; Khammouane provintsiyasidagi 7.5 km.ga cho'zilib ketgan Konglog g'ori; Magarasidagi Tham Pa Fa g'ori (2004 yilda unda Buddaning 229ta tasviri aniqlangan); Pxa Thaen Daet tog'i; Phou Thaen Chao tog'i.

Mamlakatga 2019 yilda 3.770 ming kishi tashrif buyurgan. Mamlakat YaIMdagi turizmning hissasi 2018 yilda 5 foizni tashkil etgan, 384 ming kishini ish bilan taminlagan, xorijiy turistlardan keladigan tushum mamlakat exportining 20 foizdan ortig'ini bergan.

Kambodjo. Kambodjo Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakat. Tailand, Vyet Nam va Laos orasidagi Tailand ko'rfazida joylashgan. Maydoni 181.0 ming kv.km. Poytaxi Pnom Pen. Mekong va Bassak daryolar oqadigan tekislikni egallagan. Tonle Sap (Buyuk ko'l) va boshqa ko'plab ko'llarga ham ega. Janubiy - g'arbiy (Kardamon) va shimol tomonlari tog' (Dangrek) lardan iborat. Iqlimi tropik musson. Iyul-oktyabr yomg'irli mavsum va noyabr-may quruq mavsum. Aholisi 15.3 mln. kishi (2020 y.), asosiy xalqi kxemerlar (90%), asosiy din buddizm (aholining 95%i). Mamlakat tabiiy bioxilma-xillikka ega.

Mamlakat iqtisodiyotida turizmning o'rni tobora o'sib bormoqda. Turistik resurslari: Kambodjada tashrif buyurishga arziydigan 25 shahar bor deb hisoblaydilar; Ankor arxeologik parki (bir paytlar katta imperiyaning poytaxti bo'lgan Ankor Vat tarixiy shahar xarobalari);

Sihanoukville Kambodjoning qirg'oq shari, plyaj shahri, "yangi sayyohlik kurorti"; Kambodjoning ekoturistik markazi Rattanakiri, baland tog'li hududda joylashgan, noyob tabiiy go'zallik bilan mashhur; Katta daraxtlar va qushlarga boy Sam Bok tog'i etagida joylashgan go'zal go'sha; Dilfinlar uyi nomini olgan Kratie kurorti; Teuk Chhu dam olish qishlog'i; Bokor tog' kurorti; Kampong Trach dam olish zonasi.

Mamlakatda 1993 yilda 118 ming turist kelgan bo'lsa, 2004 yilga kelib ularning soni 1.0 mln.dan oshdi, 2016 yil esa 5.0 mln.dan oshdi, 2017 yil esa 5.6 mln.ni tashkil etdi. Eng ko'p Xitoy, Vyet Nam, Tailand, Laos, Koreya, AQSh, Yaponiya mamlakatlaridan tashrif buyurishgan.

Qisqacha xulosalar. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari sekin - asta turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor berib kelayotgan regionlarning sarasiga kiradi. Dastlab Tailand (yigirmancha asrning 50-yillaridan boshlab) va Singapur katta muvofaqqiyatlarni qo'lga kiritishdi. Masalan, hozirgi paytda Singapurga o'z aholisidan uch marta ko'p xorijiy turist keladi, Tailand esa xorijiy turistlar oqimi va ko'riladigan daromad bo'yicha jahonning top-o'ntaligiga kira oldi. Tailand muvofaqqiyatidan ruhlanib, avval Malayziya, keyin Indoneziya, Filippin, keyin esa regionni qolgan davlatlari (Mayanmadan tashqari) turizm rivojiga katta e'tibor berishni boshlashdi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizmining o'ziga xosligini aytib bering.
2. Singapurning turistik jozibadorligi nimada?
3. Malayziya mamlakati turizm iqtisodiyotining rivojlantirish sirlari nimada?
4. Bruney mamlakati nimasi bilan xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda?
5. Indoneziyada turizmni rivojlantirish siyosatidan ko'zlangan maqsad nimada?
6. Indoneziya turizmining asosiy yo'nalishlari qaysilar?
7. Tailand turizmi xorijliklarni nimasi bilan o'ziga jalb qilib kelmoqda?
8. Tailand turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlarni aniqlang.

9. Filippin mamlakatining turistik jozibadorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Vyet Nam rivojlanayotgan sayyohlik sanoati uchun zarur bo'lgan afzalliklar nimalardan iborat?

Glossariy

Turizmda taklif - bozordagi talabga muvofiq vujudga keladi, yani turist uchun uning dam olishi va sayohati jarayonida lozim bo'lgan turli xildagi xizmatlar shular jumlasiga kiradi. Takliflar - bu mahsulot ishlab chiqaruvchining bozorga talab qilinadigan aniq mahsulotni yetkazib berish uchun ideal tayyorgarlik va aniq imkoniyatga ega bo'lishi tushuniladi.

Turizm resurslari - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog'lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy - maishiy ob'ektlari majmui.

Turizm tovarlari - turistik sovg'alar, xaridlar tushuniladi.

Singapur – "Arslon shahri" degan ma'noni anglatadi.

ASEAN – Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy, siyosiy, madaniy uyushmasi.

"Bruneyning yashil marvaridi" – Bruney mamlakatidagi Batu Apoi o'rmon qo'riqxonasi. Bog' buzilmagan o'rmonlarni o'z ichiga oladi va "Bruneyning yashil marvaridi" nomi bilan mashhur sultonlikning o'rmonlarni muhofaza qilish siyosatining eng yaxshi namunasi sifatida tavsiflanadi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Indoneziya qaysi qit'aning turizm markaziga kiradi?

- a) Osiyo mamlakatlari;
- b) Afrika mamlakatlari;
- c) Yevropa mamlakatlari;
- d) Amerika malakatlari.

muntazam ravishda tanlab tekshiruv o'tkazilib turadi?

- a) Singapur;
- b) Buyuk Britaniya;
- c) Indoneziya;
- d) Frantsiya.

Qaysi mamlakatning milliy turistik ma'muriyati xorijiy tashrif buyuruvchilarni

Malayziya va Indoneziya turistik yo'nalishining daromadlik farqiga nima

uchun klassik misol bo'lib xizmat qiladi?

- a) ikki mamlakat ham turizm rivojlanishining bir bosqichida turibdi;
- b) ikki mamlakat ham bir strategiyani olib boryapti;
- c) ikki mamlakat ham rivojlangan;
- d) ikki mamlakat ham rivojlanayotgan.

Tailand turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlarni to'g'ri ko'rsating.

- a) Xitoy, Yaponiya, Avstraliya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Koreya, Malayziya;
- b) Yaponiya, Indoneziya, Hindiston, Avstraliya, Singapur;
- c) Makao, Yaponiya, Malayziya, Avstraliya;
- d) Gonkong, Avstraliya, Tayvan.

Indoneziyada xalqaro turizmni rivojlantirish siyosatidan ko'zlangan maqsad nimada?

- a) aholini ish joylari bilan ta'minlash va chet el valyutasini mamlakatga jalb qilish;
- b) kapital kirishiga yo'l ochish;
- c) ish kuchi migratsiyasiga ta'sir qilish;
- d) davlat budjetiga tushum tushutirish.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 21 asr boshida qilingan xorijiy tashriflardan tushumlar miqdorini aniqlang?

- a) 27.8 mlrd \$;
- b) 17.8 mlrd \$;
- c) 26.6 mlrd \$;
- d) 20.8 mlrd \$.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga 21 asr boshida qilingan xorijiy tashriflar miqdorini aniqlang?

- a) 42.2 mln;
- b) 40.1 mln;
- c) 32.3 mln;
- d) 12.2 mln;

21 asr boshida Indoneziya turizm bozorini asosiy ta'minlovchi mamlakatlar qaysilar hisoblanadi?

- a) Singapur, Yaponiya, Malayziya, Avstraliya, Tayvan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Koreya;
- b) Gonkong, Makao, Yaponiya;
- c) Xitoy, Yaponiya, Frantsiya;
- d) Singapur, Yaponiya, Malayziya, Avstraliya, Avstraliya, Tayvan.

U hozirgi zamon kommunikativ vositalari bilan ta'minlangan ko'p sonli biznes markazlariga ega bo'lgan ultra

zamonaviy mamlakat, shu sababli, mamlakat xorijiy turistlarga nafaqat dam olishni, balki ishbilarmon turizmni ham taklif etadi. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Singapur;
- b) BAA;
- c) Qatar;
- d) Ummon.

Turizmga e'tibor 1980 yildan boshlangan, hukumat mamlakatning asosiy daryosini tozalash va poytaxtning tarixiy qismlarini saqlash borasida ishni boshlagan. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Singapur;
- b) Misr;
- c) Kipr;
- d) Maldiv.

Mamlakat ekologik jihatdan tozaligi bilan, tarixiy va madaniy yodgoliklarni asrash dasturlari bilan, jinoyatning eng pastligi bilan, transportning qulayligi bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Singapur;
- b) AQSh;
- c) Rossiya;
- d) Braziliya.

Singapurning mahalliy oshxonasi qay jihatdan ajralib turadi?

- a) multimadaniyatligi bilan ajralib turadi;
- b) monomadaniyatligi bilan ajralib turadi;
- c) narxlarning juda pastligi bilan;
- d) go'sht mahsulotlari ko'p istemol qilinishi bilan.

Bruneiy turizm asosini tashkil qiladigan turizm tarmog'iga kirmaydiganini ko'rsating.

- A) sarguzasht turizmi;
- b) ekoturizm;
- c) islomiy ziyorat turizmi
- d) buddizm din vakillari uchun ziyorat turizmi.

2017 yilda bu mamalakat turizmi industriyasi jahonda 20 - o'rinni, uning raqobatbardoshligi bo'yicha 42 o'rinni egallagan. O'sish sur'ati jihatidan esa jahonda 9-o'rinni, Osiyoda esa 3- o'rinni egallagan. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Indoneziya;
- b) Vyet Nam;
- c) Kompuchiya;
- d) Malayziya.

Sayyohlarga pul evaziga qilish mumkin bo'lgan hamma narsa o'sha yerda amalga oshiriladi

va ko'rsatiladi. Bu qaysi mamlakat?

- a) Tailand;
- b) Singapur;
- c) Turkiya;
- d) BAA.

Tailandda ommaviy sayyohlikning boshlanishi qaysi yilga borib taqaladi?

- a) 1960 - yillarga borib taqaladi;
- b) 1980 - yillarga borib taqaladi;
- c) 1990 - yillarga borib taqaladi;
- d) 1930 - yillarga borib taqaladi,

Suzib yuruvchi bozor, fillar shahri, Ilonlar fermasi, Tay qishlog'i – bu qaysi mamlakatning ekzotik diqqatga sazavor joylari sanaladi?

- a) Tailandning;
- b) Malayziyaning;
- c) Hindistonning;
- d) Shri Lankaning.

So'nggi bir necha yil ichida bu mamlakat sog'lig'ini yaxshilash uchun bu ajoyib yerga kelgan chet elliklar uchun ideal sharoit va maqbul narx/sifat nisbati taklif etiladigan mamlakat maqomiga ega bo'ldi. Gap qaysi mamlakat hasqida bormoqda?

- a) Tailand;
- b) Ispaniya;
- c) Xitoy;

d) Turkiya.

Qaysi mamlakatni «Osiyo kasali»dan, «Yangi Osiyo yulduzi»ga aylangan davlat, deb tan olishadi?

- a) Filippinni;
- b) Tailandni;
- c) Malayziyani;
- d) Eronni.

Qaysi mamlakatni boy flora va faunasi bor, go'zal tog'lari, rekreatsion resurslari bilan kishilarni o'ziga jalb qiladigan 7000ta orolda joylashgan davlat deb sanaladi?

- a) Filippin;
- b) Bagam orollari;
- c) Indoneziya;
- d) Yaponiya.

Barakay orolidagi oq plyajlar, Intramuros ispan qasri, Bagio kurort shahri, Banauedagi gurunch terrasalari, Boxol orolidagi shokolad tepaliklari, Sebudagi Magellan qabri - bu qaysi mamlakatning eng diqqatga sazavor joylari sanaladi?

- a) Filippin;
- b) Vyet Nam;
- c) Tailand;
- d) Hindiston.

X MAVZU. JANUBIY – G’ARBIY OSIYO MAMLAKATLARI TURIZMI

O’quv maqsadi: Mavzuni o’zlashtirishdan maqsad Janubiy - G’arbiy Osiyo turizmi rivojining o’ziga xosligi hamda bu region mamlakatlari turizmini oldida turgan muammolarni va ularni yechim yo’llarini bilib olish hisoblanadi.

Asosiy ma’lumotlar

Reja:

10.1. Janubi-G’arbiy Osiyo mamlakatlari turizmining xususiyatlari

10.2. Saudiya Arabistoni va Yaman mamlakatlari turizmining xususiyatlari

10.3. Turkiya mamlakatining turistik salohiyati

10.4. BAA, Baxrayn va Qatar mamlakatlari turizmi

10.5. Iordaniya, Livan va Izroil mamlakatlarning turistik salohiyati

Tayanch so’z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Osiyo mintaqasi, Janubiy – G’arbiy Osiyo, Yaqin Sharq, Islom dini ziyoratgohlari, Fors qo’ltig’i, Umra, Haj, Anatoliya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. - <https://www.labirint.ru/books/228973/> Учебник. - М., КноРус, 2016.
2. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
3. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
4. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
5. Зиядуллаева Л.С., Абидов Н.А., Рискулов Р.Б., Араб мамлакатлари иктисодиёти. Дарслик. Т.: 2009.
6. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
7. Квартальнов, В. А. Туризм : учебное пособие / В. А. Квартальнов. -2-е изд. - Москва : Финансы и статистика, 2014. - 336 с. - ISBN 5-279-03119-4.
8. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
9. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/759231/>Издательство: КноРус, 2021 г.

10. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебник. - М., 2014. 503с.
11. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
12. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма. - М., 2010.
13. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
14. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М., 2010. 231с.
15. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
16. [www.WTO/Member States of Middle East](http://www.WTO/MemberStatesofMiddleEast). World Tourism Organization.
17. [www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition](http://www.UNWTO.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018) [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
18. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition](http://www.UNWTO.org/publication/unwto-tourism-highlights-2019) | World Tourism Organization.
19. <https://www.CNN.com/Travel/2018/09/07/worlds-most-popular-destination-revealed/> (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
20. [www.Travel & Tourism Economic Impact 2017](http://www.Travel&TourismEconomicImpact2017.com).
21. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
22. [www. Butun jahon turizm tashkiloti](http://www.Butunjahonturizmtashkiloti.com).
23. www.wikipedia.ru
24. <https://knoema.ru/atlas/>

10.1. Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari turizmining xususiyatlari

Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasining asosiy turizm markazlari bo'lib Iroq, Iordaniya, Quvayt, Oman, Qatar, Saudiya Arabistoni, Suriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Livan, Yaman va Baxrayn mamlakatlari hisoblanadi. Bu mintaqada Livandagi kelishmovchiliklarga qaramasdan 1970 yillardan boshlab sezilarli darajada xalqaro turizm harakatlari rivojlana boshladi. Bu mintaqada 1970 yilda 1.8 mln. xorijiy turistlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa, 1980 yilga kelib ularning soni 6 mln. kishini tashkil qilgan. Xalqaro turizm tushumlari esa 0.4 mlrd. AQSh dollaridan, 3.5 mlrd. AQSh dollariga o'sganligi kuzatilgan. 1980 yilda jahon turizm tashriflarining 2.1% ini tashkil qilgan bo'lsa, 1987 yilga kelib bu ko'rsatkich 1.48% ga pasayib ketgan. 1988-99 yillarda xorijiy tashriflar birmuncha o'sganligi kuzatiladi, ya'ni 1987 yilda 5.4 mln. xorijiy tashriflar kuzatilgan bo'lsa, 1990 yilda 7.5 mln. kishiga yetadi. 1991 yilga kelib

xorijiy sayyohlar soni yana kamaya boshlaydi, tashriflar 10.3% ga, xalqaro turizm tushumlari 16.5% ga pasayganligi kuzatiladi. 1994 yildan boshlab yana o'sish kuzatiladi (Jadval.-10.1.).

Bu mintaqaga qilingan xorijiy turistik tashriflarning tahlil qilish natijalari ko'rsatishicha, 1980-96 yillargacha nomuntazam ravishda yildan yilga tebranib turishlar, ya'ni o'sish yoki pasayishlar kuzatiladi. 2000 yilda 24 mln. xorijiy turistlar tashrif buyuradi. 2002 yilda bu ko'rsatgich 27,6 mln. kishiga yetadi. Xalqaro turizm tushumlari bo'yicha 2000 yilda jahon turizm tushumlarining 2.6%, 2002 yilda 2.7% ni tashkil qiladi.

Jadval. – 10.1. Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasiga qilingan tashriflar va ulardan kelib tushgan tushumlar dinamikasi

Yillar	Turistik tashriflar mln. kishi	O'rtacha yillik o'zgarish, %	Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi %	Turistik tashriflardan tushum (mlrd. AQSh dol.)	O'rtacha yillik o'zgarish, %	Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi, %
1970	1.864	-	1.12	0.404	-	2.26
1975	3.520	88.84	1.58	0.733	81,44	1.80
1980	5.992	70.23	2.08	3.470	373.4	3.36
1985	6.240	4.17	1.89	4.803	38.41	4.14
1990	7.444	-1.0	1.63	5.127	-5.65	1.99
1995	13.705	38.88	2.42	7.187	40.73	1.80
2000	24.000	13.2	3.49	12.341	13.50	2.60

Manba: Butun jahon turizm tashkiloti.

Izoh: Bu ma'lumotlarga Turkiya va Izroil qo'shilmagan.

Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlarning yarmidan ko'prog'ini Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari fuqarolari tashkil etgan, 19% ga yaqini Yevropa mamlakatlariga, 18%i Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlariga, 2.8%i Amerika mintaqasi mamlakatlariga, 6.7%i Afrika mintaqasi mamlakatlariga, 3.1%i Janubiy Osiyo mamlakatlariga to'g'ri kelgan.

Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasida asosiy xalqaro turistik markazlar Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari hisbolanadi. Saudiya Arabistoniga Islom dinining muqaddas shaharlarini ziyorat qilish va farz amallaridan biri haj hamda umraga Makka va Madina shaharlariga har yili bir necha

million musulmonlar kelib ketishadi. Bu mamlakatda asosan diniy turizm nihoyatda rivojlangan.

Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasi xalqaro turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar Misr, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya hamda boshqa islom davlatlari hisoblanadi.

Umuman olganda keyingi yuz yil davomida Janubi-G'arbiy Osiyo mintaqasidagi siyosiy beqarorlik natijasida, doimiy ravishda xalqaro turizm harakatlarida tebranishlar kuzatilmoqda. Masalan, Fors qo'ltig'idagi siyosiy vaziyat nafaqat Iroq mamlakatini, Saudiya Arabistoni hamda Iordaniya, Livan mamlakatlariga qilinadigan xorijiy tashriflarni 40% ga kamayishiga olib keldi.

Keyingi yillarda ham butun davr mobaynida Fors qo'ltig'ini o'z ichiga olgan Janubi-G'arbiy Osiyo asosiy «olovli nuqta» bo'lib qolmoqda. Bu yer sayyoramizning turli madaniyat va dinlari juda murakkab holda yonma-yon shakllangan asabiy ziddiyatlar tugunidir. Bu yerda faqat arab mamlakatlari bilan Izroilnigina emas, balki boshqa ko'plab davlatlarning ham manfaatlari o'zaro to'qnashgan.

Jadval. – 10.2. Janubi-G'arbiy Osiyoning turistlar oqimi bo'yicha eng asosiy turistik davlatlari, mln.kishi.

O'rin	mamlakat	2018 yilda	2017 yilda	Yillik o'sih
1	 Saudiya Arabistoni	16.1 million	18.0 million	▼ 10.7
2	 BAA	15.8 million	14.9 million	▲ 6.2
3	 Baxrayn	4.4 million	4.0 million	▲ 9.6
4	 Iordaniya	3.8 million	3.6 million	▲ 7.7
5	 Ummon	2.4 million	2.3 million	▲ 1.6
6	 Qatar	2.3 million	2.9 million	▼ 23.2

Manba: www.vikipediya.ru

Izoh: Bu ma'lumotlarga Turkiya va Izroil qo'shilmagan.

Janubi-G'arbiy Osiyoning asosiy turistik davlatlari hozir ham Saudiya Arabistoni va BAA bo'lib kelmoqda. Aholisi kam bo'lsa ham Baxrayn, Iordaniya, Ummon va Qatarining ham turizm sanoati anchagina rivojlangan.

Jadval. - 10.3. Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlarida xalqaro turizmga turistlar oqimi.mln.kishi.

t/r	Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sish, 2017 yilga nisbat, foizda	2018 yilda ulushi, % hisobida
1	BAA	7,432	15,790	15,920	0.8	26.3
2	Saudiya Arabistoni	10,850	16,109	15,293	-5.1	25.3
3	Iordaniya	4,207	3,844	4,150	8.0	6.9
4	Baxrayn	995	4,372
5	Ummon	1,441	2,372
6	Livan	2,168	1,857	1,964	5.8	3.2
7	Qatar	1,700	2,256	1,819	-19.4	3.0
8	Falastin	522	503	606	20.5	1.0
9	Suriya	8,546
10	Iroq	1,518				
11	Yaman	1,025
12	Quvayt	207

Manba: www.vikipediya.ru

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, region juda beqaror, 2010-2018 yillarda BAAda xorijiy turistlar 2 marta, Saudiya Arabistonida esa 1.5 marta oshgan bo'lsa, Suriya, Iroq va Yaman kabi davlatlarda turizm butunlay izdan chiqib ketgan, buning bosh sababi albatta, urush, siyosiy beqarorlikdir.

Jadval. – 10.4. Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlarida xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad, mlrd dollar.

t/r	Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda ulushi, % hisobida
1	BAA	8,577	21,048	21,375	29.3
2	Saudiya Arabistoni	6,712	12,056	12,038	16.5
4	Livan	7,995	7,611	8,400	11.5
5	Qatar	0,584	5,971	5,565	7.6

6	Iordaniya	3,585	4,639	5,249	7.2
7	Baxrayn	1,362	3,642
8	Iroq	1,660	2,959	1,986	2.7
9	Ummon	0,780	1,748
10	Quvayt	0,290	0,313	0,395	0.5
11	Falastin	0,667	0,225	0,245	0.4
12	Suriya	6,190
13	Yaman	1,161

Manba: www.vikipediya.ru

Ushbu davrda ko'rilgan daromadlar dinamikasini tahlil qilsak, bu yanada yaqqolroq ko'rinadi. BAAning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi qariyb 2,5 marta, Saudiya Arabistonniki 2.0 marta o'sgan bo'lsa, Qatarda qariyb 10 marta o'sgan, vaholanki, Suriya, Yaman va Liviyada turizm izdan chiqib ketgan.

Jadval. - 10.5. Janubi-G'arbiy Osiyoda turizmdan eng ko'p daromad oladigan davlatlar

O'rin	mamlakat	2018 yilda (mlrd.doll.)
1	Turkiya	25,220
2	BAA	21,375
3	Saudiya Arabistoni	12,038
4	Livan	8,400
5	Izroil	7,241
6	Qatar	5,565
7	Iordaniya	5,249
8	Eron	4,402
9	Baxrayn	3,642

Manba: www.vikipediya.ru.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bu regionda turizm statistikasi nuqtai nazaridan Yevropaga kiruvchi Turkiya bilan bir qatorda BAA va Saudiya Arabistoni katta daromadga ega, bundan tashqari kichik bo'lsa ham Livan, Izroil, Iordaniya va Baxraynlar ham turizm yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

10.2. Saudiya Arabistoni va Yaman mamlakatlari turizmining xususiyatlari

Saudiya Arabistoni. Poytaxti Ar - Riyod shahri. Iqlimi - shimolda subtropik, janubda tropik, quruq keskin kontinental iqlim. Osiyoning janubiy - g'arbidagi davlat. Islom mamlakati. Davlat tuzumi - absolyut teokratik monarxiya (qirollik). Maydoni – 2150.0 ming kv. km., aholisi – 35.3 mln. kishi (2020 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - dinor. Milliy bayrami - 23 - sentyabr - Podshohlik e'lon qilingan kun (1932 - yil).

Saudiya Arabistoni Janubi-Garbiy Osiyodagi podshohlik, Arabiston yarim orolining 80% dan ortig'ini o'z ichiga oladi hamda Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i qirg'og'idagi bir qancha orollarni ham qamrab olgan. Davlat va din boshlig'i podshoh bo'lib, u bir vaqtning o'zida hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar qo'mondoni va bosh hakam hisoblanadi. Hukumat vakillari asosan podshoh oila a'zolaridan tashkil topadi. Hirik shaharlari: Ar-Riyod. Jidda, Makka, Madina, Al-Taif. Podshohlikda islom dinining asosiy muqaddas qadamjolari bo'lgan Makkai-Mukkarama va Madinai-Munavvara joylashgan. Mamlakatda ob-havo juda issiq, yozda 40, 50, hatto undan yuqori ham boladi.

Saudiya Arabistonining hozirgi chegarasi 1926 yilda vujudga kelgan. Yigirmanchi asrning yetmishinchi yillardagi neftga bo'lgan talab ortganligi tufayli neftning narxi ko'tarilishi natijasida bu mamlakat katta boylikka ega bo'ldi, undan tashqari mamlakat nihoyatda qulay harbiy strategik sharoitga ega. Shular tufayli jahonda ayniqsa musulmon davlatlarida uning nufuzi keskin ortdi. Mamlaktda yaratiladigan YaMM ning 80% neft soha bilan uzviy bog'langan. Transport vositalari yaxshi rivojlangan. Temir yo'llari uzunligi 886 km., avtomobil yo'llari uzunligi 74 ming km. Neft maxsus truboprovodlar orqali kerakli joylarga yetkaziladi. 23 ta aeroport mavjud, 8 ta dengiz portlari xizmat ko'rsatadi. Asosiy dengiz portlari: Jidda, Ras-Tannura, Yanbu. Mamlakat iqtisodiyoti mo'tadil o'sish asosida rivojlanmoqa. Davlat byudjetining kirim qismi asosan neft hisobiga to'g'ri keladi. Saudiya Arabistoni uzoq vaqtlar tuyachilik, finik xurmolar yetishtirish, hajga boruvchi musulmonlarga xizmat ko'rsatishdan daromad qilar edi. Hozirgi kunda uning iqtisodiyotini asosini neft qazib olish tashkil etadi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: mamlakatning ma'muriy jihatdan to'rt viloyatga bo'lingan: Xijoz (markazi Makka shahri), Asir (markazi Abxa shahri), Najd (markazi Ar - Riyod shahri), Sharqiy viloyat (markazi Dammom shahri). Musulmon dunyosidagi muqaddas ziyoratgohlar: Makka, Madina, Jidda shaharlari. Islom olamidagi 5 - rukn hisoblangan Haj amalini bajarish uchun ziyorat qilinadigan muborak joylar. Shuningdek, Umra ziyorati. Makka shahrining Ka'basi, zamzam qudug'i, masjidlari. Savdogarlik, hunarmandchilik. Hajga kelganlar uchun maxsus kiyimlar (ihrom), tasbeh, atirlar, zamzam suvi uchun idishlar, joynamozlar savdolari. Zamonaviy otellari, yuksak servis xizmatlari. Saudiya Arabistonida asosan diniy turizm rivojlangan. Mamlakatning dunyodagi Haj va Umra ziyorati - turizmi rivojlangan yagona davlatdir.

Saudiya Arabistoni poytaxti – Ar-Riyod dunyodagi eng tadrijiy rivojlanayotgan shaharlardan biridir. Uning aholisi 1960 yil 160 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2000 yilga kelib 2 mln. dan oshib ketdi, hozir esa 7 mln.ga yetgan. Vazirliklar, banklar, mehmonxonalar odatda 7-8 qavat bo'lib, o'ziga xos nafis arxitekturasi bilan ajralib turadi. Ko'chalar chekkasiga yashil o'simliklar ko'p ekilgan, sanoat korxonalari esa shahar tashqarisida joylashgan.

Hozirgi paytda Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining ikkita kuchli tomoni bor - biri neft zahirasi-yu va neftni qayta ishlash sanoati bo'lsa, ikkinchisi haj va umra bilan bog'liq ravishda ziyorat turizmining rivojlanganligidir. Saudiya Arabistoni dunyoda eng arzon va shu bilan birga eng katta miqdorda neft eksport qiladigan davlatdir. Buning oqibatida esa juda katta daromad ko'radi. Bu daromadlarning anchagina qismi ziyorat turizmiga va alohida sayohat xarakteriga ega bo'lgan haj marosimiga, ularni yuqori saviyada tashkil etishni moddiy qo'llab quvvatlashga sarflanadi. Ammo, shu darajaga erishish uchun keyingi o'n yilliklarda juda katta ishlar qilingan.

Mamlakat yigirmanchi asr boshida mustaqillikni qo'lga kiritgan paytda juda qoloq va ahvoli og'ir davlat bo'lgan. Ammo, 1938 yilda Saudiya Arabistonida juda katta neft konlari ochilgan. Biroq, ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik va urush davrida uni ishga tushira olishmagan edi. Faqat 1946 yildan bu ish boshlandi va 1949 yilga kelib neft industriyasi to'liq yo'lga qo'yildi hamda mamlakatning boyligiga aylandi va rivojlanishining asosiy manbayi bo'lib qoldi.

Bu yurt turizm resursi sifatida na go`zal tabiat go`shalari bilan, na buyuk tarixiy obidalari bilan ajralib turadi. Ammo, islomning vatani sifatida u ikki muqaddas shahri Makkayu Munavvara va Madinayu Mukarrama bilan butun islom olamini o`ziga jalb qiladi. Saudiya Arabistonida, butun dunyo musulmonlarining muqaddas shahri bo`lmish Makkada - "Makkai Munavvarada", Masjidi jome hovlisida muqaddas Ka`ba joylashgan. Bu tabarruk shaharga hamda payg`ambarimiz janobi Rasululloh Muhammad salallohu alayhi vassalam dafn etilgan shahar - Madinaga ("Madinai Mukarrama")ga yiliga 5 mln.dan ortiq musulmonlar hajga boradi. Boshqa dinlarga e`tiqod qiluvchilarning bu shaharlarga kirishi man etilgan. Umra sifatida ziyorat qiladiganlarning keti ham yil davomida uzilmaydi.

Hozirgi daraja 1998 yilda o`sha davr qiroli Faxdning neftdan keladigan daromadlarning kattagina qismini shu ikki muqaddas shaharlarga qaratgandan keyin boshlangan. Birgina Madina shahrining Muhammad masjidi uchun 10 mlrd.dollar davlat sarmoyasi ajratilgan. Makka shahrining birgina Jome masjidini kengaytirishga ham shundan kam bo`lmagan pul ajratilgan. Kengaytirish uchun yer kerak bo`lgan, buning uchun ko`plab tarixiy obidalarni buzishga to`g`ri kelgan.

Haj mavsumida Makka aholisi ikki martadan ham ko`proq ko`payib ketadi (ayrim ma`lumotlar bo`yicha esa hatto 7-8mln. kishiga yetadi). Shuning uchun bu shaharda dunyoda eng yirik palatkali shaharchalar va parking qurilgan hamda juda katta o`tkazish qobiliyatiga ega bo`lgan metro mavjud. Shuncha aholini boqish muammosi ham yaxshi hal qilingan. Faqat bir oy, ya`ni haj davridagina xizmat qiladigan mehmonxonalar va savdo shahobchalari ham juda ko`p.

2020 yil uchun mamlakatning eng zo`r diqqatga sazavor joylarining top-o`ntaligi: 1. Shaharlar onasi Makka; 2. Makkadagi Al-Haram masjidi; 3. Al-Haram ichidagi Kaaba; 4. Madinadagi Nabiya masjidi; 5. Madinadagi musulmonlarning birinchi masjidi Al-Kuba; 6. Mamlakatni Baxrayn bilan bog`lovchi qiroli Faxd ko`prigi; 7. Jiddadagi dunyoning eng baland Faxd favvorasi (312 metrga otiladi); 8. Masmak qo`rg`oni, poytaxt Er-Riyodning tarixiy inshooti, XIX asrda bunyod etilgan, hozir uning maydonida muzey va masjid egallagan; 9. Madain-Salix arxeologik kompleks, eramizdan oldingi I asrda qurilgan (unda Finikiya, Misr va Assiriya arxitekrurasi

qoldiqlarini ko'rish mumkin); 10. Rub-el-Xali sahrosi, u mamlakatning anchagina qismini egallagan, u dunyoda eng issiq sahro hisoblanadi, bir paytlar obod shaharlar, unumdor vohalar bo'lgan, keyinchalik qum ostiga qolib ketgan.

Saudiya Arabistoni haqida gapirganda quyidagi ma'lumotni ham hisobga olish kerak: "*The Telegraph*" matbuot agentligi ma'lumotlari bo'yicha dunyoning eng qimmat binosi Makkadagi 400 ming kv. metr maydonga ega va 4 mln. kishini sig'ira oladigan Al-Haram kompleksi hisoblanadi, uning qiymati 100 mlrd. dollarga baholanadi, ikkinchi orinni Makkadagi Abraj al-Bayt osmono'par binolar kompleksi, dunyoning eng baland mehmonxonasi, qiymati 15 mlrd. dollar deb baholangan.

Mamlakat poytaxti Er-Riyad XVIII asrda bir kichkina qishloqdan paydo bo'lgan, hozirgi paytda 7 mln. aholiga ega bo'lgan megapolisdir. Birgina 99 qavatli Burj-al-Mamlyak futurologik binoning o'zi nimaga arziydi. Shaharda 2018 yilda qirq yillik ta'qiqdan keyin birinchi kinoteatr ochilgan. Mamlakatning iqtisodiy poytaxti, Qizil dengizdagi eng yirik port – Jidda eramizdan oldingi 6 asrda qurilgan shahar, shu shaharda momo Hovoning qabri bor deyishadi. Turistlarni Al-Balad rayonida qurilgan hashamatli uylar jalb qiladi.

Mamlakatning eng mashhur kurortlari: Qizil dengiz bo'yida joylashgan Yanbu-el-Bahr, Jidda yaqinidagi Silver-Sends, Fors qo'ltig'ida Al-Fanatir-Bich, Xalf-Mun-Bey va dayver ishqibozchilarning sevimli joyi Obir.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 15.3 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro tirizmdan mamlakat ko'rgan daromad 2018 yilda 17.0 mlrd.dollarni tashkil etgan. Mamlakatga keladiganlarning 95%i ziyorat turizmiga kelishadi.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 21.9 mln. kishini tashkil etgan va ular sarflagan mablag' 17.9 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Yaman. Yaman Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan mamlakat. Uning shimoli 1918 yil usmoniylar imperiyasidan, janubiy qismi esa 1967 yil buyuk Britaniyadan mustaqillikni qo'lga kiritgan.1990 yil ikki Yaman (shimoliy va janubiy) birlashgan. Arab va Qizil dengizlar va Adan ko'rfazi bilan o'ralgan. Saudiya Arabistoni va Ummon davlatlari bilan chegaradosh. Maydoni 528.0 ming kv.km. Aholisi

29.2 mln.kishi. (2020y.). Etnik jihatdan asosan arablardan iborat. Asosiy din islom. Poytaxti Sanaa (aholisi 1.6 mln.kishidan iborat).

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining roli katta, qahva, paxta, don mahsulotlari va meva yetishtirish, chorvachilik rivojlangan. Sanoatda neft sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Yamanning turistik diqqatga sazavor joylari: Al-Hudayada viloyatida joylashgan Zabid tarixiy shahri, XIII-XIY asrlarda Yaman davlatining poytaxti bo'lgan, o'sha davrda qurilgan binolarning o'ziga xos arxitekturasi, ko'p asrlar davomida islom olamiga xizmat qilgan universiteti; 2500 yildan beri yashab kelayotgan mamlakat poytaxti Sanaaning eski shahar qismi. VII-VIII asrlarda islomni targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan shahar. XIII asrgacha qurilgan 103 masjid, 14 hammom, 10 mingdan ziyod uylar; Sokorta arxipelagi. Hind okeanida Afrikaga yaqin joyda joylashgan 4 oroldan iborat. Bu hudud biologik xilma-xillik jihatdan boy joy, alohida flora va faunaga ega. "Hind okeanining Galapagosi" deb sanaladi. Sokorta arxipelagi atrofidagi dengiz suvlari ham biologik xilma-xillik jihatdan muhim sanaladi.

Mamlakatga 2010 yilda 1.0 mln.dan ortiq kishi tashrif buyurgan. Ammo 2016 yildan keyin fuqarolar urushi tufayli turizm sohasi butunlay sondan chiqdi, keladiganlar soni 40 martaga kamayib ketdi.

10.3. Turkiya mamlakatining turistik salohiyati

Turkiya Respublikasi asosan janubi-g'arbiy Osiyo va qisman janubiy - sharqiy Yevropada joylashgan mamlakat. Mamlakatning bir paytning o'zida ham Osiyo, ham Yevropa mamlakatlari bilan aloqalari uchun tabiiy shart-sharoitlarning mavjudligini izohlaydi. Turkiya davlatining maydoni 814.578 kv. km. tashkil etadi, shuning 97 foizi Osiyoda, 3 foizi Yevropada. Aholisi - 85.4 mln. kishi (2020 - yil). Poytaxti Anqara shahri. Iqlimi - asosan subtropik, ba'zi hududlarda O'rta yer dengizi va kontinental iqlimi bilan ajralib turadi. Davlat tuzumi - respublika. Tili - turk, dini - islom, pul birligi - lira. Yirik shaharlari: Istanbul, Anqara, Izmir, Adana, Bursa, Gaziantep, Eski shahar, Ko'nya, Diyorbakir, Antaliya, Edirna. Milliy bayrami - 29 oktyabr - Respublika kuni (1923 - yil).

Turkiya atrofini Qora, Marmar, Egey, Oq dengizlar bilan o'ralgan hamda Suriya, Iroq, Eron, Armaniston, Gruziya, Bolgariya, Gretsiya bilan chegaradosh.

Turkiya juda qulay geografik joyda joylashgan, shuning uchun ham asrlar davomida ko'plab davlatlarni ko'rgan, bu yerda greklar, rimliklar, vizantiyaliklar, usmoniylar kabi qator xalqlar yashab o'tishgan, ularning har biri o'z izini tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklariga qoldirib ketishgan.

Turizm mamlakat iqtisodiyotida keyingi o'n yilliklarda borgan sari muhim rol o'ynab bormoqda, bu sohada ikki mln.ga yaqin kishi mashg'ul. Mamlakat yuqorida aytganimizdek 4 dengiz bilan o'ralgan bolib, ularda subtropik O'rta yer iqlimi hukmron, dengizlar qirg'og'i 7200 kilometrni tashkil etadi va 355ta plajdan iborat. Mamlakatda 1300ta geotermal suv manbalari bor (dunyoda 7 o'rin).

Turkiya - bu tarix, madaniyat, ajoyib tabiat go'zalligi uyg'unlashgan, bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha ustunliklarga ega bo'lgan mamlakatdir. Yashil o'rmonlar, tog' chang'isi uchun qulay bo'lgan qorli tog'lar, mehmonsevar odamlar va takrorlanmas oshxona - bularning barchasi Turkiyaga xosdir. Mamlakatda xizmatlarning yetarli infratuzilmasi yaratilgan, zamonaviy turistik markazlar ochilgan. Yozgi ta'tilning ommaviy markazlariga: Antalya, Alanya, Marmaris, Kushadasi, Bodrum, Fetxie, Kash kabilar kiradi. Antaliya va Istanbul asosiy xorijiy turistlarni qabul qiluvchi shaharlar hisoblanadi, ulardan keyin esa Mugla, Edirne, Izmir, Aydin va Anqara turadi.

Istanbul Turkiyaning eng katta shahri bo'lishi bilan birga, Vizantiya va Usmoniylar kabi qator davlatlarga poytaxtlik qilgan davrlardan qolgan ko'plab yodgorliklarga ega. Jumladan, Sulton Ahmad masjidi, Aya Sofiya, Topkapi saroyi, Dolmabaxche saroyi, Galatasaroy, Grand bozori kabilarni kiritishimiz mumkin.

Istanbuldan tasgqari turistlar eng ko'p keladigan joylari – Kappadokiya (o'ziga xos tog' releflari) va turk riv'yerasi nomini olgan, grek, rim inshootlari qoldiqlari ko'p bo'lgan janubiy qirg'oqlar. Mamlakatning eng mashhur kurortlari: Antaliya, Side, Marmaris, Kemer, Bodrum.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Turkiya jahonning xalqaro turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Antaliyaning "Turkiya kurortlarining poytaxti" ekanligi hammaga ma'lum. Sog'lomlashtirish

turizmi, tarixiy turizm (Andrian darvozasi) mashhur. Bu yo'nalishda dam oluvchilarning asosan Yevropa, Amerika va Yaqin Sharq mamlakatlaridan tashrif buyurishadi, plyajlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Pomukkale - bu olamning sakkizinchi mo'jizasi, - deyilishi bejiz emas. U sog'lomlashtirish markazi hisoblanadi. Qadimiy inshootlarning mujassamligi bilan ajralib turadi. Anqara – ma'muriy va savdo markazi, muzeylari bilan mashhur. Doguboyazit - Ishoqposha saroyi. Istanbul - porti, istirohat bog'lari, To'pkapa saroyi, Sulton Ahmad maydoni va majmuyi, muzeylari, Sulton Mahmud ko'prigi. Trabzon monastri. Izmirdagi qushlar makoni. Dalyan qoyalaridagi qabristonlar. Shop - tur, diniy turizm, yaxta tur, madaniy - tarixiy turizm, rafting (rezina qayiq) tur, jip tur, Akva Park. Otellarning ko'pligi va ularda servisning oliy darajada yo'lga qo'yilgan.

Turkiya turizmi tarixiga kelsak, Usmoniylar davrida xorijdan keladiganlarga to'siqlar juda ko'p edi. 1930-yillarga kelganda, Turkiyaga kelgan turistlar soni 45-50 mingtagacha chiqdi va turizm sohasi hukumat darajasida ham e'tiborga olinib boshlandi. 1950 va 1953-yillarda turizm jamiyatlarining tashviqot qonunlari chiqarildi. Tashviqot choralarining turizmga amalga oshirilishida sarmoyalarga manba bo'lishi uchun 1954-yilda Turkiya Turizm Banki ochildi.

Turkiyada turizm rivojlanishi oxirgi 20-30 yil ichida uziga xos dinamik tus oldi. Buning bir qancha sabablari bor. Turkiyada turizm rivojlanishining tabiiy -ob'ektiv omillariga:

- Geografik qulayligi;
- Iqlim qulayligi;
- Turk oshxonasining boyligi va mashhurligi;
- Turkiyada tarixiy joylarning ko'pligi kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga:

- Iqtisodiy islohotlarning jadallashtirilganligi;
- Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan yaqindan savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlantirilayotganligi,

• Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlantirilayotganligi;

• Migratsion jarayonlarning (ichki va tashqi) rag'batlantirilayotganligi kabilar kiritiladi.

2018 yilda mamlakatga 45.8 mln. turist tasrif buyurgan. 2018 yilda xalqaro turizmdan tushgan tushum 37.2 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakarga eng ko'p Rossiyadan keladi (5mln.dan oshib ketdi), Germaniya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Erondan ham keladiganlar ko'p.

Mamlakatdan xorijga ketgan turistkar soni 2018 yilda 8.4 mln. kishini tashkil etgan va ular qariyb 5 mlrd. dollar sarflashgan.

Turkiyaning turistik mintaqalar - **Qora dengiz mintaqasi:** Mintaqada tog'larning ko'pligi va ularning dengiz qirg'og'iga parallel ravishda joylashgani va joylashuvining biroz noqulayligi tufayli plajlar ancha kam. Bu mintaqada yoz boshqa mintaqalarga nisbatan qisqaroq davom etadi. Qora dengiz mintaqasida daryolardagi oqimning tez bo'lgani uchun so'nggi yillarda rafting sporti rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida Chorux daryosini aytishimiz mumkin. Mintaqadagi turistik markazlar: Trabzondagi Sumala manastiri, Ayvasil cherkovi, Hazrati Yahyo Manastiri, Sulton Boyazid Qulliyosi, Amasya qal'asi.

Marmara mintaqasi: Muhim transport yo'llarida joylashganligi, iqlim imkoniyatlarining yaxshiligi, Istanbulning shu mintaqada joylashganligi va qadimdan odam yashab kelayotganligi sababdan Marmara mintaqasida turizm markazlari juda ko'p. Mintaqa turizmdan eng ko'p daromad oladigan mintaqadir. Tarixiy yodgorliklarga Bursadagi Ulujomi, Yashil Maqbarani, Izniqdagi Yashil jomi Daplijalarni, Edirnedagi Selimiya jomisi, Rustampasha Karvon saroyi, Saraya Hammomini va Chanakkaledagi Troya xarobalarini kiritishimiz mumkin. Uzoq yillar davomida Troya yunon mifologiyasining mahsuli deb hisoblanib kelindi. Biroq 1870-yillardan keyin uning qoldiqlari topildi. Horzirda Troya xarobalari Turkiyaning G'arbida joylashgan va eng kup turist ziyorat qiladigan markazlardan biri hisoblanadi.

Bu mintaqada Istanbul, Turkiyaning shimoli-g'arbida joylashgan shahar bo'lib, Turkiya mustaqillikka erishguncha, ya'ni 1923-yildagacha juda ko'plab davlatlar va imperiyalar uchun poytaxt vazifasini bajargan. Bular orasida Usmoniylar imperiyasi deyarli 500 yil va undan oldin Vizantiya imperiyasi va boshqa ko'plab qadimiy davlatlar uchun poytaxtlik qilgan. Istanbul ikkita qit'ada joylashgan dunyodagi yagona shahardir. Istanbuldagi tarixiy yodgorliklarga Topkapi saroyi, Sulaymoniya Masjidi, Ayasofya masjidi,

Dolmabaxche saroyi, Kiz kulesi, Anitkabir, Kapali Charsi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Egey mintaqasi: Ko'plab ko'rfazlarga ega bo'lgan Egey mintaqasi qadimdan odamlar yashab kelgan hududlardan biri hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarning ko'pligi tufayli bu mintaqada turizm juda kuchli rivojlangan. Qulay iqlim sharoitlari tufayli dengiz turizmi ham ancha rivojlangan bo'lib, turizm davri yetti - sakkiz oy davom etadi. Bu mintaqadagi turistik markazlarga Izmiridagi Maryam Ona Cherkovi, Efes va Bergama antik teatrlari, Agora, Akropolis kabi bir qancha markazlarni misol keltirishimiz mumkin.

O'rta yer dengizi mintaqasi: Yoz oylarining issiqligi, plyajlarning ko'p ekanligi, issiq haroratning uzoq davom etishi tufayli Turkiyada dengiz turizmining eng uzoq davom etadigan mintaqasi O'rta yer dengizi mintaqasidir. Mintaqada qish oylarida ham dengizda cho'milish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari Antaliyada Toros tog'larining baland ekanligidan bir paytning o'zida ham dengizda cho'milish ham chang'i sporti bilan shug'ullanish imkoniyatlari mavjud. Mintaqada deyarli barcha viloyatlarda juda ko'p muhim tarixiy yodgorliklar mavjud. Mintaqada Antaliya shahri eng katta turistik va savdo markazi hisoblanadi. Ispartadagi Egirdir ko'li, Burdurdagi Hojilar xarobalari, antik Sagalosos shahhi, Mersindagi o'rta asrlardan qolgan Anamur qal'asining qoldiqlari, Jannat va Jahannam g'orlari, Qiz qal'asi kabilarni eng ko'p turist jalb qiladigan markazlar deyish mumkin.

Markaziy Anatoliya mintaqasi: mintaqa bugungi kunda Turkiyaning siyosiy markazi hisoblanadi. Boshqa mintaqalarga nisbatan bu yerda turizm unchalik kuchli rivojlanmagan. Bu mintaqadagi turistik markazlarga Anqaradagi Anitkabirni, Anqara qal'asini, Anatoliya Madaniyati Muzeyini, Polatli yaqinidagi qadimgi Frigiya davlatining poytaxti hisoblangan Gardion shahrini, Konyadagi Mavlono Jaloliddin Rumi Maqbarasini, Nasriddin Xo'ja Maqbarasini va Kopadokiyan kiritishimiz mumkin.

Sharqiy Anatoliya mintaqasi: Mintaqada qish oylarining uzoq davom etishi va qorning ko'p yog'ishi tufayli turizm qizgin emas. Bugungi kunda asta-sekinlik bilan mintaqada tog turizmi rivojlanmoqda. Mintaqadagi turistik markazlarga Numrut tog'i, Ani xarobalari, Ishak Pasha saroyi, Agri tog'i, Van ko'li, Yaqutiya Madrasasi, Erzurum Aziziya yodgorligi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Van ko'li Turkiyadagi eng katta ko'l hisoblanib, suvining sho'rliги hisobiga hayvonot va nabodot olami unchalik boy emas.

Janubi-sharqiy Anatoliya mintaqasi: Anatoliyadagi odamlarning ilk o'troqlashgan hududi sanaladi. Mintaqadagi turistik yodgorliklarga Malabadi ko'prigi, Asur mozorlari, Adiyaman Jendere ko'prigi, Mardin uylari, Baliq'li ko'l kabilarni kiritishimiz mumkin.

10.4. BAA, Baxrayn va Qatar mamlakatlari turizmi

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Fors va Ummon ko'rfazi qirg'og'ida, Arabiston Yarim orolining sharqiy qismida joylashgan. Birlashgan Arab Amirliklari 7 amirlik: Abu-Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm-Ulxaytayp, Al-Fujayra va Ra's-ul-Xayma kiradi. Poytaxti Abu - Dabi shahri. Iqlimi - quruq subtropik iqlim. Davlat tuzumi - federatsiya. Maydoni – 83.6 ming kv. km., aholisi – 10.1 mln. kishi (2020 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - dirham. Yirik shaharlari: Dubay, Sharja va Ra's-ul-Xayma. Milliy bayrami - 2 dekabr - Mustakillik kuni (1971 - yil).

BAAda iqlim quruq subtropik, yomg'irli kunlar bir yilda 5 kun, yozda temperatura 50 gradusgacha chiqadi. Mamlakat maydonining asosiy qismi qumli cho'llar, ayrim joylarda past tog'lar uchrab turadi. Mahalliy aholi barcha aholining faqat 20-25%ini tashkil qiladi. BAAda xizmat qiluvchi ishchilarning 90% xorijliklardir.

BAA – federatsiyadir. Uning tarkibiga kiruvchi har bir amirlik mutlaq monarxiya hisoblanadi va katta mustaqillikka ega. 1971 yilda qabul qilingan konstitutsiyaga asosan hokimiyatning oliy organi amirlik boshliqlaridan iborat Oliy kengash saylanadi. Ular ichidan 5 yilga mo'ljallab prezident saylanadi. Mamlakatda siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyati man etilgan.

Birlashgan Arab Amirliklari ko'plab o'ziga xos jihatlari bilan boshqa arab mamlakatlaridan ajralib turadi. BAA eng boy arab mamlakatlarining biri bo'lib, ulkan cho'l-u biyobonlar ichida oazis bo'lib ko'rinadi. Mamlakatning poytaxti Abu Dabi shahri bo'lsada, lekin turistlarni Dubay shahri o'ziga jalb etadi. Ushbu shaharning diqqatga sazovor joylari turli ommaviy axborot vositalari orqali juda ham yaxshi reklama qilinadi. Yuqori tezlikda qurilayotgan turli xil ko'rinishdagi arxitektura binolari shaharni cho'l ichida zamonaviy megapolisga aylantirdi.

BAA tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak XVIII-XIX asrlar bo'sag'asida bu hududda arab qabilalari istiqomat qilganlar. Ular asosan chorvachilik va baliqchilik bilan, qisman savdo bilan mashg'ul bo'lganlar. XIX asrdan boshlab bu tomonlarga Buyuk Britaniya fuqarolari kirib kela boshladi. Mahalliy qabila boshliqlari va bosqinchilar o'rtasida 1820, 1843, 1853, 1892 yillarda bir necha bor shartnomalar tuzilgan, ularda ajnabiylarga katta imtiyozlar berilgan. BAAning hozirgi hududi 1853 yilda shartnomali Ummon deb atalgan va aslida Buyuk Britaniyaning protektorati (yarim-mustamlaka) bo'lgan, bu holat XX asrning 60 yillariga qadar davom etib kelgan. Buyuk Britaniya o'z qo'shinlarini Fors ko'rfazidan olib chiqib ketgach 1971 yilning 2-dekabrda Birlashgan Arab Amirliklari tashkil etilgan.

BAA iqtisodiyoti neft sanoati rivojiga asoslangan, o'rganilgan neft zahiralari 7 mlrd. tonna bo'lib, asosan Abu-Dabi amirligiga to'g'ri keladi. Neft va gazni olish, uni eksport qilish yo'li bilan xalq boyligi yaratiladi.

Turizmi: Yilning xohlangan vaqtida quyoshning chiqib turishi, oliy darajadagi otellar, mo'jizaviy plyajlar, arzon bahodagi savdo, cho'l sayohati, suv sporti turlari, jinoyatchilikning ozligi - turizm uchun muhim ahamiyatga ega omillardir.

BAA – bu butun dunyo turistlari uchun dam olishning jozibali joyi sanaladi. U shayxlar va neft magnatlari davlati, jahondagi yayot darajasining eng yuqori joylaridan biri, urbanik ijod namunasi, u tuyalar yurti, inson yashamaydigan sahrolar, zamonaviy savdo markazlari va an'anaviy sharq bozorlari, xullas, g'arb va sharqning ajoyib qo'shilishidir.

Mamlakatning eng zo'r diqqatga sazavor joylarining top-o'ntaligi (2019 yil.): 1. Dubay shahridagi Burj-Xalifa osmon o'par binosi; 2. Dubaydagi Palma oroli; 3. Dubaydagi Tillo bozori (dunyoda tillo mashsulotlari eng ko'psotiladigan joy); 4. Dubaydagi Kuylovchi favvoralar (suv 150 metrgacha ko'tariladi, u dunyoning eng qimmat - 217 mln. dollarga qurilgan fantan); 5. Dubaydagi Blayd Vadi akvaparki; 6. Al-Ayn shahridagi Al-Jaxili qasri va uning atrofida park; 7. Al-Ayndagi (unung o'rtasida 20 metrli Parij Eyfel minorasiga o'xshab qurilgan minora bor) "Al-Ayn" gullar parki (bu yerda butun dunyodan keltirilgan gullar bor); 8. Abu Dabidagi mamlakatning birinchi prezidentiga bag'ishlab qurilgan Shayx Zayd oq marmarli masjidi (20 gektar yerni egallaydi); 9. Sharjdagi oilaviy dam olishga

mo'ljallangan Al-Jazira parki; 10. Al-Ayn sahari yaqinidagi Jebel Xafit tog'i, balandligi 1163 metr.

Mamlakatda xalqaro turizmga katta ahamiyat berilgan, asosan tijorat va plyaj turizmi yaxshi rivojlangan. Turizmni rivojlantirish uchun mamlakatda barcha imkoniyatlar ishga solingan, chunki undan katta daromad tushadi. BAAning eng katta va turizm jihatdan eng muhim amirligi Fors ko'rfazi sohilida joylashgan Dubay Amirligi («chigirtka lichinkalaridan chiqilmadi», Arab.) - Yaqin Sharqning eng yirik transport va savdo markazi. Amirlik poytaxti - Dubay shahri mamlakatning sayyohlik va tijorat markazi hisoblanadi. Amirlikda asosiy port kompleksi, 160 dan ortiq eng hashamatli mehmonxonalar, yirik savdo do'konlari, restoranlar va ko'ngilochar joylarning ajoyib turlari joylashgan.

Dubay shahri bir qancha diqqatga sazovor joylari bilan yildan yilga turistlarning katta oqimini jalb qilib kelmoqda:

- Dunyodagi eng katta bino - Burj-Xalifa. Hozirgi kunda ushbu imorat jahondagi eng baland inshootlar reytingida 1 o'rinni egallaydi. Balandligi 828 metrni tashkil etadi. Ushbu bino "shahar ichidagi shahar" tarzida loyihalashtirilgan. Ajoyib arxitektura loyihasining muallifi amerikalik arxitektur Edrian Smit bo'lgan. qurilish 2004 yilda boshlanib, 2010 yilda yakunlandi .

- Ski Dubay chang'i kurorti. Oddiy inson uchun yil bo'yi quyosh charaqlab turadigan issiq mintaqada chang'i kurortining bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Dubay shahri uchun ilojsiz narsaning o'zi yo`q. Eng yirik savdo markazida 22500 kvadrat metr maydonni egallagan chang'i kurorti qurilgan. Ushbu chang'i uchish kompleksi butun yil davomida ishlaydi .

- Dunyo arxipelagi. Ushbu ajoyib arxitektura asari ko`plab kichik sun`iy orolchalardan iborat. Agarda yuqoridan samolyot orqali arxipelagga qaralsa, dunyo xaritasini ko`rish mumkin.

- Palma orollari. Bu orollar Dubay shahriga doimo tashrif buyuradigan turistlar oqimining ko`payib borayotganligi uchun, ularni joylashtirish maqsadida qurilgan. Ushbu orollar shakli jihatidan palmalarni eslatadi.

- Deyra soat minorasi. Ushbu minora shahar tashqi ko`rinishining o`zgarganini ko`rsatgan timsol bo`ldi. Bu inshoot 1963 yilda, ya`ni neft eksporti boshlanganda qurilgan. Minora Mahtum Bridj ko`prigining darvozasi oldida turadi.

- Internet Siti Dubai. Ushbu rayon soliqlardan ozod qilingan va o`zining yuqori texnologiyalari bilan ajralib turadi.

- Dubai amirligining asosiy yo`li - SHayx Zayd Road. Ushbu yo`lsiz Dubai shahri bilan tanishish to`liq bo`lmaydi. Bu yo`l Dubai amiri bo`lmish shayx Mahtum bin Rashid al-Mahtunning sharafiga nomlangan.

- Dubai Marina. Bu rayon shaharning san`at qismini o`zida aks ettiradi. Bu yerda eng muhtasham mehmonxonalar, savdo va ko`ngilochar markazlar, zodagonlar saroyi va g`ayri oddiy binolarni ko`rish mumkin.

- Al Bastakiya - qadimiy rayon. Ushbu rayon 1890 yillardan buyon zamonaviy Dubayda qadimiyligi bilan alohida o`rin egallaydi.

- Burj al-Arab mehmonxonasi. Mehmonxonalar ichida butun dunyoga mashhur bu "Burj al Arab" mehmonxonasidir. Dubayga tashrif buyuruvchi turistlar jahonning eng g`ayri tabiiy mehmonxonasida to`xtashni istaydilar. Ushbu mehmonxonani so`z bilan ta`riflash mushkul, uning muhtashamligini ko`z bilan ko`rgan afzal. Arab tilida arab minorasi degan ma`noni anglatadi. U yelkan shaklida sun`iy orollar o`rtasida qurilgan. Uning balandligi 320 metr bo`lib, restoran va favvoralari turistlar qiziqishini orttiradi. Restoran 32000 kv. metrni tashkil etadi. Favvora esa olov shari shaklida bo`lib, 30 metr balandlikka otilib 12 qavatga ko`tariladi va qizig`i hech kim favvoradan ho`l bo`lmaydi. Mehmonxonada har kuni 100 xildagi yangi gullar Tayland va Janubiy Amerikadan olib kelinib, yasatiladi. 1200 dan ortiq ishchilar xizmat ko`rsatadilar va hattoki 6 ta ishchi xizmat ko`rsatadigan xonalar ham mavjud. Bu mehmonxonada arab saroylari ham mavjud va ularning narxi 9 barobar qimmat. Mehmonxonaning eng cho`qqisida lochin yashaydi.

Dubay bu sehrli shahar, uning ko`rinishi ertaklardek o`zgarib turadi. Qisqa qilib aytadigan bo`lsak, Dubai sharqona ertak shahridir.

Dubay shopping uchun juda katta imkohiyatlar bor, jahon brendlaridagi tovarlarni eng past narxlarda olish mumkin, bu yerda shopping - festivallar juda ko`p o`tkaziladi. Dubai bu zamonaviy arxitektura injenerlik va dizaynning hayratga qoldiradigan darajasi, bu yana dunyoning eng yirik akvaparki, zooparki, Shayx Said qasri, Jumeyra masjidi, cho`lda qurilgan dunyoda yagona Skay Dubai tog`-chang`i kurorti.

Sharj amirligi turistlarni birinchi navbatda narxlarning (shoppingdagilari ham, mehmonxona narxlari ham) pastligi bilan o'ziga jalb qiladi. Jumeyra esa plyajda dam olish uchun ideal joy. Sharj eng qadimiy amirlik, shopping va dengizda cho'milish uchun qulay joy, boshqa amirliklarga nisbatan tarixiy joylar va obidalar ancha ko'p.

Abu-Dabi mamlakatdagi yetti amirlikning eng kattasi, mamlakat poytaxti shu amirlikda, cho'lda paydo bo'lgan shahar, mamlakatning bank va siyosiy markazi, mamlakat tarixi to'g'risida ko'p narsalarni bilib olish mumkin bo'lgan joylar, muzeylar, Al Xuan qasri. Bu yerga ko'pincha biznes sayyohlar kelishadi, bu amirlikka yana "formula -1" va tuyalar chempionati kabi ekzotik hordiq chiqarishlar uchun borishadi.

Eng kichik amirlik – Ajman, Fujeyra esa qolgan 6 amirlikdek fors qo'ltig'ida emas, balki Ummon qo'ltig'ida joylashgan, bu amirlikka dayving va snopkling uchun borishadi, u eng yashil amirlik hisoblanadi, mineral suv manbalari ham bor. Ras-al Xayma va Umm-el-Kuveyn amirliklari turistlarga qiziq emas, turistik infrastruktura ham yaxshi rivojlanmagan.

Jadval.- 10.6. BAA'dagi eng zo'r joylar

Dubay	Burj Xalifa osmono'par binisi, Dubay Mol savdo markazi akvarium bilan birga, Palma oroli, Ski Dubay tog'chang'i kompleksi, tillo bozori.
Abu Dabi	Shayz zaid masjidi, "Ferrari World" parki, Kornish dengiz bo'yi, Yas orolidagi yovvoyi tabiatning Arab parki.
Sharj	Al-Kasb yayov yurish hududi, Al-Xish forti, Sharj choli parki.

Manba: muallif tomonidan qilingan.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 21.3 mln. tashkil etgan. Xalqaro turizmdan kelgan daromad esa 21.4 mlrd. dollarga yetgan. BAA'ni oilaviy turizm uchun eng qulay joy hisoblashadi, BAAga dam olishga keladiganlarning 50%i oilaviy juftalr yoki bolalar bilan kelganlar tashkil etadi. Butunjahon iqtisodiy forumi BAAga Finlyandiyadan keyin ikkinchi o'rindagi eng xavfsiz davlat maqomini berdi. BAA keladiganlar ham o'zgarmoqda, asr boshida bu yerga fors qo'ltig'i mamlakatlaridan hamda Yevropadan

boyvachalar kelishgan bo'lsa, hozir esa ko'proq o'rta sinf vakillari, ayniqsa osiyoliklar kelishmoqda. Ularning ichida hindistonliklar birinchi o'rinni egalamoqda. Xitoylik turistlar kelishi ham tez o'smoqda.

Mamlakatdan xorijga safar qilganlar soni 2018 yilda 18.9 mln. kishini tashkil etgan va ularning xarajati 18.0 mlrd.dollarni tashkil. Bu har bir mahalliy aholiga 2tadan xorij safari to'g'ri kelmoqda, bu esa hatto Germaniya kabi davlatlarnikidan ham yuqori.

Birlashgan Arab Amirliklari hukumati har yili ko'proq turistlarni jalb qilish maqsadida turli xil ko'ngilochar va biznesga oid xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish ustida ishlamoqda. Keyingi yillarda turizm sektorining aylanma mablag'lari ko'ngilochar xizmatlar, biznes, konferentsiya, ko'rgazma va boshqalar hisobiga oshdi.

Umuman olganda, 2020 yildan keyin Dubay quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan rivojlanishi ko'zda tutilgan edi:

1. Dubay - oilaviy turizmning xalqaro markazi. Diqqatga sazovor joylar va ko'ngilochar tadbirlarning ko'paytirilishi rejalashtirilmoqda.
2. Dubay - global ko'ngilochar yo'nalish, festival va bayramlar markazi.
3. Dubay - ishbilarmon turizm va biznes yuritish uchun eng samarali mintaq.

Baxrayn Fors qo'ltig'ida shu nomdagi arxepelagda joylashgan arab dunyosining eng kichik davlati. Arxepelag 3ta katta va 30ta mayda orolchalardan (jami 33ta orol) iborat, Saudiya Arabistonidan 16 km. sharqda joylashgan va u bilan ko'prik bilan bog'langan. Mamlakat maydoni 0.7 ming kv.km.ni tashkil etadi, aholisi 1.5 mln. kishini tashkil etadi (2020 yil).

Mamlakatga har yil millionlab turist kelmoqda va ularning asosiy qismi qo'shni arab mamlakatlaridan kelishadi, ammo boshqa davlatdan keladiganlar ham tez o'sib bormoqda. Ularni esa 5 ming yillik tarix, zamonaviy va liberal davlat reputatsiyasi hamda Fors qo'ltig'ining jozibasi, ayniqsa plyajlarda cho'milish va dayving o'ziga jalb qiladi. Suv osti flora va faunasi dunyoda hech qayerda yo'q deb hisoblashadi (bejiz, Injilda jannat shu yerlarda bo'lgan emas, deb yozishmagan). Turistlarni Baxrayndagi YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga quyidagi ob'yekt - Qalat-al-Baxrayn qasri, Arad va Rifa qasrlari ham jalb qiladi.

Baxraynning mashhur milliy muzeyi orol tarixiga taaluqli 9 ming yillik davrdagi moddiy qiymatlarni o'zida asraydi. Mamlakat poytaxti Manama shahrida mehmonxona biznesining ko'plab jahon brendlarining besh yulduzli mehmonxonolari bor.

2019 yildagi eng zo'r diqqatga sazavor joylarning top-o'ntaligi: 1. Baxraynning jahon savdo markazi (balandligi 240 metrli bino); 2. Qalat-al-Baxrayn forti (5000 yil oldin qurilgan fortikatsion kompleks); 3. Qirol Faxd ko'prigi (Saudiya Arabistoni bilan bog'lovchi ko'prik); 4. Al-Fatixning buyuk masjidi (7000 kishi sig'adigan) va u bilan yonma-yon bo'lgan qirollikning qasrlari kompleksi; 5. Al-Xamis masjidi (u 7 asrdan qurish boshlangan, faqat 20 asrda yakunlangan); 6. Mukarredagi Arad qo'rg'onining xarobalari (15 asrda qurilgan); 7. Baxrayn sahrosidagi 400 yildan beri yashab kelayotgan yakka holda bo'gan "Hayot daraxti"; 8. Riffa forti, bu qasrga hozir tarix muzeyi joylashgan; 9. Al-Jasra uyi, qirollikning yozgi dam olish uyi; 10. Baxrayn milliy muzeyi (Fors qo'ltig'i davlatlaridagi eng katta muzey).

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 12.1 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 3.8 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 2.9 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 4.0 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Qatar Fors qo'ltig'ida joylashgan kichik arab davlati, maydoni 11.6 ming kv.km, aholisi esa 2.8 mln. kishini tashkil etadi. Mamlakat territoriyasining asosiy qismi sahrodan iborat, iqlimi juda issiqligi bilan ajralib turadi. Qatar tropik quruq iqlimga ega. Yanvarning o'rtacha harorati +16 ° C, iyul +32 ° C.

O'n yil oldin Qatar davlatini ko'pchilik qayerdaligini ham bilmas edi. Hozir esa u qo'shnnisi Dubayga ko'p jihatdan yetib olishga harakat qilmoqda. YaIMning jon boshiga hisoblaganda jahonning lider davlatlar qatoriga chiqib oldi.

Qatar mamlakati okean bo'yida dam olish, arzon xaridlar va yumshoq islom an'analarining ajoyib kombinatsiyasiga ega. Qatarda dam olish uchun eng yaxshi vaqt - sentyabr-yanvar va mart-may. Bu yerda sifatli mehmonxonalar va qumli plyajlar bor. Ko'p plyajlarda hovuzlar bir -biriga bog'langan va suv slaydlari bilan jihozlangan. Fors ko'rfazi sho'ng'ish uchun ajoyib joy deb hisoblaniladi. Bugungi Qatar - bundan besh - yetti yil oldingi Dubay kabidir. Dam olish

maskani dinamik rivojlanmoqda. Ammo, hozircha bu unchalik mashhur emas, xizmatlar sifati bir xil, narxlar esa ancha past. Poytaxti - Doha, u ham asosiy kurort hisoblanadi.

Qatarga tashrif buyuruvchilar taksi xizmatlaridan foydalanishlari mumkin: ular arzon, mamlakat mutlaqo xavfsiz, hatto kechqurun ham ko'cha - ko'yda xotirjam yurish mumkin.

Qatarning diqqatga sazovor joylari: Doha (yoki Ad-Dura), Qatar milliy muzeyi, Qatar etnografiya muzeyi, "Alavuddin qirolligi" istirohat bog'i, hayvonot bog'i, Zubar viloyati, Umm-Salal-Muhammadga sayohat (Dohadan 25 km shimoldagi shahar).

Qatarda BAAdek supermarketlar va savdo markazlarining keng tizimi mavjud, u yerda siz arzon va sifatli to'qimachilik mahsulotlarini sotib olishingiz mumkin. Ko'p do'konlar mavsumiy sotuvlarni tashkil qiladi, Qatar do'konlaridagi narxlar Dubay markazlariga qaraganda past. Qatarda sayyohlarga taklif qilinadigan eng mashhur ko'ngilocharlardan biri bu safari. Birlashgan Arab Amirliklaridan farqli o'laroq, bu yerdagi safari o'ta ekstremaldir. Mart oyida Dohada golf bo'yicha Qatar ustalari o'rtasidagi jahon chempionati bo'lib o'tadi. Yoz oylarida "Qatar yoz mo'jizalari festivali" bo'lib o'tadi, uning doirasida Shimoliy dengiz jaz festivali o'tkaziladi.

Qatarda turar joy. Qatar birinchi darajali mehmonxonalar bilan mashhur. Qatardagi mehmonxonalar, xususan poytaxtda, yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi. Mehmonxonalarda qulaylik deyarli Yevropa darajasidan kam emas.

Mamlakatning diqqatga sazovor joylarining top-o'ntaligi, 2019 yil bo'yicha: 1. Doha shahri, mamlakat poytaxri, uning yuzi, nafaqat dunyoning eng tez o'sayotgan, balki katta muvoffaqiyatlarga erishayotgan shaharlaridan biri; 2. Dohaning Kornish nomli qirg'oq bo'yi, fors qo'ltig'ida qurilayotgan qator osmono'par binolar, mamlakatning vizit kartochkasiga aylanib ulgurgan joy; 3. Islom san'ati muzeyi, 2008 yilda qurilgan ajoyib arxitektura mo'jizasi, mamlakatning bosh muzeyi; 4. Espayer Tauer minorasi, 318 metrli, Dohadagi Sport-Siti sport kompleksi yonida qurilgan mamlakat simvoliga aylangan minora; 5. Al Kut fort, XIX asrda qurilgan 1978 yil muzeyga aylantirilgan; 6. Umm-sala -Muhammad forti, XIX asrda qurilgan, hozir esa muzey; 7. Zubayra forti, XX asr boshida qurilgan, hozir esa muzey; 8. Suk-vaqif bozori, Yaqin Sharqdagi turistga moslashtirilgan, arab kaloritini ko'rsata oladigan eng zo'r bozor; 9.

Dohadagi “Qatar” etnografiya qishlog’i, mahalliy xalqning ko’p asrlik madaniyati, urf-odatlar va an’analarini ko’rsatishga mo’ljallangan; 10. “Qatar qahrabosi” sun’iy orol, Dubayning Palma oroliga taqlid qilib qurilgan, 4 kv/km. maydonga ega. Eng prestij uylar qurilmoqda va ularni asosan xorijliklar sotib olmoqda. Mamlakatning asosiy kurortlari al-Xor va Doha.

Qatar milliy taomlari. Haqiqiy Qatar oshxonasi chet ellik sayyohlarga deyarli noma’lum. Asrlar mobaynida oziq - ovqat resurslarining keskin tanqisligi sharoitida yashovchi mahalliy aholi ovqat tayyorlash uchun juda qattiq retseptlar ishlab chiqishgan.

Deyarli barcha ovqatlar faqat uchta komponent asosida yaratilgan - har qanday shakldagi xurmo, tuya suti va sariyog’. Go’sht har doim tanqis bo’lib kelgan, shuning uchun shu kunlarda bu taomlarni faqat sahrodagi badaviy chodirlarida tatib ko’rish mumkin. Hamma restoran va kafelarda arab mamlakatlarining oshpazlik an’analariga ko’ra ko’proq yevropalikning taomlari tayyorlanadi - an’anaviy "xumus", "shish -kebab", "tikka", "mutabbal", go’sht yoki baliq ustida qovurilgan (mamlakat "dengiz" da joylashganligiga qaramay, qatarliklarning ratsionida baliqlar kam foydalaniladi). Hindiston va Pokistonning tegishli oshxonasi bo’lgan restoran va kafelari hamma joyda mavjud.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan turist sifatida 1.8 mln. kishi kelgan. Xorijiy turizmdan mamlakat ko’rgan daromad 5.6 mlrd.dollarni tashkil etgan.

10.5. Iordaniya, Livan va Izroil mamlakatlarining turistik salohiyati Iordaniya

Yaqin Sharqdagi kishik bir qirollik davlati, dini islom, maydoni 88.8 ming kv.km, aholisi esa 10.7 mln. kishini (2020 yil bo’yicha) tashkil etadi. Poytaxti – Ummon shahri, ma’muriy jihatdan 12 viloyatga bo’linadi. Mamlakat maydoning 90 foizi cho’llardan iborat. Ammo, mamlakat ajoyib bioxilma-xillikka ega. U yer yashil vodiylar, vohalar, hayratlanarli cho’l landshafllari va dengzining kaleydoskopik suv osti dunyosiga ega.

Iordaniyada turizm iqtisodiyotning muhim tarmog’laridan biri hisoblanadi. 2010 yilda bu mamlakatga 8.0 mln.dan ortiq turistlar kelishgan va mamlakat 4.5 mlrd.dollar daromad olgan. Ammo, 2011

yildan regiondagi siyosiy vaziyat tufayli turizm orqaga keta boshladi, 2019 yilga kelib oldingi turistlar oqimining yarmiga chiqib oldi.

Iordaniyaning diqqatga sazavor joylari, bu arxitektura yodgorliklari, go'zal tabiat peyzajlari, boy madaniy meros va son-sanoqsiz tarixiy hodisalardir. Ularning 2019 yilda top – o'ntaligi quyidagilardan iborat bo'lgan: 1. Tog' cho'qqisida qurilgan Ajlun shahridagi qasr; 2. Ummondagi qirol Abdullo I ning masjidi, yigirmanchi asrning 80-yillarida qurilgan, unda qirolning muzeyi ham bor; 3. Dengiz sathidan 400 metr chuqurda joylashgan O'lik dengizi, ajoyib va takrorlanmas tabiat, ming dardga davo suv; 4. Ummon shahrining Arki, u Gerkules ehromi xarobalari, Vizantiya cherkovi va Ummoviylar qasrining vayronalaridan iborat; 5. Vadi-Muso vodiysidagi Petra qadimiy shahri, eramizdan 2000 yil oldin tog'da o'yib ishlangan, qurilish 5 asr davom etgan, o'z davrining muhim savdo markazi bo'lgan. Shaharda diqqatga sazovor 800 ob'yekt bor. Bu joy 1985 yilda YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, bundan tashqari, hozirgi davrdagi turizmning yetti mo'jizasidan biri deb ham sanaladi; 6. Mamlakat shimolidagi Jerash qadimiy shahri, bu shaharga odamlar 6500 yildan beri yashashadi, shahar yigirmanchi asr boshida qumlar ostidan topilgan; 7. Mamlakat janubida, Akabadagi Vadi sahrosi, u "Mars peyzajlari" bilan mashhur, hozir Golivudning cho'ldagi filialidir; 8. Ummon shahridagi arxeologiya muzeyi; 9. Ummon shahridagi "Qasri Amra" qasri, u ham YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, 8 asrda qurilgan; 10. Madaba shahridagi Main issiq suv manbalari.

Mamlakatning go'zal joylaridan deb quyidagilar ham sanaladi - Iordan daryosi, Vadi Ram, Vadi-el-Mudjab, Shaumari va Azrak qoriqxonalarini, grek-rim shahri Umm Keys, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Um-er-Rasas, mamlakat shimolidagi tog'li joylar.

Iordaniyada O'lik dengizda tibbiy turizm xizmatlarini, eski shaharlarda madaniy turizmni, trekingni, shoppingni, Akaba qirg'oqi suvlarida dayvingni xush korishadi. Diniy turizm uch din – islom, iudaizm va xristian dini vakillari uchun sig'inishga arziydugan joylarga ega. Plyaj turizmi asosan O'lik dengizda va Akaba qo'ltigi plyajlarida rivojlangan. Akaba dengiz kruizlari uchun ham mashhur bo'lib bormoqda.

Tibbiy turizmni rivojlantirish bo'yicha Iordaniya dunyoda beshinchi o'rinni egallaydi. Yiliga 250 mingga yaqin bemor sog'lomlashtirish va davolanish uchun keladi.

Ekskursiya ko'p qilinadigan shaharlar: Ummon, Maxis, Vadi Ram, Irbid, Fuxeys. Iordaniyada tungi klublar arab dunyosida eng zo'r rivoj topgan.

Iordaniyaga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 4.2 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakat xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 6.2 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 1.5 mln. kishini tashkil etgan va ular 1.5 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

Livan o'zining strategik jihatdan juda qulay joyda joylashganligi uchun ham juda ko'p qiyinchiliklarni ko'rgan Yaqin Sharqdagi kichik davlat. Mamlakatning maydoni 10.45 ming kv.km, aholisi 7.8 mln. kishini tashkil etadi (2020 yil), aholining 90 foizi arablar, aholining 61 foizi xristianlar, 38 foizi esa musulmonlardan iborat. U faqatgina keyingi 60 yil ichida bir necha grajdanlar urushini (1958 y, 1970 y, 1975 y, 1982 y, 1990 yil) ko'rgan. Har bir urush turizmni oldingi rivojini yer bilan bitta qilgan. Mamlakat poytaxti Beyrut bir paytlar Yaqin Sharq Pariji maqomiga ega bo'lgan, arab dunyosining madaniy, moliyaviy va biznes markazi bo'lgan, hozir esa bu maqomdan butunlay mahrum bo'lgan. Livan ma'muriy jihatdan 6 muhofaza (viloyat)ga bo'linadi. Yirik shaharlari: Bayrut, Tripoli, Sayda va Zahla.

Qirg'oqlarning ko'pchiligi past, sohil tekislik. Sharqida Livan tog' tizmasi mamlakatning katta qismini egalagan. Iqlimi subtropik, yozi quruq, qishi sernam.

Turizm hozirgi paytgacha mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda. Turizm mamlakat YaIMning 20 foizini beradi. Livan Qadimgi Rim imperiyasi inshootlarining xarobalari, O'rta asr qo'rg'onlari, cherkovlari, masjidleri, g'orlari hamda go'zal O'rta Yer dengizi plyajlariga ega mamlakatdir. Arab dunyosida kam uchraydigan tog'-chang'i kurortlari (Farraya, Mzaar, Lakluk) bor davlatdir. Oxirgi grajdanlar urushidan oldin turizm mamlakat YAIMning 20 foizini bergan, u asr oxirida 10 foizni ham tashkil etmadi, hozir esa yana 20 foizli darajaga chiqib oldi. Masalan, 1995 yilda mamlakatga 450 ming turist kelgan bo'lsa, 2000yil 472 ming, 2005 yil 1140 ming kishi, 2010 yilda esa 2351 ming kishi kelgan. 2019 yilda ham 2010 yil darajasiga chiqa olgani yo'q.

Mamlakatda mavjud bo'lgan YUNESKOning jahon merosi ro'yxatidagi ob'yektlar: Qadimiy Anjar shahridagi Tetrapilon; Baalbekdagi qadimgi Timning Dionis ehromi (bu yerda butun Rim tarixidagi eng katta Yupiter ehromi, Afinadagi Parfenondan ham katta Baxusa ehromi, Merkuriy va Venera ehromlari joylashgan); Qadimiy port Biblos (Qadimiy finikiya ehromi, dunyoning eng qadimiy masjidlaridan biri, muzey, O'rta asr devori joylashgan); Uadiy-Kadish vodiysidagi ko'rinish va muqaddas kedr o'rmoni (4-13 asrlarda qurilgan bir necha monastrlar bor); Tir shahridagi Triumfiyal arka.

Qadimiy yodgorliklarga boy shaharlar: Beyrut (turist eng ko'p keladigan shahar), Tripoli (mamlakatning ikkinchi yirik shahri), Batrun, Deyr-el-Kamar, Zaxle, Sidon, Sayda (6000 yoshli shahar), Bayt-ed-Din.

Mamlakatning eng mashhur diqqatga sazavor joylari: Mseyla forti, XII asrda qurilgan Tripolidagi Raymund de-Sen-Jil arki, eramizdan oldingi XXIII asrda qurilgan Sidondagi dengiz Qasri, Mussa qasri, XII asrda qurilgan O'rta asr shahridagi Bibl qasri, XII asrda qurilgan Bofor qasri.

Mamlakatning eng mashhur muzeylari: Beyrutning milliy muzeyi (100 mingdan ortiq artefak bor), Beyrutdagi Amerika universitetining arxeologiya muzeyi, Robert Muavada xususiy muzeyi (Livanlik biznesmen Robert Muavada tomonidan 2006 yil ochilgan), Jebran muzeyi, Beyrutdagi 18 asrda qurilgan uyda joylashgan Sursok muzeyi.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 2.0 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 2018 yilda 8.7 mlrd. dollarni tashkil etdi. Har bir turistga to'g'ri keladigan xarajat 4350 dollarni tashkil etgan, bu esa dunyoda eng yuqori ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Bunga albatta, kazinolar va kechki Beyrutning ko'ngilochar joylari katta rol o'ynagan.

Izroil. Maydoni 20 770 km.km. Poytaxti — Quddus shahri. Aholisi – 8 865 000 kishi, YaIM 334,675 milliard (2020 yil jahon banki).



Rasm.-.10.1.Izroil va uning atrofi xaritasi.

Butun dunyoga mashhur Baytlahm (Beyt Lahm, Beyt Lahm), mashhur Quddusdan atigi 5-7 kilometr uzoqlikda joylashgan bo'lib, deyarli chetlari bilan birlashib ketadi. Eng qadimgi afsonalarga ko'ra, Iso Masih tug'ilgan va bugungi kungacha nafaqat nasroniylar, balki millionlab imonlilarning ziyoratgohi bo'lgan xristianlarning muqaddas shahri. Afsonaga ko'ra, mashhur shoh Dovud shu yerda tug'ilgan.

Baytlahmning asosiy diqqatga sazovor joyi 326 yilda qurilgan qal'aga o'xshash Masihning tug'ilish cherkovi hisoblanadi. Bu yerda, afsonaga ko'ra, Iso Masih tug'ilgan - toshga kesilgan kumush yulduz hali ham o'sha joyni belgilaydi. Xuddi shu shaharda Sent -Jerom hujayrasi va undan kam bo'lmagan mashhur diniy ob'ektlar - yunon pravoslav monastiri, Sankt Ketrin cherkovi bo'lgan frantsuz monastiri, sutli g'or va arman monastiri joylashgan. Har xil konfessiyali dindorlarning eng hurmat qiladigan joylaridan biri-shahardan chiqib ketayotganda Rohila yoki Kubat-Raxil qabri.

"Iordan" so'zi butun dunyo bo'ylab xristian ramzi, mashhur ziyorat va sayyohlik joyi sifatida tanilgan. Minglab ziyoratchilar har yili Injildagi voqealari sodir bo'lgan joyda vannalarga cho'milish uchun kelishadi. Hozirgacha, guvohlarning so'zlariga ko'ra, bu ajoyib daryoda mo'jizaviy shifo topilmoqda.

Quddus (ibroniycha Yerushala (y) im - dunyoning ibroniy shahridan tarjima qilingan) - Izroilning eng yirik shahri, mamlakatning qadimiy poytaxti. Madaniyatlar, yodgorliklar va xalqlarning ajoyib aralashmasi butun dunyodan sayyohlarni o'ziga

jalb qiladi. Quddusning tabiati ham hayratlanarli: yoqimli iqlim, ajoyib landshaftlar va go'zal yig'lash devori - yahudiy xalqining diniy yodgorligi va barcha nasroniylar uchun muqaddas joy - Muqaddas qabr cherkovi, shuningdek musulmonlar ziyoratgohi - Umar masjidi. Bugungi ta'sirlar turli madaniyatlar bilan badiiy tarzda bog'langan. Darhaqiqat, barcha tarixiy boylklarga qaramay, Quddus - dam olish sanoati rivojlangan zamonaviy shahar. Qulay pablar, klublar, kafe va suvenir do'konlari hech kimni befarq qoldirmaydi.

Quddus uch qismga bo'linadi - Sharqiy va G'arbiy Quddus, Eski shahar. Aholining katta qismi G'arbiy Quddusda yashovchi yahudiylardir. Quddus yozuvchilar, haykaltaroshlar, rassomlar va musiqachilarni o'ziga tortadigan o'ziga xos ruhiy muhitga ega. Har yili o'tkaziladigan xalqaro festivallar, eng yirik muzeylar - Yad Vashem majmuasi, Izroil muzeylari - madaniy hayot o'zining xilma - xilligi bilan ajralib turadi.

Muqaddas Iso Masihning cherkovi. U asrlar davomida bir necha bor vayron qilingan, qayta qurilgan, yong'inlardan aziyat chekkan, qayta qurilgan, kengaytirilgan. 1808 yilda katta yong'in bo'lgan, shundan keyin 1810 yilda hali ham mavjud bo'lgan shaklda qayta qurilgan. Iso Masihning cherkovi xristian cherkovining oltita konfessiyalariga bo'lingan: katolik, yunon pravoslav, arman, kopt, Suriya va Efiopiya, ularning har birida o'z ibodatxonalari va ibodat soatlari bor. Turli xristian cherkovlarining bir - biri bilan doimiy ziddiyatlari tufayli cherkovining kalitlari ikki musulmon oilasida saqlanadi. Hududda bir nechta faol monastirlar bor.

O'lik dengiz rayoni yoki ko'pincha Sho'r dengiz deb ataluvchi bu joylar shifobaxsh mineral termal suvlari, balchig'i, ayniqsa insonga ijobiy ta'sir etuvchi biometereologik sharoiti, boshqa tabiiy shifobaxshlik omillari uyg'unligi bilan ajralib turadi. Million yillar avval yer qobig'i siljishi oqibatida O'lik dengiz okeandan ajralib qolgan va tuz hamda minerallar ko'p miqdorda to'plangan jonsiz ko'lga aylangan. Uning suvida bromning miqdori 80, magniy 35, tuz 10 marta okeandagidan ko'p. Suvning alohida kimyoviy tarkibi quvvatni tiklash va organizmni yoshartirish xususiyatiga ega. Brom asab tizimini tinchlantiradi. Magniy tonusni rag'batlantirishga yordam beradi va terini tozalaydi. O'lik dengiz suvining zichligi xususiyati shundaki, unga tushgan suzishni bilmaydigan kishi ham cho'kib ketmaydi, bemalol suv yuzasida qalqib turaveradi.

O'lik dengiz boshqa mineral manbalardan: tog'ning toza suvlaridan, shifobaxsh buloqlardan to'yinadi. Ular o'zi bilan shifobaxsh balchiqlarni oqizib keladi. Turli xil moddalar va mineral tuzlarga boy bo'lgan bu balchiq organizmda moda almashinuvini yaxshilaydi. Kishini bardam qiladi, ko'pgina kasalliklarning oldini oladi. O'lik dengiz kurortlari kishilarning davolanish haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yuboradi. Davolanish jarayoni bu yerda boshqa muolajalarga qaraganda dam olish va ko'ngil ochishda ko'proq xush kayfiyat uyg'otadi. Izroil hukumati O'lik dengizi boyliklaridan uddaburoncha foydalanishni yo'lga qo'yib bilgan.

Qisqacha xulosalar. Bu region insoniyat tsivilizatsiyasining ikki muhim o'chog'i (Mesopatamiya va Misr) hamda uch ibrohimiya dinlari (yahudiylik, xristianlik va islom)ning vatani sifatida juda katta turistik potentsialga ega. Ammo, keyingi o'n yilliklarda ko'plab siyosiy mummolar, janjal va urushlar yurti hamdir. Shu sababli bu regionda turizm barqaror emas, aksincha bir rivojlanib, bir orqaga ketish xarakteriga ega. Bu regionda faqat Turkiya Yevropaning yaqinligidan oqilona foydalanib barqaror turistik mamlakat darajasiga chiq oldi, keyingi yillarda BAA ham shunday mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Saudiya Arabistoni islom dinining vatani va eng muhim sajdagohlar joylashgan yurt sifatida ziyoratchilar oqimini oshirib bormoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Janubi-G'arbiy Osiyo turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar qaysilar?
2. Janubi-G'arbiy Osiyoda qaysi mamlakat xalqaro turizmning asosiy markazlarini bo'lib hisoblanadi?
3. Janubi-G'arbiy Osiyodagi qaysi mamlakatlar eng qadimiy madaniyat va boy tarixga ega?
4. Saudiya Arabistonida asosan turizmning qaysi turi rivojlangan?
5. Iordaniya mamlakati turizmini jozibadorligini ta'minlovchi omillarni ayting.
6. BAA turizmini o'ziga xosligi nimada?
7. Turkiya mamlakati turizmining mashhur yo'nalishlari va kurortlari qaysilar?
8. Qatar qanday qilib xorijliklarni o'ziga jalb qilmoqda?
9. Izroilga birinchi navbatda nimani ko'zlab sayohat qilishadi?
10. Livan mamlakatining turistik salohiyatini tushuntirib bering.

Glossariy

Haj va umra ziyorati – Faqat islom olamiga mavjud bo'lgan ziyoratning o'ziga xos shakli, uni faqat bir mamlakatda, yani Saudiya Arabistonida amalga oshirish mumkin.

Pomukkale – Turkiyaning mashhur turistik go'shalaridan biri, uni olamning sakkizinchi mo'jizasi deyilishlari bejiz emas. U mamlakatning eng mashhur sog'lomlashtirish markazi hisoblanadi. Shu bilan birga ko'plab qadimiy inshootlarning mujassamligi bilan ajralib turadi.

Burj-Xalifa – BAA mamlakatida joylashgan dunyodagi eng katta bino. Hozirgi kunda ushbu imorat jahondagi eng baland inshootlar reytingida 1 o'rinni egallaydi. Balandligi 828 metrni tashkil etadi. Ushbu bino "shahar ichidagi shahar" tarzida loyihalashtirilgan.

Petra inshootlari – Iordaniya mamlakatining Vadi-Muso vodiysidagi Petra qadimiy shahrida joylashgan, eramizdan 2000 yil oldin tog'da o'yib ishlangan, qurilish 5 asr davom etgan, o'z davrining muhim savdo markazi bo'lgan. Umumiy tarzda shaharda diqqatga sazovor 800 ob'yekt bor.

Baytlahm – Izroildagi mashhur Quddusdan atigi 5-7 kilometr uzoqlikda joylashgan shahar bo'lib, deyarli chetlari bilan birlashib ketadi. Eng qadimgi afsonalarga ko'ra, Iso Masih tug'ilgan va bugungi kungacha nafaqat nasroniylar, balki millionlab imonlilarning ziyoratgohi bo'lgan xristianlarning muqaddas shahri. Afsonaga ko'ra, mashhur shoh Dovud ham shu yerda tug'ilgan.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Janubi-G'arbiy Osiyoning asosiy turistik markazlari qaysilar?

- a) Liviya, Suriya, Izroil;
- b) Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya;
- s) Baxrayn, Iordaniya, Liviya;
- d) Misr, Suriya, Baxrayn.

Qaysi regionda turizmning rivojlanishi yarim asrdan beri nomuntazam ravishda yildan yilga tebranib turishlar, ya'ni o'sish yoki pasayishlar kuzatiladi?

- a) Janubiy – Sharqiy Osiyoda;
- b) Janubiy Amerikada;
- c) Shimoliy Amerikada;
- d) Janubi- G'arbiy Osiyoda.

Turkiyada turizmning rivojlanishi qaysi davlat bilan bog`liq bo`lib qoldi?

- a) Rossiya;
- b) Dubay;
- c) Koreya;
- d) AQSh.

“The Telegraph” matbuot agentligi ma’lumotlari bo’yicha dunyoning eng qimmat binosi qaysi?

- a) Al-Haram kompleksi hisoblanadi, uning qiymati 100 mlrd. dollarga teng;
- b) Eyfel minorasi, 45 mlrd.doll;
- c) Burch a l- Xalifa, 25 mlrd.doll;
- d) Xitoy davlat bankining bosh binosi, 58 mlrd,doll.

Saudiya Arabistonida asosan turizmning qaysi turi rivojlangan?

- e) diniy turizm;
- f) plyaj turizmi;
- g) Dengiz turizmi;
- h) Madaniy turizm.

99 qavatli Burj-al-Mamlyak binoni qaysi mamlakat poytaxtida joylashgan?

- a) Saudiya Arabistoni;
- b) BAAning;
- c) Qatarining;
- d) Quvaytning.

Yanbu-el-Bahr, Silver-Sends, Al-Fanatir-Bich, Xalf-Mun-Bey, Obir qaysi mamlakatning eng mashhur kurortlari sanaladi?

- a) Saudiya Arabistoni;
- b) Misr;
- c) Iordaniya;
- d) Marokash.

Qaysi mamlakatning atrofi Qora, Marmar, Egey, Oq dengizlar bilan o’ralgan?

- a) Turkiya;
- b) Gretsiya;
- c) Bolgariya;
- d) Kipr.

Yozgi ta’tilning ommaviy markazlari: Alanya, Marmaris, Kushadasi, Bodrum, Fetxie, Kash kabilar qaysi mamlakatga tegishli?

- a) Turkiya;
- b) Gruziya;
- c) Ruminiya;
- d) Bagam orollari.

Qaysi qatorda Turkiyaning turistlar ko’p keladigan shaharlar tartibi to’g’ri keltirilgan?

- a) Antaliya, Istanbul, Mugla, Edirne, Izmir, Aydin va Anqara turadi.
- b) Anqara , Istanbul, Antaliya, Mugla, Edirne, Izmir, Aydin

turadi.

c) Istanbul, Anqara, Antaliya, Aydin, Mugla, Edirne, Izmir turadi.

d) Istanbul, Anqara, Edirne, Izmir, Aydin Antaliya, Mugla turadi.

Qaysi shahar "Turkiya kurortlarining sanaladi?"

- a) Antaliya;
- b) Istanbul;
- c) Bodrum;
- d) Pomukkale.

2018 yilda Turkiyaga eng ko'p qaysi mamlakatdan turistlar tashrif buyurgan?

- a) Rossiyadan;
- b) Germaniyadan;
- c) Buyuk Britaniyadan;
- d) Erondan.

Maryam Ona Cherkovi, Efes va Bergama antik teatrlari, Agora, Akropolis – qaysi shaharning turistik diqqatga sazavor joylari sanaladi?

- a) Izmir shahrining;
- b) Rim shahrining;
- c) Parijning;
- d) Afinaning.

Mahalliy aholi barcha aholining faqat 20-25%ini tashkil qiladi, xizmat qiluvchi ishchilarning 90% xorijliklar

tashkil etadi. Gap qaysi davlat haqida bormoqda?

- a) BAA;
- b) Singapur;
- c) Bagam orollari;
- d) Ummon.

Yilning xohlangan vaqtida quyoshning chiqib turishi, oliy darajadagi otellar, mo'jizaviy plyajlar, arzon bahodagi savdo, cho'l sayohati, suv sporti turlari, jinoyatchilikning ozligi - turizm uchun muhim ahamiyatga ega bu omillal qaysi davlatga xos?

- a) BAA;
- b) Saudiya Arabistoni;
- c) Turkiya;
- d) Hindiston.

Palma oroli, Tillo bozori, Kuylovchi favvoralar, Blayd Vadi akvaparki qaysi mamlakatning 2019 yildagi eng zo'r diqqatga sazavor joylari sarasiga kirgan

- a) BAA;
- b) Turkiya;
- c) Qatar;
- d) Quvayt.

Shayz zaid masjidi, "Ferrari World" parki, Kornish dengiz bo'yi, Yas orolidagi yovvoyi tabiatning Arab parki – qaysi shaharning eng zo'r diqqatga sazavor joyi sanaladi?

- a) Abu Dabi;
- b) Qatar;
- c) Quvayt;
- d) Dubay.

Jahon savdo markazi, Qirol Faxd ko'prigi, Al-Fatixning buyuk masjidi, Qirollikning qasrlari kompleksi, Al-Xamis masjidi qaysi mamlakatning 2019 yildagi eng zo'r diqqatga sazavor joylarning top-beshtaligi sanalgan?

- a) Baxrayn;
- b) Qatar;
- c) BAA;
- d) Ummon.

O'n yil oldin bu davlatini ko'pchilik qayerdaligini ham bilmas edi. Hozir esa u qo'shnnisi Dubayga ko'p jihatdan yetib olishga harakat qilmoqda. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Qatar;
- b) Baxrayn;
- c) Ummon;
- d) Quvayt.

Mamlakat maydoning 90 foizi cho'llardan iborat. Ammo, mamlakat ajoyib bioxilma-

xillikka ega. U yer yashil vodiylar, vohalar, hayratlanarli cho'l landshaflari va dengzining kaleydoskopik suv osti dunyosiga ega. Gap qaysi mamlakat haqida bormoqda?

- a) Iordaniya;
- b) Misr;
- c) Jazoir;
- d) Izroil.

Vadi Ram, Vadi-el-Mudjab, Shaumari va Azrak qoriqxonalarini, grek-rim shahri Umm Keys, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Um-er-Rasas. Bu qaysi mamlakatning eng zo'r joylari?

- a) Iordaniya;
- b) Izroil;
- c) Misr;
- d) Suriya.

Arab dunyosida kam uchraydigan tog'-chang'i kurortlari - Farraya, Mzaar, Lakluk qaysi mamlakatga tegishli?

- a) Livan;
- b) Iordaniya;
- c) Misr;
- d) Qatar.

XI MAVZU. AMERIKA MAMLAKATLARI TURIZMI. SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad Amerika qit'asi turizmining o'ziga xosligini o'zlashtirish hamda bu region mamlakatlarining turizmni rivojlantirish borasida erishgan yutuqlarini omil va sabablarini or'ganib olishdan iborat.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

11.1. Amerika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi

11.2. Amerika Qo'shma Shtatlari turizmi xususiyatlari

11.3. Kanada mamlakatining turizmi xususiyatlari

11.4. AQSh va Kanadaning milliy parklari

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Amerika mintaqasi, Shimoliy Amerika, Milliy park, Disneyland, qo'riqxonalar, diqqatga sazavor joy, tabiat mo'jizasi, tabiatni muhofaza qilish, tarixiy joy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристический менеджмент. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристический менеджмент. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
4. Арбузов А.Ф. География туризма. Учебник для студ. сред. проф. образования/А.Ф. Арбузов – М. Издательский центр «Академия», 2009. - 160с.
5. 19. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. - <https://www.labirint.ru/books/228973/> Учебник. - М., КноРус, 2016.
6. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
8. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
9. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебник. - М., 2014. 503с.

10. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
11. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие./ А.А.Самойленко. - Ростов н/ Д: “Феникс”, 2006.-368 с.
12. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
13. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
14. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
15. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
16. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](http://www.unwto.org/en/unwto-tourism-highlights-2019-edition).
17. [https://www.World’s most popular destination revealed](https://www.cnn.com/2018/09/07/travel/worlds-most-popular-destination-revealed/index.html) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
18. [www.Travel & Tourism Economic Impact 2017](http://www.unwto.org/en/unwto-tourism-economic-impact-2017).
19. <https://knoema.ru/atlas/>
20. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
21. www.wikipediya.ru

11.1. Amerika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi

Amerika mintaqasi xorijiy turistik tashriflar bo'yicha Yevropa va Osiyo mintaqalaridan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Qit'aning Butunjahon turizm tashkiloti tarkibiga kiruvchi turizm hududlari - Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Karib orollaridan iborat bo'lib, ular xilma-xil tabiat zonalari va iqlim poyaslariga bo'linadi.

So'nggi yillarda Amerikaning Karib havzasi, Markaziy Amerika va asosan Janubiy Amerika turizmining mavqei tobora ko'tarilib bormoqda.

Mintaqa bo'yicha xorijiy tashriflarning yarmi AQSh va Kanada mamlakatlariga to'g'ri keladi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Meksika mamlakatlari Amerika mintaqasining asosiy turizm markazlari hisoblanib, ularning turizm bozorini asosiy qismini Shimoliy Amerika mamlakatlari ta'minlaydi. Mintaqada xalqaro turistik tashriflar va xalqaro va ichki turizm tushumlari bo'yicha

birinchi o'rinda AQSh turadi. Mintaqaga qilingan xorijiy tashriflarning 35-50%i, xalqaro turizm tushumlarining 50-60%i AQSh mamlakatiga to'g'ri keladi. Mintaqa bo'yicha ikkinchi o'rinda Karib orollari turadi, bu hududga yiliga 30 million turistlar (bundan tashqari, kruiz laynerlarda 27 mln. kishi) tashrif buyurgan (2017y.). Janubiy Amerika mamlakatlarida nisbatan turizm kam rivojlangan, unga mintaqaning umumiy turistik tashriflarning 9-10%i to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab qilib regionda siyosatning beqarorligi, asosiy turistik hududlardan uzoq joylashganligi va iqtisodiy rivojlanishning notekisligini ko'rsatish mumkin.

Jadval. - 11.1. Amerika mintaqasiga qilingan tashriflar va ulardan kelib tushgan tushumlar dinamikasi 1970-2002 yillar

Yillar	Turistik tashriflar mln. kishi	O'rta cha yillik o'zgarishi %	Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi%	Turistik tashriflardan tushgan tushim mlrd. AQSh doll.	O'rtacha yillik o'zgarish%	Jahon turizm tushumlari ichidagi ulushi%
1970	42,33	-	25,5	4,556	-	26,8
1975	50,043	18,38	22,51	10,219	112,9	25,11
1980	62,387	22,67	21,33	25,503	149,56	24,67
1985	66,495	6,6	20,17	33,315	30,6	28,68
1990	93,424	6,89	20,40	67,138	17,73	26,04
1995	108,748	2,77	19,56	100,262	5,44	25,50
2002	114,854	-4,4	16,35	114,255	-4,8	24,1

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Amerika mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning 0.9%i Afrika, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga to'g'ri keladi. 5.5%i Sharqiy Osiyo va Tinch Okeanii mintaqasi mamlakatlariga, 9.0% esa Yevropa mintaqasi mamlakatlariga, 85.0%i Amerika mintaqasi mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Jadval. - 11.2. Amerika mintaqasi turizmi dinamikasi 1992-2002 yillar

Yillar	Xizmat ko'rsatilgan turistlar mln. kishi	O'rtacha yillik o'zgaishi %	Jahondagi umumiyd an ulishi%	Daromad mlrd. AQSh doll.	O'rtacha yillik o'zgarish%	Jahonda gi umumiy da ulushi%
1992	101,08	4,26	20,99	83,595	12,88	28,21
1996	115,511	4,30	19,51	106,378	6,1	25,15
2000	128,000	10,8	18,62	121,800	14,4	27,03
2002	114,854	-4,4	16,35	114,255	-4,8	24,1

Manba: Основные показатели развития туризма в 2003 году. ВТО.

Amerika mintaqasi 1970 yilda jahon turizm tashriflarining 25.5% ni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda turizm xarajatlarining o'sishi sababli muntazam ravishda o'sish sur'atining pasayishi kuzatilgan, 1985 yilga kelib Amerika makroregioni jahon turistik tashriflarining 20.2% ni tashkil etgan. 1985-1995 yillarda, turistik tashriflar bo'yicha o'sish kuzatilmagan, 1996 yilga kelib 19.5% ga tushib ketgan. 2000 yilga kelib xalqaro turistik tashriflar 10.8% ga o'sgan, lekin jahon bo'yicha, 18.6% ni tashkil etgan. 2001 yilda 6.1% ga 2002 yilda esa 4.4% ga pasayish kuzatilgan.

Jadval. - 11.3. Amerika makroregionining eng asosiy o'nta turistik davlati (xorijiy turistlar soni bo'yicha)

O'rin	mamlakat	2018 yilda	2017 yilda	Yillik o'sish
1	 AQSh	79.6 million	76.9 million	▲ 3.5
2	 Meksika	41.4 million	39.3 million	▲ 5.5
3	 Kanada	21.1 million	20.9 million	▲ 1.2
4	 Argentina	6.9 million	6.7 million	▲ 3.4

5	 Braziliya	6.6 million	6.6 million	▲ 0.5
6	 Dominika Republikasi	6.6 million	6.2 million	▲ 6.2
7	 Chili	5.7 million	6.5 million	▼ 11.3
8	 Kuba	4.7 million	4.6 million	▲ 0.2
9	 Peru	4.4 million	4.0 million	▲ 9.6
10	 Kolumbiya	3.9 million	3.6 million	▲ 7.4

Manba:www.vikipediya.ru

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Shimoliy Amerikadagi uch davlat birinchi uchtalikni egallab turadi va boshqa davlatlardan keluvchilar soni jihatidan keskin farq qiladi.Yillik o'sih faqat Chilida manfiy bo'lgan, Kanadada esa juda past o'sish bo'lgan, yani bor-yo'g'i 1.2 foizni tashkil etgan. Eng yuqori sur'at esa Peruda sodir bo'lgan.

Jadval. – 11.4. Amerika qit;asi davlatlarinig (top 20talik) xalqaro turizmدا turistlar oqimi, mln.kishi

t/r	davlatlar	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yilda 2017 yolg nisbatan o'sish, foizda	2018 yilda ulishi, foizda
	Amerika	150,432	210,810	215,684	2.3	100
1	AQSh	60,010	76,941	79,618	3.5	36.9
2	Meksika	23,290	39,291	41,447	5.5	19.2
3	Kanada	16,219	20,883	21,134	1.2	9.8
4	Argentina	5,325	6,710	6,942	3.4	3.2
5	Braziliya	5,161	6,589	6,621	0.5	3.1
6	Dominikan Rep.	4,125	6,188	6,569	6.2	3.0
7	Chili	2,801	6,450	5,723	-11.3	2.7
8	Kuba	2,507	4,594	4,684	2.0	2.2
9	Peru	2,299	4,032	4,419	9.6	2.0
10	Kolumbiya	2,385	3,631	3,898	7.4	1.8
11	Urugvay	2,349	3,674	3,469	-5.6	1.6
12	Puerto Riko	3,186	3,797	3,068	-19.2	1.4
13	Kosta Rika	2,100	2,960	3,017	1.9	1.4

14	Yamayka	1,922	2,353	2,473	5.1	1.1
15	Ekvador	1,047	1,608	2,429	51.0	1.1
16	Gvatemala	1,119	1,660	1,781	7.3	0.8
17	Panama	1,324	1,843	1,779	-3.5	0.8
18	El Salvador	1,150	1,556	1,677	7.8	0.8
19	Bagam orollari	1,370	1,439	1,627	13.1	0.8
20	Paragvay	465	1,560	1,181	-24.3	0.5

Manba:www.vikipediya.ru

Quyidagi jadvalda keyingi o'n yillikdagi o'zgarishga e'tibor bersak, bu makroregionda katta o'zgarish sodir bo'lmagan, shimoldagi uch davlat oldin ham, keyin ham liderlikni qo'ldan bermay kelmoqda. Paragvay va Ekvadorlarda katta o'sish bo'lgan, xolos. Puerto Rikoda esa o'tgan davr ichida hatto orqaga ketish ham sodir bo'lgan.

Jadval. - 11.5. Amerika qit'asi davlatlarining (top 20 talik) xalqaro turizmdan ko'rgan daromadlari, mln.doll.

t/r	davlatlar	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yilda ulishi, foizda
	Amerika	215,538	325,848	333,594	100
1	AQSh	137,010	210,747	214,468	64.3
2	Meksika	11,992	21,336	22,510	6.7
3	Kanada	15,830	20,325	21,936	6.6
4	Dominikan Rep.	4,162	7,184	7,561	2.3
5	Braziliya	5,261	5,809	5,917	1.8
6	Argentina	4,942	5,375	5,558	1.7
7	Kolumbiya	2,797	4,921	5,556	1.7
8	Panama	1,745	4,460	4,608	1.4
9	Kosta Rika	2,246	3,724	3,903	1.2
10	Peru	2,008	3,710	3,947	1.2
11	Bagam orollari	2,163	2,996	3,355	1.0
12	Puerto Riko	3,211	3,848	3,282	1.0
13	Yamayka	2,001	2,809	3,099	0.9
14	Chili	1,552	3,383	2,956	0.9

15	Kuba	2,187	3,186	2,903	0.9
16	Urugvay	1,509	2,558	2,344	0.7
17	Aruba	1,251	1,855	2,024	0.6
18	Ekvador	781	1,548	1,871	0.6
19	Gvatemala	1,378	1,566	1,549	0.5
20	Barbados	1,038	1,081	1,125	0.3

Manba:www.vikipediya.ru

Ko'ngil ochish va dam olish maqsadida turizmni ko'rib chiqsak, Amerika qit'asida keng rivojlanib bormoqda. Kelishlar bo'yicha Yevropadan keyin ikkinchi o'rinni egallagan Amerika hududi butun jahondan turistlarni jalb etadi. G'arbiy yarim sharda har o'n turistik kelishlarning yettitasi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi. Uning ulushi asta-sekin kamayib borayotganiga qaramay, hamon salmoqli bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda Karib havzasi mamlakatlari, Markaziy va ayniqsa Janubiy Amerika salmog'i ko'payapti.

Amerikada, Yevropadagi singari turistik oqimlarning kattagina qismi hudud ichida jamlangan. Ayniqsa Shimoliy Amerikaning uch davlati – AQSh, Kanada va Meksika o'rtasida turistik almashinuvlar jadal yo'lga qo'yilgan. BTT ma'lumotlariga ko'ra, AQShdan Meksikaga boradigan turistik oqimlar jahonda eng yirik hisoblanadi.

BTT prognozlarini bo'yicha Amerika bozorida kirish turizmida Yevropa, Osiyo -Tinch okeani hududi va Yaqin Sharq yaxshi istiqbollarga ega.

Xullas, turizm rivojlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, Amerika mintaqasi turistik tashriflar bo'yicha Yevropa va Osiyo mintaqalaridan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Asosiy turizm hududlari Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Karib orollari hisoblanadi. Mintaqa bo'yicha xorijiy tashriflarning yarmi Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada mamlakatlariga to'g'ri keladi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Meksika mamlakatlari Amerika mintaqasining asosiy turizm markazlari hisoblanib, ularning turizm bozorini asosiy qismini Shimoliy Amerika mamlakatlarining o'zi ta'minlaydi. Mintaqada xalqaro turistik tashriflar va xalqaro turizm tushumlari bo'yicha birinchi o'rinda AQSh turadi.

Umuman olganda Amerika turizmi Yevropa va Osiyodan keyingi asosiy turistik markaz bo'lganligini ko'rib o'tdik. Buning asosiy sababi mintaqa iqtisodining yuksak darajada rivojlanganligidir.

11.2. Amerika Qo'shma Shtatlari turizmi xususiyatlari

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh). Poytaxti Vashington shahri. Iqlimi - asosan kontinental iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Amerika Qo'shma Shtatlari Amerika qit'asining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Uning maydoni 9632.0 ming kv. km bo'lib, hududiy jihatdan uch qismdan iborat: 1. Asosiy qism. Butun hududning 84% ni egallaydi. Sharqdan G'arbga 4.5 ming, Shimoldan Janubga sal kam uch ming km. ga cho'zilgan. Shimoldan Kanada, Janubdan Meksika, Sharqdan Atlantika va G'arbdan Tinch okeani bilan o'ralgan; 2. Alyaska hamda Aleut orollari. Mamlakat hududining 16.0% ni tashkil etadi. Alyaska Kanadaning Shimoliy - G'arbiy qismi bilan chegaradosh; 3. Gavayi orollari. 24 oroldan iborat arxepelag bo'lib, mamlakat hududining 0.2% ni tashkil etadi. Aholisi – 333.8 mln. kishi (2020 - yil), tili - ingliz, dini - xristian, pul birligi - AQSh dollari. Jahondagi eng rivojlangan davlatlardan biri. U 50 ta shtat va Kolumbiya federal okrugidan tashkil topgan. Yirik shaharlari: Nyu-York, Los-Anjeles, Atlanta, Chikago, Xyuston, Detroyt, San-Frantsisko, Filadelfiya, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor. Milliy bayrami - 4 iyul - Mustakillik kuni (1776 - yil).

Turizm industriyasi Qo'shma Shtatlarga yuz milliardlab dollar daromad keltiradi (turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga to'g'ridan - to'g'ri hissasi 2015 yilda qariyb 500 milliard dollarni tashkil etdi). Bugungi kunda AQShda turizm bo'yicha markaziy hukumat organi yo'q. 1970 - yillardan boshlab Amerika Qo'shma Shtatlari federal hukumati turizmni tartibga solish siyosatini olib bormaydi, sayohatni tartibga solish asosan alohida shtatlarning ixtiyoridadir.

AQShning geografik o'rni tarixning barcha bosqichlarida mamlakat turizm industriyasini rivojlanishiga qulaylik yaratgan. Bu, avvalo dengiz chegaralarida ajoyib tabiiy bandargohlarning mavjudligi, ayniqsa, mamlakat hududining Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashganligi bilan bog'liq. Kanada bilan quruqlik

chegaralari ham tabiiy chegaralar, ya'ni daryo va ko'llar orqali o'tiladi savdo va turizm aloqalarining rivojlanishiga qulayliklar tug'diradi.

AQShda turizm iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanadi. Turizmdan ko'riladigan daromad bo'yicha u dunyoda birinchi, bu sohada 10.0 mln. kishi ish bilan band. Sotuvlar bo'yicha AQShning biznes sohasida ikkinchi hamda valyuta tushumi bo'yicha mamlakatning uchinchi daromad manbayidir.

Mamlakatning turizm tarixiga kelsak, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida AQShda shahar turizmi jadal rivojlangan. O'sha davrda Nyu-York, Chikago, Boston, Feladelfiya, Vashington, San-Frantsisko kabi shaharlar juda ko'p turistlarni o'ziga jalb qila boshladi. XX asr boshida avtomobilning tarqalishi bilan turizm rivoji yangi bosqichga chiqdi. 1945-1969 yillarda aviatsiyaning rivojlanishi sayohatni yanada oshirib yubordi.

AQShda juda katta rekreatsion potentsial bor, jahon ahamiyatidagi diqqatga sazavor joylar va muzeylar ham ko'p. Masalan, dunyoning top-o'n muzeydan 4 tasi shu yerda - Nyu-Yorkdagi Metropoliten, Los Anjelosdagi Getti, Chikagodagi san'at instituti muzeyi va Vashingtondagi milliy Galeriya. AQShda YUNEKONing moddiy va ma'naviy meroslar ro'yxatiga kirgan 23ta ob'yekt bor.

AQSh o'zining milliy parklari (ularning umumiy maydoni 32.0 mln. gektarni tashkil etadi), ko'ngil ochar parklari, festivallari, qimor o'yinlar markazi, golf o'yinlar o'tloqlari, tarixiy obidalari (mamlakat ahamiyatiga ega bo'gan 50 ming tarixiy ob'yekt bor, bundan tashqari, minglab shtat ahamiyatiga ega bolganlar bor), muzeylari, galleriyalari hamda go'zal va ran-barang tabiati bilan kishilarni o'ziga jalb qiladi. Mayami-bich, Kolorado daryosidagi Buyuk kan'yon, Yellovstoun hamda Kordelyeridagi qator milliy parklar va qo'riqxonalar (Sekvoya, Lassen Volkanik, Kreyter Leyk, O'lim vodiysi, Joshua-Tri, Petrifiyd-Forest, Bedlends, Shendona, Evergleyds), Floridaning mashhur plyajlari va ko'ngil ochar parklari, Niagara sharsharasi, Buyuk ko'llar, qariyb 4000 km cho'zilgan, basseyni mamlakat maydonining 40%ini qamram olgan Missisipi daryosi, bir paytlar mahalliy xalqdan 24 dollarga sotib olingan Manxetten oroli, uning osmono'par binolari, Brodveyi, Uoll-striti, poytaxtdagi Kapitoliy, "Oq uy", buyuk siyosatchilar yashagan va yashayotgan Jorjtaun va b. Quyidagi jadvalda AQShning eng mashur joylari keltirilgan.

Jadval. – 11.6. AQShning diqqatga sazavor joylar ro'yxati (2018y)

Diqqatga sazavor joy	Qaysi shtatda	Qaysi shaharda
Ozodlik ma'budasi	Nyu-York	Nyu-York
Taym skver	Nyu-York	Nyu-York
Las-Vegas - Strip	Nevada	Las-Vegas
Milliy aleya	Vashington okrug	Vashington
Fanel xoll	Massachusets	Boston
Magic Kingdom tematik park	Florida	Orlando
Disneyland tematik park	Kaliforniya	Anaxaym
Baliqchilik pristani	Kaliforniya	San-Frantsisko
Niagara sharsharasi	Nyu-York	Nyu-York
Greyt - Smoki - Mauntins milliy parki	Tenissi va Shimoliy Karolina	
Navy Pier	Illinois	Chikago
Guver plotinasi	Nevada	Las-Vegas
Universal Orlando Resort tematik park	Florida	Orlando
SeaWorld Orlando tematik park	Florida	Orlando
San-Antonio dengiz qirg'og'i	Texas	San-Antonio
Metropoliten muzeyi	Nyu-York	Nyu-York
Mall of America	Minnesota	Blumington
Disneyland kurorti	Kaliforniya	Anaxaym
Delaveri milliy rekeatsiya hududi	Nyu-Jersi va Pensilvaniya	
Universal Studios Hollywood	Kaliforniya	Yuniversal-siti
Vaykiki plyaji	Gavayi	Oxau
Tampa Bey botanika bog'i	Florida	Tampa
Amerikaning tabiiy tarix muzeyi	Nyu-York	Manxetten

Manba: World's most popular destination revealed (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018)

Mamlakat rang-barang landshaft va iqlimga ega, chunki u Alyaskaning qorli kengliklaridan qaqshab yotgan Janubiy – G'arb cho'llarigacha, O'rta Garbning keng dalalaridan Janibiy – Sharqning subtropik o'rmonlarigacha cho'zilib ketgan. Bu yerda o'zi bilan turli xil madaniyat, din, til, urf – odatni olib kelgan turli xalqlar o'z vatanlarini topishgan. Hozirgi paytda esa hayot darajasi dunyoda eng yuqori sanaladi. Turizm markazlari ham ko'p: Nyu-York, Gavayi, Los-Anjeles, Florida.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: xalqaro turizm markazlari asosan uchta hudud (Florida, Kaliforniya va shimoli - sharqiy shtatlar)ga ta'luqlidir. Qishda - sport turizmi, yozda - dengiz bo'ylari plyajlari. Nyu-York zamonaviy madaniyat va biznes markazi sifatida mashhur. Plyaj va kurort shaharlari - Keyp-Kod, Keyp-Xatteras, Virjiniya-Bich, Oshn-Siti, Uildud, Atlantik-Siti, Long-Aylend. Davlatmand turistlar ko'proq xususiy plyajlarda dam olishadi. Men shtati milliy istirohat bog'i bilan mashhur. Florida qishda dam olish maskani. Atlantikaning Florida qirg'oqlaridagi Mayami-Bichdan to Deyton-Bichgacha bo'lgan ko'plab kurortlari, otellari bor. Orlandodagi disneylend, Kanaveral burnidagi Kosmik tadqiqotlar markazi juda mashhur. Mayami porti. Los-Anjeles ham mashhur turistik markaz. U Gollivudning mashhur kino studiyalariga ekskursiyasi va Disneylendi bilan mashhur. San-Diego, San-Frantsisko, Las-Vegas qimor biznesi markazlari sifatida dong taratgan. Grand-Kan'on milliy istirohat bog'i. Texas plyajlari, tog'li - Vayoming, Kolorado, Montano shtatlaridagi rekreatsion turizm. Kembridj, Oksford, Sarbon madaniy turizm markazlaridir. Bu yerlarda otellar xizmatining oliy darajada rivojlanganligi bilan ham mashhur. Masalan, Sheraton Aeroportda (Filadelfiya) - beysbol o'yinining yaxshi yo'lga qo'yilganligi. Nyu-York, MGM (Las - Vegas) otellari.

AQShda turizm asosan 3 ta hudud Florida, Kaliforniya va shtatlarning shimoliy sharqiy qismida rivojlangan. AQSh aholisining 40%ga yaqini Nyu-York, Virjiniya, Men, Nyu-Xempshir Vermont, Massachusetts, Konnektikut, Rod-Aylend, Nyu-Jersi, Delaver, Merilend va G'arbiy Virjiniya shtatlariga kiruvchi shimoli-sharqiy qismda yashaydi. Uning iqlimi yozda dengiz bo'yida dam olish hamda

sportning qishki turlari bilan shug'ullanish uchun qulay.

Shimoliy Amerika tarixiy yodgorliklarga boy bo'lmasa ham, ularning aksariyat qismi aynan shu hududda joylashgan. Ayrim eski shaharlarda ko'chalar XVIII asrda qanday bo'lgan bo'lsa, o'sha holatda saqlanib qolgan. Ammo hudud, birinchi navbatda, Nyu-York shahri boshchiligida zamonaviy madaniyat va biznes markazi sifatida mashhur. Plyajlar tizimi shimolda Keyp-Kodedan boshlanib, janubda Keyp-Xatterasgacha davom etadi. Qirg'oqlar qum tepaliklaridan iborat. Long-Aylend shimoliy qirg'oqlari turlicha. Shu sababli parus sporti bilan shug'ullanish uchun qulay. Masalan: Nyuport rayonida (qimmatbaho va elita 2-uylar royoni) Nyu-York megapolisi badavlat aholisining shaxsiy plyajlarga mavjud bo'lgan 2-uylari joylashgan. Men shtati qirg'og'i toshlardan iborat bo'lganligi sababli, turizm kam rivojlangan. Bu yerda joylashgan Arkadiya milliy bog'i o'z mavqeiga asosan mamlakatning 2-bog'i hisoblanadi va 1 yilda 4 mln. kishini qabul qiladi. Florida shtatida turizm avvalgi asrning 70-yillarida qishki dam olish zonasi sifatida rivojlana boshlagan. Boy amerikaliklarning aksariyat qismi bu yerga qishda kelish uchun uylar qurganlar, ammo XX asrning 80-yillari shtatda katta o'zgarishlar bo'ldi va hudud ulkan turistik markazga aylandi. Mayami-Bich ulkan ko'ngil ochar tadbirlari bo'yicha nom qozongan. Shaharning shimolida elita villalariga boy Palm-Bich joylashgan. G'arbiy qirg'oqda Fort Meyers va Sankt-Peterburg oralig'ida yuqori sifatli plyajlar mavjud. Shtatning ko'zga ko'rinarli joylari – bu, Disneylend va Kosmik tadqiqotlari markazi hisoblanadi. Florida shtatida katta avtomobil yo'l tizimi mavjud. Shu sababli bu yerga avtoturistlarning katta miqdori keladi.

Mayami porti butun Amerika kruiz yo'lovchilari uchun darvoza hisoblanadi va bir yilda 1 mln. dan ortiq turistlarni o'tkazadi. AQSh shtatlari orasida keluvchilar miqdori va sarf-xarajat bo'yicha Kaliforniya shtati yetakchilik qiladi. Kaliforniya qirg'oqlari turli-tuman manzaralarga boy. Bu yerda qum plyajlari va qoyalar mavjud. Ammo shtatning ichki qismida dam olish va sayohat qilish uchun juda ko'p go'zal joylar ham bor. Masalan: bir yilda 3 mln. ga yaqin mehmon qabul qiluvchi mamlakat milliy parki – Yosemite parki mavjud. Los-Anjeles shtatning asosiy turistik markazi hisoblanadi. Bu yerda barchaga tanish Gollivud kinostudiyasi va bolalar oromgohi Disneylend mavjud. Kaliforniyaning boshqa yirik turistik shaharlariga

San-Diego va San-Frantsiskolar kiradi.

Kaliforniyaning yaqinida AQShning boshqa muhim turistik markazi Nevada shtatining Las-Vegas shahri va Arizona shtatining Grand-Kan'oni joylashgan. Las-Vegas shahriga 1987 yilda uni 16.2 mln mehmonlar ziyorat qildilar. Ular shahar byudjetiga 8.6 mlrd. dollar daromad keltirganlar. Shaharning mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishga katta mablag' ishlatiladi. Bu yerda dunyoning ulkan otellari «Nyu-York» va "MGM" kabi otellari joylashgan. Grand-Kan'on Kolorado daryosi yonidagi vodiya joylashgan. U mashhur milliy park sifatida joylashgan. Bir yilda bu yerga 3.5 mln mehmon tashrif buyuradi.

AQShning boshqa shtatlari ham ko'zga tashlanadigan joylarga boy. Masalan: Texasda go'zal plyajlar mavjud bo'lsa, Xyustonda kosmik tadqiqotlar markazi mavjud. Vayoming, Kolorado, Montana, Yuta shtatlari juda boy tabiiy resurslarga ega. AQShga keladigan chet el mehmonlari 2 ta asosiy guruhga bo'linadi: qo'shni bo'lgan mamlakatlar Meksika va Kanada hamda okean ortidagi mehmonlar. 1-guruh umumiy keluvchilarning 62%ini tashkil qiladi. Biroq Nyu-York, Gavayi orollari va Kaliforniya ham ular uchun muhim turistik markaz bo'lib kelmoqda. Qit'alararo mehmonlarning aksariyati AQShga Yevropadan (47%) va Osiyodan (31%) kelishadi. Yevropadan tashrif buyuruvchi sayohatchilarning bir yilda 2.5 mln. ga yaqinini britaniyaliklar, 3.3 mln. ga yaqinini esa yaponlar tashkil qiladi. Yaponiyalik mehmonlarning 2/3 qismi ko'proq Tinch okeani orollari - Gavayi yoki Guamga boradilar.

Qit'alararo mehmonlar mamlakat bo'ylab sayohati vaqtida o'rtacha hisobda 2 ta shtatda bo'ladilar. San-Frantsiskoga yaqin joylashgan rayon - Silikon vodiysi yuqori texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy markazi hisoblanadi. Shu sababli u ko'proq yaponiyalik turistlarni jalb qiladi. Chet el mehmonlarining kelishi quyidagicha: ularning asosiy qismi Nyu-Yorkka to'g'ri keladi va 19.9%ni tashkil qiladi, undan keyin Tinch okeani qirg'oqi (18.7%), Florida o'zining qirg'oq bo'yicha shtatlari bilan birgalikda 18.5%ni tashkil qiladi.

Las-Vegas dunyoning kazino va shoy – biznesining poytaxti hisoblanadi. Yilning 310 kuni quyoshli issiq iqlimli shahar – oazis feshenebl mehmonxonalar, restoranlar va kazinolar, teatr, kino-kontsert zallar, dunyoning mashhur binolarning nusxasi, cheksiz

atraksion va shoular reallik bilan fantaziyani qo'shib yuboradi va kishilarni o'ziga magnit kabi tortadi. San-Diego esa dunyoning eng katta plyaji bilan ko'plab turistlarni plyajda yil-o'n ikki oy dam olishga chorlaydi. Gavayi orollari esa dunyoning eng prestij dam olish joylarining top-ontaligiga kiradi. Bu afsonaviy kurortlar yurti Tinch okeanining qoq o'rtasida joylashgan va 17 ming kv.km. maydonga ega. Dayving va syorfiing uchun dunyoning eng zo'r joyi maqomini olgan. Oppoq plyajlar, tropik o'rmonlar, vulqonlarning ajoyib kraterlari, takrorlanmas shaharlari kishilarni o'ziga rom qiladi.

AQShda turizm infrastrukturasi yaxshi rivojlanganligi uchun mamlakat turli xil ish bilan, sport bilan, madaniyat bilan bog'liq tadbirlar o'tkazadi, masalan, birgina sportning jahon olimpiadasi 25 yil ichida 4 marta o'tkazilgan (1984 va 1996 yil yozgi hamda 1980 va 2004 yil qishki).

AQSh piyoda sayohatlar bilan ham mashhur, u mamlakat uchun milliy xobbi darajasiga chiqqan desak bo'ladi. Chunki mamlakat katta va rang-barang territoriyaga ega hamda kempinglar tizimi ham juda rivojlangan. Odatda turistlar ma'lum kempinggacha o'z mashinalarida boriashadi. Va keyin ma'lum marshrut bo'ylab piyoda sayrlar qilishadi. AQShda 8 ta peyzajli milliy so'qmoqlar nomini olgan marshrutlar juda mashhurdir. Bu so'qmoqlarda nafaqat amerikaliklar, balki ko'plab xorijliklarni ham ko'rish mumkin.

Amerika qit'asida davolash - sog'lomlashtirish turizmi bozorida shubhasiz AQSh yetkachi o'rinni egallaydi. Uning sog'liqni saqlashdagi yutuqlari (organlar va hujayralarni ko'chirib o'tkazish, kardioxirurgiya, plastik operatsiya kabilar) butun dunyoda tan olingan. Bu mamlakatning vrachlari va yordamchi tibbiyot xodimlari dunyoda eng malakali va mahoratli hisoblanadilar. Klinik komplekslar ilm-fan yutuqlarining eng so'nggi uskunalari bilan jihozlangan. Ammo, AQShda tibbiy yordam juda qimmat turadi. Shuning uchun ham tobora ko'proq amerikaliklar o'z salomatliklariga jiddiy e'tibor bilan qaraydilar. Turli kasalliklar oldini olish choralari ko'radilar va shu maqsadda kurortlarga boradilar.

Shimoliy Amerika kurortlarining asosiy turi – balneologik tipdagi kurortlardir. Ular barcha shtatlarda mavjud bo'lib, ammo AQShning markaziy qismidagi Arkanzas shtatida ko'proq joylashgan Xot-Springs, Xiber-Springs, Mammut – Springs kurortlari o'zining mineral suvlari bilan mashhur. Nyu-York shahri chekkasidagi Long-

Bich, Atlantika okeani qirg'og'idagi Xatteras, Shimoliy Karolina, Floridadagi Mayami–Bich, Kaliforniyadagi San-Diego va Santa-Kruz dengiz bo'yi iqlim kurortlarida dam olishga talab katta. Ko'l bo'yi kurortlari, ayniqsa Buyuk ko'llar ham mashhur. Ko'pchilik amerikaliklar dam olish va davolanish uchun Markaziy Amerika, Barbados, Kuba va Bagam orollarini ma'qul ko'rishsada, bu dengiz bo'yi kurortlari ham doimo gavjum.

AQShga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 79.7 mln. kishini tashkil etgan, bu dunyodagi uchinchi ko'rsatgichdir. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad esa 256.1 mlrd.dollarni tashkil etgan, bu ko'rsatgich bo'yicha u dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

Turistlar AQShga geyzerlar vodiysida bo'lish, Yellouston milliy parkida «tirik geologiya» paydo bo'lishini o'z ko'zlari bilan ko'rish uchun tashrif buyuradilar. Ulkan stalakitlar osilib turgan Karl Sbad g'orini tomosha qiladilar, Prezident Teodor Ruzvelt «Amerikaning buyuk diqqatga sazovar joyi» deb ta'riflagan Grand-Kan'on beqiyos panoramasiga mahliyo bo'ladilar. Kaliforniyaning qo'mloq plyajlarida cho'milib, dam olib huzur qiladilar. Ammo, tashrif buyuruvchilarni faqat boy tabiat go'zalliklarigina maftun etib qolmaydi. Xorijiy mehmonlarni AQSh poytaxti Vashington va Nyu-York Monxettening betonli osmon o'par binolari, Kolumbiya universiteti, banklar ko'chasi “Wall – street”, mashhur Bruklin ko'prigi, Metropolitan – opera maskanlari ham jalb etadi. Turistlarni boshqa Amerika shaharlari va shtatlari masalan Gollivud kinostudiyasi va «Disneylend» quvnoq parki joylashgan, Los-Anjelles shahri ham befarq qoldirmaydi.

Bu diqqatga sazovar joylar xorijiy turistlar bilan bir qatorda amerikaliklarning o'zlarini ham jalb etadi. Har yili amerikalik fuqarolar (ichki va xalqaro) 2.3 mlrd. dan ko'proq safar qiladilar. Bunda dam olish, sog'lomlashish, ko'ngilxushlik, tabiat, tarixiy – madaniy yodgorliklar bilan tanishish, tanishuvlar, qarindosh-urug'lar bilan uchrashuv asosiy o'rin egallaydi. Ularning ko'pchilik yo'nalishlari mamlakat ichkarisida, xorijda esa yuqorida ta'kidlaganidek, ko'proq qo'shni Meksika va Kanadadan o'tadi.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 92.6 mln. kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatgich bo'yicha ham dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Ularning qilgan xarajati esa 186.5 mlrd.dollarni tashkil etgan. Mamlakatdan chetga nisbatan kam turist sayohatga

chiqadi. Ularning aksariyat qismi qo'shni bo'lgan Meksika va Kanadada bo'lishgan. Bu mamlakatlarga boradigan 1 kunlik turistlarning soni ham ko'p. Meksikaga 50 mln kishi, Kanadaga esa 23 mln kishi to'g'ri keladi. Hududlararo turlarga amerikaliklarda talab kam. Uzoq yillar davomida hududlararo turistik almashinuvda birinchilikni qo'ldan bermaslikka qaratilgan yo'nalish Yevropada saqlanib turibdi. AQShdan xorijga safarning har to'rtinchisi Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi, ammo ko'hna dunyoga jo'nab ketishdagi uning ulushi qisqarmoqda.

Odatda amerikaliklarning okean ortiga safari uzoq muddatli va bir yo'la bir necha Yevropa davlatlariga tashrif buyurish hisobga olinib uyushtiriladi.

AQShda shakllanayotgan boshqa turistik oqimlar yo'nalishlari orasida Osiyo-Tinch okeani hududi ajralib turadi. Bu hudud Amerikaliklarda xuddi Yevropaliklardagi singari ommaviy e'tibor qozongan. Lekin Amerikadan kelayotgan turistlarni mamlakatlar (hududlar) bo'yicha taqsimlanishi biroz boshqacharoq. Amerikalik turistlar ko'proq Xitoyga tashrif buyurishadi, bunga Syangan (Gonkong), Yaponiya, shuningdek, Koreya Respublikasi, Singapur ham qo'shildi. Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyoga nisbatan amerikaliklar uchun ko'proq jozibali. Jahonning boshqa qolgan turistik hududlari – Afrika, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo amerikaliklar tomonidan juda sust o'zlashtirilgan. AQShdan kelayotgan turistlarning maqul ko'radigan hududlari G'arbiy yarim shardagi chiqish turizmi manzarasini belgilab beradi. Janubiy Osiyoning olis yo'nalishlari ichida esa Hindiston alohida ajralib turadi.

11.3. Kanada davlatining turizm iqtisodiyoti

Kanada. Poytaxti Ottava shahri. Iqlimi - mo'tadil kontinental iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Kanada shimoliy Amerikada joylashgan davlat bo'lib, hududining kattaligi jihatidan Rossiyadan keyingi o'rinda turadi. Maydoni – 9984.7 ming kv. km., aholisi – 37.8 mln. kishi (2020 - yil), aholisining asosiy qismi Yevropadan ko'chib kelganlarning ajdodi bo'lib, anglo – kanadaliklar umumiy aholining 40% ni tashkil etadi, Franko – Kanadaliklar aholining 28%ni, etnik guruhlar 33% ni, tub xalq hindular 533 ming

kishini, eskimoslar esa 33 ming kishini tashkil qiladi, tili - ingliz va frantsuz, dini - xristian, pul birligi - Kanada dollari. Yirik shaharlari: Monreal, Kalgari, Toronto, Vankuver, Vinnipeg, Gamilton. Milliy bayrami - 1 - iyul - Kanada kuni (1867 - yil). Kanada poytaxti - Ottava shahri. 1931-yilda suveren huquqi berilgan. Biroq, mustaqillik e'lon qilinmagan. Mamlakatni Birlashgan qirollik qiroli (yoki qirolichasi) tomonidan tayinlangan General-Gubernator boshqaradi.

Kanada iqtisodiy jihatdan jahonning eng yuksak rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Yalpi milliy mahsulotning hajmi bo'yicha sanoati rivojlangan davlatlar ichida mustahkam oldingi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Kanadada temir yo'llar, avtomobil yo'llar nihoyatda yaxshi rivojlangan. Asosiy portlari: Galifaks, Kvebek, Sent-Djons, Vankuver, Tander-Bey, Toronto.

Kanadada asosan ta'til va bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish uchun sayohat qilinadi. Umumiy sayohatlarning (kirish va ichki turizm) 64.7%i shu yo'nalishda bo'lib (36.7 mlrd CADi), atigi 35.3% i esa biznes turizmga to'g'ri keladi (20.0 mlrd. CAD).

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Ontario, Kvebek, Alberta provinsiyalari turizm markazlari hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Yaponiyadagi qarindoshlar va do'stlarning qisqa ta'tillarda, yakshanba kunlari avtomobillarda sayohat qilish juda keng tarqalgan. Ottava xalqaro aeroporti, muzeylari, milliy san'at markazi, Ontario orqali Trans - Kanada yo'llari, Buyuk ko'llardagi kemalar qatnovi turizmga katta imkoniyatlar beradi. Albertaning Edmonton markaziy maydoni, temir yo'llari, Edmonton - Ferbenks avtostradasining Alyaska (AQSh) bilan bog'langanligi, Vankuver porti. Monreal Nafis san'at muzeyi. Me'moriy yodgorliklari, cherkovlar hammasi turistlar uchun xizmat qilishga shay.

Kanada Shimoliy qutbdan subtropik rayonlargacha, Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha yoyilib yotibdi. Bu yerda rang-barang landshaftlar va tabiat hududlarini ko'rish mumkin. Mamlakatning qo'riqlanadigan hududlari 730.0 ming kv.km.(Buyuk Britaniya maydonidan uch marta katta maydon) tashkil etadi, 40ta milliy park (jumladan xalqaro ahamiyatdagi milliy parklar: Banf, Jasper, Maunt-Robson, Vud-Baffalo, Uoterton-Leyks, Gleysheer va Kluyen, Pasifk-Rim, Kutney, Yoxa, Oyuttik), juda ko'p miqdorda qo'riqxonalar va provinsial parklar mavjud. Ularda ekoturizm yaxshi yolga qo'yilgan.

Bu parklarda vikinglar bilan bo'g'iq joylarni, hindularning turmush tarzi va madaniyatini, 100 mingdan ortiq orollar go'zalligini, yovvoyi bizonlarni, oppoq bug'ilarni, tulienlar to'dasini, minglab tur qushlarni, ajabtavut shimol hayvonlarini, ko'chib yurgan aysberglarni, shimol yo'g'dusini ko'rish mumkin.

Mamlakatning diqqatga sazavor joylar topiga 2018 yilda quyidagi ob'yektlar o'rin olgan: Nort-dam de Monreal bazilikasi, Vankuverning afsonaviy Gestaun rayoni, Ottavadagi Kanadaning milliy galeriyasi, Kanadaning eng eski (1885y) Banf milliy parki, 50 metr balandlikdan tushayotgan juda katta suv - Niagara sharsharasi, Monrealdagi "Muqaddas Iosifning oratoriyasi" cherkovi, Vankuver oroli, Monrealing tarixiy eski markazi, mamlakatning eng eski (1956y.) Vankuver akvariumi, Ottavadagi Bibi Maryam bazilikasi, van Dusen botanika bog'i, Kapilano osma ko'prik va Vud-Baffalo bizonlar milliy parki.

Mamlakatda yayov yirish uchun, rafting, kayaking, dayving, baliq ovlash ichun, ko'llarda dam olish uchun, plyajlarda cho'milish uchun joylar juda ko'p. Kanadaning eng muhim qorli tog'- chang'i kurortlari: Big-Vayt, Vistler – Blekkomb, Kimberli, Silver-Ster, San-Piks, Tremblan, Ferne.

Kanada davlati ikkinchi jahon urushidan keyin turizm industriyasi bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Bular sayohat, turizm, sport va faol dam olish, san'at va madaniyat ushbu yo'nalishlarning har birida davlat tomonidan ta'sis etilgan, agentliklar u yoki bu ma'suliyatni zimmasiga olgan holda faoliyat olib boradilar. Ular bir – birlariga yordam beradilar va bir – birlari bilan ma'lum bir majburiyatlar asosida ish olib boradilar.

Urushdan keyingi o'n yilliklarda Kanada hukumati mamlakat ichki zahiralarini birinchi navbatdagi vazifalarini bajarish uchun o'z imkoniyatlarini ishga solib bir qator umum - xalq madaniy tadbirlarini ta'sis qildilar. 1950 yillar jismoniy tarbiyaga, 60-yillarda yoshlar bilan ishlash va ularni muhofaza qilishga, 70-yillarda madaniyat va madaniyatlararo muloqotlar, 1980-1990 – yillarda yuqoridagi mavzularni birlashtiruvchi oila va nikoh mavzulariga e'tibor qaratilib, bir qancha dasturlar hayotga tadbiq etildi, bularning hammasi mamlakatda turizmni rivojlanishiga imkon yaratdi.

Kanadada bir qancha katta ko'ngil ochar milliy parklar va 20 dan ortiq milliy – tarixiy parklar va manzillar bunyod etilgan. Kanadaning

turizm industriyasi AQSh turizmini eslatadi. Turistlar uchun Ontario va Kvebek, Alberto va Britaniya Kolumbiyasi yuqori mavqega ega. Kanadada xalqaro turizmida chet el turistlarining kelishi 1990 yillargacha turg'un holatda bo'lgan. 1990–2000 yillarda chet ellik turistlar tashrifida bir muncha o'sish kuzatilgan.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar miqdori 2018 yilda 21.1 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 2018 yilda 22.0 mlrd. dollarni tashkil etgan. Kanadaga chet el mehmonlarining kelishi 90-yillarining boshlarida barqaror holatga chiqdi. Faqat, AQShdan keluvchi turistlar soni 1987 yilda 12,7 mln. kishidan 1992 yilda 11,8 mln. ga tushgan. Shu bilan birga Osiyo mamlakatlaridan keluvchi turistlar soni ham kamaygan. Kanada bozorini asosan AQSh, Buyuk Britaniya va Frantsiya to'ldirib kelmoqda. Ular uchun Kanadaning eng qiziq joylari: Toronto, Monreal, Vankuver, Niagara, Kvebek, Viktoriya, Ottava, Edmonton, Galifaks, Vinnipeg, Redjana, Madlin oroli.

Xorijga sayohat qilganlar soni 2018 yilda 26.0 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 33.6 mlrd. dollarni tashkil etgan. AQSh bozorining 18,9 mln. ini kanadaliklar tashkil qiladi. Kanadalik turistlar AQShning janubida joylashgan yozgi va qishki kurortlarga, Meksika va Karib basseyniga qiziqishadi. Yevropa, jumladan, Buyuk Britaniyaga kanadaliklar asosan qarindosh va do'stlarini ko'rish uchun boradilar.

11.4. AQSh va Kanadaning milliy parklari

Amerika Qo'shma Shtatlarida 367 ta milliy parklar bo'lib, ular mamlakatning barcha burchaklarida barpo etilgan, bular joy va landshaftning butun mo'jizalarini o'zida aks ettirgan.

1916 yil AQSh Kongresi tomonidan, tabiatni muhofazalash, tabiatning bunday mo'jizalarini kelajak avlodga qanday bo'lsa shundayligicha asrash, bu go'zalliklardan kelajak avlodni bahramand qilish maqsadida milliy parklar xizmati tashkil etilgan.

Milliy parklar xizmati dunyoga mashhur Yellouston va Yosemite parklaridan tashqari, boshqa milliy parklarni hamda ko'plab tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan inshootlarni ham nazorat qiladi.

Bostondagi Ozodlik so'qmog'i, Filodelfiyadagi Mustaqillik Zali, Gavayidagi Arizona kemasiga bag'ishlangan me'morial, ko'plab

madaniyat yodgorliklari, arxeologik qazilmalar, yelkanli kemalar, Kolonial davri kiyimlari, fuqarolar urushi davri hujjatlari va shunga o'xshash ko'plab tarixiy yodgorliklarni park xizmati o'z himoyasiga olgan.

Milliy parklar xizmati Arktika tundralaridan tortib Marjon qoyalrigacha bo'lgan ekotizimlarni, havoni va iste'mol qilinadigan suv resurslarini ham o'z nazoratiga olgan. U iqlim o'zgarishlari va biologik o'zgarishlar bo'yicha ham xalqaro loyihalarda ishtirok etadi.

Amerikaliklar «Bizning milliy parklarimiz kabi tabiiy mo'jizalar, mutlaqo demokratik amerikacha hayot dunyoning hech bir burchagida yo'q, mamlakat butun boyliklari bilan xalqnikidir», degan asosiy shiorga tayanadilar. O'ta go'zal tabiat mo'jizalari, tabiiy landshaftlarni saqlash va asrash, ularning asosiy maqsadi, bularni ko'rib insonlar zavqlansin va lazzatlansin, lekin Amerikaning bunday noyob tabiiy boyliklari inson shafqatsizligi bilan toptalmasin, degan g'oyaga amal qiladilar.

Keyingi yigirma yil mobaynida tizimga yana ancha qo'riqxonalar qo'shildi. Milliy parklarning yangi turlari – shahar dam olish hududlari, daryo buyi qo'riqxonalari, sayyohlik qo'riqxonalari, tarixiy joylar park xizmati himoyasiga olindi.

Tarixiy joylar va qo'riqxonalar tizimlariga kiruvchi 367 ta hudud 80 million akr yerni egallaydi. Turli milliy parklarning o'lchamlari ham turlicha. Masalan: Vrangeldagi milliy park va Alyaskadagi Muqaddas Elyas parklari 13 million akr yerni egallagan bo'lsa, Tadeush Kostyushko milliy me'moriali atigi 0,2 akr yerni egallagan.

Amerika milliy parklariga har yili 300 million sayohatchilar tashrif buyurib, undagi butun go'zalliklar, tabiat mo'jizalarini ko'rib zavqlanadilar va u yerdagi xizmatlar va dasturlardan to'la – to'kis foydalanadilar. Hozirgi kunda ko'p yillar muqaddam park xizmati o'z oldiga qo'ygan vazifalari o'zgarib bormoqda, chunki hozirgi kunga kelib har bir parkning o'ziga xos bo'lgan ekotizimini saqlab qolish, noyob yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosini asrab qolish va himoyaga olish vazifalari o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Kanada. Shimoliy Amerikaning ikkinchi mamlakati Kanadada 29 ta milliy parklar va 20 dan ziyod milliy tarixiy parklar hamda tabiiy mo'jizalarga boy bo'lgan manzillar mavjud. Eng go'zal tog' yuksakliklari hududida joylashgan Banf milliy parkiga 1885 yilda asos

solingan va bu Kanadada birinchi milliy park tizimi bo'lib hisoblanar edi. Hozirgi kunga kelib esa uning tarkibiga Jasper, Ku-tene, Yoxova Revelstok milliy parklari, bir necha mahalliy parklar va qo'riqxonalar manzarali tog' cho'qqilariga (Britaniya Kolumbiyasi va Alberta provintsiyalari) tutashib ketgan. Bu milliy parklarga poezdlarda (Kanada Tinch Okean temir yo'li), Avtomashinalarda (Transkanada shossesi), shuningdek, mahalliy aviakompaniyasi xizmatlaridan foydalanib sayohatchilar tashrif buyuradilar.

Kanada davlati milliy parklar to'g'risdagi qonunda «Milliy parklar Kanada xalqi uchun – Kanada xalqining dam olishi va ko'ngil ochishi hamda tabiat mo'jizalaridan zavq olishi uchun bunyod etilgan va ular kelgusi avlodlarga ilk go'zalligini saqlagan holda yetkazib berilishi shart», deb yozilgan, bu qonunga hozirgi kunga qadar Kanada xalqi amal qilib keladi.

Kanada milliy parklarida sayyohlik xizmatlari bugungi kun talabi darajasida rivojlangan, ko'plab Shveysariya uslubidagi chang'i klublari, kurortlar, sport markazlari, xushmanzara joylarda alohida dam olish uylari mavjud. Kanadada va ehtimol butun dunyodagi eng katta park, Kanadaning Shimoliy G'arbiy hududi Alberta provantsiyasida joylashgan Vud Baffalo milliy parki hisoblanadi. Bu milliy park 4 million 480 ming gektar yerni tashkil etadi va unda dunyodagi eng yirik yovvoyi bizon podalari yashaydi. Bu park tabiat qo'riqxonasi sifatida muhofaza qilinadi, turistlarning ommaviy ravishda sayohatlarga borishlari taqiqlanadi.

Qisqacha xulosalar. Amerika regionu juda katta turistik potentsialga ega bo'lgan regionlardan biri sanaladi. Bu potentsialdan faqat Shimoliy Amerika mamlakatlari - AQSh va Kanada oqilona foydalana olishgan. Bu davlatlar o'zlarida farovon hayot yarata olib, turizmni rivojlantirishga yigirmanchi asrning boshidan beri e'tibor berib kelishmoqda, jumladan, AQSh dunyoning turizm, ayniqsa, ichki turizm eng yaxshi rivojlangan davlati sanaladi. Kanada esa yaqin paytlargacha jahonning turistik top-o'ntalik qatorida edi. Bu ikki davlat o'zida milliy parklar, qo'riqxonalar tashkil etish va ularni oqilona yurutish borasida ham dunyo mamlakatlariga o'rnak bo'lib kelishmoqda.

Kanada hukumati ikkinchi jahon urushidan keyin dam olish va ko'ngil ochish ishlari bilan jiddiy ravishda shug'ullana boshladi. Bular, sayohat, turizm, sport va faol dam olish, san'at va madaniyat

sohalari bo'yicha, ushbu yo'nalishlarning har birida davlat tomonidan ta'sis etilgan agentliklar butun mas'uliyatni zimmalariga olgan holda faoliyat olib boradilar. Ular bir – birlariga yordam ko'rsatadilar va bir – birlari bilan ma'lum bir majburiyatlar asosida ish olib boradilar.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Amerika mintaqasini asosiy turizm markazlarini o'ziga xos xususiyatlarini tushintirib bering.
2. AQSh mamlakati turizmini jozibadorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. AQShda turizm asosan qaysi shtatlarda rivojlangan?
4. AQShdagi qaysi shaharlar zamonaviy madaniyat va biznes markazi sifatida dunyoga mashhur?
5. Nyu-York shahri turizmiga xarakteristika bering.
6. Kanadada asosan qanday turizm turlari rivojlangan?
7. Kanada mamlakati turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar qaysilar?
8. Amerika parklarining turizmdagi tutgan o'rnini aniqlang.
9. «Banf» milliy parkiga qachon asos solingan va u qaerda bunyod etilgan?
10. Kanada mamlakati «Milliy park»lari to'g'risidagi qonuni va uning mazmuni nimalardan iborat?
11. Yevropa mintaqasidagi qaysi mamlakatlar fuqarolari AQSHga ko'proq sayohatlar uyushtiradilar?

Glossariy

Kiruvchi turizm - faoliyati to'lanmaydigan turistik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o'zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati.

Chiquvchi turizm - bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to'lanmaydigan sayohati, tashrifi.

Keyp-Kode - AQShning plyaj turizmi rivojlangan shimoliy hududi. Hudud, birinchi navbatda, Nyu-York shahri boshchiligida zamonaviy madaniyat va biznes markazi ahlining sevimli dam olish maskani.

Keyp-Xatteras - AQShning qirg'oqlari qum tepaliklaridan iborat bo'lgan janubiy hududi. Bu hududda dengiz ancha iliq bo'lganligi uchun shimolliklar oqib keladigan qulay joy sanaladi.

Long-Aylend - AQShning mashhur plyajlaridan biri, shu bilan birga shimoliy qirg'oqlari turlicha Parus sporti bilan shug'ullanish qulay bo'lgan shimoliy qirg'oq.

Muqaddas Elyas - AQShdagi milliy parkning nomi. Alyaskada joylashgan, Muqaddas Elyas parki 13 million akr yerni egallagan va uning hayvonot dunyosi ancha boy.

Disneylend – Ko'ngil ochar turizmining eng mashhur turistik ob'yektlaridan biri bo'lgan tematik parklarning keyingi yillarda jahon bo'ylab tarqalib borayotgan turi, uning vatani AQSh hisoblanadi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Amerika mintaqasi xorijiy turistik tashriflar bo'yicha mintaqada nechanchi o'rinda turadi?

- a) ikkinchi;
- b) uchinchi;
- c) turtinchi;
- d) birinchi.

Amerika qit'asining Butunjahon turizm tashkiloti tarkibiga kiruvchi turizm hududlari qayerlar hisoblanadi?

- a) Shimoliy Amerika, markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Karib orollari;
- b) Shimoliy Amerika, markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Ibiza orollari;
- c) Shimoliy Amerika, markaziy Amerika, Janubiy Chili va Karib orollari;
- d) Shimoliy Amerika, markaziy Chili, Janubiy Amerika va Karib orollari.

Amerika mintaqasi bo'yicha xorijiy tashriflarning deyarli yarimi qaysi mamlakatlariga to'g'ri keladi?

- a) AQSh va Kanada;
- b) Kanada va Chili;
- c) AQSh va Argentina;
- d) Argentina va Chili.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Meksika mamlakatlari qaysi mintaqaning asosiy turizm markazlari hisoblanadi?

- a) Amerika;
- b) Osiyo;
- c) Avstraliya;
- d) Argentina va Chili.

Amerika mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning necha %i Afrika, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga to'g'ri keladi?

- a) 0.9 %;

- b) 0.8 %;
- c) 0.7 %;
- d) 0.6 %.

Mayyami porti qaysi kruiz yo'lovchilari uchun darvoza hisoblanadi?

- a) Amerika;
- b) Kanada;
- c) Chili;
- d) Argentina.

AQSh shtatlari orasida qaysi shtat xorijiy turistik tashriflar bo'yicha yetakchilik qiladi?

- a) Kaliforniya;
- b) Arizona;
- c) Las – Vegas;
- d) Nyu-York.

Kaliforniyaning Los-Anjelosdan boshqa yirik turistik shaharlariga qaysilar kiradi?

- a) San – Diego va San – Frantseskolar;
- b) Arizona va San – Frantseskolar;
- c) Las – Vegas va Arizona;
- d) Nyu-York va San – Diego.

Qaysi shtat yaqinida AQShning boshqa muhim turistik markazlari Nevada shtatining Las – Vegas shahri va Arizona shtatining Grand – Kanon shahri joylashgan?

- a) Kaliforniya;

- b) Arizona;
- c) Las – Vegas;
- d) Nyu-York.

AQShga keladigan qayerlik mehmonlarning 2/3 qismi ko'proq Tinch okeani orollari – Gavay va Guamga tashrif buyuradilar?

- a) Yaponiya;
- b) Italiya;
- c) Ispaniya;
- d) Tailand.

Qit'alararo mehmonlar mamlakat bo'ylab sayohati vaqtida San – Frantsiskoga yaqin joylashgan rayon – qaysi vodiysiga ko'proq tashrif buyuradilar?

- a) Silikon;
- b) Arizona;
- c) Grand – Kanon;
- d) Nevada.

Kanada shimoliy Amerikada joylashgan davlat bo'lib, hududining kattaligi jihatidan qaysi mamlakatdan keyingi o'rinda turadi?

- a) Rossiyadan;
- b) Xitoydan;
- c) Braziliyadan;
- d) Avstraliyadan.

Kanada davlati qachondan turizm industriyasi bilan jiddiy shug'ullana boshladi?

- a) ikkinchi jahon urushidan keyin;
- b) birinchi jahon urushidan keyin;
- c) mustaqillikdan keyin;
- d) 1955-yildan keyin.

Amerika Qo'shma Shtatlarida nechta milliy parklar bor?

- A) 367 ta;
- B) 1368 ta;
- S) 2369 ta;
- D) 240 ta.

Qayerliklar «Bizning milliy parklarimiz kabi tabiiy mo'jizalar, mutlaqo demokratik amerikacha hayot dunyoning hech bir burchagida yo'q, mamlakat butun boyliklari bilan xalqnikidir», degan asosiy shiorga tayanadilar.

- A) Amerikaliklar;
- B) Kanadaliklar;
- S) Braziliyaliklar;
- D) Meksikaliklar.

Qaysi parkiga 1885 yilda asos solingan va bu Kanadada birinchi milliy park tizimi bo'lib hisoblanar edi?

- A) Banf milliy parkiga;
- B) Chimiparo milliy parkiga;
- S) Arvasmi milliy parkiga;
- D) Brazosima milliy parkiga.

Har yili AQShlik fuqarolarning ham ichki va ham xalqaro sayohatlarning soni nechaga yetadi?

- A) 2.4 mlrd.dan ko'p;
- B) 0.5 mlrd;
- C) 0.2 mlrd;
- D) 1.5 mlrd.

Umum e'tirof etilgan hordiq sanoatining lideri qaysi shahar sanaladi?

- a) Las-Vegas;
- b) Boston;
- c) Madrid;
- d) Monaco.

Hozirgi paytda eng daromadli turistik mamlakatlar ro'yxatini qaysi davlat boshqarmoqda?

- a) AQSH;
- b) Frantsiya;
- c) Rossiya;
- d) Yaponiya.

Qaysi davlatning turizmdan oladigan daromadi dunyo bo'yicha olinadigan daromatning 12 foizini tashkil etadi?

- a) Italiya;
- b) Frantsiya;
- c) Buyuk Britaniya;
- d) AQSh.

AQSHdagi plyaj turizmi shug'ullanuvchi asosiy hududlar qaysilar?

- a) Mayami, Deyton, Virjiniya;
- b) Nyu-york, Dallas, Alyaska;
- c) Vashington, Manhetten, Mayami;
- d) Florida, Hollywood, Las-vegas.

AQSHdagi jahonning kinofilmlar vatani qaysi?

- a) Los-Anjelas;
- b) Las-Vegas;
- c) Boston;
- d) Nyu-York.

Kanadadagi Buaff milliy parki hudi qancha igna bargli daraxtlar bilan qoplangan?

- a) 6400 kv/km;
- b) 6600 kv/km;
- c) 6800 kv/km;
- d) 8000 kv/km.

AQSHdagi eng uzun va chiroyli ko'prik "San Mateo Bridge" nechanchi yil qurilgan?

- a) 1963;
- b) 1805;
- c) 1872;
- d) 1968.

AQSH poytaxti Washington DC da turistlar asosan qaysi maqsadda kelishadi?

- a) biznes;
- b) sog'lomlashtirish;
- c) rekreatsiya;
- d) Sobiq AQSH prezidentlarini ziyorat qilish uchun

AQShda birinchi tematik parklar nechanchi yilda paydo bo'ldi?

- a) 1930 yil;
- b) 1945 yil;
- c) 1917 yil;
- d) 1950 yil.

AQShning eng keksa tematik parki "Disneyland" qaysi shahardan 60 km janubi-sharqda joylashgan?

- a) Nyu-york;
- b) Los Anjelos;
- c) Chikago;
- d) Boston.

Hozirgi kunda qaysi davlatda tematik parkning soni 600dan oshadi?

- a) AQSh;
- b) Germaniya;
- c) Frantsiya;
- d) Buyuk Britaniya.

XII MAVZU. MARKAZIY AMERIKA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan maqsad Markaziy Amerika, jumladan, Mezoamerika va Antil orollarida joylashgan mamlakatlarning turizmni rivojlantirish borasida erishgan yutuqlarini sabalarini bilib olish hamda ularda mavjud muammolar va bu muammolarni bartaraf etish yo'llarini bilib olishdan iborat.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

12.1. Meksika mamlakatining turizm iqtisodiyoti

12.2. MezoAmerika mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

12.3. Dominika va Gaiti mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

12.4. Kuba turizmining o'ziga xosligi

12.5. Bagam orollari, Grenada hamda Antigua va Barbuda mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Amerika mintaqasi, MezoAmerika, Markaziy Amerika, Antil orollari, Karib havzasi, Atsteklar, Mayalar, qo'riqxonalar, milliy parklar, ekzotika, tabiiy go'zal joylar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
4. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. - <https://www.labirint.ru/books/228973/> Учебник. - М., КноРус, 2016.
5. Арбузов А.Ф. География туризма. Учебник для студ. сред. проф. образования/А.Ф. Арбузов – М. Издательский центр «Академия», 2009. - 160с.
6. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. — М.; ФИС, 2009. 368 с.

8. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
9. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебник. - М., 2014. 503с.
10. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры.вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
11. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие./ А.А.Самойленко. - Ростов н/ Д: «Феникс», 2006.-368 с.
12. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
13. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
14. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
15. www.UNWTO Tourism Highlights, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.
16. www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization.
17. [https://www.World's most popular destination revealed](https://www.World's%20most%20popular%20destination%20revealed) (англ.), CNN Travel (7 September 2018).
18. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
19. <https://knoema.ru/atlas/>
20. <https://tradingeconomics.com/costa-rica>
21. <http://costarica-information.com>.
22. http://en.wikipedia.org/wiki/Costa_Rica
23. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-meksiki/>
24. [www.Global Ma'lumotlar bazasi.Gonduras/](http://www.GlobalMa'lumotlarBazasi.Gonduras/)
25. https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_the_Dominican_Republic
26. <https://visithaiti.com/>

12.1. Meksika mamlakatining turizm iqtisodiyoti

Meksika (Mexiko), Meksika Qo'shma Shtatlari (Estados Unidos Mexicanos) - Shimoliy Amerikaning janubiy qismida joylashgan davlat. Poytaxti Mexiko shahri. Ma'muriy jihatdan 31 shtat va 1 poytaxt federal okrugiga bo'linadi. Iqlimi - tropik, shimolda subtropik iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni – 1964.4 ming kv. km., aholisi – 135.8 mln. kishi (2020 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peso. Meksika aholisining 55% ispan-hind

metislari, 29% mahalliy hindular va yevropaliklarning ajdodlaridan iborat. Yirik shaharlari: Mexiko, Gvadalaxara, Monterrey, Leon, Syudad-Xuarez. Milliy bayrami - 16 sentyabr - Mustaqillik kuni (1810 yil).

Meksika - Lotin Amerikasida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biri. Mamlakat paxta, shakarqamish, kofe yetishtirishda, neft, gaz, kumush, rux, qo'rg'oshin, oltingugurt, simob qazib olishda dunyoda oddingi o'rinlarda turadi.

Turizm Meksika iqtisodiyotining ancha rivojlangan tarmog'i hisoblanadi. Meksika jahondagi turist eng ko'p keladigan davlatlardan biri sanaladi. Turizmning davlat g'aznasini to'ldirishda ikkinchi o'rinda turadi va mehnat bozorida esa yetakchi hisoblanadi. Meksika ispan, hindular va Karib madaniyatining qorishmasidan iborat.

Meksikaning jozibadorligiga quyidagi omillar ta'sir etgan: takrorlanmas madaniyat, ispan kolonialligi davridan beri hozirgacha bo'lgan davrning ajoyib arxitekturasi, Mezoamerikaning qadimiy shahar xarobalari, iqlimining dam olish uchun juda qulayligi, tabiiy go'zal go'shalarning ko'pligi, plyajli, kurortlar.

Poytaxt Mexiko - qadimiy hindular shahri Teotiuakanga (Quyosh va Oy piramidalari) borish uchun dastlabki punktdir. Mexikoning Sokalo maydoni dunyoda eng katta maydonlardan biri sanaladi. Plaza de Toros esa dunyodagi eng katta karido hisoblanadi. Bir vaqtlar mahhur bo'lgan hindularning Montesumi qasri o'rnida qurilgan Milly saroy G'arbiy yarimshardagi eng katta Kafedral bosh cherkovi, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan Meksika antropologiya va tarix milliy muzeyi.

Meksikaning ikkinchi katta shahri Gvadalaxara (uni gulzorlar ko'pligidan "atirgullar shahri" deyishadi) bo'lib, u tekila, marachi, Meksika kovboyi nomini olgan Charros hamda Meksika musiqasining vatani hisoblanadi. U poytaxt va mamlakatning mashhur kurortlari (Akapulko, Kankun va b.) kabi eng ko'p turist keladigan joylar sarasiga kiradi. Shaharda muzeylar, teatrlar, kartina galeriyalari ham juda ko'p. Bu shaharda har yili dunyoda Leyptsigdan keyin ikkinchi, ispan tili mamlakatlarida birinchi bo'lgan xalqaro kitob yarmarkasi o'tkaziladi.

Monterrey shahri 16 asrda asos solingan, o'zining muzeylari bilan mashhur (Meksika tarixi muzeyi, Zamonaviy san'at muzeyi, Metropoliten-muzey). Moreliya shahri esa 1000dan ortiq tarixiy

yodgorliklari bilan mashhur. Merida esa Yukatan yarim orolining markazi, qadimgi Mayalarning shaharlariga borish uchun dastlabki joy, Meksika qoltig'igining go'zal joylari. Yana qator turistik shaharlari bor: Chiuaua, Dolores-Idalgo, Guanaxuato, Oaxaka, Pueblo, Leon, Sakatekas. Meksika o'zining plyajlari bilan ham mashhur: Kankun, Guaymas, Akapulka, Ikstapa, Kosumel oroli, Ayollar oroli, Xolbosh oroli, Kabo-San-lukas, Mansanilo, Masatalan, Tulum, Ensenada.

Meksika o'zining vulkanlari, g'orlari va yer osti suv tizimlari bilan ham mashhur: San Aktuan (dunyodagi eng uzun yer osti daryosi); Piko de Orisaba (dunyoda 7 – o'rindagi vulqon); Qaldirg'ochlar g'ori (Tushish bo'yicha dunyodagi eng chuqur g'or).

Meksika tibbiy turizm bo'yicha dunyoda Tailanddan keyin ikkinchi o'rinni (stomotologik turizmdan birinchi o'rin, plastik operatsiyalar bo'yicha 5chi o'rin) egallaydi. Har yil 3.0 mln.gacha turist va migratntlar davolanib, vataniga qaytishadi. Buning sabablari: AQSh (bu mamlakat tibbiy turizm tushumini 80%ini beradi), Kanada va boshqa lotin Amerikasiga yaqinligi hamda davolashning ulardan ancha arzonligi (masalan, AQShdan 2-4 marta arzon, bir tishni davolash AQShga 16 ming dollarga tushsa, Meksikaga 4000 dollarga tushadi, yani Meksikaga kelib tish tortirgan bir amerikalik tishini davolab, yaxsigina dam olib, 10 ming dollar yutadi) tibbiy xizmat sifatining Lotin Amerikasining boshqa davlatlaridan ancha yuqori ekanligi.

Meksikaning 2020 yilda diqqatga sazavor joylarining top - yigirmataligi: 1. Bibi Maryam Gvadelupa Bazilikasi (Meksikaning bosh ehromi, 1531 yil qurilgan); 2. Mexikodagi Meksikaning nozik san'at qasri; 3. Mexikodagi Trotskiyning uy-muzeyi; 4. Mexikodagi Kafedral bosh cherkov; 5. Monte-Alban, Oaxaka shahri yaqinidagi arxeologik kompleks (Sapotekalr tsivilizatsiyasining iqtisodiy markazi); 6. Fridyi Kalo (mamlakatning eng mashhur rassomi, uning eri Diedo Rivera ham mashhur rassom bo'gan) muzeyi; 7. Popokatepetl, yer sharining eng hashamatli (Rossiyaning Kamchatkasi kabi) va ajoyib vulqonli tizimi; 8. Teotiuakan, poytaxtdan 40 km. uzoqlikdagi 2000 yoshdagi Atsteklarning qadimiy qo'rg'oni; 9. Tulum, bu Yukatan yarim orolida joylashgan mayalarning qadimiy shahar xarobalari; 10. Mexikodagi Chapultepek qasri, Meksika imperatorlarining sobiq rezidentsiyasi, haqiqiy arxitektura shedevri.

11. Chichen-Itsa, Mayalarning hashamatli markazi, turizm bo'yicha dunyoning yetti mo'jizasidan biri deb tan olingan; 12. Kankundagi El-Meko arxeologik hudud; 13. El-Rey arxeologik hudud, u kamida eramizdan 900 yil oldin qurilgan 47ta toshli uy xarobalari; 14. Kankundagi interaktiv akvarium (mamlakatdagi eng zo'r); 15. Mis Kanyon milliy parki (uni AQShdagi Grand Kanyonga o'xshatishadi); 16. Sumaya muzeyi, u 46 metrli futurologik binosida joylashgan; 17. Mexikodagi antropologiya milliy muzeyi (har yil 2 mln. kishi kiradi); 18. Sochimilkodagi Qo'g'irchoqlar oroli; 19. Palenka, Mayalarning qadimiy shahar xarobalari (ularning soni 1000dan ortiq); 20. Chapultepek parki, bir paytlar buyuk hukmdorlarning rezidentsiyasi bolgan, Mexikoning bir tepaligida joylashgan. (manba:<https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-meksiki/>).

Meksikada asosan ta'til va bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish uchun sayohat qilinadi. Umumiy sayohatlarning (kirish va ichki turizm) 90.5%i shu yo'nalishda bo'lib, atigi 9.5% gina biznes turizmga to'g'ri keladi. Ichki turizm va xorijiy turislar tashrifidan keladigan daromadlarni solishtirsak, ichki turizm o'zining salmoqli o'rniga ega. Masalan ichki turizm umumiy turizmdan keladigan daromadning 87.4%ini tashkil qilsa, kirish turizmni 12.6% ni tashkil qiladi.

Mamlakatga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 41.3 mln.tashkil etgan. Xalqaro turizmdan 2018 yilda ko'rgan daromad esa 23.8 mlrd. dollarni tashkil etgan. Meksikada eng ko'p AQSh va Kanada fuqarolari dam olishadi. Turizm: bir kunlik ekskursiyalarning chegara shaharlarida Kaliforniya (AQSh) bilan chegaradosh Tiuana shahrida (dam oluvchilar uchun) olib boriladi. Sovg'alar savdosi, qimor biznesi ham bor. Uzoq muddatga kelgan turistlarning dengiz sohillarida, tarixiy ob'ektlarda bo'lishadi. Ammo, lotin Amerikasi, Osiyo va Yevropa turistlari ham yildan-yil ko'payib bormoqda.

Meksikadan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 19.7 mln. kishini tashkil etgan va ular 14.1 mlrd. dollar xarajat qilishgan. O'z xalqining kambag'alligi tufayli ko'proq o'z davlatida dam olishadi.

12.2. MezoAmerika mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

Kosta Rika, ma'nosi "boy qirg'oq" degani. Shimoliy tomondan Nikaragua, shimoli-sharqiy tomondan Karib dengizi, janubi-sharqiy tomondan Panama davlati va janubi-g'arbiy tomondan Tinch okeani

bilan chegaradosh. Poytaxti San-Xose shahri. Mamlakatning katta qismida iqlim subekvotrial, yog'ingarchilik ko'p, havo yil-o'n ikki oy 23-25 gradus atrofida.

Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 51.1 ming kv. km., aholisi – 5.1 mln. kishi (2020 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - kolon. Yirik shaharlari: San-Xose, Limon, Turrialba. Milliy bayrami - 15 sentyabr - Mustaqillik kuni (1821yil).

Mamlakatning asosiy daromad manbai - turizm va tropik mevalar, kofe, kakao eksportidan tushadi. Kosta Rika Lotin Amerikasidagi nisbatan boy mamlakat hisoblanadi. Mamlakatdan o'tadigan Kordilera tog' tizmasi juda ko'p go'zal manzaralarga ega. Mamlakatda turli xil gullar juda ko'p, jumladan, orxideya manzaralari o'ta go'zal. Mamlakat yog'ingarchilikning ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Qovurilgan bananlar, ananas pechenelari ham mashhur. Turizmning qishda avj olishi xarakterlidir. San-Xosedagi plyajlar, changalzorlar, milliy istirohat bog'lari, zamonaviy otellar ko'plab turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Kosta Rika mamlakati ikki tomonidagi okeanlar (g'arbda Tinch, sharqda Atlantika) sharofati tufayli ekzotik qora qumli plyajlarga, qo'riqxonalar, vulkanlar, to'g'larga boy, ajoyib flora va faunaga, yovvoyi tabiat hukmron o'rmonlar (mamlakat territoriyasining uchdan ikki qismi), sharqiragan sharsharalar, tumanli ko'llarga ega mitti davlat. Mamlakat maydonining 25 foizi davlat tomonidan himoyalangan hududlardir. Bu kichkina mamlakat maydonida 500 ming xil, planeta flora va faunasining 4 foizi bor.

Kosta-Rika Mezoamerika mamlakatlari ichida turizm eng yaxshi rivojlangan va turizm sohasi eng tez o'sayotgan davlatdir. Exstrimal turizm, jumladan, rafting, so'rfing, dayving, tibbiy turizm (mamlakatda 20dan ortiq tibbiy turizm markazlari bor), plyaj turizmi, yovvoyi hayvonot olamiga sayohat, vulqonlarga tashrif, trekking, madaniy va biznes turizm juda yaxshi rivojlangan. Ekoturizm va sarguzasht turlar bo'yicha Markaziy Amerikada birinchi davlatdir. Kosta Rika ekoturistlar qabul qilish bo'yicha yetakchi bo'lgan mamlakat, har yili ekoturizm tashriflari soni 700-800 mingtaga ortmoqda. Bu kichik davlat flora va faunaning dunyo ahamiyatidagi ranba-rangligiga ega. Bu yerda 15 ta milliy bog' va 70 dan ortiq qo'riqxonalar mavjud, jumladan, bir necha faqat palma daraxtlaridan iborat, aholi umuman yashamaydigan orollari bor: Kokos orollari,

Negritos, Los va b. Kosta Rikaning turizmdan ko'rayotgan daromadlardan ruhanib qo'shnisi Gondurasda ekoturizmdan keladigan daromadni yiliga 13-15% dan oshirmoqda.

Plyajlari: dayving uchun qulay Playa-del-Koko, sportli baliq ovlash joyi Playa-Flamingo, so'rfing uchun joy Tamarindo va Xako, toshboqalarga boy Playa-Grande, Playa-Nozara, Playa-Karillo va Playa-Ermoza.

Mamlakat maydonining uchdan bir qismi turli xil milliy parklar va qo'riqxonalariga ajratilgan. Ularning soni 70dan ko'p. Bu yerda 120ta vulqon bor, ularning 70tasi harakatdagi vulqonlardir, ularning atrofidagi cho'qqilar Markaziy Amerikada yoqolib borayotgan bulutli o'rmonlar bilan qoplangan. Eng ko'p odam kiradigan parklar: La-Amistad xalqaro parki, Manyel-Antonio milliy parki, Itoy-Serere, Korkovado, Rinkon-de-la-Vyaxa, Rara-Eyves, Toptugero.

Mamlakatda rafting uchun qulay bo'lgan ikkita daryo bor: Pakuare va Reventazon. Mamlakatga qarashli Tinch okeanida 550 km. uzoqlikda Kokos oroli bor, u dunyoda aholi yashamaydigan eng katta orol hisoblanadi (maydoni 24 kv.km.). Yovvoyi, inson qo'li tegmagan, o'rmon bilan qoplangan orol. Jak-Iv-Kusto uni "dunyoning eng go'zal oroli" deb baholagan. Dayving uchun ham juda qulaydir.

Mamlakatning 2020 yildagi diqqatga sazavor joylarining top - o'ntaligi: 1. Manuel Antonio milliy parki; 2. Nikoya orolidagi Santa-Tereza plyaji; 3. Vanado g'ori; 4. Arenal vulqoni; 5. Korkovado milliy parki; 6. La Fortuna sharsharasi; 7. San-Xosedagi Tillo muzeyi; 8. Tortuga oroli; 9. Tobakondagi issiq suv manbalari; 10. Chirripo milliy parki. (*manba*: <http://www.sinac.go.cr/>).

Turizm tarixiga kelsak, Kosta-Rikada turizm 1987 yildan boshlab rivojlana boshladi, o'sha yili 329 ming turist kelgan bo'lsa, keyingi yil 1.03 mln. Turist keldi, 1999 yilda 2.0 mln, 2015 yilda esa 2.7 mln. turist kelgan. Kosta – Rikaga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 3.0 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan shu yil ko'rilgan daromad 4.0 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga asosan yoshi kattalar (tashrif buyurganlarning 43 foizi 45 yoshdan kattalar) va oliy ma'lumotlilar kelishadi (82 foizi). Kelganlarning 54 foizi AQShdan, 18 foizi yevropaliklar, 5 foizi kanadalaiklar bo'lishgan.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 1.1 mln. kishini tashkil etgan va ular 1.2 mlrd. dollar xarajat qilishgan.

Nikaragua - Markaziy Amerika mamlakati. Bu Markaziy Amerika davlatlarining eng kattasi. Nikaragua o'zining qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, avtokratik boshqaruv tarixi va muvozanatsiz mintaqaviy rivojlanishi bilan ajralib turadi. Deyarli barcha aholi punktlari va iqtisodiy faoliyat mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan.

Mamlakat nomi XV asr oxiri va XVI asr boshlarida hozirgi Nikaragua ko'li atrofida yashagan mahalliy qabilalarning yetakchisi Nikaraodan kelib chiqqan. Nikaragua noyob tarixga ega, chunki u Lotin Amerikasidagi ispan va inglizlar tomonidan mustamlaka qilingan yagona mamlakat edi. Nikaragua aholisi asosan metislardan iborat (aralash yevropalik va hindular naslidagi odamlar). Mamlakat poytaxti - bu aholining qariyb oltidan bir qismi yashaydigan, mamlakatdagi eng katta shahar bo'lgan Managua shahridir.

Keyingi o'n yilliklarda turizmning o'sishi qishloq xo'jaligi, savdo va moliya sohalariga hamda qurilish sanoatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nikaraguaning turizmga yo'naltirilgan iqtisodiyoti uchun natijalar sezilarli bo'lib, 2010 yilda mamlakat o'z tarixida birinchi marta kalendar yilida bir million sayyohni qabul qildi.

Nikaraguada ekoturizm har yili o'sib bormoqda, chunki mamlakatda turli xil ekoturistik sayohatlar va sarguzasht izlovchilar uchun ideal yo'nalishlar mavjud. Nikaragua uchta ekologik hududga ega: Tinch okeani, Markaziy va Atlantika, vulqonlari, tropik o'rmonlar va qishloq xo'jaligi yerlari.

Ekologik uylarning aksariyati va boshqa ekologik toza sayyohlik joylari Granada shahridan qayiqda bir soatlik masofada, Nikaragua ko'li markazida joylashgan Ometepe orolida joylashgan.

Nikaragua mamlakatning 20 foizdan ortiq maydonini qamrab oladigan 78 ta qo'riqlanadigan hududga ega va dunyodagi biologik xilma-xillikning 7 foiziga ega. Bu Nikaraguadan ko'ra ko'proq tabiiy hududlarga ega deb hisoblangan Kosta -Rikadan ko'proqdir.

Nikaragua, mamlakat shimolida joylashgan Bosava shahrining atrofida joylashgan tropik o'rmonlari bilan mashhur. Shuningdek, u Markaziy Amerikadagi eng katta ko'l - Kochibolka ko'li ham juda jozibalidir, u odatda Nikaragua ko'li deb nomlanadi. Kochibolka ko'li har yili juda ko'p sayyohlarni jalb qiladi, ularning aksariyati ko'ldagi ikkita vulqon tomonidan tashkil etilgan katta vulqon oroli bo'lgan

Ometepaga tashrif buyurishadi. Bu yerda sayyohlar Charco Verde qo'riqxonasining flora va faunasini o'rganishlari mumkin.

Nikaraguaning boy bioxilma-xilligi, shuningdek, ko'plab Yevropaga qaraganda ko'proq daraxtlar, qushlar va hasharotlar turlariga ega Indio Mais biologik qo'riqxonasi kabi qo'riqlanadigan hududlarga sayyohlarni jalb qiladi.

2018 yilda sayyohlik va turizm sohasi Nikaragua YaIMning to'g'ridan-to'g'ri 5.3 foizini, jami hissasi esa 11.1 foizni tashkil etdi. 2019 yilda Nikaragua YaIMga sayohat va turizmning real hissasi 1.6 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Sayohat va turizmning Nikaraguaning YaIMga qo'shgan hissasi 2000 yildagi 0.4 milliard AQSh dollaridan 2019 yilda 1.6 milliard AQSh dollarigacha o'sdi va yiliga o'rtacha 8.0 foizga o'sdi.

Gonduras. Gonduras tropik mintaqada joylashgan. Aholisi 9158 ming kishi. Mamlakat ancha issiq, kunduzgi harorat juda kamdan-kam Selsiy bo'yicha +25 darajadan pastga tushadi. Ammo bunday jaziramaga qaramay, iqlim sayyohlar uchun yoqimli shu bilan birga kutilmagan hodisalarni taqdim etishi mumkin.

Sayyohlik infratuzilmasi endigina rivojlana boshlagan bo'lsa ham, Gonduras sayyohlar orasida ancha mashhur bo'lib qoldi. Ba'zi hollarda bu mamlakat asosiy dam olish maskani sifatida emas, balki sayohatga qo'shimcha sifatida tanlanadi.

Markaziy Amerikada joylashgan Gonduras tropik jannat bo'lib, har yili ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etadigan ajoyib orollari, yam-yashil tropik o'rmonlari va chiroyli tog'lariga jalb qiladi. Gonduras dunyodagi ikkinchi eng katta to'siq rifiga kirish imkoni bilan Karib dengizidagi eng yaxshi sho'ng'ish, sho'milish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, ushbu go'zal mamlakat qadimgi Maya xarobalari, mustamlakachilik qishloqlari va bayram tantanalari kabi ko'plab diqqatga sazovor joylarni taklif etadi. Oq suvli daryolarda raftingda sayr qilish va ekzotik yovvoyi tabiatni tomosha qilishgacha bu yerda qiziqarli sarguzashtlar tugamaydi.

Gonduras mamlakatining turistik salohiyati tabiiy va madaniy merosga ega: Bay orollari dunyodagi ikkinchi eng yirik marjon riflari bilan o'ralgan va Karib dengizidagi eng yaxshi sho'ng'ishlarini taklif qiladi. Kopan qadimgi Mayya tsivilizatsiyasining Afinasi deb hisoblanadi. Butun mamlakat bo'ylab o'ziga xos go'zallik, hayajonli manzaralar, mustamlakachilik shaharlari va undagi tirik madaniyat,

go'zal plyajlari mavjud. Gonduras ulkan sayyohlik salohiyatini taklif etadi, shunchaki go'zal maskan o'zining kashf etilishini kutmoqda. Keyingi yillarda mamlakatda turizm iqtisodiyotning eng yirik tarmoqlaridan biriga aylandi va undan olinadigan daromadlar iqtisodiyot uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Gonduras hukumati turizmni ustuvor vazifa qilib qo'ydi va bu soha nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish va chet el valyutasini olib kirish bilan, balki milliy o'zligini mustahkamlash, rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirish hamda Gonduras aholisini yuqori standartlar bilan ta'minlash orqali mamlakatga naf keltiradi deb hisoblaydi.

Daryo raftini uchun quruq mavsum boshida, ya'ni dekabrda Gondurasga kelish kerak. Yomg'irli mavsum iyuldan noyabrgacha davom etadi. Ushbu davrda mamlakatning qirg'oq hududlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bo'ron boshlanishi xavfi mavjud. Yomg'irli mavsumda qushlar va hayvonlar faol yashay boshlaydi, shuning uchun o'simlik va hayvonot dunyosini kuzatish qiziq bo'ladi. Ko'plab qishloq markazlarida ham qo'riqxonani, ham sayyohlarni qo'riqlaydigan politsiya posti mavjud.

Lotin Amerikasiga yetib borgan holda, Gondurasga jamoatchi xalqaro avtobusda borish mumkin. Mamlakatda temir yo'l yo'qligini hisobga olmasak, avtobus qatnovi yaxshi yo'lga qo'yilgan va sayohat bilan bog'liq muammolar bo'lmaydi. Avtobuslar faqat katta shaharlar o'rtasida harakatlanadi, boshqa kichik shaharlarga ichki avtobus yoki taksida borish kerak bo'ladi.

Gondurasni Karib dengizi va Tinch okeanining iliq suvlari yuvib turadi. Har yili mamlakat juda ko'p sayyohlarni qabul qiladi. Tashrif buyuradigan sayyohlar ko'pincha Tegusigalpa yoki San-Pedro-Sula shahrida qoladilar.

Gandurasning milliy parklari: 2018 yilga kelib 17 ta Milliy bog'lar tashkil etildi, ularning eng kattasi - Zizima Eko parki. Ko'ngilochar joylar orasida mashhur joyni Zizima Eko suv parki egallaydi, uning atrofida ko'plab palma daraxtlari o'sadi, hatto eng kichik mehmonlar uchun ham turli o'lchamdagi hovuzlar mavjud. Mahalliy hayvonot bog'lari ham bolalar bilan tashrif buyurishga arziydi. Ularning har birida boshqa qit'alardan keltirilgan mahalliy tabiat vakillarini ko'rish mumkin. Hayvonlarning ayrim turlari shunchalik xotirjamki, ularni qo'l bilan boqishga ruxsat beriladi. Dam

olish uchun maxsus jihozlangan o'yin maydonchalari mavjud. Bundan tashqari, hayvonot bog'i hududida otda yurish mumkin.

Marino Punta del Sol milliy bog'i. Ushbu milliy bog', taxminan 700 kv. km, Tela va Triumfo de la Crusning g'arbiy qismida Karib dengizi sohilida joylashgan.

Cayos Cochinos. Ikkita asosiy orol va bir nechta mayda joylardan tashkil topgan Cayos Cochinos sayyohlar olomonining shovqinsiz Gondurasning tabiiy go'zalligini ko'rishni istaganlar uchun tinchgina chekinishni ta'minlaydi. Bu yerda avtoyo'llar yo'q, ammo sayohlarni tinch qishloqlar bilan bog'laydigan piyoda yo'llar mavjud. Orollarda suzish va sho'ng'in uchun ideal bo'lgan ajoyib plyajlar mavjud.

Rio Cangrejal. Markaziy Amerikaning baydarka va rafting uchun eng yaxshi joyidir. Uzoq cho'zilgan oq suvli tezliklar toshlar atrofida shoshilib, tashlab ketilayotgan suvga sho'ng'ib borayotganida, shovqinlar juda ko'p.

Rio Platano biosfera qo'riqxonasi tabiatni sevuvchilar uchun juda zarur bo'lgan narsa, Gondurasning omon qolgan, buzilmagan ekotizimlari va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan bir nechta turlarini himoya qiladi. Bu yerda sayyohlik, baliq ovi va rafting ekspeditsiyalari, shuningdek tropik o'rmonlar bo'ylab ekzotik qushlar, maymunlar, yaguarlar, timsohlar va iguanalarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, qo'riqxonada Mayya xarobalari va Xristofor Kolumb tashrif buyurgan joy kabi ko'plab arxeologik joylar saqlanadi.

Chiroyli Guanaja oroli sayyohlarga dam olishlari yoki ochiq havoda ko'ngil ochishni taklif qiladi. Yil davomida issiq harorat, yuqori ko'rinish darajasi va mercan rifi bilan Guanajani o'rab turgan okean suvlari sho'ng'ish uchun juda mos keladi. O'rmonda sayr qilish, Grant cho'qqisiga sayohat, yoqimli sharsharani tomosha qilish va mahalliy qishloqlarning oshxonasi va madaniyatini o'rganish kiradi.

Punta Sal. Bir paytlar garovgirlar panohi sifatida foydalanilgan Punta Sal atrofidagi qo'riqlanadigan hudud bugungi kunda Gondurasning tabiiy go'zalligi va yovvoyi hayoti bilan tanishish uchun mashhur joy. Turli xil landshaftlar orasida qumli plyajlar, botqoqlar, tropik o'rmonlar va qirg'oq lagunlari orasida sayyohlar tropik qushlar, delfinlar, timsohlar, maymunlar va boshqa turli xil yovvoyi hayvon va qushlarni ko'rish mumkin.

Yojoa ko'li. Gondurasdagi eng katta tabiiy ko'l, ko'plab sayyohlar uchun issiq joy, ko'rish va qilish uchun ko'p narsalarni taklif etadi. Baliq va qush turlarining ko'pligi bilan Yojoa ko'li baliq ovlash va qushlarni kuzatish uchun juda mos keladi. Sayohatchilar, shuningdek, yaqin atrofdagi issiq buloqlarga cho'mish, g'orlarni o'rganish, ajoyib sharsharalarga sayohat qilish, kofe plantatsiyalarini tomosha qilish va qadimgi Maya xarobalarini o'rganish kabi zavq olishlari mumkin. Bundan tashqari, mehmonlar ko'l hududida ko'plab restoran va mehmonxonalarni topadilar.

Bay orollaridan biri Utila Karib dengizidagi eng yaxshi sho'ng'in joylaridan biri hisoblanadi. Suzish, sho'ng'ish, eshkak eshish va baydarka kabi boshqa suv mashg'ulotlaridan tashqari, mehmonlar o'rmonda sayr qilish yoki ot sayr qilish, g'orlarni o'rganish va Qovoq tepaligiga chiqish orqali panoramali manzarani tomosha qilishlari mumkin.

Roatan - Karib dengizidagi Gonduras ko'rfazidagi orollardan biri. Kruiz kemalari uchun mashhur port. Roatan oroli, o'zining go'zal manzaralari va xilma-xilligi tufayli Gondurasning eng mashhur sayyohlik joylaridan biridir. Roatan o'zining ajoyib plyajlari va marjon riflari bilan sho'ng'ish va suzish imkoniyatlarini taqdim etadi. Orolida Iguana fermasi, Karamola bog'lari va Roatan butterfly Garden kabi ko'plab diqqatga sazovor joylar mavjud.

2019 yilda Gonduras uchun turizm tushumlari 556 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2014 yildan 2019 yilgacha Gondurasda turistik tushumlar har yili o'rtacha 1,37 foizga kamayib borar edi, ammo bundan oldin u 2001 yildagi 260 million AQSh dollaridan 2014 yilda 706 million AQSh dollarigacha o'sdi. (Manba: Global Ma'lumotlar bazasi Gonduras).

Beliz Markaziy Amerikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan davlat. 1981 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan. Maydoni 23 ming kv.km. Mamlakatning asosiy qismini past-tekisliklardan iborat, janubiy qismida Mayya tog'lari joylashgan. Aholisi 300 mingdan ortiq. Poytaxti Belmopan shahri. Ma'muriy jihatdan 6 okrugga bo'linadi. Mamlakat aholisining 60 foizi katolik, 35-foizi esa protestantlar. Belizda tropik iqlim, yuqori namlik, iliq ob-havo, o'rtacha oylik harorati + 26 ° C. Mamlakatda dam olish uchun eng qulay vaqt bu dekabr oyining oxiridan aprel oyigacha bo'lgan vaqt.

Beliz xalqaro xizmatlarga ixtisoslashgan rivojlanmagan agrar davlat. Mamlakat sanoati asosan qimmat va noyob daraxt turlarini tayorlash va qayta ishlash bilan shug'ullangan. Uzoq vaqt davomida Beliz iqtisodiyoti eksport qilinadigan mahsulotlar narxlariga bog'liq edi. Bu birinchi navbatda ishlov berilmagan yog'och edi. O'shanda iqtisodiyot biroz diversifikatsiya qilingan edi, endi esa shakar, banan va tsitrus mevalar ulushi eksportdan tushumning yarmigacha qismini tashkil etadi. Mustaqillikka erishgunga qadar, yirik turizmga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma mavjud emasligi sababli Beliz sayyohlik joyi deb hisoblanmagan. Biroq so'nggi o'n yillar ichida turizm sanoatining jadal kengayib borishi uni mamlakatdagi ikkinchi yirik sohaga aylantirdi.

Beliz tinch, osoyishta, nisbatan xavfsiz, siyosiy jihatdan barqaror, demokratik boshqaruvga ega, xalqining ingliz tilida so'zlashuvi turizmni jadal rivojlantirishga imkon bemoqda. Mamlakat Mezoamerikada aholisi eng kam, buning oqibatida tabiatni ancha yaxshi saqlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning asosiy turlari: kruiz (laynerlarni Beliz dengiz porti qabul qiladi), plyaj (Plazensiya yarim oroli, Beliz tumani, orollar), ekologik (milliy bog'lar, sharsharalar, ekzotik hayvonlar) madaniy-ma'rifiy (Maya aholi punktlari xarobalari, Garifuna turar joylari va g'orlari). Beliz turli xil sayyohlarga, sarguzashtlarni sevuvchilarga va ekologik turistik joylarga ega mamlakat. Beliz Barrier Reef (dunyoda ikkinchi o'rinda), 450 dan ortiq dengizdagi orollar, ajoyib baliq ovlari, so'rfing, suzish, qayiqda suzish, rafting va baydarka uchun ko'plab daryolar, hayvonot va o'simlik dunyosi boy turli xil o'rmonlar va yovvoyi tabiat qo'riqxonalari, piyoda yurish, qushlarni tomosha qilish va vertolyot bilan ekskursionlar uchun imkoniyatlarga ega.

Yuzlab g'or tizimlari orasida Beliz Markaziy Amerikadagi eng yirik g'or tizimiga, 544 qush turiga va yaxshi saqlanib qolgan tabiiy go'zalligiga ega. Shunga qaramay, u hali mintaqadagi eng kam tashrif buyurilgan mamlakatlardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakat YaIMning 30% turistlarga xizmat ko'rsatishdan keladi. Iqtisodiy faol aholining 10% bilvosita turistik biznesda, 1/3 gacha ish o'rinlari ham shu soha yaratadi. 2012 yilda Belizga 918 ming chet ellik sayyoh tashrif buyurgan (shu jumladan AQShdan 585 ming kishi), shundan 641 ming kruiz. Yirik sayyohlik markazi San-Pedro (Beliz tumani) va Belmopan (poytaxt).

Belizda turizm sohasi jadal rivojlanmoqda. 2015 yil iyunidan 2016 yil sentyabrigacha bo'lgan 15 oy davomida mamlakatga sayyohlarning rekord soni tashrif buyurdi, ularning soni 33 foizga o'sdi. Shuningdek, kruiz kemalarida kelayotgan sayyohlar sonining ko'payishi kuzatilmoqda. Toronto (Kanada) va Beliz o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri reyslarning ochilishi kanadalik sayyohlar oqimining ko'payishini sabab bo'ldi.

Belizda buyuk Mayya tsivilizatsiyasining noyob ibodatxonalari va saroylari joylashgan. Ularning avlodlari hali ham Belizda yashaydilar. Bugungi kungacha saqlanib qolgan eng yirik Mayya markazlari Shunantunichda (Gvatemala bilan chegarada), Atun-Xa, Karakol, Quayo, Lamanayda joylashgan. Cahal Pech qishlog'ida siz mayyalarning "yolg'on kamarlarini" ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, Belizda dunyodagi yagona yaguar qo'riqxonasi va ko'plab bog'lar joylashgan.

Belizdan uchib ketish uchun haq olinadi (35 AQSh dollari). Maxsus emlashlar talab qilinmaydi, ammo deng, dizenteriya, tif, gepatit A, B va C, vabo va bezgak bilan kasallanish xavfi mavjud. Sayyohlarga faqat shisha suvdan foydalanish va tunda yolg'iz sayohat qilmaslik tavsiya etiladi.

Belizdagi barcha mehmonxonalar yoshlar, bolali oilalar, qariyalar uchun, hashamatli ta'til uchun mehmonxonalarga bo'lingan. Yangi Beliz mehmonxonalari zamonaviy sifat va xizmat ko'rsatish standartlariga javob beradi.

Beliz turizm sanoat assotsiatsiyasi (BTIA) - bu Belizdagi eng yirik sayyohlik birlashmasi. Tashkilot 1985 yilda tashkil etilgan. BTIA Belizdagi turizm sohasiga taalluqli muammolarni hal qilishga harakat qiladi.

Kruiz kemalari Beliz-Siti shahrida to'xtaydi, har yili o'rtacha 850 ming sayyoh bor, ularning ba'zilar shahar bilan bir qatorda yaqin atroflarga ekskursiyalar qilishadi.

Belizdagi ekologik turizmning mashhur yo'nalishlari orasida Koskkomb havzasini muhofaza qilish zonasi, "Mountain Pine Ridge" o'rmon qo'riqxonasi, "Swallow Cay" yovvoyi tabiat qo'riqxonasi va Babun qo'riqxonasi mavjud.

Ko'pgina kompaniyalar tashrif buyuruvchilarga kakao va kaju fermasiga tashrif buyurish, Mayya, Kriola yoki Garifuna hunarmandchiligi bilan tanishish, hatto Mayya, Kriola yoki Garifuna

qishloqlarida tunash va jamoat yo'riqnomasi bilan tanishish imkoniyatini taklif qilishadi.

Milliy bog'lar 1981 yil Milliy park tizimi to'g'risidagi qonunda ro'yxatdan o'tgan. Ular o'rmon xo'jaligi boshqarmasi tomonidan boshqariladi va jamoat nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari asosida boshqariladi.

Jadval -12.1. Mamlakatdagi qo'riqxonalar ro'yxati

Заповедник	Район	Размер (га)	Размер (акры)	МСОП	Совместное управление	Оценка	Описание
Агуас Турбиас	Orange Walk	3,541	8750	II	—	1994	
Бакалар Чико	Белиз	4,510	11,100	V	Экологический институт Грин-Риф	1996	За исключением прилегающего морского заповедника.
Билли Баркедье	Стэнн Крик	663	1,640	II	Ассоциация устойчивого туризма и охраны природы	2001	
Чикибул	Кайо	106 839	264 000	II	Друзья для сохранения и развития	1995	Исключая прилегающий лесной заповедник.
Озеро Пяти Блюз	Кайо	1,643	4,060	II	Друзья Национальный парк Пяти Блюз Лэйк	1994	
Лагуна Гра Гра	Стэнн Крик	534	1320	II	Друзья лагуны Гра Гра	2002	
Гуанакасте	Кайо	23	57	II	Белизское общество Одюбон	1994	
Медовый лагерь	Коросал / Orange Walk	3145	7,770	II	Ассоциация друзей Freshwater Creek	2001	
Laughing Bird Caye	Stann Creek	4,095	10,120	II	Southern Environmental Ассоциация	1996	
Мэйфлауэр Бокавина	Стэнн Крик	2,868	7,090	II	Друзья национального парка Мэйфлауэр Бокавина	2001	
Залив обезьян	Белиз	859	2120	II	Стражи драгоценности	1994	
Нойкааксмин Элиджио Панти	Кайо	5130	12700	II	Белизский фонд развития	2001	
Пэйнз-Крик	Толедо	14,739	36,420	II	Толедский институт развития и окружающей среды	1994	
Пекари Хиллз	Белиз	4260	10,500	II	Заповедник Грейси-Рок для приключений, культуры и экотуризма	2007	
	Толедо	38	94	II	Рио Ассоциация майя Бланко	1994	
Сарстун-Темаш	Толедо	16,938	41,850	II	Институт управления коренными народами Сарстун Темаш	1994	Рамсарский заповедник.
ул. Голубая дыра Германа	Стэнн Крик	269	660	II	Белизское общество Одюбон	1986	

Manba: www. BTIA

Hozirgi kunda umumiy maydoni 380.3 ming gektar bo'lgan 16 ta o'rmon qo'riqxonasi mavjud bo'lib, bu butun mamlakatning 9.3 foizini tashkil etadi.

Mamlakatning uchta qo'riqxonasi milliy qo'riqlanadigan hudud tizimida eng yuqori darajadagi muhofazaga ega. Bu mamlakatning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimidagi barcha toifalar uchun eng qat'iy belgidir, kon qazish yoki sayyohlarga kirish imkoni yo'q. Ulardan eng qadimgisi Bladen yovvoyi tabiat qo'riqxonasi Mayya tog' biologik yo'llagining markazini tashkil qiladi va Mezoamerika bioxilma-xilligining eng boy hamda topografik jihatdan noyob

hududlaridan biri hisoblanadi. Yovvoyi tabiat qo'riqxonalari ekotizimdagi muhim turlarni saqlash uchun tashkil etilgan.

12.3. Dominika va Gaiti mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

Dominika. Maydoni 48.7 ming kv.km. Aholisi 11.2 mln. kishini tashkil etadi (2020 yil). Xalqi asosan ispan tilida gaplashadi. Dominika respublikasi bu kokos palmalari ostidagi sokin plyajlar, sof va go'zal Karib dengizi, dayving uchun a'lo imkoniyatdir, Ispaniyaning kolonial poytaxti Santo-Domingo, yil-o'n ikki oy davom etadigan turli karnavallar, Punta-Kana va Puerto-Plata kabi hashamat kurortlardir hamda sigaralar etalonining vatanidir. Dominika deganda birinchi navbatda, tropik jannatning atributlari: oppoq plyajlar, palmalar, yoqimli dengiz shabadasi tushuniladi. Bu yerning arxitekturasi Yevropa va mahalliy stillarni o'z ichiga olgan, milliy parklari esa ajoyib tabiati bilan kishilarni o'ziga rom qiladi.

Santa-Domingoning eski tarixiy markazi YUNESKOning jahon moddiy va ma'naviy merosi ro'yxatiga kirgan. Shaharni Xristofor Kolumbning ukasi Bartolomeo Kolumb asos solgan, uning avlodlari esa boshqargan. XVI asrda Amerikadagi ispan koloniyalarining poytaxti bo'lgan. Shahar ekskursiyaviy dam olish uchun ideal joy: Shahar simvoli – Santa-Mariya-la-Menor Amerika qit'asining eng qadimiy bosh cherkovi hisoblanadi. Shaharda o'rta asr monastirlari, qasrlari, muzeylar anchagina. 1508 yilda qurilgan Osama qasrida Xristofor Kolumbning qabri bor.

Mamlakatning mashhur diqqatga sazavor joylari: Rassomlar shahri sanaladigah Altos-de Chavon, poytaxtdagi Kolumb mayoqi, Samana yarim oroli va qo'ltig'i, undagi Gaitises milliy parki, Redonda tog'i, Kosta-del-Ambor royni, Armando-Bermudes milliy parki, Los-Ayitises milliy parki, Xaragua milliy parki, El-Choko milliy parki, sharsharalar shahri Xarabakoa, Punta-Kanedagi ekopark.

Punta-Kana oilaviy turistlar dam olish uchun mashhur joy: go'zal qirg'oqlar, besh yulduzli mehmonxonalar, baliqqa ixtisoslashgan restoranlar, go'zal tabiat, uning yaqinida esa ekzotik o'simliklar va hayvonlarga boy 3ta milliy park bor. Puerto-Plata esa 120 km.ga cho'zilgan ajoyib plyajlar, vindso'rfingga qulay Kabarete kurorti, go'zal Sosua va Playa-Doroda plyajlari. Boka-Chika, Xuan-Dolio, atrofi yovvoyi tabiat bilan qoplangan va dayving uchun qulay

joy Bayaibe, kitlarni tamosha qilishga qulay Samane, La-Romana, AQSh prezidentini Donald Tramp puli bilan obod bo'lgan Kap-Kana.

Dominika Respublikasiga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar miqdori 6.6 mln.tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad esa o'sha yil 7.6 mlrd.dollarni tashkil etgan. Mamlakatga turistlar quyidagi jadvaldan ko'rinib turganidek, AQSh, Kanad, Germaniya, Rossiya, Frantsiya va ayrim qo'shni davlatlardan kelishadi.

Jadval. – 12.2. Dominikaga kelayotgan turistlar geografiyasi (ming kishi hisobida).

mamlakat	2017	2016	2015	2014	2013
AQSh	2073.9	2085.2	2001.9	1784.5	1587.4
Kanada	827.7	768.5	745.9	706.4	684.1
Germaniya	265.7	259.1	247.6	230.7	214.2
Rossiya	245.4	136.2	71.6	180.8	188.1
Frantsiya	221.5	232.0	227.5	229.7	232.8
Argentina	182.2	137.6	133.9	112.5	107.3
Ispaniya	178.0	169.8	172.2	150.9	142.2
Buyuk Britaniya	177.5	165.1	142.1	126.6	108.2
Pyerto-Riko	111.1	121.1	115.1	103.9	74.6
Venesuelo	109.7	170.7	167.2	112.94	75.2
Kolumbiya	103.4	m/y	m/y	m/y	m/y
Hammasi	5354.0	5178.1	4872.3	4511.1	4117.5

Manba:[https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_the Dominican Republic](https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_the_Dominican_Republic)

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 514 ming kishini tashkil etgan. Ularning qilgan xarajati esa 957 mln. dollarni tashkil etgan. Mamlakatning kambag'alligi tufayli chetga chiqadiganlar keladiganlarga nisbatan qariyb 12 marta kam.

Gaiti mamlakati turizmi. Gaitiga qul sifatida olib kelingan odamlar va ularning avlodlari frantsuz mustamlakachilariga qarshi o'zlarini himoya qildilar va Lotin Amerikasida birinchi qoralar

respublikasini barpo qildilar. Karib dengizidagi Hispani olorolining g'arbiy uchdan bir qismini egallagan mamlakat. Hispani olaning sharqiy uchdan ikkiqismini Dominik Respublikasi egallaydi. Shimolda Atlantika okeani, Karib dengizi esa janubda joylashgan. Gaiti – bu inqilobiy, hayajonli o'tmishga ega mamlakat, ammo uning kelajagi hali ham noaniqligicha qolmoqda. Garchi Gaiti o'tgan o'n yilliklarda og'ir kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, yigirmanchi asrning 60-80 yillarda gavjum bo'lgan Gaitining turizm sohasi sekin-asta qaytmoqda. Dam olish maskanlari va investitsiyalar ushbu marvaridni yana bir bor Karib dengizidagi sayyohlik markaziga aylantirmoqda.

Xristofor Kolumb 6 dekabr 1492 yilda Mole-Sankt-Nikolasga tushganida, Gaitida Taino hindulari yashagan. Kolumb orolga Hispaniola deb nom berdi. Taino Aravak hindularining tinchlikparvar qabilasi, cannibalistik Karib hindularining tez-tez zo'rvonlik bilan bosqini natijasida zaiflashgan edi. Qisqa vaqtda, Taino tug'ilgan joy deyarli yo'q qilindi. Bugungi kunda Gaitida Taino qonining aniq izlari yo'q.

Labadee-Royal Gaitidagi "Caribbean International" tomonidan uzoq muddatli ijaraga berilgan dam olish maskani. Garchi ba'zida reklamalarda o'ziga xos orol sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, u aslida Hispaniolaning qolgan qismi bilan qo'shni. Labadeega kruiz kemalari yetib kelishadi va yangi qurilgan ispan qishlog'iga to'xtaydi. Gaitidagi Flea Marketda an'anaviy raqs tomoshalari, ko'plab plyajlar, suv sportlari va suv parki mavjud.

Gaitining diqqatga sazovor joylaridan biri - bu Amerikaning eng katta istehkomi bo'lgan "Citadelle La Ferriere" hisoblanadi. U yerda joylashgan to'plar va eski qurollarni ko'rishingiz mumkin. Siz piyoda yoki otda sayohat qilishingiz mumkin. Frantsiya tomonidan hujumlarga qarshi xavfsizlik chorasi sifatida qurilgan. Qal'aning o'zi Shimoliy Gaitidagi qirollikda joylashgan bo'lib, uni sobiq qul rahbarlaridan biri Genrix Kristof boshqargan. Qal'a Gaitining boy tarixining bir qismidir. U shuningdek tog' tepasida joylashgan bo'lib, Gaitiga eng yaxshi manzarani ko'rish imkoniyatini beradi. Tog'ning pastki qismida siz Genrix Kristofning rafiqasi yashagan Sans Sousi qal'asining qoldiqlarini ham topishingiz mumkin.

Gaitida Port OuPrens muzeyi joylashgan, bu yerda Gaiti tarixi haqida bilib olishingiz mumkin. Bunga Gaitining asos solgan otalari,

ular ishlatgan mudofaa taktikalari, eski hujjatlar va hattoki 1800-yillarda Shimoliy Gaitini boshqargan Anri Kristofning toji haqida ma'lumotbor. Milliy tarix bog'i, Tsitadel Sans Sousi, Ramiers va b. (<https://visithaiti.com/>).

12.4. Kuba turizmining o'ziga xosligi

Kuba Karib dengizidagi maydoni va aholisi jihatdan eng katta davlat hisoblanadi. Mamlakat maydoni 110.9 ming kv.km. ni tashkil qiladi, aholisi 11.5 mln. kishini tashkil etadi. Kubada turizm mamlakat iqtisodiyoti, davlat budjeti daromadining muhim sohasi hisoblanadi. Kubani jozibali qiladigan narsalar, uning tabiati, tarixiy-madaniy va rekreatsion resurslari (go'zal landshaftlar, yer va suv ekotizimlar, ajoyib ob-havosi) hisoblanadi.

Kuba XX asrning boshidan o'ziga turistlarni jalb qilib bilgan, Gavanaga 1915-1930 yillarda Karib dengizining har qanday shahridan ko'p turist kelgan. Hatto 50-yillarda Gavana "Kuba Las-Vegasi" degan nomni ham olgan. Ammo, 1959 yilda AQSh bilan munosabat yomonlashgandan keyin turizmni mazasi qochdi, chunki 1961 yilgacha mamlakatda dam oluvchilarning 80%i AQShliklar tashkil etar edi. 1961-1991 yillarda, yani Sovet tizimi ta'sirida bo'lgan paytda turizm rivojiga oz-moz harakat qilingan. Ammo, Kuba SSSRning shakar yetistirish bazasiga aylanib qolgan edi. Kubaga keladigan turistlarning asosiy qismi Kanada va Yevropa mamlakatlari fuqarolari tashkil eta boshladi. Turistlar asosan poytaxt Gavanaga va Varadero, Kayo-Koko, Olginaga kelishadi. Ularda dayving va boshqa faol turizm turlariga yaxshigina sharoit mavjud.

YUNESKO ro'yxatiga kirgan eski Gavananing tarixiy markazi, Syerra-del-Felipe, Rosario, Guanakabibes biosferaviy qoriqxonalar, San-Felipe qoriqxonasi, Baxia-de-Naranxo, Bakanao va La-Mensura tabiiy parklari, Syerra-Maestra milliy parki kabi ob'yektlar ko'plab turistlarni o'ziga jalb qila boshladi.

Tarixiy obidalari: Gavanadagi Kapitoly (AQShninkiga o'xshatib qurilgan), 1838 yilda qurigan Bolshoy teatr, Kafedral bosh cherkov, La-Kabanya, La-Fuersa qasri, Santa-Klara monastiri. Muzeylar: Milliy, Antrapologiya, Ernest Xemungey, Revolutsiya, Etnologiya, Keramika, Napoleon.

Tabiiy go'zal joylar: El-Nicho sharsharasi, Vinyales vodiysi, hindularning Guam qishlog'i.

Kubaga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 4.7 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakat xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 3.0 mlrd. dollarni tashkil etgan. Hozirgi paytda Kuba deyarli butun dunyodan turistlarni qabul qilmoqda. Eng ko'p Kanadadan (600.0 ming), Germaniyadan (115.0 ming), Buyuk Britaniyadan (200.0 ming), Ispaniyadan (150.0 ming) qabul qiladi. Bundan tashaqi, Italiya, Frantsiya va Meksikadan ham ko'p mehmon keladi.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 894 ming kishini tashkil etgan.

12.5. Bagam orollari, Grenada hamda Antigua va Barbuda mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi

Bagam orollari. Bagam orollari Karib dengizi havzasidagi davlat. Vest Indiyada 700 dan ortiq orollarda, AQShning Florida shtati qirg'oqlarigacha va Kubaning sharqiy qirg'oqlarigacha cho'zilib ketgan marjonli qoyalarda joylashgan. Yirik orollari: Nyu-Provides, Andros, Kasta Bagama, Kasta Abako, Kichik Abako, Berri. Maydoni 13.9 ming kv.km. Aholisi 389 ming kishi (2020y). Mamlakat poytaxti Nassau shahri. Dindorlarning aksariyat qismi protestantlar. Rasmiy tili ingliz tili. Iqlimi tropik, passat. Orollar asosan savana va to'qaylar bilan qoplangan. Doimiy yashil o'rmonlar saqlanib qolgan. Qirg'oq bo'ylarida kokos palmalari o'sadi. Hayvonot dunyosi nisbatan kambag'al.

Mamlakat iqtisodiyotini asosini chet el turizmi va bank offshori tashkil etadi. Mamlakat dunyoning yirik moliyaviy markazlardan biridir. Soliq imtiyozlari tufayli ko'plab jahon banklari o'z ofisini shu yerda ochgan. Sanoatida neftni qayta ishlash, formatsevtika, tsement ishlab chiqarish, yog'och tayorlash sohalari mavjud.

Turizm sanoati to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita Bagamiya ishchilarining taxminan 50 foizini ish bilan ta'minlaydi va mamlakat YAIMining taxminan yarmini tashkil etadi. Bagam orollari yangi ming yillikni turizm va sayyohlik uyg'onishlari bilan kutib oldi. 1992 yilda hukumat tarkibidagi o'zgarish, marketing strategiyasida tuzatish va orol infratuzilmasiga 2.0 milliard dollar miqdorida sarmoya ajratish

dam olish va ishbilarmon sayyohlar uchun mo'ljallangan joyni qayta kashf etishga yordam berdi.

Bagama orollariga 1998 yilda Karib dengizidagi mehmonxonalar uyushmasi tomonidan "Excellence for Crystal Palm" mukofoti topshirildi. Ushbu nufuzli mukofot Bagama hukumatini sayyohlik menejmenti va vizyoner yetakchiligidagi mukammalligi uchun tan olib berildi. Ushbu sharaf sayyohlikning tobora ommalashib borayotgani aks ettirar edi, mamlakatning Turizm vazirligi Bagam orollari barcha Karib orollari orasida eng mashhur joy deb e'lon qilishga asos edi.

Keyingi yil Caribbean Tourism Office (CTO) statistik ma'lumotlariga ko'ra, 1.3 milliarddan ortiq amerikaliklar Bagamga tashrif buyurishdi.

1998 yil o'zi bilan mehmonxonalar va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga 1 milliard dollarlik sarmoya olib keldi. Ushbu investitsiyalarning eng ta'sirchan qismi Paradise oroliga bo'ldi, u yerda dastlab 450 million dollarlik, so'ngra 840 million dollarlik investitsiya mehmonxonalar sonini ikki baravarga oshirdi.

Sayyohlar uchun eng mashhur oylar yilning birinchi chorakida bo'lib, sentyabr oyi olomondan qochish uchun eng yaxshi imkoniyatni taqdim etadi. Umuman olganda, barcha yo'nalishlar ushbu oylik sxemasi bo'yicha Out Islands - Bimini, Eleuthera, Abaco, Exuma va Nassau va Paradise Island va Grand Bahama Island tashqarisidagi boshqa barcha orollar bilan sentyabr va oktyabr oylarida kamroq faollikni namoyish etadi.

2018 yil mamlakatga 1,627 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. O'sha yil ular qilgan sarflar 3.355 mln. dollarni tashkil etgan.

Grenada davlati kichik Antillalar guruhida joylashgan va Janubiy Grenadin orollarining bir xil nomdagi katta orolini va kichik guruhini egallaydi. G'arbdan Karib dengizi, Sharqdan - Atlantika okeani tomonidan yuviladi. Grenada vulqon tufayli kelib chiqqan oroldir, u juda chiroyli qirg'oqqa ega, qulay joylar ko'plab tanho sayohlarni jalb qiladi. Orolning ichki hududlari zich tropik o'rmonlar, tog' tizmalari, daryolar, palapartishlik va chiroyli ko'llarni egallaydi. Umuman olganda, bu joy tinchlik va yolg'izlikni qidiradigan sayyohlarga qulay maskandir.

Poytaxti - Sankt-Jorjes shahri. Grenada iqlimi - subekvatorial tropik. O'rtacha oylik havo harorati + 25..+ 28°S, shartli ravishda

"sovuq" oylar-noyabr, dekabr, yanvar va fevral. Quruq mavsum yanvar-may oylarida davom etadi. Iyun-noyabr oylarida orolda bo'ronlar va qisqa yomg'irlar bo'lishi mumkin.

Grenadadagi asosiy dam olish maskanlari: "Grand ans" va "Morne Rouge" -orolning asosiy kurort hududi sanaladi. Sohil chizig'i bilan ajralib turadi. Bu yerda ko'plab mehmonxonalar, barlar va restoranlar sayohlarni jalb qiladi.Grenville orolning sharqiy qirg'og'ida joylashgan Grenadaning ikkinchi yirik shahri. Har yili, iyul oyi oxirida va avgust oyining boshida, bu yerda qullikdan ozod bo'lish sharafiga "Rainbou Siti" festivali nishonlanadi. Orolning Janubiy - G'arbiy qismi plyajlari bilan mashhur. Sankt-Jorjes shahridan faqat 4 km. masofada joylashgan eng go'zal plyajli orol - Grand Ens Beach. Plyajning shimoliy qismida meva, ziravorlar va hunarmandchilik mahsulotlarini taklif qiluvchi kichik bozor mavjud. Grenadaga yetib borishning eng qulay varianti - Londonda joylashgan British Airways reysi.

Ko'pgina sayohlarni jalb qilishda hech qanday begonalar yoki boshqa xavfli dengiz aholisi yo'q, ular okeandan ajralib turadi. Ammo, ochiq dengizda suzish xavfli, chunki qirg'oq oqimlarining tabiati juda bo'ronli va ba'zi dengiz aholisi xavfli.

Antigua va Barbuda shu nomli orollardan tashkil topgan davlat. Sharqiy Karib dengiziga tegishli bo'lgan orol davlati, shuningdek, odam yashamaydigan uzoq Redonda orolini ham o'z ichiga oladi, Atlantika okeani va Karib dengizi o'rtasida, Puerto-Rikoning janubi-sharqida joylashgan.

Rasmiy til - Ingliz tili, Davlat va boshqaruv shakli konstitutsiyaviy - parlament monarxiyasi, maydoni - 442 km², Antigua: 281 km², Barbuda: 161 km², aholi - 97000 (185-chi) (2019y.), aholi zichligi - km² ga 219 kishi. Inson taraqqiyoti indeksi 0.778 (78-chi, 2019y.). Valyutasi Sharqiy Karib Dollari (XCD). Mustaqillik 1981 yil 1-noyabr (Buyuk Britaniyadan).


Ma'muriy-hududiy jihatdan 7 rayonga bo'lingan. Poytaxti – Sent-Jons shahri va porti. Antigua va Barbuda 1981 yilda qabul qilingan Konstitutsiya bo'yicha Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kiruvchi mustaqil davlat.

Antigua - bu ikki orolning tog'li qismi (Obama tog'i , sobiq Boggi cho'qqisi, 402 m.) va qirg'oq nisbatan boy tuzilgan, dengizdagi orollar bilan, ba'zi birlari chuqur, tropik o'rmon oldidagi yarim oy

shaklidagi plyaj ko'proq ochiq yarim oy plyajlari va chuqur cho'ntak plyajlari. Shimoli-sharqiy sohil tekislikdan, botqoqlikdan toshloqqacha, faqat bir nechta kattaroq, ammo ko'p sonli kichik qumli plyajlar mavjud.

Barbuda - bu tekis, aholisi kam orol, deyarli zo'r qirg'oqqa ega orol. U deyarli to'liq plyaj bilan o'ralgan, palma daraxtlari bilan qoplangan yoki butazor oldida joylashgan. Suv yetishmasligi tufayli plyajlar yashashga yaroqsiz, shuning uchun sayyohlik korxonalari ozgina bo'lib, ular ifloslanmagan va tabiiy hisoblanadi.











Turizm Antigua va Barbuda iqtisodiyotining asosidir va ish bilan ta'minlash va valyuta yaratish bo'yicha yetakchi tarmoq hisoblanadi. 1999 yilda bu YAIMning 60 foizini va barcha ish o'rinlarining yarmidan ko'pini tashkil etdi. 1998 yilgi "americas review" ma'lumotiga ko'ra, turizm 1998 yilda YAIMga to'g'ridan-to'g'ri 15 foiz va bilvosita 40 foiz hissa qo'shgan. Ushbu sohadagi real o'sish 1985-90 yillardagi o'rtacha 7 foizdan, 1991 yildan 8.0 foizdan ko'tarilgan.



Chizma-12.1. Antigua va Barbuda orollarining sputnikdan ko'rinishi.

Tashrif buyuruvchilarning umumiy soni 1995 yildagi 471.0 mingdan 1999 yilda 588.0 ming kishini tashkil etdi. 1999 yilda kruiz kemalari orqali kelishlar 325.2 ming kishini tashkil etgan. 1999 yilda sayyohlarning aksariyati Buyuk Britaniya va AQShdan kelgan. 1990 yildan buyon tashrif buyuruvchilarning xarajatlari doimiy ravishda oshib borgan, ularning umumiy xarajatlari 1999 yilda 782,9 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Jadval-12.3. Tashrif buyuruvchilarning mamlakatlar bo'yicha statistikasi

Mamlakat	2017	2016	2015	2014	2013
 Qo'shma Shtatlar	96,347	108,652	94,617	95,332	88,619
 Birlashgan Qirollik	70,701	76,512	77,890	71,193	68,854
 Kanada	22,932	21,196	23,270	27,701	30,235
 Italiya	8,527	8,600	7,032	7,976	7,942
 Trinidad va Tobago	4,250	3,768	3,331	3,546	3,746
 Dominika	4,153	3,988	3,728	2,913	2,954
 Yamayka	3,876	3,932	3,857	3,543	3,273
 Barbados	2,863	2,878	2,916	2,934	2,920
 Sent-Kits va Nevis	2,213	2,651	2,175	2,490	2,741
 Germaniya	2,120	2,165	2,505	2,665	2,443
Jami	247,320	265,187	250,450	249,316	243,219

Jadvaldan ko'rinadiki, tashrif buyuruvchilarning umumiy soni 2017 yilda 247.0 ming kishini tashkil etgan, yani yillar davomida unchalik o'zgarishdan qolmoqda. Mamlakatlar bo'yicha esa Kanadadan tashqari (bu mamlakatdan keluvchilar ancha kamayib ketgan) barchasida uncha katta o'zgarish qayd etilmagan.

Qisqacha xulosalar. MezoAmerika mamlakatlari va Karib dengizi havzasi mamlakatlari boy va faravon Shimoliy Amerika xalqi hisobidan sekin-asta turizmni rivojlantirishga harakat qilishmoqda. Ayniqsa, Meksika amerikaliklar oqimi hisobidan turizm rivojlanmoqda (AQShdan Meksikaga oqadigan turistlar mamlakatlararo oqimlar ichida dunyoda birinchi o'rinni egallaydi). Bu region o'zining bioxilma-xilligining boyligi jihatidan dunyoda alohida ajralib turadi, ayniqsa Kosta Rika, Gonduras va Nikaragua kabi mamlakatlar bundan foydalanib turistlar oqimini oshirib borishmoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Mezoamerika mamlakatlari nimalarga tayanib turizmni rivojlantirishga harakat qilishmoqda?
2. Karib dengizi turizmida qaysi davlat yetakchilik qiladi?
3. Meksika turizmni rivojlantirishda nimalarga asoslanadi?
4. Xoriji turistlarni Kosta Rika mamlakatiga jalb qiluvchi omillarni ayting.
5. Nikaragua mamlakati turizmining ustuvor jihatlari nimada?

6. Gonduras mamlakatda turizmining qaysi yo'nalishlarini rivojlantirishga imkoniyati bor?
7. Beliz mamlakati nimasi bilan sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda?
8. Dominika qanday omillarga asoslanib turizmni rivojlantirgan?
9. Kuba mamlakatining turistik salohiyatini gapirib bering.
10. Bagam orollarida turizmning qaysi yo'nalishlari yaxshi rivojlangan?

Glossariy

Mezoamerika - Amerika qit'asi odatda simoliy va janubiy deb ajratiladi, ammo Meksikadan tortib to Panama davlatigacha bo'lgan hududni alohida ajratishadi, chunki bu hudud bir paytlar qadimiy tsivilizatsiya o'cho'g'i bo'lgan va ko'plab o'ziga xoslik, shu bilan birga umumiylikka ega.

Kochibolka - Markaziy Amerikadagi eng katta ko'l bo'lib, u juda jozibalidir, u odatda Nikaragua ko'li deb nomlanadi. Kochibolka ko'li har yili juda ko'p sayyohlarni jalb qiladi, ularning aksariyati ko'ldagi ikkita vulqon tomonidan tashkil etilgan katta vulqon oroli bo'lgan Ometepaga tashrif buyurishadi.

Roatan - Karib dengizidagi Gonduras ko'rfazidagi orollardan biri. Kruiz kemalari uchun mashhur port. Roatan oroli, o'zining go'zal manzaralari va xilma-xilligi tufayli Gondurasning eng mashhur sayyohlik joylaridan biridir. Orolida Iguana fermasi, Karamola bog'lari kabi ko'plab diqqatga sazovor joylar mavjud.

Barrier Reef – kattaligi jihatdan riflar ichida dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan, Beliz mamlakati qirg'oqlari yaqinida joylashgan rif hisoblanadi, 450 dan ortiq dengizdagi orollar, ajoyib baliq ovlari, shamol so'rfing, suzish, qayiqda suzish, paddleboard, rafting va baydarka uchun ko'plab daryolar, hayvonot dunyosi va o'simlik dunyosi bilan turli xil o'rmonlar va yovvoyi tabiat qo'riqxonalari, piyoda yurish, qushlarni tomosha qilish va vertolyot bilan ekskursiyalar uchun imkoniyatlarga ega.

Karib havzasi – Shimoliy va Janubiy Amerikaning o'rtasida joylashgan dengiz, bu dengizda ko'plab orollar mavjud va ularning 20dan ortig'i alohida davlat sifatida shakllangan, jumladan Kuba, Yamayka, Gaiti, Bagam va b.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Amerika mintaqasida xalqaro turistik tashriflar va xalqaro turizm tushumlari bo'yicha Karib dengizi mamlakatlari nechanchi o'rinda turadi?

- a) ikkinchi;
- b) uchinchi;
- c) to'rtinchi;
- d) birinchi.

Xorijiy turistik tashriflar bo'yicha qaysi davlati Amerika qit'asida AQSh va Kanadadan keyingi uchinchi o'rinda turadi?

- a) Meksika;
- b) Chili;
- c) Argentina;
- d) Braziliya.

Meksikaga 2019 yilda qancha chet el turistlari tashrif buyurgan?

- a) 41,4 mln;
- b) 28,7 mln;
- c) 57,7 mln;
- d) 26,7 mln.

Meksika turizm bozorini asosan qaysi davlatlar ta'minlaydi?

- a) AQSh, Kanada, Yevropa Ittifoqi;
- b) Braziliya, Kanada, Yevropa Ittifoqi;
- c) Kanada, AQSh, Braziliya;
- d) AQSh, Braziliya, Yevropa Ittifoqi.

Takrorlanmas madaniyat, ispan kolonialligi davridan beri hozirgacha bo'lgan davrning ajoyib arxitekturasi, Mezoamerikaning qadimiy shahar xarobalari, iqlimining dam olish uchun juda qulayligi, tabiiy go'zal go'shalarning ko'pligi kabi jozibadorlik omillariga ega bo'lgan mamlakat qaysi?

- a) Meksika;
- b) Kanada;
- c) Braziliya;
- d) Argentina.

Dunyoning eng katta karridosi, dunyoning shahar ichidagi eng katta maydonlaridan biri va G'arbiy yarim sharda eng katta bosh cherkovi qaysi mamlakatda joylashga?

- a) Meksikada;
- b) AQShda;
- c) Kanadada;
- d) Braziliyada.

Dunyodagi eng uzun yer osti daryosi - San Aktuan, dunyoda 7 - o'rinda turuvchi vulqon Piko de Orisaba, tushish bo'yicha dunyodagi eng chuqur g'or - Qaldirg'ochlar g'ori qaysi mamlakatda joylashgan?

- a) Meksikada;
- b) Braziliyada;
- c) Chilida;
- d) Kosta Rikada.

Tibbiy turizm bo'yicha dunyoda Tailanddan keyin ikkinchi o'rinni egallovchi davlat qaysi?

- a) Meksika;
- b) Filippin;
- c) Italiya;
- d) Rossiya.

Bibi Maryam Gvadelupa Bazilikasi, mamlakatning nozik san'at qasri, Trotskiyning uy-muzeyi, Kafedral bosh cherkov, Monte-Alban, Oaxaka shahri yaqinidagi arxeologik komplekslar qaysi mamlakatning 2020 yilda diqqatga sazavor joylarining top – beshtaligini tashkil etdi?

- a) Meksikaning;
- b) Ispaniyaning;
- c) Rossiyaning;
- d) Argentinaning.

Qaysi mamlakatning nomining lug'avi ma'nosi "boy qirg'oq" degan ma'noni beradi?

- a) Kosta Rika;
- b) Gvadelupa;
- c) Gonduras;
- d) Gaiti.

Qaysi mamlakatning asosiy daromad manbai - turizm va tropik mevalar, kofe, kakao eksportidan tushadigan tushum sanaladi?

- a) Kosta Rika;
- b) Panama;
- c) Ekvador;
- d) Venseula.

Ikki tomonidagi okeanlar sharofati tufayli ekzotik qora qumli plyajlarga, qo'riqxonalar, vulkanlar, to'g'larga boy, ajoyib flora va faunaga, yovvoyi tabiat hukmron o'rmonlar (mamlakat territoriyasining uchdan ikki qismi), sharqiragan sharsharalar, tumanli ko'llarga ega mitti davlat qaysi?

- a) Kosta Rika;
- b) Maldiv orllari;
- c) Seyshel orollari;
- d) Panama.

Mezoamerika mamlakatlari ichida turizm eng yaxshi rivojlangan va turizm sohasi eng tez o'sayotgan davlat qaysi?

- a) Kosta Rika;
- b) Panama;
- c) Nikaragua;
- d) Ganduras.

Mamlakatning 20 foizdan ortiq maydonini qamrab oladigan 78

ta qo'riqlanadigan hududga ega va dunyodagi biologik xilma-xillikning 7 foiziga ega. Bu qaysi mamlakat?

- a) Nikaragua;
- b) Panama;
- c) Meksika;
- d) Braziliya.

Dunyodagi ikkinchi eng katta to'siq marjon rifiga (Barrier Reef) kira oladigan, qadimgi Maya xarobalari, mustamlakachilik qishloqlari va bayram tantanalari kabi ko'plab diqqatga sazovor joylarni taklif eta oladigan mamlakat qaysi?

- a) Gonduras;
- b) Kosta Rika;
- c) Meksika;
- d) Gvatemala.

Tinch, osoyishta, nisbatan xavfsiz, siyosiy jihatdan barqaror, demokratik boshqaruvga ega, xalqining ingliz tilida so'zlashuvi turizmni jadal rivojlantirishga imkon bemoqda. Gap Mezoamerikaning qaysi mamlakati haqida bormoqda?

- a) Beliz;
- b) Nikaragua;
- c) Gvatemala;
- d) Meksika.

Qaysi mamlakatning 1508 yilda qurilgan Osama qasrida Xristofor Kolumbning qabri bor?

- a) Dominikada;
- b) Ispaniyada;
- c) Italiyada;
- d) Portugaliyada.

20 asrning boshidan o'ziga turistlarni jalb qilib bilgan, 1915-1930 yillarda Karib dengizining har qanday shahridan ko'p turist kelgan. Hatto 50-yillada Las-Vegasga qiyos qilishgan shahar qaysi?

- a) Kuba poytaxti Gavana;
- b) Dominika poytaxti Santa-Dominko;
- c) Panama poytaxti Panama shahri;
- d) Yamayka poytaxiri Kingston.

YUNESKO ro'yxatiga kirgan poytaxtning tarixiy markazi, Syerra-del-Felipe, Rosario, Guanakabibes biosferaviy qoriqxonalar, San-Felipe qoriqxonasi, Baxia-de-Naranxo, Bakanao va La-Mensura tabiiy parklari, Syerra-Maestra milliy parki kabi ob'yektlar qaysi mamlakatning mashhur joylari sanaladi?

- a) Kuba;
- b) Ispaniya;
- c) Portugaliya;

d) Meksika.

Quyidagilardan qaysi mamlakat dunyoning yirik moliyaviy markazlardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotini asosini chet el turizmi va bank offshori tashkil etadi?

- a) Bagam orollari;
- b) Bermud orollari;
- c) Seyshel orollari;
- d) Buyuk Britaniya.

Quyidagilardan qaysi mamlakatda turizm sanoati to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishchilarining taxminan 50 foizini ish bilan ta'minlaydi?

- a) Bagam orollari;
- b) Kosta Rika;
- c) Gonduras;
- d) Panama.

Vulqon tufayli kelib chiqqan orolda joylashgan, juda chiroyli qirg'oqlarqa ega, ko'plab tanho sayohlarni jalb qiladigan, ichki hududlari zich tropik o'rmonlar, tog' tizmalari, daryolar, chiroyli ko'llarni egallagan, umuman olganda, tinchlik va yolg'izlikni qidiradigan sayyohlarga qulay orol - mamlakat qaysi?

- a) Grenada;
- b) Gvadelupa;
- c) Yamayka;
- d) Puerto Riko.

Meksikaning asosan qaysi shahrida AQShliklar tomonidan ekskursiyalar amalga oshiriladi?

- a) Tiwana;
- b) Mexiko;
- c) Gvadalaxara;
- d) Monterrey.

Meksikaga keluvchi sayyohlar asosan qaysi qit'alardan tashrif buyuradi?

- a) Amerika va Yevropadan;
- b) Osiyo va Yevropadan;
- c) Afrika va Amerikadan;
- d) Osiyo va Afrikadan.

Kosta-Rikada turizm qaysi faslda avj oladi?

- a) Qishda;
- b) Bahorda;
- c) Yozda;
- d) Kuzda.

Lotin Amerikasidagi tabiati eng boy mamlakat qaysi?

- a) Kosta-Rika;
- b) Argentina;
- c) Chili;
- d) Lotin Amerikasida tabiati boy mamlakat yo'q.

Qovurilgan bananlar vatani qaysi davlat?

- a) Kosta – Rika;
- b) Paragvay;
- c) Peru;
- d) Hindiston.

XIII MAVZU. JANUBIY AMERIKA MAMLAKATLARIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad Janubiy Amerika regionini turizmining o'ziga xosligi, bu regionda joylashgan mamlakatlarning turizmini yanada rivojlantirishdagi imkoniyatlari va bu imkoniyatlarni hayotga tabiiq etish yo'llarini bilib olishdan iborat.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

13.1. Janubiy Amerika turizmining o'ziga xosligi

13.2. Braziliya mamlakatining turizm salohiyati

13.3. Chili, Boliviya va Ekvador mamlakatlari turizmi tahlili

13.4. Argentina va Paragvay mamlakatlarining turizm

iqtisodiyoti

13.5. Venesuela va Gayana mamlakatlarining turizm

iqtisodiyoti

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Amerika mintaqasi, Janubiy Amerika, ink tsivilizatsiyasi, Patagoniya, Amazoniya, qo'riqxonalar, milliy parklar, ekzotika, tabiiy go'zal joylar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристическое обслуживание. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристическое обслуживание. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
4. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. -96 с.
5. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
8. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.

9. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
10. Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.
11. www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization.
12. <https://www.World's most popular destination revealed> (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
13. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
14. www.wikipediya.ru
15. <https://knoema.ru/atlas/>
16. <https://ru.unesco.org/>
17. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
18. <http://www.russobras.ru/> - Braziliya to'g'risidagi sayt
19. <http://www.venezuela.ru> – Venesuela to'g'risidagi sayt
20. <http://www.sobrechile.org/index.php> - Chili to'g'risidagi sayt
21. <http://www.chile.ru> – Chili to'g'risidagi sayt
22. <http://www.turismo.rs.gov.br> – Braziliyaning turizm masalari bo'yicha sayti
23. <http://www.dadosefatos.turismo.gov.br> – Braziliya vazirligi
24. <http://www.setu.pr.gov.br> – Braziliyaning turizm bo'yicha davlat kotibiyati
25. <http://www.chile.travel/index.php>.
26. <http://www.v-brazil.com/>

13.1. Janubiy Amerika turizmining o'ziga xosligi

Janubiy Amerikada quyidagi davlatlar joylashgan: Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Gayana, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Surinam, Urugvay, Gviana (Frantsiya), Chili, Ekvador, Janubiy Jorjiya va Janubiy Sandvich orollari (Buyuk Britaniya), Folklend Orollar (Buyuk Britaniya va Argentina o'rtasida bahsli).

Keying yillarda Janubiy Amerika jadal sur'atda turistik kelishlar sonini oshirmoqda. U noyob tabiiy ob'ektlarga va tarixiy – madaniy yodgorliklarga boy regiondir. Shuning uchun ham Janubiy Amerika yo'nalishi tobora ko'proq Amerika va Yevropa turistlari o'rtasida mashhur bo'lib bormoqda.

Janubiy Amerika sayyohlik maydoni juda keng va ichki xilma - xil. Ushbu zonani tavsiflovchi bir qator xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim:

1) Regionning katta qismi tropik va ekvatorga yaqin kengliklarda joylashgan bo'lib, ular tegishli yog'ingarchilik va harorat tartibini,

shuningdek, turli xil o'simlik va hayvonot dunyosining rivojlanishini belgilaydi;

2) regionning g'arbiy qismini And tog'larining baland tog' tizimi egallagan;

3) tabiiy hududlar ekvatoridan janub va shimolda takrorlanadi;

4) Butun Janubiy Amerika yagona etnik-tarixiy-madaniy makon bo'lib, uning birligi mustamlakachilik davridagi rim-katolik tsivilizatsiyasi tufayli, hindlarning qadimgi tsivilizatsiyalari ustiga qo'yilgan;

Mintaqada to'rtta turistik makro hudud mavjud:

1. Shimoliy: Venesuela (Karakas), Kolumbiya (Bogota), Gayana (Jorjtaun), Surinam (Paramaribo);

2. Braziliya (Braziliya);

3. Janubiy: Argentina (Buenos - Ayres), Paragvay (Asunsion), Urugvay (Montevideo);

4. Andlar: Boliviya (Sukre), Peru (Lima), Chili (Santyago), Ekvador (Kito).

Janubiy Amerika - boy resurslarga, shu jumladan sayyohlik resurslariga ega bo'lgan katta materik. Bu materikda sayyoramizdagi eng baland Anxel sharsharasi bor (Venesuela). Dunyodagi eng sersuv daryo – Amazonka (Braziliya) ham shu yerda oqadi. Baland And tog'larining ulug'vor cho'qqilari, boy Amazoniya hayvonot dun'yosi, yomg'irli o'rmonlari ham turistlarni maftun qiladi. Diqqatga sazovar madaniy yodgorliklar orasida bizgacha yetib kelgan qadimiy inklar tsivilizatsiyasi, qadimiy Machu – Pikchu va Kusko shaharlari xarobalari, Naska past-tekisligi, mustamlaka davri shaharlari bor. Ammo, bu materikning ulkan turistik potentsialidan juda sust foydalanilmoqda.

Janubiy Amerikaga 2017 yilda turistlar oqimi 8.3% ga ko'paygan. Bu o'sish quyidagi davlatlar hisobidan bo'lgan: Kolumbiya (+21,4%), Urugvay (+21,0%), Paragvay (+17,5%), Chili (+14,3%), Ekvador (+13,4%), Peru (+7,7%).

13.2. Braziliya mamlakatining turizm salohiyati

Braziliya Janubiy Amerikada joylashgan davlat. Braziliya «qizil daraxt» degan ma'noni anglatadi. 1822 yilda Portugaliyadan ajralib mustaqil imperiyaga aylandi. 1889 yili respublika deb e'lon qilinadi.

Poytaxti Braziliya shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni – 8514.9 ming kv. km., aholisi – 217.3 mln. kishi (2020 - yil), tili - portugal, dini - katolik, pul birligi - kruzeyro. Yirik shaharlari: San-Paulu, Rio-de-Janeyro, Belu-Orizonti, Resifi, Portu-Alegri, Salvador, Fortaleza, Kuritiba, Belen, Braziliya, Kampus, Niteroy, Manaus. Milliy bayrami - 7 sentyabr - Mustaqillik kuni (1822 yil).

U Lotin Amerikasidagi eng yirik va iqtisodiy jihatdan qudratli davlat hisoblanadi. G'arbdan sharqqa 4000 km va shimoldan janubga 4300 km cho'zilgan Braziliya, Janubiy Amerika hududining deyarli yarmini egallaydi va Ekvador va Chilidan tashqari, qit'aning deyarli barcha mamlakatlari bilan chegaradosh. Bu mamlakatga xos muhim xususiyat shundan iboratki, mamlakatda portugal tili davlat tili hisoblanadi, vaholanki, Lotin Amerikasidagi boshqa davlatlarda asosan ispan tili davlat tili hisoblanadi. Braziliya 1500 yili portugaliyaliklar tomonidan kashf etilgan, XIX asrga qadar Portugaliya mustamlakasi bo'lgan.

Braziliya va mintaqadagi boshqa davlatlarning yana bir muhim xususiyati shuki, ularning iqtisodiyoti xorij sarmoyasiga, birinchi navbatda, AQSh ga bog'liq. Shu sababli Braziliyaning tashqi qarzi 125 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Mamlakatda 1980 yillardagina bir qancha ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, xorij sarmoyasiga qaramlikdan chiqish chora–tadbirlari ko'rildi va asta – sekinlik bilan industrializatsiya sari yo'l tutildi, chunki mamlakat iqtisodi asosan agrar sohaga asoslangan edi. Hozirgi kunda Braziliya mintaqada iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan davlatga aylandi.

Braziliya asosan tropik mintaqada joylashgan dunyoning eng katta davlatlaridan biri. Tropik va subtropik iqlimli hududlarda joylashgan Braziliya ulkan botanika bog'i sifatida mashhur bo'lib, u dam olish va ta'lim turizmi uchun qulaydir. Bu mintaqaning asosiy sayyohlik resurslari - yovvoyi tabiat, ekzotik o'rmon va, albatta, Amazonka. Ular esa ekskursiya, ko'ngilochar, rafting, ekstremal, baliqchilik, ovchilik kabi turizm turlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda geologik, biologik diqqatga sazavor joylar juda ko'p, birinchi navbatda Amazonka. U kofe (Braziliya kofe yetishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.), futbol (Braziliyaning futbol terma jamoasi besh marta jahon chempioni bo'lgan (1958; 1962; 1970; 1994; 2002. Bunday yuksak natijaga

dunyoning hech qaysi mamlakatining terma jamoasi erishgan emas. Braziliya fuqarosi, futbol qiroli Peleni kim bilmaydi deysiz, ko'p futbolchilarimiz Peleday futbolchi bo'lishni orzu qilishadi.), seriallarning vatani ham hisoblanadi. Turizm Braziliya iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sayotgan muhim tarmog'idir.

Braziliyada YUNESKOning moddiy va ma'naviy meros ro'yxatiga kiritilgan 23 ob'yekt bor. Mamlakat hududining 60%ni o'rmonlar tashkil etadi. Qimmatbaho turdagi daraxtlar zahirasi bo'yicha Braziliya jahonda birinchi o'rinda turadi, ammo ulardan unumli foydalanilmaydi, faqat biroz kauchuk (30 -50 ming t.), yong'oq, palma mevalari, Paragvaucha choy (Erbimate) olinadi.

Braziliya turizm bo'yicha katta potensialga ega bo'lgan mamlakat. Bu yerda har yili 6 millionga yaqin turist tashrif buyuradi. Braziliya turistlarga dam olishning rang-barang variantlarini bera oladigan mamlakatdir: ekoturizm, kurortlar, tarixiy va madaniy turizm. Eng mashhur yo'nalishlar: Amozoniyaning yomg'irli o'rmonlari, Shimoli-sharqiy regionning plyaj va dyunalri, Panatal chuqurligi, Rio-de-Jenayro va Santa-Katerinaning plyajlari, Minas-Jeraysening madaniy va tarixiy turizmi hamda San-Pauluning ish bilan bog'liq turizmi. Turist eng ko'p keladigan shaharlar: Rio-de-Jenayro, Iguasi, San-Paylu, Florianopolis, Salvador, Balneariu-Kamboriu, Fortaleza, Natal, Buzius, Manaus.

Braziliyaning 2018 yildagi top-o'n diqqatga sazavor joylari: Rio-de-Jenayrodagi 700 metrli tog' ustida o'rnatilgan 30 metrli Iso-Masihning haykali (U dunyoning turistik yetti mo'jizadan biri deb ham sanaladi); 2. Argintina, Paragvay chegaralaridagi Iguasi sharsharasi (3km.ga cho'zilib ketgan 275ta sharshara); 3. Havzasi mamlakatning qariyb yarmini o'z ichiga olgan, dunyoning eng ser suv Amazonka daryosi; 4. Har yil mln.lab kishilarni o'ziga jalb qiluvch Rio karnavali; 5. Pantanal - butunlay botqoqlikdan iborat tektonik chuqurlik, bu joy yovoyi hayvonlarni ko'rish bo'yicha dunyodagi eng zo'r joy sanaladi; 6. Salvador plyajlari (Porto de Barra, Farol-da-Barra, Plakaford, Tinhare va Boipeba). Salvador shahri 1549 yilda qurilgan, mamlakatning quldorlik davrida poytaxt bo'lgan, o'sha davr arxitekturasi va madaniy qadriyatlarni yaxshi saqlab qolib bilgan.7. YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Olinda shahrining tarixiy markazi. Shahar 1535 yil qurilgan, shakar savdosi markazi bo'lgan; 8. YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Fernando-de-Noronya arxipelagi,

Atlantika okeanida joylashgan 21 oroldan iborat. Janubiy Atlantikaning eng katta qushlar makoni. 9. Amazonas teatri, Manuas shahridagi opera teatri 1897yil (mamlakat kauchukdan katta daromad ko'rayotgan davrda) hashamat qilib qurilgan. 10. Opu-Pretu (qora tillo) shaharchasi.17 asrda qurilgan, 17-18 asrlarda oltin vasvasasi, Braziliyaning oltin asrida gullab yashnagan.

Braziliyaga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 6.6 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakat xalqaro turizmdan 6.3 mlrd. dollar daromad ko'rgan. Braziliyaga eng ko'p Argentinadan (35%), AQSh (9%), Paragvay, Chili, Urugvay, Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Portugaliyadan kelishgan (2012-2016 yillar).

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 10.6 mln. kishini tashkil etgan va ularning xarajati 22.2 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Janubi - sharqiy Braziliya - mamlakatning asosiy iqtisodiy viloyati va asosiy sayyohlik hududi. Bu yerda dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri - Rio -de -Janeyro, Guanabara ko'rfazi, ko'plab orollari va kilometrlarga cho'zilib ketgan Copacabana, Ipanema va Lebnon plyajlari. Bu hudud plyaj, o'yin -kulgi, sport, diqqatga sazovor joylar va ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish uchun qulaydir. Ushbu hudud turistlarni eng k'op qabul qiladigan regionlardan sanaladi, bu yerda dunyoning mashhur shaharlaridan biri bo'lgan Rio de Janeyro joylashgan. Bu hududda shuningdek, Speleoturizm (G'orlarda sayohat turizmi) ham rivojlangan.

Mamlakatning shimoli-sharqiy qismi turizmni rivojlantirishda tobora ortib bormoqda, chunki bu mamlakatning eng ekologik toza zonasi. Katta port shaharlari - ajoyib tabiati va tungi hayoti bilan Natal, eski universitet joylashgan Resife va ko'plab arxitektura yodgorliklari hamda Itapan, Pituba va Amaralining mashhur plyajlariga ega Salvador shahri qiziqish uyg'otadi. Bu hudud dam olish, plyaj va ta'lim kabi sayyohlik hududlarini rivojlantirish uchun qulaydir.

Mamlakat janubi Iguazu sharsharasi, milliy bog'lar va ekzotik qushlar parki tufayli mashhurlikka erishmoqda. Janubiy mintaqa safari, rafting, diqqatga sazovor joylar, ekologik turizm kabi turlar uchun qulaydir.

Mamlakat g'arbi ham sayyohlarni o'ziga jalb qiladi, chunki poytaxt Braziliya shu yerda joylashgan. Bu shahar o'zining me'morchiligi bilan mashhur. Bu hudud o'quv, dam olish va

ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish uchun qulaydir.

O'z davrida bozorning serqirra yo'lini bosib o'tgan va o'tayotgan bu mamlakat tajribasini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Braziliya tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bozor munosabatlariga o'tishning o'zi barcha muammolarni hal etmas ekan, uzoq yillar bozor yo'lidan borishiga qaramasdan, bu davlatda yuzaga kelgan ayrim muammolar hali bartaraf etilmagan.

13.3. Chili, Boliviya va Ekvador mamlakatlari turizmi tahlili

Chili Janubiy - G'arbiy Amerikada joylashgan davlat. Hududi 756.626 kv.km. Aholisi 19.6 mln. (2020 y.) kishi, shundan kreollar 68%, Yevropaliklar 30%ni, 2.0%ni hindular tashkil etadi. Yirik shaharlari: Santyago (4.3 mln.), Vinya- del-Mar (302 ming), Valparaiso (276 ming), Talkauano (221 ming), Konsepson (330 ming).

Chili - sayyoradagi eng uzun va tor mamlakat, dunyodagi eng janubiy mamlakat, chunki Antarktidadan atigi 900 km uzoqlikda joylashgan. Chili hududi Tinch okeani sohillari bo'ylab tor chiziqda cho'zilgan (mamlakat uzunligi 4329 km. va kengligi 170 km.), qirg'oq tekisligining tor chizig'i, sharqda kuchli And tizmalari bilan chegaralangan, janubda Antarktidadan Dreyk o'tish yo'li bilan ajratilgan.

Chili hududi F.Magellanning ekspeditsiyasi tomonidan 1520 yilda ochilgan va Ispaniya mustamlakasiga aylantirilgan. XIX asrning boshlarida mustaqillik uchun kurash kuchaydi va 1810 yilda mustaqil Chili davlati yuzaga keldi. Boshqa Lotin Amerikasi davlatlaridan farqli ravishda bu yerda nisbatan siyosiy mo'tadillik hukmron bo'ldi.

Temir yo'llar uzunligi 7.766 km., avtomobil yo'llar uzunligi 79025 km., ichki daryo yo'llarining uzunligi esa 725 km. Asosiy dengiz portlari: Ikike, Valparanso.

Chilidagi eng mashhur park - Puyehu milliy bog'i, Leyk tumanida joylashgan. U 107 ming gektar maydonda abadiy yashil tog'li o'rmonlarda joylashgan. Parkning tabiati juda xilma - xil: vulqon landshaftlari, o'rmon ko'llari, termal buloqlar, palapartishlik va ko'plab noyob o'simliklar.

Chilida yil davomida juda ko'p sonli festival va festivallar bo'lib, ular butun dunyodan kelgan sayyohlar orasida katta talabga ega.

Chilidagi chang'i bayramlari sayyohlar uchun eng mashhur

mavzulardan biridir. Mamlakatda jahon standartlariga javob beradigan ko'plab chang'i kurortlari mavjud. Natijada, ularning mehmonxonalari, shuningdek, Janubiy Amerikadagi eng yaxshi qishki dam olishni taklif qilishadi. Chilidagi eng mashhur chang'i kurortlari orasida: Portillo, Valle Nevada kurortlar tarmog'i va Termas Chillan, chang'i kurorti, bu yerda sportni termal buloqlarda dam olish bilan birlashtirish mumkin.

Shunday qilib, Chili katta sayyohlik salohiyatiga ega va sayyohlarga turli xil hordiq chiqarishlarni taklif qilishi mumkin. Eng mashhur va istiqbolli turlari: tog', sport, ekstremal, plyaj, kognitiv, balneologik, ekologik, tibbiy va boshqalar.

Mamlakatda xalqaro va ichki turizm sust darajada rivojlanmoqda. 2000 yilda bu mamlakatga 1.7 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan, 1999 yilga nisbatan 6,0% ga o'sish kuzatiladi. Lekin 2002 yilda 1.4 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. 2000 yilga nisbatan 2001 yilda 1,1% ga, 2001 yilga nisbatan 2002 yilda 18,0% ga xorijiy turistlar tashrifi kamaygan. Bu keltirilgan misollar mamlakatda turizm sohasiga yaxshi e'tibor qaratilmaganligi natijasidir.

Boliviya - Amerikaning markaziy qismida joylashgan mamlakat. Maydoni 1098581 km². Aholisi 11.6 mln. kishi (2020). Rasmiy poytaxti — Sukre, hukumati joylashgan amaldagi poytaxti - La Pas. Ma'muriy jihatdan 9 departamentga, departamentlar 98 viloyatga bo'linadi.

Boliviyaning g'arbini And tog'lari va baland tog'li Puna platosi egallaydi. Punaning shimoli-g'arbida lava platolari, janubi-sharida balandligi 3800 m. gacha bo'lgan tog' havzalari bor, Qoldiq ko'llar (Poopo) va sho'rxoklar uchraydi. Titikaka ko'lining bir qismi ham Boliviya hududida joylashgan. Shimoli-sharqidagi tekisliklar Amazonka pasttekisligiga tomon asta-sekin pasaya boradi va bu yerda Beni va Mamore daryolari tizimiga kiradigan soy-jilg'alar oqib yotadi.

Ko'pchilik Boliviyani qorli cho'qqilar va tog'lar bilan bog'laydi. Aslida uning aksariyat hududlari tropik tekislik va o'rmonlardan iborat. Tabiatni yovvoyi, buzilmagan shaklda ko'rishni istagan sayyohlar uchun, bu mamlakat ayni mos.

Boliviya dunyodagi tabiiy boyliklarning aksariyati va turli xil ekotizimlar to'plangan: tropik o'rmonlar, And tog'lari, vodiylar, pampalar, chako (chegarasida park landshaftiga ega bo'lgan hududlar), pantanal (past botqoq, issiq davrda quriydi) va boshqalar.

Boliviyaning eng ko'p tashrif buyuriladigan, tabiiy va madaniy turistik joylari: Titikaka ko'li - Janubiy Amerikadagi suv hajmi bo'yicha eng katta ko'l. Janubiy Amerikaga tashrif buyuruvchilarning aksariyati o'zlarining sayohatlarida ushbu ulkan va chiroyli ko'lga tashrif buyurishadi. Titikakani o'rganish uchun ko'lning janubiy qirg'og'iga joylashgan Kopakabanaga tashrif buyurishingiz mumkin. Kopakabanadan siz Quyosh va Oy orollariga sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Butun Janubiy Amerikadagi eng muqaddas va sirli joylardan biri, Inklar tsivilizatsiyasining beshigi, Quyosh va Oy orollaridagi qadimiy xarobalari saqlanib qolgan.

Oruro - Boliviyaning xalq poytaxti deb nomlanadi. Boliviya'dagi eng yirik madaniy tadbir bo'lgan 400 ming tomoshabin va sayyohni jalb qilgan rang-barang festival tufayli shahar butun dunyoga shuhrat qozongan. Shuningdek, atrofdagi diqqatga sazovor joylar: issiq buloqlar, Poopo ko'lidagi flamingolar, Koipasaning katta sho'r ko'llari, Pumitridagi tosh shakllari mehmonlarni o'ziga jalb qiladi.

Sukre - Boliviya'ga tashrif buyurishda albatta ko'rish kerak bo'lgan shaharlardan biri. Mamlakatning konstitutsiyaviy poytaxti dunyodagi Ispaniya mustamlakachilik me'morchiligining eng yaxshi namunalaridan biridir. Sukrening tarixiy markazi YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Mustamlaka cherkovlari va qiziqarli muzeylar, yaxshi kafe va restoranlar, obodonlashtirilgan maydonlar va bog'lar tufayli u Janubiy Amerikaning eng go'zal shaharlaridan biri sifatida shuhrat qozongan. 1625 yilda tashkil etilgan San-Fransisko Xaver universiteti Amerikadagi eng qadimgi ta'lim muassasalaridan biridir. Sukradan bir necha kilometr shimolda dunyodagi eng yirik paleontologik park bo'lib, unda 6000 dinozavr izi bor.

Tivanaku shahri miloddan avvalgi 1500-yillarda tashkil etilgan Kolumbgacha bo'lgan tsivilizatsiyaning muhim markazi. Tiaxuanakoning xarobalari Boliviya'dagi eng muhim arxeologik joylardan biri bo'lib, YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shahar dastlab Titikaka ko'li bo'yida joylashgan. Ko'ldagi suvning bug'lanishi tufayli u endi dengizdan 20 km. uzoqlikda joylashgan. 2000 yil oldin o'rnatilgan Quyosh darvozasi hozirgi kunda Boliviyaning ramziy belgisi hisoblanadi.

La-Pas shahridan shimolga Boliviyaning eng mashhur sayyohlik joylaridan biri, dunyodagi eng xavfli yo'l - Death Road (O'lim yo'li)

bo'ylab Koroikoga borish mumkin. Ushbu yo'ldan yengil avtomobillar, avtobuslar va yuk mashinalari yurib, har yili 200-300 kishining hayotiga zomin bo'lmoqda. Salbiy imij, Death Roadni o'z hayotini xavf ostiga qo'yishga va hech qanday maxsus diqqatga sazovor joylarga ega bo'lmagan kichik shaharchaga tashrif buyurishga tayyor turistlar uchun jozibador qildi.




Diagramma - 13.1. Boliviya 2015-2019 yillarda tashrif buyurgan sayyohlar soni (ming kishi).

Diagrammadan ko'rinadiki, mamlakatda turizm keyingi yillarda barqaror rivojlanib bormoqda.

Ekvador. Bu mamlakat o'zining o'ta boy tabiiy boyliklari bilan ajralib turadi. Uning bir-biridan ancha farq qiladigan to'rt hududi noyob flora va faunani shakllantirgan. Mamlakatda bu noyob flora va faunani asrash uchun 26 ta maxsus muhofaza qilinadigan hududlar tashkil etilgan. Umuman, Ekvador biologik xilma-xillikka ega bo'lgan sayoramizning eng yaxshi 17 mamlakatlardan biri sanaladi.

Bundan tashqari mamlakatning mahalliy aholisi 13ta alohida etnosdan iborat va ularning har biri o'ziga xos an'ana va urf-odatlariga ega. Bu xalqlar turli hunarmandchilik mahsulotlari ishlab charishadi va ularni turistlarga ham ko'p sotishadi. Ularning ko'p qismi Amazoniya hududida yashaydi. Ekvadorning rasmiy tili ispan, ammo ko'pgina mahalliy tillar ham keng tarqalgan.

Mamlakat sanoatida neft ishlab chiqarish salmoqli o'rin egallaydi, tarmoq daromad bo'yicha birinchi o'rinda turadi, turizm esa to'rtinchi o'rinni egallaydi. Ekvador dunyoda eng ko'p banan ishlab chiqaruvchidir, gul yetishtirishda ham salmoqli o'rin egallaydi.

Ekvador tarkibida ko'p jihatdan alohida o'ringa ega bo'lgan, flora va faynasi o'ta noyob bo'lgan, Tinch okeanining qoq o'rtasida

joylashgan Galapagos orollari ham bor. Uning iqlimi issiq, yil – o'n ikki oy deyarli bir xil ob-havoli (yanvarda o'rtacha +25, iyulda o'rtacha +24 gradusni tashkil etadi) joydir. Bu orollarga o'ziga xos flora va faynani ko'rish uchun butun dunyodan turistlar kelishadi.

13.4. Argentina va Paragvay mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti

Argentina Janubiy Amerikaning janubi-sharqida joylashgan davlat. Poytaxti Buenos-Ayres shahri. Iqlimi - tropik, subtropik, mo'tadil iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni – 2780.4 ming kv. km, aholisi – 45.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peso. Aholining asosiy qismi Ispaniya, Italiya, Markaziy Yevropa mamlakatlaridan ko'chib kelganlarning avlod-ajdodi. Rasmiy tili – ispan tili hisoblanadi. Yirik shaharlari: Buenos-Ayres, Rosario, Kordova, La-Plata, Santa-Fe, Tukuman. Bu mamlakat 1816 yilning 9 iyulida mustaqilligini e'lon qilgan.

Argentinaning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti nihoyatda notekis, ayrim siljishlar chuqur inqirozlar bilan almashib turadi. Inqirozdan chiqish uchun hozirgi zamon texnologiyalariga asoslangan sanoat korxonalarini yaratish, xorij sarmoyasini ko'proq jalb etish, ishbilarmonlikni faollashtirish va boshqa yo'llardan foydalaniladi. Braziliya va mintaqadagi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikka katta ahamiyat berildi. 1991 yilning martida Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay davlatlari o'rtasida janubiy Amerika umumiy bozori «Merkosur» tashkil etildi. Ayni vaqtda bu davlat mintaqadagi mamlakatlar ichida eng rivojlanganidir.

YaMM 207.8 mlrd. AQSh dollarni, jon boshiga esa 7900 AQSh dollarni tashkil etadi, bu ko'rsatgich qo'shni davlatlarnikidan ancha yuqoridir.

Mamlakat turli – tuman tabiiy – iqtisodiy resurslarga boy. O'rmon boyliklari jihatdan Argentina Braziliya va Chilidan keyin mintaqada uchinchi o'rinni egallaydi. Bu tabiiy resurslar turizm sohasini rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ichki bozorda chet el kompaniyalari bilan erkin raqobat qilish imkoni yaratilgan. Mamlakat taraqqiyotida transport vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Temir yo'llar uzunligi 34.1 ming km., avtomobil yo'llari uzunligi 54.6 miln. km. ni tashkil etadi.

Mamlakat juda katta maydonga ega, u g'arbdan And tog'laridan (dunyoda Himolay tog'laridan keyin ikkinchi eng baland tog'lar)

sharqqa Atlantika okeani va Argentina dengizi qirg'oqlari va keng daryolargacha chozilib ketgan, shimoldan tropik selvisidan janubga Patagoniyaning muzliklari, ko'llar va sovuq o'rmonlari, Antarktida qirg'oqlarigacha cho'zilib ketgan. Mamlakatda dunyoda bor bo'lgan (sovuq arktik iqlimdan tropik iqlimgacha) barcha iqlim hududlari bor.

Argentina turistlarni o'ziga tabiiy go'zalliklarining ko'pligi, o'ziga xos an'analari, gastronomiyasi bilan jalb qiladi, bunga esa yetarli industriyaga ham egadir. Mamlakatda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta bo'lishiga qaramasdan, turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmagan. Yalpi milliy mahsulotning 1.0%ga yaqini turizm sohasiga to'g'ri keladi. Mamlakatda turizm industriyasini rivojlanishi sust darajada amalga oshirilmoqda.

Mamlakatning eng mashhur joylari: Buenos-Ayres, o'zining arxitekturasi va madaniyati tufayli "janubiy yarim sharning Pariji" maqomini olgan. U o'zining tangosi bilan dong taratgan, ayniqsa, la-Boka mahallasi. Buenos-Ayresdagi Milliy Kongress binosi, ibodatxonasi va hukumat saroyi "Kasa Rosada" ("Pushti uy"), 400 gektarga joylashgan Palermo o'rmon parki, Botanika bo'gi, shahar mashhur muzeylarga ham ega. Kordovadagi Kompaniya cherkovi, muzeylari. Puna ekoregiondagi milliy park va undagi Iguasi sharsharasi. El-Kalafate shahriga yaqin joyda joylashgan janubiy Patagoniya muzligining bir qismi bo'lgan Perito-Moreno. Qishki sport bazalariga ega tog' rayonlaridagi kichik shaharchalar: Bariloche, Vilya-la-Angustura, San-Martin-de-los-Andes, Xunin-de-los-Andes, El-Bolson, Eskel, Trevelin, Los-Antiguos, Kopae, Kavayae. Dunyoning eng chekkasidagi Olovli yer rayonidagi "Olovli yer" milliy parki. G'alati tog'lar va landshaftlarga boy, YUNESKO ro'yxatiga kirgan Ischigualasto va Talmpaya milliy parklari. los-Kordones milliy parki va undagi 6 ming metrli tog' cho'qqilari. YUNESKO ro'yxatiga kirgan Kardovadagi izuitlar ranchosi.

Argentinada ekoturizm, alpinizm, yayov yurish turizmi, otlarda sayohat, agroturizm, sport turizmi, diniy turizm juda yaxshi rivojlangan. And tog'lari etagida juda ko'p tog' - chang'i sporti bazalari bor: Penitentess, las-Lenyas, Kavyaue, Serro-Bayo, La-Oya, Capelko, Sero Katedral, Serro Kastor.

Umuman, Argentinaning YUNESKO ni umumjahon merosiga quyidagi ob'yektlar kiritilgan: Los-Glasiars milliy parki (1981y.),

Izuitlar yashagan joylar (1984y.), Iguasi milliy parki (1984y.), Ruki g'ori (1999y), Peninsula Valdes (1999y.), Ischigualasto / Talmpaya milliy parklari (2000y.), Kordovaning uezuitlar mahallasi va missiyasi (2000y.), Quebrda de Humahuasa (2003y.), Los-Alerkes milliy parki (2017y.).

Argentinaga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 6.9 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 6.0 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga asosan, Braziliya, Chili, Peru, Kolumbiya, Urugvay, Paragvay kabi qo'shnilardan hamda Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi Yevropa davlatlaridan kelishgan.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 11.1 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajatlari 13.1 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Paragvay.

Mamlakat Janubiy Amerikaning qoq markazida joylashgan. Janubda va Janubi-g'arbda Argentina, shimolda va shimoli-g'arbda Boliviya bilan chegaradosh, Poytaxti Asunson. Davlat 19 ta departamentga bo'linadi. Paragvay 1811 yil mustaqillikni qo'lga kiritgan. Hududi 406.8 ming kv.km. Aholisi 7.2 mln. (2020y) kishidan ortiq. Rasmiy tili ispan. Aholining 90 foizi katoliklar, 5 foizi esa protestantlar tashkil etadi.

Paragvay agrar mamlakat bo'lib, ishga yaroqli aholining yarmi qishloq xo'jaligida band. O'rmonchilik va qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Paxta va qahva yetishtirish, chorvachilik, hunarmandchilik rivojlangan.

Mamlakatning asosiy qismi o'rmonlardan iborat. O'rmonlarining hayvonot dunyosi boy, puma, yaguar kabi noyob hayvonlar ko'p.

Paragvayda sarguzasht qilish, ekstrimal sport turlari bilan shug'ullanish uchun, otda sayr qilish uchun juda yaxshi joylar mavjud. Shiddatli oqimga ega bo'lgan daryolarda (paramari, paragvay kabi daryolar) ekskursiya qilish, baliq ovlash, suv sporti bilan shug'ullanish uchun sharoitlar bor. Villa Florida sharsharasi o'zining 50 kg, hatto 100 kg.li baliqlari, baliq ovlash sport musobaqalari bilan hamda undan pishiriladigan ovqatlari bilan mashhur.

Mamlakatga 2015 yilda xorijdan 1.2 mln. kishi tashrif buyurgan. Eng ko'p Argintinadan sayyohlar kelishgan (848.4 ming), undan keyin Braziliya (190.0 ming), AQSh (19.5 ming), Urugvay (18.9 ming), Chili (17.9 ming), Boliviya (15.9 ming), Ispaniya (15.6 ming), Germaniyadan kelishgan.

13.5. Venesuela va Gayana mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti

Venesuela mamlakatining turizm iqtisodiyoti. Maydoni - 912 ming km². Venesuelani tog'lar, tekisliklar va o'rmonlar mamlakati deb atashadi. U relyefi, iqlimi va o'simliklari bilan farq qiladigan to'rtta hududga bo'linishi mumkin: tog'li And tog'lari, Marakaybo depressiyasi, Llanos (Apure va Orinoko daryo havzalaridagi tekisliklar) va Gviana platosi.

Venesuelada turizm - mamlakatda faol rivojlanayotgan tarmoq. Venesuela relyefi, iqlimi va o'simliklari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladigan to'rtta mintaqasi sayyohlikning juda ko'p turlarini rivojlantirishga imkon beradi: dam olish, plyaj, ekologik, sport, faol, ekstremal, diqqatga sazovor joylar.

Venesuelaning landshaftlari, iqlimi va topografik mintaqalaridagi farq o'simliklarning xilma-xilligini, ko'p sonli milliy bog'lar va qo'riqxonalarini vujudga keltiradi (Mamlakatda 40 dan ortiq milliy bog'lar va 20 ga yaqin qo'riqxonalar mavjud), u esa Venesuelani ekologik turizm muxlislari uchun qiziqarli qiladi. Mamlakat tabiat, flora va faunaning boyligi tufayli sayyohlar orasida ekoturizm juda mashhur. Kanayma milliy bog'i - Venesueladagi eng katta qo'riqxonalar va dunyoda oltinchisi. Bu yerda Anxel sharsharasi, Roraima platosi va Auyantepui massivi kabi mashhur joylar, shuningdek an'anaviy hind qabilalari yashaydigan joylar - "Pemon", "Kamakoto", "Arekuna" va "Taurepan" joylashgan.

Venesuela poytaxti - Karakas. Tarixiy diqqatga sazovor joylardan XVII asrning sobiq sobori joylashgan Bolivar maydoni, Milliy Kongress binosi, Simon Bolivar qoldiqlari saqlanadigan Milliy Panteon, Santa - Rosa ibodatxonasi, shuningdek, turli muzeylar - Tasviriy san'at muzeyi, Kolonial san'at muzeyi, Bolivar muzeyi, Milliy san'at galereyasi, Transport muzeyi.

Shunday qilib, Venesuela tabiiy va rekreatsion, madaniy va tarixiy boylklarning boy to'plamiga ega, bu esa turizmning ko'p turlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, eng ommabop va birinchi o'ringa turizmning plyaj, sport, ekologik va ma'rifiy turlar turadi. Mamlakat sayyohlarni nafaqat poytaxti yoki mashhur plyajlari bilan o'ziga jalb qiladi, balki mamlakatning deyarli har bir shahrida turizmni rivojlantirish uchun resurslar mavjud. Venesuela yil bo'yi sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega, bu uni boshqa bir qator raqobatchi davlatlardan

yaxshi ajratib turadi. Venesuelaning sayyohlik infratuzilmasi ko'p sonli sayyohlarni qabul qilish va ularning turli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Gayana mamlakati turizmi. Amerikaning boshqa ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, Gayana hududida ham hind qabilalari yashagan. Oldin sodir bo'lgan voqealar haqida ko'p narsa ma'lum emas, ammo antropologlarning taxminlariga ko'ra, odamlar bu sohada o'ttiz ming yildan ko'proq vaqt oldin paydo bo'lgan. Qizig'i shundaki, mamlakat nomi shu davrdan qolgan. "Suv mamlakati" - bu so'z shunday tarjima qilingan va bu hudud shunday nom olganligi ajablanarli emas, chunki Gayana hududida ko'plab suv yo'llari mavjud.

Birinchi yevropaliklar 15-asrda Gayana yeriga qadam qo'yishdi. Biroq, o'sha paytdagi ispan mustamlakachilari bu hududga unchalik qiziqish bildirishmagan. Ammo keyinchalik, 18-19 asrlarda inglizlar, gollandlar va frantsuzlar hukmronlik uchun kurashdilar. Dastlab gollandlar muvaffaqiyatga erishdilar - ular mahalliy aholi bilan savdo-sotiqni boshlashdi. 19-asrning boshidan boshlab butun bir yarim asr davomida bu hudud Buyuk Britaniyaning nazorati ostida bo'lgan. Mustamlakachilar Afrikadan qullarni bu hududga olib kelishgan. Bu Gayanaliklarning etnik tarkibini juda o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Mamlakattning iqlimi subekvatorial, yuqori harorat va namlik bilan ajralib turadi. Yil davomida ko'plab sayyohlar sayohat qiladigan sohilda o'rtacha harorat Selsiy bo'yicha 25-30 darajaga yetadi. Ammo, tog'li hududlarda kecha va kunduz o'rtasidagi harorat farqi sezilarli: tungi harorat 5 darajagacha pasayishi mumkin. Namlik jihatidan Gayana nam iqlimni yaxshi qabul qiladiganlar uchun yaxshi dam olish joyidir. Ayniqsa katta miqdordagi yomg'ir aprel-avgust va noyabr-yanvar oylariga to'g'ri keladi.

Umuman olganda, Gayana mamlakati uncha xavfli emas: harbiy to'qnashuvlar yo'q, mamlakatda umuman tinch vaziyat. Biroq, mamlakat aholisi ishsizlik va qashshoqlikdan aziyat chekayotgani sababli, sayyoh ba'zi narsalarni eslab qolishi kerak:

- Katta miqdordagi pulni o'zingiz bilan olib yurmang;
- Foto va video jihozlarni ehtiyotkorlik bilan ishlating;
- O'tayotganlarga xizmat va tovarlarni taklif qiladigan ba'zi sotuvchilarning hiyla-nayranglariga tushmang;
- Valyutani faqat maxsus muassasalarda almashtiring.

- Gayanaga sayohat qilishda tibbiy sug'urta qilish va bezgakka qarshi dorilarni olib borish kerak.

Mehmonxona infratuzilmasining asosiy qismi poytaxt Jorjtaun shahrida joylashgan. Yuqori mavsumda Gayanadagi besh yulduzli mehmonxonada bir kechada qolish nisbatan arzonga tushadi. To'rt va uch yulduzli mehmonxonalar narxi sezilarli darajada pasaygan. Va eng tejamkor sayyohlar arzon mehmonxonani topishi mumkin, uxlash uchun juda arzon joylar ham topaladi.

Gayana, birinchi navbatda, o'zining tabiiy diqqatga sazovor joylari bilan mashhur, ochiq havoda va ko'ngil ochishni yaxshi ko'radiganlar bu yurtdan qilish va ko'rish uchun ko'plab narsa topadilar.

Qizig'i shundaki, Gayana poytaxti aholisi mamlakat umumiy aholisining deyarli uchdan bir qismidir. Shaharda barcha irqlar va etnik guruhlar, dinlar va til guruhlar vakillari yashaydi. Poytaxt mustamlakachilar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, bu uning qat'iy me'moriy qiyofasida aks etadi.

Jorjtaunda siz Angliyani avliyo Jorj sobori - daraxtdan qurilgan eng baland ibodatxonalardan biriga tashrif buyurishingiz mumkin. Oq - kulrang, o'ymakor ibodatxona tashqaridan ham qiziq va oqlangan oynalar ichkarida mehmonlarni kutmoqda.

Jorjtaun shahar Meriya binosi ham ancha Yevropaga o'xshaydi: bino neo-gotik uslubda qurilgan. Ushbu bino YUNESKONing ro'yxatiga kiritilgan. Muzey ixlosmandlari Valter Rot antropologik muzeyiga tashrif buyurishlari mumkin. Ushbu muzey yigirmanchi asrning 80-yillarida ochilgan va shu vaqt ichida mamlakatning barcha hududlaridan olingan eksponatlar bilan to'ldirilgan. Muzeyda siz Gayanlarning urf-odatlarini va madaniyati haqida ko'proq bilib olishingiz mumkin. Jorjtaun shahrida politsiya muzeyi, harbiy muzey, botanika bog'i va hayvonot bog'i mavjud. Ekzotik san'atga ixlosmandlar uchun siz Milliy san'at galereyasiga (Casa Castellani) borishingiz mumkin, u yerda mahalliy va xorijiy rassomlarning asarlari galereyasi ochilgan.

Poytaxtdan unchalik uzoq bo'lmagan joyda Fort-Aylend joylashgan, bir necha asrlar oldin Gayanaga hukmronlik qilgan gollandlarning binolari saqlanib qolgan orol.

Gayana hududida 300 ga yaqin sharshara mavjud, ular tetiklantiruvchi suv sathlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ular sayyoradagi eng balandlaridandir. Barcha sharsharalar alohida

joylarda joylashgan va bu yerda tabiat juda chiroyli. Kuribrong daryosida ko'zni qamashtiradigan Amaliya sharsharasi joylashgan. Uning o'ziga xosligi o'zining asl qiyofasida yotadi: u o'nlab kichik sharsharalardan iborat ajoyib yoyni hosil qiladi. Shuningdek, ko'plab sayohatchilar uchun ajoyib narsa - Orinduik deb nomlangan ajoyib kaskaddan iborat.

Mamlakatga ko'plab mustamlakachilar hukmronligi tufayli mamlakatga turli millatlarning kirib kelishgan, shu sababli Gayana oshxonasi ham turli xil oshpazlik an'alarining aralashmasidir. Ularning asosiylari hindular va afrika oshxonalari. Asosiy ekin - guruch, shuningdek, dengiz mahsulotlari va ekzotik o'simliklar. Kori - bu mashhur ziravor. Ko'plab baliq ovqatlaridan foydalanish mumkin, ularning nomi "fanthe" so'zini o'z ichiga oladi, fulu sutli shirinlik. Odatdagi taomlarini sog'inadiganlar uchun yirik shaharlarda xalqaro oshxonalarga ega restoranlar mavjud.

Qisqacha xulosalar. Janubiy Amerika dunyoning asosiy turistik markazlaridan nisbatan uzoqligi sababli turistlar oqimini oshirishga ancha qiynalmoqda. Ammo, o'zining takrorlanmas tabiiy boyliklari (Amazoniya, Patagoniya, And tog'lari kabilar), o'ziga xos madaniyati (inklar tsivilizatsiyasi, futboli, festivallari kabilar) tufayli turistlar kelishini sekin-asta ko'paytirib bilmogda. 21 asrning birinchi o'n yilliklarida region mamlakatlari iqtisodiyoti jonlanib, ichki turizm rivojlanishiga erishmogda, natijada Janubiy Amerika mamlakatlari turizmi bir-biriga bozor bo'lib bormogda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Janubiy Amerika turizmining o'ziga xosligi nimada?
2. Janubiy Amerikaga asosan qaysi mintaqadan turistlar oqimi ortib bormogda?
3. Braziliya mamlakati turizmiga ta'rif bering.
4. Braziliya turizmi qanday potentsial imkoniyatlarga ega?
5. Chili mamlakatini sayyohlar uchun jozibali qiladigan omillar nimalardan ibotat?
6. Boliviya turizmini o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Argentina mamlakati turizmi xarakteristikasini bayon eting.
8. Venesuela mamlakati turizmini imkoniyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Gayana mamlakati turizmiga ta'rif bering.

Glossariy

Safari, safari tur - qo'riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik. Keniya yoki JAR kabi davlatlarning qo'riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko'rish maqsadidagi sayrlardir.

Suvda sayohat qilish marshrutlari - (water tur) shulardan eng ko'p tarqalgani suv sayyohligi-boat tour-qayiqqlarning har-xil turlarida, yaxtalarda, paroxod-kemalarda sayr qilib, dam olishni o'z ichiga oladi.

Braziliya - Lotin Amerikasidagi eng yirik davlat, lug'aviy ma'nosi «Qizil daraxt» degan ma'noni bildiradi.

Pantanal - butunlay botqoqlikdan iborat tektonik chuqurlik, bu joy yovoyi hayvonlarni ko'rish bo'yicha dunyodagi eng zo'r joy sanaladi

Iguasi – Braziliya, Paragvay va Argentina mamlakatlar territoriyasida joylashgan, Lotin Amerikasining eng mashhur milliy parki bo'lib, unda shu nom bilan mashhur sharshara bor. Braziliya, Argintina, Paragvay chegaralaridagi Iguasi sharsharasi 3 km.ga cho'zilib ketgan 275ta sharsharadan iborat.

"Suv mamlakati" – Gayana mamlakatining lug'aviy ma'nosi, bu so'z shunday tarjima qilingan va bu hudud shunday nom olganligi ajablanarli emas, chunki Gayana hududida ko'plab suv yo'llari mavjud.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Amerika mintaqasi xorijiy turistik tashriflar bo'yicha mintaqada nechanchi o'rinda turadi?

- a) ikkinchi;
- b) uchinchi;
- c) to'rtinchi;
- d) birinchi.

Butunjahon turizm tashkiloti tarkibiga kiruvchi turizm hududlari qayerlar hisoblanadi?

- a) Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Karib orollari;
- b) Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Amerika va Ibiza orollari;
- c) Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika, Janubiy Chili va Karib orollari;
- d) Shimoliy Amerika, Markaziy Chili, Janubiy Amerika va Karib orollari.

Amerika mintaqasi bo'yicha xorijiy tashriflarning yarimi qaysi mamlakatlarga to'g'ri keladi?

- a) AQSh va Kanada;
- b) Kanada va Chili;
- c) AQSh va Argentina;
- d) Argentina va Chili.

Amerika mintaqasida xalqaro turistik tashriflar va xalqaro turizm tushumlari bo'yicha Amerika qit'asida Karib orollari nechanchi o'rinda turadi?

- a) ikkinchi;
- b) uchinchi;
- c) turtinchi;
- d) birinchi.

Janubiy Amerika mamlakatlarida nisbatan turizm kam rivojlangan, umumiy turistik tashriflarning necha %i to'g'ri keladi?

- a) 9-10%;
- b) 8-9%;
- c) 7-8%;
- d) 6-7%.

Amerika mintaqasiga qilingan xorijiy tashriflarning necha foizi Afrika, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarga to'g'ri keladi?

- a) 0.9 %;
- b) 0.8 %;
- c) 0.7 %;

d) 2.6 %.

Amerika mintaqasi 1970 yilda jahon turizm tashriflarining necha foizni tashkil qilgan?

- a) 15.5%;
- b) 26.8 %;
- c) 34.7 %;
- d) 43.6 %.

Amerika mintaqasida xalqaro turistik tashriflardan tushgan tushim 2000 yilda qancha dollarini tashkil etgan?

- a) 121 mlrd. 800 million AQSh dollari;
- b) 224 mlrd. 780 million AQSh dollari;
- c) 326 mlrd. 520 million AQSh dollari;
- d) 26 mlrd.760 million AQSh dollari.

Qayerlik mehmonlarning 2/3 qismi ko'proq Tinch okeani orollari – Gavay va Guamga tashrif buyuradilar?

- a) Yaponiya;
- b) Italiya;
- c) Ispaniya;
- d) Tailand.

Amerikaliklarning qisqa dam olish ta'tillarining necha %i ikki yoki undan kamroq kunni tashkil qiladi?

- a) 51 %;
- b) 56 %;

- c) 42 %;
- d) 66 %.

Qaysi davlat Lotin Amerikasidagi eng yirik va iqtisodiy jihatdan qudratli davlat hisoblanadi?

- a) Braziliya;
- b) Kanada;
- c) AQSh;
- d) Chili.

Qaysi davlat nomi «qizil daraxt» degan m'noni beradi?

- a) Braziliya;
- b) Kanada;
- c) AQSh;
- d) Chili.

Qaysi davlat kofe yetishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi?

- a) Braziliya;
- b) Kanada;
- c) AQSh;
- d) Chili.

Quyidagilardan qaysi davlat turizm bozorini asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, mamlakatlari ta'minlaydi?

- a) Braziliya;
- b) Ispaniya;
- c) Meksika;
- d) Chili.

Qaysi hudud F. Magellanning ekspeditsiyasi tomonidan 1520 yilda ochilgan?

- a) Chili;
- b) Kanada;
- c) AQSh;
- d) Braziliya.

Quyidagilardan qaysi mamlakat turizm bozorini asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlari, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, mamlakatlari ta'minlaydi?

- a) Argentina;
- b) Kanada;
- c) AQSh;
- d) Chili.

Argentina turizm bozorini asosan qaysi hududlar mamlakatlari ta'minlaydi?

- a) Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh, Yaponiya, Kanada, Meksika, Skandinaviya;
- b) Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh, Yaponiya;
- c) Yaponiya, Kanada, Meksika, Frantsiya, Skandinaviya;
- d) Chili Yaponiya, Kanada, Meksika, Frantsiya, Skandinaviya.

Har bir xorijiy tashrif Argentina mamlakatida qanchani tashkil qiladi?

- a) 1200 AQSh dollarni;
- b) 600 AQSh dollarni;

- c) 2100 AQSh dollarni;
- d) 1500 AQSh dollarni.

Braziliya turizm bozorini asosan qaysi hududlar ta'minlaydi?

- a) Meksika, Frantsiya, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlari;
- b) Frantsiya, Yaponiya, Chili;
- c) S) Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh, Yaponiya;
- d) D) Chili Yaponiya, Kanada, Meksika, Frantsiya, Skandinaviya.

Argentinaga 2018 yilda qancha xorijiy turistlar tashrif buyurgan?

- a) 6.9 mln;

- b) 4.8 mln;
- c) 12.3 mln;
- d) 15.9 mln.

Amerika mintaqasi xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha nechanchi o'rinni egallaydi?

- a) Yevropa va Osiyodan keyin uchinchi;
- b) Yetakchi o'rinni egallaydi;
- c) Yevropadan keyin ikkinchi;
- d) Yevropa, Afrika va Osiyodan keying o'rinda.

Brazilyada turizmning qaysi turi yaxsi rivojlanmagan?

- a) Qishki turizm;
- b) Ekzotik tur;
- c) Plyaj turizmi;
- d) Madaniy turizm.

XIV MAVZU. AFRIKA MAMLAKATLARI TURIZM

O'quv maqsadi: mavzuni o'zlashtirishdan maqsad Afrika regionlari, jumladan, Sharqiy, G'arbiy, Shimoliy va Janubiy Afrika turizmining oziga xosligini bilib olish hamda bu qit'adagi mamlakatlarning turistik potentsiallarini o'rganishdan iborat.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

14.1. Afrika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi

14.2. Misr Arab Respublikasi va Jazoir mamlakatlari turizm tahlili

14.3. Tunis va Marokash mamlakatlari turizmi tahlili

14.4. G'arbiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili

14.5. Janubiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili

14.6. Sharqiy Afrika mamlakatlari turizmi xususiyati

14.7. Mavrikiy va Seyshel orollari turizmi xususiyati

Tayanch soʻz va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Afrika mintaqasi, Janubiy Afrika, Shimoliy Afrika, Sharqiy Afrika, Gʻarbiy Afrika, Yaqin Sharq, Islom dini ziyoratgohlari, ekzotik joylar, tabiat moʻjizalari, qoʻriqxonalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Алиева М.Т. Туристический менеджмент. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристический менеджмент. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
4. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. -Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
5. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2001 г. -288с.
7. Зиядуллаева Л.С., Абидов Н.А., Рискулов Р.Б., Араб мамлакатлари иқтисодиёти. Дарслик. Т.: 2009.
8. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
9. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
10. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
11. www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization.
12. <https://www.World's most popular destination revealed> (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
13. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
14. www.wikipedia.ru
15. <https://knoema.ru/atlas/>
16. <https://ru.unesco.org/>
17. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
18. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-egipta>.
19. [https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism in Tunisia](https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_Tunisia).
20. www.turist.ru
21. www.travel.ru.
22. <https://ru.unesco.org/>

14.1. Afrika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi

Afrika juda katta tabiiy va aholi salohiyatiga qaramay, hamon dunyo xo'jaligining hamma sohalari bo'yicha eng qoloq qismi bo'lib kelmoqda. Binobarin, mintaqa hozirgi rivojlanish bosqichining bosh vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni jadallashtirish orqali, murakkab muammolarni o'z vaqtida hal etishdan iboratdir.

Afrika mintaqasida boshqa sohalar kabi turizm ham nihoyatda sust darajada rivojlanmoqda siyosiy beqarorlik, millatlararo va diniy ziddiyatlar xorijiy sayyohlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishlarini ma'lum darajada pasaytirmoqda. Dunyo bo'yicha Afrikaga kelgan turistlarning soni 1980 yilda 2% ga yetib, 1994 yilda 1,8% ga tushdi va 2010 yilda 2,8% ga yetdi.

Afrikada turizmga bo'lgan qiziqish borgan sari ortib bormoqda. Turistik servisni takomillashtirish va uning xilma-xilligini oshirishga e'tibor kuchaymoqda. Xorijiy mamlakatlardan kelayotgan sarmoyalarning bir qismi turizm industriyasini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Afrikaga tashrif buyurgan turistlar soni va pul tushumlari dunyo miqiyosida juda past ko'rsatkichda rivojlanmoqda. Masalan, 1970 yilda bu ko'rsatkich juda past ko'rsatkich - 2.4 mln.kishi bo'lgan. 2000 yilga kelib turistlar soni 27,3 mln.kishini tashkil etgan, yani 11 barobar ko'paygan, pul tushumlari esa 1998 yilda 10 mlrd. dollarni tashkil etgan, yani deyarli 25 barobar o'sgan. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tashriflar soni va pul tushumlari o'rtasida farqlar seziladi. Tashriflar farqli ravishda, pul tushumlari o'zgaruvchan va u 90-yillar boshida keskin tushib ketgan. Afrika xalqaro turizmning rivojlanishiga turmahsulot narxini qimmatligi to'sqinlik qilayotgan edi. Qit'a shimolida O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan davlatlarning uncha qimmat bo'lmagan ommaviy turizmga moslashib bu muamoni hal etishga xizmat qilmoqda. Mintaqaga kelgan turistlarni yarmidan oritig'ini Misr, Marokash va Tunis kabi davlatlarga to'g'ri kelmoqda.

Afrika eksportida turizm 80-yillarda 5% ni tashkil etgan bo'lsa, 90-yillar o'rtasida 10.5% ga yetgan. Lekin, umuman olganda Afrikada xalqaro turizm ortda qolmoqda, chunki mintaqa davlatlarning iqtisodiyotini yaxshi rivojlanmagan. Ular samarali infrastrukturaga

ehtiyoj sezishmoqda. Buning uchun esa zarur moliyaviy vositalar yetmayapti.

Hozirgi paytda Afrika qit'asining turizm bozorini generatori bo'lib Afrika mintaqasi mamlakatlarining o'zi hisoblanadi. Umumiy xorijiy tashriflarning 56.0%i Afrika mintaqasi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Afrika mintaqasi turizm bozorida Yevropa mamlakatlarining hissasi ham katta. «Cho'ldagi bo'ron» urushi ta'sirida Yevropa mamlakatlaridan tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar 51% dan 34% ga kamayganligi kuzatiladi. Amerika mintaqasi mamlakatlarining tashriflari 5.3% dan 2.9% gacha kamayganligi kuzatiladi. Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarining tashriflari aksincha 1.4% dan 1.5% gacha, Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari tashriflari 2.4% dan 5.1% gacha ko'payganligi, janubiy Osiyo mamlakatlarining tashriflari 0.6% dan 0.3% gacha kamayganligi kuzatiladi.

Jadval.- 14.1.Afrika mintaqasida turizmning rivojlanish dinamikasi. (1970-2000 yillar)

Yillar	Turistlar tashriflar mln. kishi	O'rtacha yillik o'zgarishi %	Jahon turizm tashriflari ichidagi ulushi %	Turistik tashriflardan tushumlar mlrd. AQSh.	O'rtacha yillik o'zgarishi %	Jahon turizm tushumlar ichidagi ulushi
1970	2.407	-	1,45	0,4	-	2,23
1975	4.407	93,35	2,09	1,127	181,75	2,27
1980	7.337	57,63	2,55	2.711	140.55	2,62
1990	14.993	8,88	3,27	5.238	17,6	2,03
1995	19.017	2,92	3,36	6.980	6,34	1,75
2000	27.400	3,3	3,98	10.820	8,7	2,28

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

1970 yildan 1980 yillargacha xorijiy tashriflar va tushumlar miqdori bo'yicha sezilarli darajada o'sish kuzatilgan. 1985-90 yillarda rivojlanish sur'atlari pasaygan, 1991-96 yillarda esa tashriflar soni o'sganligi bilan, tushumlar miqdori pasayib ketgan. Xorijiy tashriflar jahon xalqaro turizm harakatlarining 3.3%ini, tushimlar miqdori

bo'yicha esa 1.8% ni tashkil qilgan. 90-yillarda Afrika mintaqasining shimoliy hududlarida, O'rta yer dengizi janubiy qirg'oqlarida ommaviy turizmga e'tibor qaratilganligi munosabati bilan 2000 yillarga kelib bir muncha ijobiy siljishlar kuzatiladi. 1996 yilda mintaqaga 19.4 mln xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 27.4 mln kishiga etadi. Ya'ni tashriflar 1.4 martaga oshadi. Turizm tushumlari mintaqada 8.7% ga ko'payib, jahon turizm tushumlarining 2.3% ni tashkil etadi. Afrika mintaqasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning asosiy qismi Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya mamlakatlari aholisiga to'g'ri keladi va umumiy xorijiy tashriflarning 20% ni tashkil qiladi.

Jadval. - 14.2. Afrika mintaqasi hududlari bo'yicha 1990-2002 yillarda xalqaro turistik tashriflar

Hududlar	Xalqaro turistik tashriflar mln. kishi					Ulushi 2002
	1990	1995	2000	2001	2002	
Shimoliy Afrika	8,4	7,3	10,1	10,6	10,3	1,5
G'arbiy Afrika	1,4	1,9	2,6	2,7	2,9	0,4
Markaziy Afrika	0,4	0,4	0,7	0,7	0,7	0,1
Sharqiy Afrika	2,8	4,5	5,9	6,2	6,3	0,9
Janubiy Afrika	2,0	6,0	8,1	8,1	8,9	1,3
Afrika mintaqasi bo'yicha	15,0	20,1	27,4	28,3	29,1	4,1

MANBA: Butun jahon turizm tashkiloti.

Afrika mintaqasi bo'yicha eng ko'p xorijiy mehmonlar Shimoliy Afrika hududiga tashrif buyuradilar. Asosiy tashriflar Misr, Marokash va Tunis mamlakatlariga to'g'ri keladi. Afrika mintaqasiga qilingan tashriflarning 45% ga yaqini ushbu mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Sharqiy Afrika hududiga Keniya, Tanzaniya, Seyshel oroli va Zimbabe mamlakatlari turizm sohasida o'zlarining tabiiy resurslaridan unumli foydalanib kelmoqda. Afrika mintaqasining Janubiy hududida eng yaxshi turistik markaz bo'lib Janubiy Afrika Respublikasi hisoblanadi.

Umuman Afrika mintaqasi jahon turizm harakatlarining rivojlanish darajasidan anchagina orqada qolmoqda, chunki

mintaqadagi ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy rivojlanmagan. Moliyaviy mablag'larning etishmasligi natijasida ta'sirchan infratuzilmaga ega emasligi sababli xalqaro turizm harakatlarining rivojlanishi sust darajada.

Yigirma birinchi asrning birinchi va ikkinchi o'n yilligiga kelib turizm Afrika qit'asida ancha tezroq rivojlana boshladi. Quyidagi jadvalda Afrikaning o'nta yirik turizm davlatida turizmning holati va dinamikasini ko'rish mumkin, mamlakatlar bir yilda 10 hatto 20 foizli yillik o'sishga ega bo'lishgan. Ro'yxatga keltirilgan o'n davlatdan faqat bittasidagina salbiy o'zgarish bo'lgan, xolos.

Jadval. - 14.3. Afrikaning eng asosiy o'nta turistik davlati

O'rin	mamlakat	2017 yilda	2016 yilda	Yillik o'sih
1	 Marokash	11.3 million	10.3 million	▲ 9.8
2	 JAR	10.3 million	10.0 million	▲ 2.4
3	 Misr	8.3 million	5.3 million	▲ 53.6
4	 Tunis	7.1 million	5.7 million	▲ 23.2
5	 Jazoir	2.5 million	2.0 million	▲ 20.2
6	 Zimbabve	2.4 million	2.2 million	▲ 11.8
7	 Ivory Coast	1.8 million	1.6 million	▲ 13.7
8	 Botswana	1.6 million	1.5 million	▲ 5.5
9	 Namibiya	1.5 million	1.5 million	▲ 2.0
10	 Mozambik	1.4 million	1.6 million	▼ 11.7

Manba: www.vikipediya.ru

Jadvaldan korinib turibdiki, agar Misrni hisobga olmasak (chunki geografik jihatdan bu qit'ada joylashgan bo'lsa ham turistik makrohudud sifatida u Yaqin Sharqqa qo'shiladi.), Uch davlat – Marokash, JAR va Tunis Afrikaning eng ko'p turist qabul qiladigan davlatlari hisoblanadi. Jazoir, Zimbabve va Kote de Var mamlakatlari ham o'zlarida turizmni jadal o'stirishga harakat qilishmoqda.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, turistlar oqimi bo'yicha to'rtta davlat ajralib turadi, bular, Misr, Marokash, JAR va Tunis. Ular anchagina barqaror turistik davlatga aylanishgan. Misr, Marokash va Tunis Yevropaga yaqinligi tufayli, JAR esa aholining anchagina qismi yevropalik bolganligi tufayli, Yevropa bilan aloqalarning anchagina

rivojlanganligi sabab bo'lmoqda. Qolgan davlatlarda esa beqarorlik seziladi.

**Jadval. - 14.4. Afrikada turizmdan eng ko'p daromad
oladigan davlatlar o'ntaligi**

O'rin	Mamlakat	2018 yilda (mlrd.doll.)
1	Misr	11.615
2	Janubiy Afrika Respublikasi	8.939
3	Marokash	7.775
4	Tanzaniya	2.449
5	Nigeriya	1.962
6	Mavrikiy	1.887
7	Tunis	1.713
8	Sudan	1.043
9	Uganda	1.037
10	Keniya	0.919

Manba: www.vikipediya.ru.

Jadvaldan korinib turibdiki, Afrikada faqat uch davlatda turizmdan nisbatan kattagina daromad olinadi, bular, Shimoliy Afrikadagi Misr (odatda uni Yaqin Shaqqa kiritishadi) va Marokash hamda Janubiy Afrika Respublikasidir, qolganlari esa hali barqaror turizmga ega emas va bor-yo'g'i 1-2 mlrd. dollar daromad ko'rishmoqda, bu albatta jahon miqyosida unchu katta emas, ammo o'sha davlat uchun anchgina mablag' hisoblanadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Afrikaning faqat 9ta davlatgina turizmdan 1.0 mlrd. dollardan ortiq daromad ko'rishmoqda. Ulardan faqat uchitaginasini 8 mlrd.dollardan ko'proq daromad ko'rishmoqda, ular Misr, JAR va Marokash hisoblanadi. Bu davlatlarda turizm infrastrukturasi anchagina rivojlanganligi uchun bunday imkoniyatga ega bo'lmoqda. Tunisda esa kelayotgan turistlar soni salgina ko'paygan (aniqrog'i siyosiy do'loblardan keyin sekin-asta o'z holiga kelmoqda), ammo ko'rilgan daromad kamayib ketgan (2010 yilga nisbatan qariyb 1.7 marta). Bunga siyosiy vaziyatlar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Afrikada ikkita kichik bo'lsa ham haqiqiy turistik davlatni ajratish mumkin, bular Mavrikiy (1.9 mld. dollar daromad ko'rgan, turistik davlat deb hisoblanuvchi Tunisdan ham ko'proq) va

Seysshell orollari (daromad bo'yicha qit'aning top o'ntaligiga kira olgan).

Afrika boy tabiati va madaniy potentsiali bilan xalqaro turizmning bundan keyin ham rivojlanishiga katta umid bog'layapti. Ammo xalqaro turistik almashinuvda o'z ishtirokini kengaytirishni istagan mamlakatlar tomonidan infratuzilmada turistik xizmat ko'rsatishdagi qo'liqlarni bartaraf etishlariga, terrorizm xavfiga, jinoyatchilik darajasini kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rilishi kerak.

Xullas, Afrika juda katta tabiiy va aholi salohiyatiga qaramay, hamon dunyo xo'jaligining hamma sohalari bo'yicha eng qoloq qismi bo'lib kelmoqda. Binobarin, mintaqa hozirgi rivojlanish bosqichining bosh vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni jadallashtirish orqali, murakkab muammolarni o'z vaqtida hal etishdan iboratdir. Lekin so'ngi yillarda bu mintaqaga turistlar qiziqishi ortib bormoqda. Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ko'ra yaqin kelajakda Afrika mintaqasi asosiy turistik markazlardan biriga aylanishi bashorat qilinmoqda.

14.2. Misr Arab Respublikasi va Jazoir mamlakatlari turizm tahlili

Misr Arab Respublikasi ikki qit'ada, Afrikaning Shimoli-Sharqiy qismi va Osiyoning Sinay yarim orolida joylashgan, Yaqin Sharqdagi qadimiy davlat. Poytaxti Qohira shahri. Iqlimi - tropik kontinental iqlim. Davlat tuzumi - demokratik respublika. Maydoni – 1001.4 ming kv. km, aholisi – 101.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - arab, dini – islom (7-asrda Misrni arablar bosib olishgan va ular Misrga arab tili va islom dinini olib kelishgan.), pul birligi - Misr funti. Yirik shaharlari: Qohira, Iskandariya, Port - Said, Ismoilniya, Tanta, Suvaysh, Al - Mansura, Damanhur, Al - Mahallat - ul - Kubro. Misr 1922 yil 28 fevralda mustaqillikni qo'lga kiritgan. Milliy bayram 23 iyul «Inqilob kuni» (1952 yildan boshlab).

Misr – eng qadimgi davlatlardan biri. Uning yoshi 5 ming yilga yaqin. Bu yerdagi bahaybat ehromlar – podsholar (fir'avanlar)ning maqbaralari, muhtasham qasrlar, toshlarga o'yib tushirilgan yozuv hamda rasmlar Qadimgi Misr madaniyati haqida tasavvur beradi. Bu davlat nihoyatda qadimiy va boy tarixga ega. Tarix otasi Gerodot: «Misrni Nil yaratgan» deganda nechog'li haq bo'lgan, chunki mamlakat aholisining 90% dan ortig'i shu daryo vohasida istiqomat

qiladi. Shuni eslatib o'tish kerakki, Nil daryosi jahondagi eng uzun (6671 km) daryodir. Mamlakat aholisining deyarli barchasi qadimdan Afrikaning azim daryosi – Nil sohillarida yashaydi. Hosildor vodiyni har tomondan bepoyon cho'l qurshab turadi.

Misr uzoq yillar o'z boshidan mustamlakachilik hukmronligini kechirgan davlat, 1882 yili inglizlar tomonidan mustamlaka qilingan. 1914 yildan (Protektorat) yarim mustamlaka, deb e'lon qilinadi. 1952 yildan Kamol Abdul Nosir (1918-1970) boshchiligidagi mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tadi. Mustaqillik yillari siyosiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, 1981 yildan Xusni Muborak rahbarligida yirik islohotlar o'tkazilgan.

Mustamlaka davrida boshqa davlatlarning xom ashyo bazasiga aylanib qolgan Misr, sanoatni ustuvor rivojlantirib, agrar davlatdan industrial davlatga aylanish uchun uzoq yillardan beri kurash olib bormoqda. Misrning transport tarmoqlari asosan Nil vodiysida va Suvaysh (uzunligi 173 km) kanali, O'rta yer dengizini Qizil dengiz bilan birlashtiradi. Mamlakat temir yo'llari uzunligi 5.110 km., avtomobil yo'llari uzunligi 51.925 km. Asosiy portlari: Aleksandriya, Port-Said, Suets.

Hozir butun dunyodan turistlar Misrning qadimiy ehromlarini ko'rish uchun va afsonaviy Nil daryosi qirgoqlarida bunyod etilgan qadimgi yodgorliklarni ziyorat qilishga oshiqmoqdalar.

Sayyohlik yo'nalishlari va turizm: Misr insoniyat tsivilizatsiyasining qadim madaniyat markazlaridan biri sanaladi. Tarixiy va diniy turizm juda rivojlangan: Bavit, Natrun vodiysi, So'hoj sahrolaridagi xristian monastirlari, Nil sharqiy qirg'oqlaridagi Fustat qal'asi, Giza fir'avnlari, ehromlari, Amir masjidi, Ibn Tulun masjidi, Al - Azhar masjidi, Qohira muzeyidagi Tutanxamonning oltin niqobi, Sumbildagi dunyodagi yirik ochiq osmon ostidagi muzey, madrasalar, Xatshepsit ibodatxonasi.

Misrda turizm sektori, asosan, o'zining madaniy-tarixiy yodgorliklari, dunyoga mashhur piramidalari, saroylari bilan bog'liq. 1979 yilda Misr, Izroil mamlakati bilan tinchlik bitimini tuzganidan so'ng, u siyosiy jihatdan tinch mamlakatlardan biriga aylandi va buning natijasida mamlakatda xalqaro turizm jadal rivojlani boshladi. 1980 yillarda Qizil dengiz qirg'oqlarida plyaj turizmini rivojlantirish rejasini qabul qiladi. Ushbu hudud asosan Xurgada shahariga tegishli bo'lib, asosiy turizm markaziga aylanishi kerak edi. 1990 yillar boshida G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan turistlarni qabul qilish

uchun yettita turistik qishloqlar quriladi.

Misrda turizm muhim iqtisodiy rol o'ynaydi. Mamlakatning turizm industriyasida 2.5 mln. kishi (butun ish kuchining 9.4%i) band. Turizm mamlakatning YAIMning qariyb 6%ini beradi. Turizm 2010 yilga kelib o'zining cho'qqisiga chiqqan edi, ammo, 2011 yilda prezident Hosne Muborak hokimiyatini ag'darishgandan keyin Misrga kelish keskin kamayib ketdi. Keyingi yillarda mamlakat o'zining turizmini jadal sur'atlar bilan tiklamoqda, 2019 yilda xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 29 %ga, turistlar soni esa birgin 2018 yilda 1.5 martaga o'sgan.

Misrda YUNESKOning jahon merosi ro'yxatida 7ta ob'yekt bor - Abu Mena, Qadimiy Tebes, Tarixiy Qohira, Gizadagi piramidalar, Abu Sumbuldagi Nubiya yodgorliklari, San - Katerina rayoni, Vale vodiysi.

Qadimiy Nil vodiysi Liviya sahrosi bilan chegaradosh hududda, yam-yashil ekinzorlaru, finikiy palmalar o'rnini sap-sariq qum tepaliklari egallaydigan joyda g'ayritabiiy shamoildagi tog'lar ko'zga tashlanadi. Bu tog'larning qorasi juda uzoqdan Fayum vohasidan bir necha o'n kilometr uzoqlikdagi Qohira shahridan ham ko'rinib turadi. G'aroyib ko'rinish, geometrik aniqlik, tarixiy jozibadorlik, qudratli ulug'vorlik bularning barchasi Misr ehromlarida mujassam. Bu ulkan inshootlar Misrning bir necha ming yillik tarixidan hikoya qiluvchi qadimiy poytaxti Memfis shahrini o'rab turadi. Bu ulkan ehrom hozirgacha inson qo'l mehnatining ulkan namunasi sifatida saqlanib turibdi.

Misrga qiziqish qadim zamonlardan bo'lgan, buning birinchi sababi hashamatli binolar, piramidalar sanaladi, grek tarixchisi Gerodot, Aleksandr Makedonskiy va Ptolemey davrida, Kleopatra davridagi rimliklarning qiziqishi va h. Yangi zamonga kelsak, XIX asr boshida Misrga Napoleonning bostirib kirishi, unga tsivilizatsiya beshigi sifatida qiziqishni oshirib yubordi. Misrda saqlanayotgan ko'plab tarixiy va madaniy yodgorliklar mutaxassislar hamda xorijiy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Bir necha ming yillardan buyon insoniyatni lol qoldirib kelayotgan ko'hna me'morchilikning ulug'vor inshooti – ehromlar har bir misrlikning milliy g'ururiy ramziga aylangan. Qohiraning janubi-sharqida joylashgan Giza vodiysidagi ehromlar dunyoning yetti mo'jizasidan biridir. Ko'pchilikning Misrni tanlashiga nafaqat tarixiy obidalar, balki turlarning nisbatan arzonligi ham sabab bo'lmoqda. Misrda nafaqat

qadimgi dunyo, balki xristian (Koptlar) va O'rta asr arab tsivilizatsiyasining turli xil yodgorliklari ham bor.

Misrning eng asosiy turistik yo'nalishlar: Abu Sumbul, Aleksandriya, Giza, Xurgada, Qohira, Luqsor va Sharm Al Shayxlar hisoblanadi.

Misrning eng zo'r diqqatga (2019 yilda) sazavor joylari quyidagilar hisoblanadai: 1. Nil, dunyoning eng uzun, kema qatnovining uzunligi jihatdan ham dunyoda birinchi o'rin egallaydigan daryo; 2. Luqsor, o'zining hashamatli haykallari va kishilarni lol qoldiradigan arxitekturasi bilan, Luqsor ehromi, undagi Amon-Ra xudosiga bag'ishlangan monumental yodgorliklar; 3. Gizadagi Misr Piramidalari va Sfinks haykali; 4. Qizil dengiz, suv osti boyligi bo'yicha dunyo dehgizlari ichida birinchi o'rinni egallaydi, ayniqsa, Sharm-al-Shayx rayonida; 5. Aleksandriya shahri, uning Mayoqi va Aleksandriya kutubxonasi; 6. Qohiradagi Misrning "Katta muzeyi" (ko'pchilik Tutanxamoni ko'rishga kirishadi); 7. Yangi podsholik (eramizdan oldingi XVI-XI asrlar) davrining bosh muqaddas joyi Karnak ehromi; 8. Suets kanali, u 1869 yil ishga tushgan; 9. Asuman plotinasi, balandligi 110 metrli, uzunligi 3km, qalinligi 800 metrni tashkil etadi. 10. Abu Sumbul, Nubiya cho'lidagi Nosir ko'li qirg'og'idagi Ehromlar, turli xudolar fir'avn Ramzes, Nefertari haykallari (manba: <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-egipta>).

Afrikaning shimoliy qirg'oq bo'ylarida dengiz bo'yi iqlim kurortlari joylashgan. Misrda tan olingan turistik markaz Qizil dengizdagi **Xurgada**, xalqaro darajadagi kurortlar Sharm-Al-Shayx, shuningdek Daxab va Nuveyba hisoblanadi. Mamlakatning mashhur kurortlari - Xurgada, Tabi, Sharm-Al-Shayx, Daxabalar yil-o'n ikki oy turistlarni qabul qiladi.

Misr har qanday turistga qiziq, arziydigan narsani bera oladi, akvalanglar Qizil va O'rta yer dingizilariga sho'ng'ishi mumkin (dayving uchun dunyodagi eng zo'r joylardan biri shu yerda), tarix bilan qiziquvchilar dunyoning eng qadimiy tsivilizatsiya yodgorliklari bilan tanishishi mumkin, cho'milmoqchi bo'lsangiz ikki tomon dengizlar, komfortabel mehmonxonalarda dam olib, plyajlarda cho'milsish mumkin, havo salqin paytda esa bayramona dasturlar ham juda ko'p.

Mamlakatga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 11.2 mln. kishini tashkil etgan. Misr xalqaro turizm bozorini asosan Rossiya,

AQSh, Saudiya Arabistoni, Frantsiya, Germaniya, Italiya va Yaponiya mamlakatlari ta'minlaydi. Mamlakatga butun dunyodan turistlar keladi, keladigan turistlar ichida Rossiya 2011 yilgacha birinchi o'rinni egallar edi. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad esa 12.7 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Xorijga yuborilgan turistlar soni 2018 yilda 6.2 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 2.9 mlrd. dollarni tashkil etgan. 100 mln. li mamlakat uchun bu juda kam, xalq hali ancha kambag'alligidan dalolat beradi.

Jazoir. Maydoni jihatdan Afrika qit'asidagi eng katta mamlakat bo'lgan mamlakat (2,5 mln.kv.km.), aholisi 43.1 mln. (2020 y.) kishini tashkil etadi. Asosan arablardan iborat. Dini islom. Jazoir turli xil landshaftga va umuman sayohatchilarga taqdim etadigan ko'p narsalarga ega.

Jazoirda ajoyib me'morchilik obidalari, O'rta yer dengizi sohillari va Rim xarobalari bo'lgan ko'plab maftunkor shaharlari mavjud.

Yevropadan sayohat juda qisqa, ammo ikkala qit'aning orasidagi farq darhol seziladi va sayyohlar uchun sarguzasht tuyg'usini beradi.

Jazoir - Jazoirning poytaxt shahri bo'lib, uning aholisi taxminan 3.5 mln. atrofida. Shaharga Usmonlilar asos slogan, u tarix va go'zal me'morchilik bilan to'la. Qadimgi Casbah shaharning labirint kabi ko'chalari qadimgi shaharchadan daryolar singari oqib o'tadi. Jazoir shahri g'arbdan kelgan mehmonlarga Jozoirning o'tmishi, buguni va kelajagi haqida ajoyib va chiroyli kontrastni taklif etadi.

Ahaggar milliy bog'ida joylashgan Atakor platosiga shaxsiy transportsiz borish qiyin bo'lishiga qaramay, har qanday harakat yoki noqulaylikka arziydigan hudud. Landshaft - qizil-jigarrang quruq landshaft, shiddatli cho'qqilar bilan qoplangan. Platoning diqqatga sazovor joyi - Assekrem cho'qqisi. Tuareg tilidagi Assekrem "dunyoning oxiri" degan ma'noni anglatadi.

Tamanrasset, ba'zan "Tam" deb nomlanadi, janubiy Jazoir orqali Niger tomon sayohat qilganda, ushbu zamonaviy va jonli shahar mavjud. Tamda zamonaviy shaharchadan kutishingiz mumkin bo'lgan hamma narsalar, jumladan qator do'konlar, restoranlar, banklar mavjud. Turli sabablarga ko'ra, hozirgi paytda shaharni ziyorat qilish xavfli deb hisoblanadi va faqatgina to'liq ekskursiya doirasida tashrif buyurish mumkin.

Oran - Jazoirning ikkinchi shahri, u tabiati va go'zallik to'plangan jonli port shahar. Oran o'ziga xos diqqatga sazovor joy bo'lib, tarixiy

binolarga ega bo'lib, ko'plab go'zal masjidlar, Casbah va Le teatrlarini o'z ichiga oladi. Chiroyli me'morchilik doirasi, ehtimol Jazoirdagi har qanday shaharning eng yaxshisi.

Annabani shaharda tabiiy port mavjud, ammo sayohatchilar uchun shahar tarixi va madaniyati, ayniqsa Hippo Regius asosiy diqqatga sazovor joy hisoblanadi. Gippo Regius xarobalari bir tomonda zaytun daraxtlari bilan, bir tomonda dengiz bilan o'ralgan. Vayronalar orasida mozaikalar, bronza sovrinlar va villalar va ibodatxonalar xarobalari mavjud.

Jadval. -14.5. Jazoirga kelgan turistlar ular xarajatlarning dinamikasi.

All data for Algeria in detail				
Year	Numberof tourists	Receipts	% of GNP	Income per tourist
2019	2.37 m	140.00 m \$	0.082 %	59 \$
2018	2.66 m	196.50 m \$	0.11 %	74 \$
2017	2.45 m	171.00 m \$	0.10 %	70 \$
2016	2.04 m	246.00 m \$	0.15 %	121 \$
2015	1.71 m	347.00 m \$	0.21 %	203 \$
2014	2.30 m	316.00 m \$	0.15 %	137 \$
2013	2.73 m	326.00 m \$	0.16 %	119 \$
2012	2.63 m	295.00 m \$	0.14 %	112 \$
2011	2.40 m	300.00 m \$	0.15 %	125 \$
2010	2.07 m	324.00 m \$	0.20 %	157 \$
2009	1.91 m	361.00 m \$	0.26 %	189 \$
2008	1.77 m	473.00 m \$	0.28 %	267 \$
2007	1.74 m	334.00 m \$	0.25 %	192 \$
2006	1.64 m	393.00 m \$	0.34 %	240 \$
2005	1.44 m	477.00 m \$	0.46 %	331 \$
2004	1.23 m	178.00 m \$	0.21 %	144 \$
2003	1.17 m	112.00 m \$	0.17 %	96 \$
2002	988,000	111.00 m \$	0.20 %	112 \$
2001	901,000	100.00 m \$	0.18 %	111 \$

Manba: www.wikipedia.ru.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki mamlakatda turizm hali barqarorlikka chiqqan olmagan. Tashrif buyurgan turistlar soni 2013 yilda eng yuqori darajaga chiqqan. Daromad ko'rish bo'yicha esa eng yuqori

ko'rsatgich 2005 yilga erishilgan.

14.3. Tunis va Marokash mamlakatlari turizmi tahlili

Tunis Shimoliy Afrika hududida joylashgan mamlakat. Poytaxti Tunis shahri. Iqlimi - shimolda subtropik, janubda tropik iqlim. Shimoliy Afrika markazidagi kichik arab davlati. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni – 163.6 ming kv. km., aholisi -11.7 mln. kishi (2020 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - Tunis dinori. Yirik shaharlari: Tunis, Sfaks, Sus, Bizerta, Qayruvan. Milliy bayrami - 20 mart - Mustaqillik kuni (1956 - yil).

Tunis deganda, avvalombor, Karfagen xarobalari, Jebradagi musulmon va yahudiy mahallalari, O'rta yer dengizi qirg'oqda joylashgan kurortlar tushiniladi. U oltin plyajlari, quyoshli ob-havo va taqinchoqlarning arzonligi bilan ham mashhurdir. Tunis o'zining geografik o'rnidan, yani O'rta yer dengizida joylashganidan va G'arbiy Yevropaliklar uchun turistik xizmatlarning arzonligidan foydalanadi. Tunis yana yoz oylarida juda ko'p festivallar tashkil qilib turistlarni jalb qiladi, jumladan, xalqaro Karfagen festivali, Tabarkidagi jazz festivali.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: eng shimoliy qismi (Kal Bon) dan Sitsiliyagacha (140 km) va Tunisni bemalol avtobuslarda ekskursiya qilib chiqish mumkin ekanligi. O'rta yer dengizi sohilidagi plyajlari. Avgust - eng issiq, yanvar - eng sovuq oylar. May - iyun, sentyabr - oktyabr eng bahmal mavsum hisoblanadi. Turizm: suv sporti turlari, katamaran, yaxta turizmi, tuya va jipda sayr qilishlar yo'lga qo'yilgan. Poytaxt markazidagi Zitun masjidi va sharq bozori, dunyodagi qadimgi Rim mozaika (mozaika - qadama (terma) naqsh va shunday naqsh ishlash san'ati) suratlari ekspozitsiyalari jamlangan Bardo muzeyi, mashhur sarkarda Gannibal tug'ilgan Karfagen shahri, uning salobatli binolari xarobalari, 50 ming tamoshabin sig'adigan amfiteatri, imperator Antoniyning jamoat term (hammom) lari. Rassomlar, shoir va yozuvchilar uchrashadigan, tabiati go'zal Sidi Bu Said shaharchasi.

Tunisda asosan plyaj turizmi yaxshi rivojlangan. Tunisda xalqaro turizm «Cho'ldagi bo'ron» urushidan keyingina rivojlana boshlandi, urushgacha bo'lgan davrda 1.5-1.7 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurar edi. Urush yillari davrida ularning soni uch marotabaga

qisqarganligi kuzatilgan.

Tunis yigirmanchi asrning 60-yillaridan beri Yevropa turistlariga jozibador joy bo'lib kelmoqda. 1990 yilgacha bu mamlakat turizm bozoriga asosan frantsiyalik mehmonlar tashrif buyurar edilar, chunki 1965 yilgacha Tunis Frantsiyaning mustamlakasi bo'lib kelgan. 1991 yildan boshlab Yevropaning bir qator mamlakatlari Germaniya, Buyuk Britaniya, Arab mamlakatlaridan ham mehmonlar tashrif buyura boshladi.

Turizm hozirgi paytda mamlakat YAIMning 6.5 %ini beradi va 340 ming kishini ish bilan ta'minlaydi. Tunis turizmi 2015 yilda Bardo milliy muzeyi va Syssidagi terroristlarning hujumidan ancha zarar ko'rdi, uning darajasi qariyb o'n yil orqaga ketdi.

Hozirgi paytda mamlakatning diqqatga sazavor joylari 180 dan oshiq, jumladan, 59ta parklar, 58ta muzey, 5ta zoopark va okeanarium, akvapark va temarik parklar soni 16ta, sog'lamlashtirish joylari 26ta va 21ta kechki hayotga ixtisoslashgan joylar bor. Tunisda finikiylar, Rim, arab xalifaligi va usmoniylar davridan ko'pgina tarixiy yodgorliklar qolgan. Frantsuz kolonizatorlari ham o'z izlarini qoldirib ketishgan.

2020 yil uchun Tunisning eng zo'r diqqatga sazavor joylari quyidagilar sanalmoqda: 1. Qadimgi Karfagen shahri xarobalari; 2. El-Jemedagi 238 yilda qurilgan Rim Amfiteatri; 3. Poytaxtdan 17 km. uzoqlikdagi kichkina ko'rkam Sidi-Bu-Said shaharchasi (1915 yildan shaharga zamonaviy bino qurish taqiqlangan); 4. Sahroyi Kabir, mamlakat territoriyasining 30 foizini egallagan, ko'chib yuruvchi buduirlardan boshqa hech kim yashamaydigan cheksiz sahro); 5. Poytaxt yaqinidagi Bardo milliy muzeyi, XVII asrda qurilgan go'zal bino; 6. Qadimgi Rim shahri Dugga xarobalari (100 yil oldin 25 ming kishi yashagan, ehromlar, teatrlar, fontanlar, movzaleylar, nekroplar yaxshi saqlanib qolgan); 7. Qadimiy shahar Kerkurun, mamlakatda finikiy-puna arxitekturasidan qolgan yagona yodgorlik, eramizdan oldingi 6 asrda qurilgan, YUNESKO merosi ro'yxatidagi ob'yekt); 8. Jebra orolining janubidagi qadimiy Gellala qishlog'i (hunarmadlari bilan mashhur, 450ta ustaxona bor); 9. Barbarlarning g'orlardagi shahri; 10. Madina shahri, musulmonlar tomonidan qurilgan, necha asrlardan beri shahar qanday bo'lsa, shundayligicha qolib kelmoqda (manba:<https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-tunisa/>).

Asosiy turistik shaharlari: Muqaddas musulmon shahri Kayrun, kulollar shari Nabel, ho'kiz terisidagi Karfagen, sokin oazis Monastir, shahar-qo'rg'on Kelibiya, ziddiyatlar va emotsiyalar shahri Sussi, elitaga mo'ljallangan, maqomli kurort Gammart, palmalar va gulobi rangli flamingolar oroli Jebra, cho'l peyzajlariga purkangan sehrli oazis Tozer, Sahroyi kabir darvozasi bo'lmish Duz, oltinrang qumli plyajlarga boy ajoyib Bizert, Jazoir davlatiga yaqin ajoyib kurort Tabarka, urbanik shaharligi bilan o'ziga jalb qiluvchi mamlakat poytaxti Tunis, bog'lar shahri bo'lmish Xammamet, mamlakatning biznes poytaxti bo'lgan Sfaks, Tunisning "Kichik Ispaniyasi" deb sanaluvchi El-Kantun, oq-ko'k jannat sanaluvchi Sidi-bu-Said.

Mamlakatning mashhur kurortlari: Sussidagi Mahdiya, Nabuldagi Hammamet, Jebradagi Zarzis, Tunisdagi Zagvan va Tabarkadagi Ain Draham hisoblanadi.

Jadval. -14.6. Tunisga kelayotgan turistlar va ko'rilayotgan daromad dinamikasi

Yil	keluvchilar (ming kishi)	Daromad (dinarda)
2010	6.902	3.522,5
2011	4.781	2.432,6
2012	5.590	3.175,3
2013	6.268	3.229,4
2014	6.068	3.575,6
2015	5.359	2.354,6
2016	5.724	2.322,9
2017	7.051	2.713,1
2018	8.300	4.090,0

Manba: https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_Tunisia

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Tunisga xorijdan kelgan turistlar soni 2018 yilda 8.3 mln. kishini tashkil etgan. O'sha yili xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 4.1 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga asosan, Frantsiya, Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniyadan turistlar kelishadi. Keyingi paytlarda Rossiya va

Xitoydan ham keluvchlar oshmoqda. Qo'shni Iiviy va Jazoir dan hamda Sharqiy Yevropadan ham kelayotgan turistlar oshib bormoqda.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 2.5 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 954 mln. dollarni tashkil etgan.

Marokash Shimoliy Afrika hududida joylashgan yana bir mamlakat. Maydoni 446.7 ming kv. km, aholisi 36.7 mln. kishi (2020 yil). Marokash, O'rta yer dengizi qirg'oqlarida hamda Atlantika okeani qirg'oqlarida plyaj turizmi rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Yigirmanchi asrning 70-80 yillarida mamlakat hukumati badavlat mijozlar uchun elita turizmini qo'llab-quvvatlar edi. Ammo, keyinchalik ommaviy turizmga e'tibor qaratildi va mamlakat hatto Ispaniya bilan raqobatbardosh bo'ldi. Marokash 1965 yilgacha Tunis kabi Frantsiya mustamlakasi bo'lgan. Shu sababli uning turistik bozorining 28%ini Frantsiya tashkil etadi. Keyingi o'rinda Ispaniya (20%), Germaniya, Buyuk Britaniya (11%), shuningdek, mamlakatga qo'shni Jazoir turistlari turadi.

Marokashda turizm yaxshi rivojlanganligining eng muhim omili - mamlakatda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlikdir. Hukumar 1985 yildan turizm vazirligini tashkil etib turizmni rivojlantirishga katta e'tiborni qaratdi. Mamlakatning turistik industriyasi dengiz qirg'oqlariga yaqin joyda joylashgan, u tarixiy va madaniy diqqatga sazavor joylarni ham o'z ichiga oladi. Yigirmanchi asrning 80chi va 90chi yillarida mamlakatga 1 mln.dan 1.5 mln.gacha turist kelgan, asosan, Frantsiya va Ispaniyadan kelgan, so'ngra Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyadan kelishgan. XXI asrning birinchi o'n yilligida esa har yil 7-8 mln. kela boshlagan.

Jadval. - 14.7. YUNESKOning moddiy va manaviy meros ro'yxatiga kirgan Marokashning ob'yektlari

Ob'yekt nomi	shakli	Kiritilgan yili
Fes shahrining madinasi	Madaniy	1981
Marokash shahrining Madinasi	Madaniy	1985
Ayt-ben-Xaddu shahrining Ksari (barbarlarning somondan qurilgan)	Madaniy	1987

qasri)		
Tarixiy shahar Meknes	Madaniy	1996
Volyubilis arxeologik maydon	Madaniy	1997
Tetuan shahrining Madinasi	Madaniy	1997
El-Suveyra shahrining madinasi	Madaniy	2001
Mazargan (El-jadida) portugal shahri	Madaniy	2004

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Marokashning hozirgi turistik industriyasi o'z aylanmasiga tabiiy resurslar bilan bir qatorda madaniy resurslarni, ko'proq Qadimgi Rim va arab xalifaligi davriga oid tarixiy yodgorliklarni tortmoqda. Turistlarning 60 foizi madaniy qadriyatlarni ko'rishga kelishmoqda. Bunga mamlakatda madaniy qadriyatlar, yodgorliklar ko'pligi sabab bo'lmoqda.

Marokashning eng zo'r diqqatga sazavor joylari: Marokash shahridagi El-Badi qasri, Kasablanka shahridagi Hasan II mashidi va uning 210 metrli minorasi, Marokashning Juma-el-Fna maydoni, mamlakatning bir qismini egallagan Sahroyi Kabir, Atlash tog'lari etagidagi Ait-Benxaddi karvon-saroyi, Qadimgi Rim shahri xarobalari Volyubilis, Marokash yaqinida joylashgan Madinadagi Baxiya qasri, frantsuzlar tomonidan qurilgan Kasablankaning Xabus mahallasi, Kasablankadagi Mahkama-dyu-Pasha qasri, Barbarlar muzeyi, Kasablankadagi arab davlatlar ligasi parki, Agadirdagi qushlar parki, bozori va plyaji.

Marokashga 2018 yilda kelgan xorijiy turistlar soni 12.3 mln.kishini tashkil etgan. Afrika mintaqasiga tashrif buyurgan turistlarning 14.5% ga yaqini, Shimoliy Afrika hududiga qilingan tashriflarning 40.1%i Marokash respublikasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 9.5 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 1.9 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat esa 3.0 mlrd. dollarni tashkil etgan.

14.4. G'arbiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili

Nigeriya Afrikaning aholi soni jihatdan eng katta mamlakati (208.1 mln.kishi, 2020y), G'arbiy Afrikada Atlantika qirg'oqlarida joylashgan mamlakat. Nigeriyadagi turizm asosan mamlakatdagi etnik guruhlarining ko'pligi sababli faoliyatga yo'naltirilgan, shuningdek, tropik o'rmonlar, savannalar, sharsharalar va boshqa tabiiy diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi sayyohlik joylari orasida Abujaning ming yillik bog'i, Oyo shtatidagi Agodi bog'lari, Osun - Osogboning muqaddas daraxtzorlari, Kano shahar devorlari, Idanre tepaliklari kabi madaniy joylar, Agbokim sharsharasi, Ikogosi iliq buloqlari, Olumirin sharsharasi kiradi.

Nigeriyaning turizm daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2017 yil rekord darajadagi 2.615 million AQSh dollariga, 1995 yilda esa eng past darajadagi 47 million AQSh dollarini tashkil etgan (Jahon banki ma'lumotlari). Nigeriyadagi turizm 2017 yilda Nigeriyaning yillik ichki daromadining taxminan 6 foizini tashkil etdi.

Yangi koronavirus pandemiyasi mamlakatda sayohat qilish va sayyohlikka katta ta'sir ko'rsatdi. Prosshera iqtisodiyotiga ko'ra Nigeriyaga sayohat 3,5 millionga qisqardi, natijada 91.380 ish joyini yo'qotish xavfi bilan 0,7 milliard dollarlik daromad yo'qotildi, shuningdek, Nigeriya YaIMga hissa qo'shgan 0,6 milliard dollar yo'qotildi. Mahalliy va xorijiy sayyohlar tomonidan mehmonxonalarni bron qilishni bekor qilish sonining ko'payishi bilan ish joylari yo'qoldi va bu daromadga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Liberiya. Ekzotik bayramlarni sevuvchilar uchun Liberiyadagi zamonaviy turizm yaxshi yechimdir. O'ziga xos madaniyat va tabiatning ajoyib go'zalligi sayohatchilarga uzoq kutilgan ta'til uchun ko'plab imkoniyatlarni beradi.

Issiq Afrika mamlakatlari sayohatchilar orasida tobora ommalashib bormoqda. Liberiyadagi yangi turizm - bu faol va ekzotik bayramlarning ajoyib kombinatsiyasi. Noyob tabiat tufayli mehmonlarga turli xil ekskursiyalar va o'yin - kulgilar taqdim etiladi. Mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarni aylanib o'tib, boshqa, mutlaqo noma'lum Afrika ochiladi. Qo'riqxonalar va tabiat yodgorliklari joylariga sayohatlar sayohatni unutilmas taassurotlar bilan to'ldiradi.

Liberiya Respublikasi uzoq vaqtdan beri iqtisodiy inqirozni boshdan kechirmoqda, shunga qaramay, bu yerda ko'rishga arziydigan joylar va narsa bor. Mahalliy landshaftning go'zal ko'rinishi va qulay iqlimi mamlakatni G'arbiy Afrikaning eng diqqatga sazovor joylaridan biriga aylantirdi.

Liberiya Respublikasi yaqinda siyosiy barqarorlikka erishdi, shuning uchun uzoq vaqt Liberiya kurortlari faqat qurilish rejalarida edi. Ko'pchilik sayyohlarning asosiy ko'ngilocharlari - piyoda yurish va qo'riqlanadigan hududlarga sayohatlar. Madaniy dam olishni biluvchilar uchun Liberiyaning ko'plab me'moriy diqqatga sazovor joylari qiziq bo'ladi.

Mamlakat ekvatorial zonada joylashgan, u yerda o'rtacha havo harorati +27°C. Liberiyaning chang'i kurorti asosan Monroviy shahrida joylashgan.

Mamlakat turizmining asosiy yo'nalishi - bu mamlakatning o'ziga xos madaniyati va tabiati bilan tanishish. Liberiyaning tibbiy kurortlari unchalik ahamiyatli emas va talabga ega emas. Barcha asosiy sog'lomlashtirish protseduralari faqat qimmat mehmonxona majmualarida ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatiga kiritilgan.

Liberiya plyajlari: Uzoq vaqt davomida respublikada turizm boshqa qo'shni davlatlardan ancha orqada qoldi. Biroq, vaziyat asta - sekin yaxshi tomonga o'zgarib boshlaydi. Rasmiylarning sa'y - harakatlari tufayli Liberiyaning bir paytlar qarovsiz qoldirilgan shahar plyajlari tartibga kela boshladi. Eng toza qirg'oqlar mehmonxona majmualari hududida joylashgan.

Hozirgi Liberiyadagi mehmonxonalar juda xilma - xildir. Mamlakat sohillarida bir nechta yirik xalqaro mehmonxonalar mavjud. Mehmonxona xonalarining hashamatli, intereri va arzonligi bilan ajralib turadi. Ba'zi mehmonxonalar pullik xizmatlarning keng assortimentini taklif qilishadi, masalan: tennis korti, kurort markazi, kabel televideniya va boshqalar.

Gvineya-Bisau Respublikasi Afrikaning g'arbiy qismida, Atlantika okeanining qirg'og'ida joylashgan. Ushbu mamlakat qit'adagi eng qashshoq davlatlardan biri hisoblanadi. Ammo, juda kichik o'lchamiga qaramay, u yerda juda ko'p qiziqarli narsalarni ko'rishingiz mumkin. Gvineya-Bisau poytaxti - xuddi shu nomdagi Bisau kichik shaharchasi.

Sayyohlar uchun chiroyli plyajlar va "shinam" (mamlakat me'yorlari bo'yicha) mehmonxonalar mavjud bo'lgan ushbu mamlakatda mahalliy aholi uchun hayot qiyin. Elektr va suv ta'minotida doimiy uzilishlar mavjud. Kimning imkoniyati bo'lsa, dizel generatorlarini yoki quyosh panellarini o'rnatadi. Aholining aksariyati sham yoki mash'ala bilan yoritib yashaydilar. Ammo bu yerda Internet yaxshigina ishlaydi.

Gvineya-Bisau mussonlar yuradigan joylarda joylashgan. Havoning harorati +24 dan +28 darajagacha isiydi. Ushbu mamlakatda yomg'irli mavsum maydan oktyabrgacha davom etadi. Kuchli yomg'irli ko'pincha mamlakatning qirg'oq zonasida kuzatiladi. Butun hudud flora va faunaga boy. Bu yerda plyajlar bor va baliq ovlashga yoki safari tanlashga imkon bor.

Portugaliyadan Bisauga muntazam reyslar mavjud. Samolyotlardan tashqari, mamlakatga parom orqali ham borish mumkin. Ammo, ushbu transport turi muntazam emas. U faqat yuqori suvli mavsumda yuradi. Avtobuslar yo'lovchilarni faqat chegaraga olib keladi, keyin siz o'zingiz bo'xona nazoratidan o'tishingiz va Gvineya avtobusiga chiqishingiz kerak.

Mamlakatni aylanib chiqish juda qiyin, ayniqsa, bu mashina bo'lsa. Sayohat qilishning eng yaxshi usuli avtobusda. Ammo bu holatda ham ma'lum to'siqlar mavjud. Avvalo, bu yo'lni kesib o'tadigan hayvonlar. Aynan shu sababli Gvineya-Bisau yo'llarida tirbandliklar yuzaga keladi. Mamlakat bo'ylab sekin harakatlanishning ikkinchi sababi - oq tanli sayyohlarni to'xtatib, hujjatlarini sinchkovlik bilan tekshiradigan politsiya yoki harbiylar. Mamlakat bo'ylab transport vositalarida harakatlanayotganda, haddan tashqari issiqlik va bo'g'ilish tufayli derazalar har doim keng ochiladi. Ammo boshqa tomondan, bu derazalarga juda ko'p chang uchadi va bu sizni ko'zoynak taqishga majbur qiladi. Yo'l tirbandligida to'xtab qolganda, savdogarlar darhol derazalarda paydo bo'lib, yo'lovchilarga oziq-ovqat va suv sotishga harakat qilishadi.

Ushbu ekzotik mamlakatga tashrif buyurgan har bir kishi mahalliy aholining hayoti bizning kundalik hayotimizdan tubdan farq qilishini tasdiqlaydi.

2007 yildagi mehmonxonalar yangilanishidan qat'iy nazar, qulayliklar narxi juda yuqori bo'lib qolmoqda. Shuning uchun alternativ variant poytaxt yaqinidagi shaharlarga joylashish bo'ladi.

Ushbu joylarda ko'plab byudjetli mehmonxonalar mavjud. Bijagos arxipelagidagi mehmonxonalar mashhur turar joy variantlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Gvineya-Bisauda dunyoning turli xalqlarining ko'plab oshpazlik an'analari mavjud. Go'shtli taomlar bu yerga Angliyadan, issiq taomlar uchun ziravorlardan foydalanish - Malayziyadan kelgan. Ammo mahalliy oshxona qo'zichoq va dengiz mahsulotlariga asoslangan. Gvineya oshxonasi eng nafis va mazali tamaddixonasi hisoblanadi. Bundan tashqari, ular dengiz mahsulotlari va sabzavotlarni iste'mol qiladilar.

Ayollar uchun bozorda sotib olingan matolardan mahalliy tikuvchilar tomonidan tikilgan kiyimlar eng zo'r sovg'a bo'ladi. Bundan tashqari, bu yerda keramika, zargarlik buyumlarini topishingiz mumkin. Gvineya bozorlarida tovarlar nafaqat sotiladi, balki almashtiriladi. Respublika hududida ko'plab tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylar joylashgan. Bu yerga asosan ochiq havoda ishqibozlar kelishadi, chunki bu yerda sport, baliq ovi va suv sporti bilan shug'ullanishadi.

Mahalliy aholi mashhur Bijagosh va Bolama orollariga borishni maslahat berishadi. Ushbu orollarning har birida bo'lganingizda, siz bu yerga butun koloniyalarda qishga uchadigan qushlarni tomosha qilishingiz mumkin. Bu mamalakatda noyob o'simlik turlari, shu jumladan mevali daraxtlar, fikus, palma daraxtlari o'sadi. Poincian daraxti alohida e'tiborga loyiqdir, u butunlay qizil gullar bilan bezatilgan, mahalliy aholi bu daraxtni tropik o'rmonlarning bezagi deb biladi. O'rmonga borgan sayyohlar ehtiyot bo'lishlari kerak, chunki u yerda turli xil yovvoyi hayvonlar mavjud. Bu suv havzalari yonidagi maymunlar, cho'chqalar, leopardlar, antilopalar va aligatorlar. Bu yerda ko'plab suv qushlarini ko'rish mumkin.

Kasheu qal'asi. Qal'a Gvineya-Bisau nomidagi shaharda Atlantika sohiliga yaqin joyda joylashgan. Ushbu joyni portugal mustamlakachilari tanlamasdan oldin, bu yerda allaqachon aholi punktlari bo'lgan.

San-Xose da Amura. Gvineya poytaxti Bisauda joylashgan qal'a ham shaharni dushman bosqinchilaridan himoya qilish uchun qurilgan. Ammo qal'a missionerlar va qul savdogarlari uchun boshpana bo'lgan.

Fortaleza d'Amura. Bunday romantik nomga ega ushbu qal'a 18-asrda qurilgan. U bir vaqtlar ajoyib devorlar bilan o'ralgan va Gvineya harbiy qarorgohi bo'lgan. Bugungi kunda bino davlatning muhofazasida bo'lgani uchun yarim vayron qilingan va sayyohlar uchun yopiq. Biroq, uni tashqi tomondan o'rganish mumkin.

Sobiq prezident saroyi shaharda qadimgi me'morchilikning eng yaxshi namunalaridan biridir. Uning tomi bir necha marta o'qqa tutilgan, ammo mahalliy hokimiyat uni tiklashga kirishmagan. Ammo neoklassik fasad omon qolgan. Bugungi bino nafaqat mustamlakachilik davrining yodgorligi, balki yaqinda tugagan halokatli fuqarolar urushining qayg'uli eslatmasidir.

Mamlakat o'zining milliy bog'lari bilan mashhur. Ularning biri - Ilxas de Orango milliy bog'i. Afrikaning noyob bog'i ham quruqlik, ham okeanga tegishli. Parkning asosiy oroli - Orango va u yerda joylashgan Etikoga shahri. Aynan shu joy qo'riqxonaning "darvozasi" hisoblanadi. Sayyohlarni nafaqat mahalliy manzaralar, balki qumli plyajlar ham o'ziga jalb qiladi. Bog'da asosan mangrov daraxtlari o'sadi, nodir savana, tropik, tekisliklar va kanallar joylashgan.

Lagoas Kufada tabiiy bog'i - bu Gvineya-Bisaudagi eng biologik xilma-xil mintaqalardan biri. Bu karkidonlar va ulkan suv echkilarining yashash joyi, shuningdek, afrikalik bufalo va sirtlonlar, dahshatli timsohlar va dog'li leopardlar vatani. Ba'zan sayyohlar shimpanzeni uzumzorlarda ko'rishlari mumkin.

Ushbu respublika juda qashshoq va odamlar asosan sayyohlar tufayli tirik qolishlarini hisobga olsak, bu yerda qolish juda qimmatga tushadi. Gvineyada ta'tilni tashkil qilish juda oson emas, shuning uchun narxlar yuqori. Har bir Gvineya, ufqda "oq" odamni ko'rib, darhol uni daromad ob'ekti deb biladi.

Quyidagi jadvalda mamlakatga keyingi yillarda turistlar oqimining o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadval. - 14.8. Gvinya-Bisauga tashrif buyuruvchilar dinamikasi.

№	Yil	Tashrif buyurganlar soni
1	2012	35400
2	2013	35500
3	2014	36099
4	2015	43799

5	2016	45200
6	2017	49500
7	2018	55000

Gabon. Gabonda turizm rivojlanmagan. Shunga qaramay, diqqatga sazovor joylar orasida plyajlar, okean va ichki baliq ovlash inshootlari, Ogoou daryosiga tushadigan sharsharalar va Kristal tog'lar bor. Shuningdek, sayyohlar Lambaredagi doktor Albert Shvitser tomonidan asos solingan mashhur kasalxonani ko'rish uchun keladi. Dekabrdan sentyabrgacha ma'lum joylarda ov qilish qonuniydir. So'nggi paytgacha turizmga e'tibor berilmay, uning o'rnini neft va yog'och kabi xom ashyo eksporti ustuvor edi. Biroq, 2000 yilda Gabon hukumati butalar ekspeditsiyalari yoki safari sayohatlari orqali turizmini rivojlantirish ustida ishni boshladi.

Gabonga tashrif buyuruvchilar uchun eng buyuk kartalardan biri bu plyajlarda uya qurgan charm toshbaqalar va Pointe Denis ularni qidirish uchun eng yaxshi joy. Toshbaqa bolalari dekabr va yanvar oylarida paydo bo'lib, bu tabiiy hodisani ko'rishni istaganlar uchun Gabonga tashrif buyurish uchun eng yaxshi vaqt. Gabonda mamlakatning 10 foizini qamrab olgan 13 ta milliy park mavjud, ammo ularning hammasiga ham osonlikcha kirish mumkin emas. Eng mashhuri G'arbiy Gabondagi Loango milliy bog'i bo'lib, u Afrikaning eng go'zal hududlaridan biri hisoblanadi va u o'zining begemotlari, g'arbiy gorillalari va boshqa tabiiy yovvoyi tabiati bilan tanilgan.

2002 yilda Gabon prezidenti Omar Bongo o'z mamlakati milliy bog'lar tizimi uchun yerlarining 10 foizini ajratishini e'lon qildi. Ilgari u tabiatni muhofaza qilish masalalarida Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish jamiyati bilan ish olib boradigan milliy bog'larni tashkil qilmagan. Hozirgi vaqtda tizim 10.000 kvadrat mildan (26000 kv.km.) iborat. Ushbu yangi bog'lar ekoturizm uchun, Gabon o'rmonlarini yog'och uchun ishlatishga iqtisodiy alternativa sifatida ishlab chiqilmoqda. Loyiha yovvoyi tabiatni muhofaza qilish jamiyatining prezidenti va bosh direktori doktor Stiven Sanderson tomonidan "so'nggi 20 yil ichidagi eng jasoratli tabiatni muhofaza qilish harakatlaridan biri" sifatida olqishlandi.

Gabonning asosiy sayyohlik joylari yovvoyi tabiat safari, tabiat qo'ynida sayr qilish va milliy bog'lar, shuning uchun sarguzasht talab

sayohatchiga boradigan joyning marvarid kabi bo'lishi emas, balki uni biroz qo'pol bo'lishi ogohlantiriladi. Aksariyat sayyohlar Librevil poytaxtiga kelishadi, lekin hech qachon uzoq qolishmaydi, chunki sayohatchilar uchun ba'zi bir noz-ne'matlarga qaramay, uni bir-ikki kun ichida yaxshilab o'rganish mumkin. Rangli va gavjum bozorlarga sayohat, yoqimli sohil bulvari bo'ylab sayr qilish va shahar restoranlaridagi mahalliy oshxonalaridan taomlar eng diqqatga sazovor maskanlardir. Librevillda bir nechta ajoyib ekskursiyalar uyushtirish imkoni mavjud.

Keyingi paytdlarda Gabonda turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishni maqsad qilganligi sababli hokimiyat uchun o'sib borayotgan ustuvor vazifaga aylandi. Investitsiyalar birinchi navbatda mamlakatning barqaror rivojlanish bo'yicha Yashil Gabon strategiyasiga asosan infratuzilmani yangilash va yuqori darajadagi ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan. Davlat xususiy sektor bilan mamlakatning tabiiy xususiyatlaridan foydalanadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda sherik bo'lganligi sababli, ushbu soha kengayishi va YaIMga ulushining o'sishi kutilmoqda.

Hukumat 2020 yilga kelib tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 100000 turistga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan edi, ammo pandemiya tufayli amalga oshmadi.

Garchi Gabonga tashrif buyuruvchilarning aksariyati - ishbilarmon sayyohlar 2013 yilda tashrif buyuruvchilarning qariyb 84 foizini tashkil etgan bo'lsa-da - ishbilarmonlarni o'zlarining yashash muddatlarini uzaytirishga jalb qilish uchun hashamatli turizm loyihalarini ishlab chiqish mamlakatga mintaqada o'z o'rnini o'rnatishga yordam bermoqda. Aksariyat mehmonlar poytaxt Librevillda yoki Gabon neft sektorining markazi Port-Gentilda qolsada, milliy bog'lardagi o'zgarishlar mamlakatning obro'sini tabiiy diqqatga sazovor joylar va yuqori darajadagi mehmondo'stlik maskani sifatida oshirmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishning iqtisodiy naflari hukumatning turizmni rivojlantirish strategiyasining kalitidir. 13 ta parkdan tashkil topgan muhofaza etiladigan hududlar umumiy maydoni qariyb 3 million hektarni tashkil etadi, bu mamlakat hududining 11 foizini tashkil qiladi. Milliy bog'lardan tashqari, Gabonda to'qqizta Ramsar uchastkalari mavjud, ular xalqaro konvensiyaga binoan botqoqli

yerlarni himoya qiladi, shuningdek, yovvoyi tabiat qo'riqxonalari tarmog'i va rivojlanayotgan dengiz parklari tizimi. Ushbu qo'riqlanadigan hududlar birgalikda Gabon hududining 21 foizini egallaydi. 2003 yilda bog'lar to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish uchun Milliy bog'lar kengashi tashkil etildi, so'ngra 2007 yilda parklar tarmog'ini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan Milliy bog'lar milliy agentligi (Agence Nationale des Parcs Nationaux, ANPN) tashkil etildi. Dastlab bioxilma-xillikni saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, parklarda ekoturizmni rivojlantirish rejalari birinchi marta 2008 yilda shakllangan.

Jahon sayyohlik va sayyohlik kengashi (WTTC) ma'lumotlari bo'yicha sayohat va turizmning Gabon iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shgan hissasini 146.6 million yevro yoki 2014 yilda yalpi ichki mahsulotning 1 foizini tashkil etgan. 2015 yildan 2025 yilgacha o'rtacha yillik ko'rsatkich 4.7 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Senegal (République du Sénégal) - G'arbiy Afrikada, Senegal daryosining janubida joylashgan davlat.

Senegal savannalar zonasida va subekvatorial kamarning noyob tekisligidagi mamlakatdir. Faqat janubi-Sharqda alohida balandliklar 500 m. ga ko'tariladi. Iqlimi subekvatorial, shimolda quruq, janubda namroq. Aholisi 19.3 mln. kishi (2020 yil). Etnik tarkibi: 20 etnik guruhlari, ularning eng ko'p qismi volof (43 %), fulbe (24%) va server (15%). Oqlar (asosan frantsuz) - taxminan 10%. Rasmiy til - frantsuz tili, aholining 90 foizi uni bilar ekan, milliy tillarning maqomi arabcha (hesaniya), balanta-Ganja va boshqalar. XI asrda Arab va barbar bosqinchilari tomonidan olib kelingan Islom mintaqada hukmron dinga aylandi.

XIV asrda mintaqada bir nechta "shohlik" mavjud edi, ularning eng kuchlisi Jolof imperiyasi edi. Uzoq vaqt davomida Senegal orolidagi Qorabog' shaharchasi qul savdosining eng yirik markazi bo'lgan. XV asrda Senegal qirg'og'ida yevropaliklar paydo bo'ldi. Ulardan birinchisi Dinish Diash boshchiligidagi portugal dengizchilari ekspeditsiyasi bo'lgan. 1633da Senegalda Yevropadan kelgan boshqa odamlar - ingliz va frantsuz savdogarlari paydo bo'ldi. XVII asr va XVIII asrning 1-yarmida Afrika-Yevropa savdosida Afrika davlatlari hukmdorlari qo'lida ushlab turilgan qullarning eksporti tobora muhim ahamiyat kasb etmagan.

Senegal iqtisodiyoti kam rivojlangan. Qishloq xo'jaligida 75% dan ortiq ishchi (YAIMning 14%) ish bilan band. Chorvachilik va parrandachilik rivojlangan, baliq ovlash davom etmoqda.

Sanoat sohasida (YaIMning 23%) qishloq xo'jaligi mahsulotlari va baliqlarni qayta ishlash, fosfat qazib olish, shuningdek, temir javhari, zirkonyum va oltinni qayta ishlash. Eksport - 3.6 milliard AQSh dollari. (2017 yilda) — baliq va dengiz mahsulotlari (15%) neft mahsulotlari (13%), fosfatlar va ularga asoslangan kimyoviy moddalar (11%), oltin (10 %) va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Asosiy savdo hamkorlari Mali, Hindiston, Shveysariya, Xitoy va Ispaniya.

Mamlakatda o'rtacha harorat: yanvar oyida 23 °C va iyul oyida 28 ° C atrofida.

Senegal hududida ikki yirik daryo doimiy oqimga ega - shimolda Senegal va janubdagi Kazamanlar. Boshqa daryolarning aksariyati quruq mavsumda deyarli butunlay quriydi. Senegaldagi yirik hayvonlar deyarli butunlay yo'q qilingan, ammo savannalarda antilopalar mavjud va uzoq joylarda chakalalarda gyenalar, leopardlar va gepardlar hali ham yashaydi. Ko'plab kichik kemiruvchilar, qushlar, sudraluvchilar, hasharotlar (shu jumladan, tsetse chivinlari) ko'p. Antlantika qirg'oqdagi suvlar baliqlarga, shu jumladan akulalarga boy.

Burkina-Faso - G'arbiy Afrikadagi dengizga chiqish imkoniyati yo'q mamlakat. U oltita mamlakat bilan o'ralgan: shimolda Mali, sharqda Niger, janubi-sharqda Benin, janubda Togo va Gana va janubi-g'arbda Kot-d'Ivuar. Mamlakat maydoni 274.2 ming km². Aholisi - 20.9 mln. kishi (2020y).

Burkina-Faso eng do'stona va yaqin vaqtdan beri butun Afrikadagi eng xavfsiz mamlakatlardan biri hisoblanadi. Garchi u yiliga ozgina sayyohlarni qabul qilsa-da, bu G'arbiy Afrikaning go'zal mamlakatini ko'rishni va Afrika madaniyati va musiqasini boshdan kechirishni istagan har bir kishi uchun ajoyib joy.

Hunarmandchilik va madaniyat Burkina-Fasoda sayohat va turizmning asosiy hissasi bo'lib qolmoqda. Mamlakatda yog'och o'ymakorligi, zargarlik buyumlari va kulolchilik kabi zamonaviy san'at va hunarmandchilikning kuchli an'analari mavjud. Burkina-Faso, shuningdek, regiondagi madaniy yetakchilik dinamikasidan foyda oladi, chunki har yili xalqaro rassomlar va sayyohlar mamlakatga CNS (madaniyat), FESPACO (kinofestivali), NAK

(atipik kechalar), SIAO (san'at va hunarmandchilik), FESTIMA (san'at va maskalar festivali) va SITHO (turizm va mehmonxonalar) festivallari bolib turradi, Loropeni va Laongo (granit haykallar qishlog'i) xarobalari kabi mamlakatning madaniy va sayyohlik ob'ektlari ham mehmonlarni jalb qiladi.

Burkina-Fasoda yo'lovchi tashishning eng katta qismi havo transportiga to'g'ri keladi. Kenya Airlines 2011 yil o'rtalarida Burkinaga reyslarni ochgan Afrikaning Sahroyi kabiridagi yetakchi aviakompaniyalardan biridir. Dunyo bo'yicha beshinchi yirik parvoz tarmog'iga ega bo'lgan Turkish Airlines, 2012 yil oxirida parvozlarni amalga oshirishni boshladi. Ushbu ikkita yirik aviakompaniyaning kelishi havo transportini rivojlantirishga yordam berdi, shuningdek, umuman mamlakatda sayohat va turizmning ahamiyatini oshiradi.

Burkina-Fasoda bir nechta xalqaro mehmonxonalar tarmog'i joylashgan. Mamlakatning mehmonxona infratuzilmasi poytaxt Uagadugoda to'plangan bo'lib, mijozlarning aksariyatini ishbilarmon sayyohlar tashkil etadi. Boshqa sifatli mehmonxonalarni mamlakatning ikkinchi yirik shahrida Bobo Dioulassonda va asosiy madaniy va sayyohlik joylariga yaqin joylardan topish mumkin.

Tengrela ko'li - Burkina-Fasodagi Banfor yaqinidagi kichik ko'l. U begemotlari bilan mashhur. Mahalliy aholi, bu begemotlar odamlarga hujum qilmaydi, chunki ular muqaddas begemot, deb ishontirmoqchi bo'lishadi. Ko'lining uzunligi 2 km, kengligi 1.5 km.

“Park Urbain Bangr-Weoogo” - bu dam olish va ekologik ta'lim uchun mos bo'lgan gullab-yashnayotgan qo'riqxonasi. Uning maqsadi hududning tabiiy biologik xilma-xilligini saqlashdir. Park mamlakatning qoq markazida 240-gektar maydonni egallaydi, unda savannasi, botanika bog'i va hayvonot bog'i bo'ylab sayr qilishni taklif qilishadi. Bu yerda sirtlonlarni, antilopalarini va maymunlarni ko'rish mumkin.

Gambiya. Mamlakat G'arbiy Afrikadagi Gambiya daryosi vodiysida joylashgan. XVIII asrda yevropaliklar tomonidan Senegaldan tortib olishgan. Bu yerlarning asosiy qismi Frantsiyaga tekkan, tor bir kichik qismi Buyuk Britaniyaga tekkan, shu Gambiya davlati bo'lib shakllangan. 1965 yil u mustaqillikni qo'lga kiritgan. Poytaxti Banjul shahri. Yirik shaharlari: Banjul, Basse Santa Su, Bingtang, Serek. Gunjur, Juffureh. Iqlimi subtropik.

Diqqatga sazavor joylari: Abuka tabiat qo'riqxonasi, Bao Bolon suv-botqoq yer zahirasi (unda uchta ekotizim bor), Kunta Kinteh oroli (YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, qullar savdosi 1779 yil tugagach uning ma'muriy binolari qolgan), Makasutu madaniy o'rmon (ekoturizm uchun qulay joy), Bakau botanika bog'i, Birkama yog'och o'ymakorlik markazi, Albert bozori, Juffure qishlog'i, Gambiya plyajlari. Poytaxt Bojulda mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bozorini, muzeylarni tamosha qilish mumkin.

Gambiyada Gambiya daryosida cho'milsh, rafting, baliq ovlash, qushlarni kuzatish, savanada hayvonlarni (jumladan, babuinlarni) tomosha qilish va ekoturlar qilish uchun sharoitlar bor. Mamlakatda turizm 100 ming kishini ish bilan band qilib kelmoqda.

San – Tome va Prinsipi Afrikaning g'arbiy qismidagi orol - davlatdir. Antlantika okeanining Gvineya ko'rfazida joylashgan (Gabon qirg'og'idan 300 km. uzoqlikda) orollarni o'z ichiga oladi: bir-biridan 150 km. uzoqlikda. San-Tome (836 kv. km.), Printsipi (128 kv. km.) va nisbatan kichik Rolas, Pedras Tignosas orollari. Mamlakatning umimiy hududi 1.0 ming kv. km. Aholisi 215 ming kishi (2020y.). Rasmiy tili portugal tili. Dini hasroniylik. Poytaxti San Tome shahri. Mamlakat ma'muriy jihatdan 7 tumanga bo'linadi. Milliy bayrami 12 iyul- Mustaqillik kuni (1975y.). Yirik shaharlari: Nevis, Santana, Amaro va Trindad (San Tome orolida va Santo-Anthono (Printsipi orolida).

San – Tome va Prinsipi agrar mamlakat. Afrikaning eng kambag'al davlatlaridan biri. Qishloq ahli asosan kakao yetishtirish bilan mashg'ul. Kakao, banan, quritilgan kokos, kofe va palma yog'i mamlakat eksportining 80 foizini tashkil etadi.

Sayyohlarni tabiatning go'zalligi, vulqonlar, o'ziga xos madaniyati va mustamlakachilik davri me'morchiligi o'ziga jalb qiladi. Turizm infrastrukturasi yaxshi rivojlanmagan, ammo narxlar juda past. 1992 yil Santana va Bombom turistik majmualar ochildi. 2000 yilga turistlar soni 7 mingdan va turistik daromad 10.0 mln. dollardan oshdi. Asosan frantsuz va portugallar kela boshlashdi.

Diqqatga sazavor joylar: poytaxt San Tomedagi XVI asr savori, San-Sebastian shahridagi Milliy muzey, Angolaning birinchi prezidenti A. Netoning qasri, "Yetti to'lqin" plyaji, o'chib qolgan Piko de San-Tom vulqoni.

Mamlakat Afrika qit'asidagi aksariyat mamlakatlarga qaraganda xavfsizroq va go'zaldir. Orollarning tabiati, keng kakao plantatsiyalari, dastlabki ko'rinishi saqlanib qolgan rel'yeflar, okeanning azim suvlari, rang-barang vulkonli landshaft, tinib tinchimas kanareykalar orollarni takrorlanmas qiladi. Sohillar oq qumli qirg'oqlar bilan o'ralgan, juda chiroyli hamda toza suvlarga ega.

14.5. Janubiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili

Janubiy Afrika respublikasi (JAR) Afrika qit'asining janubida joylashgan davlat. Hududi – 1221.3 ming kv.km. Aholisi 55.0 mln. kishi (2020 y.), 79%i qora tanlilar, 9 %i oq tanlilar, qolganlarini Osiyo qit'asidan chiqqan aholi tashkil etadi. Yirik shaharlari Pretoriya, Keyptaun, Durban, Yoxannesburg, Port-Elizabet. Ma'muriy-hududiy jihatdan mamlakatda keyingi davrda ancha o'zgarishlar ro'y bergan va 9 provinsiyaga bo'lingan: Ottent, Shimoliy Transvaal, Sharqiy Transvaal, Shimoliy G'arb, Kvazula (Natal), G'arbiy Burun, Shimoliy Burun, Erkin hudud. Ayrim provinsiyalar hatto o'z poytaxtlariga ham ega.

Milliy bayrami 31 may respublika e'lon qilingan kun. Respublika 1961 yili e'lon qilingan, 1984 yili kuchga kirgan. Bu mamlakat ko'p yillar davomida mustamlaka asoratida bo'lgan.

1652 yili Gollandiya bu o'lkani egallab olib Kan mustamlakasini barpo qilgan edi. 1806 yilga kelib bu o'lka Buyuk Britaniya tomonidan zabt etiladi. Mustamlakaga aylangan bu yurtning mahalliy aholisi va burlar 1820 yilga kelib qit'aning ichki hududlariga ko'chirila boshlanadi hamda bir qancha mustaqil davlatlar barpo etiladi. Buyuk Britaniya 1843 yilda Natal hududini anneksiya qiladi. Janubiy Afrika respublikasi 1910 yil 31 mayda mustaqillikka erishgan, ungacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan. Rasmiy tili ingliz va afrika tili. Keyinchalik yangi tashkil bo'lgan mustaqil davlatlar bilan mustamlakachilar o'rtasida bir necha bor urushlar bo'lib o'tadi.

Janubiy Afrika respublikasini ikki yoqlama iqtisodli mamlakat deb atash mumkin, chunki unda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning ham, rivojlanayotgan mamlakatlarning ham xususiyati birday uyg'unlashgan.

Afrikaning Sahroyi kabirdan Janubda joylashgan mamlakatlari orasida Janubiy Afrika respublikasi alohida o'rin tutadi. Birinchidan, u geografik o'rniga ko'ra Tropik Afrikaga kirmaydi. Ikkinchidan, u rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ham kirmaydi.

Mamlakatning asosiy boyligi tog' - kon sanoatida yaratiladi: oltin, platina, olmos, xrom, vannadiy zahiralari va ularni qazib olish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallagan, oltin qazib olish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi. Temir yo'llar uzunligi 20,6 ming km., avtomobil yo'llar uzunligi 188,4 ming km. ni tashkil etadi. Asosiy portlar Durban, Keyptaun, Port - Elizabet. Tashqi savdo aylanmasi ijobiy saldogaga ega. Asosiy savdo sheriklari Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, AQSh, Yaponiya, ya'ni industrial rivojlangan mamlakatlar.

Janubiy Afrika respublikasi Afrika mintaqasining eng yaxshi turizm markazlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakat yuqori sifatli yaxshi jihozlangan mehmonxona industriyasiga hamda transport vositalariga ega. Afrika mintaqasida keyingi yillarda Janubiy Afrika respublikasi eng zamonaviy xalqaro turizm industriyasiga ega bo'lgan yagona mamlakat sifatida tanilgan.

JAR ekzotika, ekstrim, sirlar, romantika, jodulik bilan qorishib ketgan yurtdir. Go'zal tabiat, takrorlanmas flora va fauna, ajoyib mahalliy xalq, salobatli arxitektura, ekzotik milliy taomlar, o'ziga xos savg'otilar mamlakatni ajoyibligini yana bir bor chizuvchi shtrixlardir. JARni originalligini namoyish eta oladigan narsalar juda ko'p: mahhur Afrika olmoslari, sokin cho'llar va savanalar, ekzotik qabila Zulu, eng janubda joylashgan yevropalik dengiz sayyohlari uchun mayoq vazifasini o'tagan tik qoya. Mamlakatdagi uzumzorlar, oltin plyajlar, Kap tog'larining g'alati peyzajlari, Hind va Atlantika okeanlarining cheksiz kengliklari, uch madaniyat (g'arb, afrika va sharq) ning qo'shilib - qorilib ketganligi, dam olish uchun cheksiz imkoniyatlar – bularning hammasi Janubiy Afrikadir.

Janubiy Afrika jahon turizmining eng mashhur yo'nalishlaridan biri sanaladi, ayniqsa vino marshruti, bog'lar yo'li va dunyoning eng yirik milliy qo'riqxonalaridan biraga safari. Qoriqxonada esa mamlakat puliga ham tushgan "besh katta hayvon" (fil, sher, leopard, nosorog, buyvol)ni tabiat qo'ynida erkin yurganini ko'rish imkoniga ega bo'lasiz. Etnografik qishloqlarda zulu, kosa, bushmenlarning urf-odat, noyob marosimlarini ko'rish mumkin.

Mamlakatning kantrastlari: boylik bilan kambag'allik, zamonaviylik bilan tarix, texnika yutuqlari bilan bidatlarning yonmayonligini har bir turistik sayohatda namoyon boladi (masalan, feshenebl mehmonxonada dam olib, keyin tsivilizatsiyani unutib bir necha ming yil orqaga qaytib ekzotik sharoitda bushmenlar hayotini ko'rish mumkin). Ekstrimallarni boshdan kechirish, yovvoyi hayvonlarni ov qilish, gulxanda kechki ovqatni yeyish va palatkada yotish, alpinizm, syorfig, dayving, akulalarni ko'rish uchun dengizga sho'ng'ish kabilar kutadi.

JARning 2019 yilda diqqatga sazavor top-o'ntalik joylari: 1. Oltin konlari tufayli mamlakat YAIMning uchdan birini beruvchi Yoxannesburg; 2. Apartaid muzeyi; 3. Keyptaun shahri; 4. Keyptaundagi Viktoriya va Alfredlarning dengiz bo'yidagi turistik kompleksi; 5. Kirstenbosh botanika bog'i; 6. Kalaxari cho'li (600 kv.km. maydonda jirafalar, zebralar, sherlar, chiyabo'rilar, leopardlar, turli qushlar yashashadi); 7. Kryuger milliy parki (maydoni 20 ming kv.km, dunyodagi eng yirik parklardan biri); 8. Tsitsikamma dengiz milliy parki; 9. Sobiq (1.0 mln. yil oldin vulqon bolgan) vulqon kraterida joylashgan Pilanesberg milliy parki; 10. Janubiy Afrikaning eng baland tog'i Ajdarholar tog'i.

Janubiy Afrika respublikasining madaniy merosi juda katta. Bu meros xalq ijodi, ya'ni folklorni, juda qadimgi devor yozuvlarini yozish an'alarini saqlab qolgan amaliy dekkorativ san'atni o'z ichiga oladi, o'zining musiqa madaniyatiga, ashula va raqs uslublariga, musiqa asboblariga ega va ularni saqlab kelmoqda. Qadim zamonlardan beri turli xil teatrlashtirilgan tomoshalar va turli xil sayillar o'tkazilib kelinadi.

JARga 2018 yilda xorijdan 10.5 mln. turist kelishgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 9.8 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Angola dunyodagi eng ajoyib va go'zal mamlakatlardan biri bo'lib, har yili ko'plab sayyohlarni jalb qiladi. Bu mamlakat Afrika qit'asining janubi - g'arbiy qismida joylashgan. Namibiya, Kongo Demokratik Respublikasi, Zambiya va Kongo Respublikasi bilan chegaradosh. Shtat poytaxti - Luanda, mamlakatning eng katta shahri. Angolaning yirik shaharlari - Benguela, Xuambo, Malanj va Kabinda.

Mamlakatning eng rivojlangan tarmog'i neft ishlab chiqarishdir. Shuningdek, mamlakatda olmos, marmar, granit qazib olinadi.

Angola - qirq yil oldin mustaqillikka erishgan ancha yosh mamlakat. Bungacha u uzoq vaqt portugallarning mustamlakasi bo'lgan.

Hozirgi vaqtda bu Afrika davlati hali ham rivojlanish yo'lida, lekin ayni paytda o'ziga xos madaniyat va hayratlanarli go'zal tabiatga ega. Angola juda iliq mamlakat. Uning o'rtacha yillik harorati 20°C dan biroz yuqori. Mamlakatda ikkita iqlim fasli bor: nam va quruq. Ulardan birinchisi oktyabrdan maygacha davom etadi, yanvar-fevral oylarida qisqa muddatli quruq tanaffus, mamlakatda quruq mavsum iyundan sentyabrgacha davom etadi. Bu nam mavsumda o'rtacha 1400 mm yog'in tushadi. Sentyabr va oktyabr oylarida mamlakatdagi harorat eng yuqori: 21°C dan boshlanadi va pasttekisliklarda 24°C ni tashkil etadi. Angoladagi eng past harorat yozda - iyun va iyul oylarida harorat 15 dan 22°C gacha tushadi.

Angolada asosan platolar ustunlik qiladi, mamlakatning ba'zi joylarida balandliklar 1000 metrdan oshadi. Biye massivi - mamlakatning eng baland qismi, uning hududida mamlakatning eng baland nuqtasi - dengiz sathidan 2600 metr balandlikda joylashgan Moko tog'i joylashgan. Mamlakatda oqadigan eng katta daryolar - Kvanza va Kunene, Angoladagi ko'plab sharsharalar orasida eng balandi - Duque di Braganza. Mamlakat hududining yarmidan bir oz kamroq qismi o'rmonlar va engil o'rmonlar bilan qoplangan. Angola nihoyatda boy faunaga ega. Bu Afrika davlatida hayvonot olamining ko'plab vakillari birga yashaydilar: sherlar, fillar, zebralar, maymunlar va boshqalar.

Har yili Angolaga tashrif buyuradigan ko'p sonli sayyohlar uchun eng jozibali tabiatdir. Ayniqsa, mashhur qirg'oq chizig'i, mamlakat janubidagi Namib cho'li va savannaning ajoyib manzaralari. Bundan tashqari, chet ellik mehmonlar tosh asrida yashagan odamlarga xos bo'lgan hayot tarzini eslatuvchi ba'zi qabilalarning hayotini ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.

Angolada inson qo'li bilan yaratilgan diqqatga sazovor joylar kam, bu ko'p asrlik mustamlakachilik asoratidir. Eng ko'p me'moriy yodgorliklar poytaxtda joylashgan. Poytaxtga tashrif buyurgan har bir sayyoh taxminan besh asr oldin qurilgan va hozir tarixiy muzeyga aylangan San - Migel qal'asini, shuningdek, Dundu muzeyiga borib, mamlakatning eng qimmatli etnografik yodgorliklarini ko'rish mumkin. Namib viloyati noyob tabiiy diqqatga sazovor joy bo'lib, u

mamlakatning boshqa mintaqalariga qaraganda eng qulay iqlim sharoitiga ega.

Tabiatning ulug'vorligi Kisama milliy bog'ida hayratlanarli, bu yerda siz Angolaga xos bo'lgan noyob hayvonlar va o'simliklarning kombinatsiyasini, shuningdek, qizil bufalo, manati va dengiz toshbaqasi kabi yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni ko'rishingiz mumkin.

Namibiya Afrikaning janubi-g'arbiy qismida joylashgan davlat. G'arbdan Atlantika okeani, shimolda Zambiya va Angola, sharqda Botsvana hamda janub va janubi-sharqda JAR bilan chegaradosh. 1990 yil JAR bilan urushib mustaqillikni qo'lga kiritgan. Namibiya mamlakatining turizm bo'yicha rivojlanish imkoniyatlari Afrika ekzotikasining ajralmas qismi, yiliga ko'plab quyoshli kunlar, juda boy hayvonot va o'simlik dunyosi, g'ayrioddiy oy manzarasi, sifatli mehmonxonalar va lagerlarning keng tanlovi – Namibiyaning mashhur turistik hududga aylantirdi. Poytaxti – Vindxuk, 1907 yil nemislar tomonidan qurilgan, shaharda nemis mustamlaka davri kuchli iz qoldirgan. Mashhur turistik markazlari – Namib cho'llari, Skelet sohillari, milliy bog'lar.

Diqqatga sazovor joylar: Damaralend – Otchivarongoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan xarob va chiroyli cho'l. Shpitskopp tog'lari va Pondoks cho'qqisi alpinizm uchun idealdir. Luderits – olmos shovqini paytida qurilgan ko'plab qiziqarli nemis uslubdagi tarixiy binolarga ega bo'lgan kichik port. Bugungi kunda bu omar baliq ovlashning eng yirik markazi hisoblanadi. "Fish River Canyon" Koloradodan keyin dunyodagi 2-yirik kanyon sanaladi. Grutfontein – mamlakat shimolidagi kichik shaharcha, 19-asr oxorida nemis ko'chmanchilari tomonidan tashkil etilgan. Asosiy mahalliy diqqatga sazovor joy – bu mukammal saqlanib qolgan dunyodagi eng yirik meteorit Xoba qulagan joy. Taxminan 80 ming yil bu yerga og'irligi 50 tonna bo'lgan meteorit tushgan va u 1920-yilda topilgan.

Svakopmund shahri - Namibiya rahbariyati ta'tilga chiqishni yaxshi ko'radigan Atlantika okeanining qirg'og'idagi kurort shahar hisoblanadi. Yevropaning provinsiyasiga o'xshaydi. Shuningdek, Svakopmundni kurortga aylantiradigan shifobaxsh mineral buloqlar mavjud.

Namib sahrosi. Sayyoradagi eng qadimgi cho'l bo'lib, dinozavrlar davridan beri mavjud. Ushbu hudud sirt ustida doimo aylanib

turadigan suv bug'lari tufayli "tumanlar cho'li" deb nomlanadi. Bu yerda 1000 yil yashaydigan va o'nlab yillar davomida namliksiz yashaydigan o'simliklar o'sadi. Himba qabilasi ibtidoiy qonunlar asosida yashaydi.

Kolmanskop sharpa shahri. Bir paytlar Namib cho'lida olmos qazib oluvchilarning gullab-yashnagan shahri bo'lgan. XX asrning boshlarida Yevropacha uslubdagi chiroyli uylar, maktab, kasalxona va suzish havzasi bo'lgan jonli aholi punkti mavjud edi. Ammo, boshqa boy konlarning topilishi aholini shaharni tark etishga majbur qildi. Asta-sekin qumlar barcha binolarni xarob qilgan. Hozirda hudud muzeyga aylantirilgan.

Sossusfley platosi. Namib cho'lida joylashgan. Hudud baland manzarali qizil qum tepalari bilan sayyohlar orasida mashhur. Tomosha uchun eng yaxshi vaqt - shom tushganda yoki tong otganda, landshaft qirmizi rangga bo'yalgandek bo'lib, ba'zi bir sayyoralar yuzasiga o'xshab qoladi.

Tvifelfontein vodiysidagi qoyatosh rasmlari - ushbu tasvirlar neolit davrida paydo bo'lgan. Asrlar davomida vodiya yig'ish va ov qilish bilan shug'ullanadigan qabilalar yashab kelgan, ular ko'p sonli rasmlarni qoldirgan. Ularning eng qadimiylari 5 ming yildan oshiq, eng yangilari 500 yoshda. Rasmlarda asosan turli xil Afrika hayvonlari tasvirlangan.

Etosha milliy bog'i. Mamlakatning shimolida Kalaxari cho'lining chekkasida joylashgan katta qo'riqxon. Maydoni 20.0 ming kv.km. Bu yerda qushlarning 340 turi, hayvonlarning 114 turi va sudralib yuruvchilarning 112 turi yashaydi. Ularning aksariyati noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida. Bu yerda sherlar, fillar, jirafalar, karkidonlar va antilopalarni ko'rishi mumkin. XX asrning boshlarida qo'riqxon duniyodagi eng yirik qo'riqxon bo'lgan, ammo siyosiy ziddiyatlar tufayli o'z hududining 75 foizini yo'qotgan.

Waterberg milliy bog'i. U mamlakat poytaxtidan 300 km. uzoqlikdagi toshloq platoda joylashgan. Subtropik iqlimi tufayli u yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan. Platoning etagida odatdagi Afrika qurg'oqchil savanasi ustun turadi. Tepaliklarda, o'rmonlar va mahalliy floraning noyob vakillari bo'lgan butalar o'sadi.

Fish River kanyoni. Afrikadagi eng katta kanyon, hajmi jihatidan Amerika Katta Kanyonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Uzunligi 160 km, eni 28 km, chuqurligi 500 metrga yetadi, bu yerda bazalt

toshlar, aloye chakalaklari, termal buloqlarga qoyil qolish mumkin. Sayyohlar manzaradan bahramand bo'lishlari uchun kuzatuv platformalari bilan jihozlangan.




Diagramma – 14.1. 2020-yilda Namibiyaga tashrif buyurgan sayyohlar (mamlakatlar miqyosida).

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, mamlakatga keladiganlar asosan qo'shni davlat fuqarolari hamda sobiq metrapoliya bo'lgan Germaniyaliklar tashkil etadi.

Mamlaktdan chetga chiqish turizmi holatini keying diagrammada ko'rish mumkin:




Diagramma – 14.2. Mamlaktdan chetga chiqish turizmi holati.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Namibiyaliklar asosan JAR va Zimbabvega sayohatga chiqishadi. Mittgina Botsvananing o'rni ham katta.

Zambiya. Janubiy Afrikadagi davlat. Poytaxti Lusaka. 1964 yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan. U yovvohi hayotni ko'rsatishda juda katta turistik salohiyatga ega davlatlardan biri sanaladi. Shimoliy Luangva, Janubiy Luangva va Kafue milliy bog'lari dunyoning hayvonot populatsiyasi eng samarali bo'lgan joylari hisoblanadi (bu yerlarda birgina sherlarning soni 2500 dan ortiq). Mamlakatda yashaydigan 73 etnosning har yil o'tkaziladigan an'anaviy marosimlari ham juda mashhurdir.

Zambiya ko'plab tabiiy mo'jizalar mamlakatidir, ularning ichida eng mashhuri Viktoriya sharsharasidir. Mahalliy xalq "mamqaldiraq tutun" deb nom bergan bu sharharadan 700 ming kub metr suv pastga katta shovqin qilib tushadi va uning shovqinini 20 - 30 km uzoqdan ham eshitish mumkin. U joylashgan hudud mamlakatning ekoturistik markaziga aylanib bormoqa. Ikkinchi shunday mo'jizalardan biri Kariba ko'lidir. U dunyodagi sun'iy ravishda qurilgan eng katta ko'ldir (180 mlrd. tonna suvga ega). Kariba to'g'onini qurish uchun yaratilgan. Qizig'i shundaki, suv omborini to'ldirish davrida Rixter shkalasi bo'yicha 5 balldan yuqori bo'lgan 20 dan ortiq zilzillani keltirib chiqargan. Keyingisi dunyodagi yovvoyi hayotning eng katta kontsentratsiyasiga ega bo'lgan Janubiy Luangva milliy bog'idir. Shimoliy Luangva milliy bo'g'i sayyoradagi eng hayratlanarli joylardan biri sanaladi. Uning maydoni 4636 kv.km. U janubdagi hamkasbiga nisbatan uncha mashhur bo'lmasa ham hayvonot dunyosi u kabi boydir. Zambiyada safari burchaklari va chodir lagerlari ham mashhurdir.

Mamlakatga 2017 yilda 1.0 mln. kishidan ortiqroq turistlar kelishgan. 2017 yilda Zambiyaga eng ko'p Zimbabvedan (191ming kishi), Tanzaniyadan (184 ming), Kongodan (90 ming), JARdan (87 ming), AQShdan (32 ming), Buyuk Britaniyadan (32 ming) kelishgan.

Botsvana - Afrika qit'asining janubida joylashgan kichik mamlakat. Botsvananing poytaxti Gaborone. Botsvana qo'shnilari singari juda quruq iqlimi bo'lgan qashshoq mamlakat. Bu yerda juda oz miqdordagi yog'ingarchilik yog'adi va mamlakatni cho'l, milliy bog'lar va yashil maydonlar egallaydi.

Botsvanada toza tabiat va birinchi darajali milliy bog'lar ko'p bo'lib, rang-barang hayvonlar yamda qushlarning yuzlab turlari mavjud. Mamlakar Okavango deltasi va Kalaxari cho'lining issiq hududlari, tosh g'orlar va Bushmen qishloqlari bilan ham mashhur.

Ushbu davlat eng muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishni namoyish etishi mumkin. Botsvana qishloq xo'jaligidan sanoat va tog'-kon sanoatiga o'tishi bilan Afrikada Janubiy Afrikadan keyin ikkinchi eng muvaffaqiyatli mamlakatga aylandi. Shunga qaramay, aholining aksariyati yomon sharoitda yashashda davom etmoqda.

Botsvana haqida 7 ta muhim fakt:

- Limpopo daryosi bizga Chukovskiyning bolalar ertaklaridan ma'lum bo'lgan Botsvana hududidan oqib o'tadi.

- Botsvana qimmatbaho toshlarning ulkan konlariga ega va dunyodagi eng yirik olmos tashuvchisi hisoblanadi.

- Mamlakat 1960-yillarda Britaniyadan mustaqillikka erishdi.

- Botsvana OIV bilan kasallanish darajasi bo'yicha dunyoda Shveytsariyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

- Botsvana o'zining "gumba-gumba" musiqiy yo'nalishiga ega. Musiqa an'anaviy qabila ohanglarini jaz musiqasi va afrika rumbasi turlarini birlashtiradi.

- Botsvana eng qashshoq davlat bo'lishiga qaramay, uning monarxi dunyodagi eng boy hukmdorlarga tegishli. 13 qirol xotining har biri alohida hashamatli saroydlara yashaydi.

- Botsvanadagi asosiy din nasroniylikdir, ammo aholining taxminan 20% o'zlarini hech qanday dinlarga mansub bo'lmagan, erkin din deb bilishadi.

Botsvana sayyohlarning ommaviy oqimini cheklash siyosatiga amal qilmoqda, shuning uchun bu yerga tashrif buyuruvchilar faqat juda katta byudjetga ega sayohatchilar bo'lishi mumkin. Buning evaziga ular juda ko'p sonli hayvonlar va qushlarni ko'rish, Kalaxari cho'lining ekzotik tabiatidan va mashhur Okavango daryosi deltasidan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qadimgi afrikalik Bushmen qabilasining qishlog'iga tashrif buyurish, ular o'zlarining avvalgi turmush tarzini, qadimiy urf-odatlarini va madaniyatini shu kungacha saqlab kelmoqdalar, bu Tsolidoning sirli tepaliklarini ko'rishdan kam zavq emas - bu toshlardagi eng boy tosh rasmlari to'plami. Bundan tashqari, Botsvana Afrikaning eng xavfsiz sayyohlik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy aholi juda

xotirjam va do'stona hamda umuman shoshilmaydigan hayot ritmi hatto odamlardan deyarli qo'rqmaydigan hayvonlarning hatti-harakatlarida ham namoyon bo'ladi.

Botsvanaga keladigan sayyohlar ko'pincha mamlakatning milliy bog'lariga borishadi. Botsvana tashrif buyuruvchilar uchun o'zining bokira tabiati bilan qiziq. Bu yerda safarlar jirafa va fillar populyatsiyasi va boshqa yovvoyi tabiat bilan milliy bog'larga tashriflar tashkil etiladi. Bundan tashqari, Bushmen qabilalari hali ham Botsvanada yarim cho'lda yashaydilar va o'zlarining turmush tarzlarini olib boradilar. Ularning toshlardagi rasmlari Afrika mamlakatining madaniy merosiga tegishli.

Afrikaning ko'plab mamlakatlaridan farqli o'laroq, Botsvana juda xavfsiz joy. Bu yerda jinoyatchilik darajasi nihoyatda past va mahalliy aholi juda mehmondo'st va sayyohlarni mamlakat iqtisodiyotiga yordam berishlari uchun juda yaxshi ko'rishadi.

Prezidentni, hukumat vazirlarini, politsiya yoki harbiy amaldorlarni hamda politsiya binolarini, harbiy inshootlar va aeroportlarni suratga olish taqiqlanadi.

Xavfsizlik bo'yicha eng muhim nuanslar milliy bog'larda o'zini tutish qoidalari bilan bog'liq:

- Birinchidan, siz hech qachon yovvoyi hayvonlarni bilan boqmasligingiz kerak. Qo'lingizni cho'ntagingizda ushlab turishingizga hojat yo'q, bundan ham ko'proq, babuinlarga ovqat ko'rsatmaslik (qulay xonada o'tirganingizda, siz bu so'zlardan tabassum qilishingiz mumkin, lekin parklarda buni qilmaslik yaxshiroqdir: tabassum babuinlarda tajovuz sababchisi bo'lishi mumkin).

- Fillar bilan uchrashuvda siz ularga doimo yo'l berishingiz kerak va hech qanday holatda ota-onalar va bolalar o'rtasida turmang.

- Baland o'tlardan o'tgandan keyin kiyimingizga Shomil tushganligini tekshirish kerak.

- Safari bo'ylab sayohat qilishda siz mashinadan faqat belgilangan joylarda tushishingiz mumkin. Biroq, barcha avtoulavlarda salonning ochiq tepalari bor, bu har qanday holatda ham sayyohlarga mahalliy hayvonot dunyosini mamnuniyat bilan tomosha qilish imkoniyatini beradi.

- Bundan tashqari, siz yurish paytida shovqin qilmasligingiz kerak, siz o'simliklarni qo'riqxonalaridan olib chiqib, uy hayvonlarini

olib kela olmaysiz. Chekishga faqat lojalarda ruxsat beriladi - piyoda emas. Ovqatni hayvonlar uchun qulay bo'lgan joylarda qoldirmang. Ichkiliklarni yerga va axlatga to'kib tashlamang - bu hayvonlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo, kechqurun lojalarda uzun ko'ylak va uzun shim kiyishingiz kerak.

Mahalliy mehmonxona fondining asosiy tushunchalari "lojali" va "lager". Turar joylar odatda bitta yoki ikki qavatli, 60-100 xonali va bir nechta kichik binolar yoki yakka tartibdagi uylardan iborat. Umuman olganda, taniqli dam olish qishlog'iga o'xshash narsa, ammo "Afrika" versiyasida.

Mamlakatdagi asosiy mehmonxonalar poytaxt Gaboroneda joylashgan. Safari turlarga borsaningiz sizni tematik mehmonxonalar kutadi.




Diagramma-14.3. Botsvana xorijliklarning qilgan xarajatlar dinamikasi.

2019 yilda Botsvana uchun turizm tushumlari 572 million AQSh dollarini tashkil etdi. So'nggi yillarda Botsvana sayyohlik tushumlari sezilarli darajada o'smoqda.

14.6. Sharqiy Afrika mamlakatlari turizmi xususiyati

Ruanda. Ruanda Sharqiy Afrikada, Buyuk Ko'llar mintaqasida joylashgan, Shimoldan Uganda, sharqdan Tanzaniya, g'arbdan Kongo Demokratik respublikasi va janubdan Burundi bilan chegaradosh. Mamlakatning sharqi savanalar bilan qoplangan, g'arbi esa tog'lardan iborat, ko'llar juda ko'p. Iqlimi subtropik, ikkita yomg'irli va ikkita quruq fasllarga ega. Poytaxti Kigali shahri. Xalqi ingliz, frantsuz, suaxil va kinyarvan tillarida so'zlashadi. Mamlakatni ko'rish uchun

Kivu ko'liga, choy plantatsiyalariga, Ntarama va Gisozi tarixiy yodgorliklariga kelishadi. Ruandada Vulqanlar parki, Nyungve, Akagera kabi milliy parklari bor. Eng mashhuri "Park National de Volcans" deb nomlanadigan bog'i (poytaxtdan 2 soatlik yo'l) sanaladi, u nafaqat Ruandada, balki Kongoning Virunga Massif hududiga ham cho'zilib ketadi. Uning eng mashhur hayvoni gorillalardir. Hududda beshta vulqon (jumladan, Bisoke vulqoni)ni ham tamosha qilishga arziydi. Bu yerda 200 dan ortiq qush turlari bor va savananing turli hayvonlari ham ko'p. Nyungve milliy parki Ruandaning janubiy - g'arbida Burundi chegarasida joylashgan. Maydoni 1019 kv.km. Bu yerda 13 xil maymun turlari, 87 xil sut emizuvchilar, 300 dan ortiq qush turlari, 1000 dan ortiq o'simlik turlari bor. Asosiy faoliyat shimpanzelnarni kuzatuvdir. Akagera milliy bog'i Tanzaniya bilan chegara joyda Akagera daryosi bo'ylarida joylashgan. Maydoni 1122 kv.km. U balandliklar, savana o'simliklari, papyrus botqoqliklari, o'rmonlar ko'llar bilan o'rab olingan. U turli xil hayvonlarga boy joy va ularni mashinada tamosha qilish o'ta zavqli.

Ruandada 1994 yilda Tutsilarni qirg'in qilinishini eslatadigan 6ta genotsid markazlari bor, ulardan eng kattasi Kigali genotsid markazidir. Mamlakat poytaxti Kigalida tarixiy muzey, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlariga boy Kimoronko bozoriga, o'ziga xos kartinalar bo'lgan Inema art-galeriyaga ham borish mumkin. Kivu ko'li Ruandadagi eng yirik ko'l bo'lib, maydoni 2700 kv.km. U mamlakatning muhim turistik go'shasi sanaladi.

Mamlakatga 2018 yilda 400 mingdan ortiqroq turistlar kelishgan.

Uganda. Sharqiy Afrikada joylashgan okeanga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlat. Uganda birinchi navbatda milliy bog'lari bilan mashhur. Bvindi Immigrant milliy bog'i Ugandaning Janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Dunyodagi tog' gorillalarning yarmi shu yerda yashaydi. Qushlarning 350 dan ortiq turlari bor. Shimpanzalar, babuinlar, fillar, antilopalar juda ko'p. Murchison shtati milliy bog'i - u Ugandaning eng katta va eng eski parki bo'lib, Albertin vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Viktoriya ko'li, Nil daryosi juda go'zal lanshaftlarga, manzaralarga boy joydir, yayvonot dunyosi ham boy. Shimpanzelnarni kuzatish mumkin. Qirolicha Yelezabetta milliy bog'i, Ugandaning janubi-g'arbiy qismida Kampala shahridan 400 km. uzoqlikda joylashgan. Unda Jorj va

Albertina ko'llari bor. Turli xil hayvonlar va go'zal manzaralarga boy. Bu yerda toqqa chiqishni afzal ko'radiganlar uchun Ugandaning eng baland va qor bilan qoplangan Rvenzori tog'i ham bor. Kibali o'rmon milliy bog'i, bu yerda primatlarning 13 turi bor. Bog' o'zining noyob daraxtlari (oq qanotli palma, papirus soyaboni kabi) bilan ham mashhur.

Uganda o'zining botanika bog'lari, Viktoriya ko'li, Nil daryosida oq suvli rafting, yovvoyi tabiatga safari, gorilla trekinglari bilan ham mashhur.

Mamlakatga 2018 yilda 3.0 mln kishidan ortiqroq turistlar kelishgan.

Tanzaniya. Afrikaning yetti tabiiy mo'jizasidan uchta Tanzaniyada joylashgan: Ngorongoro krateri, Serengeti milliy parki, Kilimanjaro tog'i. Tanzaniya 6 ta milliy meros ob'yaktlari bilan ham mashhur: Kilva Kisivanining xarobalari, Selios Game Reserve – dunyodagi eng yirik milliy qo'riqxonalaridan biri va Zanzibarning Stone Towni.

Tanzaniyaning mashhur Zanzibar orollari, Maha orollari va Pemba ko'plab sayyohlarni plyajlari va sho'ng'ish joylari bilan jalb qilmoqda.

2017 yilda Jahon iqtisodiy forumining Sayohat va sayyohlik bo'yicha raqobatbardoshligi hisoboti bo'yicha Tanzaniyani Braziliyadan keyin ikkinchi o'ringa joylashtirdi.

2017 yilda turizm sohasi Tanzaniya YaIMning 9 foizini bergan. Bu soha 446 ming kishini ish bilan banq qilmoqda, bu mamalakat bandligining 3.3 foizini tashkil etgan.

Jibuti. Turizm mamlakat iqtisodiyotiga asosiy daromad keltiradigan tarmoqlar qatoriga kirmaydi (byudjetga asosiy daromad sanoat, asosan qazib olish va qishloq xo'jaligi sohalaridan keladi). Ammo, keyingi yillarda Jibuti davlati turizmga iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida qaramog'da. Jibutidagi sayyohlik infratuzilmasi juda kam rivojlangan, ammo mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni asta-sekin o'sib bormoqda.

Turizmni rivojlantirish Jibuti milliy turizm idorasi mamlakatga xorijiy sayyohlardan taxminan 30 ming kishi kelishini xabar beradi, ularning 65% Frantsiya fuqarolari tashkil etadi, turizmdan jami moliyaviy tushumlar faqat 7 million dollarni tashkil etgan.

Jibutida hech qanday muhim tarixiy yodgorliklar yoki me'moriy obidalar mavjud emas. Potentsial sayyohlar mamlakat tabiatining bokiraligi va uning aholisining ekzotik turmush tarzini ko'rishga jalb qilish mumkin. Ekoturizm ob'ektlari, birinchi navbatda, Tojura ko'rfazining chiroyli qirg'oqlari va plyajlari va Al-Mandeb bo'g'ozı sohillarini o'z ichiga oladi. Tajura ko'rfazida bir necha orollar mavjud bo'lib, qirg'oqlari dengiz faunasining mukammal xavfsizligi tufayli sho'ng'ish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Dengizda baliq ovlashni tashkil etilishi mumkin.

Jibuti keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ega bo'lgan juda kambag'al mamlakat bo'lib qolmoqda. Sayyohlar sonining ko'payishiga, birinchi navbatda, sayyohlik infratuzilmasi va zamonaviy transport tarmog'ining yetishmasligi to'sqinlik qilmoqda. Katta muammo - malakali xodimlarning yetishmasligi va frantsuz tilidan tashqari xorijiy tillarni bilmasligi. Barcha bu qiyinchiliklar transport va telekommunikatsiya xizmatlarining juda yuqori (Afrika standartlari bo'yicha) qiymati bilan murakkablashadi.

Mehmonxona infratuzilmasi ham juda kam rivojlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, butun mamlakat bo'ylab 185ta mehmonxona bor. Jibutidagi murakkab sanitariya-epidemiologik muhit ham salbiy omillarni o'z ichiga oladi - sayyohlar yuqumli va ichak kasalliklari bilan kasallanish xavfi tufayli muayyan choralarni ko'rishlari kerak.

Biroq, Jibuti sayyohlik sanoatining kelajagi mutaxassislar tomonidan juda istiqbolli hisoblanadi. Jibuti hukumati, milliy turizmni rivojlantirishning katta salohiyatidan xabardor bo'lib, buning uchun turli tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda - masalan, sayyohlik infratuzilmasiga xorijiy investitsiyalar tartibini imkon qadar osonlashtirishga harakat qilmoqda. Zamonaviy jahon standartlariga javob beradigan mehmonxonalar va yo'llarning qurilishi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Burundi Sharqiy Afrikaning markaziy qismidagi Afrikaning Buyuk ko'llar mintaqasidagi dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan kichik mamlakat. Uning Janubi-g'arbiy qismida Tanganyika ko'li joylashgan, mamlakat yana Kongo Demokratik Respublikasi, Ruanda va Tanzaniya bilan chegaradosh.

Mamlakat aholisi – 11.2 million kishi (2020y.). Poytaxti va eng katta shahri Bujumbura. Davlat tillari fransuzcha (rasmiy 0.3%) va

kirundi, rundi va kiga singari dialektlardir. Aholining 80% dan ortig'i xristianlardir.

Burundi juda katta tabiiy resurslarga, yovvoyi tabiatga ega, ammo Burundining turizm sohasi rivojlanmagan. Diqqatga sazavor joylaridan biri Nil daryosi irmog'idagi piramida hisoblanadi.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizm unchalik katta bo'lmagan ulushga ega. Sayohat va sayyohlik sanoatining mamlakat YaIMga qo'shgan hissasi 2014 yilda esa 2 foizni tashkil etgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2000-yillarda xalqaro sayyohlar soni ko'paygan. 2000 yilda Burundiga 29 mingga yaqin xalqaro sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2006 yilda esa sayyohlar soni 214 mingga yetdi, 2010 yilga kelib mamlakatga atigi 142 ming sayyoh tashrif buyurgan. Turizm sohasi o'sib borayotgan bo'lsa - da, davom etayotgan notinchliklar mamlakatda turizmni buzib turibdi.

Burundidagi turizm infratuzilmasi juda yomon. Sayyohlar uchun transport va turar joy imkoniyatlari cheklangan. 2010 yilda Burundi hukumati Afrika taraqqiyot banki bilan hamkorlikda mamlakatning turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun 20 yillik infratuzilmani rivojlantirish rejasini rejalashtirgan. Moliyalashtirish boshqa donor mamlakatlar va tashkilotlardan ham ta'minlandi.

2019 yilda sayohat va turizmning Burundining YaIMga qo'shgan hissasi 0,1 milliard dollarni tashkil etdi va uning ulushi (YaIMga nisbatan foiz) Burundida 4.3% ni tashkil etdi. 2019 yilda sayohat va turizm Burundi YaIMga 284.2 mlrd. LCU ni tashkil etgan. Sayyohlik va turizmning Burundi YaIMga qo'shgan hissasi 2000 yilda 13,4 milliard LCU dan 2019 yilda 284,2 milliard LCU ga o'sdi va yiliga o'rtacha 22.3 foizga o'sdi.

14.7. Mavrikiy va Seyshel orollari turizmi xususiyati

Mavrikiy Hind okeanida joylashgan 2.0 ming kv. km. ega bo'gan mitti davlat hisonlanadi. Mamlakat aholisi 1298.6 ming kishini tashkil etadi, ularning 56 foizi industlar, 26 foizi xristian va 17 foizi musulmon. Aholi faqat bir orolda yashaydi, uning atrofida inson yashamaydigan 49 kichik orol ham bor, jumladan Rodrigues oroli, Chagos arxipelagi, Agaleg oroli, Tromelin oroli.

Mavrikiy davlati o'zining ran-barang va yaqqol dunyosi bilan, doimiy yozligi bilan (orolda ob-havo 23 gradusdan past bolmaydi,

yog'ingarchilik esa yil davomida 1500-3500 mm. yog'adi), kichkina bo'lishidan qat'iy nazar turli madaniyatlar (hind, Yevropa, Afrika, islom) ning qorilib ketgani bilan kishilarni maftun qiladi. XVI asrgacha odam yashamaydigan orol bo'lib kelgan, so'ngra portugallar, gollandlar, frantsuzlar va inglizlarning kolonial hukmronligini ko'rib, 1992 yil to'liq mustaqil davlat bo'lgach, o'zining go'zal tabiatiga va turli xalq-elatlarning urf-odatlarini olgan madaniyatga tayanib turizmni, ayniqsa ekzoturizmni rivojlantirmoqda. Birinchi darajali mehmonxonalar va kurortlar butun dunyoning boy kishilarining sevimli dam olish maskaniga aylanib bormoqda.

Madagaskar orollaridan sharqda Hind okeanining qoq o'rtasida joylashgan Mavrikiy tropik iqlimga ega bolib, uning shimoli quyuuq o'rmon bilan qoplangan va yerda XVIII asrda ochilgan mahhur botanika bog'i bor. Shimolning qirg'oqlari qumli plyajlari va musaffo okean suvlari bilan ham mashhur. Janub o'zining La-Vanilla va Il-o-Egret qo'riqxonalarini bilan mashhur, g'arb esa o'rmonlari, Shamareldagi rangli qumlari bilan mashhur. Sharq esa koral riflariga boy, va u suv osti olami bilan qiziquvchilar uchun zo'r joydir. Poytaxt Port-Luida kolonial davrlarning turli arxitektura yodgorliklari, hindlarning ehromi Maxeshvarat musulmonlarning Juma-masjidi bilan yonma-yon joylashgan. Adelaida fortining eski qasri, Fotografiya muzeyi bor.

Mamlakatning mashhur kurortlar: Blu-Bey, Gri-Gri, Mon-Shauzi, Tru-o-Bish, Flik-an-Flak, River-Nuar.

Mamlakatdagi tabiiy ob'yektlardan ko'rishga arziydigan eng zo'r joylar: O'chgan vulqon krateri Tru-o-Serf, River-Nuar platosi, hech qayerda o'smaydigan gullar va daraxtlar hamda faqat shu joyda yashaydigan qushlar, Blek-Tiver-Gorjes milliy parki, mamlakat maydonining yarmini egallovchi shakar qamish plantasiyalari (bu yurtga dastlabki kolonizatorlar - portugallar va gollandlar davrida mevali daraxtlar, frantsuzlar kofe, inglizlar choy ekib ko'rishgan, ammo faqar shakar-qamish yashab ketgan), sharsharalarga boy kichik daryolar (eng kattasi 274 metrli Tamaren sharsharasi), Gran-Bassen va Mar-o-Vokoa ko'llari.

Mamlakatga 2018 yilda xorijdan 1.4 mln. turist kelgan. Xalqaro turizmdan ko'rilgan daromad 2018 yilda 1.9 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Seyshel respublikasi Hind okeanida ekvatoridan sal janubroqda, 115 katta va kichik orollardan (ulardan faqat 33tasida odam yashaydi) iborat arxipelagda joylashgan. Mamlakat nomi 1756 yilda frantsuz moliya vaziri Jan Moro Seyshel nomidan olingan. Maydoni 0.5 ming kv. km, aholisi 98.0 ming kishi (2020y.), franko-afrikalik mulatlardan iborat. Mamlakat poytaxti Viktoriya. Seyshel orollari florasi va faunasi dunyoning boshqa hech bir joyida yo'q qushlar, sudralib yuruvchilar va o'simliklarni faqat orollar arxipelagida uchratish mumkin. Bu yerda Seyshel orollari palmalari o'sadi, ularning mevasi 20 kilogrammgacha va bu palma mevalari o'simlik dunyosida eng kattasi hisoblanadi. Shuningdek, noyob qush turlari ham yashaydi. Eng yirik orollar - granit toshidan iborat Mae, Pralin va La-Dig.

Jannat bor – bu Seyshel deyishadi, chunki bu yerda qumli plyajlar, g'alati o'simliklar, cheksiz okean gorizonti bor. Mamlakat iqlimi yil - o'n ikki oy bir xilligi (26-28 gradus) bilan ajralib turadi. Qushlar va Kuzen orollarida millionlab qushlar yahashadi. Seyshel orollarining tabiati juda boy, gullar, mevalarning (jumladan, 20 kg.lik koko-de-mer deb nomlanadigan seyshel palmasi) hidi hamma joyda siz bilan hamroh, suv osti dunyosi ham juda boy. 150 va undan katta yoshdagi gigant toshbaqalar ham bor. Kyuryo'z orolida dengiz milliy parki ham bor. Arid oroli dunyoning ajoyib hid taratuvchi limon daraxti o'sadigan yagona joyidir.

Seyshel orollari plyajda sayohat qilish va romantik dam olish uchun eng yaxshi joy sifatida qaraladi. Ushbu ikki nufuzli nominatsiyada Seyshel orollari doimiy ravishda Maldiv orollari bilan raqobatlashayotgani va sayyohlar dam olish yaxshiroq bo'lgan joyini - Seyshel orollarida yoki Maldiv orollarida tanlashlari sir emas. Shu bilan birga, Seyshel orollari umumiy tajriba va ikki kishilik narx jihatidan ta'til va asal oylari uchun eng yaxshi to'y manzili sifatida raqibini chetlab o'tmoqda. Birgina Mae orolida 68ta plyaj bor.

Seyshel orollarining asosiy diqqatga sazovor joylari – bu uning tabiatdir, albatta ko'rishga arziydi. Sayyohlarning aksariyati bu yerga plyajdagi ta'tilga kelishadi. Umuman olganda, bu yerdagi plyajlar ham muhim diqqatga sazovor joylardir va ularning barchasi har xil - toshli yoki qumli, oqqum yoki pushti bilan, tinch dengiz yoki bemaqsad uchun baland to'lqinlar bilan. Seyshel orollaridagi ko'plab plyajlar to'lqinsizdir, chunki qoylar atrofi va maxsus istehkomlari bilan o'ralgan. Ushbu plyajlardan biri Viktoriya poytaxti yaqinida

joylashgan eng mashhur BeauVallon Beach. Bu shuni anglatadiki, Seyshel orollari bolali oilalar va juda yaxshi suzmaydigan sayyohlarning kelishi uchun moslashtirilgan.

Seyshel orollarida diqqatga sazovor joylardan tashqari sayyohlarni jalb qiluvchi mashg'ulotlar ham mavjud: Sho'ng'ish, so'rfing, baliq ovlash, orol ichkarisiga sayohatlar, mahalliy oshxona bilan tanishish, bayramlar.

Turizm turlari: dayving, paraseyding, paralayding, snorkling, qo'riqxonalar va o'rmonlarga yayov yurish.

Seyshel orollariga 2018 yilda xorijdan 362.0 ming turist kelgan (har bir mahalliy aholiga 3.6ta turist to'g'ri keladi). Mamlakat xalqaro turizmdan 611.0 mln. dollar daromad ko'rgan. Har bir turistga qariyb 1700 dollardan. Xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 72.0 ming kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat 102.0 mln. dollarni tashkil etgan.

Qisqacha xulosalar. Afrika qit'asida turizm juda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Buning bosh sababi qit'a hali qoloqlik botqog'idan qutulib bilgani yo'q. Bu qit'adagi mamlakatlar o'zaro urushlar, o'zaro kelishmovchiliklar, demografik portlash kabi qator muammolar botqog'iga botib ketgan. Hududdagi anchagina mamlakat yigirmanchi asrning 60-70 yillarida mustaqillikni qo'lga kiritgan, ammo aholining turmush darajasi o'sha davr darajasida, ayrimlarida undan ham past darajada qolib ketgan. Afrika juda katta tabiiy resurslarga va aholi salohiyatiga qaramay, hamon dunyo xo'jaligining hamma sohalari bo'yicha eng qoloq qismi bo'lib qolmoqda. Binobarin, mintaqa hozirgi rivojlanish bosqichining bosh vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni jadallashtirish orqali murakkab muammolarni o'z vaqtida hal etishdan iboratdir.

Shimoliy Afrika mamlakatlari Yevropaga geografik jihatdan yaqinlikdan oqilona foydalanishni boshlab turizmni jadal rivojlantirmoqda. Sahroyi kabirdan pasddagi ayrim mamlakatlar (masalan, Keniya, JAR, Zimbabve kabilar) o'zining takrorlanmas tabiati, flora va fauna boyligidan foydalanib xorijiy turistlarni sekin-asta jalb qilishni oshirib kelmoqda.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Afrikada turizmni rivojlanish asoslarini qanday ifodalash mumkin?
2. Nima uchun Afrika qitasida xalqaro turizm juda sekinlik

- bilan rivojlanmoqda?
3. Afrikaning O'rta yer dengizi qirgog'ida joylashgan mamlakatlarning turistik o'ziga xosligiga nimada?
 4. Afrika mintaqasi bo'yicha eng ko'p xorijiy mehmonlar qaysi hududga tashrif buyuradilar?
 5. Misr turizmi rivojlanishining asosiy yutugi nimada?
 6. Misr xalqaro turizm bozorini asosan qaysi mamlakatlar ta'minlaydi?
 7. Tunis turizmi to'grisida tushuncha bering.
 8. Marokash mamlakatining turistik salohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
 9. JARning xalqaro turizmida yetakchi omili nimada?
 10. Angola mamlakatining turistik salohiyatini gapirib bering.

Glossariy

Sharm – Al – Shayx – Misrning Sinay orolidagi Qizil dengiz bo'yida joylashgan mashhur kurort shahri. Yigirmanchi asrning 70 yillaridan beri rivojlanib kelmoqda. Turistlar Sinayning ayrim tarixiy joylarini, ammo eng ko'p dunyoning flora va faunasi eng boy dengiz – Qizil dengiz suvlarida cho'milish uchun kelishadi.

Aparteid - (Afrikaliklar tilida apartheid - alohida rivojlanmoq) irqiy kamsitishning eng ashaddiy shakli. Bu siyosat va amaliyot JARda XX asrning o'rtalaridan asr oxirigacha hukmronlik qilib kelgan. Bu tizim qora tanli Nelson Mandela mamlakatga prezident bo'lgandan keyin sekin-asta bartaraf qilinib borilmoqda.

Bantusman - qora tanli aholini alohida maxsus joylarga joylashtirish. Bu narsa Janubiy Afrika Respublikasida apartaid davridan meros bo'lib qolgan. Uning asoratini hozir ham his qilish mumkin.

Karfagen – eramizdan oldingi 8 asrda O'rta yer dengizining janubiy qirg'oqlarida paydo bo'lgan va yarim asrdan ko'pro'q regionda savdo ishlarida hukmronlik qilgan shahar. Hozirgi paytda uning xarobalari Tunis mamlakatining eng mashhur turistik maskani sanaladi.

Fish River kanyoni - Afrikadagi eng katta kanyon, hajmi jihatidan Amerika Katta Kanyonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Uzunligi 160 km, eni 28 km, chuqurligi 500 metrga yetadi, bu yerda bazalt toshlar, aloye chakalaklari, termal buloqlarga qoyil qolish mumkin.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Hozirgi kunda Afrika mintaqasida nechta mustaqil mamlakatlar mavjud?

- a) 55;
- b) 54;
- c) 53;
- d) 56.

Afrika mintaqasida hududiga ko'ra eng katta mamlakat qaysi hisoblanadi?

- a) Sudan;
- b) Marokash;
- c) Jazoir;
- d) Misr.

Afrika mintaqasi turizm bozorida quyidagilardan qay bir regionning ahamiyati eng katta?

- a) Yevropa mamlakatlari;
- b) Amerika mamlakatlari;
- c) Osiyo mamlakatlari;
- d) Yaqin Sharq mamlakatlari.

2000 yilga kelib Afrikaga necha mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan?

- a) 27.4 mln;
- b) 28.4 mln;
- c) 26.4 mln;
- d) 25.4 mln;

Afrika mintaqasi bo'yicha eng ko'p xorijiy mehmonlar qaysi hududga tashrif buyuradilar?

- a) Shimoliy Afrika;
- b) Marokash;
- c) Janubiy Afrika;
- d) Misr.

Afrika mintaqasiga qilingan tashriflarning necha %ga yaqini shimoliy Afrika hududiga to'g'ri keladi?

- a) 45%;
- b) 55%;
- c) 45%;
- d) 35%.

Shimoliy Afrika hududiga 2000 yilda qilingan har bir xorijiy tashrif qanchani tashkil qiladi?

- a) 300 AQSh dollarni;
- b) 320 AQSh dollarni;
- c) 370 AQSh dollarni;
- d) 350 AQSh dollarni.

Sharqiy Afrika hududiga qaysi mamlakat turizm sohasida o'zlarining tabiiy resurslaridan nisbatan unumli foydalanib kelmoqda?

- a) Keniya;
- b) Somali;
- c) Tanzaniya;
- d) Madagaskar.

G'arbiy Afrika hududiga qaysi mamlakat turizm sohasida o'zlarining tabiiy resurslaridan nisbatan unumli foydalanib kelmoqda?

- a) Mavritaniya;
- b) Gabon;
- c) Nigeriya;
- d) Senegal.

Shimoliy Afrika hududiga qaysi mamlakat turizm sohasida o'zlarining tabiiy

resurslaridan unumli foydalanib kelmoqda?

- a) Jazoir;
- b) Misr;
- c) Tunis;
- d) Marokash.

Afrika mintaqasining janubiy hududida eng yaxshi turistik markaz bo'lib qaysi mamlakat hisoblanadi?

- a) Janubiy Afrika respublikasi;
- b) Angola;
- c) Namibiya;
- d) Marokash.

2000 yilda Shimoliy Afrika hududida joylashgan qaysi mamlakatlarga mintaqa bo'yicha umumiy tashriflarning 40.0%i to'g'ri kelgan?

- a) Marokash va Tunis;
- b) Misr;
- c) Tunis;
- d) Sudan.

Janubiy Afrika respublikasining yirik shaharlari...?

- a) Pretoriya, Keyptaun, Durban, Yoxannesburg, Port-Elizabet;
- b) Keyptaun, Durban, Tunis;
- c) Yoxannesburg, Port-Elizabet, Durban;
- d) San-Diyego, Pretoriya, Keyptaun.

XX asr oxiriga kelib Janubiy Afrika respublikasi xorijiy tashriflar soni va xalqaro turizm tushumlari miqdori

bo'yicha Afrika mintaqasida nechanchi o'rinda turadi?

- a) 1;
- b) 2;
- c) 3;
- d) 4.

Tunis qaysi hududda joylashgan mamlakat?

- a) Shimoliy Afrika;
- b) Janubiy Afrika;
- c) Sharqiy Afrika;
- d) G'arbiy Afrika.

a) Shimoliy Afrikaning xo'jalik hayoti qaysi dengiz bo'yi hududlarida to'plangan?

- a) O'rta yer dengizi;
- b) Seyshel;
- c) Ibiza;
- d) Maorika.

Shimoliy Afrikada asosan qaysi mamlakatlari xalqaro turizm rivojlangan hududlar hisoblanadi?

- a) Marokash va Tunis;
- b) Misr va Liviya;
- c) Marokash va Jazoir;
- d) Marokash va Senegal.

Tunisda asosan qaysi turizm turlari yaxshi rivojlangan?

- a) plyaj va tarixiy;
- b) biznes va shoy;
- c) rekreatsiya va tog';
- d) Sport va madaniy.

XX asr oxirida Afrika mintaqasiga tashrif buyurgan turistlarning necha %ga yaqini Marokash respublikasiga to'g'ri keladi?

- a) 14.5%;

- b) 15.5%;
- c) 16.5%;
- d) 17.5%.

Marokash respublikasi turizm bozorini asosan qaysi mamlakatlar ta'minlaydi?

- a) Frantsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, AQSh, Ispaniya, Shveytsariya, Niderlandiya hamda Arab mamlakatlari;
- b) Rossiya, Germaniya, Italiya, AQSh, Ispaniya, Shveytsariya, Niderlandiya hamda Arab mamlakatlari;
- c) Irlandiya, Buyuk Britaniya, Italiya, AQSh, Ispaniya, Shveytsariya, Niderlandiya hamda Arab mamlakatlari;
- d) Ukraina, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Ispaniya, Shveytsariya, Niderlandiya hamda Arab mamlakatlari.

Hind okeani qirg'oqlari bo'ylab joylashgan kurortlarni ko'rsating?

- a) Keniya, Kipini, Agrundi, Lamu;
- b) Mombasa, Kipini, Malindi, Lamu, Kilifi;
- c) Agundi, Keniya, Kurupa, Sakriti;

d) Mombasa, Keniya, Lamu, Kilifi.

Misr yirik shaharlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- a) Qohira, Port-Said, Iskandariya;
- b) Panta, Iskandariya, Memfis;
- c) Al –Mansura, Qohira, Giza;
- d) Qohira, Luqsor, Assam, Port-Said.

Misrda qaysi turizm eng yaxshi rivojlangan?

- a) Tarixiy, diniy;
- b) Tarixiy, madaniy;
- c) Plyaj, madaniy;
- d) Ekoturizm, diniy.

Liviyada qaysi turizm turi eng yaxshi rivojlangan?

- a) tarixiy;
- b) Diniy;
- c) Madaniy;
- d) Plyaj.

Safari tur asosan qaysi davlatlarda avj olgan?

- a) Keniya va JAR;
- b) Misr va Jazoir;
- c) Angola va Senegal;
- d) Marokash va Jazoir.

XV MAVZU. AVSTRALIYA VA OKEANIYA MAMLAKATLARI TURIZMI

O'quv maqsadi: Mavzuni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsad Avstraliya materigini, Yangi Zelandiyani hamda Okeaniyada joylashgan qator mamlakatlarning turizm sohasidagi salohiyatni va bu salohiyatni realizatsiya qilish borasidagi yutuqlar va kamchiliklar, mummolarni bartaraf etish yo'llarini bilib olishdan iborat.

Asosiy ma'lumotlar

Reja:

15.1. Avstraliya mamlakati turizmi tahlili

15.2. Yangi Zelandiya mamlakati turizmi tahlili

15.3. Vanuatu, Fiji, Nauru va Pitkern mamlakatlarining turizmi tahlili

15.4. Papua-Yangi Gvineya mamlakati turizmi

Tayanch so'z va iboralar:

Turizm, xalqaro turizm, ichki turizm, Avstraliya mintaqasi, Okeaniya, Buyuk Rif, oltin qirg'oq, ekzotik joylar, tabiat mo'jizalari, qo'riqxonalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева М.Т. Туристическое право. Учебник. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристическое право. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.
4. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.
5. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. - Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
6. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2-изд, перераб. И доп.М. 2001 г. – 288с.
7. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.
8. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
9. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.

10. [Human Development Indices and Indicators](#) (англ.). [Программа развития ООН](#) (2018). - Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.
11. *Prior, Randall* [Gospel and Culture in Vanuatu – An Experiment in Pacific Theology](#). Australian National University (2006). — A Paper presented to the 2nd ANU Missionary History Conference Asia-Pacific Missionaries: At Home and Abroad.
12. [www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization](#).
13. [https://www.World’s most popular destination revealed](#) (англ.), *CNN Travel* (7 September 2018).
14. [www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com](#)
15. [www.wikipediya.ru](#)
16. [https://knoema.ru/atlas/](#)
17. [https://ru.unesco.org/](#)
18. [www.Travel & Tourism Economic Impact 2017](#).
19. [www.turist.ru](#)
20. [www.travel.ru](#).
21. [https://www.toyota-gib.com/eng/vehicle-sales/lhd-rhd-guide.html](#)
22. [https://www.hometogo.com./hotel/](#).
23. [https://www.nationsonline.org/oneworld/Fiji.htm](#).

15.1. Avstraliya mamlakati turizmi tahlili

Tinch okeani mintaqasida ayniqsa, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlari turizm sohasida yuqori ko'rsatgichlarga erishib kelmoqda. Bu mamlakat turizm bozorlariga asosan Yevropa mintaqasi mamlakatlari va boshqa mamlakatlarning qiziqishlari juda katta.

Avstraliya - xuddi shu nomdagi butun qit'a hududini egallagan dunyodagi yagona mamlakat. Tasmaniya va uning atrofidagi orollar ham unga tegishli. Mamlakatni simolda uni Timor va Arafur dengizlari va Torres bo'g'ozi, sharqda Marjon va Tasman dengizlari, janubda Bass bo'g'ozi va Hind okeani, g'arbda Hind okeani suvlari yuvadi.

Avstraliya janubiy yarim shardagi Avstraliya qit'asi, Tasmaniya oroli hamda Hind va Tinch okeanlarining bir qancha orollaridan iborat davlat. Avstraliya yevropaliklar tomonidan 1788 yili ochilgan, oldin Britaniya mustamlakasi bo'lgan, 1901 yil 1-yanvarda mustaqillikka erishgan. Hududi 7741.2 ming kv.km., aholisi 25.9 mln. (2020 yil) kishi, asosiy qismi Buyuk Britaniya va Irlandiyadan kelganlarning

avlodlari hisoblanadi. Yirik shaharlari va asosiy sanoat markazlari: Sidney, Melburn, Brisben, Adelaida, Pert, Nyukasl, Kanberra.

Avstraliya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan iqtisodiyot. Uning YaIM 2019 yilga kelib 1,89 trln. Dollarni tashkil etgan. 2020 yilda Avstraliya jahonning 13-chi yirik milliy iqtisodiyot bo'ldi, o'ttiz yil oldin 18-o'rinda turar edi. So'nggi paytlarda tog'-kon sanoatining pasayishiga qaramay, Avstraliya iqtisodiyoti barqaror bo'lib qoldi va 1991 yildan 2020 yilgacha tanazzulni boshdan kechirmagan.

Avstraliya turizmni rivojlantirish uchun katta va noyob boylikka (birinchi navbatda tabiiy), uni dunyodan ajratib turadigan sharoit va manbalarga ega. Noyob landshaftlar va tabiiy diqqatga sazovor joylar, mahalliy madaniyat va meros, turli shaharlar va mintaqalar, do'stona, bag'ri keng, turli etnik guruhlarga mansub odamlar va bularning barchasi bitta mamlakatda, bitta qit'ada.

Avstraliya kontrastlarga boy ajoyib davlat, u dunyoning eng kichik qit'asi, shu bilan birga u dunyoning eng katta orolidir. Mamlakatda megapolislar inson oyog'i tegmagan cheksiz, poyonsiz quruqlik bilan qo'shilib ketgan.

Avstraliya - cho'llar, yarim cho'llar va quruq o'rmonlar qit'asi, u ulkan ichki bo'shliqlarni egallaydi, faqat mamlakatning sharqiy qirg'og'ida mamlakatning eng baland nuqtasi - Kostsyushko shahri bo'lgan Buyuk bo'linish tizmasining past tog' tizmasi bor. (2228 m.). Sharqiy qirg'oq bo'ylab deyarli 2000 km uzoqlikda kichik orollar, qirg'oqlar va marjon riflari - Buyuk to'siq riflari joylashgan.

Yer qit'alarining eng kichigi bo'lgan Avstraliya tabiatining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U tabiiy yodgorliklar, qadimiy tabiiy joylar va noyob faunalar qit'asidir.

Turizm sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, iste'mol xarajatlaridan 94 milliard dollar ishlab chiqaradi va YAIMga 34 milliard dollar olib keladi. Turizm sohasi mamlakatni 500 mingdan ortiq ish o'rinlari bilan ta'minlaydi va davlat eksportining 10 foizini tashkil qiladi. Turizm turli mamlakatlar iqtisodida muhim bolgani kabi, Avstraliya YaIMda ham muhim ahamiyatga ega, va u 2018-yilda 3%ni tashkil etgan. Sayyohlik xizmatlariga bo'lgan talab 1997 yildan 2013 yilgacha doimiy ravishda o'sib, yiliga 3,9 foizga o'sib bordi, 2008 yilda global moliyaviy inqiroz tufayli biroz pasayish kuzatildi. Keyingi yillar esa barqaror o'sib bormoqda.

Turizm sohasi tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatadigan 280 mingdan ortiq korxonalar iborat: mehmonxonalar, kafelar, kazinolar, sayyohlik agentliklari, transport kompaniyalari, shuningdek chakana savdo va ta'lim sohasining bir qismi. Turizmga sarflangan har bir dollar iqtisodiyotning boshqa sohaslarida 91 sent ishlab chiqaradi. Avstraliyaning asosiy diqqatga sazovor joyi - Buyuk Bariyer rifidir, u mamlakatning butun sharqiy qirg'og'i bo'ylab cho'zilgan, BMTning Butun Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, dunyoga mashhur marjon qoyalari va orollari, kurortlari - Lisard, Bedarra, Ximan, Gamilton bilan mashhur. Bu dunyodagi eng katta rif tizimi va sayyoradagi tirik organizmlar tomonidan "yaratilgan" eng katta tuzilma. Shimolda rif deyarli uzluksiz bo'lib, qirg'oqdan atigi 50 km uzoqlikda joylashgan, janubda u alohida riflari guruhlariga bo'linadi, ba'zi joylarda qirg'oqdan 300 km orqaga chekinadi. Yuzlab orollar dengiz tubidan yer yuzasiga chiqib ketadi va ulardan faqat yigirmatasida odamlar yashaydi. Buyuk to'siq rifi - dunyodagi barcha suv osti sho'ng'uvchilarining "suv osti Makkasi".

2018 yilda mamlakatning diqqatga sazovor joylar top-o'ntaligi: 1. O'z ko'rinishi bilan lol qoldiradigan Sidneyning opera teatri; 2. To'qqiz yuz orol va 2900 koral riflardan iborat, 1600 baliq turi bilan tanishish imkonini beruvchi Katta to'siqli rif; 3. Kattaligi bo'yicha dunyoda ikkinchi, mamlakatda birinchi bo'lgan Kakadu milliy parki; 4. Gumbazi tog'lar (maydoni 1.5 ming kv.km. bo'lgan tog'li joy, ekvaliptlar ko'p o'sadi) milliy parki; 5. Freyzer oroli (maydoni 1.8 ming kv.km, 40 ta chuchuk suvli ko'ldan va Mangro o'rmonlardan iborat); 6. Deyntri milliy parki (bu yerda 12 ming xil hasharot bor, mamlakatdagi reptiliyalarning 30%i, qushlarning 18%i yashaydi); 7. Sidneydagi Xarbor – Bridj ko'prigi (dunyodagi eng katta po'lat karkas, balandligi 134 m, uzunligi 500m.); 8. Yarra vodiysi (Melbrun yaqinidagi ekstrim markazi); 9. "Seaword" dengiz parki (oq ayiqlar, pingvinlar, delfinlarga va skatlarga to'la dengiz olami); 10. Buyuk Okean yo'li (Viktoriya shtatidagi 300 km.li atroflari go'zal dengiz bo'yi yo'li).

Avstraliyadagi milliy bog'lar va qo'riqxonalar. Fitzroy daryosi bo'yidagi hayajonli daralar, Gibb daryosi yo'li va Bunge milliy bog'lari mashhur. Qumli cho'l o'rtasida 260 km. Pert shimolida, Nambang milliy bog'ida, mamlakatning diqqatga sazovor joylaridan

biri - qadimiy o'rmonning toshlangan qoldiqlarining butun dalalari - "Pinnacle" mavjud.

Kakadu bog'ida (YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan) noyob tabiiy landshaftlar hududida joylashgan. Uning hududa yovvoyi o'rmonlar, yovvoyi hayvonlar, flora va qit'aning qushlar dunyosi vakillarining ajoyib to'plami to'plangan. Bu yerda Avstraliya faunasining boshqa vakillari bilan bir qatorda, Avstraliyaning afsonaviy gigant "barramandi" baliqlari bilan tanishishingiz mumkin. Darwin hududida go'zal Lichfild bog'lari va Ketrin darasi joylashgan.

Elis Springs - Ayers qoyasi - Uluru tog' massiviga - ko'plab cho'llarning tekis yuzasidan 348 m. balandlikda ko'tarilgan va Arxey davrida shakllangan ulkan qoyali "stol" ga ko'plab yo'nalishlarning boshlang'ich nuqtasi. Avstraliyaning qalbida Qizil Markaz, Uluru (avvalgi Ayers Rock), mamlakatda eng ko'p suratga olingan tabiiy mo'jizalardan biridir. Qizil rangli monolit "Uluru-Katta Tjuta" milliy bog'i, "Parks Australia" va "Anangu" mahalliy yer egalari tomonidan birgalikda boshqariladigan Butunjahon meros maqomiga ega. Sayyoradagi arxeik qobig'ining eng qadimiy joylari. Avstraliyalik aborijenlar uchun bu xameleyon o'zgaruvchan tog' ming yillar davomida muqaddas joy bo'lib kelgan. Chukurpa (Yaratilish qonuni) ga ko'ra, Uluru hududining butun hududi Ulangu tog'ini Avstraliya hukumatiga milliy bog' sifatida foydalanish uchun ijaraga bergan Anangu qabilasidan chiqqan ajdodlar tomonidan yaratilgan. "Anangu" ning vazifasi - ota-bobolarining yurtini kuzatish, uning jismoniy va ma'naviy ifloslanishini oldini olish, shuning uchun mahalliy aholi sayyohlarning Uluru cho'qqisiga chiqishiga qarshi va ko'plab tashrif buyuruvchilar ularning samimiy e'tiqodlarini hurmat qilib, trekkingdan voz kechishadi. Buning o'rniga, g'orlardan va muqaddas "ibtidoiy" joylardan o'tadigan qoyaning teng darajada chiroyli poydevori atrofida yo'llar yotqizilgan (32 km.). Uluru g'arbida Kata - Tjuta massivi (yoki Olgas tog'i) yotadi, aslida Uluru monolitidan ancha baland, shuningdek, Shamollar vodiysi - "ziyosat" uchun ajoyib joy. Uluru - Kata Tjuta milliy bog'i bilan o'ralgan, dunyoga mashhur Ayers - Rok kurortining markazi - kichik Yulara shahri joylashgan. Aborijen madaniyat markazida aborijenlar madaniyati va san'ati haqida juda qiziqarli ko'rgazma mavjud.

Avstraliyalik kapalaklar uchun muqaddas joy bir qishloqda tabiatning o'rtasida joylashgan Kuranda, 2000 turdagi kapalaklarni ko'rishni taklif qiladi. Lone Pine Sanctuary Koala Sanctuary - Avstraliyaning yovvoyi tabiatining hayvonot uyi. Kenguru, possum, tasmaniyalik iblis, vombat, emu va lirebird yashaydi. Parkning asosiy g'ururi 130 ga yaqin koaladir. Bu yerda siz qafassiz hayvonlar va qushlarni ko'rishingiz yoki ular bilan qafas ichida bo'lishingiz, hayvon ruxsat berganicha yaqinlashishingiz mumkin.

Lamington milliy bog'i - subtropik o'rmon shohligi. Bu lianalar, palmalar va qadimiy fernlar bo'lgan o'rmon. Dengiz sathidan deyarli bir kilometr balandlikda joylashgan Oreilis platosidan tog'lar va vodiylarning go'zal panoramasi ochiladi. Karrumbin qo'riqxonasi - Karrumbin plyaji yaqinidagi 27 gektar go'zal manzaralar. Avstraliyaning eng katta bog'laridan birida siz kenguru, to'tiqushni boqishingiz mumkin, ilon shousini ham ko'rish mumkin.

Rottnest oroli, G'arbiy Avstraliya - Pert qirg'og'ida joylashgan qo'riqxonasi, ekologik toza hudud, bu yerda mashinada sayohat qilish taqiqlanadi. Bu yerda qadimgi sarv va choy daraxti saqlanib qolgan, shuningdek, gollandiyalik kashfiyotchilar kalamushlar bilan adashtirib, noyob kalta quyruqli kengurular - cuokka saqlanib qolgan, ular orolni "kalamush uyasi" degan ma'noni anglatuvchi Rottnest deb atashgan.

G'arbiy McDonnell milliy bog'i - bu Elis Springsning g'arbiy qismida joylashgan go'zal tabiat qo'riqxonasi. Parallel Ridges McDonnell sayyoradagi eng qadimgi tog'lardan biridir. Favqulodda go'zallik daralarida ko'plab o'simlik va hayvon turlari mavjud. Simpson Gap Elis Springsdan 20 km. uzoqlikda joylashgan. McDonnell G'arbiy tizmasining bir qismi Aboriginlarning muqaddas darasi va yomg'ir suvli ko'lidir.

Tasmaniya - Avstraliyaning janubi-sharqiy qirg'og'idagi materikdan Bass bo'g'ozi bilan ajratilgan orol. Tasmaniya orolni kashf etgan kashfiyotchi Abel Tasman nomi bilan atalgan. Bu mamlakatdagi eng kichik shtat. Bu yerda tog'lar va tepaliklar, tarixiy shaharlari bo'lgan vodiylar, platolar, vulqonlar, tropik o'rmonlar, yuzlab ko'llar va oq plyajlar mavjud. Vellington tog'i balandligi 1270 m. Tog'ning tepasi qishdan tashqari deyarli barcha mavsumlarda ko'pincha qor bilan qoplangan. Tog'da Xobart va uning atrofi, shu

jumladan Bruni oroli, Xuni Dervent vodiysi va Xobartning g'arbiy qismidagi milliy bog'lar joylashgan go'zal manzaralar mavjud.

Jahon merosi ro'yxatga olingan Buyuk marjon qoyalar sayyoradagi eng katta tirik tizimlardan biridir. 1975 yilda "Great Barrier Reef Marine Park" dengiz parki uch mingdan ortiq orollarini o'z ichiga olgan nozik ekotizimlarini himoya qilish uchun tashkil etilgan; 600 ta qit'a orollari, jumladan, go'zal Whitsunday guruhi. Tabiiy olamning yetti mo'jizasidan biri, park Avstraliyaning sharqiy qirg'og'ida Queensland shtatining bo'ylab 2300 kilometr ga cho'zilgan.

Shimoliy Queenslanddagi Daintree milliy bog'i yer yuzidagi eng qadimiy ekotizimlardan biridir. Bu hudud Sharqiy Kuku Yalanji aborigen xalqiga tegishli bo'lib, uning ko'plab tabiiy xususiyatlari ma'naviy ahamiyatga ega. Park ikkita asosiy qismni o'z ichiga oladi: Mossman Gorge, granit toshlar ustiga kristalli toza suvlar va Avstraliyani ziyorat qilish uchun eng go'zal joylardan biri bo'lgan Cape Tribulation, bu yerda yomg'ir o'rmonlari Coral dengizining oq qumli plyajlari bo'ylab reef bilan uchrashadi. Bu ajoyib qirg'oq dunyodagi eng boy ekotizimlardan ikkitasi birlashadigan dunyodagi ajoyib joylardan biridir. Parkdagi hayratga soluvchi biologik xilma-xillik 18 000 dan ortiq o'simlik turini va hayvon turlarini oladi.

Avstraliyaliklarning katta qismi qirg'oq bo'yidagi shahar va shaharchalarda istiqomat qiladi. Sidney shunday joylardan sarasi. Quyoshda porlab turgan ko'rfazlar, osmono'par binolar, yaxtalar - shaharning markazi. Sidney, shuningdek, plyajlari bilan mashhur bo'lib, u yerga borish oson - markazdan 10 daqiqalik masofada. Bondi plyaji - quyosh botishini tamosha qilish va bemaqsad qumda yotivchialr uchun Makkaga aylangan oltin plyajdir.

Avstraliyaning ikkinchi yirik shahri bo'lgan Melbourne - ko'pgina avstraliyalik yo'nalishlarda - ayniqsa, madaniyatga bag'ishlangan sayohatchilar uchun ommalashib ketgan. Gallereyadan, teatrlardan, restoranlardan, do'konlaridan va uning Yevropa hissiyotlarini taqdim etuvchi Yarra daryosi bo'ylab ushbu murakkab shaharning asosiy rasmlarini tashkil etadi. Bundan tashqari, yashil shahar, parklar, bog'lar va umumiy maydonlarning qariyb uchdan bir qismini egallaydigan ochiq joylar mavjud. Shaharning eng diqqatga sazovor joylari orasida Royal Botanika bog'i ham bor, Victoria milliy galereyasi ham ajoyib.

Melbrun o'zining Viktorian va zamonaviy arxitekturasi bilan mashhur. U mamlakatning sport va madaniyat poytaxti sanaladi, Viktoriya davlat kutubxonasi, kapitan Jeyms Kuk kotteji, Evrika minorasi, Qirollik ko'rgazma markazi, Flinders-strit vokzali. Sedney va Melbrun o'z atrofidagi milliy parklari bilan mashhur. Shaharning arxitekturasi va tarixiy joylari ham ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi. Dengiz kurorti Gold – Kost shaharchasi o'zining parklari (“Sea-world”, “Sinema world”, disneylend, akvaparklar) hamda syorfingi bilan mashhur. Bu shaharchaga hatto Sidney va Melbrundan ko'p turist keladi. U mamlakatning dengizda dam olish poytaxti nomini olgan.

Mamlakat atrofi bo'ylab dengiz kruizlari ham juda mashhurdir. Plyaj turizmi uchun eng mashhur joy 40 km.ga cho'zilgan “Oltin qirg'oq” hisoblanadi. U uch qismga bo'lingan: 1. Feshenebl qismi (boyvachalarga mo'ljallangan, masalan, havo shariga kruiz, tropik o'simliklarga safari, vertolyotda atrofni tamosha qilish); 2. Sport uchun mo'ljallangan qismi va 3. Qimmat bo'lmagan (byudjet dam oluvchilarga) qismdan iborat.

Avstraliya dayving bilan ham mashhur. Bosh ob'yekt Katta to'siqli rivdir. Riflar orasida 350 xil korallarni, 4000 xil malyuskalarni, 1500 xil baliqlarni uchratish mumkin. Bir suvga tushganda 200 xil baliqni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, Lizard, Gamilton va Beddara orollari ham dayving uchun qulay. So'rfing esa avstraliyaliklarning eng ommaviy sport turlaridan biri sanaladi. Bu yerda qulay to'lqin esa yil - o'n ikki oy mavjud. Mamlakatda ekoturizm va safari uchun ham hamma sharoit mavjud.

Avstraliya davolash – sog'lomlashtirish turizmi uchun zarur barcha tabiiy resurslarga ega. Yirik balneologik kurortlar Deylsford, Mork, Springvud materikning janubi-sharqida joylashgan. Avstraliya dungiz bo'yi iqlimi kurortlari ham dunyoda mashhur. Oltin Qirg'oq, Deydrim - Aylend, Kerns davolanish va dam olish uchun eng yaxshi joylar hisoblanadi. Ammo Avstraliyaning Yevropa va Amerikadan uzoqligi turistik oqimlarni kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun Avstraliya kurortlari Amerikaniki singari asosan ichki turistlarni qabul qilishga mo'ljallangan.

Elis Springs shahri Avstraliyaning Las-Vegasi sanaladi. Bundan tashqari bu yerda Cho'l parki, botanika bog'i, reptiliyalar markazi,

Uluru tog'i (dunyoda eng ko'p rasmga tushiriladigan ob'yektlardan biri) joylashgan.

Avstraliyada turizm industriyasi juda yaxshu rivojlangan. Turizm mamlakat YAIMning 4 foizini beradi.

Avstraliyaga kelgan xorijiy turistlar soni 2018 yilda 9.3 mln. kishini tashkil etgan. Mamlakatning xalqaro turizmdan ko'rgan daromadi 2018 yilda 47.3 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakatga asosan quyidagi davlatlardan kelishadi: Yangi Zelandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va Germaniya. Turist eng ko'p keladigan shaharlar: Sidney, Melbrun, Brisben va Kerns.

Mamlakatdan xorijga chiqqan turistlar soni 2018 yilda 11.4 mln. kishini tashkil etgan va ular qilgan xarajat bir yilda 42.4 mlrd. dollarni tashkil etgan. Avstraliyaliklarning chet elda dam olishga moyilligining tobora ortib borishi Avstraliyada o'tgan o'n yil ichida turistik talabda muhim o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi.

15.2. Yangi Zelandiya mamlakati turizmi tahlili

Yangi Zelandiya Tinch okeanining janubiy - g'arbiy qismida joylashgan davlat. Kuk bo'g'ozi bilan ajratilgan ikkita yirik shimoliy va janubiy oroldan hamda St'yuart, Chatem, Kermadek, Kempbell va boshqa kichik orollardan tashkil topgan. Hududi 267.7 ming kv.km. Aholisi 4.7 mln. kishi (2020y). Aholining 75 %i Yevropadan ko'chib kelganlar avlodi, mahalliy xalqi maorilar mamlakatning faqat 15 foizini tashkil etadi, qolgan qismi osiyolik, polineziyalik etnik guruhlardan iborat. Yirik shaharlari Oklend, Kraystcherch, Danidin, Vellington. Milliy bayrami 6-fevral Vaytang kuni hisoblanadi.

Yangi Zelandiya orolini yevropaliklardan birinchi bo'lib gollandiyalik dengizchi A.Tasman 1642 yili ochgan. 1769 yildan boshlab esa J. Kuk tomonidan o'rganilgan. 1839 yildan boshlab, bu yerlar britaniyaliklar tomonidan zabt etilgan va yangi aholi ko'chib kela boshlagan. 1840 yili Vaytang daryosi yonidagi bir qishloqda, mahalliy Maoriy qabilasi bilan ingliz hukumati o'rtasida shartnoma tuzilib, unga ko'ra Yangi Zelandiya yerlariga Britaniya suvereniteti o'rnatilgan hamda mahalliy qabilalar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar kelishib olingan. 1907 yili mamlakatga yarim

mustamlaka maqomi, 1931 yilda esa ichki va tashqi munosabatlarda mustaqillik huquqi berilgan.

Temir yo'llarining uzunligi 4716 km, avtomobil yo'llarining uzunligi esa 92648 km. Tashqi iqtisodiy aloqalarda dengiz transporti muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy dengiz portlari: Vellington, Oklend. Yangi Zelandiya jon boshiga hisoblaganda tashqi savdo hajmi jihatidan jahonda birinchi o'rinlarda turadi. Bu soha YAIMning deyarli 30% ni tashkil etadi. Asosiy savdo sheriklari: Avstraliya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, XXR, ASEAN mamlakatlari.

Turizm Yangi Zelandiyaning eng ser daromad sohalaridan biri sanalanadi. Turizm mamlakat YAIMning 5.6 %ini, eksportning esa 17%ini beradi va ish kuchining 7.5%ini ish bilan ta'minlaydi (2016y.).

Yangi Zelandiya yam-yashil tepaliklar va g'alati qush kivining yurti, dunyoning eng ekologik toza yurti, y ikki katta va 700 kichik orollardan iborat. Eng yaqin qo'shnisi – Avstraliya 1700 km. uzoqlikda joylashgan. Poytaxt Vellington, ammo katta sharlari Oklend (aholisi poytaxtdan 3 marta ko'p), Gamilton va Kraystchyorch. Tabiati – o'rmonlar, sof tog' ko'llari, musaffo daryolari, davolovchi geyzerlari - bularning hammasi qo'l tegizilmagan o'rmonni eslatadi. Geotermal mo'jiza Uai-O-Tapu vulqonli hududda joylashgan, bir payt qurigan vulkanda paydo bo'lgan Taupo ko'li mamlakatning eng katta ko'li. Mamlakat shaharlarida muzeylar, botanika bog'lari, monastirlar ko'p. Maori xalqining o'ziga xos an'analari ham turistlarni o'ziga tortadi.

Mamlakat odatda dunyoning eng toza yam-yashil o'lkasi deb reklama qilinadi, uning eng diqqatga sazavor joylari tabiiy – milliy parklar (ularning soni o'ndan ortiq): Abel – Tasman (juda go'zal plyajlari bilan mashhur), Maunt-Kuk (eng mashhur park), Tongariro (harakatdagi vulkan turli rangdagi narsalarni otib turadi), Fyordlend (bu dunyoning eng katta milliy parki) va Kaunstaun, Urevera, Uanganui, Egmond, Paparoa, Kaurangi, Bey-of-Aylennds hamda Rotorau geyzeri, Vaytomo g'ori, Frahs-Iosif muzligi, Foks muzligi.

Mamlakatda eng mashhur turizm turlari xayking, kayaking, rafting, dayving, tog' chang'isi, snoubord va fristayl sanaladi.

Yangi Zelandiyaga 2018 yilda xorijdan kelgan turistlar soni 3.8 mln. kishini tashkil etgan. Xalqaro turizmdan mamlakat ko'rgan daromad 11.0 mlrd. dollarni tashkil etgan. Yangi Zelandiya turizm

bozorini asosiy ta'minlovchi mamlakatlar Avstraliya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Koreya, Tailand, XXR va ASEAN mamlakatlari aholisi hisoblanadi. Bu mamlakatga asosan badavlat turistlar tashrif buyuradi.

Jadval. – 15.1. Yangi Zelandiyaga keluvchi 12 davlat turistlari dinamikasi.

mamlakat	2015	2016	2017	2018	2018 yilda o'sish, 2017 yilga nisbatan
Avstraliya	1326800	1409200	1472160	1494541	▲1,5
Xitoy	355904	409008	417872	448189	▲7,3
AQSh	243104	291392	330128	352074	▲6,6
Buyuk Britaniya	203952	220976	249264	237166	▼4,9
Germaniya	84544	96848	104864	102087	▼2,2
Yaponiya	87328	100736	102048	99784	▼2,2
Janubiy Koreya	64992	82384	91168	87853	▼3,6
Kanada	52352	59760	67280	71261	▲5,9
Hindiston	46000	52016	61440	67953	▲10,6
Singapur	49584	57344	58544	61464	▲5,0
Gonkong	36288	44768	54688	58763	▲7,5
Malayziya	34240	51792	53840	56430	▲4,8
Boshqa davlatlar	546839	623715	670411	725652	▲8,2
Hammasi	3131927	3499939	3733707	3863217	▲3,5

Manba: <https://knoema.ru/atlas/>


Xorijga chiquvchi turistlar soni 2018 yilda 3.1 mln. kishini tashkil etgan va ularning qilgan xarajati 4.6 mlrd. dollarni tashkil etgan. Mamlakat aholisi asosan yaqin qo'shnisi Avstraliyaga sayohat qilishadi.

15.3. Vanuatu, Fiji, Nauru va Pitkern mamlakatlarining turizmi tahlili

Vanuatu, to'liq rasmiy shakli - Vanuatu Respublikasi (frantsuz République du Vanuatu) - Melaneziyada joylashgan Tinch okeani mamlakati. U shimolda Solomon orollari suvlari bilan, g'arbda - Avstraliyaning iqtisodiy zonasi bilan, janubi - g'arbda - Yangi Kaledoniyaning hududiy suvlari bilan, sharqda - Fiji hududiy suvlari bilan chegaradosh. Sohil chizig'ining uzunligi 2528 km. Vanuatu Respublikasi Yangi Gebrid arxipelagining 83 orolida joylashgan. Umumiy maydoni 12190 km². Vanuatu aholisi 285.521 kishi. (2019). Mamlakatning poytaxti Port-Vila shahridir. Yevropaliklar e'tibor bergan birinchi orol - Espiritu Santo, 1606 yilda ispan dengizchisi Pedro Fernandes Kiros tomonidan kashf etilgan va "Noma'lum janubiy yer" tarkibiga kirgan. 1906 yilda orollar Yangi Gebridlar deb nomlangan ingliz-frantsuz kondominiumiga aylandi. 1980 yil 30 - iyulda orollar "Vanuatu Respublikasi" nomi bilan mustaqillikka erishdilar.

Mamlakat tropik iqlimli, havo harorati kunduzi doimiy 27-30 darajada bo'ladi. Turistlar eng ko'p keladigan payt iyuldan dekabrgacha bo'ladigan davr hisoblanadi. Asosiy dam olish va hordiq chiqarish mehmonxonalari Port-Vilada joylashgan. Turli dam olish zonalari esa Vanuatuning orollari bo'ylab tarqalgan.

Mamlakatning zamonaviy nomi Vanuatu (so'zma -so'z: "bu yer abadiy") rasman 1980 -yil 30 -iyulda, orollar Britaniya va Frantsiyadan mustaqillikka erishganidan buyon ishlatila boshlandi.



Rasm – 15.1. Vanuatuning xaritasi va kosmik kemadan tushurilgan rasmi.

Bu voqeadan oldin arxipelag "Yangi Gibriddlar" deb nomlangan. U 1774 yilda ingliz dengiz sayohatchisi Jeyms Kuk tomonidan Shotlandiyaning g'arbida joylashgan Gebridlar sharafiga berilgan.

Vanuatu "Y" shaklidagi orol zanjiri, shimoldan janubga 1176 km.ga cho'zilgan. Eng yaqin davlat - Solomon orollari, Vanuatudan taxminan 170 km shimolda, Yangi Kaledoniyaning janubiy - g'arbida 230 km, Fijida 800 km sharqda, Avstraliyada g'arbda 1750 km.

Vanuatu joylasgan arxipelag 14 ta katta va 69 ta kichikroq, hammasi aholi yashaydigan oroldan iborat. Hammasi bo'lib, Vanuatuda 83 ta orol bor. Ulardan eng muhimi - Efate, Espiritu Santo, Tanna va Malekula orollari. Vanuatudagi eng katta orol - Espiritu Santo oroli, uning hududida mamlakatning eng baland nuqtasi - Tabvemasana tog'i (1879 m) joylashgan. Ambrim, Aoba va Tanna orollarida dengiz sathidan 1000 metr balandlikdagi tog'lar bor. Ba'zi tik jarlik orollari qirg'oqli marjon qoyalari bilan o'ralgan. Arxipelagning g'arbida chuqurligi 8000 metrgacha bo'lgan okean xandagi bor. Vanuatuning eng shimoliy oroli - Tores guruhidagi Hiu: u Solomon orollariga tegishli bo'lgan Santa Kruz orollaridan 150 kilometr janubda joylashgan. Rasmiy ravishda, mamlakatning eng janubiy oroli Aneityum, lekin respublika Yangi Kaledoniya yaqinidagi janubdagi Matye va Hunter orollari bilan bahslashadi.

1994 yildan Vanuatu Respublikasi 6 ta provinsiyaga bo'lingan. Viloyatlar nomlari viloyatni tashkil etuvchi asosiy orollarning birinchi bo'g'inlari yoki harflaridan tuzilgan.

Jadval. – 15.3. Vanuatu Respublikasining ma'muriy tarkibi

№	Provintsiy	Ma'muriy markazi	Maydoni, (y.)	Aholisi, kishi. (2009)
1	<i>Malampa</i>	Lakatoro	2779	36 727
2	<i>Penama</i>	Saratamata	1198	30 819
3	<i>Sanma</i>	Lyuganvil	4248	45 855
4	<i>Tafea</i>	Isangel	1628	32 540
5	<i>Torba</i>	Sola	882	9359
6	<i>Shefa</i>	Port-Villa	1455	78 723
			12 190	234 023

XIX asrda, Yevropaliklarning mustamlakachilik siyosati, import qilingan kasalliklar, pandemiya natijasida, Vanuatu aholisi deyarli 1 million kishidan 41 ming kishiga tushib ketdi. Etnik tarkibiga ko'ra, mamlakat aholisining 94 foizini Vanuatu - Ni -Vanuatu aholisi tashkil qiladi. Qolganlari: 4% - Yevropaliklar, 2% - Okeaniya va Osiyoning boshqa xalqlari.

Vanuatu - rivojlanmagan orol agrar davlati. 1995 yildan beri Vanuatu BMT tomonidan dunyodagi eng kam rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda savodxonlik darajasi 74% ni tashkil etadi, ammo tug'ilishdagi umr ko'rish davomiyligi atigi 63 yil edi.

Vanuatuning iqtisodiy rivojlanishining juda sekinligini bir qancha omillar bilan izohlash mumkin: iqtisodiyotning tor profilligi, u deyarli butunlay qishloq xo'jaligiga asoslangan; mahsulot sotishning asosiy jahon bozorlaridan uzoqligi; minerallarning yetishmasligi; transportning yuqori narxi va tez - tez sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektorda malakali kadrlar yetishmovchiligi ham mavjud.

Vanuatu iqtisodiyotining asosiy sektori davlat sektori bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 65% gacha, qishloq xo'jaligining ulushi – 25 foizni tashkil etadi. 1999 yilda Vanuatuning magistral yo'llarining uzunligi 1070 km. bo'lgan. Shundan 256 km asfaltlangan. Respublikada temir yo'l transporti yo'q.

Turizm - iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan sohasi (2000 yilda turizmdan tushgan daromad Vanuatu YaIMining 40 foizini bergan). 2000 yilda sanoat sektorining ulushi atigi 10%ni tashkil etgan. Hozirgacha deyarli barcha sayyohlik faoliyati Port Vila shahrida to'plangan. Vanuatuning sayyohlik markazlaridan yana biri - Port-Vila yaqinidagi Mele ko'rfazidagi Iririki oroli. Boshqa sayyohlik markazlari - Efate va qirg'oq orollari, shuningdek Espiritu Santo.

Orollarda sho'milish, chuqur suvda baliq ovlash, kurortlarda dam olish, to'y va asal oylarini tinch va sokin joyda o'tkazish Vanuatuning eng mashhur mashg'ulotlaridandir.

So'nggi yillarda Fiji va Solomon orollaridagi siyosiy inqirozlar natijasida sayyohlar oqimi ko'paydi. Mamlakatga asosan Avstraliya, Yangi Zelandiya va Yangi Kaledoniyadan sayyohlar tashrif buyurishadi. Taxminan 50 ming kishi Vanuatuga kruizga tashrif buyuradi.

Turistik eng ommalashgan mashg'ulotlardan bu Tanna orolida joylashgan Yasur vulqonini ko'rish, Pentekostda va Santoda dayving bo'lib hisoblanadi. Ular juda ham jozibali, ammo ularga yetib borish biroz qimmat narxlarda bo'lishi mumkin.

Vanuatuda mahalliy aholi ham turizm sohasida bevosita ishtirok etib daromad oladilar. Ular an'anaviy liboslarida sayyohlar bilan rasmga tushadilar, namoyishlar ko'rsatishadi. Sayyohlarning asosiy mashg'ulotlari suzish, dayving, syorfig, qayiqlarda orollar bo'ylab sayr qilish ham keng tarqalgan.




Diagramma – 15.1. Vanuatuga xorijdan keladiganlar tarkibi

2021-yil mart holatida mamlakatda eng ko'p tashrif buyurgan mamlakatlar asosan qo'shni Avstraliya, Yangi Zelandiya, Fiji va boshqa Tinch Okeani davlatlari bo'lib hisoblanadi.




Diagramma - 15.2. Vanuatuga kelgan turistlarning 1996-2018 yillardagi dinamikasi.

Diagrammadan ko'rinadiki mamlakatga kelayorgan turistlar 2013 yilgacha barqaror o'sib kelgan, ammo undan keyin esa ancha beqaror bo'lib qolgan.

Fiji. Fiji orollari respublikasi Okeaniyaning Melaneziya qismida joylashgan 332 ta oroldan (ulardan faqat 110tasida odam istiqomat qiladi) iborat arxipelagdagi davlat. Fijining g'arbida Vanuatu, sharqida Tonga, shimolida Tuvalu joylashgan. Mamlakat maydoni 18333 kv. km. Aholisi 890 ming kishi (2020y). Millati Fiji, jumladan, mahalliy Fijiliklar 54 foiz, hind-Fijiliklar 40 foizni tshkil etadi. Dini: nasroniylar 52 foiz, induizim diniga etiqod qiladiganlar 33 foiz va musulmonlar 7 foiz. Mustaqillikni 1970 yil AQShdan qo'lga kiritgan. Poytaxti Viti Levu (Suva orolida joylashgan, aholisi 167 ming kushi.). Mamlakat vulqonli tog'lar yurtidir, hamma joyni zich tropik o'rmonlar egalagan. Iqlimi dengiz tropik.

Mamlakat o'rmonga boy bo'lganligi uchun yog'och ishlab chiqarish rivojlangan, baliqchilik, gidrienergetikaning imkoniyatlari katta. Oltin, kumush, mis qazib chiqariladi. Kokos, shakar, guruch, banan yetishtiriladi, chorvachilik yaxshi rivojlangan. Turizm sohasining ham mavqei yuqori.

Turizm destinatsiyalari: Vulqonli Mamanuca orollari (so'rfing uchun dunyoning eng yaxshi va eng qiyin joyi); dam olishga ixtisoslashgan Denarau oroli; oq qumli plyajlar va mango daraxtlariga ko'milgan Nananu-I-Ra oroli; bolalar uchun mo'ljallangan Kula ekoparki; hindlarning Shri Siva Subramaniya ibodatxonasi; Suva orolining Thurston Gardens hududidagi Fiji muzeyi; Fijining eng baland Tomanivi tog'i; yaqinda vulqon otilgan Vasava oroli.

Mamlakatda 190 ta mehmonxona faoliyat olib bormoqda (<https://www.hometogo.com./hotel/>).

Mamlakatga 2018 yil 870 ming kishi tashrif buyurgan, ularning 42 foizi Avstraliyadan, 23 foizi Yangi Zelandiyadan, 10 foizi AQShdan kelgan. Yaponiya, Kanada, Xitoy va Yevropa mamlakatlaridan ham ancha kishi kelgan. (<https://www.nationsonline.org/oneworld/Fiji.htm>.)

Nauru - hatto poytaxtga ega bo'lmagan Okeaniyaning eng kichik orol respublikasi. Nauru Respublikasi (Republik of Nauru) - Tinch okeanning janubi-g'arbiy qismidagi Nauru orolida joylashgan davlat. Maydoni 21 km². Aholisi bor-yo'g'i 11.1 ming kishi (2020y.). Aholisining 60% mahalliy nauru (polinezialik)lar, qolgan qismi -

Okeaniyaning boshqa orollaridan kelganlar, xitoylar, filippinlar va yevropaliklar. Rasmiy tillari — nauru va ingliz tillari. Dindorlarning 60% - protestant, qolganlari - katolik va boshqa.

Nauru orol tektonik harakat natijasida suv ostiga ko'tarilgan atoll bo'lib hisoblanadi. Yer yuzasi - plato (eng baland joyi 65 m.). Iqlimi issiq, musson ekvatorial, yil davomida o'rtacha harorat + 25-35 ° C ni tashkil qiladi. Yillik yog'in 2500 mm. Doimiy oqar suvlari yo'q. Ichimlik suv chetdan keltiriladi. Noyabrdan martgacha tashrif buyurish uchun yaxshi vaqt emas, chunki bu yomg'irli mavsum. Flora va fauna boshqa orollardagi kabi boy emas, lekin fikus, kokos yong'og'i va dafna daraxtlarini uchratish mumkin. Sohil bo'yidagi suvlarda ko'plab zaharli dengiz hayvonlari, shuningdek akula ham yashaydi.

Iqtisodiyotining asosini fosforit qazib olish va eksport qilish tashkil etar edi (yiliga 2 mln. tonna). Ammo hozir konlar tugab bo'lgan.

Orol plyajdagi ta'tilni yaxshi ko'radiganlar yoki suv osti sarguzashtlarini izlayotganlar uchun mos. Tarixiy yoki madaniy jihatdan qiziqarli joylar deyarli yo'q, ammo shunga qaramay, sayyohlar bu yerga zavq bilan kelishadi.

Nauru navbatdagi inson aralashuvi vayronagarchilikni keltirib chiqargan joy -avvalgi shon-sharafini qaytarib olishga urinayotgan orol. Flora va fauna boshqa orollardagi kabi boy emasligiga qaramay, sayyohlar toza plyajlari va Ikkinchi jahon urushidan qolgan cho'kib ketgan kemalar va samolyotlarga qarash imkoniyati uchun Nauruni yaxshi ko'rishadi.

2011 yilda kichkina Nauru fuqarolari dunyodagi eng semiz millat deb topildi. Endi vaziyat biroz o'zgardi, ammo semirish hali ham mahalliy aholining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday achinarli fakt chet el mahsulotlarini olib kirilganligi bilan bog'liq. Coca-Cola va qovurilgan tovuq go'shti mahalliy aholi uchun an'anaviy taomlarning o'rnini egalladi. Ilgari Nauru dengiz mahsulotlariga alohida mehr qo'yar edi. Bugungi kunda esa mahalliy oshxonani tatib ko'rish deyarli mumkin emas. Hatto dengizning bir xil mevalarini faqat konservalarda topishi mumkin.

Yaren Nauru shahri - Nauru poytaxti maqomiga ega bo'lgan kichik shahar orolning janubida joylashgan. Bir nechta muzey va bitta galereyaga ega sanoat markazi. Muzeylarda urushdan keyin orolda

qolgan qadimiy mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari va yapon texnologiyalari namoyish etilmoqda. Turizmning markaziy ofisida badiiy hunarmandchilik galereyasi mavjud bo'lib, u yerda mahalliy aholining qadimiy qo'l san'atlari, kundalik hayotning ba'zi elementlari va an'anaviy kiyimlar, orol davlati hayoti haqida hikoya qiluvchi keng fotosuratlar to'plami saqlanib qolingan.

Nauruning ikkinchi muhim joyi - Aivo. Unda o'ziga xos Chinatown va Kengash binolari mavjud. Ammo, asosiy diqqatga sazovor joy - Ayue bulvari. Butun orolda yagona bulvar bo'lib, u tumanning markaziy qismi bo'ylab harakatlanadi va istagan odam piyoda yurishi mumkin. Bundan tashqari, Aivo hududida Nauru shahridagi ikkitadan biri bo'lgan kurort mehmonxonasi joylashgan.

Anibare Nauru - Sharqiy ko'rfazda joylashgan shahar, eng toza ko'k lagunlar va qumli plyajlar bilan dengiz sohilida dam olishni sevuvchilarni jalb qiladi, bu yerda dengiz ostidagi go'zal marjon riflari va suv osti dunyosining go'zal dunyosini tomosha qilish mumkin. Anibareda farovon yashash uchun sayohatchilarga yaxshi dam olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan kurort mehmonxonasi ochilgan. Anibare hududida suv ostidagi sarguzashtlar uchun yaxshi joy mavjud. Shuningdek, Yaren shahridagi San'at va hunarmandchilik markazi mashhur. Bu yerda orolning tub aholisining asl hunarmandchiligi, kiyim-kechagi va toshdan yasalgan qurollarini ko'rish mumkin. Quyosh hammomlari plyajlarni ajoyib oq va pushti qum bilan quvontiradi.

Topside platosi. Nauru iqtisodiyoti bu platodan fosfat konlarini topilishi tufayli rivojlanishni boshlagan edi. Ularning aksariyati bir paytlar tropik o'rmon joylashgan Topside platosida topilgan bo'lib, u qator noyob o'simlik turlarini o'z ichiga olgan. Hozir bu joydan fosfat qazib olish ishlari to'xtatilgan bo'lib, tashlandiq yerga aylanib qolgan.

Bouada tumani. Bu joy hashamatli marjon riflari halqasi bilan o'ralgan edi, ammo yillar o'tishi bilan tektonik jarayonlar tufayli rif yo'q qilingan va pastki yuzasi ko'tarilgan. Hozirgi kunda Bouada tumani qishloq xo'jaligi faoliyatining markazidir. Bu yerda butun orolni oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan oziq-ovqat o'simliklari va ekinlari yetishtiriladi.

Pitkern tarixi XI asrda polineziyaliklar tomonidan orollarning mustamlaka qilinishidan boshlanadi. Polineziyaliklar to'rt asr davomida gullab-yashnagan va keyin yo'q bo'lib ketgan madaniyatga

asos solishdi. Orol 1606 yilda Ispaniya tomonidan portugaliyalik tadqiqotchi Pedro Fernandes Quiros tomonidan kashf etilganida, u davrda unda aholi yashamagan. Orollar inglizlar tomonidan 1767-yil 3-iyulda Filipp Karteret boshchiligidagi sayohatda qaytadan kashf etilgan. Orollar ularni birinchi ko'rgan ekipaj a'zosi Robert Pitkern sharafiga nomlangan.

Pitkern 1790 yilda "Bounty" kemasi qo'zg'olonchilari va Taitiliklardan bo'lgan bir guruh ingliz isyonchilari tomonidan qayta o'zlashtirildi. Bountydan kelgan qochqinlar Pitkernga yetib borganlarida, u yerda hech kim yashamagan, ammo Polineziyaning ilk madaniyati qoldiqlari saqlanib qolgan. Arxeologlarning fikricha, polineziyaliklar 11—15-asrlarda orolda yashab, Polineziyaning boshqa orollari bilan savdo qilib, oziq-ovqat mahsulotlarini yuqori sifatli cho'chqalar va vulqon shishasiga almashtirgan. Bu madaniyat nima uchun yo'qolganligi aniq ma'lum emas.

1790 yil 15 yanvarda Bounty isyonchilari va ularning Taitilik sheriklari orolga yetib kelishgan. Guruh Kristian Fletcher va yana sakkiz nafar isyonchidan iborat edi. Ular: Ned Yang, Jon Adams, Metyu Kintal, Uilyam Makkoy, Uilyam Braun, Isaak Martin, Jon Mills va Jon Uilyams edi. Ular bilan birga oltita polineziyalik va o'n ikki taitilik ayol, shuningdek, Taitilik chaqaloq Salli ham bo'lgan. Ular kemadan hamma narsani olib, keyin izlarini yopish uchun uni yoqib yuborishgan. Orol aholisi dehqonchilik va baliqchilik orqali omon qolishni o'rgangan bo'lsa-da, zo'ravonlik va kasalliklar ko'p muammolarni keltirib chiqardi. Zo'ravonlikka erkaklarning ayollardan ko'ra ko'proq bo'lganligi sabab bo'lgan. 1790 yilning o'zida ikki ayol vafot etgan, bu esa erkaklarning ahvolini og'irlashtirdi. Yana bir muammo shundaki, yer oilalar o'rtasida bo'lingan bo'lsa-da, polineziyaliklarga yer uchastkalari ajratilmagan va qul sifatida foydalanilgan. Bir necha yil o'tgach, orolda Taiti erkaklar qo'zg'oloni bo'lib, oq dengizchilarning ko'pchiligini, shu jumladan Kristian Fletcherni o'ldirgan. 1808 yilda orolga kapitan Folger qo'mondonligi ostida kema tashrif buyurgan, uning hisobotiga ko'ra "... Ular bu yerga kelib qo'nganidan taxminan olti yil o'tgach, ularning xizmatkorlari ularga hujum qilishgan va hikoya qiluvchidan tashqari barcha inglizlarni o'ldirishgan (Alek Smit - taxminan) u esa og'ir yaralangan. O'sha kechasi Taitilik bevalar o'rnidan turib, barcha vatandoshlarini o'ldirishgan...".

1808 yilda orolda 8 ayol, 1 erkak (Jon Adams), 25 bola, shu jumladan kelib chiqishi metis bo'lgan 24 bola va 1 qiz - naslli Taiti ayol bo'lgan. Adams 1829 yilda vafotigacha jamiyatni boshqargan. Shundan so'ng, isyon rahbari Fletcher Kristianning to'ng'ich o'g'li Kristian jamiyat rahbari bo'lgan. Ayollar juda erta, ham nikohda, ham nikohsiz tug'ishganlar va orol aholisi tez o'sgan. 1823 yilda Jon Baffet va Jon Evans koloniyaga qo'shilishdi va mahalliy qizlarga uylanishdi. 1828 yilda Jorj Nobbs orolga joylashdi va pastor bo'ldi. 1831 yilda Britaniya hukumati Pitkernliklarni Taitiga ko'chirishga qaror qildi, u yerda ikki oy ichida 12 kishi kasallikdan vafot etdi va 65 orollik qaytib keldi. 1832 yilda orolga Puritan Joshua keldi. U o'zini Britaniya rasmiylarining vakili sifatida ko'rsatdi va haqiqatda diktatura o'rnatdi, shuningdek, spirtli ichimliklarni haydashni taqiqladi. 1838-yilda yolg'on fosh bo'ldi va Xill oroldan haydaldi va Jon Xann Nobbs yangi rahbar bo'ldi. 1838 yilda orol rasman Britaniya mustamlakasi deb e'lon qilindi. U saylovlar orqali demokratik boshqaruvni joriy qildi. Orolga tug'ilgan yoki u yerda 5 yildan ortiq vaqt yashagan barcha erkaklar va ayollar ovoz berishlari mumkin edi. Shunday qilib, Pitkern Britaniya imperiyasida ayollarning saylov huquqini joriy etgan birinchi hududga aylandi. 1856 yilda 4.6 km² maydonga ega bo'lgan orolning butun aholisi, o'sha paytlarda tug'ilishning yuqori darajasi tufayli haddan tashqari ko'p bo'lgan. Orol aholisini odam yashamaydigan Norfolk oroliga ko'chirishgan, ammo bir muncha vaqt o'tgach, ba'zilar qaytib kelgan.

Hozirgi vaqtda Norfolkda (taxminan 1000 kishi) Pitkerndagidan ko'ra 21 marta ko'p Bounty dengizchilarining avlodlari yashaydi. 1870-yildan orolni 37 yil davomida Pitkernda tug'ilgan, biroq bir muncha vaqt Angliyada o'tkazgan Jeyms Makkoy boshqargan. U ketma-ket 22 marta qayta saylangan.

Orolga soliq solish 1904 yilda joriy qilingan. 1914 yilda Panama kanalining ochilishi bilan kemalar muntazam ravishda orolga tashrif buyurishadi, chunki Pitkern kanaldan Yangi Zelandiyaga to'g'ridan - to'g'ri yo'lda edi. Aholi soni 1937-yilda 233 kishiga yetgan, shundan so'ng Yangi Zelandiyaga emigratsiya tufayli aholi soni qisqargan (hozirgi kunda 47 kishi). Yigirmanchi asrda orol rahbarlarining aksariyati Bounty isyonchilarining avlodlari edi.

Hozirgi paytda orol YaIMining 80 foizini turizm beradi. Bir yilda orolga 15- 20ta kema layneri keladi, mahallaiy aholi shularga xizmat qiladi, savg'oti sotadi.

Xullas, turizm dunyoning bir chekkasida bo'lgan. aholisi ellik kishiga ham bormaydigan mamlakatni qutqarib qoldi va yashab kelayotganiga sabab bo'lmoqda.

15.4. Papua-Yangi Gvineya mamlakati turizmi

Papua-Yangi Gvineya Okeaniya mamlakati bo'lib, unda 8.8 million aholi istiqomat qiladi (2020y.), aholining 80 foizga yaqini qishloqlarda yashaydi. Bu yer yuzidagi eng xilma-xil tillari mavjud joy sifatida tavsiflanadigan mamlakat - 800 dan ortiq tirik tillarga ega. Bu o'z turizmini rivojlantirmoqchi bo'lgan mamlakatlardan biri.

Papua-Yangi Gvineya iqtisodiyoti asosan kam rivojlangan. Unda qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliq ovlash sektori va foydali qazilmalar va energiya resurslari qazib olish sohalari ustunlik qiladi.

Port Moresbi – Papua-Yangi Gvineya poytaxti va uning eng ajoyib shahri. Port Moresbiga kirish Fairfax deb nomlangan dengiz portidan boshlanadi. Ushbu poytaxt yevropaning yirik va boy shaharlaridan juda farq qiladi - bu shahardagi baland qavatli binolar soni kamligi uchun emas, balki uning ajoyib tabiiy dizayni tufayli. Port Moresbi Papua-Yangi Gvineyaning barcha shaharlari singari, tabiat orollarining bog'lari, xiyobonlari - shahar shovqiniga uyg'un holda kirgan tsivilizatsiya qismidir. Papua-Yangi Gvineya poytaxti har tomondan o'rmonlar va tepaliklar bilan o'ralgan - ular shaharni ehtiyotkorlik bilan "ushlab turganday", kerakli uyg'unlik va ekzotizmni olib keladi.

Sepik - Gvineya orolining daryosi, u Yangi Gvineyadagi eng uzun va go'zal daryo. Gvineyliklar u bilan juda faxrlanadilar, chunki u orol hayotni qo'llab-quvvatlaydi. Sepik deyarli butun orolni aylanib o'tib, qiziqarli burilishlar qiladi va uzunligi 1.1 ming km. dan oshadi. Daryo sayyohlar uchun qiziq, uning suvlari shaffof emas, ammo unumdor va qirg'oqlari go'zal. Sepik, Yangi Gvineyaning deyarli barcha tabiati kabi, tsivilizatsiya aralashuvidan qochdi. Shuning uchun u bo'ylab sayohat yanada hayajonli ko'rinadi, chunki ba'zi sohillarda - u botqoqli hududmi yoki qiyin o'rmon bo'lsin - hatto odam hech qachon oyoqqa tura olmaydi.

Qoyatoshli qoyalar, ochiq shaffof suvlar va past osmon, ajoyib buloqlar - har yili ular nafaqat tabiiy joylarga qoyil qolishni, balki iliq suvni (shimoliy mamlakatlar fyordlaridan farqli o'laroq) tegishni va iloji bo'lsa, hatto suzishni istagan ko'plab sayyohlarni jalb qiladi.

Ouen Stenli eng mashhur va taniqli joylardan biridir. Gorizontaal uzunligi qariyb 3 yuz kilometr va vertikal uzunligi qariyb 3 ming metr bo'lgan uzun zanjirda joylashgan tizma, uning janubiy qismida joylashgan Yangi Gvineya oroli bo'ylab oqadi. Ouen Stenli 19-asrning oxirida ochilgan va shundan beri Gvineya orolining tashrif qog'ozlaridan biriga aylandi.

Sarguzashtlar uchun sayohatchilar, madaniy sayyohlar va tabiatni sevuvchilar uchun Papua-Yangi Gvineya haqiqatan ham jannatdir. Ushbu jannatmakon maskanga birinchi rasmiy tashrif 1884-yilda Bo'rn's Filips Papua-Yangi Gvineya orollariga sayohatlarni amalga oshirishda ko'maklashganda qayd etilgan. Kruiz kemalari muntazam ravishda mamlakatga tashrif buyurgan va sayyohlar kelishining ko'payishi 1980 yilgacha qayd etilgan.

Papua - Yangi Gvineyadagi turizm, boshidanoq tezkor rivojlanishni boshdan kechirmoqda. Turizm sohasidagi umumiy ish bilan bandlilik 2010 yilda 4800, 2015 yilda esa 13000 ish o'rnini darajasiga ko'tarildi.

Papua-Yangi Gvineyaning eng hayratlanarli joylaridan biri bu Kuk qishlog'i - qadimgi shahar bo'lib, hozirgi vaqtda u o'rmon tomonidan anchaga yashiringan. Ushbu aholi punkti 116 gektar maydonni egallagan arxeologik yodgorlikdir. Ushbu shaharchaning yoshi 5 ming yildan oshadi va bu botqoq va notekis hududni arxeologlar va olimlar uchun ayniqsa o'ziga jalb qiladi.

Ushbu hududda bir necha ming yil oldin yashagan qabilalar qadimgi Yunoniston ilmlaridan uzoq bo'lishlariga qaramay, ular tarvaqaylab ketgan panjara kabi ko'rinadigan "bog'larni" sug'orish uchun o'z tizimlarini yaratdilar. Yaqinda u YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Papua-Yangi Gvineyaga tashrif buyuruvchilarning 54 foizi ishbilarmonlik maqsadida, 30 foizi sayyohlar va 16 foizi oilalari va do'stlariga tashrif buyurish uchun kelganligini ko'rsatmoqda, bu esa mamlakatning sayyohlik yo'nalishi sifatida o'zini yanada kuchli bozorga chiqarishi uchun imkoniyat beradi.

2018 yil tashrif buyuruvchilarning 48 foizi Avstraliya bozorida kelgan. Yangi Zelandiya va AQShdan ham ancha turist tashrif etadi.

Xullas, Tinch okeani mintaqasi turizm nuqtai nazaridan rang-barang va ancha dinamik regionlardan biri sanaladi. Bu yerda turizm anchagina rivojlangan, jadal o'sayotgan, potentsiali katta, ammo ma'lum sabablar tufayli rivojlana olmayotgan davlatlar ham bor. Bu region jahonning turizm markazlardan ancha uzoqligi, aholisining kamligi tufayli o'z imkoniyatlarini hali ishlata olmagan hududlardandir.

Qisqacha xulosalar. Bu region bir-bidan anchagina farq qiladigan uch qismdan iborat: poyonsiz kengliklarga ega bo'lgan butun bir o'ziga xos materikda joylashgan, iqtisodiy jihatdan Yevropadagi kabi boy va farovon hayot darajasiga ko'tarilib bilgan Avstraliya, taraqqiyot jihatdan shu qo'shnisidan qolishmaydigan, nisbatan kattaroq ikki orolda joylashgan Yangi Zelandiya hamda hali tuzuk rivojlanib ulgurmagan, aholisi nisbatan kambag'al o'nlab kichik orol davlatlardan iborat. Avstraliya va Yangi Zelandiya rivojlangan turistik industriyani barpo etib butun dunyodan turistlarni jalb qilib kelmoqda. Qolgan mitti davlatlar esa sekin- asta qo'shnilarni jalb qilishni yo'lga qo'ya boshlashdi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Avstraliya turizmining jozibadorligi haqida gapiring.
2. Avstraliyaning milliy parklarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Yangi Zelandiyaning turistik resurslari haqida ma'lumot bering.
4. Vanuatu mamlakatining turistik potentsialini ochib bering.
5. Papua-Yangi Gveneya mamlakatining turistik resurslari namlardan iborat?
6. Nauruning turistik imkoniyatlarini aytib bering.

Glossariy

Maoriy – Yangi Zelandiyadagi mahalliy xalq nomi. Inglizlardan bir necha asr oldin Polineziyadan kelib shu yerlarga o'rnashib qolib ketishgan. Yangi Zelandiyaga boruvchi turistlar ularning boy milliy urf-odatlarini, ayniqsa harbiy o'yinlarini ko'rish uchun kelishadi.

Kakadu Avstraliyaning YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan milliy bog'i. Mamlakatning eng noyob va

mashhur milliy bog'lridan biri. Noyob tabiiy landshaftlar hududida joylashgan. Uning hududida yovvoyi tabiat o'rmonlari, yovvoyi hayvonlar, flora va fauna, jumladan, qit'aning qushlar dunyosi vakillarining ajoyib to'plami to'plangan.

Great Barrier Reef – YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kirgan Buyuk marjon qoyalar sayyoradagi eng katta tirik tizimlardan biridir. 1975 yilda Great Barrier Reef Marine Park dengiz parki uch mingdan ortiq orollarini o'z ichiga olgan nozik ekotizimlarini himoya qilish uchun tashkil etilgan. 600 ta qit'a orollari, jumladan, go'zal Whitsunday guruhi. Tabiiy olamning yetti mo'jzasidan biri, park Avstraliyaning sharqiy qirg'og'ida Queensland shtatining bo'ylab 2300 kilometr ga cho'zilgan.

"Uluru-Katta Tjuta" - Avstraliyaning qalbidagi Qizil Markaz, Uluru mamlakatda eng ko'p suratga olinadigan tabiiy mo'jizalardan biridir. Qizil rangli monolit "Uluru-Katta Tjuta" milliy bog'i, "Parks Australia" va "Anangu" mahalliy yer egalari tomonidan birgalikda boshqariladigan Butunjahon merosi maqomiga ega.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

Avstraliya turizmida muhim rol o'ynovchi shaharlarni belgilang.

- a) Sidney va Melburn;
- b) Kanberra va Sietl;
- c) Kuinsland va Adelaida;
- d) Sidney va Dublin.

Avstraliya iqtisodiyotida turizm Yalpi Ichki Mahsulotning qanday ulushini tashkil etadi?

- a) 3.0%;
- b) 4.2%;
- c) 2.1%;
- d) 5.0%.

Avstraliyada ichki turizm umumiy turizmning necha foizini tashkil etadi?

- a) 73%;
- b) 62%;
- c) 51%;
- d) 88%.

Avstraliya turizm bozorini ta'minlovchi asosiy davlatlarni ko'rsating.

- a) AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiy;
- b) Korea, Yangi Zelandiya, Frantsiya;
- c) Yaponiya, Xitoy, Korea;
- d) Frantsiya, AQSH, Xitoy.

2018-yil Avstraliyaga qancha turist tashrif buyurgan?

- a) 9 mln;
- b) 8 mln;
- c) 7 mln;
- d) 10 mln.

Avstraliya Turizmi Milliy logotipida qaysi hayvonni ko'rishimiz mumkin?

- a) Kenguru;
- b) Kuala;
- c) Tuyaqush;
- d) Yo'lbars.

2017-yilda turizm Yalpi ichki mahulotning necha foizga o'sishini ta'minladi?

- a) 6.1%;
- b) 5.6%;
- c) 4.8%;
- d) 7.3%.

2017-yilda turizm sohasida necha kishini ish bilan ta'minlangan?

- a) 600 ming;
- b) 650 ming;
- c) 500 ming;
- d) 550 ming.

Avstraliyaning eng ko'p tashrif buyuriladigan shahari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Sidney;
- b) Melburun;
- c) Kanbera;
- d) Adelayda.

Sidney shahrida ichki sayyohlarning tashrifi keying yillarda qancha kishini tashkil etadi?

- a) 9.2 mln;
- b) 10 mln;
- c) 8.4 mln;
- d) 11 mln.

Avstraliyaga xalqaro turistlarni tashrif buyurishdan asosiy maqsad?

- a) ziyorat;
- b) dam olish va davolanish;
- c) biznes va ziyorat;
- d) biznes va dam olish.

Avstraliya so'zi qaysi tildan olingan?

- a) lotin;
- b) ingliz;
- c) fransuz;
- d) yunon.

Avstraliyada eng uzun daryo qaysi?

- a) Murrey;
- b) Kvislend;
- c) Adelaida;
- d) Niyauga.

Avstarliyada eng katta ko'l qaysi?

- a) Eyr-nord;
- b) Murrey;
- c) Torrens;
- d) Bermud.

Dunyodagi eng katta daraxtlar Avstraliyada joylashgan bo'lib ularning nomlari nima?

- a) evkalipti va sekvoyadendron;
- b) chinor palma;
- c) Pixta va Dub;
- d) Archa va chinor.

Evkalipt daraxti bo'yining uzunligi necha metr?

- a) 155;
- b) 250;
- c) 360;
- d) 70.

Avstraliya so'zining ma'nosi nima?

- a) janubiy yurt;
- b) shimoliy yurt;
- c) sharqiy darvoza;
- d) g'arbiy yer.

Avstraliya materigiga ilk bor qadam qoygan yevropalik sayyoh kim bo'lgan?

- a) Villyam Yanzos;
- b) Fernando Malgellan;
- c) Xristofor Kolumb;
- d) Tomas Kuk.

Okeaniya geografik hududlari qaysi javobda xato ko'rsatilgan?

- a) Malenziya;
- b) Maleneziya;
- c) Mikroneziya;
- d) Polineziya.

Avstraliyada eng tez o'suvchi daraxt? qaysi

- a) Evkalipt;
- b) Dub;
- c) Ayers – Rok;
- d) Uluru.

2014-2015 - yilda Avstraliya turizmi YaIM necha foizini tashkil etdi?

- a) 3%;
- b) 4%;
- c) 5%;
- d) 12%;

2015-yilda Avstraliya davlatiga nechta sayyoh tashrif buyurgan?

- a) 7.5 mln;
- b) 7.0 mln;
- c) 8.0 mln;
- d) 9.0 mln.

XXI asr boshidan boshlab Avstraliyaga qaysi davlatlardan ko'p sayyoh tashrif buyuradi?

- a) Xitoy;
- b) Germaniya;
- c) Frantsiya;
- d) AQSh.

Avstraliya turizm bozorini ta'minlovchi asosiy mamlakatlar mamlakatlari hisoblanad?

- a) AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Koreya, Tailand, Yangi Zelandiya, Gonkong;
- b) Makao, Yaponiya va Xitoy;
- c) Yaponiya, Singapur, Malayziya, Avstraliya Avstraliya, Tayvan;
- d) Rossiya, AQSh, Frantsiya.

Yangi Zelandiyaga nimalarni topish uchun sayohat uyushtiriladi?

- a) Qimmatbaho qushlarni;

- b) Eng arzon tovarlarni olish uchun;
- c) Oltinlar va mineral suvlar;
- d) Qimmatbaho toshlar va minerallarni topish uchun.

"Haq to`lanadigan ish yoki o`qish huquqi berilmaydi" – degan yozuv qaysi davlat vizasida yozilgan?

- a) Avstraliya;
- b) Eron;
- c) Saudiya Arabistoni;
- d) Meksika.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Алиева М.Т. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2007. 344 бет.
2. Алиева М.Т., Умаржанов А. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Молия, 2005. - 339 б.
3. Александрова А.Ю. «География туризма» . Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-592с.
4. Арбузов А.Ф. География туризма. Учебник для студ. сред. проф. образования/А.Ф. Арбузов – М. Издательский центр «Академия», 2009. -160с.
5. География международного туризма: Страну СНГ и Балтики. Учеб пособие Гайдукевич Л.М., Хомич С.А., Аношко Я.И. 2004.
6. Косолапов А.Б. Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер. / А.Б. Косолапов. – М.: КНОРУС, 2006. – 400 с.
7. Косолапов А. Б.- Туристское страноведение. Европа и Азия. Учебно-практическое пособие. Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/759231/>Издательство: Кнорус, 2021 г.
8. Саранча, М.А. Туристское страноведение: учебник / М.А. Саранча. -Москва: КНОРУС, 2020. - 446 с.
9. Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник. -2 изд., перераб. и доп. –М.; ФиС, 2009.- 400 с.
10. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М., 2010. 231с.
11. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 240 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

12. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., «Ўзбекистон», 2003.- <https://constitution.uz/uz/clause/index>
13. «Манильская декларация по мировому туризму» Манила, 27 сентябрь 1980 год.- <https://docs.cntd.ru/document/901813698>.
14. «Гаагская декларация по туризму» Гаага, март-апрель 1989. - <https://e-cis.info/cooperation/3029/77713/>

15. «Глобальный кодекс этики туризма» Принят в 1999 г. На XXIII сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации. - <http://eurasiatourism.org/1034/index.phtml>.

16. «Хартия туризма» Одобрено в 1985 г. На VI сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации. - <https://docs.cntd.ru/document/901756802>.

17. Директива Совета Европейского экономического сообщества «О путешествиях, отпусках и поездках, включающих все» от 13 июня 1990 г. № 90/314/ЕЕС (Люксембург).

18. Аллаберганов А. Халқаро сайёхлик соҳасида мақсадли бозор сегментини танлаш. Бозор, пул ва кредит. 2000. 12-сон, 66 бет.

19. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. - <https://www.labirint.ru/books/228973/>

20. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. - М.: КНОРУС, 2010г.-458с.

21. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400.

22. Атлас мира: Максимально подробная информация / Руководители проекта: А. Н. Бушнев, А. П. Притворов. — Москва: АСТ, 2017. - 96 с.

23. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Учебник 6-е изд. перераб. И доп. (ГРИФ) 2009. год. 448 стр.

24. Боголюбов В.С и др. Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: «Академия», 2005 г. 192с.

25. Вавилова Е.В. Основы международного туризма: Учеб. пособ. - М.: Гардарики, 2005-192 с.

26. Воскресенский В.Ю. Международный туризм: Учебное пособие для студентов. – 2-е изд. М., ЮНИТИ – Дана, 2015.-463с.

27. Зарубежное туристское страноведение. Романов А.А. 2001 г. -288с.

28. Зиядуллаева Л.С., Абидов Н.А., Рискулов Р.Б., Араб мамлакатлари иқтисодиёти. Дарслик. Т.: 2009.

29. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.; ФиС, 2009. 368 с.

30. Квартальнов В.А. «Мировой туризм на пороге 2010 года: прогнозы и реальность». М.: Финансы и статистика. 2008 г.

31. Квартальнов, В. А. Туризм : учебное пособие / В. А. Квартальнов. — 2-е изд. — Москва : Финансы и статистика, 2014. — 336 с. — ISBN 5-279-03119-4.
32. Колотова Е.А. «Рекреационное ресурсведение». Учеб. пос. М.: «Советский спорт». 2000.135с.
33. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география: Учебник. - М., 2014. 503с.
34. Окладникова Е.А. Международный туризм. География туристских ресурсов мира. - М., 2012. 384с.
35. Окладникова Е.А. Международный туризм: География туристских ресурсов мира. Учебное пособие. ГРИФ. 2011.- <https://www.labyrinth.ru/books/263161/>
36. Экономика туризма: Учебник /Под ред. В.А. Квартального, И.В. Зорина и др. - М., 2012.
37. Романов А.А., Саакянц Р.Г. География туризма. - М., 2010.
38. Романов А.А. География туризма. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.464с.
39. Романов А.А. Зарубежное страноведение. Учебное пособие. “Советский спорт”. М. 2001.-288с.
40. Рынок туристических услуг. Социология. Статистика. Публикация. Отраслевые обзоры. вып.1(5) НАФИ. Аналитический центр. Январь.2017г.
41. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие./ А.А.Самойленко. - Ростов н/ Д: “Феникс”, 2006.-368 с.
42. Солиев А.С., Усмонов М.Р. Туризм географияси. Самарқанд, 2005. 131б.
43. Экономика и организация туризма. Международный туризм /Е.Л. Драчева, Ю.В. Забаев, Д.К. Исмаев и др.; под ред.И.А.Рябовой, Ю.В. Забаева, Е.Л. Драчева.-М.: КНОРУС,2005. - 576 с.
44. Щербакова С.А. Международный туризм: экономика и география. Учебное пособие. М.: 2007.- 144стр.
45. Annals of Tourism Research 68 (2018) Tourism in iceland: Persistence and seasonalitu Luis A.. Gil-Alanaa, Edvard H. Huijbensb.
46. Alister Marhieson and Geoferry Wall., Tourism: Economic, Phisial and Social Impacts. Longman Group Ltd. New York, 1986, p.10.

47. Human Development Indices and Indicators (англ.). Программа развития ООН (2018). — Доклад о человеческом развитии на сайте Программы развития ООН.

48. *Prior, Randall* [Gospel and Culture in Vanuatu – An Experiment in Pacific Theology](#). Australian National University (2006). — A Paper presented to the 2nd ANU Missionary History Conference Asia-Pacific Missionaries: At Home and Abroad.

49. Walter Hunziker, *Le Tourisme*, Editions Gurten, Berne. 1972, p.1. - <https://www.worldcat.org/title/tourisme-caracteristiques-principales/oclc/77209680>

50. Tunca Toskay, *Turizm Olayina Genel Yaklasim*, 3- Basim, Der Yayinlari; №26, Istanbul, 1989, s.20.

51. Christopher Holloway., *The Business of Tourism*, Third edition, Pitmen Publishing Ltd, London, 1989, p.9.

52. Cooper, Hall. *Tourism: Principles and Practice*. Longman.2008.

Internet saytlari

53. www.lex.uz.

54. www.ziyonet.uz.

55. www.world-tourism.org - Всемирная туристская организация

56. www.wttc.org - Всемирный Совет по путешествиям и туризму

57. www.interunion.ru <<http://www.interunion.ru>> - туристские ассоциации

58. www.tag-group.com - Консультативная группа по вопросам туризма (TAG)

59. www.e-tours.ru - деловые туры, выставки, конференции

60. www.travel-library.com - Электронная библиотека путешествий

61. www.turist.ru

62. www.travel.ru.

63. www.ekonomtour.ru - экономические туры.

64. www.roughguides.com - Электронный путеводитель.

65. www.UNWTO *Tourism Highlights*, 2018. Edition [Электронный ресурс] // UNWTO. URL: <http://marketintelligence.unwto.org/publication/unwto-tourism-highlights-2018>.

66. www.UNWTO Tourism Highlights: 2019 Edition | World Tourism Organization.
67. www.WTO/ Member States of Middle East. World Tourism Organization.
68. <http://www.russobras.ru/> - Braziliya to'g'risidagi sayt
69. <http://www.venezuela.ru> – Venesuela to'g'risidagi sayt
70. <http://www.sobrechile.org/index.php> - Chili to'g'risidagi sayt
71. <http://www.chile.ru> – Chili to'g'risidagi sayt
72. <http://www.turismo.rs.gov.br> – Braziliyaning turizm masalari bo'yicha sayti
73. <http://www.dadosefatos.turismo.gov.br> – Braziliya vazirligi
74. <http://www.setu.pr.gov.br> – Braziliyaning turizm bo'yicha davlat kotibiyati
75. <http://www.chile.travel/index.php>.
76. <http://www.v-brazil.com/>
77. <https://www.toyota-gib.com/eng/vehicle-sales/lhd-rhd-guide.html>
78. [https://www.World's most popular destination revealed \(англ.\), CNN Travel \(7 September 2018\)](https://www.World's most popular destination revealed (англ.), CNN Travel (7 September 2018)).
79. www.Travel & Tourism Economic Impact 2017.
80. <https://ec.europa.eu/growth/sec>.
81. www.encyclopedia-stranstviy.blogspot.com
82. <https://www.tourister.ru/vorld/evrope-island>.
83. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-danii/>.
84. www.Fakta om svensk turism.
85. <http://www.armeniya2020.org>
86. www.Leitfaden zum DRV-Existenzgruenderpaket.
87. https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_London.
88. <https://travelask.ru/netherlands>.
89. www.wikipediya.ru
90. <https://knoema.ru/atlas/>
91. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-yuzhnoj-korei/>
92. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-irana/>
93. www.Indoneziya statistika qo'mitasi.
94. <http://www.watpho.com>
95. www.VNAT.2020.
96. <https://tradingeconomics.com/costa-rica>
97. <http://costarica-information.com>.
98. <http://en.wikipediya.costa.Rica>

99. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-meksiki/>
100. [www.GlobalMa'lumotlar bazasi.Gonduras/](http://www.GlobalMa'lumotlarbazasi.Gonduras/)
101. https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_the_Dominican_Republic
102. <https://visithaiti.com/>
103. <http://www.russobras.ru/> - Braziliya to'g'risidagi sayt
104. <http://www.venezuela.ru> – Venesuela to'g'risidagi sayt
105. <http://www.sobrechile.org/index.php> - Chili to'g'risidagi sayt
106. <http://www.chile.ru> – Chili to'g'risidagi sayt
107. <http://www.turismo.rs.gov.br> – Braziliyaning turizm masalari bo'yicha sayti
108. <http://www.dadosefatos.turismo.gov.br> – Braziliya vazirligi
109. <http://www.setu.pr.gov.br> – Braziliyaning turizm bo'yicha davlat kotibiyati.
110. <http://www.chile.travel/index.php>.
111. <http://www.v-brazil.com/>
112. <https://top10.travel/dostoprimechatelnosti-egipta>.
113. https://ru.qwe.wiki/wiki/Tourism_in_Tunisia.
114. <https://ru.unesco.org/>
115. <https://www.toyota-gib.com/eng/vehicle-sales/lhd-rhd-guide.html>
116. <https://www.hometogo.com/hotel/>.
117. <https://www.nationsonline.org/oneworld/Fiji.htm>.

ILOVALAR

Ilova. - 1. BJTT a'zolari

t/r	Davlat	Makroregionlar	A'zo bo'lgan yil	t/r	Davlat	Makroregionlar	A'zo bo'lgan yil
1	Afg'oniston	Janubiy Osiyo	1975	79	Lesoto	Afrika	1981
2	Albaniya	Yevropa	1993	80	Liberia	Afrika	2011
3	Jazoir	Afrika	1976	81	Latviya	Yevropa	1977
4	Andorra	Yevropa	1995	82	Litva	Yevropa	2003
5	Angola	Afrika	1989	83	Madagaskar	Afrika	1975
6	Argentina	Amerika	1975	84	Malavi	Afrika	1975
7	Armaniston	Yevropa	1997	85	Malayziya	Osiyo va Tinch okeani	1991
8	Avstria	Yevropa	1975	86	Maldiv orollari	Janubiy Osiyo	1981
9	Ozorbayjon	Yevropa	2001	87	Mali	Afrika	1975
10	Bagam orollari	Amerika	2005	88	Malta	Yevropa	1978
11	Bahrain	Yaqin Sharq	2001	89	Mavritaniya	Afrika	1976
12	Bangladesh	Janubiy Osiyo	1975	90	Mavrikiy	Afrika	1975
13	Barbados	Amerika	2015	91	Mexiko	Amerika	1975
14	Belarus	Yevropa	2005	92	Monaco	Yevropa	2001
15	Benin	Afrika	1975	93	Mongoliya	Osiyo va Tinch okeani	1990
16	Butan	Janubiy Osiyo	2003	94	Montenegro	Yevropa	2007
17	Bolivia	Amerika	1975	95	Marokash	Afrika	1975
18	Bosniya va Gerzegovina	Yevropa	1993	96	Mozambik	Afrika	1995
19	Botsvana	Afrika	1995	97	Myanma	Osiyo va Tinch	2012

						okeani	
20	Braziliya	Amerika	1975	98	Namibiya	Afrika	1997
21	Brunej	Osiyo va Tinch okeani	2007	99	Nepal	Janubiy Osiyo	1975
22	Bolgaria	Yevropa	1976	100	Nederlandiya	Yevropa	1976
23	Burkina Faso	Afrika	1975	101	Nikaragua	Amerika	1991
24	Burundi	Afrika	1975	102	Niger	Afrika	1979
25	Cambodjo	Osiyo va Tinch okeani	1975	103	Nigeriya	Afrika	1975
26	Camerun	Afrika	1975	104	Ummon	Yaqin Sharq	2004
27	Cape Verde	Afrika	2001	105	Pokiston	Janubiy Osiyo	1975
28	Markaziy Afrika respublikasi	Afrika	1995	106	Panama	Amerika	1996
29	Chad	Afrika	1985	107	Papua - yangi Gvineya	Osiyo va Tinch okeani	2005
30	Chili	Amerika	1975	108	Paragvay	Amerika	1992
31	Xitoy	Osiyo va Tinch okeani	1983	109	Peru	Amerika	1975
32	Colombiya	Amerika	1975	110	Filippin	Osiyo va Tinch okeani	1991
33	Congo	Afrika	1979	111	Polsha	Yevropa	1976
34	Costa Rica	Amerika	1995	112	Portugaliya	Yevropa	1976
35	Cote d'Ivoire	Afrika	1975	113	Qatar	Yaqin Sharq	2002
36	Xorvatia	Yevropa	1993	114	Korea Respublikasi	Osiyo va Tinch okeani	1975
37	Cuba	Amerika	1975	115	Moldova	Yevropa	2002

38	Kipr	Yevropa	1975	116	Ruminiya	Yevropa	1975
39	Gresiya	Yevropa	1993	117	Rossiya Federasiyasi	Yevropa	1975
40	Shimoliy Korea	Osiyo va Tinch okeani	1987	118	Ruanda	Afrika	1975
41	Kongo	Afrika	1979	119	Samoa	Osiyo va Tinch okeani	2015
42	Jibuti	Afrika	1997	120	San-Marino	Yevropa	1975
43	Domenika Respublikasi	Amerika	1975	121	Sao Tome va Prinsipe	Afrika	1985
44	Ekvador	Amerika	1975	122	Saudiya Arabistoni	Yaqin Sharq	2002
45	Misr	Yaqin Sharq	1975	123	Senegal	Afrika	1975
46	Salvador	Amerika	1993	124	Serbiya	Yevropa	2001
47	Ekvatorial Gvineya	Afrika	1995	125	Seyshell	Afrika	1991
48	Eritreya	Afrika	1995	126	Sierra Leone	Afrika	1975
49	Efiopiya	Afrika	1975	127	Slovakiya	Yevropa	1993
50	Fiji	Osiyo va Tinch okeani	1997	128	Slovenia	Yevropa	1993
51	Frantsiya	Yevropa	1975	129	Janubiy Afrika Respublikasi	Afrika	1994
52	Gabon	Afrika	1975	130	Ispaniya	Yevropa	1975
53	Gambia	Afrika	1975	131	Shri Lanka	Janubiy Osiyo	1975
54	Gruziya	Yevropa	1993	132	Sudan	Afrika	1975
55	Germaniya	Yevropa	1976	133	Svazilend	Afrika	1999
56	Gana	Afrika	1975	134	Shveytsariya	Yevropa	1976
57	Gretsiya	Yevropa	1975	135	Syria Arab Respublikasi	Yaqin Sharq	1975
58	Gvatemala	Amerika	1993	136	Tojikiston	Yevropa	2007
59	Gvineya	Afrika	1985	137	Tailand	Osiyo va	1996

						Tinch okeani	
60	Gvineya-Bissau	Afrika	1991	138	Makedoniya	Yevropa	1995
61	Gaiti	Amerika	1975	139	Timor-Leste	Osiyo va Tinch okeani	2005
62	Ganduras	Amerika	2001	140	Togo	Afrika	1975
63	Vengriya	Yevropa	1975	141	Trinidad va Tobago	Amerika	2013
64	Hindiston	Janubiy Osiyo	1975	142	Tunis	Afrika	1975
65	Indoneziya	Osiyo va Tinch okeani	1975	143	Turkiya	Yevropa	1975
66	Eron	Janubiy Osiyo	1975	144	Turkmaniston	Yevropa	1993
67	Iroq	Yaqin Sharq	1975	145	Uganda	Afrika	1975
68	Izroil	Yevropa	1975	146	Ukraina	Yevropa	1997
69	Italiya	Yevropa	1978	147	Birlashgan Arab Amirligi	Yaqin Sharq	2013
70	Yamayka	Amerika	1975	148	Tanzaniya	Afrika	1975
71	Yapaniya	Osiyo va Tinch okeani	1978	149	Urugvay	Amerika	1977
72	Iordaniya	Yaqin Sharq	1975	150	O'zbekiston	Yevropa	1993
73	Qozog'istan	Yevropa	1993	151	Vanuatu	Osiyo va Tinch okeani	2009
74	Kenya	Afrika	1975	152	Venesuela	Amerika	1975
75	Quvayt	Yaqin Sharq	2003	153	Vyet Nam	Osiyo va Tinch okeani	1981
76	Qirgizistan	Yevropa	1993	154	Yaman	Yaqin	1977

						Sharq	
77	Laos	Osiyo va Tinch okeani	1975	155	Zambia	Afrika	1975
78	Livan	Yaqin Sharq	1975	156	Zimbabve	Afrika	1981

Izoh: hozirgi paytda davlatlar soni 159ta.

Ilova.-2. Yevropa davlatlarida xalqaro turizmدا turistlar oqimi (mln.kishi)

Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sish (2017 yilga nisbatan)	Ulushi (2018yilda, %)
Yevropa	486,368	673,265	709,990	5.5	100
Shimoliy Yevropa	56,992	78,443	78,856	0.5	11.1
Daniya	8,744	11,743
Finlandiya	2,319	3,180	3,221	1.3	0.5
Islandiya	489	2,225	2,344	5.4	0.3
Irlandiya	7,134	10,338
Norvegiya	4,767	6,252
Shvetsiya	5,183	7,054
Buyuk Britaniya	28,296	37,651	36,316	-3.5	5.1
G'arbiy Yevropiya	154,362	192,725	200,430	4.0	28.2
Avstryia	22,004	29,460	30,816	4.6	4.3
Belgiya	7,186	8,358	9,154	9.5	1.3
Frantsiya	77,648	86,918	89,400	2.9	12.6
Germaniya	26,875	37,452	38,881	3.8	5.5
Lixtenshteyin	64	79	85	7.1	0.0
Luksemburg	793	1,046	1,018	-2.7	0.1
Monako	279	355	347	-2.2	0.0
Niderlandiya	10,883	17,924	19,014	6.1	2.7
Sheytsariya	8,628	11,133	11,715	5.2	1.7

Markaziy/Sharqiy Yevropa	98,132	134,611	141,352	5.0	19.9
Armaniston	687	1,495	1,652	10.5	0.2
Ozorbayjon	1,280	2,454	2,606	6.2	0.4
Belarus	677	2,000	2,142	7.1	0.3
Bolgariya	6,047	8,883	9,273	4.4	1.3
Chexiya	8,629	13,665
Estonya	2,511	3,244	3,234	-0.3	0.5
Gruziya	1,067	4,069	4,757	16.9	0.7
Vengriya	9,510	15,785	17,152	8.7	2.4
Qozog'iston	2,991
Qirg'izistan	855	4,568
Latviya	1,373	1,950	1,946	-0.2	0.3
Litva	1,507	2,523	2,825	11.9	0.4
Polsha	12,470	18,400	19,623	6.6	2.8
Moldova	64	145	160	10.4	0.0
Ruminiya	1,346	2,760	2,797	1.3	0.4
Rossiya	22,281	24,390	24,551	0.7	3.5
Slovakiya	5,415
Tojikiston	160	431	1,250	190.1	0.2
Turkmaniston
Ukraina	21,203	14,421	14,207	-1.5	2.0
O'zbekiston
Janubiy/O'rta yer Yevropasi	176,881	267,486	289,352	8.2	40.8
Albaniya	2,191	4,643	5,340	15.0	0.8
Andorra	1,808	3,003	3,042	1.3	0.4
Bosniya va Gertsogovina	365	922	1,053	14.1	0.1
Xorvatiya	8,966	15,593	16,645	6.7	2.3
Kipr	2,173	3,652	3,939	7.8	0.6
Gretsiya	15,007	27,194	30,123	10.8	4.2
Izroil	2,803	3,613	4,121	14.1	0.6
Italiya	43,626	58,253	62,146	6.7	8.8
Malta	1,339	2,274	2,599	14.3	0.4
Chernogoriya	1,088	1,877	2,077	10.6	0.3

Shimoliy Makedoniya	262	631	707	12.2	0.1
Portugaliya	6,832	21,200	22,800	7.5	3.2
San-Marino	60	78	84	7.3	0.0
Serbiya	683	1,497	1,711	14.2	0.2
Sloveniya	1,869	3,586	4,425	23.4	0.6
Ispaniya	52,677	81,869	82,773	1.1	11.7
Turkiya	31,364	37,601	45,768	21.7	6.4

Manba: World Tourism Organization (UNWTO)

Ilova.-3.Yevropa davlatlarida xalqaro turizmdan daromad (mln.dol.)

Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	Ulushi (2018yilda, %)
Yevropa	422,801	519,464	570,463	100
Shimoliy Yevropa	60,612	88,571	93,873	17.8
Daniya	5,853	7,960	8,420	1.6
Finlandiya	3,051	3,392	3,607	0.6
Islandiya	561	3,011	3,129	0.5
Irlandiya	4,118	5,617	6,185	1.1
Norvegiya	4,707	5,400	5,672	1.0
Shvetsiya	8,344	14,142	14,977	2.6
Buyuk Britaniya	33,978	49,049	51,882	9.1
G'arbiy Yevropiya	152,364	170,918	187,474	32.9
Avstriya	18,596	20,460	22,979	4.0
Belgiya	11,425	12,485	13,474	2.4
Frantsiya	57,059	60,681	67,370	11.8
Germaniya	34,679	39,823	42,977	7.5
Lixtenshteyn
Luksemburg	4,149	4,552	4,990	0.9
Monako

Niderlandiya	11,732	16,643	18,641	3.3
Sheytsariya	14,724	16,274	17,042	3.0
Markaziy/Sharqiy Yevropa	48,312	60,684	68,674	12.0
Armaniston	646	1,120	1,208	0.2
Ozorbayjon	657	3,012	2,634	0.5
Belarus	440	790	870	0.2
Bolgariya	3,407	4,045	4,512	0.8
Chexiya	7,172	6,933	7,451	1.3
Estonya	1,073	1,630	1,783	0.3
Gruziya	659	2,704	3,222	0.6
Vengriya	5,628	6,170	6,930	1.2
Qozog'iston	1,005	2,135	2,255	0.4
Qirg'izistan	160	429	433	0.1
Latviya	642	948	1,036	0.2
Litva	967	1,321	1,423	0.2
Polsha	9,576	12,772	14,042	2.5
Moldova	163	319	378	0.1
Ruminiya	1,140	2,527	2,896	0.5
Rossiya	8,830	8,945	11,802	2.1
Slovakiya	2,233	2,923	3,200	0.6
Tojikiston	2	8	9	0.0
Turkmaniston
Ukraina	3,788	1,261	1,445	0.3
O'zbekiston	121	689	1,144	0.2
Janubiy/O'rta yer Yevropasi	161,514	199,291	220,443	38.6
Albaniya	1,626	1,929	2,193	0.4
Andorra
Bosniya va Gertsogovina	594	826	939	0.2
Xorvatiya	8,075	10,924	11,831	2.1
Kipr	2,160	3,128	3,352	0.6
Gretsiya	12,742	16,528	19,029	3.3
Izroil	4,903	6,821	7,241	1.3
Italiya	38,786	44,233	49,262	8.6
Malta	1,079	1,727	1,854	0.3

Chernogoriya	732	1,041	1,199	0.2
Shimoliy Makedoniya	197	327	382	0.1
Portugaliya	10,077	17,119	19,621	3.4
San-Marino
Serbiya	764	1,346	1,346	0.2
Sloveniya	2,552	2,750	3,209	0.6
Ispaniya	54,641	68,114	73,765	12.9
Turkiya	22,585	22,478	25,220	4.4

manba: World Tourism Organization (UNWTO)

Ilova. - 4. Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmga turistlar oqimi, mln.kishi

davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sish 2017 yilga nisbatan, foizda	2018 yilda ulushi, foizda
Osiyo va Tinch okean	208,174	324,041	347,731	7.3	100
Shimoliy - Sharqiy Osiyo	111,508	159,515	169,190	6.1	48.7
Xitoy	55,665	60,740	62,900	3.6	18.1
Gonkong (Xitoy)	20,085	27,885	29,263	4.9	8.4
Yapaniya	8,611	28,691	31,192	8.7	9.0
Shimoliy Koreya
Janubiy Koreya	8,798	13,336	15,347	15.1	4.4
Makao (Xitoy)	11,926	17,255	18,493	7.2	5.3
Mongoliya	456	469	529	12.8	0.2
Tayvan (Xitoy)	5,567	10,740	11,067	3.0	3.2
Janubi-Sharqiy Osiyo	70,473	120,466	128,680	6.8	37.0
Brunej	214	259	278	7.4	0.1
Kambodja	2,508	5,602	6,201	10.7	1.8

Indoneziya	7,003	12,948	13,396	3.5	3.9
Laos	1,670	3,257	3,770	15.8	1.1
Malayziya	24,577	25,948	25,832	-0.4	7.4
Myanma	792	3,443	3,551	3.1	1.0
Filippin	3,520	6,621	7,129	7.7	2.1
Singapur	9,161	13,909	14,673	5.5	4.2
Tailand	15,936	35,483	38,277	7.9	11.0
Timor-Leste	40	74	75	1.1	0.0
Vyet Nam	5,050	12,922	15,498	19.9	4.5
Okeaniya	11,468	16,580	17,044	2.8	4.9
Amerika Samoasi	23	20
Avstraliya	5,872	8,815	9,246	4.9	2.7
Kuk orollari	104	161	169	4.6	0.0
Fiji	632	843	870	3.3	0.3
Frantsiya Polineziyasi	154	199	216	8.7	0.1
Guam	1,197	1,544	1,552	0.5	0.4
Kiribati	5	6
Marshall orollari	5	6
Mikroneziya	45
Mariana orollari	379	660	518	-21.5	0.1
Yangi Kaledoniya	99	121	120	-0.3	0.0
Yangi Zelandiya	2,435	3,555	3,686	3.7	1.1
Niuye	6	10
Palau	85	123	116	-5.4	0.0
Papua -Yangi Gvineya	140	143
Samoa	122	146	164	12.4	0.0
Sulaymon orollari	21	26	28	8.4	0.0
Tonga	47	62
Tuvalu	2	2
Vanuatu	97	109	116	5.9	0.0

Janubiy Osiyo	14,726	27,480	32,817	19.4	9.4
Afg'oniston
Bangladesh	303	1,026
Butan	41	255	274	7.6	0.1
Hindiston	5,776	15,543	17,427	12.1	5.0
Eron	2,938	4,867	7,295	49.9	2.1
Maldiv orollari	792	1,390	1,484	6.8	0.4
Nepal	603	940	1,173	24.8	0.3
Pokiston	907
Shri Lanka	654	2,116	2,334	10.3	0.7

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova. - 5. Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmga ko'rilgan daromad, mln.doll.

davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yildagi ulishi
Osiyo va Tinch okean havzasi	254,367	395,996	435,460	100
Shimoli - Sharqiy Osiyo	122,964	168,130	188,429	43.3
Xitoy	45,814	38,559	40,386	9.3
Gonkong (Xitoy)	22,200	33,339	36,703	8.4
Yapaniya	13,199	34,054	41,115	9.4
Shimoliy Koreya
Janubiy Koreya	10,328	13,368	15,319	3.5
Makao (Xitoy)	22,276	35,575	40,187	9.2
Mongoliya	244	396	461	0.1
Tayvan (Xitoy)	8,721	12,315	13,704	3.1
Janubi-Sharqiy Osiyo	68,547	130,632	142,314	32.7
Brunej	..	177	190	0.0
Kambodja	1,519	3,636	4,352	1.0
Indoneziya	6,958	13,139	14,110	3.2
Laos	382	761	734	0.2
Malayziya	18,115	18,323	19,143	4.4
Myanma	72	1,969
Filippin	2,645	6,988	7,461	1.7
Singapur	14,178	19,738	20,528	4.7

Tailand	20,104	56,938	63,042	14.5
Timor-Leste	31	73
Vyet Nam	4,450	8,890	10,080	2.3
Okeaniya	42,794	57,375	61,097	14.0
Amerika Samoasi	..	22
Avstraliya	32,584	41,732	45,035	10.3
Kuk orollari	111	153
Fiji	634	926	956	0.2
Frantsiya Polineziyasi	406
Guam
Kiribati	4	4
Marshall orollari	4
Mikroneziya	24
Mariana orollari
Yangi Kaledoniya	129
Yangi Zelandiya	6,522	10,593	11,004	2.5
Niuye	2
Palau	73	116
Papua -Yangi Gvineya	2	2
Samoa	132	166
Sulaymon orollari	44	67	81	0.0
Tonga	16	48	48	0.0
Tuvalu	2
Vanuatu	217
Janubiy Osiyo	20,063	39,858	43,620	10.0
Afg'oniston	75	2
Bangladesh	81	337	353	0.1
Butan	40	103	102	0.0
Hindiston	14,490	27,365	28,568	6.6
Eron	2,438	4,402
Maldiv orollari	1,713	2,744	3,028	0.7
Nepal	344	630
Pokiston	306	352	390	0.1
Shri Lanka	576	3,925	4,381	1.0

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova. - 6. Amerika davlatlarining xalqaro turizmدا turistlar oqimi, mln. kishi

davlatlar	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yilda 2017 yilga nisbatan o'sish, foizda	2018 yilda ulushi, foizda
Amerika	150,432	210,810	215,684	2.3	100
Shimoliy Amerika	99,520	137,115	142,198	3.7	65.9
Kanada	16,219	20,883	21,134	1.2	9.8
Meksika	23,290	39,291	41,447	5.5	19.2
AQSh	60,010	76,941	79,618	3.5	36.9
Karib havzasi	19,521	26,046	25,678	-1.4	11.9
Angillia	62	68	55	-20.1	0.0
Antigua & Barbuda	230	247	269	8.7	0.1
Aruba	825	1,071
Bagam orollari	1,370	1,439	1,627	13.1	0.8
Barbados	532	664	680	2.5	0.3
Bermud orollari	232	270	282	4.6	0.1
Brit. Virjin orollari	330	335	192	-42.5	0.1
Kayman orollari	288	418	463	10.7	0.2
Kuba	2,507	4,594	4,684	2.0	2.2
Kurasao	342	399	432	8.2	0.2
Dominika	77	71	63	-11.9	0.0
Dominikan Rep.	4,125	6,188	6,569	6.2	3.0
Grenada	110	146	161	10.0	0.1
Gvadelupa	392	650
Gaiti	255	467
Yamayka	1,922	2,353	2,473	5.1	1.1

Martinika	476	536	537	0.3	0.2
Montserrat	6	9	9	0.1	0.0
Puerto Riko	3,186	3,797	3,068	-19.2	1.4
Sent Lusiya	306	386	396	2.5	0.2
St. Kitts & Nevis	98	115	116	1.3	0.1
St. Maarten	443	402	178	-55.8	0.1
St. Vincent & Gren.	72	76	80	5.4	0.0
Trinidad va Tobago	388	395	375	-4.9	0.2
Turks & Kaikos	281	416
AQSh. Virgin orollari	572	535	381	-28.8	0.2
Markaziy Amerika	7,808	11,084	10,814	-2.4	5.0
Beliz	242	427	489	14.6	0.2
Kosta Rika	2,100	2,960	3,017	1.9	1.4
El Salvador	1,150	1,556	1,677	7.8	0.8
Gvatemala	1,119	1,660	1,781	7.3	0.8
Gonduras	863	851	865	1.6	0.4
Nikaragua	1,011	1,787
Panama	1,324	1,843	1,779	-3.5	0.8
Janubiy Amerika	23,583	36,565	36,994	1.2	17.2
Argentina	5,325	6,710	6,942	3.4	3.2
Boliviya	679	1,134
Braziliya	5,161	6,589	6,621	0.5	3.1
Chili	2,801	6,450	5,723	-11.3	2.7
Kolumbiya	2,385	3,631	3,898	7.4	1.8
Ekvador	1,047	1,608	2,429	51.0	1.1
Frantsiya Gvianasi	189	224
Gviyana	152	247	287	15.9	0.1

Paragvay	465	1,560	1,181	-24.3	0.5
Peru	2,299	4,032	4,419	9.6	2.0
Surinam	205	278
Urugvay	2,349	3,674	3,469	-5.6	1.6
Venesuela	526	427

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova. -7. Amerika davlatlarining xalqaro turizmdan ko'rilgan daromadlar, mln.doll.

davlatlar	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yilda ulushi, foizda
Amerika	215,538	325,848	333,594	100
Shimoliy Amerika	164,832	252,409	258,913	77.6
Kanada	15,830	20,325	21,936	6.6
Meksika	11,992	21,336	22,510	6.7
AQSh	137,010	210,747	214,468	64.3
Karib havzasi	23,254	31,802	31,975	9.6
Angillia	99	131
Antigua & Barbuda	298	557
Aruba	1,251	1,855	2,024	0.6
Bagam orollari	2,163	2,996	3,355	1.0
Barbados	1,038	1,081	1,125	0.3
Bermud orollari	442	508
Brit. Virjin orollari	389
Kayman orollari	465
Kuba	2,187	3,186	2,903	0.9
Kurasao	385	551	493	0.1
Dominika	94	121
Dominikan Rep.	4,162	7,184	7,561	2.3
Grenada	105	144
Gvadelupa	510
Gaiti	383	459
Yamayka	2,001	2,809	3,099	0.9
Martinika	472	510	530	0.2
Montserrat	6	8

Puerto Riko	3,211	3,848	3,282	1.0
Sent Lusiya	565	754
St. Kitts & Nevis	90	157
St. Maarten	674	630	453	0.1
St. Vincent & Gren.	86	95
Trinidad va Tobago	450	453
Turks & Kaikos	..	571	787	0.2
AQSh. Virgin orollari	1,223	1,202	1,046	0.3
Markaziy Amerika	6,947	12,604	12,840	3.8
Beliz	249	427	487	0.1
Kosta Rika	2,246	3,724	3,903	1.2
El Salvador	390	873	1,014	0.3
Gvatemala	1,378	1,566	1,549	0.5
Gonduras	625	715	736	0.2
Nikaragua	314	841	544	0.2
Panama	1,745	4,460	4,608	1.4
Janubiy Amerika	20,505	29,034	29,865	9.0
Argentina	4,942	5,375	5,558	1.7
Boliviya	379	782	823	0.2
Braziliya	5,261	5,809	5,917	1.8
Chili	1,552	3,383	2,956	0.9
Kolumbiya	2,797	4,921	5,556	1.7
Ekvador	781	1,548	1,871	0.6
Frantsiya Gvianasi
Gviyana	80
Paragvay	217	369	363	0.1
Peru	2,008	3,710	3,947	1.2
Surinam	61	46	56	0.0
Urugvay	1,509	2,558	2,344	0.7
Venesuela	831

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova.- 8.AQShning eng mashhur diqqatga sazavor joylari

Diqqatga sazavor joylar	Joylashgan o'rni
Mustaqillik haykali	Nyu-York sh, Nyu-York shtati
Tayms xiyoboni	Nyu-York sh, Nyu-York shtati
Las-Vegas-Strip	Las-Vegas, Nevada
Milliy Aleya	Vashington
Fanel-Xoll	Boston, Massachusetts
Magic Kingdom	Orlando, Florida
Disneylend	Anaxaym, Kaliforniya
Baliqchilar porti	San-Frantsisko, Kaliforniya
Niagara sharsharasi	Nyu-York shtati
“Greyt Smoki Mauntains” milliy parki	Shimoliy Karolina va Tennessi
Navy Pier	CHikago, Illinoys
Guver to'g'oni	Las-Vegas, Nevada
Universal Orlando Resort	Orlando, Florida
SeaWorld Orlando	Orlando, Florida
San-Antonio dengiz bo'yi	San-Antonio, Texas
“Metropoliten” muzeyi	Nyu-York sh, Nyu-York shtati
Mall of America	Blumington, Minnesota
Disneyland Resort	Anaxaym, Kaliforniya
“Delaware Water Gap” milliy rekratsion hudud	Nyu-Jersi va Pensilvaniya
Gollywud universal studiyasi	Yuniversal-Siti, Kaliforniya
Waikiki plaji	Oaxu, Gavayi
Busch Gardens Tampa Bay	Tampa, Florida
Cape Cod National Seashore	Barnsteybl Kaunti, Massachusetts
SeaWorld San Diego en: SeaWorld San Diego	San-Diego, Kaliforniya

Amerikaning Tabiatshunoslik tarixi muzeyi

Manxetten, N'yu-York (shtat)

Izoh: World's most popular destination revealed (англ.), *CMN Travel* (7 September 2018). Дата обращения 13 сентября 2018.

Ilova. - 9. Afrika davlatlarida xalqaro turizmga turistlar oqimi.mln.kishi.

davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sih, 2017 yilga nisbat, foizda	2018 yilda ulushi, % hisobida
Afrika	50,426	62,727	67,118	7.0	100
Shimoliy Afrika	19,682	21,665	23,858	10.1	35.5
Jazoir	2,070	2,451
Marokash	9,288	11,349	12,289	8.3	18.3
Sudan	495	813
Tunis	7,828	7,052	8,299	17.7	12.4
Subsahara Afrikasi	30,743	41,061	43,260	5.4	64.5
Angola	425	261
Benin	199	281	295	5.0	0.4
Botsvana	1,973	1,623
Burkina Faso	274	143	144	0.7	0.2
Burundi	142	299
Kamerun	569
Kabo Verde	336	668	710	6.3	1.1
Markaziy Afrika Respublikasi	54
Chad	71	87
Komor orollari	15	28	36	28.2	0.1
Kongo	194	192
Côte d'Ivoire	252	1,800	1,965	9.2	2.9
Kongo Dem. Rep.	81
Jibuti	51

Ekvatorial Gvineya
Eritreya	84
Esvatini	868	921	782	-15.1	1.2
Efiopiya	468	933
Gabon
Gambiya	91	162
Gana	931	972
Gvineya	12
Gvineya-Bissau	22
Keniya	1,470	1,390	1,475	6.1	2.2
Lesoto	414
Liberiya
Madagaskar	196	255	257	0.6	0.4
Malavi	746	837
Mali	169	193	203	5.2	0.3
Mavritaniya
Mavrikiy	935	1,342	1,399	4.3	2.1
Mozambik	1,718	1,447
Namibiya	984	1,499
Niger	74	164	157	-4.3	0.2
Nigeriya	1,555
Renyun	421	508	535	5.3	0.8
Ruanda	504
San Tomé & Prinsipe	8
Senegal	900	1,365
Sejšell orollari	175	350	362	3.4	0.5
Siyerra Leone	39	51	57	11.8	0.1
Somali
JAR	8,074	10,285	10,472	1.8	15.6
Tanzaniya	754	1,275
Togo	202	514	573	11.5	0.9
Uganda	946	1,402	1,850	31.9	2.8
Zambiya	815	1,083
Zimbabwe	2,239	2,423	2,567	5.9	3.8

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova.-10. Afrika davlatlarida xalqaro turizmdan ko'rilgan daromadlar, mln. Doll.

davlatlar	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yildagi ulushi, foizda
Afrika	30,447	36,400	38,395	100
Shimoliy Afrika	9,662	9,916	10,674	27.8
Jazoir	220	141
Marokash	6,703	7,442	7,775	20.2
Sudan	94	1,029	1,043	2.7
Tunis	2,645	1,305	1,713	4.5
Subsahara Afrikasi	20,785	26,483	27,721	72.2
Angola	719	880	544	1.4
Benin	149	150
Botsvana	510	704	574	1.5
Burkina Faso	72	117
Burundi	2	3
Kamerun	159	524
Kabo Verde	278	431	466	1.2
Markaziy Afrika Respublikasi	11
Chad
Komor orollari	35
Kongo	27
Côte d'Ivoire	201	396
Kongo Dem. Rep.	11	6.0	60.5	0.2
Djibouti	18	35
Ekvatorial Gvineya
Eritreya
Esvatini	51	13
Efiopiya	522	435
Gabon	86
Gambiya	74	103
Gana	620	850
Gvineya	2	16
Gvineya-Bissau	13	16

Keniya	800	919
Lesoto	23	23	23	0.1
Liberiya	12
Madagaskar	309	671
Malavi	31	31
Mali	205	206
Mavritaniya	..	23
Mavrikiy	1,282	1,748	1,887	4.9
Mozambik	108	151	242	0.6
Namibiya	438	188	380	1.0
Niger	105	83
Nigeriya	576	2,549	1,962	5.1
Reyunun	392	427	495	1.3
Ruanda	202	438
San Tomé & Prinsipe	11	66	72	0.2
Senegal	453	419
Seyshell orollari	343	483	564	1.5
Siyerra Leone	26	83
Somali
JAR	9,070	8,818	8,939	23.3
Tanzaniya	1,255	2,250	2,449	6.4
Togo	66	138
Uganda	784	937	1,027	2.7
Zambia	492	653	742	1.9
Zimbabve	124	149

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova.-11. Janubi- G'arbiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmga turistlar oqimi, mln.kishi.

Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda o'sih, 2017 yilga nisbat, foizda	2018 yilda ulushi, % hisobida
Janubi- Sharqiy Osiyo	56,122	57,743	60,458	4.7	100
Baxrain	995	4,372
Misr	14,731	8,292	11,346	36.8	18.8

Iroq	1,518
Iordaniya	4,207	3,844	4,150	8.0	6.9
Quvayt	207
Livan	2,168	1,857	1,964	5.8	3.2
Liviya
Ummon	1,441	2,372
Falastin	522	503	606	20.5	1.0
Qatar	1,700	2,256	1,819	-19.4	3.0
Saudiya Arabistoni	10,850	16,109	15,293	-5.1	25.3
Syriya	8,546
BAA	7,432	15,790	15,920	0.8	26.3
Yaman	1,025

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova. – 12. Janubi - G'arbiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro turizmdan ko'rilgan daromadlar, mln. Doll.

Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda ulushi, % hisobida
Yaqin Sharq	52,150	68,359	73,039	100
Baxrain	1,362	3,642
Misr	12,528	7,775	11,615	15.9
Iroq	1,660	2,959	1,986	2.7
Iordaniya	3,585	4,639	5,249	7.2
Quvayt	290	313	395	0.5
Livan	7,995	7,611	8,400	11.5
Liviya	60
Ummon	780	1,748
Falastin	667	225	245	0.4
Qatar	584	5,971	5,565	7.6
Saudiya Arabistoni	6,712	12,056	12,038	16.5
Syriya	6,190
BAA	8,577	21,048	21,375	29.3
Yaman	1,161

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Ilova. - 13. Dunyoning xalqaro turistik oqim bo'yicha top 50 davlat, mln.kishi.

t/r	mamlakat	2010 y.	2017 y.	2018 y.	2018 yilda o'sish 2017 yilga nisbatan, foizda	2018 yilda ulushi, foizda
	JAHON	952,0	1329,0	1401,0	5.0	100
1	Frantsiya	77,648	86,918	89,400	2.9	6.4
2	Ispaniya	52,677	81,869	82,773	1.1	5.9
3	AQSh	60,010	76,941	79,618	3.5	5.7
4	Xitoy	55,665	60,740	62,900	3.6	4.5
5	Italiya	43,626	58,253	62,146	6.7	4.4
6	Turkiya	31,364	37,601	45,768	21.7	3.3
7	Meksika	23,290	39,291	41,447	5.5	2.9
8	Germaniya	26,875	37,452	38,881	3.8	2.8
9	Tailand	15,936	35,483	38,277	7.9	2.7
10	Buyuk Britaniya	28,296	37,651	36,316	-3.5	2.6
11	Yapaniya	8,611	28,691	31,192	8.7	2.2
12	Avstryia	22,004	29,460	30,816	4.6	2.2
13	Gretsiya	15,007	27,194	30,123	10.8	2.1
14	Gonkong (Xitoy)	20,085	27,885	29,263	4.9	2.1
15	Malayziya	24,577	25,948	25,832	-0.4	1.8
16	Rossiya	22,281	24,390	24,551	0.7	1.8
17	Portugaliya	6,832	21,200	22,800	7.5	1.6
18	Kanada	16,219	20,883	21,134	1.2	1.5
19	Polsha	12,470	18,400	19,623	6.6	1.4
20	Niderlandiya	10,883	17,924	19,014	6.1	1.4
21	Makao (Xitoy)	11,926	17,255	18,493	7.2	1.3
22	Hindiston	5,776	15,543	17,427	12.1	1.2
23	Vengriya	9,510	15,785	17,152	8.7	1.2
24	Xorvatiya	8,966	15,593	16,645	6.7	1.2
25	BAA	7,432	15,790	15,920	0.8	1.1
26	Vyet Nam	5,050	12,922	15,498	19.9	1.1

27	Janubiy Koreya	8,798	13,336	15,347	15.1	1.1
28	Saudiya Arabistoni	10,850	16,109	15,293	-5.1	1.1
29	Singapur	9,161	13,909	14,673	5.5	1.0
30	Ukraina	21,203	14,421	14,207	-1.5	1.0
31	Indoneziya	7,003	12,948	13,396	3.5	0.9
32	Chexiya	8,629	13,665	0.9
33	Marokash	9,288	11,349	12,289	8.3	0.9
34	Sheytsariya	8,628	11,133	11,715	5.2	0.8
35	Daniya	8,744	11,743	0.8
36	Misr	14,731	8,292	11,346	36.8	0.8
37	Tayvan (Xitoy)	5,567	10,740	11,067	3.0	0.8
38	JAR	8,074	10,285	10,472	1.8	0.7
39	Irlandiya	7,134	10,338	0.7
40	Bolgariya	6,047	8,883	9,273	4.4	0.7
41	Avstraliya	5,872	8,815	9,246	4.9	0.7
42	Belgiya	7,186	8,358	9,154	1.3	0.6
43	Tunis	7,828	7,052	8,299	17.7	0.6
44	Eron	2,938	4,867	7,295	49.9	0.5
45	Filippin	3,520	6,621	7,129	7.7	0.5
46	Shvetsiya	5,183	7,054	0.5
47	Argentina	5,325	6,710	6,942	3.4	0.5
48	Braziliya	5,161	6,589	6,621	0.5	0.5
49	Dominikan Rep.	4,125	6,188	6,569	6.2	0.5
50	Kambodja	2,508	5,602	6,201	10.7	0.4

Manba: World Tourism Organization (UNWTO).


Ilova. - 14. Jahon davlatlarida (top 50 talik) xalqaro turizmdan ko'rilgan daromadlar, mln.doll.

t/r	Davlatlar	2010y.	2017y.	2018y.	2018 yilda ulushi. % hisobida
	Jahon bo'yicha	975.000	1346.000	1451.000	100
1	AQSh	137.010	210.747	214.468	14.8
2	Ispaniya	54.641	68.114	73.765	5.1
3	Frantsiya	57.059	60.681	67.370	4.6
4	Xitoy	55.665	60.740	62.900	4.3
5	Buyuk Britaniya	33.978	49.049	51.882	3.6
6	Italiya	38.786	44.233	49.262	3.4
7	Germaniya	34.679	39.823	42.977	3.0
8	Tailand	15.936	35.483	38.277	2.6
9	Yapaniya	8.611	28.691	31.192	2.2
10	Gonkong (Xitoy)	20.085	27.885	29.263	2.0
11	Malayziya	24.577	25.948	25.832	1.8
12	Turkiya	22.585	22.478	25.220	1.7
13	Avstryia	18.596	20.460	22.979	1.6
14	Meksika	11.992	21.336	22.510	1.6
15	Kanada	15.830	20.325	21.936	1.5
16	BAA	8.577	21.048	21.375	1.5
17	Portugaliya	10.077	17.119	19.621	1.4
18	Gretsiya	12.742	16.528	19.029	1.3
19	Niderlandiya	11.732	16.643	18.641	1.3
20	Makao (Xitoy)	11.926	17.255	18.493	1.3
21	Hindiston	5.776	15.543	17.427	1.2
22	Sheytsariya	14.724	16.274	17.042	1.2
23	Vyet Nam	5.050	12.922	15.498	1.1
24	Janubiy Koreya	8.798	13.336	15.347	1.1
25	Shvetsiya	8.344	14.142	14.977	1.0
26	Singapur	9.161	13.909	14.673	1.0
27	Polsha	9.576	12.772	14.042	1.0

28	Belgiya	11.425	12.485	13.474	0.9
29	Indoneziya	7.003	12.948	13.396	0.9
30	Saudiya Arabistoni	6.712	12.056	12.038	0.8
31	Xorvatiya	8.075	10.924	11.831	0.8
32	Rossiya	8.830	8.945	11.802	0.8
33	Misr	12.528	7.775	11.615	0.8
34	Tayvan (Xitoy)	5.567	10.740	11.067	0.8
35	Avstraliya	5.872	8.815	9.246	0.6
36	JAR	9.070	8.818	8.939	0.6
37	Daniya	5.853	7.960	8.420	0.6
38	Livan	7.995	7.611	8.400	0.6
39	Marokash	6.703	7.442	7.775	0.5
40	Dominikan Rep.	4.162	7.184	7.561	0.5
41	Chexiya	7.172	6.933	7.451	0.5
42	Eron	2.938	4.867	7.295	0.5
43	Izroil	4.903	6.821	7.241	0.5
44	Filippin	3.520	6.621	7.129	0.5
45	Vengriya	5.628	6.170	6.930	0.5
46	Kambodja	2.508	5.602	6.201	0.4
47	Braziliya	5.261	5.809	5.917	0.4
48	Argentina	4.942	5.375	5.558	0.4
49	Qatar	584	5.971	5.565	0.4
50	Kolumbiya	2.797	4.921	5.556	0.4
11 2	O'zbekiston	0.121	0.689	1.144	0.08


Manba: World Tourism Organization (UNWTO).

Пова. – 15. Mamlakatning YAIMda turizmning hissasi eng katta bo'lgan top-20talik.



Manba: www/vikipediya.ru (Pitkern kabi juda kichik orol davlatlar hisobga olinmagan)

Пова. – 16. Mamlakatning YAIMda turizmning hissasi eng kam bo'lgan top-20talik.



Manba: www/vikipediya.ru

Ilova. - 17. YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan umumjahon madaniy va tabiiy merosi ob'yektlari soni, davlatlar bo'yisha (2018yil ma'lumoti bo'yicha 167 davlat)

mamlakat	son	mamlakat	son	mamlakat	son	mamlakat	son
Xitoy	55	Tunis	8	Bangladesh	3	Urugvay	2
Italiya	55	Vyet Nam	8	Armaniston	3	Holy See	2
Ispaniya	48	Senegal	7	Ozorbayjon	3	Ganduras	2
Germaniya	46	Slovakiya	7	Bosniya va Gertsegovina	3	Irlandiya	2
Frantsiya	45	Jazoir	7	Burkina Faso	3	Andorra	1
Hindiston	38	Boliviya	7	Kambodjo	3	Angola	1
Meksika	35	Misr	7	Kipr	3	Antigua va Barbuda	1
Buyuk Britaniya	32	Finlandiya	7	Gruziya	3	Barbados	1
Rossiya	29	Keniya	7	Gvatemala	3	Beliz	1
Eron	24	Ukraina	7	Islandiya	3	Kabo Verdi	1
AQSh	24	Tanzaniya	7	Qirg'iziston	3	Kongo	1
Yaponiya	23	Chili	6	Laos	3	Dominika	1
Braziliya	22	Iroq	6	Madagaskar	3	Dominika respublikasi	1
Avstraliya	20	Pokiston	6	Malta	3	Salvador	1
Kanada	20	Suriya	6	Yangi Zelandiya	3	Eritreya	1
Turkiya	18	Filippin	6	Niger	3	Fiji	1
Gretsiya	18	Dem.Rep.Kongo	5	Falastin	3	Gabon	1
Portugaliya	17	Ekvador	5	Sudan	3	Gvineya	1
Polsha	16	Iordaniya	5	Tukmaniston	3	Gaiti	1
Shvetsiya	15	Qozog'iston	5	Uganda	3	Yamayka	1
Chexiya	14	Livan	5	Venesuela	3	Kiribati	1
Janubiy Koreya	14	Liviya	5	Afg'oniston	2	Lesoto	1
Belgiya	13	Mongoliya	5	Benin	2	Luksemburg	1

Peru	12	Ummon	5	Botsvana	2	Marshall orollari	1
Shveytsariya	12	Panama	5	Kamerun	2	Mikroneziya	1
Argentina	11	Saudiya Arabistoni	5	MAR	2	Mozambik	1
Niderlandiya	10	Serbiya	5	Chad	2	Shimoliy Makedoniya	1
Avstriya	10	Tailand	5	Shimoliy Koreya	2	Palau	1
Bolgariya	10	O'zbekiston	5	Estoniya	2	Papua	1
Xorvatiya	10	Zimbabve	5	Gambiya	2	Paragvay	1
Daniya	10	Albaniya	4	Gana	2	Qatar	1
JAR	10	Belarus	4	Latviya	2	Moldava	1
Izroil	9	Kosta Rika	4	Malavi	2	Saint Kitts va Nevis	1
Kolumbiya	9	Côte d'Ivoire	4	Mavritaniya	2	Saint Lusiya	1
Kuba	9	Litva	4	Mavrikiy	2	San-Marino	1
Marokash	9	Malayziya	4	Myanma	2	Singapur	1
Efiopiya	9	Mali	4	Namibiya	2	Sulaymon orollari	1
Indoneziya	9	Chernogoriya	4	Nikaragua	2	Togo	1
Vegriya	8	Nepal	4	Nigeriya	2	BAA	1
Norvegiya	8	Sloveniya	4	Seyshill orollari	2	Vanuatu	1
Ruminiya	8	Yaman	4	Surinam	2	Zambiya	1
Shri Lanka	8	Baxrayn	3	Tojikiston	2		

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Ilova. - 18. AQShdagi YUNESKOning umumjahon madaniy va tabiiy merosi ob'yehti deb tan olinganlari ro'yxati (2017y)

t/r	nomi	Joylashgan joyi	Tashkil etilgan yili	Ro'yxatga kiritilgan yili
1	Mesa-Verde milliy park	Kolorado shtati	1906	1978
2	Yellouston milliy parki	Vayoming, Montana, Aydaxo shtatlari	1872	1978

3	Klueyn, Rangel-Sent-Elays, Gleysher-Bey va Tatshenshini-Aleks parklari va rezervatlar	Alyaska shtati	1980	1979, 1992, 1994
4	Grand-Kan'yon milliy park	Arizona shtati	1919	1979
5	Evergleyds milliy parki	Florida shtati	1947	1979
6	Independens-xoll	Pensilvaniya shtati, Felodelfiya shahri	1732-1753	1979
7	Redvud milliy parki	Kaliforniya shtati	1968	1980
8	Mamont g'ori milliy parki	Kennektukki shtati	1941	1981
9	Olimpik milliy parki	Vashington shtati	1938	1981
10	“Kaxokii qo'rg'oni” tarixiy yodgorlik	Illinoys shtati	VII-XIII asr	1982
11	Greyt-Smoki-Mauntins milliy parki	Shimoliy Karolina, Tennessi shtatlari	1934	1983
12	San-Xuan shahrining tarixiy qismidagi La-Fortaleza qasri	Puerto Riko, San-Xuan shahri	XV-XIX asrlar	1983
13	Ozodlik haykali	Nyu-York shtat, Nyu-York shahri	1886	1984
14	Yosemiti milliy parki	Kaliforniya shtati	1980	1984
15	Chako milliy tarixiy park	Nyu-Meksiko shtati	850 - 1250	1987
16	Uoterton jahonning xalqaro parki	ASQHning Montana shtati va Kanadaning Alberta provintsiyasi	1976	1995
17	Xavayi – Volkeynos milliy parki	Gavayi shtati	1916	1987
18	Universitet va Montichili uy-joyi	Virjiniya shtati, Sharlotsvill shahri	XVIII - XIX asrlar	1987
19	Taos-Pueblo hindular turargohi	Nyu-Meksiko shtati, Taos shahri	1000 - 1450	1992

20	“Karlsbad g’orlari” milliy parki	Nyu-Meksiko shtati	1930	1995
21	Papaxanaumokuakea dengiz milliy parki	Gavayi shtati	2006	2010
22	“Poverti-poynt” monumental tuproqli inshoot	Luiziana shtati		2014
23	San-Antonio missiyalri	Texas shtati		2015

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Ilova. - 19. Hindistondagi YUNESKOning umumjahon madaniy va tabiiy merosi ob’yekti deb tan olinganlari ro’yxati (2019y).

№	Nomi	Joylashgan joyi	Ro’yxatga keirirtilgan yil
1	Agradagi Fort	Uttar-Pradesh shtati	1983
2	Adjanti g’orlari	Maxarashtra shtati	1983
3	Ellora g’orlari	Maxarashtra shtati	1983
4	Toj-Mahal	Uttar-Pradesh shtati	1983
5	Maxabalipuram shahridagi bir guruh yodgorliklar	Tamilnad shtati	1984
6	Konarakedagi quyosh ehromi	Orissa shtati	1984
7	Kaziranga milliy parki	Assam shtati	1985
8	Keoladeo milliy parki	Rajaxiston shtati	1985
9	Manas qo’riqxonasi	Assam shtati	1985
10	Goadagi ehromlar	Goa shtati	1986
11	Fatexpur - Sikri	Uttar-Pradesh shtati	1986
12	Xampi xarobalari (Vidjayanagara)	Karnataka shtati	1986
13	Kxadjura yodgorliklari	Madhya-Pradesh shtati	1986
14	Elefanta orolida g’ordagi ehromlar	Maxarashtra shtati	1987
15	Choradagi Ehromlar	Tamilnad shtati	1987, 2004

16	Pattadakal yodgorliklari	Karnataka shtati	1987
17	Sundarban milliy park	G'arbiy Bengaliya shtati	1987
18	Nanda Devi milliy parki va gullar vodiysi	Uttarakhand shtati	1988, 2005
19	Sanchidagi Buddha yodgorliklari	Madhya-Pradesh shtati	1989
20	Xamayuna qabri	Deli	1993
21	“Qutb-Minor” minorasi	Deli	1993
22	Hindistonning tog'lardagi temir yo'llari	Xaryana, Ximachal-Pradesh, Tamilnad, G'arbiy Bengaliya shtatlari	1999, 2005
23	Maxabodhi ehromi	Bixar shtati	2002
24	Bximbetkadagi qoyalar	Madhya-Pradesh shtati	2003
25	Champaner-Pavagadx arxeologiya parki	Gudjarat shtati	2004
26	Chxatrapati-Shivadji vokzali	Maxarashtra shtati	2004
27	Qizil fort	Deli	2007
28	Jantar-Mantar	Rajaxiston shtati	2010
29	G'arbiy Gatlar	Gudjara, Maxarashtra, Goa, Karnataka, Tamilnad va Kerala shtatlari	2012
30	Rajaxiston fortlari	Rajaxiston shtati	2013
31	Rani Ki Vav qudug'i	Gudjarat shtati	2014
32	Katta Himolay milliy parkining qo'riqlanadigan hududi	Ximachal-Pradesh shtati	2014
33	Le Korbyuzening arxitektura merosi: Modernizm namunasi	Chandigarx ittifoqdagi maydon	2016
34	Nalanda shahridagi Maxavixara arxeologiya ob'yekti	Bixar shtati	2016
35	Kachenjanga milliy parki	Sekkim shtati	2016

36	Tarixiy Ahmadobod shahri	Gudjarat shtati	2017
37	Mumbaydagi Viktoriya uslubida qurilgan arxitektura ansambli	Maxarashtra shtati	2018
38	Jaypur shahri	Rajaxiston shtati	2019

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Ilova. - 20. Ispaniyadagi YUNESKOning umumjahon madaniy va tabiiy merosi ob'yehti deb tan olinganlari ro'yxati (2019y)

t/r	nomi	Joylashgan joyi: provinsiyasi, shahri	Tashkil etilgan yili	Ro'yxatga kiritilgan yili
1	Algambra, Xeneralife va Albaysin	Andaluza, Granada shahri	XIV asr	1984 (1994 yil kengaytirilgan)
2	Burgoss cherkovi	Burgos, Burgos shahri	1221 - 1567 yillar.	1984
3	Kardova shahrining tarixiy markazi	Kordova, Kordova shahri	VIII - XIV asrlar.	1984 (1994 yil kengaytirilgan)
4	Eskorialedagi monostir	Madrid, Madrid shahri	1563-1584 yillar.	1984
5	Antonio Gaudining ishlari	Kataloniya, Barselona	1883-1910 yillar.	1984 (2005 yil kengaytirilgan)
6	O'rta Ispaniyaning poleolit san'ati	Basklar mamlakati	Yuqori paleolit	1985 (2008 yil kengaytirilgan)
7	Ovyeda va Asturiya qirolligi	Asturiya, Ovyeda shahri	IX - XVI asrlar.	1985 (1998 yil kengaytirilgan)
8	Avila eski shahri	Avila, Avilla shahri	X I- XIV asrlar.	1985 (2007 yil kengaytirilgan)
9	Rim akveduki bilan qadimiy Segoviya shahr	Segoviya provintsiyasi	Eramizdan oldingi I-II asr.	1985
10	Santayago-de-Kompastela shahrining eski qismi	La - Korunya provintsiyasi	XI asr	1985
11	La-Gomera orolidagi Garaxoniy	Kanar orollari, Santa-Krus -	—	1986

	milliy parki	Tenerife		
12	Tarixiy shahar Taledo	Taledo provintsiyasi	Eramizdan oldingi 192 yil	1986
13	Mudexar uslubdagi arxitektura	Saragosa, Teruel shahri	XII asr.	1986 (2001 yil kengaytirilgan)
14	Kaseres shahrining eski qismi	Kaseres, Kaseres shahri	Eramizdan oldingi 25 yil.	1986
15	Seviliya kompleksi (arxiv, ehrom, Alkasar)	Sevilya, Sevilya shahri	XIV - XVI asrlar.	1987
16	Salamanka shahrining eski qismi	Salamanka, Salamanka shahri	Eramizdan oldingi III asr.	1988
17	Poblet monastiri	Kataloniya, Tarragona	XII asr.	1991
18	Merida shahrining arxeologik ansambli	Badaxos provintsiyasi	Eramizdan oldingi 25 yil.	1993
19	Muqaddas Yakov va Santyago – de Kompostela yo’li	Aragon, Navarra	—	1993 (2015yil kengaytirilgan)
20	Santa-de-Mariya Guadalupe qirollok monastiri	Kaseres provintsiyasi	XIII asr	1993
21	Donyana milliy parki	Uelva provintsiyasi	—	1994
22	Tarixiy shahar Kuenka	Kuenka provintsiyasi	XII - XVII asrlar.	1996
23	Lonxa-de-la-Seda	Valensiya, Valensiya shahri	1482 - 1548 yillar.	1996
24	Rim imperiyasi- ning Las-Medulas oltin konlari	Leon provintsiyasi	Eramizning I asri.	1997
25	Pireneyadagi Monte-Perdido tog’li rayoni	Uesko provintsiyasi	—	1997 (1999 yil kengaytirilgan)
26	San-Milyan-de-la-	La-Rioxa	VI asr	1997

	kogolyadagi Yuso va Suzo monastirlari		o'rtalari	
27	San-Po kasalxonasi va katolan musiqasi qasri	Barselona, Barselona shahri	XX asr boshi	1997
28	O'rta yer dengizi qirg'oqlaridagi toshlardagi rasmlar	Valensiya, Mursiya	Eramizdan taxminan 5500 yil oldin.	1998
29	Dunyoda birinchi universitet shaharchasi Alakade-Enares	Madrid	IX—XVI asrlar	1998
30	Ivisa shahri va oroli	Ivisa, Belear orollari	—	1999
31	San-Kristobel-de-la-Laguna shahri	Kanar orollari, Santa-Krus-de-Tenerife	XVI-XVIII asrlar.	1999
32	Tarrako arxeoloik kompleks	Kataloniya, Tarragona	Eramizdan oldingi I asr.	2000
33	Atapuerko tog'laridagi g'orlar	Burgos provintsiyasi	Bundan 1 mln. yil avval	2000
34	Val-de-Boydagi Roman cherkovlari	Lerida provintsiyasi	XI-XII asrlar.	2000
35	Elchedagi palma o'rmoni	Alikate provintsiyasi	X asr.	2000
36	Qadimgi Rim devorlari	Lugo provintsiyasi	III asr.	2000
37	Aranxuse qirollik qasri	Madrid	XVII asr	2001
38	Ubeda va Baesa shaharchalardagi renesans yodgorliklari	Xaen provintsiyasi	XVI asr	2003
39	Biskay ko'prigi	Basklar mamlakati, Portugalete	1893	2006

		shaharchasi		
40	Teyde milliy parki	Kanar, Santa-Krus-deTenerife provintsiyasi	—	2006
41	Gerkules minorasi	La-Karunya, La-Karunya shahri	II asr, XVIII asr	2009
42	Syega-Verdedagi paleolit davri san'ati	Salamanka provintsiyasi	Eramizdan 12 ming yil oldin	1998 (2010 yil kengaytirilgan)
43	Syerra-de-Tramontana madaniy landshafti	Belear orollari, Malorka	—	2011
44	Idriya va Almaden - rtutning butunjahon merosi	Syudad-Real provintsiyasi	XVII - XIX asrlar.	2012
45	Antekirdagi Dolmenlar	Malaga, Antekera shahri	Eramizdan oldingi 3 ming yillik	2016
46	Karpat va qadimiy Germaniyaning buk o'rmonlari	Kastiliya, Madrid, Navarra va boshqa ayrim davlatlar	—	2017
47	Madina az - Zahra	Kardova provintsiyasi	X asr	2018
48	Gran-Kanariya muqaddas tog'lari va Risko-Kaydodagi madniy landshaft	Las-Palmas provintsiyasi		2019

Manba: <https://ru.unesco.org/>

Ilova. – 21. Germaniyadagi YUNESKOning umumjahon madaniy va tabiiy merosi ob'yekti deb tan olinganlari ro'yxati (2019y)

t/r	nomi	Joylashgan o'rni	Yaratilgan vaqti	Ro'yxatga kiritilgan yil
1	Kafedral cherkov bosh	Shimoly Vestfaliya yeri, Axen shahri	VIII –IX asr	1978
2	Kafedral cherkov bosh	Reynland-Pfalts yeri, Shpayer shahri	XI asr	1981

3	Episkop rezidentsiyasi va qasr oldi maydon	Bavariya yeri, Vyurtsburg shahri	XVIII asr	1981
4	Visdagi cherkov	Bavariya yeri, Vis qishlog'i	XVIII asr	1983
5	Augustburg qasri va Falkenlust qo'rg'oni	Shimoly Vestfaliya yeri, Bryul shahri	XVIII asr	1984
6	Muqaddas Mariya Kafedral bosh cherkovi va Muqaddas Mixail cherkovi	Quyi Saksoniya yeri, Xildesxaym shahri	XI asr	1985
7	Trir shahrining diqqatga sazavor joylari	Reynland-Pfalts yeri, Trir shahri	I—III asr	1986
8	Ganza shaharchasi	Shlezvig-Golshteyn yeri, Lyubek shahri	XV—XVI asr	1987
9	Potsdam va Berlinning qasrlari va parklari	Brandenburg va Berlin yerlari, Potstad va Berlin shaharlari	1730-1916	1990, 1992, 1999
10	Lorshdagi monastir, kapella	Gessen yeri, Lorsh shahri	VIII -IX asr	1991
11	Rammaelsberg eski konlar, Goslar tarixiy shahar va yuqori Gatsadagi suv inshootlari	Quyi Saksoniya yeri, Goslar shahri	XV-XIX asr	1992, (2010yil kengaytirilgan)
12	Bamberg shahri	Bavariya yeri, Bamberg shahri	XII-XVIII asr	1993
13	Maylbronndagi monastir kompleksi	Baden-Vyurtemberg yeri, Maulbronn shahri	XII asr	1993
14	Kvedlinburgdagi cherkov, qasr va	Saksoniya-Anxalt yeri, Kvedlinburg	—	1994

	eski shahar	shahri		
15	Temirga ishlov beruvchi zavod	Saar yeri, Fyo'lklingen shahri	XIX-XX asr	1994
16	Messel karyeridan topilgan topilmalar	Gessen yeri, Darmshtadt-Diburg rayoni	Eramizdan 57 -36 mln yil oldin	1995
17	Kyoln bosh cherkovi	Shimoly Reyn-Vestfaliya yeri, Kyoln shahri	XIII-XIX asr	1996
18	Bauxauz va u bilan bog'liq ob'yektlar	Bavariya yeri, Veymar, Dessau, Bernau shaharlari	XX asr	1996, (2017 yil kengaytirilgan)
19	Martin Lyuterning esdalik joylari	Saksoniya-Anxalt yeri, Aysleben va Vittenberg shaharlari	XV-XVI asr	1996
20	“Klassik Veymar”	Tyuriniya yeri, Veymar shahri	XVIII-XIX asr	1998
21	Muzey oroli	Berlin yeri, Berlin shahri	XIX-XX asr	1999
22	Vartburg qasri	Tyuringiya yeri, Eyzenax shahri	XI asr	1999
23	Dessau-Vyo'rlits bog'lar qirolligi	Saksoniya-Anxalt yeri, Dessau va Vyo'rlits shaharlari	XVIII asr	2000
24	Rayxenau monastirli orol	Baden-Vyurtemberg yeri, Boden ko'lidagi orol	VIII-XI asr	2000
25	Tsolferayndagi eski ko'mir shaxtasi	Shimoly Reyn-Vestfaliya yeri, Essen shahri	XX asr	2001
26	O'rta Reyn vodiysi	Reynland-Pfalts yeri, Bingen-na-reyn va Kobleta shaharlari o'rtasidagi 65 km.	—	2002

		joy		
27	Vismar va Shtralzundlarning tarixiy markazlari	Meklenburg yeri, Vismar va Shtralzund shahrlari	XIV-XVIII asr	2002
28	Bremen ratushasi va bozor maydonidagi Roland haykali	Bremen yeri, Bremen shahri	XV asr	2004
29	Muskau parki	Saksoniya yeri, Bad-Muskau shahri yaqini	XIX asr	2004
30	Rim imperiyasining mustahkamlash inshootlari	Mamlakatning Dunay daryosidan shimoliy – g'arbga qarab ketgan 550 km.li xarobalar	II asr	1987, 2005, 2008
31	Regensburg eski shahri	Bavariya yeri, Regensburg shahri	XI-XIII asr	2006
32	Modernizm davri uylari	Berlin shahri	XX asr	2008
33	Vattenmir dengizi	Quyi Saksaniya, Shlezvig-Golshteyn yerlari va Daniya, Niderlandiya	—	2009, (2014yil kengaytirilgan)
34	Karpat va Yevropaning boshqa regionlardagi Buk o'rmonlari	Brandenburg, Gessen, Meklenburg yerlari va boshqa davlatlar	—	2007, 2011, 2017
35	Fagus fabrikasi	Quyi Saksoniya yeri, Alfeld shahri	1911-1914	2011
36	Alp etagidagi qadimiy uylar (18ta)	Bavriya, Baden-Vyurtemberg yerlari va qo'shni davlatlar	Eramizdan V - I ming yillik	2011
37	Markgraf opera teatri	Bavariya yeri, Bayroyt shahri	1744-1748	2012

38	Vilgelmsxyo'e tog' parki	Gessen yeri, Kassel shahri	1696-1866	2013
39	Korvey abbatligi	Shimoly Reyn-Vestfaliya yeri, Xyo'kster shahri	822	2014
40	Shpayxershtaddagi qadimiy pakgauza va Chikixausdagi bino	Gamburg shahri	1883-1928, 1922-1924	2015
41	Le Korbyuzening arxitektura merosi (hammasi 17 ob'yekt, 7 mamlakatda)	Baden-Vyurtemberg yeri va boshqa davlatlarda	XX asr	2016
42	Shvab Albedagi muzlik davri g'orlari va san'ati	Baden-Vyurtemberg yeri	43 000-33 000 yil oldin	2017
43	Naumburg kafedral bosh cherkovi	Saksoniya-Anxalt yeri, Naumburg shahri	1028-1260	2018
44	Xedebyudagi arxeologik landshaft	Shlezvig-Golshteyn yeri	VI-XII asr	2018

Manba: <https://ru.unesco.org/>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I mavzu. Turizm mamlakatshunosligi fanining maqsad va vazifalari.	5
1.1 “Turizm mamlakatshunosligi” kursining o’ziga xosligi, maqsadi, vazifalari va funksiyalari.....	6
1.2. Jahon iqtisodiyotida turizmning o’rni	13
1.3. Jahon mamlakatlarida turizmning rivojlanish darajasi va dinamikasi	16
1.4. Turizm mamlakatshunosligining fanlar tizimidagi o`rni	23
II mavzu. Yevropa mintaqasi mamlakatlari turizmi. Shimoliy Yevropa turizmning rivojlanishi	30
2.1. Yevropa mamlakatlari turizmi	32
2.2. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi	38
2.3. Shvetsiya mamlakatining turizm iqtisodiyoti.....	39
2.4. Finlandiya mamlakatida turizmning rivojlanish holati tahlili ...	41
2.5. Norvegiya mamlakati turizmini tahlil	44
2.6. Daniya va Islandiya mamlakatlarining turizm holati tahlili	45
III mavzu. Markaziy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	53
3.1. Markaziy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi	54
3.2. Chexiya va Slovakiya mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti....	55
3.3. Vengriya mamlakati turizmi holatini tahlili	60
3.4. Polsha mamlakatining turistik imkoniyatlari	62
3.5. Ruminiya mamlakatining turistik imkoniyatlari	64
3.6. Bolgariya mamlakatining turistik imkoniyatlari	66
IY mavzu. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	72
4.1. Belarus mamlakatining turistik imkoniyatlari tahlili	73
4.2. Boltiq bo’yi respublikalarining turistik imkoniyatlari tahlili	74
4.3. Rossiya mamlakatining turistik imkoniyatlarini tahlili	78
4.4. Ukraina mamlakatining turistik salohiyati	79
4.5. Kavkaz orti mamlakatlarining turizmi tahlili	80
Y mavzu. G’arbiy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	88
5.1. G’arbiy Yevropa mamlakatlari turizmining o’ziga xosligi	89
5.2. Germaniya davlatining turizm holati	91

5.3. Avstriya mamlakatining turizm iqtisodiyoti	100
5.4. Frantsiya mamlakatining turizm rivojlanish holatini tahlili....	103
5.5. Buyuk Britaniya turizmining o'ziga xosligi	107
5.6. Shveytsariya mamlakati turizmining rivojlanish omillari.....	111
5.7. Benilyuks mamlakatlarida turizmning o'ziga xosligi	114
YI mavzu. Janubiy Yevropa mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	127
6.1. Janubiy Yevropa mamlakatlari turizmining o'ziga xosligi.....	129
6.2. Italiya mamlakatining turizm holati.....	129
6.3. Portugaliya mamlakatining turizm holati tahlili	137
6.4. Ispaniya davlatining turizm holatini tahlili	138
6.5. Gretsiya va Shimoliy Makedoniya turizmini rivojlanish holati tahlili	142
6.6. Bosniya va Gertsegovina, Sloveniya, Xorvatiya, Albaniya, Monako, Kipr va Malta mamlakatlari turizmi	149
VII mavzu. Osiyo mamlakatlari turizmi. Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizmi	165
7.1. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida turizm harakatlarining rivojlanish dinamikasi	166
7.2. Sharqiy Osiyo mintaqasi turizmining o'ziga xosligi	172
7.3. Xitoy Xalq Respublikasi turizmini tahlili	173
7.4. Yaponiya mamlakati turizmini tahlili	183
7.5. Koreya mamlakati turizmining o'ziga xosligi	189
7.6. Tayvan mamlakatida turizmning rivojlanish holati	192
VIII mavzu. Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari turizmi.....	197
8.1. Markaziy Osiyo respublikalari turizm markazlari	199
8.2. Hindiston mamlakatining turizm potentsiali.....	203
8.3. Maldiv Respublikasining turistik salohiyati	210
8.4. Eron va Afg'oniston mamlakatlarining turizmini tahlili.....	212
8.5. Shri-Lanka, Nepal va Butan mamlakatlarining turistik salohiyati	215
IX mavzu. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizmi	226
9.1. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti ..	228
9.2. Singapur mamlakatida turizmning rivojlanish holati.....	229
9.3. Malayziya, Bruney va Indoneziya mamlakatlarida turizmning rivojlanish holati	232

9.4. Tailand va Filippin mamlakatalarida turizmning rivojlanish holati.....	240
9.5. Vyet Nam, Laos, Kombodjo mamlakatlari turizmining rivojlanish holati.....	246
X mavzu. Janubiy – G’arbiy Osiyo mamlakatlari turizmi	254
10.1. Janubi-G’arbiy Osiyo mamlakatlari turizmining xususiyatlari	255
10.2. Saudiya Arabistoni va Yaman mamlakatlari turizmining xususiyatlari	260
10.3. Turkiya mamlakatining turistik salohiyati	264
10.4. BAA, Baxrayn va Qatar mamlakatlari turizmi	269
10.5. Iordaniya, Livan va Izroil mamlakatlarining turistik salohiyati Iordaniya	277
XI mavzu. Amerika mamlakatlari turizmi. Shimoliy Amerika mamlakatlarida turizmning rivojlanishi	288
11.1. Amerika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi	289
11.2. Amerika Qo’shma Shtatlari turizmi xususiyatlari.....	295
11.3. Kanada davlatining turizm iqtisodiyoti	303
11.4. AQSh va Kanadaning milliy parklari.....	306
XII mavzu. Markaziy Amerika mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	314
12.1. Meksika mamlakatining turizm iqtisodiyoti	315
12.2. MezoAmerika mamlakatlari turizmining o’ziga xosligi	318
12.3. Dominika va Gaiti mamlakatlari turizmining o’ziga xosligi	329
12.4. Kuba turizmining o’ziga xosligi.....	332
12.5. Bagam orollari, Grenada hamda Antigua va Barbuda mamlakatlari turizmining o’ziga xosligi	333
XIII mavzu. Janubiy Amerika mamlakatlarida turizmning rivojlanishi.....	343
13.1. Janubiy Amerika turizmining o’ziga xosligi	344
13.2. Braziliya mamlakatining turizm salohiyati	345
13.3. Chili, Boliviya va Ekvador mamlakatlari turizmi tahlili.....	349
13.4. Argentina va Paragvay mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti.....	353
13.5. Venesuela va Gayana mamlakatlarining turizm iqtisodiyoti	356
XIV mavzu. Afrika mamlakatlari turizm.....	363
14.1. Afrika mintaqasi turizmining rivojlanish dinamikasi	365

14.2. Misr Arab Respublikasi va Jazoir mamlakatlari turizm tahlili	370
14.3. Tunis va Marokash mamlakatlari turizmi tahlili	376
14.4. G'arbiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili	381
14.5. Janubiy Afrika mamlakatlari turizmi tahlili	392
14.6. Sharqiy Afrika mamlakatlari turizmi xususiyati	402
14.7. Mavrikiy va Seyshel orollari turizmi xususiyati	406
XV mavzu. Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari turizmi.....	414
15.1. Avstraliya mamlakati turizmi tahlili	415
15.2. Yangi Zelandiya mamlakati turizmi tahlili	422
15.3. Vanuatu, Fiji, Nauru va Pitkern mamlakatlarining turizmi tahlili	425
15.4. Papua-Yangi Gvineya mamlakati turizmi.....	434
Adabiyotlar ro'yxati	441
Ilovalar.....	447

MUALLIF HAQIDA MA`LUMOT

Buxoro Davlat universiteti "Turizm va mehmonxona xo`jaligi" kafedrası professori, iqtisod fanlar nomzodi.

1957 yil Buxoro shaqrida tug`ilgan. 1974 - 78 yillar Toshkent xalq xo`jaligi institutining iqtisod - reja mutaxassisligida o`qigan. 1980 yildan beri pedagoglik faoliyatini olib bormoqda. "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Xalqaro turizm" fanlaridan hamda "Turistik erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish" maxsus kurslaridan dars beradi. Turizm magistratura mutaxassisligi talabalariga "Turizmologiya" va "Turizm mamlakatshunosligi" fanlaridan dars beradi.

1987 yil "Iqtisodiyotda iqtisodiy siljishlar samaradorligini hisoblash" mavzusida kandidatlik dissertatsiyasini yoqlagan. Makroiqtisodiyot fanidan 2004 yilda kirillitsada, 2006 yilda lotin grafikasida ikki qismli ma`ruza matnlarini chop ettirgan. 2008 yilda "Zonal siysat" nomli doktorlik monografiyasi chiqargan, ushbu monografiyada turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish borasida ancha ishlarni qilgan. Undan tashqari ikkita monografiya hamda ikkita darslik, ko`plab uslubiy qollanma va ko`rsatmalar tayorlagan.

HAMROEV HALIM ROZIQOVICH

TURIZM MAMLAKATSHUNOSLIGI

Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 08.06.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 30,7. Adadi 100. Buyurtma №258.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26

